

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI



“BANK ISHI” KAFEDRASI

“BANK ISHI”

fanidan

MA’RUZALAR MATNI

Bilim sohasi:	200 000	- Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq
Ta’lim sohasi:	230 000	- Iqtisod
Mutaxassislik:	5230700	- Bank ishi
	5111000	-Kasb ta’limi (5230700-Bank ishi);

TOSHKENT – 2017 y

Kirish

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida O‘zbekiston bank tizimi ishonchliligi va barqaror rivojlanishini ta‘minlash hamda tashqi inqiroz holatlarining salbiy ta‘siriga uchramaslikning oldini olish muhim ahamiyatga egadir. Shunga qaramasdan, hozirgi kunda banklarda bozor talablariga mos keluvchi xizmat turlarini tadbiq qilish, mijozlarning talab va takliflarini hisobga olish, ularga xizmat ko‘rsatishning yangi usullarini joriy etish, yangi kredit vositalarini qo‘llash, turli kredit institutlarini tashkil etish bilan bog‘liq islohotlarni yanada jadaddashtirish zarurligini yuzaga keltirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini yuqori va barqaror sur‘atlarda o‘shini va raqobatbardoshligini ta‘minlash mamlakat bank tizimining va uning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan tijorat banklari faoliyatining barqarorligini ta‘minlash zaruriyatini yuzaga keltiradi. Bu esa “Bank ishi” fanini o‘rganishga nisbatan yangi talablarni qo‘yadi.

Ushbu majmuada tijorat banklari faoliyatining barcha soha va yo‘nalishlari, xususan, banklarning aktiv va passivlari, likvidliligi, to‘lovga qobilligi va moliyaviy barqarorligi, tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish masalalari o‘z aksini topgan.

“Bank ishi” fanining maqsadi bo‘lib, talabalarda tijorat banklari tomonidan mijozlarga ko‘rsatilayotgan moliyaviy xizmatlar, banklarning likvidliligi, to‘lovga qobilligi, moliyaviy barqarorligini ta‘minlash yo‘llari, Markaziy bank tomonidan tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish bo‘yicha chuqur bilim va ko‘nikmalarni hosil qilishdan iborat.

Bu fanning maqsadi va vazifasi talabalarni bank tizimida mustaqil faoliyat yuritishga tayyorlash va hozirgi sharoitda mustaqil qarorlar qabul qilish ko‘nikmasini vujudga keltirishdan iboratdir.

“Bank ishi” fani bank tizimi uchun iqtisodchi bankirlarni tayyorlashda etakchi maxsus ixtisoslik fani hisoblanadi. Unda bank ishining aniq masalalari, bozor iqtisodiyoti sharoitida kreditni rivojlantirish qonuniyatlari, kreditning asosiy tamoyillari asosida xo‘jalik sub‘ektlarini kreditlash, kredit resurslari va kreditlarni boshqarish asoslari, mijozning kreditga layoqatliligi, likvidliligi, tijorat banklarining likvidligi, foydasi, valyuta va boshqa operatsiyalarini, banklarning foiz siyosati va risklari kabi masalalar ko‘rib chiqiladi.

Bank ishi fani Toshkent Moliya Institutini Kredit-iqtisod fakulteti 3-4 kurs talabalariga asosiy mutaxassislik fani sifatida o‘qitiladi.

“Bank ishi” fani institutda o‘rganiladigan boshqa iqtisodiy fanlar bilan uzviy bog‘liqdir. “Bank ishi” fanini chuqur va mukammal egallab olish uchun talabalar quyidagi fanlar bo‘yicha bilimlar olishlari zarurdir: “Pul, kredit va banklar”, “Bank statistikasi”, “Pul-kredit orqali muvofiqlashtirish”, “Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari”, “Bank auditi”, “Banklarda buxgalteriya hisobi va operatsion texnika”, “Moliyaviy va boshqaruv tahlili”, “Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish”, “Bank menejmenti va marketingi” va boshqalar.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan tijorat banklarining bajarayotgan operatsiyalari va ko‘rsatayotgan xizmat turlari hamda ajratayotgan kreditlari iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim ahamiyatiga ega. O‘z navbatida, iqtisodiyotda tarmoqlarini

rivojlantirishda bank tizimi asosiy bo'g'indir. SHunga ko'ra, bank ishi faoliyatida ish yuritadigan mutaxassislariga alohida talablar qo'yiladi. Bank ishi fani asosiy ixtisoslik fani hisoblanib, iqtisodiyot bo'g'imining ajralmas qismi hisoblangan bank timiziga kadrlar etkazib berishda muhim rol o'ynaydi.

Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar va virtual stendlardan foydalaniladi. Ma'ruza va amaliy mashg'ulot darslarida mos ravishdagi ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

Talabalarning "Bank ishi" fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish muhim ahamiyatga egadir. SHuningdek, fanni o'zlashtirish jarayonida kompyuter texnikasidan foydalangan holda ba'zi tijorat banklar faoliyatida qo'llaniladigan mijozlarni kreditlash va loyihalarni moliyalashtirish, xo'jalik sub'ektlari o'rtasida hisob-kitoblarni olib borish bilan bog'liq kompyuter dasturlari bilan tanishadilar. Fanning ba'zi mavzularini yoritishda audio va video texnikadan foydalaniladi.

1-mavzu: Bank ishi fanining predmeti va vazifalari.

Reja:

1. "Bank ishi" fanining predmeti va metodi.
2. Fanning boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqligi.
3. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida fanning maqsadi va vazifalari.
4. Fanning tarkibiy tuzilishi.

«Bank ishi» fani kadrlar tayyorlash bo'yicha Davlat ta'lim standartlarida belgilangan talablar asosida ishlab chiqilgan namunaviy o'quv dastur bo'yicha o'qitiladi.

Fanni o'qitishning predmeti - bank tizimi va banklar faoliyati bilan bog'liq jarayonlar, metodlari - klassik yondashuv, matematik, analitik-statistik, tahlil, qiyosiy-tahlil va boshqa usullar hisoblanadi.

Bank ishiga ilmiy-amaliy taraqqiyotni o'zida mujassamlashtiruvchi fan sifatida qarash mumkin. Hozirgi kundagi banklar oldingi banklardan ko'ra, ilg'or, yangi shakllarda va yangi texnologiyalar asosida iqtisodiyotning talablariga mos keluvchi operatsiyalar qo'llash orqali faoliyat olib bormoqdalar.

talabalar fanni o'rganish davrida har bir o'tiladigan mavzu bo'yicha o'qituvchi tomonidan so'raladigan "tayanch" ibora, test savollariga javob berib, tegishli masalani echa olishi; o'qish davrida yozma nazorat ishlarini bajarishi va referatlar tayyorlashi; fanni o'zlashtirish natijasida va kelajakda talaba bank faoliyatida bo'ladigan o'zgarishlarni tahlil qilishni bilishi lozim.

«Bank ishi» mustaqil fandır. Chunki u o'zining mustaqil predmeti, ob'ekti va metodiga ega. u:

- bank faoliyatining huquqiy asoslari;
- banklarni tashkil etish va ularning faoliyatini tugatish tartibi;
- bank faoliyatini tartibga solish;
- banklarning huquq va majburiyatlari;
- banklarga vasiylik qilish tartibi;
- banklarning moliyaviy ahvoli;
- bank operatsiyalarini amalga oshirish tartiblari;
- pul tizimi hamda pul muomalasini tashkil etish qoidalari;
- valyutani tartibga solish va xalqaro rezervlarni boshqarish;
- banklarni nazorat qilish;
- banklarda hisob yuritish va hisobot;
- bank menejmenti;
- bankning rivojlanish tarixi kabi masalalarni o'rganuvchi fandır.

Aynan shular «Bank ishi» fanining **predmeti** bo'lib hisoblanadi. Bank va uning turli ko'rinishlari «Bank ishi» fanining o'rganish **ob'ekti** bo'lib hisoblanadi.

Har qanday fan o'z ob'ektini ma'lum usullarni qo'llash yordamida o'rganadi. Bank faoliyati, undagi sir-sinoatlarni ilmiy asosda o'rganish, tahlil qilishda «Bank ishi» fani quyidagi **usullardan** foydalanadi

Ilmiy jihatdan asoslangan tahlil qayd qilingan usullarni chambarchas ravishda bog‘lab olib borilishini taqozo etadi.

3.«Bank ishi» fanining tahlil usullari

t/r	Tahlil usullari	Mazmuni
1.	Tizimli yondoshuv	bank tizimi yaxlit tarzda olib qaraladi. Bu yondoshuv turlicha bo‘lishi mumkin: tizimli-kompleks yondoshuv, tizimli-funksional yondoshuv, tizimli-tarkibiy yondoshuv, tizimli-kommunikatsion yondoshuv.
2.	Kompleksli yondoshuv	bank tizimi boshqa ob’ektlar bilan o‘zaro bog‘lanishda va aloqadorlikda qaraladi.
3.	Tarkibiy yondoshuv	bank tizimi tarkibiy qismlarga bo‘lib o‘rganiladi.
4.	Vaziyatli yondoshuv	bank tizimining muayyan sharoitdagi ichki va tashqi vaziyatiga qarab tegishli ma’qul usul qo‘llaniladi.
5.	Integratsion yondoshuv	bank tizimi yukoridagi usullar (vaziyatli, kompleksli, tarkibiy yondoshuvlar)ni birgalikda qo‘llash yordamida tahlil
6.	Modellashtirish Usuli	bank tizimini tahlil qilish uchun turli chizmalar, modellar, xomaki materiallar tayyorlanadi.
7.	Iqtisodiy matematik yondoshuv	maqbul qaror qabul qilish maqsadida matematik uslublar keng qo‘llaniladi.
8.	Kuzatish usuli	bank tizimi to‘g‘risidagi ma’lumotlar rejali, ilmiy, uyushtirilgan asosda to‘planiladi.
9.	Tajriba usuli	tahlil jarayonida bank tizimiga nisbatan namunaviy tajribadan o‘tgan usullar qo‘llaniladi.
10.	Sotsiologik kuzatuv usuli	turli anketali so‘rovlar, suhbatlar, testlar, infratuzilmaviy tahlillar o‘tkaziladi.

Bank faoliyatini tashkil qilish va bank tarkibi. Banklarning bajaradigan vazifalari va ko‘rsatadigan xizmatlari hajmi ularning katta-kichikligiga hamda ustav kapitalining hajmiga bog‘liq. Ular uch xil bo‘ladi: mayda, o‘rta va yirik banklar (ustav kapitalining hajmiga qarab bo‘lishi mumkin).

Kichik va o‘rta banklar asosan mayda va o‘rta hajmdagi xo‘jalik sub’ektlariga xizmat ko‘rsatib, bu banklarning asosiy vazifasi xususiy shaxslardan depozitlarga mablag‘larni qabul qilib olish, mayda korxonalariga turli kreditlar va qarzlarni berishdan iborat. Bunday banklar quyidagi tashkiliy chizmaga ega.

Kichik va o'rta banklar faoliyatini rahbarlar (direktorlar) Kengashi nazorat qiladi va bank rahbari muntazam ravishda rahbarlar (direktorlar) Kengashi oldida hisobot berib boradi. Mayda va o'rta banklar faoliyatining yaxshi-yomon bo'lishi ular joylashgan hududga hamda mijozlar sifatiga bog'liqdir. Bunday banklar asosan juda yuqori bo'lmagan tavakkalchilik bilan ishlaydilar.

Yirik banklarning tuzilishi mayda banklar tuzilishidan umuman farq qiladi.

Ular odatda bank-xolding kompaniyalariga, ya'ni bir nechta yirik banklar va moliya institutlari uyushmasiga bo'ysinadi. Ularning aksiyadorlari aksiyadorlar Kengashini saylaydilar va bu Kengash bank-xolding kompaniyalariga qarashli moliya institutlari ustidan nazorat olib boradi. Bank-xolding kompaniyasi Kengashining bir nechta a'zolari bu kompaniyaga qarashli banklar Kengashlarining a'zolari ham bo'lishlari mumkin.

Yirik banklarning eng katta muammosi - boshqarish muammosidir: rahbariyat o'zining banki faoliyati haqida to'liq ma'lumotlarga ega bo'ladi, lekin bo'limlar faoliyatlari bilan yaxshi tanish bo'lmaydilar. Bank xizmatlari keng qamrovli bo'lganligi tufayli mavjud jiddiy muammolar haftalar, hatto oylar davomida sezilmasligi mumkin. Yirik banklarning mayda banklardan ustunligi shundaki, ular turli va ko'p sonli mijozlarga, bozorlarga xizmat qiladilar.

«Holding» so'zi ingliz tilidan kirib kelgan bo'lib, «egalik qilish» ma'nosini anglatadi. Holding kompaniyalari turli moliyaviy sub'ektlarni birlashtirish maqsadida tuziladi. Ushbu sub'ektlarni boshqarish huquqini olish, shu sub'ektlar aksiyalarining nazorat paketini sotib olish orqali amalga oshiriladi.

Bank xoldingining ikki turi bor: sof xolding - faqat maxsus nazorat va boshqaruv maqsadlarida tuziladi; aralash xolding - nazorat va boshqaruv vazifalari bilan birga sanoat, savdo, transport, kredit-moliya va boshqa sohalarda tadbirkorlik faoliyati bilan ham shug'ullanadi.

Amaldagi qonunchilikka asosan, ta'sischi yangi bank ochish uchun Markaziy bankdan dastlabki ruxsatnomani olganlaridan keyin, ta'sis shartnomasini tasdiqlaydilar. SHundan so'ng, bir oy muddat ichida bank ochishga ruxsat so'rab Markaziy bankka quyidagi hujjatlar to'plamini taqdim qiladilar:

- muassislar tomonidan imzolaniib, muhr bilan tasdiqlangan uch nusxadagi ta'sis shartnomasi (asli va ikki nusxasi). Muassislar imzosi va ta'sis shartnomasi notarius tomonidan tasdiqlangan bo'lishi lozim;
- muassislar majlisida tasdiqlanib, ular tomonidan imzolangan bank Ustavi-uch nusxada;
- bankni tashkil etish to'g'risida, Ustav sarmoyasi hajmi haqida, bank Ustavini tasdiqlash haqida hamda bank kengashi, taftish komissiyasi va bank Boshqaruvini saylash to'g'risidagi qaror qayd etilgan muassislar majlisi bayonnomasi. Bu hujjat nusxalari bank kengashi raisi tomonidan tasdiqlangan bo'lishi lozim.

Muassislar haqida quyidagi ma'lumotlar keltiradi:

- muassislar ro'yxati; ularning to'liq nomi, manzili, telefon raqami, to'lov rekvizitlari, ustav kapitaliga ulushi, shu jumladan, foiz hisobida.

Bankni tashkil qilishda ovoz berish huquqiga ega aksiyalarning 5 foiziga ega muassislardan quyidagi ma'lumotlar talab qilinadi:

- jismoniy shaxslar bo'yicha: mutaxassisligi va kasbi to'g'risida to'liq axborot, shu jumladan, yashash joyi, telefon raqami, mazkur vaqtgacha ishlagan yoki aksiyador bo'lgan korxonalar va muassasalar nomi, so'nggi ikki yil uchun soliq deklaratsiyasi (jismoniy shaxs - rezidentlar bundan mustasno), shaxsiy balans qaydnomasi;

- yuridik shaxslar bo'yicha: nomi, davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi hujjat, manzili, telefon raqami, to'lov rekvizitlari, agar o'z aksiyasiga ega bo'lsa, ularning soni, shuningdek, foiz hisobida, soliq nazorati va auditor firmasi tomonidan tasdiqlangan so'nggi ikki yillik balans hisoboti.

Yangi tashkil etilayotgan bank Kengashi a'zolari, uning raisi va o'rinbosarlarining ismi-shariflari, yashash joylari, egallaydigan lavozimlariga Markaziy bank tomonidan qo'yiladigan talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi ma'lumotlar bitilgan ro'yxat.

Banklar moliya tizimida mablag'larni iste'molchilarning talabi, ehtiyoji va imkoniyatiga ko'ra kreditlar berish bilan shug'ullanadilar, shuningdek, faoliyatlarini tartibga solib turuvchi «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida», «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunlar va boshqa ko'pgina me'yoriy hujjatlarga bo'ysunishlari lozim.

Yangi tashkil qilinayotgan har qanday bank O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ruxsatnomasiz o'z faoliyatini boshlay olmaydi.

Banklar faoliyatini davlat tomonidan muvofiqlashtirib turish zaruriyati quyidagilar bilan izohlanadi:

1. Banklar jamoatchilik mablag'larining eng ishonchli saqlanadigan joyidir. Lekin o'z mablag'larini saqlash xohishiga ega bo'lganlarning ko'pchiligi bankning ishonchligini baholashda va moliyaviy masalalarda etarli ma'lumotga ega emaslar. Shu tufayli, banklar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi organlar banklar moliyaviy holatini tahlil qilish uchun kerakli bo'lgan barcha ma'lumotlarni to'plashga mas'uldirlar. Bu bilan ular omonatchilarni himoya qilib, ularning moddiy zarar ko'rishlarining oldini oladilar.

2. Davlat tomonidan vaqti-vaqti bilan amalga oshiriladigan taftishlar natijasida bank mablag'larini noqonuniy sarf qilinishi, firibgarlik, qalloblik, birovning haqiga xiyonat qilish va suiste'molliklarning oldini oladilar.

3. Omonatchilar qo'yilmalarining asosiy qismi qisqa muddatli depozitlardan iborat bo'ladi. Shu bilan birga banklar yirik hajmdagi uzoq muddatli kredit berish va mablag'larni investitsiyalarga yunaltirish bilan ham shug'ullanadilar. Bu o'z navbatida banklarni o'z omonatchilari oldida juda ayanchli ahvolga solib qo'yishi mumkin. Bu o'rinda banklar faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish, boshqarishni ta'minlash imkonini beradi.

4. Banklar arzon narxdagi depozitlarni kreditlarga yo'naltirish bilan mamlakat iqtisodiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatadilar, chunki jamg'arilgan pul massalari iqtisodiyot bilan chambarchas bog'langan bo'lib, pulning qadrsizlanishining oldini oladi yoki unga imkoniyat yaratib beradi. Shuning uchun nazorat organlarining muomaladagi pul hajmini nazorat qilishi o'ta muhimdir.

5. Banklar xususiy shaxslarning iste'mol va investitsiya ehtiyojlarini qondirish uchun mablag'larni kreditga beradilar. Banklarning bu faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish va tartibga solishning ahamiyati shundaki, xususiy shaxslar manfaatlari himoya qilinadi va ularning hayot tarzi yaxshilanishi uchun imkoniyat yaratiladi. Bizning mamlakatda kishilarning yoshi, jinsi, millatiga va irqiga qarab kredit berish yoki bermaslikni hal qilish qattiq taqiqlangan.

Nima uchun banklarning faoliyati davlat tomonidan qattiq nazorat qilinadi? Buning sababi shundaki, banklar azaldan xalqning, avvalo, xususiy shaxslar va oilalarning mablag'lari saqlanadigan joydir. Davlat banklar ishini nazorat ostiga olib va tartibga solish orqali hamisha omonatchilar va kreditorlarni moliyaviy yo'qotishdan himoya qilishga va banklarning inqirozga yuz tutishi tufayli kelib chiqadigan oqibatlardan saqlashga harakat qiladi.

Bir bankning inqirozga uchrashi tufayli o'nlab va yuzlab korxonalar, ko'p minglab oddiy omonatchilar juda qiyin moliyaviy ahvolda qolishlari mumkin.

Bankning operatsiyalari va taklif qilinayotgan xizmat turlari, kreditlarning sifati va miqdori, bank sarmoyasining etariligi, mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati doimo nazoratchilar tomonidan puxta tekshiriladi.

Banklar kreditlar berish yoki to'sqinliksiz sarf qilinadigan depozitlar hisobiga o'z investitsiya faoliyatlarini amalga oshirish yo'li bilan pul ishlash imkoniyatiga ega bo'lganliklari tufayli ham qattiq nazorat ostida bo'ladilar. Tosil qilinayotgan pul miqdorining o'zgarishi iqtisodiyot holatiga ta'sir ko'rsatadi, ya'ni pul qadrsizlanishining kuchayganligi yoki ortganligi aniqlanadi.

Banklar ustidan kuchli nazorat borligining yana bir sababi shuki, ular xususiy shaxslar va firmalarga kreditlar beradilar va bu yo'l bilan iste'mol xarajatlarini va investitsiya talablarini qondiradilar.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi banklar tizimi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksiga, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlariga, Vazirlar Maxkamasining qarorlariga va xususan, «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi va «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunlarga amal qiladi.

«O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi qonun 1995 yil 21 dekabrda, «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonun esa 1996 yil 25 aprelda Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan.

«O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi qonun 9 bobdan tashkil topgan bo'lib, 60 ta moddadan iborat.

Bu qonunda Markaziy bankning huquqiy maqomi, bosh maqsadi va asosiy vazifalari, hisobdorligi, mustaqilligi, tashkiliy tuzilishi, hukumat organlari bilan munosabatlari, moliyaviy ahvoli, boshqaruvchining vakolatlari, pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlari, tijorat banklarini qayta moliyaviy ta'minlash, valyutani tartibga solish, bajaradigan operatsiyalar, majburiy zaxira talablari, banklarni nazorat qilish va ular faoliyatini tartibga solish vakolatlari, tijorat banklariga nisbatan qo'llaydigan chora va sanksiyalar va banklar bilan o'zaro munosabatlar belgilangan.

Markaziy bank me'yoriy hujjatlar va yo'riqnomalarni ishlab chiqish huquqidan to'liq foydalangan holda, bu yo'nalishda o'z faoliyatini juda faollashtirmoqda. Markaziy bank tomonidan hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi bank tizimidagi banklar faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlar to'plami tayyorlangan bo'lib, bu to'plam Respublika banklarida bank hisob varaqlarini ochish tartibi, banklarni ro'yxatga olish va ularning faoliyatini litsenziyalash, banklarning chet el valyutalari bilan bajaradigan operatsiyalari, hisob-kitoblarni amalga oshirish, faktoring, moliyaviy lizing, konsalting operatsiyalarini amalga oshirish, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni bajarish tartiblari va boshqalarni o'z ichiga oladi. «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonun 6 bobdan va 44 moddadan tashkil topgan.

Bu qonunda bank faoliyatining sub'ektlari va ular faoliyatining huquqiy asosi, banklar operatsiyalari, banklarni tashkil qilish va tugatish, banklarning mustaqilligi, davlat va banklarning mas'uliyatini chegaralab qo'yilishi, ularning pul mablag'larini zaxiralash va umumiy iqtisodiy me'yorlarga rioya qilish sohasidagi burchlari, bankka aloqador shaxslar bilan tuziladigan bitimlardagi chegaralar, banklarning hisobot va boshqa axborotlarni taqdim etish majburiyatlari, banklarning o'z mijozlari oldidagi javobgarligi, banklarda hisob-kitob va ularni nazorat qilish tartiblari belgilangan.

«Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunga ko'ra, banklar aksiyadorlik jamiyati tarzida tashkil qilinadi. Bank ustavida bankning (to'la va qisqartirilgan) nomi va manzili, operatsiyalari ro'yxati, boshqaruv organlari, ularni tashkil qilish tartibi, bank auditini o'tkazish tartibi ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

2-mavzu: O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi va boshqa kredit muassasalari

Reja:

1. Banklar, bank tizimi va uning rivojlanish bosqichlari.
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining vazifalari va funksiyalari.
3. Tijorat banklarining funksiyalari va operatsiyalari.
4. AQSH bank tizimi, FZT uning maqsadi, vazifalari.

1. Banklar, bank tizimi va uning rivojlanish bosqichlari.

Dastlabki banklar qachon va qanday paydo bo‘lganligini aniqlash ancha qiyinchilik tug‘diradi. Gap shundaki, hozirgi davrda banklar faoliyati xususiyatidan kelib chiqib turlicha bo‘lgan operatsiyalarni bajaruvchi universal moliyaviy tashkilotlarni o‘zida namoyon qiladi. Masalan, birinchi darajali toifaga kiruvchi chet el banklari o‘z mijozlariga 300 dan ortiq turli xil xizmatlarni ko‘rsatadilar. Bu operatsiyalarning va xizmatlarning barchasi bir vaqt va bir joyda paydo bo‘lmaganligi sababli ham bank ishining “boshlang‘ich” nuqtasini aniqlash aniq tadqiqotlar olib borishni va ular asosida ma‘lum bir fikrlarni mujassamlashtirishni talab qiladi. Banklarning paydo bo‘lishi tarixi bo‘yicha ba‘zi bir fikrlar to‘g‘risida siz tushunchaga egasiz.

Banklar faoliyatining eng “qadimgi” operatsiyalari bo‘lib, pullarni saqlab berish bo‘yicha operatsiyalar hisoblanadi. Ma‘lumki, eng qadimgi davlatlarda ham omonatlarni qabul qilish operatsiyalari mavjud bo‘lgan. Ilk bor bunday ish bilan ma‘lum obro‘ga va ishonchga ega bo‘lgan puldor shaxslar, Evropa mamlakatlarida cherkov muassasalari shug‘ullanganlar. Masalan, mashhur grek ehromlari (masalan, Delfiya, Efes ehromlari) bir paytning o‘zida o‘ziga xos bank muassasalari bo‘lib xizmat qilgan. Yillar o‘tishi bilan o‘sha qadimgi davrlardan boshlab, ayrim hollarda qo‘yilgan pul yoki mulk bo‘yicha foizlar ham hisoblangan. Banklarning kelib chiqishiga bag‘ishlangan mavjud adabiyotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, banklarning paydo bo‘lishining asosiy yoki boshlang‘ich zamini birinchidan, pul mablag‘larini saqlab berish bo‘lsa, ikkinchidan, pul mablag‘larini almashtirib berishdan iborat ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Pul ayrboshlash bo‘yicha ehtiyoj alohida paydo bo‘lgan. Bunda Evropani yorqin misol qilib ko‘rsatish mumkin. O‘rta asrlarda tangalarning yagona tizimi mavjud bo‘lmagan. Savdo turli mamlakatlar, shaharlar, hatto alohida shaxslarning tangalari orqali olib borilgan. Barcha tangalar turli vazn, shakl va nominalga ega edilar. SHuning uchun tangalar bilan shug‘ullanuvchi va ayirboshlashni olib bora oladigan mutaxassislar o‘z ayirboshlash stollari bilan qizg‘in savdo ketayotgan joylarga joylashishgan. SHu bois, “bank” so‘zi italyanacha “banco” - ayirboshlovchining oldidagi stol degan ma‘noni anglatuvchi so‘zdan kelib chiqqan. Bunga o‘xshash operatsiyalar bundan ancha avvalgi davrlarda qadimgi Gretsiya, Rim, SHarqda amalga oshirilar edi.

Pulni saqlash va ayirboshlash bo‘yicha operatsiyalar bilan shug‘ullanuvchi shaxslar yig‘ilgan boyliklar - pullar samarasiz, harakatsiz yotganini tushunishar va agar mavjud mablag‘larning hech bo‘lmaganda bir qismini bo‘lsa ham vaqtinchalik foydalanishga berilsa, sezilarli foyda olish mumkinligini bilishar edi. SHunday qilib, garov asosida pullarni ma‘lum muddatga qaytarish va foiz to‘lash shartlari bilan berishayotgan ssuda

(kredit) operatsiyalari paydo bo'lgan. Bunda garov sifatida uylar, kemalar, qimmatbaho buyumlar, chorva mollari, qullar qabul qilingan.

Bir bank, aniqrog'i pulni saqlab beruvchi xizmatlaridan bir-biri bilan o'zaro hisob-kitoblar bilan bog'langan bir necha shaxslar foydalanish mumkin bo'lgani uchun, asta-sekin mijozlarga hisob-kitob xizmatini ko'rsatish operatsiyalariga ehtiyoj paydo bo'la boshladi. Dastavval ular quyidagicha amalga oshirilar edi. Har bir omonatchi pulni saqlab beruvchida uning ismi yozilgan jadval shaklidagi o'z hisob varaqasiga ega bo'lgan. Bu jadvalda pullarning harakati (kirim yoki chiqim) aks ettirilar edi. Butun operatsiyani pulni saqlab beruvchi-bankir omonatchining og'zaki yoki yozma buyrug'i bilan amalga oshirar edi. Bunda mos o'zgarishlar o'zaro hisob-kitoblarda ishtirok etuvchi shaxslar jadvallariga kiritilar edi. Bu eng sodda xizmatlar naqd pulsiz hisob-kitoblarning dastlabki shakllarini tashkil qilgan.

Barcha yuqoridagi operatsiyalar dastlab alohida mavjud bo'lgan va keyinchalik ular biz bank deb nomlashga odatlangan bir xil tashkilotlar chegaralarida birlashganlar. G'arbiy Evropada oddiy ayirboshlash idoralaridan bank uylariga o'tish jarayoni XVI-XVII asrlarda ro'y berdi.

Uzoq yillar davomida jamiyatning rivojlanishi va unga mos tovar-pul munosabatlarining o'sib, takomillashib borishi banklarning operatsiyalari va ko'rsatadigan xizmatlari ko'lamining kengayib borishiga, jamiyat a'zolarining pulga bo'lgan talabining oshib borishiga olib kelgan. Davlat, jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatini muvofiqlikda olib borish, davlat va jamiyat a'zolarining pul mablag'lariga bo'lgan talablarini qondirgan holda davlatning iqtisodiy jihatdan o'sishi va barqarorligini ta'minlash maqsadida banklar o'rtasida bajariladigan funktsiya va operatsiyalar ko'lami taqsimlana borgan, ya'ni davlat nomidan, davlat manfaatlarini himoya qilgan holda faoliyat ko'rsatuvchi banklar va alohida jamiyat a'zolari bilan ishlovchi banklar yoki yuqoridagi ikki yo'nalishni ham o'zida mujassamlashtirgan banklar (oxirigisiga Sobiq Sovetlar davridagi Davlat bankini kiritish mumkin) shakllana borgan.

Hozirgi zamonda jahonda umum qabul qilingan tizim bo'lib ikki pog'onali bank tizimi xizmat qiladi va u davlat Markaziy banki va tijorat banklari tarmog'ini o'z ichiga oladi.

Markaziy Bank banklarning banki sifatida bank va moliya muassasalari faoliyatining barqarorligini ta'minlaydi. Birinchi navbatda, u ko'pchilik moliya institutlari, banklarning faoliyatida moliyaviy jihatdan muammolar yuzaga kelganida, banklar omonatchilar oldidagi o'z majburiyatlarini bajara olmay qolgan holda moliyaviy sarosima paydo bo'lishining oldini olishi kerak. Bu masalani hal qilish uchun Markaziy bank, avvalo, tartibga solish va nazorat qilish funksiyalarini ikkinchi pog'ona - tijorat banklari tizimiga nisbatan bajaradi. Markaziy bank majburiyatiga tijorat banklarining har kunlik faoliyatiga aralashish kirmaydi. Markaziy bank tijorat banklarning me'yoriy boshqarilishi, ularning to'lovga qobiliyatlilik va likvidlilikini ta'minlanishini kuzatib borishi va omonatchilar manfaatlarini himoya qilishi kerak. Bularning barchasi nazorat me'yorlari tizimi yordamida amalga oshirilib tijorat banklari pog'onasiga etkaziladi.

Markaziy bank pul siyosatini o'tkazish yo'li bilan muomaladagi pul massasi ustidan nazoratni amalga oshiradi va inflyasiya, ishsizlikning past darajasini ta'minlash va

iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratishi kerak. Bunda Markaziy bank emission bank vazifasini bajaradi, ya'ni muomalaga pul belgilarini chiqarish va ularni muomaladan olish huquqiga ega bo'ladi.

Markaziy bank yana tijorat banklari o'rtasidagi hisob-kitoblarni olib borishga imkoniyat yaratadi.

Bank tizimining ikkinchi pog'onasi - bu xalq xo'jaligi va aholiga xizmat ko'rsatishda bosh bo'g'in bo'lgan mustaqil tijorat banklarning tarmog'idir. Ular yuridik va jismoniy shaxslarga shartnoma asosida turli hisob-kitob va kredit operatsiyalarini amalga oshirish va xizmatlar ko'rsatish hamda boshqa turli bank xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiradilar.

Mustaqillikka erishilgunga qadar O'zbekiston bank muassasalari Sobiq Ittifoq bank tizimi tarkibiy qismiga kirar edi. SHu bilan birga bu banklar Sobiq Ittifoq bank tizimi doirasidan tashqarida faoliyat ko'rsata olmasdilar. Bank tizimi 3 turdagi banklarni: SSSR Davlat banki, SSSR qurilish banki va SSSR Tashqi savdo bankini va Davlat Mehnat omonat-jamg'arma kassalarini o'z ichiga olardi. Sobiq Ittifoq bank tizimida Davlat banki monopoll mavqega ega bo'lib, u bir vaqtning o'zida emissiya instituti, qisqa muddatli kreditlashtirish, xo'jaliklarga hisob-kitob operatsiyalari bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi markaz hisoblanardi. Ham emissiya funksiyalarini, ham hisob-kitoblar va kreditlar bo'yicha mijozlarga xizmat ko'rsatish funksiyalarini bajarishga monopollashuvi Davlat bankini davlat boshqaruv va nazorat organiga aylantirgan edi.

Iqtisodiyotni boshqarishning markazlashtirilgan usulidan voz kechish va bozor iqtisodiyoti tomon dastlabki qadamlar qo'yilishi bilanoq markazlashtirilgan bank tizimining qator kamchiliklari ro'yobga chiqdi. Bu esa, bank tizimida tub o'zgarishlarni amalga oshirishni talab etardi.

Bank tizimini qaytadan tashkil etish 1987 yilda boshlandi. Bu jarayonda bank tizimining tashkiliy tuzilmasini o'zgartirish, banklarning rolini oshirish, iqtisodiy tizimning rivojlanishiga ularning ta'sirini kuchaytirish, kreditni harakatdagi iqtisodiy dastaklarga aylantirish ko'zda tutilgandi.

Qayta tashkil etish jarayonining birinchi bosqichi davlat bankining yangi tuzilmasini tashkil etish bilan boshlandi. Qayta tashkil etish modeli quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ikki bosqichli bank tizimini vujudga keltirish: Markaziy emission bank va bevosita xo'jaliklarga xizmat ko'rsatuvchi ixtisoslashgan davlat banklari;

- ixtisoslashtirilgan banklarni to'raligicha xo'jalik hisobiga va o'z-o'zini moliyalashga o'tkazish;

- iqtisodiy tizim doirasida yuridik va jismoniy shaxslar bilan bo'ladigan kredit munosabatlari, uslublari va shakllarini takomillashtirish va boshqalar.

Bank tizimini takomillashtirish jarayoni davomida davlat banki o'zining kredit tizimidagi markaziy o'rni saqlab qolgan holda korxonalar va tashkilotlarga kredit berish va ular bilan hisob-kitoblarni olib borish funksiyasini maxsus ixtisoslashgan banklarga topshirdi. YA'ni bankning emission faoliyatini kreditlash faoliyati bilan birga olib borish funksiyasiga chek qo'yiladi. Davlat banki ixtisoslashgan banklar faoliyatini boshqaruvchi, barcha banklar uchun bir xil pul- kredit siyosatini olib boruvchi muassasaga aylandi. Bank tizimining takomillashtirilishi natijasida vujudga kelgan maxsus ixtisoslashgan banklar: Sanoat qurilish

banki, Kommunal kurilish va Sotsial taraqqiyot banki, Agrosanoat banki, Tashqi iqtisodiy faoliyat banki, Jamg'arma banki tashkil qilinib xo'jaliklar bilan banklar o'rtasidagi aloqalar tobora yaqinlashdi, Ixtisoslashtirilgan davlat banklari o'zlarida ma'lum darajada boshqaruvchilik rolini saqlab qoldilar. Bank tizimini takomillashtirish jarayonida juda muhim natijalarga erishildi, lekin tashkil qilingan banklar iqtisodiy munosabatlarning xususiyatlarini to'liq ifoda qilolmasdi, shuning uchun ham bank tizimini yanada takomillashtirish ob'ektiv zaruriyatga aylandi.

1988 yildan boshlab, ikki bosqichli bank tizimi tashkil etila boshlandi. Lekin bu davrda, markazlashtirilgan rejalashda Markaziy bankning roli hali ham yuqori,sohalarning deyarli hamma qismi davlat tasarrufida edi.

O'zbekiston Respublikasida ikki bosqichli bank tizimini tashkil etishga real asos 1991 yil 15 fevralda "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni asosida yuzaga keldi. Bu qonunga asosan davlat boshqaruv organlari respublika Markaziy banki faoliyatiga aralashmasliklari kerak edi. U faqat Respublika Oliy majlisiga hisobot beradi. Bu qonunni amalga tadbqiq etish, asosan, Respublikamiz mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng boshlandi.

O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tishning bosqichma-bosqich yo'lini tanlaganligi bois, 1-bosqichdagi pul - kredit siyosati sohasidagi asosiy vazifalar quyidagilardan iborat qilib qo'yildi:

-Markaziy bank boshchiligida keng tarmoqli mustaqil tijorat va xususiy banklarni o'zida mujassamlashtirgan ikki bosqichli bank tizimini vujudga keltirish, respublika hududida yirik chet el banklarining bo'limlari va vakolatxonalarini ochish uchun qulay sharoit yaratish;

-barqaror pul muomalasini ta'minlash;

-kredit va naqd pul massasining asossiz o'sishini keskin cheklash;

-O'zbekiston Respublikasining milliy pulini muomalaga kiritish uchun zarur iqtisodiy va tashkiliy shart-sharoitlar, hamda imkoniyatlarini yaratish va boshqalar.

SHunday qilib, O'zbekistonda mustaqil bank tizimini yaratishning birinchi bosqichi, milliy valyutani muomalaga kiritish uchun asos yaratilgan va ikki pog'onali bank tizimining poydevori qurilgan 1991 yildan 1994 yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda mamlakatimizning mustaqil bank tizimini yaratish bo'yicha olib boriladigan tadbirlar 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi» Qonuni asosida amalga oshirildi. Mazkur qonun bozor munosabatlariga o'tish davri vazifalariga mos keluvchi bank muassasalari shakllanishini huquqiy asoslarini belgilab berdi.

Ushbu qonunga muvofiq, Sobiq SSSR Davlat bankining respublika muassasasi asosida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tuzildi va unga respublikada pul muomalasini tartibga solish, tijorat banklari tizimini vujudga keltirish va to'lov tizimini tashkil etish vazifalari yuklatildi. Xalq xo'jaligining turli sohalarini kreditlash va ularni investitsiyalash funksiyalari yangidan tashkil qilingan ixtisoslashtirilgan tijorat banklariga berildi.

Mustaqil pul va bank tizimini yaratishning **ikkinchi bosqichi** milliy valyuta muomalaga kiritilgan va ikki pog'onali bank tizimining huquqiy asoslari yaratilgan 1994-1996 yillarni o'z ichiga oladi. 1994 yilda Milliy valyuta so'mning muomalaga kiritilishi mamlakatimizda mustaqil pul va bank tizimi shakllanishining sof bosqichi hisoblanib, bu bosqichda banklar oldida turgan vazifalarga yanada aniqlik kiritildi. Bu davrda Markaziy

bank asosiy e'tiborini makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga va shu asosda iqtisodiy o'sish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratdi, mamlakatda sifat jihatidan butunlay yangi to'lov tizimini yaratish bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi.

Ixtisoslashgan tijorat banklari faoliyatini rivojlantirishda Vazirlar Mahkamasining «Bank tizimini takomillashtirish va pul-kredit munosabatlarini barqarorlashtirish bo'yicha chora-tadbirlari to'g'risida» gi 1994 yil 18 martdagi qarori muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda banklarning axborot infratuzilmasini yaratish va xalqaro bank amaliyotining ilg'or usullarini respublika bank amaliyotiga qo'llash orqali bank tizimini takomillashtira borish bo'yicha yo'l-yo'riqlar belgilab berildi. 1994 yildan boshlab yangi buxgalteriya hisobi tizimini ishlab chiqish va ularni banklarga tadbiq qilish jarayoni boshlandi.

1996 yilda Respublika Prezidentining «Bank auditi tizimini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoniga asosan bank tizimida buxgalteriya hisobining xalqaro andozalarini joriy qilish jarayoni yanada takomillashtirildi va jahonning nufuzli auditorlik kompaniyalaridan «Artur Andersen», «Deloyt end tush», «Key Pi Em Ji-(KRMG)», «Ernest end YAng», «Kupers end Laybrand» kabilar etakchi tijorat banklari faoliyatini audit qilishga taklif qilindi. Bank tizimini rivojlantirishning yana bir xususiyatli tomoni shundaki, bank tizimining huquqiy asoslarini mustahkamlash va zamon talablariga moslashtirish maqsadida «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi va «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunlarning yangi loyihasi ishlab chiqildi.

1995 yil 21 dekabrda bank faoliyatining huquqiy va me'yoriy tartibga solish qoidalarini belgilovchi «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida» va 1996 yil 25 aprelda «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunlarning qabul qilinishi bank tizimini jahon andozalariga yaqinlashtirish sohasida mustahkam qonuniy poydevor yaratdi.

Bank tizimini shakllantirishning **uchinchi bosqichi** 1997-2000 yillarni o'z ichiga olib, unda banklarni xususiylashtirish va aksiyadorlik - tijorat banklarda boshqaruvning sifatini oshirish, banklar faoliyatida nazoratni kuchaytirish ko'zda tutiladi.

Bu jarayon O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 24 apreldagi «Xususiy tijorat banklari tashkil qilishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonning qabul qilinishi bilan yanada faollashadi. Mazkur Farmonga ko'ra, nizom jamg'armasida jismoniy shaxslarning ulushi 50 foizdan kam bo'lmagan holda tijorat banklarini ochish uchun bir qator imtiyozlar belgilangan edi. Natijada so'nggi yillar ichida xususiy banklarning soni keskin ko'payib, bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun dastlabki ruxsat berilganlari bilan qo'shib hisoblaganda 20 taga etdi. Hozirgi paytda respublikada faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklarining deyarli yarmi xususiy banklar hisoblanadi.

Bank tizimiga xususiy kapitalni jalb etish bilan birga, banklarni korporativ boshqarish tizimini yanada mustahkamlashga doir chora-tadbirlar ham amalga oshirildi. Xususan bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Aksiyadorlik tijorat banklarini faoliyatini takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida»gi 1998 yil 2 oktyabrdagi Farmonining qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur farmon tijorat banklarini boshqarishda aksiyadorlarning va bank kengashining rolini oshirishga doir chora-tadbirlar majmuini belgilab berdi.

Ushbu farmon asosida amalga oshirilgan islohotlar natijasida mamlakatimizda har tomonlama mustahkam bank tizimi, xalqaro andozalarga mos keluvchi zamonaviy bank nazorati va banklar faoliyatini tartibga solishning samarali mexanizmi yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Bank tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1999 yil 15 yanvardagi Qaroriga asosan bank tizimini barqarorligini safarbar etish, iqtisodiyotni kredit bilan ta‘minlashda banklarning ishtirokini kengaytirish, bank xizmatlari sohasida raqobat muhitini rivojlantirish sohasida vazifalar belgilab berildi. 1991-2000 yillar mobaynida yuzaga keltirilgan bank tizimini yanada xalqaro andozalarga yaqinlashtirish maqsadida bank tizimini erkinlashtirish va isloh qilish chora-tadbirlarining boshlanishi bank tizimi rivojlanishining **to‘rtinchi bosqichini** belgilab berdi. Bu bosqich O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish borasidagi chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2000 yil 21 martdagi Farmoni va Vazirlar Mahkamasining «Bank tizimini isloh qilishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2000 yil 24 martdagi qarori qabul qilinishi bilan boshlandi.

Bu hujjatlarga asosan quyidagilar **mazkur bosqichning asosiy vazifalari** qilib belgilandi:

- bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish, tijorat banklari mustaqilligini oshirish;

- bank tizimi va uning bo‘g‘inlari rivojlanishini rag‘batlantirish;

- bo‘sh turgan mablag‘larni bankka jalb qilish va omonatchilarning manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish;

- banklarning iqtisodiyotni aniq sektorida ishlayotgan korxonalarini, xususan dehqon, fermer xo‘jaliklarini hamda kichik va o‘rta biznes sub’ektlarini kreditlash jarayonini kengaytirish;

- banklarni investitsiya jarayonlarining faol ishtirokchilariga aylantirish;

- banklarning mijozlar bilan o‘zaro manfaatli sheriklik munosabatlarini shakllantirish;

- aholining bank-moliya tizimiga bo‘lgan ishonchini oshirish;

- xorijiy banklar va boshqa moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish, valyuta munosabatlarini erkinlashtirish va kengaytirish kabi vazifalar belgilandi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshchiligida 37 tijorat banklarini (1-ilovaga qarang) o‘z ichiga oluvchi bank tizimi yuqorida belgilangan vazifalarni amalga oshirib, bozor islohotlarining faol qatnashchilari sifatida faoliyat olib bormoqda.

2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining vazifalari va funksiyalari.

Markaziy bank mazkur tizimning bosh banki bo‘lib, pul-kredit siyosatini, emissiya jarayonlarini olib boradi va milliy pulning barqarorligini ta‘minlovchi muassasa hisoblanadi. 1995 yil 21 dekabrda «O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida» gi O‘onuni qabul qilindi.

Markaziy bank maqomi va maqsadlari «O‘zbekiston Respublikasining Markaziy Banki to‘g‘risida»gi O‘onunning 1-moddasida belgilangan: «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiyuridik shaxs bo‘lib, faqat davlat mulki hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki - iqtisodiy jihatdan mustaqil muassasa, o‘z xarajatlarini o‘zining daromadlari hisobidan amalga oshiradi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbining tasviri tushirilgan va o‘z nomi yozilgan muhrga ega.»

O‘onunning 3-moddasida «Markaziy bankning bosh maqsadi milliy valyutaning barqarorligini ta‘minlashdan iborat» deb qayd qilinadi. Narxlarning barqarorligini ta‘minlash va milliy pul birligini xorijiy valyuta bozorlarida ayirboshlash kursining barqaror bo‘lishiga erishishni ko‘zda tutuvchi bu maqsad davlatning iqtisodiy siyosatida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining o‘rni juda muhim ekanligini belgilaydi.

Mamlakatda pul muomalasi samarali bo‘lishi va moliya muassasalari faoliyatining ishonchligi pul-kredit, valyuta siyosati strategiyasi va taktikasini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda uning mustaqilligini huquqiy jihatdan mustahkamlash zarurligini taqozo etadi. Mamlakat xalq xo‘jaligini kreditlash ko‘rsatkichlarini tijorat banklarini qayta moliyalashga doir kredit hajmlarini va foiz stavkalarini belgilash yo‘li bilan tartibga solish, valyuta-kredit siyosatini amalga oshirish, tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining mustaqil siyosiy sohasi hisoblanadi. Mustaqil siyosat esa pul va valyuta bozorida yuzaga kelayotgan vaziyatni, ichki bozordagi makroiqtisodiy shart-sharoitni, tashqi omillarni tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Bu holat qonunning 6-moddasida «Markaziy bank o‘z vakolatlari doirasida qaror qabul qilishda mustaqildir» deb tasdiqlangan. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hisobot beradi. Oliy Majlis O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tavsiyasi bilan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi.

O‘onunning 2-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki yuridik shaxs sifatida ko‘chmas mulk va moliyaviy resurslarga egalik qiladi. Bu hol uning moliyaviy mustaqilligini mustahkamlaydi va mustaqil pul-kredit siyosatini samarali o‘tkazish imkoniyatini beradi.

Narxlarga va ayirboshlash kurslariga ta‘sir ko‘rsatadigan hamda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bevosita nazorati va ta‘sirida bo‘lmagan turli omillar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy maqsadiga erishishini murakkablashtirishi mumkin. SHunga qaramay, chet el tajribasi shuni ko‘rsatadiki, aynan Markaziy bank makroiqtisodiy jarayonlarning rivojlanish yo‘nalishini, birinchi galda pulning qadrsizlanish sur‘atini va valyuta kursini belgilashni idora qiladi.

Qonunda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga vakolatlar berish bilan bir qatorda, uning uchun ta‘qiqlangan faoliyat turlari ham aniq belgilab berilgan. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga tijorat faoliyati bilan shug‘ullanish, muassasa yoki tashkilotlarga moliyaviy yordam ko‘rsatish ta‘qiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga korxon va tashkilotlar faoliyatida bank hamda yuridik shaxslar sifatida ishtirok qilishga ruxsat etilmaydi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank o‘z vakolatlaridan foydalanishda barcha yuridik shaxslarni baravar ko‘rishi lozim.

Milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qator muhim vazifalarni hal etadi. Ulardan eng **asosiy vazifalar** sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

-monetar siyosatni va valyutani boshqarish siyosatini shakllantirish, qabul qilish hamda amalga oshirish;

- O'zbekiston Respublikasida hisob-kitoblarning samarali tizimini yaratish;

-banklar faoliyatini tartibga solish va banklarni nazorat qilish;

- O'zbekiston Respublikasining rasmiy oltin-valyuta zahirasini saqlash va uni boshqarish;

- Moliya vazirligi bilan birgalikda davlat byudjetining kassa ijrosini uyushtirish.

Mazkur vazifalarni bajarish uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki quyidagi yumushlarni ado etishi zarur.

Iqtisodiyotni pul-kredit vositasida boshqarish, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul-kredit siyosatini amalga oshiruvchi sifatida uning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish va «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi Qonunning 23-moddasiga muvofiq keyingi moliya yili boshlanishiga uzog'i bilan 30 kun qolganda bu haqda Oliy Majlisga axborot beradi. Markaziy bank pul taklifi hajmini o'zgartirib, ishlab chiqarishning umumiy hajmiga, bandlik darajasiga va korxonalar faoliyatining o'sish sur'atlariga ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiyotdagi tanglik davrida pul taklifi hajmining oshirilishi iste'mol va sarmoyaga bo'lgan talabning o'sishiga, binobarin, bandlik, ishlab chiqarish hajmi ortishiga yordam beradi. Pul yuqori sur'atlarda qadrsizlanayotgan sharoitda Markaziy bank ularni sekinlashtirish zarurligidan kelib chiqib muomaladagi pul miqdorini cheklash siyosatini o'tkazadi, natijada iqtisodiyotda unga bo'lgan talab kamayadi, pul bozorlaridagi foiz stavkalari o'zgaradi, pulning qadrsizlanishi kamayadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki monetar siyosatining asosiy yo'nalishlari, pul massasi o'zgarishining aniq maqsadli mo'ljallari va pul muomalasini tartibga solish vositalari qonunning 4-qismida yoritilgan bo'lib, unda Markaziy bankning pul-kredit operatsiyalari belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlarini bir yilga ishlab chiqadi va ular Oliy Majlis tomonidan tasdiqlangandan so'ng u mukammal dastur sifatida qabul qilinadi. Bu dastur iqtisodiy vaziyatni tahlil qilish va oldindan aytishni, pul miqdorining yillik o'stirish sur'atlarining maqsadli ko'rsatkichlarini, kredit, foiz va valyuta siyosatini amalga oshirish yo'nalishlarini o'z ichiga oladi. Umumiy iqtisodiy tahlilning zarurligiga sabab shuki, monetar siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish barcha muhim makroiqtisodiy hodisalar; pulning qadrsizlanishi, milliy ishlab chiqarishning umumiy qismi va mehnat resurslarining bandligi, to'lov balansi bilan chambarchas bog'langan. Pul muomalasini boshqarib borish vositalarini quyidagi chizmadan ko'rish mumkin.

Undan tashqari, Markaziy bank foiz (diskont) siyosatini, targetlash va boshqa usullardan foydalanib pul massasini boshqarib borishi mumkin.

Muomaladagi pul massasining hajmini, banklarning likvidligini muvofiqlashtirish va inflyasiya sur'atlarini tushirish maqsadida Markaziy bank tijorat banklari uchun majburiy rezervlar me'yorini o'rnatib berish siyosatini amalga oshiradi. Minimal zahiralar bu tijorat

banklari resurslarining Markaziy bankda majburiy saqlanishi zarur bo'lgan qismidir. Majburiy rezerv miqdori tijorat bankining yig'ilgan resurslariga nisbatan foizda belgilanadi. Bu zahira bevosita banklarning kreditlash imkoniyatini chegaralasada, ularning minimal likvidligini ta'minlash omili bo'lishi mumkin. Majburiy zahira me'yori hozirgi kunda O'zbekistonda 15 foizni tashkil qiladi. Markaziy bank tomonidan zahira miqdori ba'zi bir omillarni hisobga olgan holda o'zgartirilishi mumkin, u omonatlarning hajmi, turi, muddatiga, banklarning boshqa majburiyatlariga bog'liq bo'ladi. Banklar Markaziy bankda majburiy zahiralarni deponentlash tartibiga rioya qilinishi uchun javobgardir. «Tijorat banklari tomonidan Markaziy bankda majburiy zahiralarni deponentlash tartibi to'g'risida»gi nizomda belgilangan majburiy zahiralarni deponentlash tartibi O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan barcha banklar uchun taalluqlidir. Majburiy rezervlar Markaziy bankda naqd pul yoki omonatlar ko'rinishida, Markaziy bank belgilaydigan tartibda depozitga o'tkaziladi. Majburiy rezerv talablarining me'yorlari yoki tarkibi belgilangani yoki o'zgartirilgani to'g'risidagi ko'rsatmalarda kamida bir oylik muddat ko'rsatiladi, rezervlarning tarkibi yoki miqdoriga doir yangi me'yorlarni banklar ana shu muddatgacha bajarishlari shart. Markaziy bank majburiy rezervlar bo'yicha foizlarni to'lash to'g'risida qaror qabul qiladi. Zahira talablarini hisob-kitob qilishda chet el valyutasidagi mablag'lar, jismoniy shaxslar depozitlari, depozit va jamg'arma sertifikatlari, ipoteka obligatsiyalari chiqarish yo'li bilan jalb etilgan mablag'lar hisobga olinmaydi. Majburiy zahiralarni deponentlash bank vakillik hisob varag'idan pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Majburiy zahiralarni turli foyda keltiruvchi aktivlar bilan qoplashga ruxsat etilmaydi.

Banklar har oyning dastlabki uch ish kuni mobaynida Markaziy bankka bank rahbari va bosh hisobchisi (yoki ular vazifasini bajaruvchi shaxslar) tomonidan imzolangan majburiy zaxiralar hisob-kitobini (1-va 2-ilovalarda keltirilgan jadvalga hamda uni to'ldirish bo'yicha berilgan uslubiy ko'rsatmalarga asosan) taqdim etadilar.

Markaziy bankda deponentlanishi lozim bo'lgan majburiy zaxiralarning hisob-kitobi kunlik balans asosida (alohida milliy va alohida xorijiy valyutada) majburiy zaxiralanishi lozim bo'lgan mablag'larning o'rtacha oylik qoldig'ini aniqlash orqali tuziladi. Majburiy zaxiralanishi lozim bo'lgan mablag'larning o'rtacha oylik qoldig'i hisobot oyining har bir ish kuni bo'yicha hisobvaraqlarning (alohida milliy va alohida xorijiy valyutada) qoldiqlari yig'indisini ish kunlari soniga bo'lish orqali aniqlanadi.

Bank majburiy rezerv talablarining eng kam miqdorini saqlab turish to'g'risidagi 29-modda qoidalarini bajarmagan taqdirda Markaziy bank qat'iy tartibda bu bankdan etishmayotgan mablag' summasini, shuningdek, qayta moliyaviy ta'minlashning ikki stavkasidan oshmaydigan miqdorda jarima undirib oladi.

Markaziy bankning hisob (diskont) siyosatining mohiyati shundaki, u tijorat banklardan veksellarni sotib oladi. Misol uchun, mol sotib oluvchi korxonaning etkazib berilgan mollarning haqini to'lash uchun mablag'i etarli bo'lmasa, u tovar uchun to'lovni ma'lum vaqt o'tgandan keyin amalga oshirishi to'g'risida veksel berishi mumkin. Mol sotuvchi korxonaga pul mablag'lari zarur bo'lgan vaqtda u vekselni tijorat bankiga sotishi mumkin. Tijorat banki vekselni sotib olganda, unda ko'rsatilgan summadan kam summaga sotib oladi. Zarur bo'lganda tijorat banki vekselni Markaziy bankda hisobga qo'yishi

mumkin. Bu holda Markaziy bank ham o'z foydasiga ma'lum foiz-hisob stavkasini ushlab qolishi mumkin. Tijorat banklari veksellarni sotib olishda Markaziy bankning hisob stavkasiga tayanadilar. Markaziy bankning hisob stavkasi tijorat banklari o'rnatadigan hisob stavkaning eng past chegarasi hisoblanadi. Odatda, tijorat banklarining hisob stavkasi Markaziy bankning hisob stavkasidan yuqori bo'ladi.

Markaziy bankning tijorat banklarini qayta moliyalashtirish siyosati bu to'g'ridan-to'g'ri kreditlash, veksellarni hisobga olish, qimmatbaho qog'ozlarni garovga olgan holda kreditlar berish va kredit auksionlarini o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bundan kelib chiqqan holda Markaziy bankning qayta moliyalashtirish operatsiyasi quyidagi usullarda olib borilishi mumkin:

- tijorat banklarining ixtiyoridagi veksellarni hisobga olish yo'li bilan kreditlash;

- tijorat banklari ixtiyoridagi qimmatli qog'ozlarni garovga olish yo'li bilan kreditlar berish. Bunday kreditlar lombard kreditlar deyiladi.

- to'g'ridan-to'g'ri kredit berish usuli.

Kredit tashkilotlari faoliyatida moliyaviy qiyinchiliklar bo'lgan hollarda ular Markaziy bankka kredit olish uchun murojaat qilishi va Markaziy bank kreditidan foydalanishi mumkin. Remoliyalashtirishning asosiy maqsadi, pul muomalasi va kredit munosabatlarining holatiga ta'sir ko'rsatishdan iborat. Remoliyalashtirish siyosatini olib bora turib, Markaziy bank oxirgi kreditor sifatida maydonga chiqadi. O'zbekiston Respublikasida Markaziy bank o'rnatgan qoidalarga asosan, quyidagi aktivlarni garovga olgan holda 3 oygacha bo'lgan muddatda kreditlar berishi mumkin:

- oltin, chet el valyutasi, xalqaro zahiralari toifasiga kiruvchi valyuta boyliklari va boshqa boyliklar;

- davlatning qarz majburiyatlari va davlat tomonidan kafolatlangan boshqa qarz vositalari.

Markaziy bankda depozitga o'tkazilgan va uning depozitariysi uchun maqbul bo'lgan, xarid qilinishi va sotilishiga ruxsat berilgan va Markaziy bank ular bilan ushbu qonun doirasida boshqa xil operatsiyalar o'tkazishi mumkin bo'lgan aktivlar, to'lanishiga banklar asosida kreditlar berishi mumkin.

Bank faoliyatida riskning iqtisodiy asoslangan chegaralardan chiqib ketmaslik bank sistemasi barqaror ishlashining muhim shartidir. Risk doiralarini cheklab qo'yish Markaziy bank tomonidan tijorat banklari uchun rioya etilishi majburiy bo'lgan iqtisodiy me'yorlarni belgilab qo'yish orqali amalga oshiriladi. Markaziy bank banklar uchun majburiy bo'lgan iqtisodiy me'yorlarni, shu jumladan:

- kapitalning etarlilik koeffitsientini;

- bir qarz oluvchi yoki bir-biriga daxldor qarz oluvchilar guruhiga tavakkalchilikning eng ko'p miqdorini;

- yirik kredit tavakkalchilik va investitsiyalarning eng ko'p miqdorini;

- likvidlilik koeffitsientlarini va boshqalarni belgilaydi.

Markaziy bank iqtisodiy me'yorlarning o'zgarishi to'g'risida kamida bir oy oldin e'lon qiladi. Banklar va ularning filiallari banklarga oid qonun hujjatlarini, belgilab qo'yilgan iqtisodiy me'yorlarni buzgan taqdirda Markaziy bank ulardan ustav kapitalining

eng kam miqdorining 0,1 foizigacha jarima undirish yohud ayrim operatsiyalarni o'tkazishni olti oygacha bo'lgan muddatga cheklab qo'yish huquqiga ega.

Hisob - kitoblarni va o'tkazish operatsiyalarini bajarish. O'zbekiston Respublikasi hududida hisob-kitoblar naqd pulli va naqd pulsiz tarzda amalga oshiriladi. Jami pul aylanishining asosiy qismi naqd pulsiz to'lovlarga to'g'ri keladi. Bunda pulning harakati kredit muassasalaridagi hisob varaqlarga pul o'tkazish va o'zaro talablarni hisobga olish jarayonida sodir bo'ladi. Mahsulot sotish ishlarini bajarish, xizmat ko'rsatish yo'li bilan mablag' topish, milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash, bankdan qarz olish va uni qaytarish, aholiga pul daromadlarini to'lash va ulardan foydalanish kabi xo'jalik munosabatlarining sohalari vositasida naqd pulsiz pul oboroti xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning hisob varaqlari amal qilayotgan bank muassasalari orqali o'tadi. O'zaro hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan va hamma bank hamda mijozlar uchun majburiy bo'lgan qoidalar asosida olib boriladi. Ushbu qoidalarning bir tarzda qo'llanishi butun respublika hududida hisob-kitoblarning uzluksizligini ta'minlaydi.

Banklar faoliyatini tartibga solish va ularni nazorat qilishdan asosiy maqsad «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi Qonunning 50-moddasiga muvofiq bank tizimini barqaror tutib turish, omonatchi va kreditorlar manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Ushbu maqsadni amalga oshirishning asosiy vositalaridan biri bank faoliyatiga ruxsatnoma (litsenziya) berishdir. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining maxsus komissiyasi bu faoliyat bilan shug'ullanishga da'vogarlarining birlamchi hujjatlarini ko'rib chiqadi, pul bozorida ularning muomalaga tayyorligini, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki talablariga javob berishini tahlil qiladi va qaror ijobiy bo'lgan taqdirda bank faoliyatini amalga oshirish uchun ruxsatnoma beradi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bank muassasalarining rivojlanishini har tomonlama hisobga olib, kuzatib boradi. Kapitalning aynan bir xilligi, likvidlikka doir talablarni o'z ichiga oluvchi iqtisodiy me'yorlarni, shuningdek kreditlash hajmi va limitlarini belgilaydi. Qonunda kredit tashkilotlarning hamma turlari uchun yagona mazmunga ega bo'lgan iqtisodiy me'yorlar guruhining bajarilishi nazarda tutiladi. Kapitalning etarliligi, aktivlarning sifati, foydaliligi va likvidligiga qarab tijorat banklarining moliyaviy ahvoli baholanadi, nochor banklar aniqlanadi.

Rasmiy oltin-valyuta zahiralarini saqlash. Xalqaro hisob-kitoblarda zahiradagi aktiv va kafolatli sug'urta fondi vazifasini ado etish Markaziy bankning pul-kredit siyosatida valyuta-mablag'laridan sharoitga qarab foydalanish imkonini beribgina qolmay, balki dunyo moliya bozorlarida operatsiyalarni amalga oshirish yo'li bilan mamlakatimizning oltin valyuta zahiralarini qiymatini saqlab turish imkoniyatini yaratadi. Boshqa moliya muassasalari, korxonalar va xususiy shaxslar ham xorijiy valyutaga ega bo'lish va valyuta operatsiyalarini o'tkazishga haqi borligiga qaramasdan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki valyuta zahiralarini saqlovchi asosiy depozitariy bo'lib qolishi mumkin.

Hukumat maslahatchisi-xazina vakili vazifasi. Bu vazifa «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi Qonunning 44-moddasida mustahkamlab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hukumat bankiri sifatida davlat muassasalari va

tashkilotlarining hisob varaqlarini yuritadi, ana shu hisob varaqlarda mablag'larni jamg'aradi va ulardan to'lovlarni amalga oshiradi: davlat qimmatli qog'ozlari bilan operatsiyalarni o'tkazib turadi; davlatga bevosita qisqa muddatli ssudalar shaklida yoki davlat obligatsiyalarini xarid qilish tarzida kredit beradi; hukumat idoralarining topshirig'iga binoan oltin bilan yoki xorijiy valyutada operatsiyalar bajaradi.

45-moddada belgilab berilganidek, hukumat davlat sektoriga qarz ajratish masalalarida, kredit berishning ichki va tashqi manbalaridan mablag' olish rejalari to'g'risida Markaziy bank bilan maslahatlashadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hukumatning fiskal (xazina) vakili vazifasiga muvofiq hukumat hisob varaqlarini yuritarkan (47-modda), hukumatning moliya operatsiyalarini amalga oshirishda ko'maklashadi, byudjet kiritimlari va chiqimlari masalalari yuzasidan maslahatlar beradi, davlat qimmatli qog'ozlarini joylashtirishda vakil sifatida ishlaydi, ular bo'yicha hisob varaqlarini yuritadi, davlat qarzi majburiyatlari bilan bog'liq boshqa masalalarini hal etishda qatnashadi.

Tijorat banklariga kredit berish. Markaziy bank iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini bevosita kreditlamasada, u tijorat banklarining kredit zahiralariga bozor usullari orqali samarali ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Buning uchun pul bozorining turli bo'g'inlarida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki operatsiyalaridan, shu jumladan valyuta intervensiyasidan, ikkilamchi bozorda davlat qimmatli qog'ozlari bilan bo'ladigan operatsiyalaridan, kredit kimoshdi savdolaridan foydalanadi. Markaziy bank o'zi belgilagan shartlarga binoan oltin, chet el valyutasi, xalqaro rezervlar toifasiga kiruvchi valyuta boyliklari, davlatning qarzi majburiyatlari va hukumat kafolatlagan boshqa qarzi vositalari, Markaziy bankda depozitga o'tkazilgan va uning depozitariysi uchun maqbul bo'lgan, xarid qilinishi va sotilishiga ruxsat berilgan aktivlar, to'lanishiga banklar kafolat bergan tijorat veksellarini garovga olgan holda tijorat banklariga uch oygacha bo'lgan muddatda kredit berishi mumkin.

Tijorat banklariga kredit berishning eng ko'p tarqalgan bu turi banklarni qayta moliyaviy ta'minlash deb yuritiladi va u «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi Qonunning 30-moddasiga asosan amalga oshiriladi.

Tijorat banklari va hukumat O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy mijozlaridir. Boshqacha aytganda, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki banklarning banki hisoblanadi. Tijorat banklari O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidagi o'z hisob varaqlaridan o'zaro hisob-kitoblar uchun foydalanadilar va undan tashqari naqd pul zarur bo'lganda ham ular Markaziy bankka murojaat qilishadi.

Pul emissiyasi. Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida bo'lgani kabi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ham pulni emissiyalash xuquqiga ega, ya'ni u emissiya markazi hisoblanadi. Bu vazifa hozir ham nihoyatda muhim ahamiyatga ega, chunki chakana savdoda mahsulot haqini to'lash hamda qarzi majburiyatlarini uzil-kesil uzish uchun mablag'ga ega bo'lishini ta'minlash uchun naqd pul zarur.

Tijorat banklarining kassa zahiralarini jamg'arish va saqlash. Muomaladagi pul miqdori hajmini boshqarish uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki jalb qilingan pul mablag'lari hajmiga qarab tijorat banklarida zahiralarining muayyan koeffitsientlarini belgilaydi. Pul-kredit vositasida boshqarishning samaradorligi, uning

pul miqdori o'sish sur'ati va tuzilmasiga, shuningdek pulning qadrsizlanish darajasiga ta'siri majburiy zahiralash tizimining moslashuvchanligiga bog'liq. Ko'rib chiqilayotgan Qonunning 28-moddasiga muvofiq majburiy zahiralash alohida hisob varaqda naqd pul yoki omonatlar tarzida deponentga olinadi. Zahiralash tizimi tijorat banklariga likvidlik bilan bog'liq qisqa muddatli muammolarni hal etish imkonini beradi. Ayrim hollarda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qaroriga binoan majburiy zahiralarga foizlar qo'shib qo'yilishi ham mumkin. Tijorat banklarining mablag'larini zahiralash talablariga amal qilish borasida javobgarligini oshirish uchun qonunda moliyaviy sanksiyalar (53-modda) ko'zda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga to'lanmay qolgan pulni qonunda belgilangan tartibda so'zsiz undirib olish, shuningdek jarimalar solish huquqi berilgan.

Endi Markaziy bankning tashkiliy tuzilishi to'g'risida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Markaziy bank yagona markazlashtirilgan boshqaruv tizimiga ega. Markaziy bank zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun tegishli xizmatlar va muassasalar tashkil etadi.

Markaziy bank O'raqalpog'iston Respublikasi poytaxtida, viloyatlarning markazlari va Toshkent shahrida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan bosh boshqarmalar tuzadi.

Markaziy bank raisi Boshqaruvning raisi hisoblanadi. Boshqaruv a'zolarini Markaziy bank raisi taqdimnomasiga ko'ra, Oliy Majlisning Kengashi tasdiqlaydi.

Markaziy bank raisi Markaziy bank va uning Boshqaruvi faoliyatiga rahbarlik qiladi, bankning fondlarini tasarruf etadi va Markaziy bank zimmasiga yuklatilgan vazifalar bajarilishi uchun javobgar bo'ladi.

3. Tijorat banklarining funksiyalari va operatsiyalari.

Tarixiy taraqqiyot davomida banklar mablag'larni yig'ish, saqlab berish, kredit-hisob va boshqa turli xil vositachilik operatsiyalarini bajarib kelganliklari sabab, banklar kredit muassasa bo'lib, foyda olish maqsadida bank barcha risklarni o'ziga qabul qilgan holda operatsiyalarini amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 26 aprelda qabul qilingan "Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunining 1-moddasiga asosan "**Bank**-tijorat tashkiloti bo'lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan quyidagi faoliyat turlari majmuini amalga oshiradigan, ya'ni:

-yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish hamda qabul qilingan mablag'lardan tavakkal qilib kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalanish;

-to'lovlarni amalga oshirish bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxsdir. Demak, bank barcha riskni o'z zimmasiga olib, yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag'larini jalb qilib, bank resurslarini tashkil qilgan holda, bu mablag'larni muddatida qaytarib berish, to'lov va ta'minlash shartlari asosida o'z nomidan ularni joylashtiradi hamda yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasidagi hisob-kitob va vositachilik operatsiyalarini olib boruvchi kredit muassasa hisoblanadi.

Ba'zi adabiyotlarda «bank-bu korxon», deb ham izoh beriladi. Ma'lumki, bank yaxlit olingan korxon sifatida ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirmaydi. Tijorat banklarining faoliyatini korxon faoliyatiga shu jihatdan o'xshatish mumkinki, tijorat

banklari ham korxonalar singari o'z faoliyatini o'z daromadini ko'paytirishga qaratadi, lekin korxonalar faoliyatidan farqli ravishda banklar shu asosida birinchidan, o'z ta'sischi-lari-aksiyadorlarining manfaatlarini, ikkinchidan, o'z mijozlarining manfaatlarini himoya qilishni ta'minlaydi.

Tijorat banklariga, bizning fikrimizcha, shunchaki «korxonona» emas, balki «maxsus korxonona» deb qarash zarur. Chunki tijorat banklari ssuda kapitali harakatini amalga oshiradi va shu asosda bank o'z aksiyadorlariga, paychilariga foyda olishni ta'minlaydi.

Tijorat banklari bank tizimining muhim bo'g'ini bo'lib, kredit resurslarining asosiy qismi shu banklarda yig'iladi va bu banklar xuquqiy, jismoniy shaxslarga o'z xizmatlarini ko'rsatadilar.

Bank bu shunday korxonaki, unda xom ashyo bo'lib depozit va qo'yilmalar hisoblansa, oxirgi tovar – bu berilgan ssudalardir. Depozit va qo'yilmalar jalb qilingan qarz mablag'lari, berilgan ssudalar esa – joylashtirilgan mablag'lar bo'lib hisoblanadi.

Har xil jismoniy shaxslar va tashkilotlardan pul mablag'larini jalb qilish uchun, qarz hajmiga qarab ma'lum summani foizlar shaklida to'lash kerak. Bo'lmasa mablag' qo'yuvchilar yoki boshqa bankni tanlaydilar, yoki pul saqlashni boshqa shakllariga o'tadilar: masalan, oltin yoki valyuta sotib olish, boshqa moliyaviy vositachilar xizmatlaridan foydalanish va boshqalar. Pul saqlash shaklini tanlashda mablag' qo'yuvchini ikkita muhim omil - moliyaviy vositachilarning ishonchli ekanligi va daromad olish darajasi (qarzga to'lanadigan foizlar) ko'proq qiziqtiradi.

Boshqa tomondan, bank ssuda berganda uning summasiga qarab foiz shaklida to'lov undiradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining bozor munosabatlari sub'ektlari bilan aloqasi yanada kengayadi va chuqurlashadi. Bank bu holda barcha mablag'lari harakatini boshqarib boradi.

Bu ikkita foiz stavkalari o'rtasida farq - bank daromadining asosiy manbasi bo'lib, iqtisodiy adabiyotlarda u “marja” nomi bilan yuritiladi.

SHunday qilib, marja - bu jalb qilinuvchi va joylashtirila- digan qarz va ssuda foiz stavkalari o'rtasidagi farqdir.

Banklar mablag'larni jalb qilish va joylashtirish yo'li bilan barcha pul mablag'lari harakatini boshqarib boradi. Bankning asosiy faoliyati vositachilik bilan bog'liq bo'lib, u pul mablag'larni qarz beruvchidan qarz oluvchilarga o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni bajarishdan iborat. Banklar bilan bir qatorda pul mablag'lari harakatini boshqa moliyaviy va kredit tashkilotlari, investitsion fondlar, sug'urta kompaniyalari ham amalga oshiradilar. Biroq, bankning moliyaviy risklarning sub'ekti sifatida yuqorida keltirilgan boshqa sub'ektlar faoliyatidan farq qiladigan ikkita o'ziga **xos xususiyati** mavjud:

-birinchidan, banklar faqat ular uchun xos bo'lgan qarz majburiyatlarini (depozitlar, omonat sertifikatlari va boshqalar) chiqaradilar va bu yo'l bilan yig'ilgan mablag'larni boshqa sub'ektlar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar va qarz majburiyatlariga joylashtiradilar. Bankning bu xususiyati moliyaviy broker va dillerlar faoliyatidan farq qiladi, chunki ular moliya bozorida o'z qarz majburiyatlarini chiqarmasdan faoliyat ko'rsatadilar.

-ikkinchidan, banklar jismoniy va yuridik shaxslar oldida mijozlarning pul mablag'larini hisob varaqlariga qo'yish va jamg'arma o'tkazish, depozit sertifikatlarini chiqarish va boshqalar orqali qat'iy belgilangan qarz majburiyatlarini oladilar. Qat'iy belgilangan qarz majburiyatlar bilan faoliyat ko'rsatish banklar uchun riskli hisoblanadi, chunki banklar o'z kreditorlari oldida olgan majburiyatlarini to'liq bajarishlari lozim. Investitsion fondlar esa o'z aktivlari va passivlarining qiymati o'zgarishi bilan bog'liq risklarni o'z aksiyadorlari zimmasiga yuklaydilar.

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarini tashkil etish va ularning faoliyatini olib borish "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunga asoslanadi. YUqorida qayd etilgan qonunga asosan O'zbekiston Respublikasida banklar universal faoliyatni amalga oshiradilar. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, turli xilda kreditlar berish, qimmatli qog'ozlar va xorijiy valyuta oldi-sotdisi bilan shug'ullanish, bo'sh turgan pul mablag'larni jalb etish, hisob-kitoblarni amalga oshirish, kafolat va garantiyalar berish va hokazolar tijorat bankining asosiy faoliyat turlaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida xorijiy banklar va har qanday mulkchilik shakliga asoslangan banklar faoliyat ko'rsatishi mumkin. O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari va ularning mulkchilik shakliturli mulkchilikka asoslangandir.

Odatda, O'zbekistonda banklar aksionerlik jamiyat ko'rinishida tashkil etiladi. Bankning ustav kapitalini shakllantirish uchun davlat organlarining mablag'lari, jamoa, birlashmalar va fondlarining mablag'lari, garov va kreditga olingan mablag'lardan foydalanish mumkin emas.

Tijorat banklarining tashkiliy tuzilishi aksioner jamiyat tuzilishiga o'xshashdir. Tijorat bankining oliy organi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hisoblanadi. Bu yig'ilishlarda aksiyadorlarning vakillari va aksiyador korxonalarining rahbarlari ishtirok etadilar. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi ko'rib chiqishga qo'yilgan masalalar bo'yicha qaror qabul qilish uchun aksiyadorlarning kamida 3/4 qismi ishtirok qilishi lozim.

Bankning boshqaruvini direktorlar kengashi amalga oshiradi. Unga qo'shimcha tarzda bank boshqaruvini kuzatish va nazorat qilish mas'uliyati ham yuklatilgan. Direktorlar kengashi a'zolarining tarkibi va saylanish muddati tijorat bankning nizomi bilan belgilanadi.

Bank Kengashi bank faoliyatining asosiy yo'nalishini, kredit siyosati va bankning boshqa rejalarini ko'rib chiqish, daromad, xarajatlar, foyda rejalarini tasdiqlash, shu'balarni ochish yoki yopish masalalarini ko'rib chiqish kabi masalalar bilan shug'ullanadi.

Bank Boshqaruvi bank faoliyatiga bevosita rahbarlik qiladi. Bank boshqaruvi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi va direktorlar kengashi oldida javobgardir. Aksionerlarning umumiy yig'ilishi, bank kengashi va boshqaruvi bankning boshqaruv organlari hisoblanadi.

Bankka operativ rahbarlik qiluvchi va uning faoliyati uchun javob beruvchi bank boshqaruvi bankning ijroiya organi hisoblanadi. Boshqaruv bank kengashi va aksiyadorlar umumiy yig'ilishi oldida hisobdordirlar.

Yuqorida keltirilgan bankning tashkiliy tuzilishi aksariyat banklar uchun o'xshash bo'lib tijorat banklarining joylashish o'rnini, xizmat ko'rsatadigan mijozlarning faoliyati xususiyatlaridan kelib chiqib ba'zi bir o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

Bank boshqaruv majlisi doimo o'tkaziladi va majlislarda qabul qilinadigan qarorlar berilgan ovoz soniga qarab hal etiladi. Ovozlar tengligida bank boshqaruvchining ovozi hal etuvchi hisoblanadi. Agar, boshqaruv a'zolari yoki boshqaruv raisi boshqaruv qabul qilgan qaroriga norozi bo'lsa, ular o'z fikr va mulohazalarini kengash yoki aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga bildirishlari mumkin.

Bu holatda kuzatuv kengash qarori hal etuvchi hisoblanadi va bank boshqaruvi raisi qarori bilan amaliyotga tatbiq etiladi.

Taftish komissiyasi aksionerlarning umumiy yig'ilishi tomonidan saylanadi. Uning tarkibida kuzatuv kengash a'zolari va bank boshqaruvi a'zolari bo'lishi mumkin emas. Bank boshqaruvi taftish komissiyasiga taftish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni taqdim etadi. Taftish natijalari bank boshqaruviga topshiriladi.

Tijorat banki taftish komissiyasining asosiy vazifasi bank xodimlarining o'z amallarini suiste'mol qilishlarining oldini olishga qaratilgan.

Taftish komissiyasi bankning yillik hisoboti va balansiga xulosa qiladi. Taftish komissiyasi bank balansini bo'yicha xulosa chiqarmaguncha u aksionerlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanishi mumkin emas.

Tijorat banklarda hisobot O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tasdiqlangan qonun-qoidalar asosida amalga oshiriladi. Ular Markaziy bankka yoki uning joylardagi boshqarmalariga bankning oylik balansini, choraklik aylanma vedomostini va uning yillik buxgalteriya hisobotini har oyning 1 kunigacha taqdim qilishlari shart. Tijorat banklarining moliyaviy ahvolidan ularning aksiyadorlari va mijozlari xabardor bo'lmog'i lozim. SHu bois tijorat bankining faoliyat natijasi, moliyaviy holati to'g'risida mijozlarga axborot berish maqsadida ularning aksionerlar umumiy yig'ilishida tasdiqlangan yillik balansini hamda foyda va zararlar to'g'risidagi hisoboti, ularning haqqoniyligi to'g'risidagi auditorlik tashkilotlarining xulosasidan keyin matbuotda e'lon qilinishi lozim.

Tijorat banki kredit-hisob operatsiyalarining tezkorligini ta'minlash maqsadida hududdan uzoqda joylashgan mijozlar uchun bank filial va vakolatxonalarini Markaziy bank ruxsati bilan tashkil qilinishi mumkin. Banklarning vakolatxonalarini bank joylashgan hududdan boshqa hududlarda ochilishi mumkin va ular mustaqil balansga ega bo'lmaydilar. Ular bank operatsiyalarini joylarda to'laqonli bajarilishi uchun zarurdir.

Tijorat banklarining iqtisodiy roli uning faoliyat doirasining keng bo'lishiga olib keladi. Bu sababli tijorat banklari quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larni yig'ish va ularni kapitalga aylantirish;
- korxonalar, tashkilotlar va aholini kreditlash;
- iqtisodiyotda hisob-kitoblar va to'lovlarni amalga oshirish;
- moliya-valyuta bozorida faoliyat ko'rsatish;
- iqtisodiy-moliyaviy axborotlar berish va maslahat xizmatlarini ko'rsatish va boshqalar.

Banklar bo'sh pul mablag'larini yig'ish va ularni kapitalga aylantirish funksiyasini bajara turib mavjud bo'sh pul daromadlari va jamg'armalarini yig'adi. Jamg'aruvchi (bo'sh pul mablag' egasi) o'z mablag'larini bankka ishonib topshirgani uchun va bank bu mablag'lardan foydalangani uchun ma'lum foiz hisobida daromad oladilar. Bo'sh pul mablag'lari hisobidan ssuda kapitali fondi vujudga keladi va bu fond iqtisodiyot tarmoqlarni kreditlash uchun ishlatiladi.

Tijorat banking bo'sh turgan mablag'larni jalb etish ularni kapitalga aylantirish funksiyasi asosiy funksiyalardan hisoblanib, jalb etilgan mablag'lardan daromad qarz mablag'lariga bo'lgan talab va taklif asosida shakllanadi.

Bankning vositachilik operatsiyalari bozor iqtisodiyoti tizimini rivojlantirish borasida bank o'z faoliyatida risk va noaniqlikning oldini olishga sharoit yaratadi. Pul mablag'lari bank vositachiligisiz ham kreditor va qarz oluvchi orasida muomalada bo'lishi mumkin, ammo bu bilan mablag'larni yo'qotish bilan bog'liq risk darajasi oshadi va mablag'larni o'z vaqtida qaytarib berish muammolari yuzaga keladi. Bu muammolarning yuzaga kelishi shundan iboratki, kreditor va qarz oluvchi bir-birovi haqida etarli darajada ma'lumotga ega emasligi, mablag'larga bo'lgan talabning taklif bilan doimo miqdoran va bir vaqtda teng emasligidadir. Tijorat banklari mablag'larni depozitga jalb etishi, ssuda berishi mumkin. Bank o'z aktivlari bo'yicha keng diversifikatsiya usulini qo'llab omonatlarni qaytara olmaslik riski darajasini kamaytirishi mumkin.

Iqtisodiy tizimni qayta qurish uchun asosan va birinchi galda ichki xo'jalik jamg'armalariga tayanish lozim. Tijorat bank moliya bozoriga kredit resurslariga talab bilan kirar ekan, nafaqat iqtisodiyotda mavjud bo'lgan barcha jamg'armalarni maksimal darajada yig'ishga, balki joriy iste'molni chegaralash bilan jamg'armani shakllantirishga samarali ta'sir ko'rsatmog'i lozim. Jamg'arma mablag'larni shakllantirishda tijorat banklarni depozit siyosatining ta'siri katta. Omonatchilarga yuqori foizlardan tashqari, bank kreditlariga yuqori kafolat va ishonchlilik kerak. Omonatlarni qo'yishda xavfsizlik bilan bir qatorda mijoz tijorat bank faoliyati etarlicha ma'lumotga ega bo'lishi va bu bilan u bankni moliyaviy ahvoliga baho bera olishi mumkin.

Tijorat banklar faoliyatida asosiy o'rinni korxonalar, tashkilotlarni, aholini va turli sub'ektlarni kreditlash egallaydi. Kreditlash jarayonini tashkil qilishda bank moliyaviy vositachi rolini o'ynaydi. U bo'sh turgan mablag'larni jalb qiladi va o'z nomidan mijozlarga vaqtincha foylanishiga beradi. Bank krediti hisobidan iqtisodiyotning muhim tarmoqlari-sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo va boshqalar moliyalashtiriladi va ishlab chiqarishni kengaytirishga asos bo'ladi.

Tijorat banklari shartnoma asosida bir-birlarining mablag'larini depozit, kredit shaklida jalb etishlari, joylashtirishlari, o'z ustavlarida ko'rsatilgan boshqa o'zaro operatsiyalarni amalga oshirishlari mumkin.

Mijozlarga kredit berish va o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish uchun mablag' etishmay qolgan taqdirda tijorat banklari kredit resurslari olish uchun Markaziy bankka murojat qilishlari mumkin.

Tijorat banklari operatsiyalari bo'yicha foiz stavkalari ularning o'zlari tomonidan mustaqil belgilanadi. Ammo bu stavkalar davlat pul-kredit siyosatining bosh yo'nalishlarida belgilab beriladigan foiz stavkalari siyosatiga asoslangan bo'lishi lozim.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida qimmatli qog'ozlar bozorining yaxshi taraqqiy etmagan bosqichlarida iqtisodiyotda mavjud bo'lgan asosiy moliyaviy resurslar banklarga omonatlarni jalb qilish orqali amalga oshiriladi.

Banklarning keyingi funksiyasi bu mustaqil sub'ektlararo to'lov operatsiyalarini amalga oshirish funksiyasidir. Rejali iqtisodiyot davrida barcha to'lovlar bir davlat banki orqali amalga oshirilgan, hisob-kitoblarni bunday tizimida to'lovlarni amalga oshirishda davlat o'zi kafil bo'lardi. Mustaqil tijorat bank tizimini shakllantirish hisob-kitob tizimini ajralishiga olib keladi va banklar o'z zimmalariga oladigan risk darajasini ko'paytirdi. MFO hisob varaqalaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan hisob-kitoblar o'rniga banklararo hisobning korrespondent schetlarga o'tishi ham risk darajasini ko'payishiga olib keldi. Bunday sharoitda tijorat banklar, mijozlar hisob-kitoblar bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirishilishi bo'yicha mas'uldir.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan barcha mamlakatlarda tijorat banklar iqtisodiyotining to'lov mexanizmidagi etakchi o'rin tutadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyot to'lovlarni amalga oshirishni isloh qilish va rivojlantirish orqali mamlakatimiz to'lov tizimida tijorat banklarning o'rnini kengaytirmoqda.

Undan tashqari tijorat banklar moliya-valyuta bozorida faoliyat ko'rsatish, ya'ni qimmatli qog'ozlar chiqarish va ularni joylashtirish, sotib olish bilan shug'ullanishi, mijozlarga har xil axborotlar, maslahatlar berish bilan shug'ullanishi mumkin.

Tijorat banklari yuqorida keltirilgan funksiyalar asosida quyidagi operatsiyalarni bajaradi:

- passiv operatsiyalar;
- aktiv operatsiyalar;
- bank xizmatlari va vositachilik operatsiyalari;
- bankning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiradigan operatsiyalari va boshqa turdagi operatsiyalarni bajaradilar.

4.AQSH bank tizimi, FZT uning maqsadi, vazifalari.

AQSH bank tizimida ilk xususiy aksioner banklar "The Bank of New York", "The Bank of Boston" 1784 yilda tashkil etilgan bo'lib, 1791 yilda esa port shaxarlarida o'zining filiallariga ega bo'lgan "The Bank of the United States" tashkil etilgan.

1863 yilda Fuqarolik urushi va moliyaviy resurslarga bo'lgan talabning hamda valyuta bozorida qoniqarsiz xolat yuzaga kelganligi oqibatida Milliy bank akti (National Banking act) imzolandi. Qabul qilingan akt asosida banklar ustida nazoratni amalga oshiruvchi va emissiya xuquqiga ega bo'lgan Valyuta nazorati tashkiloti ish boshladi. Bundan tashqari banklarga filiallarni tashkil etish taqiqlangan edi. Qabul qilingan akt oqibatida mavjud bo'lgan banklar ikki yirik guruxga : umummilliy banklar va aloxida shtat banklariga bo'lindi.

SHu bilan bir qatorda aloxida shaxslarga tegishli bo'lgan xususiy banklar tashkil etilgan bo'lib ularni faoliyat boshlashlari uchun federal organlar yoki aloxida shtatlarning ruxsati kerak edi. Aloxida shtat banklari

- davlat banklari,
- trust kompaniyalari
- jamg'ama banklariga ajralan edi.

1901 yilda Nyu Yorkda Buyuk Britaniya namunasiga ko'ra kliring uylari assotsiatsiyasi tashkil etilgan bo'lib, ushbu assotsiatsiyaga 60 ta milliy va shtat banklari a'zo bo'ldilar. 1907-1913 yillarda bo'lgan banklar inqirozi oqibatida hozirgi kunga qadar AQSH bank tizimini boshqarib hamda tartibga solib turuvchi Federal Rezerv Tizimi tashkil etildi.

1913 yildan e'tiboran to hozirgi kunga qadar AQSH bank tizimi deyarli o'zgarishsiz faoliyat yuritib kelmoqda. Lekin bu davr oralig'ida AQSH bank tizimida bir qancha siljishlar ro'y bergan. 1927 yilga qadar banklarga o'zi joylashgan xududdan tashqarida filiallarni ochish qat'iyan man etilgan edi (Kaliforniya shtati bundan mustasno). 1927 yilga kelib Mak Feddon aktining imzolanishi bilan (1933 yilda o'zgarish kiritilgan) banklarga o'zlarining bosh ofislari joylashgan shtat ichida filiallarni ochishga ruxsat berildi.

AQSH bank tizimida katta o'zgarishlardan biri bu "qora payshanba" nomini olgan 24 oktyabr 1929 yildagi Nyu York fond birjasida aksiyalarning kursining keskin tushishi edi. Buning asosiy sababi esa qimmatli qog'ozlarni sotib olishga berilgan katta miqdordagi kreditlar edi. (jami kredit poketining 35 %). Fond birjasidagi narxlarning keskin tushishi berilgan kreditlarni o'z vaqtida qaytmasligiga olib keldi va natijada banklardan katta miqdorda depozitlarni axoli tomonidan olish boshlandi va oqibatda banklarning ko'pchiligi bankrotlikka uchradi.

1933 yilda AQSH prezidenti Ruzvelt AQSH Kongressi oldiga barcha banklarni yopish masalasini tashladi, lekin kongress buni ma'qullamadi.

shu yilning o'zida yana bir akt Glass Stigal akti imzolandi. Aktning bosh maqsadi mavjud bo'lgan FZT imkoniyatlarini kengaytirish, xususan banklarning zaxira tizimlarini mustaxkamlash va kreditlarning aloxida turlarini chegaralash edi. bundan tashqari omonatlarni kafolatlash kiritildi. Aynan shu akt orqali AQSH bank tizimi segmentlarga bo'linib ketdi.

1935 yildan boshlab barcha depozit qabul qiladigan banklarga qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish taqiqlangan edi.

AQSH moliya tizimi kuchli nazorat o'rnatiladigan va tartibga solib turiladigan tizimlardan biri bo'lib xisoblanadi. AQSH bank tizimini tartibga solishda 3 ta organ: FZT, pul muomalasi nazorati organi, va depozitlarni sug'urtalash bo'yicha federal korporatsiya xisoblanadi.

Pul aylanishi (muomalasi) nazaratchisi bu AQSH prezidenti tomonidan tayinlangan taftish (reviziya) yo'li bilan milliy banklar faoliyatini nazorat qilib boradigan shaxs.

FZT bu AQSH kongressiga bo'ysunadigan markaziy banklarning sistemasi.

FZT strukturasi.

20 asr boshlarida AQSH da 5000 ga yaqin emission banklar mavjud bo'lib, ularning xar biri o'zining asosiy kapitali miqdorida banknotalarni muomilaga chiqarish xuquqiga ega edi. bunda xar bir bank boshqa bankning pul biletlarini qabul qilishi kerak edi.

Tekshirish uchun savollar.

1. Nima uchun Markaziy bank banklarning banki deb yuritiladi?
2. «Markaziy bank mustaqilligi» deganda nima tushuniladi?

3. Markaziy bankning bosh maqsadi va asosiy vazifalari nimalardan iborat?
4. Nimalar Markaziy bank uchun taqiqlangan faoliyat turlari hisoblanadi?
5. Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida Markaziy bank nimalarga haqli?
6. Markaziy bank boshqaruvining o'ziga xos xususiyatlari nimada?
7. Bank boshqaruvi qanday vakolatlarga ega?
8. Qaysi hollarda Markaziy bank raisi o'z lavozimidan ozod etiladi?
9. Markaziy bank boshqa banklar faoliyatini qanday iqtisodiy dastaklarga asoslanib tartibga soladi?

2-mavzu: O'zbekiston Respublikasi bank tizimi va boshqa kredit muassasalari

«Bank» so'zi italyanча «Banca» so'zidan olingan bo'lib, «stol», aniqrog'i «pulli stol» degan ma'noni anglatadi. XII asrlarda Genuyada pul almashtiruvchilarni «Bancherii» deb atashgan. Agar puldorlardan birortasi ishonchni oqlamasa va o'z ishiga mas'uliyatsizlik qilsa, u o'tirgan stolni sindirib tashlashgan va uni «Banco rotto», ya'ni «bankrot» deb atashgan. Bugungi kunda bizga ma'lum bo'lgan «bankrot» so'zi ham italyanча «Banca» so'zidan olingan.

O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunida bankka quyidagicha ta'rif berilgan:

«Bank - tijorat tashkiloti bo'lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan quyidagi faoliyat turlari majmuini, ya'ni:

- yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish;
- qabul qilingan mablag'lardan tavakkal qilib kredit berish;
- investitsiyalash uchun foydalanish;
- to'lovlarni amalga oshiruvchi yuridik shaxsdir».

jadval

Bank va uning turlari

t/r	Turkumlash belgilari	Bank turlari
	Vakolatiga qarab	<ul style="list-style-type: none"> • emissiya qiluvchi banklar • tijorat banklari • investitsion banklar • universal banklar
	Operatsiyalarni bajarish xarakteriga qarab	<ul style="list-style-type: none"> • tarmoqlar bo'yicha • mijozlar tarkibi bo'yicha • miqdor bo'yicha regionlar bo'yicha xizmat qiluvchi banklar
	Mulk shakliga qarab	ixtisoslashgan (masalan, ipoteka) banklar <ul style="list-style-type: none"> • davlat banklari • aksioner (hissador) banklar • xususiy banklar • aralash banklar
	Faoliyat miqyosiga qarab	<ul style="list-style-type: none"> • bank konsorsiumlari

		<ul style="list-style-type: none"> • yirik banklar • oʻrta banklar • mayda banklar
	Xizmat qilish sohasiga qarab	<ul style="list-style-type: none"> • mahalliy (regional) banklar • regionlararo banklar • milliy banklar • xalqaro banklar
	SHoʻbalar soniga qarab	<ul style="list-style-type: none"> • shoʻbasi bor banklar • shoʻbalari yoʻq banklar

Demak, bank - bu pul mablagʻlarini oʻzida mujassamlashtiruvchi va jamgʻaruvchi, kredit beruvchi, pul hisobini olib boruvchi, pul va qimmatli qogʻozlarni emissiya qiluvchi, oltin va chet el valyutalari bilan operatsiyalarni bajaruvchi yirik muassasadir.

Koʻpgina moliya institutlari, shu jumladan qimmatli qogʻozlar oldi-sotdisi bilan shugʻullanuvchi dilerlar, broker firmalari, sugʻurta kompaniyalari oʻzlarining koʻrsatgan xizmatlari bilan koʻproq banklarga tenglashishga va bankka xos ishlar bilan shugʻullanishga harakat qiladilar.

Ana shunday moliya institutlari oʻzlarini **bank boʻlmagan banklar** deb ataydilar

Bank boʻlmagan banklar (asosiy muassasalar)

t/r	Bank boʻlmagan muassasalar	Mashgʻuloti
1.	Ipoteka Kompaniyalari	tijorat maqsadida foydalaniladigan bino yoki yashash uylaridan samarali foydalanish uchun qisqa muddatli kredit berish bilan shugʻullanadilar
2.	Faktoring Kompaniyalar	vaqtinchalik moliyalashni taʼminlash maqsadida (asosan debitorlar schyotidan) korxonalaridan qisqa muddatli aktivlarni sotib oladilar
3.	Trast Kompaniyalar	korxonalar, xususiy shaxslar va zarar bilan ishlaydigan tashkilotlar mulklarini boshqaradi va ularni himoya qiladi. Mijozlarning qimmatli qogʻozlarini xususiy investorlarga joylashtiradilar
4.	Maʼlumotlarni qayta ishlash kompaniyalari	maʼlumotlarni kompyuter ishlab ularni uzatish bilan shugʻullanishadi
5.	Sugʻurta kompaniyalari	sogʻliqni va kishilar hayotini turli xavflar va baxtsiz hodisalardan sugʻurta qilish bilan shugʻullanadi. SHu bilan bir qatorda ular bilan bogʻliq boʻlgan kreditlarni beradilar

6.	Qimmatli qog'ozlar savdosi bilan shug'ullanuvchi brokerlik firmalari	opsion shartnomalari, valyutali moliyaviy fyucherslar, muomaladagi qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdisi bo'yicha mijozlarning buyruqlarini bajaradilar
7.	Moliyaviy masalalar bo'yicha maslahat beruvchi firmalar	aktivlarni boshqarish va investitsiya masalalari bo'yicha mijozlarga kiradilar
8.	Qimmatli qog'ozlarni tarqatish bilan shug'ullanuvchi firmalar	davlat va munitsipal zayomlarni, korporatsiyalar aksiyalarini, qimmatli qog'ozlarni, korporatsiyalarning qarz majburiyatlarini, mijozlar schyotlari bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlarni sotib oladi, shuningdek, yuqorida qayd qilingan qimmatli qog'ozlarni investorlarga takroriy sotishni taklif qiladilar
9.	Moliyaviy Kompaniyalar	korxonalar va xususiy shaxslarga qisqa va uzoq muddatli kapital miqdorlarini aniqlash bilan shug'ullanadilar
10.	Kredit kartochkalari bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar	chakana savdo korxonalarini qo'llab quvvatlash va xususiy shaxslarga qisqa muddatli kreditlar berish bilan shug'ullanadilar
11.	Lizing Kompaniyalari	aktivlarni sotib oladi va muhtoj korxonalariga, xususiy shaxslarga ularni ijaraga beradi
12.	Sug'urta Agentliklari	kredit yoki moliyaviy xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan sug'urta polislarini sotadilar yoki to'la-to'kis brokerlik va sug'urtaviy xizmatlarni bajaradilar
13.	Ko'chmas mulk operatsiyalari bilan bog'liq xizmatlarni bajaruvchi firmalar	ko'chmas mulkni baholash va ular bilan bog'liq bo'lgan tijorat loyihalarni moliyalashtirish bilan shug'ullanadilar
14.	Omonat, ssuda berish bilan shug'ullanuvchi assotsiatsiyalar	asosan xususiy shaxslar va oilalarga omonat depozitlarga jamg'ariladigan mablag'lar rejalarini, shuningdek uy-joy qurish uchun kredit taklif qiladilar

80-yillarda qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi va brokerlik bilan keng faoliyat boshlagan «Meril Linch» va «Dreyfus korporeyshn» firmalari bank bo'lmagan banklarga misol bo'la oladi.

Tovar-pul munosabatlarining vujudga kelishi va ularning rivojlanib borishi banklarning paydo bo'lishiga asos soladi. O'rta asrlarda banklar dastlab puldorlar tomonidan pulni qabul qilish va boshqa davlat shahar puliga almashtirib berish asosida kelib chiqqan. Keyinchalik puldorlar bo'sh turgan mablag'laridan foyda olish maqsadida qarz so'ragan subektlariga vaqtinchalik foydalanishga bergan. Bu hol pul almashtiruvchi puldorlarning bankirlarga aylanishga olib kelgan.

Dastlabki banklar jirobanklar nomi bilan XVI asrlarda (aniqrog'i 1587 yilda) Florensiya va Venetsiyada kichik banklar vujudga kela boshlagan. Ular turli shaharlar va mamlakatlarning pul belgilarini almashtirishga ixtisoslashgan bo'ladilar. Keyinchalik shunday banklar Amsterdamda (1605 y), Gamburgda (1618 y), Milanda, Nyurnbergda, Genuyada vujudga kelgan. Bu banklar asosan o'z mijozlari-savdogarlarga xizmat qilishgan. Ular hisob-kitobni asosan naqd pulsiz amalga oshirishgan.

Tarixda birinchi yirik bank 1694 yilda Angliyada tashkil etilib, unga davlat tomonidan banknotlar chiqarishga ruxsat berilgan. U bank aksiyador-emmission bank deb hisoblangan. Keyingi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, xususan, sanoatning rivojlanishi natijasida banklar boshqa mamlakatlarda ham tashkil qilina boshlanadi.

Natural xo'jalik munosabatlarining tugashi, savdo-sotiq munosabatlarining rivojlanishi pullik hisob-kitoblar olib borishiga, kreditning rivojlanishiga yo'l ochdi. Ishlab chiqarishning rivojlanishi yollanma mehnatni borgan sari ko'p jalb qilishga olib kelgan. g'llanma mehnat uchun haqning pul shaklida to'lanishi doimiy pul aylanishni yuzaga keltiradi. Pul aylanishi esa muayyan boshqaruvni talab qildi. Bu vazifani banklar bajara boshladi.

SHunday qilib, banklar mablag'larni yig'ish va taqsimlash orqali ssuda kapitali harakatini boshqara boshladi.

XX asrning boshlarida yirik Evropa mamlakatlarida o'zining ko'p filiallariga ega bo'lgan, yirik sanoat monopoliyalari bilan uzviy bog'liq faoliyat ko'rsatayotgan banklar vujudga keldi. Bular jumlasiga xalqaro pul, hisob va kredit munosabatlarini olib boruvchi quyidagi xalqaro banklarni kiritish mumkin:

- Evropa rivojlanish va taraqqiyot banki;
- Xalqaro valyuta fondi;
- Xalqaro Moliya korporatsiyasi;
- Xalqaro hisob-kitoblar banki;
- Evropa investitsiya banki va boshqalar.

Xorijiy banklar to'liq yoki qisman chet el investitsiyalariga tegishli bo'lgan banklar bo'lib, ular o'z faoliyatini mahalliy qonunlar doirasida olib boradi. Hozirgi vaqtda bunday banklar yirik banklarning sho'balari sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Bankning vazifalari

Ko'pchilikning tasavvurida bankning iqtisodiyotda tutgan o'rni faqatgina omonatlarga mablag'larni jalb qilish va kreditlar berishdan iboratdir. Lekin zamonaviy banklar o'zlarining raqobatbardoshligini saqlash va ja'miyatning talablarini qondirish

maqsadida yangi vazifalarni ham bajarishni o'rganishi lozim. Bugungi kunda bu vazifalar quyidagilardan iborat

Bankning hozirgi zamon vazifalari

/r	Banklarning Roli	Izoh
1.	Vositachilik Roli	jismoniy shaxslardan qabul qilib olgan mablag'larni yangi binolar, asbob uskunalar va boshqa ishlab chiqarish vositalariga investitsiya qilish maqsadida kreditga oladigan firma va korxonalar o'rtasida vositachi vazifasini bajaradi.
2.	To'lovlarni amalga oshirishda ishtirokchilik roli	tovarlar, qimmatli qog'ozlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun talabnomalar, majburiyatlar va cheklarni kliring asosida o'zaro surishtirishga asoslangan elektron to'lovlar orqali naqd pulsiz hisob-kitoblarni olib boradi.
3.	Kafolatchilik roli	bank kafolatchi sifatida tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni to'lashga imkoniyati etmayotgan bank mijozlari qarzlarni akkreditiv ochish yo'li bilan yoki faktoring operatsiyalari orqali to'laydi.
4.	Agentlik (dallollik) Roli	bank mijozlar mulkini boshqarish va himoya qilish, mijozning topshirig'iga binoan uning qimmatli qog'ozlarini muommalaga chiqarish va joylashtirish kabi yumushlarni bajarishda agentlik vazifasini o'taydi.
5.	Siyosiy yo'li	ijtimoiy maqsadlarni hamda iqtisodiyotning rivojlanishini ko'zlab davlat tomonidan yuritilayotgan siyosatning targ'ibotchisi vazifasini bajaradi.

Bank o'z faoliyati jarayonida quyidagi xizmatlarni ko'rsatadi:

- jismoniy va yuridik shaxslarning, shu jumladan vakil banklarning hisob varaqalarini ochish va yuritish hamda hisob varaqlar bo'yicha hisob-kitob qilish;
- omonatlarni jalb qilish;
- o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'lar hisobidan o'z nomidan kreditlar berish;
- chet el valyutasini naqd pul va naqd bo'lmagan pul shakllarida yuridik hamda jismoniy shaxslardan sotib olish, sotish va ayirboshlash;
- pul mablag'lari veksellar, to'lov va hisob-kitob hujjatlarini inkasso qilish;
- uchinchi shaxs nomidan majburiyatlarning bajarilishini nazarda tutuvchi kafolatlar berish;
- uchinchi shaxs nomidan majburiyatlarning bajarilishini talab qilish huquqini olish;

- qimmatli qog'ozlarni chiqarish, xarid qilish, sotish, hisobni yuritish va saqlash, ularni boshqarish va boshqa operatsiyalarni bajarish;
- davlat faoliyatini qo'llab-quvvatlash;
- kichik va o'rta tadbirkorlikni kredit bilan ta'minlash;
- trast xizmatlari - ishonch qog'ozlar orqali mijozlar aktivlarini boshqarish;
- faktoring xizmatlarni amalga oshirish;
- moliyaviy lizingni bajarish;
- iste'mol kreditini berish;
- moliyaviy maslahat va axborot xizmatlarini bajarish;
- naqd pul mablag'larini boshqarish;
- yuqori tavakkalchilikka ega kreditlar berish;
- sug'urta xizmatlarini sotish;
- qimmatliklar bilan bo'ladigan operatsiyalarda brokerlik xizmatlarini amalga oshirish;
- investitsiya va boshqa xizmatlarni ado etish.

Barcha zamonaviy banklar muomalaga pul chiqaradilar va kredit beradilar, ya'ni qarz oluvchining qarzini qaytarib berishi to'g'risida majburiyatini oladilar. Bu qanday amalga oshiriladi?

Hozirgi vaqtda barcha yirik rivojlangan davlatlarda tovarlar va xizmatlar uchun olinadigan haq asosan chek ko'rinishida bo'ladi.

CHek hujjatlarining ikki turi mavjud:

Birinchisi, mijozga kredit berilganda, u oddiy vekselga imzo chekadi va o'z o'rnida bank unga talab qilib olinguncha depozit hisob varag'ini ochadi. Qarzdorning oddiy vekseli pul hisoblanmaydi, undan tovarlar va xizmatlar uchun to'lov sifatida foydalanish mumkin emas. Lekin bankning depoziti pul hisoblanib, undan mijoz xohlagan vaqtda xohlagancha sarf qilishi mumkin. SHunday qilib, bank qarz berib, o'z mijoziga depozit ochib, muomalaga pul chiqaradi va mijoz undan erkin foydalana oladi.

Ikkinchidan, bank tizimidagi barcha banklar mijozlarga kreditlar berib, pul ishlaydilar. Bu kreditlar boshqa banklarga depozit mablag' bo'lib tushadi. Amaldagi qonunchilikka ko'ra, bank jalb qilgan depozitlarini kafolatlash uchun zaxiralar fondini tashkil qiladi. SHunday qilib, har bir jalb qilingan depozit qo'yilmasi zaxiralar hajmining ortib borishini ta'minlaydi va bu mablag'lar kredit sifatida ishlatilishi mumkin. Kreditlar boshqa banklarga depozit ko'rinishida oqib o'tadi va yangi kreditlar berish imkoniyati yuzaga keladi. Oxir oqibatda, banklarning kredit berish vazifasiga asosan, ularning depozit hisob varaqalarida turgan pul mablag'lari mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Banklarning pul ishlash qobiliyatiga ega ekanligi ular faoliyatining davlat tomonidan tartibga solib turilishining asosiy sababidir.

Banklarning o'zaro kredit olishlaridan maqsad o'z mablag'larini to'ldirish, ular hisobidan ortiqcha kreditlar berish hamda qo'shimcha daromad olishdan iboratdir. Banklarning ana shu pul ishlash qobiliyati ularning davlat tomonidan qattiq nazorat qilinishining asosiy sababidir.

Banklar faoliyatidagi xizmat turlarining ortib borishi va kengayishi yaqin kelajakda ularning hozirgi banklarga qaraganda butunlay o'zgarib ketishiga olib kelishi mumkin. Bu o'zgarishlarning sodir bo'lishiga quyidagilar ta'sir ko'rsatmoqda:

1. Xizmat turlari va ularning sifatlariga bo'lgan talabning ortishi. Ba'zi bir zamonaviy banklar sug'urta kompaniyalari faoliyatida ishtirok etish, sug'urta savdosida brokerlik qilish, loyihalarni investitsiyalash, qimmatli qog'ozlar bilan bo'ladigan operatsiyalarda brokerlik qilish, moliyaviy rejalashtirish, soliq tizimiga, xususiy shaxslarga maslahatlar xizmatini taklif qilmoqdalar.

2. Raqobatning o'sishi. Banklar va bankdan boshqa moliya institutlari xizmat turlarini kengaytirishi natijasida ular o'rtasidagi raqobat kuchayadi. Bu raqobat kelajakda banklarning xizmat turlarini yanada kengaytirilishiga olib keladi.

3. Texnologiya sohasidagi o'zgarishlar, ya'ni to'lovlarning yangi integratsiyalashgan vositalarini yuqori sur'atlar bilan shakllantiradigan bank operatsiyalarini kompyuterlashtirishning texnologik inqilobi.

4. Banklarning xizmat ko'rsatish doirasi va uning hududiy jihatdan kengayishi.

5. Bankrotlik (inqiroz) xavfining ortishi va depozitlarning, sug'urta tizimining kuchsizlanishi, o'sib borayotgan raqobat banklarning sinishiga olib keladi, bu esa sarmoyalar bozorida va investitsiyalar sohasida yangi sharoitlarni vujudga keltiradi.

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun banklar samarali faoliyat ko'rsatishlari lozim. Chunki, ular davlat korxonalarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlaydilar, xususiy shaxslarni moliyalashtiradilar va davlatning pul-kredit siyosatini amalga oshirishini ta'minlaydi.

Bu o'rinda, banklarning samarali faoliyat ko'rsatishlarida bank boshqaruvchilarining tutgan o'rni juda katta ekanligini esdan chiqarmaslik lozim. Bank boshqaruvchilari quyidagi fazilatlarga ega bo'lishi kerak:

- professionalizm, ishga ijodiy yondoshish, qat'iylik, o'ziga ishonch va ishga fidoyilik;
- yangicha fikrlash, topqirlik, tashabbuskorlik va g'oyalarni hayotga tatbiq eta olish qobiliyati;
- odamlarga ruhiy ta'sir ko'rsata olish salohiyati;
- chiqishimli bo'lish va yutuqni hisob qilish;
- hissiyotga berilmaslik va ruhiy zarbalarga chidash;
- ochiq ko'ngillilik, tadbirkorlik va yuz berayotgan o'zgarishlarga oson moslashish;
- vaziyatni boshqara olish va korporativ tuzilmalarda shaxsga xos g'ayrat-shijoat ko'rsatish;
- o'zini-o'zi o'stirishga va o'zini safarbar etishga ichki ehtiyoj sezish;
- serg'ayrat va bardoshli bo'lish;
- o'zini muvaffaqiyatli himoya qilishga moyillik va samarali hujumga o'ta olish;
- o'z ishi va qabul qilingan qarorlari uchun mas'uliyatni his qilish;
- jamoada va jamoa bilan ishlashga o'zida ehtiyoj sezish.

2-mavzu. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi va boshqa kredit muassasalari

Reja:

- 1. Nobank kredit tashkilotlari va ular faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari**
- 2. Nobank kredit tashkilotlari faoliyatining huquqiy asoslari**
- 3. Mikrokredit tashkilotlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlari**
- 4. Lombard tashkilotlari faoliyati tahlili**

Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ularning hayotlari farovonligini ta‘minlashda mikromoliyaviy xizmatlarning o‘rni muhim ahamiyat kasb etmokda. O‘z navbatida, aholi o‘rtasida mikromoliyaviy xizmatlarga bo‘lgan talabning kuchayishi mahalliy mikrokredit tashkilotlari va lombardlar faoliyatini xalqaro talablar darajasiga olib chiqish va sifatli xizmat turlarini taklif etishni talab etadi. Jahon tajribasidan ma‘lumki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini faoliyatining dastlabki davrlarida ularning kreditlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishda tijorat banklariga muqobil ravishda nobank kredit tashkilotlarining ham ahamiyati kattadir.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan nobank kredit tashkilotlari, xususan, mikrokredit tashkilotlari hamda lombardlar faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, shuningdek, ular faoliyatining me‘yoriy-huquqiy bazasi yanada takomillashtirilishi nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini va faoliyati ko‘lamini kengaytirishga mustahkam zamin yaratmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi «2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish va yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida»gi PQ-1438-sonli Qarorida, aynan, nobank tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari belgilab berildi. Bunda nobank tashkilotlari faoliyatini yanada rivojlantirish, mikrokreditlash va boshqa mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatish hajmlarini kengaytirish, nobank tashkilotlari va ular tomonidan ko‘rsatiladigan xizmat turlari tarmog‘ini kengaytirish, nobank tashkilotlarida hisob yuritilishini, ular faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish usullarini yanada takomillashtirish, axborot-aloqa texnologiyalarini joriy etish, nobank tashkilotlari xodimlarining malakalarini oshirish, mikromoliyalash sohasini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarni keng yoritish shular jumlasidandir.

2015 yilda mikrokredit tashkilotlarining asosiy ko‘rsatkichlari barqaror o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lib, jami aktivlari qoldig‘i 2014 yildagiga nisbatan 30,2 foizga oshib, 2016 yilning 1 yanvar holatiga ko‘ra, 67,5 mlrd. so‘mga, kapitali 25,3 foizga oshib, 46,7 mlrd. so‘mga va ajratilgan kredit va ko‘rsatilgan lizing xizmatlari qoldig‘i 24,2 foizga oshib, 54,4 mlrd. so‘mga etdi¹.

SHuningdek, 2016 yilning 1 yanvar holatiga ko‘ra, lombardlarning jami aktivlari o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 36,0 foizga oshib, 41,5 mlrd. so‘mni, kredit

¹2015 yilda pul-kredit sohasidagi vaziyat va monetar siyosatning 2016 yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari. Bozor, pul va kredit jurnali. 2016. №1.

qo'yilmalari qoldig'i 44,7 foizga oshib, 34,6 mlrd. so'mni va jami kapitali hajmi 29,6 foizga oshib, 35 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Nobank kredit tashkilotlari tarmog'i va ular tomonidan ko'rsatilayotgan mikromoliyalash xizmatlari ko'lamining kengayib borayotganligi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, ayniqsa, aholini kreditlash hajmlarining oshib borishiga xizmat qilmoqda.

Jahon bankining ma'ruzasida O'zbekiston keyingi yillarda tadbirkorlik faoliyati uchun ishbilarmonlik muhitini yaxshilash sohasida eng yaxshi natijalarga erishgan dunyodagi o'nta davlat qatoridan joy olgani qayd etilgan.

Ana shu yo'nalishdagi islohotlar natijasida yalpi ichki mahsulotimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 2000 yildagi 31 foizdan bugungi kunda 56,7 foizga etgani yoki 1,8 barobar oshgani alohida ta'kidlandi².

Bugungi kunda mamlakatimizda axolining kam ta'minlangan katlamini moddiy jixatdan ko'llab kuvvatlash, ularning xayotlari farovonligini ta'minlashda mikromoliyaviy xizmatlarning o'rni muxim kasb etmokda. O'z navbatida axoli, o'rtasida mikromoliyaviy xizmatlarga bo'lgan talabning kuchayishi maxalliy mikrokredit tashkilotlari va lambardlar faoliyatini xalkaro talablar darajasiga olib chikish va sifatli xizmat turlarini taklif etishni talab etmokda.

Nobank kredit-moliya institutlari - bu rasman bank emas (bank litsenziyasiga ega emas), ammo asosiy faoliyati moliyaviy xizmatlar ko'rsatish bo'lib, ko'p jihatdan banklarnikiga bog'liq va muqobil hisoblanadi. SHuning uchun nobank kredit-moliya institutlari ko'plab ingliz tilidagi adabiyotlarda banklarga asosiy raqobatchi deb aytiladi va bular: lombard tashkilotlari, mikrokredit tashkilotlar va kredit uyushmalari (hozirgi kunda faoliyati to'xtatilgan).

Lombard tashkilotlari, garovxona-garovga qo'yilgan muayyan buyumlar evaziga ma'lum muddatga pul (mablag') berib turadigan tashkilot. Buyumning qiymati tomonlarning kelishuviga ko'ra baholanadi, garovga qo'yilgan buyum egasiga nomi yozilgan lombard tashkilotlari tilxati beriladi. Olingan pul o'z vaqtida qaytarilmasa, qo'yilgan buyum lombard tashkilotlari mulkiga aylanadi va lombard tashkilotlari qo'yilgan buyumlarni sotishga haqdi. SHuningdek, lombard tashkilotlari qimmatbaho uy-ro'zg'or buyumlarini saqlab berish uchun ham qabul qiladi. Lombard tashkilotlariga buyumlar faqat mablag' olish uchun emas, ba'zan mazkur buyumning ishonchli saqlanishini ta'minlash uchun ham qo'yiladi. Buyumlarni garovga qo'yib kredit berish birinchi marta 15-asrda Italiyaning Lombardiya viloyatidan chiqqan sudxo'rlar tomonidan joriy etilgan ("lombard" so'zi ham shundan kelib chiqqan). Lombard tashkilotlarning mijozlari bular-asosiy kredit bozorlaridan mablag' olish imkoniyatiga ega bo'lmagan hamda kreditni qaytarish salohiyati past bo'lgan mijozlar hisoblanishadi

Mazkur nobank tashkilot ixtisoslashgan tijorat tashkiloti bo'lib, asosiy faoliyati fuqarolarning harakatdagi mulklari garovi ostida qisqa muddatli kreditlar berish va

² Karimov I.A. "Bosh maqsadimiz- iqtisodiyotimizda olib borayotgan islohotlarni va tarkibiy o'zgarishlarni keskin chuqurlashtirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka keng yo'l ochib berishdir". – T.: "O'zbekiston", 2016. – 11b.

buyumlarni saqlash bilan shug'ullanadi. Lombard tashkilotlari ixtisoslashganlik darajasiga qarab qimmatbaho metallar, maishiy vositalar, zargarlik buyumlari, soatlar, antikvar buyumlar, avtotransportlar va h.k ni garov sifatida qabul qiladi. Buyumlarning bahosi ikki tomonning kelishuvi asosida belgilanadi. Banklar-pulga muhtoj bo'lganlarga mablag' (kredit) bermasligi tufayli, mijozlar Lombard tashkilotlariga murojaat qiladilar. Bunga sabab, banklar jismoniy shaxslarga kredit berishlaridan oldin mijozlarning kreditga layoqatlilik darajasi o'rganiladi. Lombard tashkilotlarida esa mazkur kriteriya mavjud emas.

Qarzdor o'z buyumini qonunda yoki shartnomada belgilangan vaqt oralig'ida qaytarib olishi mumkin. Bunda olingan qarz summasiga Lombard tashkilotlari tomonidan belgilangan foiz stavkalarini qo'shish asosida qaytarib sotib olish summasi belgilanadi. O'z vaqtida qaytarib olinmagan buyumlar savdo va auksionda realizatsiyaga qo'yiladi.

Garov evaziga kredit berish birinchi marta Fransiyadan XV asrda olib-sotarlar tomonidan ta'sis etilgan. Ular Lombardiya shahridan bo'lganlar, shu orqali «lombard» so'zi kelib chiqqan. Cherkovlar aholini past tabaqali qatlamini pul bilan ta'minlash maqsadida, garovga buyum qo'yish g'oyasini ilgari surgan. Aynan cherkovlar ssuda stavkasini 5% gacha kamaytirishga muvaffaq bo'lgan. Ilk lombard tashkilotlari uchun pul hayriya ishlari orqali to'plangan.

XVI asrda ilk bor munitsipial lombard tashkilotlari paydo bo'ldi (Nyurnbergda). Ularning ham asosiy funksiyalaridan biri aholini past tabaqali qatlamini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashdan iborat bo'lgan. Tilla taqinchoq bezaklari uchun berilgan pullar aholini o'sha vaqtda ochlikdan, ochlik tufayli yuzaga keladigan o'g'irlik va qonun buzarlklardan saqlab turgan. O'sha vaqtlarda xususiy lombard tashkilotlari o'zining egasiga juda kata mablag' keltirgan, chunki hali lombard tashkilotlari faoliyati davlat tomonidan nazorat qilinmagan. Buning natijasida bu sohada o'zboshimchalik hukm surgan. Lombard tashkilotlari egalari shunchalik ko'p pul mablag'iga ega bo'lganidan, yuqori tabaqali shaxslar ham lombard tashkilotlari xizmatidan foydalanishgan. Hattoki, davlat boshliqlari harbiy faoliyatni amalga oshirish uchun lombard tashkilotlaridan qarz olgan. Ayniqsa bunda taniqli Prussiya podshosi Fridrix mashhur bo'lgan. SHuningdek, Xristofor Kolumb ekspeditsiyasini amalga oshirish uchun Ispaniya qirolichasi o'z tojini lombard tashkilotlariga qo'ygan. Sekin-asta lombard tashkilotlari universal bo'lib bordi...

O'rta Osiyoda 1913-yil 26-sentabrda Toshkent shahrida birinchi Lombard tashkilotlari ochilgan.

Garov predmeti jihatidan lombard tashkilotlari quyidagilarga bo'linadi:

1) Zargarlik buyumlari Lombardi - Garov sifatida turli xildagi zargarlik buyumlari, ya'ni qimmatbaho metallar, zeb-ziynatlar, qimmatbaho toshlar, tilla idishlar va antikvar buyumlar qabul qilinadi. Ularning bahosi lombard ekspertlari tomonidan o'rnatiladi. Aholiga qimmatbaho metal va toshlar evaziga yoki ularni saqlab bergani uchun qisqa muddatli qarz beradi;

2) Avtolombard - Oxirgi yillarda eng mashhur Lombard tashkilotlari turlaridan hisoblanadi. Garov sifatida avtomobildan foydalaniladi. Uning xususiyati shundan iboratki, qarz oluvchi avtomobilning 90% miqdordagi summasini olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Uning asosiy shartlaridan biri avtomobil qarz oluvchining shaxsiy mulki bo'lishi kerak.

Lombard tashkilotlariga qo'yish huquqini beruvchi shaxsdan ishonchnoma taqdim qilishi shart. Aholiga avtomobil evaziga qisqa muddatli qarz beradi;

3) Maishiy vositalar lombardi - Garovga olinayotgan texnika sozlangan bo'lishi yoki qayta ta'mirlash imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Bundan tashqari, u etarli darajada qimmatbaho va ayni vaqtda judayam kata hajmga ega bo'lmasligi lozim. Lombard tashkilotlari hududida saqlash imkoniyati mavjud bo'lishi kerak.

1) Universal lombard tashkilotlar - Qonunchilik asosida turli xildagi buyumlarni qabul qiladi. Aholiga Qonunchilik asosida qisqa muddatli qarz beradi;

2) Ixtisoslashgan lombard tashkilotlari- Bunda aynan bir turdagi tovarlarni qabul qilishni afzal bilishadi Masalan , faqat tilla va zargarlik buyumlari, qimmatbaho soatlar yoki antikvar buyumlar. Aholiga qonunchilik asosida aynan bir turdagi tovarlar evaziga qisqa muddatli qarz beradi;

Faoliyati litsenziyalanganligi jihatidan:

1) Litsenziyalangan lombard tashkilotlari

2) Litsenziyalanmagan lombard tashkilotlari

Qimmatbaho toshlar va metallar bn bog'liq lombard tashkilotlari uchun litsenziya muhim hisoblanadi.

Ma'lumki, **mikrokredit tashkilotlari**, eng avvalo, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi, jumladan, ma'lum shartlarda mikrokredit va mikroqarz beruvchi tashkilotlar hisoblanadi.

Mikromoliyalash va mikromoliyaviy xizmatlar bozorining rivojlanish evolyusiyasi o'tgan XX asrning o'rtalarida aholining kam daromadli qatlamlariga moliyaviy xizmatlar ko'rsatish borasidagi dastlabki sa'y-harakatlar ushbu xizmatlardanfoydalanishning pirovard maqsadlari bilan bog'langan. Xususan XX asrning 50-70 yillarida davlat idoralari va donor tashkilotlar mayda va kam ta'minlangan fermerlarning ish unumini hamda daromadlilik darajasini oshirish umidida ularga subsidiyalangan qishloq xo'jalik kreditlarini berib kelganlar.

1980-1990 yillarda mikrokreditlar asosan aktivlarga ega bo'lish va ularni jang'arish, oilalarning daromadini va turmush darajasini oshirish uchun kam ta'minlangan tadbirkorlarga qarz berishdaniborat edi. Mikrokredit oluvchilarning aksariyat qismi esa, ayollardan iborat bo'lib, ular uchun mikrokreditlash ayniqsa samarali vositaga aylangan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish amaliyotini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari iqtisodiy adabiyotda chuqur tadqiq qilingan.

Mikromoliyalashning kelib chiqish tarixi XIX asrning 40 yillarida Germaniya qishloq xo'jaligida yuz bergan tanglik holatidan (og'ir iqlim sharoitining yuzaga kelishi va hosildorlik bo'lmaganligi) boshlandi va o'sha davrda Fridrix Rayfayzen tomonidan Veerbush shahrida evropada birinchi bor "Xlebnyy soyuz" o'zaro yordam kassasi tashkil etildi. XX asrning 50-70 yillarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi sust bo'lgan mamlakatlarda davlat organlari va donor tashkilotlari kichik va kam ta'minlangan fermerlarga ularning mehnat unumdorligi va daromadlari darajasini oshirish umidida

subsidiyalashtirilgan qishloq xo‘jalik kreditlari berishni boshlagan. 1970 yillardan so‘ng rivojlanayotgan mamlakatlarda kam ta‘minlangan aholi qatlamiga kichik hajmdagi kreditlar berish va boshqa maslahat xizmatlari ko‘rsatish bo‘yicha eksperimentlar o‘tkazildi.

Guruhli kreditlash uslubiyotiga asoslangan birinchi mikrokreditlash dasturi Bangladeshda 1976 yilda prof. M.YUnus (Nobel mukofoti sohibi, 2006 y.) boshchiligidagi “Gramin” banki orqali amalga oshirildi va shu yilni mikromoliyalashning tug‘ilgan yili, deb nomlash mumkin.

Xalqaro Nobel mukofotining laureati, prof. M.YUnus tomonidan mikromoliyaviy xizmatlarning nazariy, uslubiy asoslari ishlab chiqilgan va Bangladeshning Gramin banki amaliyotiga joriy etilgan. Mikrokredit tashkilotlari faoliyatining tub asoslari M.YUnus tomonidan yaratilgan. Uning fikriga ko‘ra, nisbatan yuqori foiz stavkalarini aholining o‘rta qatlamiga nisbatan qo‘llash lozim, kambag‘allarga beriladigan mikrokreditlar esa, imtiyozli bo‘lishi zarur. Ular mikrokreditlar yordamida kambag‘allik balosidan qutuladilar, undan keyin esa, banklar va mikromoliyalash tashkilotlari ularni o‘rta tabaqaga mansub mijozlar bilan umumiy shartlar asosida kreditlashlari mumkin.

Bizning fikrimizcha, M.YUnusning mikromoliyaviy xizmatlar bo‘yicha amaliyotga tatbiq etilgan taklifi qo‘llanilishi o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida ushbu xizmat turlarini takomillashtirishning zaruriy sharti hisoblanadi. Buning sababi shundaki, birinchidan, mikrokreditlarni asosan aholining kam ta‘minlangan qatlamlari oladi. Ularning daromad darajasi past bo‘lib, yuqori foiz stavkalaridagi mikrokredit va mikrolizing xizmatlaridan foydalanish imkoniyati cheklangan. Ikkinchidan, aholining kambag‘al qatlamlari va endi tadbirkorlik faoliyatini boshlagan kichik biznes sub‘ektlari yuqori likvidli garov ob‘ektlariga ega emas. Bu esa, mikromoliyaviy xizmatlar hajmini oshirishga jiddiy to‘sqinlik qiladi.

Iqtisodchi-olim D.Tajibaeva ilmiy ishida mikrokreditlash amaliyotining qonunchilik asoslarini takomillashtirish, ularga davlat tomonidan moliyaviy imtiyozlar berish bo‘yicha qator ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. D.Tajibaevaning ilmiy izlanishlarida, aynan, mikrokredit tashkilotlarining mikrokreditlar berish amaliyotini takomillashtirish masalalariga asosiy e‘tibor qaratilgan.

Iqtisodchi-olim B.Mamatovning «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub‘ektlarini mikromoliyalash amaliyoti va uni takomillashtirish» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub‘ektlarini moliyalashtirishda mikrokredit tashkilotlarining roli tadqiq qilingan va O‘zbekistonda mikrokredit tashkilotlari faoliyati taraqqiyotini ta‘minlashga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Xorijlik iqtisodchilardan D.Savinovanning fikricha kichik tadbirkorlikni kreditlash bozorining har bir bosqichi uchun alohida kredit xizmati ko‘rsatish zarur. U mazkur bozorning uch bosqichi bo‘yicha uch xil kredit xizmatini taklif etadi, jumladan:

- yakka tartibdagi tadbirkorlarga va yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan kichik biznes sub‘ektlariga minimal miqdorda mikrokreditlar berish;
- kichik biznes sub‘ektlariga kapital qurilish va asosiy vositalar sotib olish uchun limit asosida, bir marotabali kreditlash hamda kredit yo‘nalishini ochish yo‘li bilan

kreditlash shaklida, cheklovlar limitlar belgilash orqali o'rt va uzoq muddatli kreditlar berish;

– kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlariga aylanma kapitalni to'ldirish maqsadida overdraft shaklida yoki kredit yo'nalishlari ochish orqali kreditlar berish¹.

Ayrim iqtisodchi-olimlar mikromoliyalashni kredit tarixi mavjud bo'lmagan, garov ta'minoti etishmagan, an'anaviy bank xizmatlaridan foydalanishga imkoniyati bo'lmagan tadbirkorlarga, mijozlarning ma'lum guruhiga kichik hajmdagi kreditlar taqdim etish borasidagi faoliyat sifatida e'tirof etadilar, mikromoliyaviy munosabatlarning ijtimoiy roliga esa alohida e'tibor qaratiladi, shuningdek, mikromoliyalashni mikrokreditlash sifatida tushunib, uning yuqori miqdori qonun hujjatlari bilan belgilanishini ta'kidlaydilar. Masalan, A.Taev fikricha: "mikromoliyalash - bu ijtimoiy tengsizlikni qisqartirishga yo'naltirilgan, an'anaviy bank xizmatlariga imkoniyati etmagan kichik tadbirkorlik sub'ektlari va jismoniy shaxslarga kichik hajmdagi, ya'ni 500-1000 AQSH dollari miqdorida beriladigan kreditlar tushunilib, uning asosiy xususiyati kredit tarixi mavjud bo'lmagan, garov ta'minoti etarli bo'lmagan mijozlarga xizmat ko'rsatilishidir".

T.Minakova tadqiqotlarida "mikromoliyalash - mikrokreditlashni anglatib, kichik biznesni, shu jumladan, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun past foiz stavkalar asosida kichik hajmdagi kreditlarni garovsiz taqdim etishdir", deb tariflangan³.

Jahon tajribasida mikrokreditlashda qo'llaniladigan uslubiyotga ko'ra (1-jadval) yakka tartibda kreditlash, odatda, tijorat banklari tomonidan qo'llaniladigan usulning yangi ko'rinishidir. Bu jarayonda olinadigan qarzlarni mol-mulk bilan kafolatlanadi, mijozlarning kredit tarixi va ularga berilgan tavsiyalar tekshiriladi, qarz berishda ta'minlanayotgan biznesning hayotiyiligi, istiqboli sinchiklab o'rganilgandan so'ng kredit beriladi. Mikrokredit tashkilotlari mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni rivojlantirishga harakat qiladi. Mazkur uslubiyotning odatdagi kreditlashdan farqi unda maslahat berish va o'rgatish kabi vositalarning mavjudligidir. Guruh bo'lib kreditlash uslubiyotiga ko'ra, bank xodimlari tomonidan bajariladigan vazifalar kredit guruhi zimmasiga yuklanadi, uning shakllanishi mikrokredit tashkiloti xodimining tashabbusiga ko'ra yuz beradi. Guruh mijozlarni o'zi tekshiradi va uning tarkibiga kim kirishi mumkinligini o'zi hal etadi. Guruh a'zolari bir-birining biznesini va kreditni qaytarish imkoniyatlarini baholashadi, kreditlash asta-sekin ko'payuvchi, uncha katta bo'lmagan miqdorda qarz berish yo'li bilan amalga oshiriladi, guruh a'zolarining har biri olingan qarzni qaytarish yuzasidan javobgar bo'ladi, qarzni qaytarish muddati buzilganda yoki to'lanmasa, guruh to'qarzini tamoman uzmagunicha navbatdagi kreditni olish imkoniyatidan mahrum etiladi. Amaliyotda mikrokredit tashkilotlarida guruhlarga qarzning hamma qismini berish usuli ham qo'llaniladi va guruh qarzni a'zolariga qay tartibda berishni o'zi hal etadi.

2. Nobank kredit tashkilotlari faoliyatining huquqiy asoslari

¹Савинова Д.В. О формировании механизма привлечения кредитных ресурсов в малый бизнес //Деньги и кредит. - Москва, 2009. - № 5.

³Минакова Т.В. Стратегия и развития малых и средних предприятий промышленности в условиях социально ориентированной экономики. Автореф. дисс. на соиск. учен. степ. к.э.н. -М.: МГУ,2008.

O‘zbekiston Respublikasida aholi va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning mikromoliyaviy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishda tijorat banklari bilan birga nobank kredit tashkilotlarini ham o‘rni va ahamiyati oshib bormoqda. Bu borada so‘nggi davrlarda keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 2006 yil 15 sentyabrdagi 50-sonli “Mikromoliyalash to‘g‘risida”gi, 2006 yil 20 sentyabrdagi 53-sonli “Mikrokredit tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonunlari va ularga asoslangan holda Markaziy bank tomonidan ishlab chiqilgan 2006 yil 7 oktyabrdagi №24/4 “Mikrokredit tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash tartibi to‘g‘risida”gi me‘yoriy hujjatlar nobank kredit tashkilotlari uchun zarur huquqiy mexanizmni yaratib, ular sonini tez sur‘atlarda o‘shirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Mikromoliyalash to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilinishiga qadar fuqarolar va tadbirkorlik sub’ektlarini mikrokreditlash Markaziy bank tomonidan ishlab chiqilgan va Adliya vazirligida tasdiqlangan nizomlar, tartiblar va yo‘riqnomalar, shuningdek, mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi tashkilotlarning ichki siyosatlarini doirasida amalga oshirilgan edi.

Mazkur qonunning qabul qilinishi bilan fuqarolarni va tadbirkorlik sub’ektlarini mikromoliyalashning xuquqiy bazasi yanada takomillashdi. Chunki ushbu qonunning asosiy maqsadi mikromoliyaviy xizmatlar bozorini rivojlantirish, fuqarolar va tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatini kuchaytirish uchun ularni moliyaviy mablag‘lar va xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlarini ta‘minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat, deb ko‘rsatib o‘tilgan.

Mazkur qonunda mikromoliyalash, mikrokredit, mikroqarz va mikrolizing tushunchalari to‘liq ochib berilgan.

Xususan, mikromoliyalash-mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi tashkilotlarning qonun hujjatlarida belgilangan miqdordan oshmaydigan summada mikrokredit, mikroqarz, mikrolizing berish, shuningdek mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnomaga muvofiq boshqa xizmatlar ko‘rsatish borasidagi faoliyatidir. Mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi tashkilotlar jumlasiga banklar, mikrokredit tashkilotlari, lombard tashkilotlari va boshqa kredit tashkilotlarini kiritish mumkin.

Mikrokredit-qarz oluvchiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun eng kam ish haqining ming baravari miqdoridan oshmaydigan summada to‘lovlilik, muddatlilik va qaytarish shartlari asosida beriladigan pul mablag‘laridir. Mikrokredit qarz oluvchiga pul mablag‘larini shartnomaga muvofiq muayyan maqsadlar uchun ishlatish shartlari asosida (maqsadli mikrokredit) beriladi.

Mikroqarz-mikrokredit tashkilotlari tomonidan jismoniy shaxs bo‘lgan qarz oluvchiga eng kam ish haqining yuz baravari miqdoridan oshmaydigan summada muddatlilik va qaytarish shartlari asosida, shartnomada nazarda tutilgan hollarda esa, to‘lovlilik sharti asosida ham beriladigan pul mablag‘laridir.

Mikrolizing-mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi tashkilot tomonidan lizing oluvchining topshirig‘iga binoan uchinchi tarafdan mol-mulk olish hamda uni egalik qilish va foydalanish uchun lizing oluvchiga shartnomada belgilangan shartlar asosida haq evaziga berish nazarda tutiladigan xizmatdir. Mikrolizing tadbirkorlik faoliyatini amalga

o'shish uchun lizing to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq eng kam ish haqining ikki ming baravari miqdoridan oshmaydigan summada beriladi.

Mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlardan biri—bu mikroredit tashkilotidir. Mikroredit tashkilotlari 2006 yil 26 avgustdagi "Mikroredit tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunga muvofiq o'z faoliyatlarini amalga oshiradilar. Unga ko'ra mikroredit tashkiloti - Mikroredit, mikroqarz, mikrolizing berish sohasida xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va "Mikroredit tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunga muvofiq boshqa mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxs deb ko'rsatib o'tilgan. Mikroredit tashkiloti ishlab chiqarish, sug'urta, savdo-vositachilik va mazkur qonunda nazarda tutilmagan boshqa faoliyat bilan bevosita shug'ullanishga haqli emas.

Mikroredit tashkilotlari yuridik va (yoki) jismoniy shaxslar tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq har qanday tashkiliy-huquqiy shaklda tashkil etilishi mumkin. Ushbu tashkilotlar davlat organlari, siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari va diniy tashkilotlar tomonidan tashkil etilishi mumkin emas.

Mikroredit tashkiloti ta'sis hujjatlari asosida faoliyat ko'rsatadi.

Mikroredit tashkilotining ta'sis hujjatlarida muayyan tashkiliy-huquqiy shakldagi yuridik shaxslar uchun qonun hujjatlarida belgilangan ma'lumotlarga qo'shimcha ravishda quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak:

- mikroreditlar, mikroqarzlilar, mikrolizing berish va boshqa mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyat to'g'risidagi;
- boshqaruv organlarining tuzilishi va vakolatlari to'g'risidagi;
- mikroreditlar, mikroqarzlilar, mikrolizing berish va boshqa mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish uchun mablag'larni shakllantirish manbalari to'g'risidagi;
- mikroredit tashkilotida audit o'tkazish tartibi to'g'risidagi.

Mikroredit tashkilotining ustav fondi pul mablag'laridan, shuningdek mazkur tashkilot ustav fondi miqdorining yigirma foizidan oshmaydigan boshqa mulkdan shakllantiriladi. Mikroredit tashkilotining ustav fondini shakllantirishda kreditga, garovga olingan mablag'lardan va boshqa jalb qilingan mablag'lardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Mikroredit tashkiloti ustav fondining eng kam miqdori litsenziya olish uchun murojaat qilingan kunga qadar faqat pul mablag'laridan shakllantirilgan bo'lishi kerak.

Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda mikroredit tashkiloti mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish faoliyatini litsenziya olganidan keyin amalga oshiradi. Mikroredit tashkilotiga litsenziya berish to'g'risidagi yoki litsenziya berishni asoslantirilgan holda rad etish to'g'risidagi qaror litsenziya berish haqidagi ariza bilan murojaat qilingan va litsenziya olish uchun zarur bo'lgan hujjatlar taqdim etilgan kundan e'tiboran o'ttiz kalendar kun ichida qabul qilinadi.

Mikroredit tashkiloti litsenziya olish uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga yoki uning hududiy boshqarmalariga quyidagi hujjatlarni taqdim etishi kerak:

- litsenziya berish haqidagi ariza;
- mikroredit tashkilotining ta'sis hujjatlari;

- mikroredit tashkiloti davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning notarial tartibda tasdiqlangan nusxasi;

- mikroredit tashkiloti boshqaruv organlarining tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar;
- mikroredit tashkilotining ustav fondi shakllanganligini tasdiqlovchi bank hujjati.

Mikroredit tashkiloti quyidagilar hisobidan mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatadi: o'z mablag'lari, shu jumladan olgan daromadlari; investorlar, shu jumladan chet ellik investorlar tomonidan investitsiya shartnomalari asosida berilgan mablag'lar; banklarning kreditlari va davlat maqsadli jamg'armalarining mablag'lari; xalqaro moliya institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlarining, shu jumladan chet el nodavlat notijorat tashkilotlarining grantlari va qarz mablag'lari; qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki mikroredit tashkilotlari faoliyatini tartibga solishni amalga oshiradi. Jumladan:

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda:

- mikroredit tashkilotlari ustav fondining eng kam miqdorini hamda moliyaviy va kassa operatsiyalari o'tkazishning, buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritishning mazkur tashkilotlar uchun majburiy bo'lgan qoidalarini belgilaydi;

- mikroredit tashkilotlarining faoliyatini tekshiradi va ularning faoliyatida aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etishga oid bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar beradi;

- mikroredit tashkiloti ijro etuvchi organi rahbarining malakasiga doir talablarni belgilaydi;

- mikroredit tashkiloti tomonidan ayrim moliyaviy operatsiyalar o'tkazishni uch oygacha bo'lgan muddatga cheklaydi;

- mikroredit tashkiloti litsenziyasining amal qilishini to'xtatib turadi, tugatadi yoki litsenziyani bekor qiladi.

Aholining faol qismi o'z biznesini tashkil etishi va boshlashi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ayniqsa qishloq joylarda aholi bandligini oshirishga ko'maklashuvchi kichik va mikrobiznes sub'ektlari faoliyatini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2010 yilgacha O'zbekiston Respublikasidamikromoliyalashtirishrivojlantirish dasturi to'g'risida"gi Qarorining qabul qilinishi kichik biznesni mikroreditlashni rivojlantirishda yangi sahifa ochdi. Mazkur Dasturga ko'ra quyidagi vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish asosiy yo'nalishlari etib belgilangan va ijro etilgan.

- mikromoliyaviy xizmatlarga muhtoj bo'lgan aholi to'liq qamrab olinishini ta'minlagan holda mamlakatning barcha mintaqalarida mikroredit tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish uchun iqtisodiy va tashkiliy shart-sharoitlar yaratish;

- normativ-huquqiy bazani takomillashtirish hamda mikroredit tashkilotlarining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi ular faoliyatini tartibga solishning samarali tizimini yaratish;

- moliyalashtirishning tijorat manbalari, xususan xalqaro moliya institutlari, tijorat banklari va davlat maqsadli jamg'armalarining kredit liniyalari hisobiga mikrokredit tashkilotlarining resurs bazasini shakllantirishga ko'maklashish;

- mikromoliyalashtirish xizmatlarini kengaytirish, xususan mikrolizing xizmatlarini rivojlantirish;

- mikrokredit tashkilotlari professional xizmatlarga va zarur kredit axborotlariga kirib borishini ta'minlovchi yordamchi xizmatlarni va infratuzilmani rivojlantirish.

Undan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi «2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish va yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida»gi PQ-1438-sonli Qarorida, aynan, mikrokredit tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari belgilandi. Uni 3-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin:

O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari va Markaziy bankning kichik biznesni mikrokreditlashga oid qator yo'riqnomalari kichik biznes faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamladi, kichik biznes sub'ektlari uchun ma'lum kafolatlar va imtiyozlar belgilandi, kichik biznesni qo'llab-quvvatlovchi infratuzilma tizimi shakllandi. SHu bilan birga, fikrimizcha, kichik biznesning qonuniy asoslarini zamon talablaridan kelib chiqib, doimiy ravishda takomillashtirib borish uning rivojlanib borishiga va taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mikrokredit tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini shakllantirish bo'yicha qonunlarning qabul qilinishi: 1) mikromoliyalash bilan bog'liq faoliyatni tartibga soluvchi yagona huquqiy bazaning shakllanishiga; 2) mikromoliyaviy xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar mablag'laridan foydalanish imkonini ta'minlashga; 3) aholining keng qatlamlariga mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan mikromoliyaviy tashkilotlar tuzish va faoliyatini rivojlantirishga; 4) mikromoliyalash jarayonini tartibga solish asosida mikrokredit tashkilotlari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasidagi o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

Lombard tashkilotlarining faoliyati va ular tomonidan bajariladigan operatsiyalar Markaziy bank Boshqaruvining 2003 yil 22 sentyabrdagi "Lombard tashkilotlarining faoliyati va operatsiyalarni amalga oshirish" 23/4-sonli qarori bilan tasdiqlangan tartibi asosida bajariladi. Ushbu tartib Adliya vazirligidan 1290-son bilan ro'yhatga olingan.

YUridik shaxs - litsenziya da'vogari, lombard tashkilotlari faoliyatini amalga oshirishga litsenziyani olish uchun litsenziyalovchi organga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

a) lombard tashkilotlarining faoliyatini amalga oshirishga litsenziya berish to'g'risida elektron arizani to'ldirish yoki shaklni yuklab olish unda yuridik shaxsning nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, uning joylashgan joyi (pochta manzili) va bank hisobvarag'ining rekvizitlari ko'rsatiladi;

b) yuridik shaxsning davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risida guvohnomaning notarial tasdiqlangan nusxasi;

v) lombard tashkilotlarining boshqarish vakolatiga ega organ tomonidan tasdiqlangan bir yillik faoliyat uchun biznes-reja;

g) muassislar ro'yxati, quyidagi ma'lumotlarni ko'rsatgan holda:

Jismoniy shaxslar uchun:

familiyasi, ismi, otasining ismi, pasport ma'lumotlari, yashash joyining pochta manzili, telefonlari;

faoliyat turi, ish joyi, lavozimi (agar ishlasa);

lombard tashkilotlarining ustav fondidagi ulushi summasi, shu jumladan, ustav fondining umumiy summasiga nisbatan foiz hisobida;

Yuridik shaxslar uchun:

to'liq nomi, pochta manzili va telefon raqamlari, to'lov rekvizitlari;

lombard tashkilotlarining ustav fondidagi ulushi summasi, shu jumladan, ustav fondining umumiy summasiga nisbatan foiz hisobida.

Barcha muassislar (ham yuridik va ham jismoniy shaxslar) uchun ariza taqdim qilingunga qadar oxirgi besh yil mobaynida sud (jumladan, xo'jalik sudi) yoki davlat organlari tomonidan bu shaxsga nisbatan qo'llanilgan barcha huquqiy jazo choralari to'g'risidagi ma'lumotlar.

d) lombard tashkilotlarining boshqaruv organlari tuzilmasi va shaxsiy tarkibi to'g'risida ma'lumotlar;

e) naqd pul mablag'lari va garovga olingan mulklarning saqlanishini ta'minlaydigan, maxsus jihozlangan xonalar (binolar) mavjudligini tasdiqlovchi ma'lumotlar;

j) litsenziya da'vogarining lombard tashkilotlari shtatida baholash faoliyatini amalga oshirish huquqiga tegishli litsenziyasi bo'lgan, maxsus kasbiy tayyorgarlikka ega hamda garovga qabul qilinayotgan qimmatbaho metal va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlarni yoki ulardan foydalanib yasalgan antikvariat, qimmatli ashyolar va boshqa ko'char mulk buyumlarini baholaydigan malakali mutaxassislar mavjudligi to'g'risida ma'lumot;

z) litsenziya da'vogarning arizasini litsenziyalovchi organ tomonidan ko'rib chiqilishi uchun yig'im to'langanligini tasdiqlovchi to'lov topshiriqnomasining nusxasi.

Lombard tashkilotlari ixtisoslashtirilgan tashkilot hisoblanadi. Lombard tashkilotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish funksiyasi adliya organlariga yuklangan. Lombard tashkilotlari adliya organlari tomonidan davlat ro'yhatidan o'tkazilganligi uchun qonun hujjatlarida to'lov kunida belgilangan eng kam oylik ish xaqining 4 barobari miqdorida davlat boji undiriladi. Litsenziyalovchi organ tomonidan litsenziya talabgorining arizasi ko'rib chiqilganligi uchun ariza berilgan kunda qonun hujjatlarida belgilangan bitta eng kam oylik ish haqi miqdorida yig'im undiriladi. Lombard tashkilotlari faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya berilganligi uchun to'lov kunida qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish xaqining besh barobari miqdorida davlat boji undiriladi.

Fuqarolardan shaxsiy iste'molga mo'jallangan ko'char mol mulkni qisqa muddatli kreditlarni ta'minlash uchun garovga qabul qilishga ixtisoslashgan tashkilotlar- litsenziyasi bo'lgan lombard tashkilotlari tomonidan tadbikorlik faoliyati sifatida amalga oshirilishi

mumkin. Lombard tashkilotlarida ashyolarni garovga qo'yish haqidagi sharnoma lombard tashkilotlari tomonidan garov pattasi berish yo'li bilan rasmiylashtiradi. Garovga qo'yilayotgan ashyolar lombard tashkilotlariga topshiriladi. Lombard tashkilotlari garovga qabul qilingan ashyolarni garovga qabul qilish paytida shunga o'xshash va shunday sifatli ashyolarning narxlariga mos bahodagi to'liq summasida o'z hisobidan garovga qo'yuvchi foydasiga sug'urtalanishi shart. Lombard tashkilotlari garovga qo'yilgan ashyodan foydalanish va ularni tasavvur etish xaqli emas. Lombard tashkilotlari ashyolarning yo'qolishini yoki shikastlanishini engib bo'lmas kuch oqibatida yuz berganligini isbotlay olmasa, garovga qo'yilgan ashyolarning yo'qolganligi yoki shikastlanganligi uchun javobgar bo'ladi.

Lombard tashkilotlari faoliyatini amalaga oshirish uchun litsenziya olish to'g'risida ariza:

Yuridik shaxsning nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, vakolatli shaxsning F.I.O., arizachining pochta manzili, STIR, indeks, telefon, faks, bank hisobvarag'ining rekvizitlari.

Basharti lombard tashkilotlarida ashyolar garovi bilan taminlangan kredit summasi belgilangan muddatda qaytarib berilmagan taqdirda lombard tashkilotlari notariyusning ijro yozuvi asosida imtiyozli bir oylik muddat o'tgandan keyin garovga qo'yilgan mol mulkni realizatsiya qilish uchun belgilab qo'yilgan tartibda ushbu mol mulkni sotishga xaqli. SHundan keyin garovga qo'yilgan mol mulkni realizatsiya qilishdan tushgan summa talablarni to'liq qanoatlantirish uchun etarli bo'masa xam, lombard tashkilotlarining garovga qo'yuvchiga talablari bekor bo'ladi. Agar qarz va boshqa to'lovlarni to'lagandan keyin tushim summasining qoldig'i bo'lsa, u garovga qo'yuvchiga qaytariladi. Lombard tashkilotlarda ashyolarni garovga qo'yish to'g'risidagi shartnomaning garovga qo'yuvchining xuquqlarini ushbu qonun yoki boshqa qonun va me'yoriy xujjatlar bilan unga berilgan xuquqlarga qaraganda cheklab o'tadigan shartlari o'z o'zidan haqiqiy emas.

3.Mikrokredit tashkilotlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri - aholi bandligini ta'minlovchi va ularning turmush farovonligini oshiruvchi, mamlakat yalpi ichki mahsulotining salmoqli qismini yaratuvchi, iqtisodiyotning muhim sektori hisoblangan - kichik biznesni yanada rivojlantirish hisoblanadi.

Aynan, kichik biznes korxonalarini iste'mol talabining o'zgarishiga tez fursatda moslasha olish hamda vujudga kelayotgan yangi talablarni yirik korxonalariga nisbatan barvaqt qondira olishga ulguradi. Uning ana shunday afzalliklari sabab, rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes rivojlanishini har tomonlama qo'llab-quvvatlashning keng tadbirlar tizimi amal qiladi va innovatsion faoliyat sohasidagi taraqqiyotning faollashtirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. SHuning uchun rivojlangan mamlakatlarda kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi, aholi bandligidagi hamda jami korxonalar sonidagi ulushi yuqori salmoqni tashkil qiladi.

Kichik biznes jamiyatimizdagi ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni ta'minlovchi, yurtimizni taraqqiyot yo'lidan faol harakatlantiradigan kuchga aylanib bormoqda.

YUrtimizda ushbu sohani rivoji uchun qulay tadbirkorlik muhiti yaratish va uni rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Buning natijasida mazkur sohada yil sayin yutuq va iqtisodiy o'sishga erishildi.

Kichik biznes sub'ektlari uchun doimo mablag' etishmovchiligi ularga bo'lgan xos xususiyatlardandir. Hozirgi kunda tadbirkorlik sub'ektlarining moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda nobank tashkilotlari muhim o'rin egallaydi. Bu esa, eng avvalo, ushbu tashkilotlar tomonidan tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlashning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Kichik biznes sohasini moliyaviy qo'llab quvvatlashda tijorat banklari bilan birga mikrokredit tashkilotlarini g'am o'rni oshib bormoqda.

Mikrokredit tashkilotlari yuridik shaxslar va aholiga quyidagi mikromoliyaviy xizmatlarni ko'rsatadi:

- jismoniy shaxslar uchun mikroqarz va moliyaviy iste'mol krediti;
- jismoniy shaxslarning solidar (umumiy javobgarlik) guruhi uchun mikroqarz;
- yuridik shaxslar va tadbirkorlar uchun mikrokredit.

Mikrokredit tashkilotlarining mikromoliyaviy xizmatlaridan foydalanish uchun quyidagilar zarur bo'ladi: O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini, tadbirkorlik faoliyatini tasdiqlovchi rasmiy hujjatlari mavjud bo'lishi hamda olinadigan qarz summasining ta'minoti likvidlik darajasiga qarab, qarz miqdorining 80-120 foizini tashkil qilish kerak. Mikrokreditning ta'minot turi sifatida transport vositalari va zargarlik buyumlari, guruh a'zolari kafilligi hamda sug'urta tashkilotlari va banklarning kafolati.

Tadbirkorlik sub'ektlarni moliyalashtirishda mikrokredit tashkilotlarining eng muhim xususiyati guruh kafolati ostida kreditlashdir. Guruhiy kafolat ostida kreditlashning afzalligi kredit guruh a'zolarining javobgarligi asosida garovsiz taqdim etilishi va garov bo'libguruh kafolati xizmat qilishidir. Guruh tomonidan qilingan bosim kreditni o'z vaqtida qaytarishga imkon beradi. SHuningdek, kreditni qaytarish uchun guruh a'zolaridan majburiy ajratmalar shakllantirilishi mumkin.

Mikrokredit tashkilotlari tomonidan jismoniy shaxslarning solidar guruhiga qo'yiladigan talabalar quyidagilardan iborat:

- guruh a'zolarining soni 3 kishidan kam bo'lmasligi;
- guruh a'zolari bir-birini kamida 1 yil mobaynida tanigan hamda mikroqarz yuzasidan kafillik berishga tayyor bo'lishi;
- guruh a'zolarining o'zaro qarindosh bo'lmasligi;
- mikroqarzni o'z vaqtida qaytarish imkoniyatining mavjud bo'lishi.

Ta'kidlash joizki, mikrokredit tashkilotlari bilan mijozlar o'rtasidagi munosabatlar o'zaro hurmat va ishonch, ikki tomonlama manfaatdorlik asosida barpo etiladi. Ikkinchi yoki undan ortiq bosqichlarda ishlagan mijozlar uchun kredit summasining oshirilishi va muddatlarining uzaytirilishi kabi qo'shimcha imtiyozlar ko'zda tutiladi.

Jismoniy shaxslar mikrokredit tashkilotidan mikroqarz olish uchun quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari lozim:


- pasport (asli va nusxasi);
- yashash joyidan ma'lumotnoma va tavsifnoma;
- rasm (1 dona);
- yakka tartibdagi tadbirkorning guvohnomasi (patent mavjud bo'lsa);

- garov;
- STIR (soliq to'lovchining identifikatsion raqami).

YUridik shaxslar mikrokredit tashkilotidan mikroqarz olish uchun quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari lozim:

- pasport (asli va nusxasi);
- yashash joyidan ma'lumotnoma;
- joriy yilning oxirgi kvartali uchun hisobot (balans, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot);
- ta'sisshilik hujjatlari va nizom nusxasi;
- guvohnoma, litsenziya (mavjud bo'lsa);
- faoliyat olib borayotgan joyi to'g'risida, ya'ni ijara shartnomasi yoki bino kadastri hujjatlari nusxasi;
- bank rekvizitlari.

Tadbirkorlik sub'ektlarini mikrokredit tashkilotlari tomonidan faol moliyalashtirish, o'z navbatida, ularning soni, ko'rsatayotgan xizmatlar sifati, ustav kapitali, resurslari, aktivlariga ham bog'liq bo'ladi.



1-rasm. O'zbekistonda mikrokredit tashkilotlari soni⁴ (1 yanvar holatiga, dona)

Rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2016 yilning 1 yanvar holatiga mikrokredit tashkilotlari soni jami 27 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2009 yil 1 yanvar holatiga 26

⁴O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki malimotlari asosida tuzildi.

tani tashkil etgan edi. Ammo mikrokredit tashkilotlarining rivojlanish tendensiyasi o'zgarib turgan.

Ko'rib turganingizdek, mikrokredit tashkilotlarini tashkil etish holati talab darajasida emas. Bu holat tadbirkorlik sub'ektlarining mikrokredit tashkilotlari xizmatlaridan keng ko'lamda foydalanish imkonini bermaydi va istiqbolda mikrokredit tashkilotlarini tashkil etish bo'yich maxsus davlat dasturlari ishlab chiqilishi va izchil amalga oshirilishini talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, jami mikrokredit tashkilotlarining 26 foizi Toshkent shahrida va 12 foizi Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatgani holda, Andijon va Navoiy viloyatlarida bironta ham mikrokredit tashkiloti hozirda faoliyat yuritmayapti. Bindan xulosa qilish mumkinki ushbu viloyatlarda ham mikrokredit tashkilotlarini tashkil etilishi o'zining ijobiy natijasini beradi.

jadval

O'zbekiston Respublikasi hududlarida mikrokredit tashkilotlarining umumiy soni va joylashuvi⁵, dona

Hududlar nomi	2010yil	2011 yil	2012 yil	2015 yil	2016 yil
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3	3	3	1	1
Andijon	1	1	1	-	-
Buxoro	3	3	3	3	3
Jizzax	0	0	0	1	1
Qashqadaryo	2	2	2	2	2
Navoiy	2	2	2	-	-
Namangan	2	2	2	1	1
Samarqand	2	2	2	1	1
Surxondaryo	2	2	2	1	1
Sirdaryo	0	1	1	1	1
Toshkent vil.	4	4	4	3	3
Farg'ona	3	3	3	3	5
Xorazm	0	0	0	1	1
Toshkent sh.	8	10	9	7	7
Jami	32	35	34	25	27

Jadval ma'lumotlaridan mikrokredit tashkilotlarining O'zbekiston hududlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, jami soni bo'yicha Toshkent shahri etakchilik qilmoqda, ya'ni 7 ta, undan keyingi o'rinlarni Farg'ona, Toshkent viloyati, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlari egallaydi. Bunday holat mikrokredit tashkilotlarining respublika hududlari bo'yicha nomutanosibligini hamda ushbu tashkilotlar faoliyati rivojlanmaganligi bildiradi.

Ma'lumki, mikrokredit tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tegishli litsenziyasi asosida faoliyat ko'satadi. Mikrokredit tashkiloti faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya olishga ariza topshiriladigan sanada tashkilot ustav fondining eng

⁵O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki malimotlari asosida tuzildi.

kam miqdori faqat pul mablag'laridan shakllantirilishi kerak. Mikro kredit tashkiloti faoliyat boshlaganidan keyin ustav fondiga miqdori mazkur tashkilot ustav fondi miqdorining yigirma foizidan oshmaydigan mol-mulkni kirim qilishga yo'l qo'yiladi. Kreditga, garovga olingan va boshqa jalb etilgan mablag'lardan mikro kredit tashkilotining ustav fondini shakllantirish uchun foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Litsenziya olish uchun mikro kredit tashkiloti ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin 60 kundan kechiktirmay, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Markaziy bank yoki uning hududiy boshqarmasiga quyidagi hujjatlarni taqdim etishi kerak:

- litsenziya berish to'g'risida ariza;
- mikro kredit tashkilotining ta' sis hujjatlari;
- mikro kredit tashkiloti davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnomaning notarial tasdiqlangan nusxasi;
- mikro kredit tashkilotini boshqarish organlarining tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar;
- mikro kredit tashkilotining ustav fondi shakllantirilganligini tasdiqlovchi bank hujjati;
- litsenziya talabgorining ariza ko'rilganligi uchun yig'imi kirim qilinganligini tasdiqlovchi to'lov topshiriqnomasining nusxasi.

Taqdim etilayotgan, bir varaqdan ko'p bo'lgan barcha hujjatlar ip bilan tikilishi kerak.

Litsenziya olishga barcha zarur hujjatlar ilova qilingan arizani Markaziy bank ariza va zarur hujjatlar kelib tushgan kundan boshlab 30 kalendar kun mobaynida ko'rib chiqadi.

Mikro kredit tashkilotiga litsenziya berilganligi to'g'risida qaror qabul qilinganidan keyin Markaziy bank quyidagi hujjatlarni o'z ichiga oladigan yuridik ishni rasmiylashtiradi:

- litsenziya berish to'g'risidagi ariza;
- mikro kredit tashkilotining ta' sis hujjatlari;
- mikro kredit tashkiloti davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning notarial tasdiqlangan nusxasi;
- mikro kredit tashkilotini boshqarish organlarining tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar;
- mikro kredit tashkilotining ustav fondi shakllantirilganligini tasdiqlaydigan bank hujjati;
- litsenziya berilganligi uchun davlat boji to'langanligini tasdiqlaydigan hujjat;
- litsenziya berish to'g'risida Markaziy bank Boshqaruvining qarori;
- mikro kredit tashkilotining faoliyatini amalga oshirishga litsenziya.

Mikro kredit tashkilotlarining filiallari Markaziy bankda hisobga qo'ygan holda mikro kredit tashkilotini boshqarish oliy organining qaroriga ko'ra barpo etiladi (yoki tugatiladi).

Filialga uni barpo etgan mikro kredit tashkilotining mol-mulki beriladi.

Mikro kredit tashkiloti quyidagi turlardagi mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatishi mumkin:

- mikro kreditlar yoki mikroqarzarlar berish;
- qarz majburiyatlarini sotib olish va sotish (faktoring);

- mikrokredit tashkiloti lizing beruvchi sifatida ishtirok etadigan mikrolizing (moliya ijarasi);

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa turdagi mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish, shu jumladan iste'mol kreditlari berish.

Mikrokredit tashkiloti mikrokreditlar, mikroqarzlar, mikrolizing berish va boshqa mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq maslahat va axborot xizmatlari ko'rsatishi mumkin. Mikrokredit tashkiloti qarz majburiyatlarini chiqarishga hamda yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar (depozitlar) qabul qilishga haqli emas.

Mikrokredit tashkiloti quyidagilar hisobidan mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatadi: o'z mablag'lari, shu jumladan olgan daromadlari; investorlar, shu jumladan chet ellik investorlar tomonidan investitsiya shartnomalari asosida berilgan mablag'lar; banklarning kreditlari va davlat maqsadli jamg'armalarining mablag'lari; xalqaro moliya institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlarining, shu jumladan chet el nodavlat notijorat tashkilotlarining grantlari va qarz mablag'lari; qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Mikrokredit tashkilotlari faoliyatini tahlil qilishda ularning avvalom bor aktiv va majburiyatlari va kapitalini o'rganish muhim hisoblanadi.

4. Lombard tashkilotlari faoliyati tahlili

Bugun respublikamizda 43 ta lombard tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning asosiy faoliyati aholiga shaxsiy foydalanish uchun mo'ljallangan ko'char mulkni garovga qo'yib, shuningdek, qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarni garovga qo'yib, qisqa muddatli (uch oydan ko'p bo'lmagan muddatga) kreditlar berishdan iboratdir. Boshqacha qilib aytganda, mijoz foiz to'lash sharti bilan muayyan muddatga biror-bir qimmatbaho ashyoni lombard tashkilotlariga garovga qo'yadi va garovga qo'yilgan mol-mulk qiymatiga teng bo'lgan summani oladi. Muddat tugagandan keyin mijoz foiz va garov summalarini to'lab, garov ashyosini qaytarib oladi.

Lombard tashkilotlari xizmatlari bozorida raqobat yuzaga kelayotgan sharoitda sifatli va xolis bozor axborotiga, ya'ni lombard tashkilotlarilar faoliyati to'g'risidagi moliyaviy va boshqa sifatli axborotga ehtiyoj oshadi. Ana shu sharoitlarda aholining lombard tashkilotlariga nisbatan ijobiy munosabatiga kredit reytinglaridan foydalanish ta'sir etadi. Xalqaro amaliyotning ko'rsatishicha, reyting o'tkazilishi lombard tashkilotlarilar faoliyatining shaffofligini muayyan darajada ko'tarishga imkon beradi.

Lombard tashkilotlarining reyting uslubiyati «Ahbor-Reyting» reyting agentligi tomonidan O'zbekiston lombard tashkilotlari uyushmasining faol ishtirokida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi «2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida»gi PQ-1438-sonli Qaroriga 1-ilovaning 8-bandini ijro etish, hamda lombard tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi boshqa nizom va qoidalar negizida lombard tashkilotlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish, lombard tashkilotlarilar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar darajasi va sifatini oshirish, ular faoliyatiga xalqaro andozalar va me'zonlarga muvofiq keluvchi baho berishning samarali uslublarini joriy etish, bajarilgan ishlar pirovard-natijalari uchun ularning mas'uliyatini oshirish, qolaversa, nobank moliya

xizmatlari bozorida raqobatdoshlikni rivojlantirishni ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Biz quyidagi jadval orqali O'zbekiston Respublikasi hududlarida lombard tashkilotlarining joylashuvini ko'rishimiz mumkin.


jadval

O'zbekiston Respublikasi hududlarida lombard tashkilotlarining soni va joylashuvi⁶

Viloyatlar	01.01.2010		01.01.2015		01.01.2016	
	Soni	Salmog'i, %	Soni	Salmog'i, %	Soni	Salmog'i, %
Qoraqalpog'iston	2	4.2	1	2,2	1	2,3
Andijon	3	6.2	1	2,2	2	2,3
Samarqand	3	6.2	1	2,2	1	2,3
Farg'ona	2	4.2	-	-	-	-
Toshkent viloyati	2	4.2	7	15,6	6	13,9
Toshkent shahri	31	64.5	29	64,4	27	62,8
Surxondaryo	2	4.2	1	2,2	1	2,3
Xorazm	2	4.2	-	-	-	-
Navoiy	1	2.1	-	-	-	-
Sirdaryo	-	-	1	2,2	1	2,3
Qashqadaryo	-	-	1	2,2	-	-
Buxoro	-	-	2	4,4	3	6,9
Jizzax	-	-	1	2,2	1	2,3
Jami	48	100	45	100	43	100

Ushbu jadvalda O'zbekiston Respublikasi hududlarida lombard tashkilotlarining soni va joylashuviga ko'ra jami lombard tashkilotlarining soni 01.01.2016 yil holati 01.01.2011 yil holatiga ko'ra 5 taga kamaygan. Lombard tashkilotlarining soni asosan 01.01.2011 holatiga ko'ra Toshkent shahri, 01.01.2016 holatiga ko'ra xam Toshkent shahri yuqori salmoqni egallab turibdi.

⁶www.cbu.uz



O‘zbekiston Respublikasi hududlarida lombard tashkilotlarining soni tahlili⁷

O‘zbekiston Respublikasi hududlarida lombard tashkilotlarining soni 2008 yil 1 yanvar holatida 24 tani tashkil etgan bo‘lsa 2016 yil boshiga kelib esa 43 tani tashkil etgan, ya’ni, 2008 il boshig nisbatan deyarli 2 baravarga oshgan. 2011 yilda esa 50 tani tashkil etgan va yillaf davomida kamayil tendensiyasiga ega.

5. Nobank kredit tashkilotlari faoliyatini nazorat qilish va tartibga solish mexanizmi

Markaziy bank moliya-bank tizimi barqarorligini saqlab turish, omonatchilar, qarz oluvchilar va kreditorlarning manfaatlarini himoya qilinishini ta’minlash mikro kredit tashkilotlari va lombardlar faoliyatini tartibga solish hamda nazorat qilish borasidagi vazifalarini amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2011 yil 5 fevraldagi 734 sonli “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan mikro kredit tashkilotlari va lombardlar faoliyatini tekshirish tartibi to‘g‘risida” Nizomga muvofiq tekshiruvlar o‘tkazadi.

Nobank kredit tashkilotlari faoliyatini tekshirishni Markaziy bank tomonidan tekshirish o‘tkazish vakolati berilgan uning tegishli tarkibiy tuzilmasi amalga oshiradi.

Tekshirish tartibi quyidagicha:

- **tekshirish** – nobank kredit tashkilotlari faoliyati ustidan nazoratni bevosita joyiga chiqib, ularning moliyaviy ahvoriga va faoliyatiga xos bo‘lgan xavf-xatarlarga baho berish hamda ular faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari talablariga rioya qilinishi ahvolini tekshirish;

- **masofadan nazorat qilish** – nobank kredit tashkilotlari faoliyatidagi muammolarni boshlang‘ich davrida aniqlash maqsadida ular tomonidan Markaziy bankka taqdim etiladigan hisobotlar tahliliga, shu jumladan, ularning moliyaviy holatining monitoringiga asoslangan nazorat turi;

- **nazorat tartibida tekshirish** - nobank kredit tashkilotlarida tekshirish o‘tkazuvchi tarkibiy tuzilma tomonidan o‘tkazilgan avvalgi tekshirishda aniqlangan xato

⁷www.cbu.uz malumotlari asosida tuzildi.

va kamchiliklarni bartaraf etilishi ahvolini nazorat qilish maqsadida amalga oshiriladigan tekshirish;

- **rejadan tashqari tekshirish** – nobank kredit tashkilotlarida tekshirish o‘tkazuvchi tarkibiy tuzilma tomonidan o‘tkaziladigan yillik tekshirishlar rejasiga kiritilmagan tekshirish.

Tekshirish o‘tkazuvchi tarkibiy tuzilma tomonidan nobank kredit tashkilotlari faoliyatini tekshirishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- ✓ nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy holatiga baho berish, ularning faoliyatida mavjud bo‘lgan xavf-xatarlarni, omonatchilar, qarz oluvchilar va kreditorlar manfaatlari himoyasi ta’minlanganligini aniqlash va baholash;

- ✓ nobank kredit tashkilotlarining iqtisodiy normativlarga rioya qilinishini, ularga nisbatan belgilangan me’yorlarni to‘g‘ri hisoblanishi ahvolini tekshirish. Bunda kapitalning etarliligiga, aktivlar sifatiga, ularning to‘g‘ri tasniflanishi va ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralarning o‘z vaqtida va to‘liq shakllantirilishiga, likvidlik masalalariga alohida e’tibor berish lozim;

- ✓ nobank kredit tashkilotlari tomonidan Markaziy bankka taqdim etiladigan hisobotlar va ma’lumotlarning haqqoniyligini tekshirish;

- ✓ nobank kredit tashkilotlarida buxgalteriya ishi va hujjat aylanishini tashkil etilishi, buxgalteriya hisobining umumiy qoidalariga rioya etilishi, buxgalteriya hisobi va hisobotlarini to‘g‘ri yuritilishi va haqqoniyligi, aktivlar, majburiyatlar, kapital, pul oqimi, asosiy vositalar hisobining buxgalteriya andozalari va prinsiplariga mos ravishda aks ettirilishi ahvolini tekshirish;

- ✓ nobank kredit tashkilotlarida ichki nazoratni joriy etish hamda amalga oshirilishi ahvolini tekshirish;

- ✓ nobank kredit tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarida belgilangan talablariga rioya qilinishi ahvolini tekshirish.

O‘tkazilgan tekshirish natijalari nobank kredit tashkilotlarini qonun hujjatlariga muvofiq o‘z moliyaviy hisobotlarini har yilgi tashqi audit tekshiruvidan o‘tkazish majburiyatidan ozod etmaydi.

Nobank kredit tashkilotlarini tekshirish rejali, nazorat tartibida va rejadan tashqari amalga oshiriladi.

Rejali tekshirishlar reja asosida o‘tkaziladi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy holatini aniqlash hamda uning faoliyatiga umumiy baho berish maqsadida tekshirishlar kompleks tarzda o‘tkazadi.

Tekshirish davomida aniqlangan xato va kamchiliklarni nobank kredit tashkilotlari tomonidan bartaraf etilishi ustidan nazorat tartibida tekshirish o‘tkazilishi mumkin.

Nobank kredit tashkilotlari faoliyati yillik rejaga asosan yilda bir marotaba tekshirishdan o‘tkazadi. Tekshirish davri avvalgi tekshirish davri tugagan sanadan navbatdagi tekshirish boshlangan oyning birinchi sanasigacha bo‘lgan davrni qamrab oladi.

Rejadan tashqari tekshirishlar nobank kredit tashkilotlari faoliyatining alohida masalalari bo‘yicha o‘tkaziladi.

Quyidagi hollarda rejadan tashqari tekshirishlar o‘tkaziladi:

- nobank kredit tashkiloti qayta tashkil etilganda yoki tugatilganda;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki Vazirlar Mahkamasining qarorlari va huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning tekshiruv o‘tkazish to‘g‘risidagi tegishli qarorlari asosida;
- masofadan nazorat qilish natijalariga ko‘ra nobank kredit tashkilotlari moliyaviy holatining barqaror emas deb topilishi va omonatchilar hamda kreditorlar manfaatlariga xavf-xatar tug‘dirishi mumkin bo‘lgan holatlar mavjudligida;
- qonun hujjatlari buzilganligi to‘g‘risida Markaziy bankka kelgan ma‘lumotlar bo‘lganda.

Tekshirish muddati 30 kalendar kundan oshmasligi kerak. Rejadan tashqari tekshirishlarda, istisno tariqasidagi hollarda Markaziy bank farmoyishi asosida bu muddat ko‘pi bilan 30 kunga uzaytirilishi mumkin.

Nobank kredit tashkilotlarida tekshirishlar o‘tkazish rejasi kalendar yili boshlangunga qadar tuziladi va Markaziy bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlanadi. Tekshirishlarni rejalashtirishda masofadan nazorat qilish natijasi bo‘yicha xulosalari inobatga olinadi.

Nobank kredit tashkilotlari quyidagi huquqlarga ega:

- tekshiruvchi mansabdor shaxslardan Markaziy bankning tekshirish o‘tkazish to‘g‘risidagi farmoyishini hamda ularning xizmat guvohnomalarini ko‘rsatishni talab qilish va tanishish;
- tekshirish o‘tkazish uchun asosga ega bo‘lmagan shaxslarning tekshirish o‘tkazishiga yo‘l qo‘ymaslik;
- o‘z faoliyatlari tekshirilishi to‘g‘risidagi tegishli axborotga ega bo‘lish;
- tekshiruvchi mansabdor shaxslardan tekshirish natijalari bo‘yicha tuzilgan hisobot (dalolatnoma)ning bir nusxasini olish;
- qonunda belgilangan tartibda tekshirish natijalari ustidan shikoyat qilish.
- Nobank kredit tashkilotlari quyidagilarga majburdir:
 - tekshiruvchi mansabdor shaxslarga tekshirish o‘tkazish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish;
 - tekshirish boshlanish kunning o‘zidayoq nobank kredit tashkilotining kengashi a‘zolarini, ta‘sischilarini o‘tkaziladigan tekshirish to‘g‘risida xabardor qilish;
 - tekshirish o‘tkazish uchun zarur bo‘ladigan hujjatlarni taqdim etish.
- Nobank kredit tashkilotlari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni ham olishi mumkin.

Nobank kredit tashkilotlarida o‘tkazilgan tekshirish natijalari bo‘yicha hisobot (dalolatnoma) ikki nusxada tuziladi. Hisobotning (dalolatnoma) ikkala nusxasi ham tekshiruvchi mansabdor shaxslar, tekshirilgan nobank kredit tashkiloti rahbari va bosh buxgalteri tomonidan imzolanadi. Hisobot (dalolatnoma)ning bir nusxasi tekshirilgan nobank kredit tashkilotida qoldiriladi. Tekshirish natijalari bo‘yicha tuzilgan hisobot (dalolatnoma) Markaziy bankning tekshirish hisobotlarini ko‘rib chiquvchi ishchi organi tomonidan ko‘rib chiqiladi. Nobank kredit tashkilotida o‘tkazilgan tekshirish natijalari bo‘yicha tuzilgan hisobot (dalolatnoma) Markaziy bankning roziligisiz oshkor qilinishi mumkin emas.

Nobank kredit muassalari ustidan nazorat qilish, ular faoliyatida muayyan cheklashlarni o‘rnatish iqtisodiy erkinlikka zid bo‘lgan holat sifa-tida qaralishi mumkin. Lekin jahonning ko‘pgina rivojlangan davlatlarida banklar, shuningdek, boshqa moliya tashkilotlarining faoliyatlari ko‘p darajada davlat tomonidan tartibga solinadi. Boshqacha qilib aytganda, hatto rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy sektor jiddiy ravishda tartibga solinar ekan, o‘tish davrida buni to‘la oqlash mumkin.

To‘g‘ri, nobank kredit tashkilotlari faoliyatini tartibga solishda haddan tashqari va raqobatning rivojlanishiga xalaqit beradigan omilga aylanadigan chegarani belgilash oson emas. SHuning uchun, jahonda umumiy qabul qilingan tamoyillar va qoidalar har bir mamlakatda aniq vaziyat tahlilini hisobga olgan holda qo‘llaniladi.

U yoki bu nobank kredit tashkilotlarining faoliyatida aniqlangan kamchiliklarni tuzatishga majbur qilish uchun nazorat organi ixtiyorida ta’sir ko‘rsatish choralarining muayyan to‘plami bo‘lishi kerak. Respublikamizdagi yangi qonunlarimizga ko‘ra, turli vaziyatlarda foydalanish mumkin bo‘lgan tabaqalashgan choralar majmui ko‘zda tutilgan. Eng so‘nggi chora esa, ularga berilgan litsenziyalarni qaytarib olishdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2003-yil 23- sentyabrdagi 540-sonli “Lombardlar tomonidan hisobot taqdim etish tartibi to‘g‘risida” Nizomiga muvofiq Markaziy bank lombard tashkilotlardan xisobotlarni taqdim etish tartibi va muddatlarini belgilaydi.

Lombardlar, ular tomonidan olib borilayotgan amaliyotlar hisobini xo‘jalik sub’ektlari uchun o‘rnatilgan tartibda tasdiqlangan buxgalteriya hisobi standartlariga muvofiq amalga oshiradilar. Lombardning buxgalteriya hisobi siyosati uning yuqori boshqaruv organi tomonidan belgilanadi. Buxgalteriya hisobi va boshqa hisobotlar ro‘yxati va shakli amaldagi qonunchilikka muvofiq o‘rnatiladi.

Lombardlar buxgalteriya hisobida va hisobotlar tuzishda foydalaniladigan hujjatlarning kat’iy hisobini yuritish va saqlanishini ta’minlashlari, shuningdek, buxgalteriya hisobi standartlariga muvofiq shubhali qarzlarni qoplash uchun zahiralari shakllantirishlari shart.

Lombardlar elektron va qog‘ozda ifodalangan ma’lumotlarini har chorakda, hisobot topshiriladigan chorakning keyingi oyining 5-sanasi dan kechiktirmay lombardning joylashgan manzili bo‘yicha Markaziy bankning hududiy bo‘linmalariga hisobotlar taqdim etadilar.

Qog‘ozda ifodalangan hisobotlar uch nusxada tayyorlanib, bunda ikki nushasi Markaziy bankning lombard joylashgan hududdagi hududiy bo‘linmasiga taqdim etiladi, uchinchi nushasi lombardda qoladi. Qog‘ozda ifodalangan hisobotlar lombardning birinchi rahbari, imzo qo‘yish huquqiga ega bo‘lgan bosh buxgalteri tomonidan imzolanadi va lombard muhri bilan tasdiqlanadi.

Lombardning joylashgan manzili bo‘yicha Markaziy bankning hududiy bo‘linmasi lombardning qog‘ozda va elektron ko‘rinishda ifodalangan tekshirilgan hisobotini bir nusxasini, hisobot davridan keyingi oyning 10-sanasi dan kechiktirmay, Markaziy bankka yuboradi.

Lombard ushbu Tartibning 5-bandida ko'rsatilgan hisobotlarni taqdim etilmaganlik yoki muddatini buzganligi, shuningdek, to'liq bo'lmagan va ishonchsiz ma'lumotni berganligi uchun qonunchilikka muvofiq javobgar bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatning barcha mintaqalarida nobank tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish uchun iqtisodiy va tashkiliy shart-sharoitlar yaratish, ularning resurs bazasini shakllantirishga ko'maklashish va mustahkamlash maqsadida xalqaro moliya instituti mablag'larini jalb qilish hamda nobank kredit tashkilotlari faoliyatining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi va tartibga solishning samarali tizimini yaratish lozim.

3-mavzu: Tijorat banklarini tashkil etishning huquqiy va iqtisodiy asoslari

Reja:

1. Tijorat banklarifaoliyatini ni tashkil etishning huquqiy asoslari.
2. Banklarni davlat ro'yxatidan o'tkazish va litsenziyalash tartibi.
3. Tijorat banklarini ochish uchun ustav fondining minimal miqdori va uning ahamiyati.
4. Ustav fondini shakllantirish manbalari.

1. Tijorat banklari faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari.

Tijorat banklarining yuridik shaxs sifatida faoliyati omonatchilar, kreditorlar, umuman, davlat va jamiyat manfaatlariga jiddiy daxldor bo'lganligi tufayli uning tashkil topishi uzoq davom etadigan jarayon hisoblanadi. SHu vaqt ichida bo'lg'usi ta'sislar o'rtasida o'zaro munosabatlar o'rnatiladi, bank ustav kapitali uchun zarur bo'lgan mablag'lar tayyorlanadi, rahbar shaxslar zarur hujjatlar tayyorlaydi, tegishli tekshiruvdan o'tkaziladi va hokazolar.

Tijorat banklarini tashkil etish va tugatishning huquqiy asoslari "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunda ifodalangan. SHu qonunning 2-bobi "Banklarni tashkil etish va ular faoliyatini tugatish tartibi" deb nomlanib o'z ichiga 13 modda(7-19 moddalar)ni oladi .

Banklar respublika hududida o'z faoliyatlarini Markaziy bank tomonidan beriladigan litsenziya asosida amalga oshiradilar.

Tijorat banklari tashkil etilishining huquqiy asoslari bir nechta asosiy huquqiy normativ hujjatlar asosida tartibga solinadi. Jumladan:

- ✓ O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolik Kodeksi" 1996.
- ✓ O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tug'risida"gi qonun, 1995;
- ✓ O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati tug'risida"gi qonun, 1996;
- ✓ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki "Banklarni ro'yxatga olish va ularga litsenziya berish tartibi to'g'risida" № 22-sonli nizom, 1998.
- ✓ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki "Bank ustav kapitali miqdorini, aksiyadorlar tarkibini, bank nomi va manzilini o'zgartirish, ustavga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida" N 426 sonli nizom 1998;
- ✓ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki "O'zbekiston respublikasi hududida chet el banklari vakolatxonalarini ochish, ularni ro'yxatdan o'tkazish va akkreditatsiyalash tartibi to'g'risida" № 241 – sonli nizom 1996 ;
- ✓ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki "Tijorat banklariga chet el valyutasidagi operatsiyalarni amalga oshirish uchun litsenziyalar berish tartibi" 31-sonli nizom 1998.
- ✓ «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida» qonun 1996

kabi hujjatlar orqali tijorat banklarining faoliyati asoslarini o'rganish mumkin.

Qonunchilikka muvofiq tijorat banklari ustidan nazorat qiluvchi organ sifatida Markaziy bank o'z vazifalarini bajaradi. Unga ko'ra Markaziy bank moliya-bank tizimi barqarorligini saqlab turish, omonatchilar, qarz oluvchilar va kreditorlarning manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash maqsadida banklar, mikrokredit tashkilotlari lombardlar va kredit byurolari faoliyatini tartibga soladi hamda nazorat qiladi, shuningdek ular tomonidan ichki nazorat qoidalariga hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog'liq axborotni maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etish tartibiga rioya etilishi ustidan monitoring hamda nazorat qiladi.

Banklarga litsenziya berish O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida", "Aksionerlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunlar va boshqa qonunlari hamda bankka me'yoriy hujjatlarda belgilangan talablar asosida amalga oshiriladi.

Tijorat banklarini tashkil qilish 11 fevral 1999 yilda qabul qilingan "Banklarni ro'yxatga olish va ularga litsenziya berish tartibi to'g'risida"gi 630-sonli Nizom asosida olib borilar edi. Bu konunga 2009 yil 15 avgustda №703 son bilan uzgartirish kiritilgan va xozirda banklar ushbu konun asosida tashkil etilmokda.

Banklarni litsenziyalash tartibi

Banklarni litsenziyalash jarayoni ikki bosqichdan:

bank ta'sis etish uchun Markaziy bankning dastlabki ruxsatini berish;

bankni ro'yxatga olish bilan bir vaqtda litsenziya berishdan iborat.

Muassislar o'z oralaridan Markaziy bankda, uning hududiy Bosh boshqarmalarida va boshqa organlarda bankni tashkil etish yuzasidan ularning manfaatlarini ifoda etishga vakil qilingan shaxsni belgilaydilar. Uning vakolatlari ta'sis shartnomasi bilan tasdiqlanadi.

Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmalari bank muassislarini bank tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan zarur qonun hujjatlari bilan ta'minlaydilar.

1. Tayyorgarlik bosqichi.

Bu davrda bank muassislari o'rtasida bank tashkil etishga kelishiladi, tashabbus guruhi tuziladi, har bir muassisning ustav kapitaliga qo'shilgan ulush miqdori belgilab olinadi, bankning ta'sis hujjatlari majmui tayyorlanadi, bankning nomi aniqlanadi, ta'sischi o'rtasidagi kelishuvlar dastlabki shartnoma tarzida rasmiylashtiriladi, uning asosida ta'sis shartnomasi tuziladi (FKning 43-moddasi, O'zbekiston Respublikasi «Xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari haqida»gi Qonunning 3-moddasi) aksiyadorlik tijorat banklarining muassislari bank davlat ro'yxatiga olinguniga qadar yuzaga kelgan majburiyatlar yuzasidan birgalikda javobgar bo'ladilar.

Muassislar tomonidan ta'sis shartnomasi imzolanganidan so'ng bir oy mobaynida Markaziy bankka bankni ochish uchun dastlabki ruxsatni berish to'g'risidagi arizani taqdim etadilar.

Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

1) muassislar tomonidan imzolangan va ularning muhrlari bilan (agar muassis yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxs bo'lsa) tasdiqlangan ta'sis shartnomasi (uch

nusxada, ularning bittasi asl nusxa). Jismoniy shaxslarning imzolari va ta'sis shartnomalarining nusxalari notarial idora tomonidan tasdiqlanadi (yagona muassislar bundan mustasno);

2) muassislar tomonidan tasdiqlangan va bank kengashi raisi tomonidan imzolangan bank ustavi (uchta asl nusxada);

3) ta'sis yig'ilishining uch nusxada tayyorlangan bayonnomasi. Bu hujjatda bankni tashkil etish, ustav kapitali miqdori, bank ustavi va biznes-rejani tasdiqlash, bank kengashi, boshqaruvi va taftish komissiyasini saylash to'g'risidagi qarorlar bo'lishi lozim. Bayonnoma nusxalari bank kengashi raisi tomonidan tasdiqlanadi;

4) muassislar to'g'risida ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hujjatlar

5) tashkil etilayotgan bank ovoz beruvchi aksiyalarining besh yoki undan ortiq foiziga egalik qiladigan muassislar qo'shimcha ravishda ariza taqdim qilingunga qadar oxirgi besh yil mobaynida sud yoki davlat organlari tomonidan ularga nisbatan qo'llanilgan barcha jazo choralari to'g'risidagi ma'lumotlar. Markaziy bank zarur hollarda mazkur kichik banda keltirilgan ma'lumotlarni tashkil etilayotgan bank ovoz beruvchi aksiyalarining besh foizidan kam bo'lgan ulushiga egalik qiladigan muassislardan ham talab qilishga haqli;

Bankni tashkil etish uchun dastlabki ruxsatni berish

Litsenziyalash departamenti bir oy muddat ichida muassislar taqdim etgan hujjatlar to'plamini mazkur Nizom talablariga muvofiqligi nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi.

Notarius tasdig'idan o'tkazilishi talab qilinmaydigan va hajmi bir varaqdan ko'p bo'lgan hujjatlar alohida yig'majild shaklida tikilgan bo'lishi lozim.

Taqdim etilgan hujjatlar to'plami to'liq jamlansa va mazkur Nizom talablariga muvofiq kelsa, litsenziyalash departamenti Markaziy bankning Kredit tashkilotlarini ro'yxatga olish va litsenziyalash komissiyasiga bankni ochish uchun dastlabki ruxsatni berish to'g'risidagi masalani kiritadi, aks holda hujjatlar to'plami qaytarish sababi va qancha muddat ichida hujjatlarni takroran taqdim etish mumkinligi ko'rsatilgan holda qaytariladi.

Hujjatlarni qayta ko'rib chiqish uchun taqdim etish muddati o'n besh ish kunidan oshmasligi lozim. Ushbu muddatdan kechikib taqdim etilgan hujjatlar yangidan taqdim etilgan hisoblanadi. Muassislar tomonidan takroran taqdim etilgan hujjatlarni qayta ishlash uchun ketgan vaqt hujjatlarni ko'rib chiqish uchun belgilangan muddatga kirmaydi.

Dastlabki ruxsatni berish to'g'risidagi qaror barcha zarur hujjatlar ilova qilingan ariza taqdim etilgan kundan boshlab uch oydan kechikmagan muddatda qabul qilinadi.

Markaziy bankning dastlabki ruxsati muassislar moliyaviy imkoniyatlari va obro'si, biznes-reja, kapital tarkibi, moliya rejasi hamda tegishli bank binolari va jihozlari bilan ta'minlash imkoniyatlarini baholash asosida beriladi.

Dastlabki ruxsat olinganidan keyin muassislar bankni ro'yxatga olish va litsenziya olish uchun zarur bo'lgan tashkiliy-texnik va boshqa tadbirlarni amalga oshiradilar. Bank boshqaruvi raisi va bosh buxgalteri nomzodlarini tanlanib, Markaziy bankning roziligini olish uchun taqdim etiladi. Dastlabki ruxsatning olinishi litsenziya berilishini kafolatlamaydi.

Markaziy bank tomonidan berilgan dastlabki ruxsat u olingan kundan boshlab olti

oydan oshmaydigan muddat davomida o'z yuridik kuchini saqlab qoladi.

Quyidagi hollarda dastlabki ruxsat amal qilish muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin:

muassislar yoki bankning rahbar xodimlari tarkibida Markaziy bank talablariga javob bermaydigan o'zgarishlarning yuz berishi yoki yangi ishtirokchilar va bankning rahbar xodimlariga beriladigan rezyume, shaxsiy balans qaydnomasi, biznes-rejaning va yirik muassislar yoki rahbarlarga taalluqli bo'lgan holatlarning o'zgartirilgan qismining taqdim etilmasligi;

bank mulkiy-huquqiy shaklining o'zgarganligi, biznes-rejadagi va kapitaldagi muayyan tarkibiy o'zgarishlarning sodir bo'lishi;

muassislar yoki ular bilan bog'liq shaxslar moliyaviy ahvolarining yomonlashishi;

bankni boshqarish xavfsiz va barqaror bo'lmashligini ko'rsatuvchi holatlarning ma'lum bo'lishi;

qonun hujjatlarini buzganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortilganligining aniqlanishi.

Bankni ro'yxatiga olish hamda litsenziya berish tartibi

2. Bankni davlat ro'yxatidan o'tkazish bosqichi.

Bu bosqich uch davrni o'z ichiga oladi:

Bank ochish haqidagi ariza bilan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga murojat qilish. Bunda arizaga quyidagi xujjatlar ilova qilinishi kerak:

-yangi tashkil etilayotgan bankni ta'sis etish bo'yicha xujjat;

-muassislar tomonidan imzolangan va ularning muhrlari bilan hamda notarial tartibda tasdiqlangan ta'sis shartnomasi. Ta'sis etuvchilar jismoniy shaxs bo'lganlarida ularning imzolari notarial tasdiqlanadi;

-muassis aksiyadorlar yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan va muassislar tomonidan uch nusxada imzolangan bank ustavi;

-bank tashkil etish haqidagi qaror, ustav kapitalining miqdori va ustavni tasdiqlash, bank kengashi, taftish komissiyasi va boshqaruvini saylash haqidagi qarorlarni o'z ichiga olgan bank kengashi raisi tomonidan tasdiqlangan ta'sis yig'ilishining bayonnomasi.

O'ayd etib o'tilgan hujjatlarning loyihalari Markaziy bankning banklarni litsenziyalash departamenti ma'qullaganidan keyingina imzolanadi va tasdiqlanadi.

Bulardan tashqari, Markaziy bankka muassislar to'g'risidagi ma'lumotlar: bank kengashi a'zolari ro'yxati (kengash raisi, uning birinchi o'rinbosari) ko'rsatilgan holda ushbu shaxslarning Markaziy bank talablariga muvofiq kelishlarini tasdiqlovchi ma'lumotlar, yangi tashkil etilayotgan bankning tashkiliy tuzilishi, ichki audit to'g'risidagi Nizomi, kredit siyosati to'g'risidagi Nizomi, biznes rejasi, ariza topshiruvchining muassislar nomidan ariza topshirish vakolatini tasdiqlovchi hujjat, tashkil etilayotgan joydagi Markaziy bank bosh boshqarmasining bank tashkil etishning maqsadga muvofiqligi haqidagi xulosasi, muayyan hududida bank tashkil etish mo'ljallanayotganligi haqida mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlariga berilgan bildirishning nusxasi ham topshirilishi lozim.

Tijorat banki filialini tashkil etish paytida ham ushbu hujjatlar (ta'sis hujjatlaridan tashqari) taqdim etilishi kerak bo'ladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi tijorat banki tashkil etilayotganda yuqorida ko'rsatib o'tilgan hujjatlarga qo'shimcha ravishda yana quyidagilar taqdim etilishi talab etiladi:

-tegishli xorijiy muassisning bank tashkil etishda ishtirok qilishi haqidagi qarori;

-nerezident bankning O'zbekiston Respublikasining chet eldagi konsullik muassasasi tomonidan tasdiqlangan ustavi;

-bank joylashgan mamlakat bank nazorat organi tomonidan muassis bank faoliyatini yuritish uchun litsenziyaga egaligi va xususan, qaytarib berish sharti bilan o'z mamlakatida pul depozitlari va boshqa boyliklarni qabul qilish huquqiga egaligini tasdiqlovchi xat;

-bank nazorati organining muassis bankning o'zi joylashgan va ro'yxatdan o'tkazilgan joyda nazorat ostida ekanligi haqidagi yozma tasdiqnoma;

-muassis bankning oxirgi uch moliya yili uchun tuzilgan, auditorlik firmasi tasdiqlagan yillik hisobotlari, shu jumladan, foyda va zararlar haqidagi konsolidatsiyalangan balansi va hisoboti;

-bank nazorati organi muassis bank tashkil etayotgan bankning ustav kapitalida ishtirok etishi uchun bergan yozma ruxsatnomasi yoki bunday ruxsatnoma muassis bank mansub bo'lgan davlatning qonun hujjatlariga muvofiq talab etilmasligining yozma tasdig'i.

Faoliyat yuritib turgan banklar ustav kapitalidagi hissa xorijiy shaxslar tomonidan sotib olinayotganda ham ushbu hujjat xorijiy shaxs tomonidan Markaziy bankka taqdim etilishi lozim bo'ladi.

Banklar Markaziy bankda Tijorat banklarini ro'yxatga olish kitobida ro'yxatga olingan vaqtdan boshlab yuridik shaxs maqomini oladilar. Ro'yxatga olish bilan bir vaqtda ularga litsenziya beriladi.

Bankni ro'yxatga olish va litsenziya olish uchun muassislar dastlabki ruxsat olingan kundan boshlab uzog'i bilan olti oy muddatda quyidagi talablarni bajarishlari shart:

a) muassislarning vakolatli shaxsi imzolagan bankni ro'yxatga olish va litsenziya berish to'g'risidagi arizani taqdim etish;

b) bankni ro'yxatga olish va litsenziya olish uchun ushbu Nizomda nazarda tutilgan barcha zaruriy talablarni bajarish;

v) bank binolari muhofazasini ta'minlash hamda muxandis-texnik qo'riqlash vositalari bilan jixozlash, dasturiy mahsulotlarni tayyorlash;

g) Markaziy bank tomonidan belgilangan minimal talabdan kam bo'lmagan miqdorda bank ustav kapitalini shakllantirish hamda ustav kapitaliga yo'naltirilgan to'lovni tasdiqlovchi hujjatlarni va muassislar ro'yxatini taqdim etish;

d) bank boshqaruvi raisi va uning o'rinbosarlari, bosh buxgalter va uning o'rinbosarlari egallab turgan lavozimlariga kasbiy muvofiqliligini baholash bo'yicha Markaziy bankning ijobiy xulosasini taqdim etish;

e) sanab o'tilgan barcha hujjatlarning fayl (elektron) ko'rinishdagi nusxalarini ham taqdim etish.

Bankni ro'yxatga olish to'g'risidagi ariza taqdim etilganidan so'ng Litsenziyalash departamenti ochilayotgan bankni mazkur Nizomning talablariga muvofiqligi yuzasidan

tekshiradi.

Bankni ro'yxatga olish va unga litsenziya berish to'g'risidagi qaror Markaziy bankning barcha talablari bajarilgan kundan boshlab bir oy ichida qabul qilinadi.

Quyidagilar bankni ro'yxatga olish va unga litsenziya berishni rad etish uchun asos bo'ladi:

- a) ta'sis shartnomasi va ustavning qonun hujjatlariga mos kelmasligi;
- b) bir yoki bir necha muassis moliyaviy ahvolidan qoniqarsizligi;
- v) muassislarning mablag'lari manbalarining deklaratsiya qilinmaganligi (xususiy tijorat banklari ustav kapitalida ishtirok etayotgan rezident jismoniy shaxslardan tashqari);
- g) bank ro'yxatga olinadigan vaqtgacha bank eng kam ustav kapitalining shakllantirilmaganligi;
- d) bank binolari muhofazasining ta'minlanmaganligi hamda muxandis-texnik qo'riqlash vositalari bilan jixozlanmaganligi, dasturiy mahsulotlarning tayyor emasligi;
- e) tashkil etilayotgan bank rahbari va bosh buxgalterining kasbga nomuvofiqligi.

Markaziy bank tomonidan berilgan litsenziya bankka unda ko'rsatilgan faoliyat turlari bilan shug'ullanish huquqini beradi.

Tashkil etilayotgan bankni boshqarish imkoniyatlari, umumiy tavakkalchilik va kapital tuzilmasini o'rganish asosida ayrim faoliyat turlari cheklab qo'yilishi mumkin.

Litsenziya uchinchi shaxslarga berilishi mumkin emas.

CHet el valyutasida operatsiyalar amalga oshirish uchun banklarga «Tijorat banklariga chet el valyutasida operatsiyalarni amalga oshirish uchun litsenziyalar berish qoidalari»ga (ro'yxat raqami 463, 1998 yil 3 avgust) muvofiq bosh yoki ichki litsenziyalar beriladi.

O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida" xamda "Ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash to'g'risida"gi qonunlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat banklariga, ularning arizasiga ko'ra chet el valyutasida operatsiyalar o'tkazilishiga, ularning bunga tayerligidan kelib chiqib litsenziya beradi.

Litsenziyalar bosh litsenziya va ichki litsenziyalarga bo'linadi. Bosh litsenziya tijorat banklariga O'zbekiston Respublikasi xududida xamda chet elda xorijiy valyutadagi operatsiyalarni amalga oshirish uchun berilgan xuquqdir.

Ichki litsenziya tijorat banklariga O'zbekiston Respublikasi xududida chet el valyutasidagi operatsiyalarni to'la yoki cheklangan doirada amalga oshirish uchun berilgan xuquqdir.

CHet el valyutasida operatsiyalar o'tkazish uchun bosh yoki ichki litsenziya olgan bank (bundan buyon vakolatli bank deb ataladi) qonunchilikka muvofiq va litsenziya shartlari asosida o'z faoliyatini amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tasdiqlagan talabnomalar asosida tijorat banklari chet el valyutasidagi operatsiyalarni amalga oshirishga qay darajada tayyor ekanligi aniqlanadi. Mazkur talablar malakaviy va texnik talablarga bo'linadi.

Tijorat banklari litsenziya olish uchun mazkur qoidalarning ilovasida ko'rsatilgan xujjatlarni topshirishlari kerak.

Xorijiy kapital ishtirokidagi banklar xujjatlarni O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibga muvofiq xolda taqdim etadilar.

Bir yildan ortiq faoliyat ko‘rsatayotgan, ya’ni to‘la moliyaviy (operatsiya) yilini tugatgan va rasmiy yillik xisobot tayyorlayotgan tijorat banklarining arizalarigina ko‘rib chiqish uchun qabul qilinadi. Litsenziyalar xorijiy kapital ishtirokidagi banklar belgilangan muddatdan ilgari berilishi mumkin. Xususiy tijorat banklariga chet el valyutasida operatsiyalarni amalga oshirish uchun litsenziyalar ularning faoliyatiga olti oy to‘lishi bilan berilishi mumkin.

CHet el kapitali ishtirokidagi bank va chet el bankining sho‘ba bankini tashkil etishga qo‘shimcha talablar

Faqat moliyaviy ahvoli mustahkam va obro‘ga ega bo‘lgan norezident banklarga O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘z sho‘ba banklarini ochishga yo‘l qo‘yiladi. Bunda, qisqa muddatli majburiyatlari IVSA, Moody's yoki Standart and Poor's tasniflari bo‘yicha A1 (yoki A+)dan past bo‘lmagan reytingga ega bo‘lgan norezident banklar ustunlikka egadirlar.

O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘z sho‘ba bankini ochish yoki bank ustav kapitalida ishtirok etish istagini bildirgan norezident bankning ustav kapitali 500 mln. evro ekvivalentiga teng summadan kam bo‘lmasligi kerak.

Norezident jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan, shuningdek, ellik foizdan ortiq aksiyalari (ishtirokchilar badallari) norezident jismoniy va/yoki yuridik shaxslarning egaligida, foydalanuvida yoki tasarrufida bo‘lgan rezident yuridik shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasida tashkil etilgan banklarning aksiyalarini sotib olish, ularga egalik huquqini berish va shu kabi boshqa munosabatlar bo‘yicha kelishuvlar faqat Markaziy bankning oldindan ruxsati olinganidan so‘ng amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida norezident banklarning filiallarini tashkil etilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

CHet el kapitali ishtirokidagi banklar va chet el bankining sho‘ba banklarida – bosh buxgalter, boshqaruv raisi o‘rinbosari lavozimlariga, boshqaruv raisi o‘rinbosarlari bir kishidan ko‘p bo‘lgan banklarda esa – birinchi o‘rinbosar lavozimiga O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tayinlanadi.

CHet el kapitali ishtirokidagi banklarda bank kengashi a’zolarining hech bo‘lmaganda bittasi O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lishi lozim, chet bankining sho‘ba banklari bundan mustasno.

Ro‘yxatga olingan bankning yuridik yig‘majildida quyidagi hujjatlar bo‘ladi:

a) bank ustavi. Uning titul varag‘ida bank ro‘yxatga olinganligi to‘g‘risida belgi qo‘yilib, Markaziy bank vakolatli mansabdor shaxsining imzosi va Markaziy bank muhri qo‘yiladi;

b) bank tashkil etish to‘g‘risidagi ta’sis shartnomasi (asl nusxa bankda saqlanadi);

v) ta’sis yig‘ilishi bayoni;

g) bank kengashi raisi imzolagan ta’sischilar ro‘yxati;

d) O‘zbekiston Respublikasi Hukumati qarori nusxasi (bankning muassisi davlat

bo'lsa);

e) muassis norezident shaxs tegishli organining O'zbekiston Respublikasi hududida tashkil etilgan bank ustav kapitalida qatnashish yoki sho'ba bank tashkil etish to'g'risidagi qarori;

j) Markaziy bank Boshqaruvining bankni davlat ro'yxatiga olish va unga litsenziya berish to'g'risidagi qarori;

z) litsenziya (asl nusxa bankda, nusxalari Markaziy bank va uning tegishli hududiy Bosh boshqarmasi yig'majildida saqlanadi);

i) ro'yxatga olish kartasi.

Yuridik yig'majild uch nusxada tayyorlanadi:

bir nusxa yangi tashkil etilgan bank kengashi raisiga imzo chektirilgan holda topshiriladi;

bir nusxa Markaziy bankda saqlanadi;

bir nusxa Markaziy bankning yangi tashkil etilgan bank joylashgan hududdagi Bosh boshqarmasiga yuboriladi.

Bank ro'yxatga olingunga qadar bank nomidan bajarilgan bank operatsiyalari haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Bank ro'yxatga olinganidan keyin o'n kunlik muddatda o'zi joylashgan hududdagi davlat soliq organiga zarur hujjatlarni topshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2009 yil 15 avgustdagi 703-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan «Bankni ro'yxatdan o'tkazish va litsenziyalash tartibi»ning 77 –bandiga ko'ra, quyidagi holatda litsenziya berish va bankni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi arizaning rad etilishiga asos bo'la oladi:

Bankni ro'yxatga olish va unga litsenziya berish to'g'risidagi qaror Markaziy bankning barcha talablari bajarilgan kundan boshlab bir oy ichida qabul qilinadi.

Quyidagilar bankni ro'yxatga olish va unga litsenziya berishni rad etish uchun asos bo'ladi:

a) ta'sis shartnomasi va ustavning qonun hujjatlariga mos kelmasligi;

b) bir yoki bir necha muassis moliyaviy ahvolidan qoniqarsizligi;

v) muassislarning mablag'lari manbalarining deklaratsiya qilinmaganligi (xususiylar tijorat banklari ustav kapitalida ishtirok etayotgan rezident jismoniy shaxslardan tashqari);

g) bank ro'yxatga olinadigan vaqtgacha bank eng kam ustav kapitalining shakllantirilmaganligi;

d) mazkur Nizomning IX bo'limi talablariga muvofiq bank binolari muhofazasining ta'minlanmaganligi hamda muxandis-texnik qo'riqlash vositalari bilan jixozlanmaganligi, dasturiy mahsulotlarning tayyor emasligi;

e) tashkil etilayotgan bank rahbari va bosh buxgalterining kasbga nomuvofiqligi

Bank tashkil etilganiga qadar, ya'ni u davlat ro'yxatidan o'tkazilganicha uning nomidan amalga oshirilgan bank operatsiyalari haqiqiy hisoblanmaydi.

Bank ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin o'n kunlik muddat ichida soliq tortishni tashkil etish uchun moliya-soliq organiga zarur hujjatlarni taqdim qilish zarur.

3. Tijorat banklarini ochish uchun ustav fondining minimal miqdori va uning ahamiyati. Ustav fondini shakllantirish manbalari.

Bankning ustav kapitali bank muassislari va aksiyadorlarining pul mablag‘laridano hisobidan tashkil topadi.

Kreditga va garovga olingan hamda boshqa jalb etilgan mablag‘lardan bank ustav kapitalini shakllantirishda hamda bank aksiyalarini sotib olishda foydalanish taqiqlanadi. Mazkur talabga zid holda ustav kapitaliga kiritilgan mablag‘lar egalariga qaytarilishi va shu vaqtning o‘zidayoq aksiyalar kelgusida sotish uchun bankka topshirilishi lozim.

Alohida hollarda qonun hujjatlariga muvofiq bankning ustav kapitalini shakllantirish uchun byudjet mablag‘laridan foydalanilishi mumkin.

Tashkil etilayotgan bank kapitalining etarlilik darajasini belgilashda quyidagilar asosiy omil hisoblanadi:

Markaziy bank tomonidan belgilangan ustav kapitalining eng kam miqdori bo‘yicha talablarga muvofiqligi;

bank kapitali, shu jumladan ustav kapitali miqdorini doimiy ko‘paytirib borishning rejalashtirilganligi;

ko‘zda tutilayotgan daromadlar hamda fondlarni shakllantirish istiqbollari; muassislarning zarur hollarda qo‘shimcha kapital kirita olish qobiliyati.

Bank ro‘yxatga olingunga qadar ustav kapitalini shakllantirish uchun muassislar tomonidan Markaziy bankda yoki rezident banklarning birida vaqtinchalik jamg‘arma hisobvarag‘i ochiladi.

Bank ustav kapitalining belgilangan eng kam miqdori mazkur vaqtinchalik jamg‘arma hisobvaraqda muassislar tomonidan bankni ro‘yxatga olingunga qadar to‘liq shakllantirilgan bo‘lishi kerak.

Ustav kapitalining eng kam miqdori quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

banklar uchun – 10 mln. evro ekvivalentida;

xususiy tijorat banklari uchun – 5 mln. evro ekvivalentida.

YAngi tashkil etilayotgan banklar uchun ustav kapitali eng kam miqdorining hisob-kitobi Markaziy bank tomonidan valyuta operatsiyalari bo‘yicha buxgalteriya hisobi, statistika va boshqa hisobotlarni yuritish uchun e‘lon qilingan evro kursining muassislar tomonidan bank tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilingan (ta‘sis yig‘ilishi o‘tkazilgan) kundagi kursidan kelib chiqqan holda milliy valyutada amalga oshiriladi.

Bank ro‘yxatga olingandan keyin uning ustav kapitali miqdorida egasi yozilgan aksiyalar chiqariladi va ular muassislar o‘rtasida joylashtiriladi.

Har qanday yuridik shaxs singari banklar ustaviga ega bo‘lishlari va o‘z ustavlari asosida faoliyat ko‘rsatishlari kerak. Bank ustavida quyidagi moddalar o‘z aksini topgan bo‘lishi kerak:

-bankning (to‘la va qisqartirilgan) nomi va joylashgan (pochta) manzili;

-bank ko‘rsatadigan operatsiyalari ro‘yxati;

-ustav kapitalining miqdori, muassislar ro‘yxati va ularning ustav kapitalidagi ulushlarining taqsimlanishi;

-bankning boshqaruv organlari, ularni tashkil etish tartibi, ularning vakolatlari hamda vazifalari haqidagi ma'lumotlar;

-bank auditi tartibi, shuningdek, buxgalteriya hisobi xalqaro standartlariga muvofiq belgilangan hisobotlar va auditorlik dasturlarining maqsadlari ko'rsatmalari.

Bulardan tashqari bank ustavida boshqa qonun xujjatlarida nazarda tutilgan ma'lumotlar ham bo'lishi kerak.

Qonunda ko'rsatilishicha, kreditga va garovga olingan mablag'lardan va soliqqa jalb etilgan mablag'lardan bankning ustav kapitalini shakllantirish mumkin emas. Ammo alohida olingan xollarda, qonunlarda ko'rsatilgan bo'lsa, byudjet mablag'laridan foydalanishga ruxsat berish mumkin.

Bank kapitalining eng kam miqdori bankni ro'yxatga olgunga qadar uning muassislari tomonidan to'lanishi kerak. Bu to'lanishi kerak bo'lgan mablag'lar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yoki boshqa banklarda ochiladigan jamg'arma hisob varag'iga o'tkaziladi. Bank ustav kapitalining eng kam miqdori Markaziy bank tomonidan Tijorat banklari kapitalining etarligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomda (№949-sonli, 2000 yil 25 iyul) ko'rsatib berilgan.

O'zbekiston Respublikasida yangi ochilayotgan banklarning ustav kapitalining eng kam miqdoriga qo'yiladigan talablar

	Aholisi 0.5 mln. kishidan ko'p bo'lgan shaharlarda ochilayotgan tijorat banklari uchun	Aholisi 0.5 mln. kishidan kam bo'lgan shaharlarda ochilayotgan tijorat banklari uchun	CHet el kapitali ishtirokida ochilayotgan banklar uchun	Xususiy banklar uchun
2000 yil 1 yanvardan	2.5 mln. AQSH dollari ekvivalentida	1.25 mln. AQSH dollari ekvivalentida	5 mln. AQSH dollari ekvivalentida	0.3 mln. AQSH dollari ekvivalentida
2002 yil 1 yanvardan	2.5 mln. AQSH dollari ekvivalentida	1.25 mln. AQSH dollari ekvivalentida	5 mln. AQSH dollari ekvivalentida	1.25 mln. AQSH dollari ekvivalentida
2006 yil 1 yanvardan	4 mln. AQSH dollari ekvivalentida		5 mln. AQSH dollari ekvivalentida	2.0 mln. AQSH dollari ekvivalentida
2007 yil 1 yanvardan	5 mln. AQSH dollari ekvivalentida		5 mln. AQSH dollari ekvivalentida	2.5 mln. AQSH dollari ekvivalentida
2008 yil 1 yanvardan	5 mln. evro ekvivalentida		5 mln. evro ekvivalentida	2.5 mln. evro ekvivalentida
2011 yil 1 yanvardan	10 mln. evro ekvivalentida		5 mln. evro ekvivalentida	5 mln. evro ekvivalentida

Bank ustaviga qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritish uchun bank aksiyadorlar yig‘ilishi yoki muassislarning qaroriga muvofiq belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga murojaat qilinadi va quyidagi hujjatlar:

- ustavga o‘zgarishlar kiritish haqida bank kengashi raisi imzolagan iltimosnoma;
- bank aksiyadorlarining ustaviga o‘zgarish va qo‘shimcha kiritish haqidagi majlisi bayoni (3- nusxada);
- bank kengashi raisi imzolagan ustaviga kiritilgan o‘zgarish va qo‘shimchalar ro‘yxati (3 nusxada) taqdim etiladi.

Mazkur o‘zgarishlar va qo‘shimchalar Markaziy bankda ro‘yxatdan o‘tkazilgan paytdan boshlab kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi FKning 49-moddasiga ko‘ra, bank muassasini, ya‘ni yuridik shaxsni qayta tashkil etish (qo‘shib yuborish, qo‘shib olish, bo‘lish, ajratib chiqarish, o‘zgartirish) uning muassislari (ishtirokchilari) yoki ta‘sis hujjatlarida shunga vakil qilingan yuridik shaxs organi qaroriga muvofiq amalga oshirilishi mumkin.

Bankning ustav kapitali bank muassislari va aksiyadorlarining pul mablag‘lari hisobidan tashkil topadi.

Kreditga va garovga olingan hamda boshqa jalbetilgan mablag‘lardan bank ustav kapitalini shakllantirishda hamda bank aksiyalarini sotib olishda foydalanish taqiqlanadi. Mazkur talabga zid holda ustav kapitaliga kiritilgan mablag‘lar egalariga qaytarilishi va shu vaqtning o‘zidayoq aksiyalar kelgusida sotish uchun bankka topshirilishi lozim.

Alohida hollarda qonun hujjatlariga muvofiq bankning ustav kapitalini shakllantirish uchun byudjet mablag‘laridan foydalanilishi mumkin.

Tashkil etilayotgan bank kapitalining etarlilik darajasini belgilashda quyidagilar asosiy omil hisoblanadi:

- Markaziy bank tomonidan belgilangan ustav kapitalining eng kam miqdori bo‘yicha talablarga muvofiqligi;
- bank kapitali, shu jumladan ustav kapitali miqdorini doimiy ko‘paytirib borishning rejalashtirilganligi;
- ko‘zda tutilayotgan daromadlar hamda fondlarni shakllantirish istiqbollari;
- muassislarning zarur hollarda qo‘shimcha kapital kiritish qobiliyati.

Bank ro‘yxatga olingunga qadar ustav kapitalini shakllantirish uchun muassislar tomonidan Markaziy bankda yoki rezident banklarning birida vaqtinchalik jamg‘arma hisobvarag‘i ochiladi.

Bank ustav kapitalining belgilangan eng kam miqdori mazkur vaqtinchalik jamg‘arma hisobvaraqda muassislar tomonidan bankni ro‘yxatga olingunga qadar to‘liq shakllantirilgan bo‘lishi kerak.

Bank ro‘yxatga olingandan keyin uning ustav kapitali miqdorida egasi yozilgan aksiyalar chiqariladi va ular muassislar o‘rtasida joylashtiriladi.

Respublikamizda tijorat banklarini tugatishning o‘ziga xos xususiyatlari.

Bankni qayta tashkil etish aksiyadorlar umumiy majlisi qaroriga ko‘ra amalga oshirilishi mumkin. Bu quyidagi hujjatlar taqdim etilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ruxsati bilan amalga oshiriladi.

- bank kengashi raisi tomonidan imzolangan iltimosnoma;
- aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bankni qayta tashkil etish to'g'risidagi qarori;
- bankni qayta tashkil etishning taxminiy shartlari, shakllari, tartib va muddatlarini aks ettiradigan hujjatlar;

- qayta tashkil etishning natijalari haqidagi moliyaviy taxminlar, shu jumladan, bankning u qayta tashkil etilganidan keyin hisob-kitob balansi va bankni qayta tashkil etish natijasida vujudga keladigan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar.

Mazkur hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ikki oy davomida ko'rib chiqiladi.

Markaziy bank tomonidan bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun berilgan litsenziyani bekor qilish uchun mavjud litsenziyani shunday holatga keltirish ancha murakkab huquqiy tadbir bo'lib, tijorat banklari faoliyatining to'xtashi va tugatishida muhim asosdir.

Bank faoliyatini to'xtatish va banklarni tugatish "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunda hamda Markaziy bankning 240-sonli "Banklarni tugatish tartibi to'g'risida"gi 2005 yil 22 mart 626-1sonli uzgartirish kiritilgan Nizomda ko'rsatib o'tilgan. Jumladan bank quyidagi hollarda o'z faoliyatini to'xtatadi: aksiyadorlar yig'ilishining qaroriga ko'ra, Markaziy bank litsenziyani qaytarib olganda, bankrot deb e'lon qilinganda o'z faoliyatini to'xtatgan bank Markaziy bank tomonidan banklarni Davlat ro'yxatiga olish daftaridan chiqariladi. Uni faoliyati to'xtatilganligi matbuotda e'lon qilinadi. Faoliyatni to'xtatish va uni tugatish tartibi nizomda belgilab berilgan.

Banklarni tugatish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

a) bank operatsiyalarini amalga oshirish litsenziyasi Markaziy bank tomonidan chaqirib olinishi;

b) Markaziy bank roziligi mavjud bo'lgan holda aksiyadorlar yoki muassislar (ishtirokchilar) umumiy yig'ilishining bankni ixtiyoriy ravishda tugatish to'g'risidagi qarori;

Markaziy bank Boshqaruvining litsenziyani qaytarib olish to'g'risidagi qarori qabul qilingan kundan boshlab bankni tugatish jarayoni yakunlanishiga qadar quyidagi cheklashlar belgilanadi:

a) aksiyadorlar umumiy yig'ilishi, boshqa organlar va bank mansabdor shaxslarining vakolatlari to'xtatiladi, jumladan, ularning mulkni tasarruf etish va majburiyatlarni to'lash, shuningdek, bankni boshqarish huquqlari bekor qilinadi. Bunda aksiyadorlar umumiy yig'ilishining likvidator hisobotlarini maslahatli tarzda muhokama qilish huquqi saqlanib qoladi;

b) tugatilayotgan bank nomidan yoki uning hisobidan amalga oshirilgan harakatlar ular faqat likvidator tomonidan bajarilgan holdagina yuridik kuchga ega bo'lishi mumkin;

v) bankning barcha qarz majburiyatlari muddati o'tgan hisoblanadi;

g) tugatilayotgan bankning barcha turdagi qarzlari bo'yicha penya va foizlarning hisoblab yozilishi to'xtatiladi;

d) tugatilayotgan bank ishtirokida sudda ko'rilayotgan mulkiy xususiyatga ega bo'lgan tortishuvlar agar ularga doir qabul qilingan qarorlar qonuniy kuchga kiritilmagan bo'lsa to'xtatiladi;

e) bankka tegishli mulkiy xususiyatga ega bo'lgan barcha talablar faqat likvidator nomiga bildirilishi hamda mazkur nizom va amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgan tartibda ko'rib chiqilishi mumkin;

j) tugatish jarayoni boshlangunga qadar sud tomonidan qabul qilingan qarorlar va tugatilayotgan bankka nisbatan mulkiy talablarga oid sudning ijro hujjatlari qonunchilikda belgilangan tartibida ijro etilishi uchun tugatish komissiyasiga topshiriladi.

Ammo bu nizom bank bankort deb e'lon qilinganda amalga kiritilmaydi.

Litsenziyaning bekor qilinishi:

- tijorat banki tomonidan yo'l qo'yilgan qonun buzilishi holatiga nisbatan qo'llaniladigan qattiq huquqiy sanksiya;

- qonun buzilish holatiga davlatning o'z boshqaruv muassasasi Markaziy bank orqali bildirilgan munosabati;

- bankning bankrotligi uchun formal asos hisoblanadi.

Litsenziya bekor qilingandan keyin bank mavjud bo'lib turadi, ammo bank operatsiyalarini amalga oshira olmaydi.

Litsenziyani bekor qilish Markaziy bank boshqaruvi tomonidan qo'llanadigan og'ir jazo chorasi hisoblanganligi sababli, boshqa jazo choralari natija bermagan quyidagi hollardagina qo'llaniladi;

- bank to'lov qobiliyatini yo'qotib, passivlari aktivlaridan ortib ketganida;

- litsenziya berilishga asos bo'lgan ma'lumotlarning haqiqiy emasligi aniqlanganda;

- bank o'z kreditorlari va omonatchilari oldidagi majburiyatlarini o'tashga qobiliyatsiz bo'lib qolganda;

- hisobot ma'lumotlari muntazam ravishda buzib ko'rsatilganda;

- bank operatsiyalarini qonunchilikka va litsenziya shartlariga xilof tarzda amalga oshirilganida;

- litsenziya berilganidan keyin bir yildan ortiq vaqt davomida bank operatsiyalarini amalga oshirishga kirishmasligi oqibatida;

- O'zbekiston Respublikasida sho'ba bank ochgan xorijiy bank litsenziyasining chaqirib o'z mamlakati tomonidan bekor qilinganida.

Litsenziyani bekor qilinishi Markaziy bankka tijorat bankning sudga murojaat qilmasdan majburiy suratda tugatilishi uchun asos bo'ladi. Buni Markaziy bank tomonidan tayinlangan tugatish komissiyasi amalga oshiradi.

Likvidator (tugatuvchi) Markaziy bank bilan kelishilgan holda aksionerlar umumiy yig'ilishi tomonidan bankni tugatish to'g'risidagi qaror kuchga kirgan kundan boshlab 3 kun mobaynida tayinlanadi. Tugatish jarayonining maqsadi bank omonatchilari va kreditorlari talablarini tezlik bilan qondirishdan iborat. Bankni tugatish jarayoni Markaziy bank boshqaruvining litsenziyalarni qaytarib olish to'g'risidagi qarori chiqqan kundan boshlangan deb hisoblanadi. Tugatilayotgan bankning Markaziy bank majburiy zahiralari hisob varag'ida hisobda turgan mablag'lari tugatuvchi tomondan bankni tugatish jarayoni boshlanganligi to'g'risidagi tasdiqnoma taqdim etilgandan so'ng bankning tugatish hisob varag'ida aks ettiriladi. Markaziy bank tomonidan tugatish jarayoni boshlangandan so'ng cheklashlar kiritadi, ya'ni aksiyadorlar umumiy yig'ilishi, boshqa organlar vakolatlari

to'xtatiladi. Bank hisobidan va nomidan hech qanday ish bajarilmaydi, qarz majburiyatlari muddati o'tgan hisoblanadi. Bankning tugatish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

- moddiy nazorat va inventarizatsiya;
- aktivlarni tekshirish;
- aktivlarni baholash va sotish;
- sotuvdan tushgan tushumlarni joylashtirish;
- tugatish jarayonini aniqlash.

Markaziy bank tugatish jarayonini nazorat qilib turadi. Bankni tugatish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlar mazkur bank hisobidan amalga oshiriladi. Markaziy bankning bankni ixtiyoriy tugatishdan bosh tortishi, shuningdek, bankni majburiy tugatish to'g'risidagi qarori yuzasidan qonunchilikda belgilangan tartibda shikoyat berish mumkin. Bankni tugatish jarayoni ikki xil bo'lishi mumkin: ixtiyoriy tugatish yoki majburiy tugatishdir.

Bankni ixtiyoriy tugatish kreditorlar va omonatchilar oldida majburiyatlar bajarilishini ta'minlash imkoniga ega bo'lgan bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi tomonidan bankni ixtiyoriy ravishda tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan hollarda amalga oshirilishi mumkin.

Bankni ixtiyoriy ravishda tugatish quyidagi tadbirlarni o'z ichiga oladi:

Bank aksiyadorlar yoki muassislar (ishtirokchilar) umumiy yig'ilishi qaroriga asosan bankni ixtiyoriy ravishda tugatishga ruxsat berish to'g'risidagi iltimosnoma bilan Markaziy bankka murojaat qilishi lozim. Bankni ixtiyoriy ravishda tugatishga ruxsat berish to'g'risidagi iltimosnoma aksiyadorlar yoki muassislar (ishtirokchilar) umumiy yig'ilishi vakolat bergan shaxs tomonidan imzolangan bo'lishi zarur.

Bankni ixtiyoriy ravishda tugatish to'g'risidagi iltimosnoma bilan birga Markaziy bankka quyidagi hujjatlar taqdim etilishi kerak:

aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan bankni tugatish to'g'risidagi tugatish sabablari ko'rsatilib qabul qilingan qarori;

bankni ixtiyoriy ravishda tugatish to'g'risidagi iltimosnoma bilan Markaziy bankka murojat qilingan vaqtdagi balans hisoboti;

tugatish komissiyasi a'zolari ro'yxati;

aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tasdiqlagan tugatish rejasi.

Markaziy bank iltimosnoma qabul qilingan kundan boshlab bir oy davomida bankni ixtiyoriy ravishda tugatishga rozilik berish to'g'risida qaror qabul qiladi. Markaziy bank ushbu iltimosnomaga rozi bo'lmasa bank rahbarlari va aksiyadorlariga bankni ixtiyoriy ravishda tugatishga rozilik bermasligi to'g'risida asoslangan qarorni etkazadi. Markaziy bank zarur hollarda tugatish rejasi va jadvalini ko'rib chiqish yoki boshqa hujjatlar va ma'lumotlarni talab qilishi mumkin.

Likvidator Markaziy bankning tugatish to'g'risidagi roziligi olingandan keyin, kreditorlar o'z talablarini bildirishi mumkin bo'lgan manzilni ko'rsatgan holda ushbu ma'lumotni kamida ikki respublika gazetasida e'lon qilishi lozim.

Talab qilinayotgan barcha choralar bajarilgach tugatish komissiyasi aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tasdiqlaganidan so'ng 7 kun ichida Markaziy bankka hisobot va tugatish balansini taqdim etishi lozim.

Majburiy tugatish Markaziy bankning bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyasini chaqirib olish to'g'risidagi qaroriga asosan amalga oshiriladi.

Markaziy bankning litsenziyani qaytarib olish to'g'risidagi qaroriga asosan bankni majburiy ravishda tugatish quyidagi asoslarga ko'ra amalga oshiriladi:

a) passivlarning aktivlardan oshib ketishi tufayli bankning to'lovga layoqatsiz bo'lib qolishi;

b) litsenziya berilishiga asos bo'lgan ma'lumotlarning noto'g'ri ekanligi aniqlanishi;

v) bank o'z omonatchilari yoki boshqa kreditorlari oldidagi majburiyatlarni bajarishga layoqatsizligi;

g) hisobot ma'lumotlarining muntazam ravishda buzib ko'rsatilishi;

d) qonunchilikka hamda omonatchilar va kreditorlar manfaatlariga real xavf soluvchi litsenziya shartlariga zid bo'lgan bank operatsiyalarining amalga oshirilishi;

e) litsenziya berilgan vaqtdan boshlab bir yildan ortiq muddatda bank operatsiyalarini bajarishni kechiktirish;

j) monopoliyaga qarshi qoidalarning buzilishi;

z) O'zbekiston Respublikasi xududida sho'ba bankni tashkil etgan xorijiy davlat banki litsenziyasining qaytarib olinishi.

Omonatchilar va kreditorlar manfaatlariga real xavf soluvchi tartibbuzarliklarga quyidagilar kiradi:

a) amaldagi qonunchilik va Markaziy bank me'yoriy hujjatlarining buzilishi;

b) xavfli yoki nosog'lom bank faoliyatining yuritilishi;

v) bankning Markaziy bank ko'rsatmalarini atayin va uzoq muddat bajarmasligi;

g) bank tomonidan hujjatlar yoki yozishmalarning Markaziy bank inspektorlaridan yashirilishi yoki bank nazorati xizmatiga talab etilgan hujjatlarni taqdim etishdan bosh tortilishi.

Bank faoliyati omonatchilar va kreditorlar manfaatlariga real xavf soladi deb tan olinadi agar:

bank kapitalining etarlilik koeffitsienti darajasi Markaziy bank belgilagan ushbu iqtisodiy me'yorning 75 foizidan kam bo'lishi;

bank ketma-ket keluvchi har uch chorakda bank regulyativ kapitalining 10 foizidan yoki vaqtdan qat'iy nazar regulyativ kapitalning 50 foizidan ortiq miqdorda potensial zarar ko'rishi yoki ko'rishi mumkin ekanligi;

omonatchilar va kreditorlarning bankka ishonib topshirgan mablag'lari butligiga real xavf soluvchi boshqa hollar.

Banklarni tugatish to'g'risidagi nizomning 4-bo'limida tugatuvchi (likvidator) vakolatlari va majburiyatlari ko'rsatib o'tilgan. Bank tugatilishi boshlangandan so'ng Markaziy bank moddiy nazoratni o'rnatadi va likvidator inventarizatsiya o'tkazadi. SHuningdek likvidator aktivlarni tekshirib tugatish hisobotini tayyorlashi lozim: unda yakuniy balans, vakillik hisob varaqalari ahvoli to'g'risidagi hisobotlar, pul mablag'lari va valyuta hisobini yuritish, balans va kredit portfeli bo'yicha kreditor qarzdorligini

tekshirishi lozim. Likvidator bank aktivlarini: ya'ni pul mablag'lari, ssudalar, qimmatbaho qog'ozlar, valyuta mablag'larini baholab sotadi. Likvidator nizomga asosan omonatchilar va kreditorlar talabini qondirish kerak. Likvidator tayinlanganidan keyin bir kunlik muddatda ikkita markaziy gazetada kreditorlar talablarini tasdiqlovchi hujjat bilan birgalikda talablarni bildirish tartibi va muddati hamda kreditorlar o'z talablarini da'vo qilishlari mumkin bo'lgan manzilni ko'rsatilgan holda bankni tugatish ishlari boshlanganligi to'g'risidagi habarnomani beradi. Talablarni bildirish muddati tugatish jarayoni boshlanganligi to'g'risida habar berilgan kundan boshlab ikki oyni tashkil etadi. Ushbu muddat tugaganidan keyin likvidator tomonidan talablarni qabul qilinmaydi. Tugatish ishlari yakunlangandan so'ng likvidator bajarilgan ishlar to'g'risidagi yakuniy hisobotni va tugatish balansini tuzadi va Markaziy bankka taqdim etadi. Markaziy bank likvidator taqdim etgan hujjatlarni o'rganib chiqib, bankni Banklarni ro'yxatga olish Davlat kitobidan o'chirib chiqarib tashlash to'g'risidagi qaror qabul qilinganidan so'ng 10 kun davomida Markaziy bank Makroiqtisodiyot va statistika vazirligiga hamda bank joylashgan manzil bo'yicha ularning organlariga bank tugatilganligi to'g'risidagi ma'lumotni etkazadi va bankni banklarni ro'yxatga olish Davlat Kitobidan chiqarib tashlash to'g'risida qarorni qabul qiladi.

3-mavzu. Tijorat banklarini tashkil etishning xuquqiy va iqtisodiy asoslari

Reja:

1.O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarining faoliyati va uning asosiy jixatlari

2. Tijorat banklarini tugatish va qo‘shishning huquqiy asoslari

3.O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarini tugatish tartibi va uning huquqiy asoslari

4. Tijorat banklarini qayta tashkil etish va qo‘shib olish asoslari

Bank - bu pul mablag‘larini o‘zida mujassamlashtiruvchi va jamg‘aruvchi, kredit beruvchi, hisob-kitoblarni olib boruvchi, pul va qimmatli qog‘ozlarni emissiya qiluvchi, oltin va chet el valyutalari bilan operatsiyalarni bajaruvchi yirik muassasadir. Lekin bu ta‘rifdan tijorat banklariga tegishli vazifalarni olib, banklar - kredit, hisob-kitob, kassa, lizing, faktoring, valyuta, qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalarni va noan‘anaviya xizmat turlarini bajaruvchi tijorat muassasadir deyish ham mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi Qonuniga asosan:⁸

«Bank - tijorat tashkiloti bo‘lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan quyidagi faoliyat turlari majmuini, ya‘ni:

- yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish;
- qabul qilingan mablag‘lardan tavakkal qilib kredit berish;
- investitsiyalash uchun foydalanish;
- to‘lovlarni amalga oshiruvchi yuridik shaxsdir».

Ko‘pchilikning tasavvurida bankning iqtisodiyotda tutgan o‘rni faqatgina omonatlarga mablag‘larni jalb qilish va kreditlar berishdan iboratdir. Lekin zamonaviy banklar o‘zlarining raqobatbardoshligini saqlash va ja‘miyatning talablarini qondirish maqsadida yangi vazifalarni ham bajarishni o‘rganishi lozim.

Darhaqiqat, iqtisodiyotimizning lokomotivi bo‘lgan bank faoliyatining tashkil etilishi va ishonchli faoliyat yuritishi bizning iqtisodiyotimiz uchun juda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tijorat banklari faoliyati nafaqat banklarning o‘ziga balki davlat uchun ham dolzarb ahamiyatga ega. Banklar faoliyatini davlat tomonidan muvofiqlashtirib turish zaruriyati quyidagilar bilan izohlanadi:

1. Banklar jamoatchilik mablag‘larining eng ishonchli saqlanadigan joyidir. Lekin o‘z mablag‘larini saqlash xohishiga ega bo‘lganlarning ko‘pchiligi bankning ishonchligini baholashda va moliyaviy masalalarda etarli ma‘lumotga ega emaslar. SHu tufayli, banklar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi organlar banklar moliyaviy holatini tahlil qilish uchun kerakli bo‘lgan barcha ma‘lumotlarni to‘plashga mas‘uldirlar. Bu bilan ular omonatchilarni himoya qilib, ularning moddiy zarar ko‘rishlarining oldini oladilar.

⁸Ўзбекистон Республикасининг «Банклар ва банк фаолияти тўғрисида»ги Қонуни. 1996 йил 25 апрель

2. Davlat tomonidan vaqti-vaqti bilan amalga oshiriladigan taftishlar natijasida bank mablag'larini noqonuniy sarf qilinishi, firibgarlik, qalloblik, birovning haqiga xiyonat qilish va suiste'molliklarning oldini oladilar.

3. Omonatchilar qo'yilmalarining asosiy qismi qisqa muddatli depozitlardan iborat bo'ladi. SHu bilan birga banklar yirik hajmdagi uzoq muddatli kredit berish va mablag'larni investitsiyalarga yunaltirish bilan ham shug'ullanadilar. Bu o'z navbatida banklarni o'z omonatchilari oldida juda ayanchli ahvolga solib qo'yishi mumkin. Bu o'rinda banklar faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish, boshqarishni ta'minlash imkonini beradi.

4. Banklar arzon narxdagi depozitlarni kreditlarga yo'naltirish bilan mamlakat iqtisodiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatadilar, chunki jamg'arilgan pul massalari iqtisodiyot bilan chambarchas bog'langan bo'lib, pulning qadsizlanishining oldini oladi yoki unga imkoniyat yaratib beradi. SHuning uchun nazorat organlarining muomaladagi pul hajmini nazorat qilishi o'ta muhimdir.

5. Banklar xususiy shaxslarning iste'mol va investitsiya ehtiyojlarini qondirish uchun mablag'larni kreditga beradilar. Banklarning bu faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish va tartibga solishning ahamiyati shundaki, xususiy shaxslar manfaatlari himoya qilinadi va ularning hayot tarzi yaxshilanishi uchun imkoniyat yaratiladi. Bizning mamlakatda kishilarning yoshi, jinsi, millatiga va irqiga qarab kredit berish yoki bermaslikni hal qilish taqiqlangan.

Banklarni davlat tomonidan nazorat qilinishining sababi shundaki, banklar azaldan xalqning, avvalo, xususiy shaxslar va oilalarning mablag'lari saqlanadigan muassasadir. Davlat banklar ishini nazorat ostiga olib va tartibga solish orqali hamisha omonatchilar va kreditorlarni moliyaviy yo'qotishdan himoya qilishga va banklarning inqirozga yuz tutishi tufayli kelib chiqadigan oqibatlardan saqlashga harakat qiladi. Bir bankning inqirozga uchrashi tufayli o'nlab va yuzlab korxonalar, ko'p minglab oddiy omonatchilar juda qiyin moliyaviy ahvolda qolishlari mumkin. Bankning operatsiyalari va taklif qilinayotgan xizmat turlari, kreditlarning sifati va miqdori, bank sarmoyasining etarliligi, mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati doimo nazoratchilar tomonidan puxta tekshiriladi.

Banklar kreditlar berish yoki to'sqinliksiz sarf qilinadigan depozitlar hisobiga o'z investitsiya faoliyatlarini amalga oshirish yo'li bilan pul ishlash imkoniyatiga ega bo'lganliklari tufayli ham qattiq nazorat ostida bo'ladilar. Hosil qilinayotgan pul miqdorining o'zgarishi iqtisodiyot holatiga ta'sir ko'rsatadi, ya'ni pul qadsizlanishining kuchayganligi yoki ortganligi aniqlanadi. Banklar ustidan kuchli nazorat borligining yana bir sababi shuki, ular xususiy shaxslar va firmalarga kreditlar beradilar va bu yo'l bilan iste'mol xarajatlarini va investitsiya talablarini qondiradilar.

Qonunchilikka muvofiq tijorat banklari ustidan nazorat qiluvchi organ sifatida Markaziy bank o'z vazifalarini bajaradi. Unga ko'ra Markaziy bank moliya-bank tizimi barqarorligini saqlab turish, omonatchilar, qarz oluvchilar va kreditorlarning manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash maqsadida banklar, mikrocredit tashkilotlari lombardlar va kredit byurolari faoliyatini tartibga soladi hamda nazorat qiladi, shuningdek ular tomonidan ichki nazorat qoidalariga hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog'liq axborotni

maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etish tartibiga rioya etilishi ustidan monitoring hamda nazorat qiladi.

Markaziy bank banklarni ro'yxatga oladi, shuningdek bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyalar beradi, qimmatli qog'ozlar blankalari ishlab chiqarishni litsenziyalaydi. Banklarni ro'yxatga olish, banklarga litsenziyalar berish Markaziy bank tomonidan belgilangan tartibda haq evaziga amalga oshiriladi. Qimmatli qog'ozlar blankalari ishlab chiqarishga litsenziya berish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda haq evaziga amalga oshiriladi. Berilgan litsenziyalar to'g'risidagi axborot e'lon qilinishi, shuningdek Markaziy bankning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishi kerak hamda tanishib chiqish uchun ochiqdir. Markaziy bank Banklarni davlat ro'yxatiga olish daftari, banklar hamda qimmatli qog'ozlar blankalari ishlab chiqarishga berilgan litsenziyalar reestrini yuritadi.

Bank operatsiyalarini amalga oshirish, buxgalteriya hisobi va bank statistika hisobotini yuritish, yillik hisobotlar tuzish yuzasidan banklar uchun majburiy bo'lgan qoidalarni aynan Markaziy bank belgilaydi.

Bank, shu jumladan, chet el banki, O'zbekiston Respublikasida o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki tomonidan beriladigan litsenziya asosida amalga oshiradi. Litsenziyada bank bajaradigan operatsiyalar ro'yxati ko'rsatiladi. Litsenziyasiz amalga oshiriladigan bank faoliyati g'ayriqonuniy deb hisoblanadi va bunday faoliyat natijasida olingan daromad davlat byudjetiga olib qo'yiladi.

O'zbekistonda tijorat banklarini tashkil etishning o'ziga xos iqtisodiy va amaliy jihatlari mavjud. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat banklarining ustav kapitalarini shakllantirishlari bo'yicha talablar qo'yiladi.

Shuningdek, respublika bank tizimi kapitallashuv va likvidlik darajalarini oshirish, moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda bank tizimini xalqaro me'yor va andozalarga muvofiq yanada rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan tizimli chora-tadbirlar natijalari jahon hamjamiyati, xalqaro moliya va reyting tashkilotlari tomonidan yuqori baholanmoqda.

Respublikamizda bank infratuzilmasining kengayib borishi banklar o'rtasidagi raqobat muhitining kuchayishi hamda bank xizmat turlari sifati va ko'lamining oshishiga xizmat qilmoqda.

Bank muassasalarida jismoniy shaxslar tomonidan ochilgan, har 1000 ta katta yoshli aholiga to'g'ri keladigan bank hisobvaraqlari 1028 birlikni (1000 tadan ko'p «yuqori» hisoblanadi) tashkil qilib, mazkur ko'rsatkich ham «yuqori daraja»dagi bahoga mos keladi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 20 apreldagi 117-sonli qarori asosida 2012 yilning 1 iyulidan boshlab joriy etilgan, hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, shu jumladan, moliya-bank sohasi faoliyatini baholovchi indikatorlarning har chorakdagi tahlili natijalari tijorat banklarining hududlardagi filiallari ko'rsatkichlarining yuqoriligini ko'rsatdi.

Bundan tashqari, aholidan kommunal va boshqa to'lovlarni bevosita aholi yashash joylariga borib qabul qiluvchi 505 ta ixtisoslashtirilgan ko'chma kassa faoliyati yo'lga qo'yildi.

Respublikamizdagi tijorat banklari bilan keng qamrovli va o‘zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini mustahkamlash maqsadida mamlakatimizda xorijiy yirik banklarning 6 ta vakolatxonalari faoliyat yuritmoqda.

Lekin bank tizimida shunday muvaffaqiyatlarga erishilayotganligiga qaramasdan tijorat banklari faoliyatida bir qator muammolar yuzaga keladi. Tijorat banklari faoliyatini mamlakatimizda tashkil etish va yo‘lga qo‘yish borasida bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirilishi va qo‘llanilishi barobarida ayrim qiyinchiliklar yuzaga kelishi kuzatilmoqda. Ko‘pchilik hollarda Markaziy bank tomonidan belgilangan talablarni bajara olmaslik natijasida bir qancha banklar o‘z faoliyatlarini to‘xtatishga majbur bo‘lishadi. Bu esa oxirgi yillarda bir necha banklarning tugatilishi bilan yakunlanmoqda.

2. Tijorat banklarini tugatish va qo‘shishning huquqiy asoslari

Tijorat banklari O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksida ko‘zda tutilgan tartibda bank qonunchiligida belgilangan xususiyatlarni hisobga olgan holda tugatiladi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 9 noyabr 1998 yildagi “Banklarni tugatish tartibi to‘g‘risida” nizomi banklarni tugatish tartibini nazariy asoslari keltirilgan.

Bankni tugatish - boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga huquqiy vorislik tartibida huquqlar va majburiyatlar o‘tmagan holda bank faoliyatini tugatishdir. O‘zbekiston Respublikasidning “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning 19-moddasiga asosan tijorat banklari quyidagi hollarda faoliyatini to‘xtatish yoki faoliyatini tugatish mumkin:

- aksiyadorlar yig‘ilishining qaroriga ko‘ra;
- Markaziy bank litsenziyani chaqirib olganida;
- bankrot deb e‘lon qilinganida.

SHuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining 1999 yil 11 fevraldagi 626-sonli “Banklarni tugatish to‘g‘risida”gi Nizomga asosan tijorat banklari tugatilishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2014 yil 19 apreldagi “Banklarni tugatish to‘g‘risida”gi Nizomga o‘zgarishlarni kiritish to‘g‘risidagi Qarori Adliya Vazirligi tomonidan 2014 yil 12-mayda 626-3 son bilan ro‘yhatga olingan. Unga ko‘ra, Nizomning 1.4. moddasining b punktidagi Markaziy bank roziligi mavjud bo‘lgan holda aksiyadorlar yoki muassislar umumiy yig‘ilishining bankni ixtiyoriy ravishda tugatish to‘g‘risidagi qarori degan gapdagi “roziligi” so‘zi “ruhsati” bilan almashtirilishi belgilangan. SHuningdek, 626-3 o‘zgarishlarga binoan Nizomning 2.1 moddasi Bankni ixtiyoriy ravishda tugatish kreditorlar va omonatchilar oldida majburiyatlar bajarilishini ta‘minlash imkoniyatiga ega bo‘lgan bank aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi tomonidan bankni ixtiyoriy ravishda tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilingan holda amalga oshirilishi mumkin, deb ko‘rsatilgan, shunga qo‘shimcha Markaziy bankning ruxsati bilan va 2014 yilning 10 martida Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan “Bank tizimi sohasida ruhsat berish jarayoni to‘g‘risida”gi Nizom asosida amalga oshirilishi belgilab berildi.

Bankni tugatish deganda- boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga huquqiy vorislik tartibida huquqlar va majburiyatlar o‘tmagan holda bank faoliyatini tugatish tushuniladi.

Tugatish jarayonining maqsadi bank omonatchilari va kreditorlari talablarini tezlik bilan qondirishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi tomonidan 28 mart 1998 yildagi tasdiqlangan “Tijorat banklarni qo‘shib yuborish tartibi” №396-sonli Nizomda keltirilgan.

Nizomga asosan banklarni qo‘shib yuborish deganda ikki yoki bir necha banklar faoliyati to‘xtatilib, ularning huquq va majburiyatlarini berish yo‘li bilan yangi bankning tashkil bo‘lishi tushuniladi.

Tijorat banklarni tugatish va qo‘shib olish sabablari juda ko‘p. Ularning eng asosiylariga Markaziy bank tomonidan belgilangan talablarni bajara olmaslikni, kiritish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ustav kapitallarini shakllantirishlari bo‘yicha talablar, iqtisodiy me‘yorlarga rioya qilish bo‘yicha talablarni belgilab beradi. YUqorida aytib o‘tilganidek, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ustav kapitallarini shakllantirishlari bo‘yicha talablar qo‘yiladi, bunda banklar ustav kapitalining minimal darajasi belgilab beriladi. Bu talab banklarning Bazel talablaridan kelib chiqib, bank barqarorligini ta‘minlash, mijozlar oldidagi majburiyatlarini bajarilishini ta‘minlash uchun oshirib borilmoqda.

Tijorat banklari yangi tashkil bo‘layotganlarida belgilab berilgan minimal ustav kapitali miqdorida sarmoya jamg‘arishlari lozim. Hozirgi kunda minimal ustav kapitali miqdori tijorat banklari uchun 10.0 million evroning so‘mdagi ekvivalentida, chet el kapitali ishtirokidagi banklar uchun 10.0 million evroda, xususiy banklar uchun 5.0 million evroning so‘mdagi ekvivalentida qilib belgilangan. Keyinchalik aksiyalar chiqarish yo‘li bilan boshlang‘ich ustav kapitali hajmini oshirish mumkin.

O‘zbekistonda faoliyat yurituvchi tijorat banklarining ishonchli va riskdan holi ravishda faoliyat yuritishlari uchun Markaziy bank tomonidan qo‘llaniladigan hamda belgilangan tartibda o‘rnatilgan turli iqtisodiy normativlar mavjud. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining iqtisodiy me‘yorlarga rioya qilish bo‘yicha talablarni belgilaydi.

“O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi qonunning

52 -moddasiga muvofiq Markaziy bank banklar uchun majburiy bo‘lgan iqtisodiy normativlarni, shu jumladan:⁹

- kapitalning monandlik koeffitsientini;
- bir qarz oluvchi yoki bir-biriga daxldor qarz oluvchilar guruhiga tavakkalchilikning eng ko‘p miqdorini;
- yirik kredit tavakkalchilik va investitsiyalarning eng ko‘p miqdorini;
- likvidlilik koeffitsientlarini;
- aktivlarni tasniflash va baholashga doir talablarni, shuningdek bunday tasniflar asosida bankning operatsiya xarajatlari jumlasiga kiritiladigan chegirmalardan shubhali va harakatsiz qarzlarga qarshi tashkil etiladigan zaxiralarni shakllantirishni;
- qarzlarga doir foizlarni hisoblab chiqarish va ularni bank daromadlari hisobvarag‘iga kiritishga doir talablarni;

⁹“Ўзбекистон Республикаси Марказий банки тўғрисида”ги қонун. 1995 йил 21 декабрь

➤ ochiq valyuta mavqei limitlarini belgilaydi.

Markaziy bank iqtisodiy normativlarning o'zgarishi to'g'risida kamida bir oy oldin e'lon qiladi. Xususan, banklardagi depozitlar bazasining yanada mustahkamlanishi va umumiy kapitalning oshirilishi banklarning kreditlash va investitsiyalash imkoniyatlarini kengaytirib, bank aktivlari hajmining oshishiga imkon bermoqda.

Bugungi kunga kelib tijorat banklari yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar bo'yicha ma'lum bir o'rnatilgan talablar asosida faoliyat yuritadilar.

Kapital etarliligi ko'rsatkichlari bo'yicha 3 ta normativ, likvidlilik ko'rsatkichlari 1 ta normativ, kreditorlar bilan bo'ladigan operatsiyalar bo'yicha normativlar 3 ta normativ, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar bo'yicha normativlar belgilab berilgan. Normativlarning maksimal yoki minimal me'yori ko'rsatilgan.

2-jadval

Tijorat banklariga Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan iqtisodiy normativlar¹⁰

Iqtisodiy ko'rsatkichning nomi	Formula	Belgilan-gan normativ
Kapital etarliligi ko'rsatkichlari		
Kapital etarliligi koefitsienti	Tavakkalchilikka asoslangan umumiy kapital	Min. 0,10
	Riskka tortilgan aktivlar	
1 darajali kapital etarliligi koefitsienti	1 darajali kapital	Min. 0,05
	Riskka tortilgan aktivlar	
Leveraj koefitsienti	1 darajali kapital	Min. 0,06
	(Jami aktivlar) - (Nomoddiy aktivlar umumiy summasi)	
Likvidlilik ko'rsatkichlari		
Joriy likvidlilik koefitsienti	Likvid va so'ndirilish muddati 30 kungacha bo'lgan aktivlar	Min. 0,30
	Qaytarish muddati 30 kungacha bo'lgan va talab qilib olguncha majburiyatlar	
Kreditorlar bilan bo'ladigan operatsiyalar bo'yicha normativlar		
Bitta yoki bir guruh aloqador kreditorlar riskining maksimal darajasi, ta'minlangan kreditlar	Bir kreditorga ajratilgan kreditning maksimal miqdori, ta'minlangan kreditlar	Maks. 0,25
	1 darajali kapital	
Bitta yoki bir guruh aloqador kreditorlar riskining maksimal darajasi, ta'minlanmagan kreditlar	Bir kreditorga ajratilgan kreditning maksimal miqdori, ta'minlanmagan kreditlar	Maks. 0,05
	1 darajali kapital	
Barcha yirik kreditlar risklarining maksimal darajasi	Yirik kreditlarning jami miqdori	Maks. 8,0
	1 darajali kapital	
Qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar bo'yicha normativlar		
Bir emitent qimmatli qog'ozlariga qilingan	Bir emitentning nodavlat qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar	Maks. 0,15

¹⁰Ўзбекистон Республикаси Марказий банки www.cbu.uz - сайти маълумотлари асосида тайёрланди.

	investitsiyalarning maksimal miqdori	1 darajali kapital	
	Qimmatli qog'ozlar oldi sotdisiga qilingan investitsiyalar maksimal darajasi	Oldi sotdi qimmatli qog'ozlariga umumiy investitsiyalar	Maks. 0,25
		1 darajali kapital	
0	Ustav kapitalga va boshqa barcha emitentlar qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar maksimal umumiy hajmi	Ustav kapitalga va boshqa barcha emitentlar qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar umumiy hajmi	Maks. 0,5
		1 darajali kapital	

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, tijorat banklari faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni oldini olish uchun yuqoridagi aniq me'yoriy talablar joriy etilgan. Kapital etarliligi ko'rsatkichlari o'zini 3 guruhga bo'lgan holda Kapital etarliligi koefitsienti, 1 darajali kapital etarliligi koefitsienti va Leveraj koefitsientlari olingan hamda mos ravishda minimal 10%, 5% va 6 % darajada bo'lishi belgilangan. Likvidlilik ko'rsatkichi esa joriy likvidlilik asos sifatida eng kamida 30% bo'lishi alohida qayd etilgan. 2015 yil 1 yanvardan esa bu ko'rsatkich 100% qilib belgilandi.

Kreditorlar bilan bo'ladigan operatsiyalar bo'yicha normativlar bitta yoki bir guruh aloqador kreditorlar riskining maksimal darajasita'minlangan kreditlar 25%, bitta yoki bir guruh aloqador kreditorlar riskining maksimal darajasi 5%, ta'minlanmagan kreditlar barcha yirik kreditlar risklarining maksimal darajasi 1 darajali kapitalga nisbatan 8 baravargacha oshishi mumkinligi belgilangan.

Qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar bo'yicha normativlar bir emitent qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalarning maksimal miqdori 15%, qimmatli qog'ozlar oldi sotdisiga qilingan investitsiyalar maksimal darajasi 25%, ustav kapitalga va boshqa barcha emitentlar qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar maksimal umumiy hajmi 50% gacha bo'lishi talab etiladi.

Bundan tashqari, tijorat banklari faoliyatida valyutalar oldi sotdisi bo'yicha ham turli iqtisodiy normativlar o'rnatilgan xususan, ochik valyuta pozitsiyalarining jami miqdori xar bir operatsion kun yakunida vakolatli bankning regulyativ kapitali miqdorining 20 % dan oshmasligi kerak.

3-jadval

Aloqador shaxslar (insayderlar) bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha ko'rsatkichlar normativi¹¹

N	Iqtisodiy ko'rsatkichning nomi	Formula	Belgilangan me'yor
Aloqador shaxslar (insayderlar) bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha ko'rsatkichlar me'yori			
	Bir yoki bir guruh aloqador shaxslar yo	Bir insayderga berilgan eng yirik kredit, ta'minlangan	Maks. 0,25

¹¹Ўзбекистон Республикаси Марказий банки www.cbu.uz - сайти маълумотлари асосида тайёрланди.

	insayderlarga berilgan kreditlar, ta'minlangan kreditlar	1 darajali kapital	
	Bir yoki bir guruh aloqador shaxslar yo insayderlarga berilgan kreditlar, ta'minlanmagan kreditlar/lizinglar	Bir insayderga berilgan eng yirik kredit, ta'minlanmagan	Maks. 0,05
		1 darajali kapital	
	Bank tomonidan barcha insayderlarga berilgan kreditlar jami summasi	Insayderlarga berilgan kreditlar jami summasi	Maks. 1,00
		1 darajali kapital	

Aloqador shaxslar (insayderlar) bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha ko'rsatkichlar normativi 3 ta bo'lib, ular:

1. Bir yoki bir guruh aloqador shaxslar yo insayderlarga berilgan kreditlar, ta'minlangan kreditlar/lizinglar bir insayderga berilgan eng yirik ta'minlangan kreditni 1 darajali kapitalga nisbati sifatida topiladi.

2. Bir yoki bir guruh aloqador shaxslar yo insayderlarga berilgan kreditlar, ta'minlanmagan kreditlar/lizinglar bir insayderga berilgan eng yirik ta'minlanmagan kreditni kreditni 1 darajali kapitalga nisbati sifatida topiladi.

3. Bank tomonidan barcha insayderlarga berilgan kreditlar jami summasi insayderlarga berilgan kreditlar jami summasi 1 darajali kapitalga nisbati sifatida topiladi.

Agar bank Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan iqtisodiy normativlarni bajarmasa ham Markaziy bank tomonidan tegishli chora ko'riladi.

Aloqador shaxslar (insayderlar) bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha ko'rsatkichlar normativi bir yoki bir guruh aloqador shaxslar yo insayderlarga berilgan kreditlar, ta'minlangan kreditlar/lizinglar 25%, bir yoki bir guruh aloqador shaxslar yo insayderlarga berilgan kreditlar, ta'minlanmagan kreditlar/lizinglar 5%, bank tomonidan barcha insayderlarga berilgan kreditlar jami summasi 1 darajali kapital hajmigacha bo'lgan miqdorda bo'lishi belgilangan.

Banklar va ularning filiallari iqtisodiy normativlarni belgilovchi banklarga oid qonun hujjatlarini buzgan taqdirda, Markaziy bank ustav kapitalining eng kam miqdoridan 0,1 foizgacha jarima undirish yoxud ayrim operatsiyalarni o'tkazishni olti oygacha bo'lgan muddatga cheklab qo'yish huquqiga ega.

Agar yo'l qo'yilgan tartib buzilishlar yoki bank o'tkazayotgan operatsiyalar omonatchilar va kreditorlarning manfaatlariga aniq xavf tug'dirgan bo'lsa, Markaziy bank:

➤ banklardan ustav kapitali eng kam miqdorining bir foizidan oshmagan summada jarima undirishga;

➤ bankdan bankni moliyaviy sog'lomlashtirish, shu jumladan aktivlar tuzilmasini o'zgartirish, bank xarajatlarini kamaytirish va aksiyadorlarga dividendlar to'lashni to'xtatish tadbirlarini ko'rishni, bank yoki uning filiali rahbarlarini, shu jumladan bank kengashi rahbarlari va a'zolarini almashtirishni, bankni qayta tashkil etishni, filialni tugatishni talab qilishga;

➤ bank uchun iqtisodiy normativlarni olti oylik muddatgacha o'zgartirishga;

➤ bankning ayrim bank operatsiyalarini amalga oshirishini bir yilgacha bo'lgan muddatga, shuningdek filiallar ochishni ham olti oylik muddatga taqiqlab qo'yishga;

➤ bankni moliyaviy sog'lomlashtirish yoki Markaziy bank ko'rsatmalarini bajarish uchun zarur bo'lgan davrda mansabdor shaxslar va aksiyadorlar ega bo'lgan barcha vakolatlarni vasiyga berib, bankka vasiylik qilish tartibini belgilash to'g'risida qaror qabul qilishga;

➤ bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyani qaytarib olishga haqlidir.

Demak, yuqorida ko'rsatib o'tilgandek, Markaziy bank tomonidan belgilangan me'yorlarni bajarmaslik ham bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyani qaytarib olishga asos bo'ladi. Bu esa bankni tugatishga sabab bo'ladi.

Bank muassislariga ham Markaziy bank tomonidan ma'lum bir talablar qo'yiladi. Bank barqaror bo'lishi uchun bank muassislari moliyaviy jixatdan barqaror bo'lishlari lozim. Yuridik shaxsning moliyaviy beqarorligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

➤ balansning nolikvidligi;

➤ to'lovga kobilyatsizlik yoki bankrotlik;

➤ bu yuridik shaxs rasmiy ravishda bankrot deb e'lon viliinishidan qat'iy nazar uning passivlari aktivlaridan oshib ketishi;

➤ bunday shaxsning majburiyatlari bank barqarorligiga nisbatan muayyan tavakkalchilikni yuzaga keltirsa;

➤ yuridik shaxs taqdim etgan balans bu shaxs zarur xollarda ustav kapitalini oshira olmasligini ko'rsatsa;

➤ bunday shaxs tomonidan bankda mulk sotib olinishi ko'zda tutilishi natijasida bankka yoki uning omonatchilariga moliyaviy xavf solinishi mumkinligini ko'rsatuvchi boshqa xollar ma'lum bulsa.

Quyidagi shaxslar bank muassislari va aksiyadorlari bo'la olmaydilar:

➤ bankrotlikka uchragan yuridik shaxsning sobik raxbarlari, boshkaruvi va kuzatuv kengashi a'zolari yoki yirik ishtirokchisi hamda uzining ishbilarmonlik va shaxsiy xattixarakatida ishlarni notugri boshkarish va vijdonan yuritish mumkin emasligini namoyish qilgan shaxslar;

➤ offshor xududlarda ruyxatga olingan norezident yuridik shaxslar;

➤ davlat xokimiyati organlari, maxalliy boshkaruv organlari, jamoat birlashmalari, jamoat fondlari, byudjetdan tashkari fondlar, byudjet muassasalari va tashkilotlari, agar boshqa xolat konunlarda kuzda tutilmagan bo'lsa.

Ko'pchilik hollarda Markaziy bank tomonidan belgilangan talablarni bajara olmaslik natijasida bir qancha banklar o'z faoliyatlarini to'xtatishga majbur bo'lishadi.

Bular jumlasiga so'nggi yillarda o'z faoliyatlarini to'htatgan Samarqandbank, O'ktam bank, Kredit-standart bank, Alp-Jamol bank, Parvinabank va Amirbanklarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Umuman olganda, tijorat banklarining ma'lum davr o'tgach o'z faoliyatini to'xtatishi yoki o'z faoliyatlarini boshqa shaklga o'zgartirish boshqa banklarga qo'shilishi yoki qayta tuzilishi bu tabiiy hol, biroq shunga qaramasdan har bir bankning yopilishi yoxud shaklini o'zgarishi u bilan bog'liq ravishda faoliyat yuritayotgan qolgan barcha iqtisodiy sub'ektlar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishini oldini olish muhim.

O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati” to‘g‘risidagi qonunining 14-moddasida bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun berilgan litsenziyani chaqirib olish asoslari ko‘rsatilgan.

SHunday qilib, Markaziy bank quyidagi hollarda bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun berilgan litsenziyani chaqirib olishi mumkin:

- bank to‘lovga qobiliyatsiz bo‘lib qolganida, passivlar aktivlardan ko‘payib ketganida;
- litsenziya berishga asos bo‘lgan ma‘lumotlarning noto‘g‘riligi aniqlanganda;
- bank o‘z omonatchilari va boshqa kreditorlari oldidagi majburiyatlarini bajarishga qodir bo‘lmaganida;
- hisobot ma‘lumotlari muntazam ravishda buzib ko‘rsatilganda;
- qonun hujjatlariga va litsenziya shartlariga zid keladigan bank operatsiyalari amalga oshirilganda;
- litsenziya berilgan paytdan e‘tiboran bank operatsiyalarini amalga oshirish bir yildan ortiq muddatga kechikkanda;
- monopoliyaga qarshi qoidalar buzilganda;
- ichki nazorat qoidalari hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog‘liq axborotni maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etish tartibi buzilganda;
- O‘zbekiston Respublikasida o‘z sho‘ba bankini tashkil etgan chet el bankidan litsenziya chaqirib olinganda.

Banklarning qo‘shilishi va yutilishiga ta‘rif va umumiy tavsif

Iqtisodiyotning bank sektori oxirgi o‘n yilliklar davomida butun jahonda keskin o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda, ushbu o‘zgarishlar moliya bozorlarining globallasuvi, moliya sektorining konsolidatsiyalashuvi bilan tavsiflanadi va bu jarayonlar moliyaviy muassasalar sonining qisqarishi, bank biznesi sohasining kengayishida namoyon bo‘lmoqda. Bank biznesi o‘z navbatida biznesning baynalminallashuvi va mahsulotlar qatorining diversifikatsiyalashuvi, shu jumladan banklar tomonidan nobank mahsulot va xizmatlar taklifining kengayishida o‘z aksini topmoqda. Moliya sektoriga ko‘pchilik davlatlarda soliq qonunchiligining o‘zgartirilishi va qayta tartibga solinishi katta ta‘sir o‘tkazmoqda.

Banklarning qo‘shilishi va yutilishi: umumiy yondashuvlar va texnologik jihatlar.

1. Qo‘shilish va yutilishning sabablari.

Zamonaviy korporativ boshqaruv nazariyasi va amaliyoti kompaniya va banklarning qo‘shilishi va yutilishining bir qator sabablarini ko‘rsatib bermoqda. Ushbu sabablarni birma-bir ko‘rib chiqamiz.

Qo‘shilishi va yutilish natijasida **sinergetik samaraga erishishga intilish**, ya‘ni ikki yoki undan ortiq tashkilotlar aktivlarining o‘zaro bir-birini to‘ldirib boruvchi ta‘siri va uning birgalikdagi natijasi bozorda alohida faoliyat yuritayotgan strukturalarning jami natijasidan yuqori bo‘lishiga erishish. Sinergatik samaraning kelib chiqishi quyidagilar bilan asoslanadi:

- masshtabni iqtisod qilish;
- o‘zaro bir-birini to‘ldirib boruvchi resurslarning birlashtirilishi;
- transaksion harajatlarning qisqarishi hisobiga pul mablag‘larini tejash;

- bozordagi pozitsiyani mustahkamlash (monopoliyaga aylanish);
- harajatlarni tejash.

Qo‘shilish va yutilishning sabablaridan yana biri boshqaruv sifati va samarasini oshirishga intilish hisoblanadi. Qoidaga ko‘ra, kam samarali va boshqaruv tizimi sust bo‘lgan banklar va kompaniyalar yutilishga yuz tutadi.

Soliq tizimi bilan bog‘liq sabablar ham ushbu jarayonlarga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. YUtilayotgan kompaniya ma‘lum bir soliq imtiyozlariga ega bo‘la turib, ba‘zi sabablarga ko‘ra bu imtiyozlardan to‘la-to‘kis foydalanmayotgan bo‘lishi mumkin.

Pul mablag‘lari oqimlarini stabillashuv va risklarni kamaytirish bilan bog‘liq holda biznesni diversifikatsiyalash ham qo‘shilish va yutilishning sabablaridan biri hisoblanadi. Bank biznesida to‘xtaladigan bo‘lsak, foizli daromadlarga ma‘lum bir davriylik xususiyati xos, shuning uchun “kredit” bank tomonidan daromadlarning asosiy manbaini komission to‘lovlar tashkil qilgan maxsus moliya muassasasiga ega bo‘lish daromadlilikka katta ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Ortiqcha resurslardan foydalanish imkoniyati ham muhim sabablardan biridir. Masalan, yirik moliyaviy resurslarga ega bo‘lgan, biroq ba‘zibir sabablarga ko‘ra ularni joylashtirish imkoniyatlari chegaralangan hududda joylashgan hududiy bank milliy masshtabda faoliyat yuritayotgan yirik bank uchun yutilish ob‘ekti sifatida qiziqish uyg‘otishi mumkin.

Mutaxassislar tomonidan qo‘shilish va yutilishning sabablari sifatida kompaniyaning bozor narxi va uni o‘rnini bosish bahosi o‘rtasidagi farq mavjudligi ko‘rsatiladi. Bank amaliyoti haqida gapiradigan bo‘lsak, ko‘p hollarda hududiy bankni sotib olib, uni filialga aylantirish “noldan” filial ochishdan ko‘ra arzonroq bo‘lishi namoyon bo‘ladi. YAna bir misol sifatida bank tomonidan protsessing kompaniyasini sotib olinishini ham keltirish mumkin.

Asset-stripping (foyda olish maqsadida qismlarga bo‘lib qayta sotish uchun kompaniyani sotib olish) kabi yutilish sababi ham kompaniyani likvidatsion narxi uning bozor narxiga ko‘ra yuqoriligi hisobiga amaliyotda ko‘p uchrayotgan sabalardan biri ekanligi namoyon bo‘lmoqda.

Menejmentning shaxsiy sabablari ham mavjud: qo‘shilish va yutilishning bunday sabablari yuqori menejmentning motivatsiyasi kompaniya yoki bankning faoliyati natijalaridan ko‘ra ko‘proq uning masshtablariga qaratilgan vaqtda vujudga keladi. Ma‘lumki, yirik kompaniya yoki bankni boshqarish albatta qiyinroq, ammo doim “boshqarish qiyinligi uchun kompensatsiya” degan savol tug‘iladi.

2. Strategik jihatlar.

Strategik jihatlar qo‘shilish va yutiish to‘g‘risida boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos hisoblanadi. Makroiqtisodiy sharoit va iste‘molchilarning doimo o‘zgarib turuvchi va qiyinlashib boruvchi talablariga moslasha olish qobiliyati biznesni yashashi va rivojlanishining asosiy sharti hisoblanadi. Demak, agar kompaniya o‘z faoliyati chegaralarini kengaytirmasa, yoki doimo o‘zgarib turuvchi tashqi sharoitga moslasha olmasa, u o‘z kelajagini so‘rov beligisi ostiga qo‘yayotgan bo‘ladi. O‘shish va rivojlanishga intilish ko‘p hollarda u yoki bu biznesni yaratgan va rivojlantirgan tadbirkorlarning ta‘siri ostida yanada kuchayadi. Ishbilarmon korxonaning ko‘lami ko‘pincha biznesning kuchli

tomoni sifatida qaraladi, bozorda etakchilik qilish, daromadlarning barqarorligi, malakali menejerlarni jalb qila olish imkoniyatlari bilan tenglashtiriladi. Tashqi aksionerlarga ega bo'lgan kompaniyalar uchun dividendlar va bir aksiyaga to'g'ri keladigan foydaning o'sishiga bo'lgan talabning mavjudligi xosdir. Bu masalalar ham tashqi sharoit ham ichki omillar ta'sirida shakllanadigan strategiyada o'z aksini topadi. Strategik opsiyalardan biri bo'lib qo'shilish va yutilish hisoblanadi.

YUtilish yoki qo'shilish jarayoni muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun quyidagilar ishlab chiqilishi va amaliyotga tadbiiq etilishi zarur:

- To'liq shakllangan strategik fikrlash asosidagi strategik yondashuvlar;
- YUtilish jarayonini amalga oshirish tartibini tanlash va maqsadini tahlil qilish;
- Bitimni moliyaviy va tashkiliy jihatdan to'g'ri strukturaga keltirish;
- Bitim amalga oshirilgandan keyingi boshqaruv tartibi va chora-tadbirlari, shuningdek yutilayotgan kompaniyaning integratsiyasi jarayoni.

Qo'shilish va yutilishga nisbatan asosiy strategik yondashuvlar sifatida integratsiya va diversifikatsiyani ko'rsatish mumkin.

YUtilish natijasida "yutayotgan" kompaniya yangi faoliyat turi bilan shug'ullanishni boshlaydi (diversifikatsiya) yoki o'zining an'anaviy biznesini yanada kuchaytiradi (integratsiya). Amaliyotda ushbu ikki jarayon o'rtasidagi chegara deyarli sezilmaydi, chunki qo'shilish yoki yutilish holatlari ham integratsiya ham diversifikatsiya elementlarini o'z ichiga oladi.

Ilmiy adabiyotlarda yutilish jarayoni vertikal va gorizontal turlarga ajratib ko'rsatiladi. Vertikal integratsiyada yutayotgan kompaniya o'zining ishlab chiqarish zanjirini kengaytiradi. Misol sifatida qog'oz ishlab chiqaruvchi korxonadan o'rmon sanoati bilan shug'ullanadigan korxonani sotib olinishini keltirish mumkin. Bunday holatda "yuqoriga yo'naltirilgan" integratsiya sodir bo'ladi, chunki bu orqali kompaniya xomashyo manbalariga yanada yaqinlashadi. Agarda qog'oz ishlab chiqaruvchi kompaniya kanselyariya tovarlari savdosi bilan shug'ullanadigan do'konlar tarmog'ini sotib olsa, bunda "pastga yo'naltirilgan" integratsiya kuzatiladi, chunki bunda yakuniy iste'molchiga yaqinlashish amalga oshiriladi. Vertikal integratsiyalashgan tashkilotlarga an'anaviy misol sifatida yirik neft ishlab chiqaruvchi kompaniyalarni keltirish mumkin, ular neft etkazishdan boshlab to yoqilg'ini o'zlariga tegishli bo'lgan yoqilg'i quyish stansiyalari orqali realizatsiya qilishgacha bo'lgan barcha operatsiyalarni amalga oshiradilar. Gorizontal integratsiyada yutuvchi kompaniya o'zining ishlab chiqarish quvvatlarini oshiradi, texnologiyalarini takomillashtiradi va savdo tarmoqlarini kengaytiradi.

Qo'shilish yoki yutilish strategiyasi bank rivojlanishining umumiy strategiyasi asosida ishlab chiqiladi. Ko'rib chiqilayotgan qo'shilish yoki yutilish kredit tashkilotining maqsad va vazifalariga qanchalik mosligi, bankning umumiy strategiyasi bilan to'g'ri kelishi hamda strategiyani amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasiga qo'shilishi eng yuqori darajada baholanadi. Qo'shilish va yutilish to'g'risida qaror qabul qilish jarayonini umumiy ko'rinishini bankning strategik rejasining bo'limlarini solishtirish orqali ko'rish mumkin.

Tijorat banklarining qo‘shilish sabablari va mezonlari

Strategik rejaning namunaviy tuzilishi	Qo‘shilish va yutilish masalasi
Missiya (tashkilot faoliyatining asosiy maqsadi)	Taklif etilayotgan qo‘shilish yoki yutilish qanchalik tashkilot missiyasiga javob beradi?
Maqsadlar (moliyaviy, biznesning ko‘lami, operatsiyalar samaradorligi, taqdim etilayotgan xizmatlar sifati)	Taklif etilayotgan qo‘shilish yoki yutilish qanday qilib tashkilot maqsadlarini amalga oshirishga imkoniyat yaratadi?
Makroiqtisodiy tendensiyalar va bozor rivojlanishi yo‘nalishlari	Makroiqtisodiy tendensiyalar (shu jumladan, davlat tomonidan tartibga solish) va bozor imkoniyatlari qo‘shilish yoki yutilishni amalga oshirish uchun qanchalik adekvat bo‘ladi?
Tashkilotning raqobatbardoshligini baholash	Qo‘shilish yoki yutilish tashkilotning raqobatbardoshligini qanchalik oshiradi? Muammoli jihatlarni xal etish imkoni bo‘ladimi?
Rivojlanish imkoniyatlarini baholash	Qanday qilib qo‘shilish yoki yutilish rivojlanish imkoniyatlaridan optimal foydalanish imkonini beradi? Xavf darajasini pasaytirish mumkin bo‘ladimi?
Bozorning asosiy bo‘g‘inlari bo‘yicha strategiya	Qo‘shilish yoki yutilish bozorning barcha bo‘g‘inlaridagi bankning pozitsiyasiga qanday ta‘sir ko‘rsatadi?
Faoliyatning asosiy turlari bo‘yicha strategik vazifalar	Faoliyatning asosiy turlari bo‘yicha zaruriy natijalarga erishiladimi?
Asosiy strategik vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi	Qo‘shilish yoki yutilish chora-tadbirlar rejasini amalga oshirish uchun qanday imkoniyatlar beradi?
Kutilayotgan moliyaviy natijalar	Qo‘shilish yoki yutilish o‘rnatilgan ko‘rsatkichlarga erishishda qanchalik samara beradi?

Qo‘shilish va yutilish jarayoni olti bosqichdan iborat bo‘ladi. Birinchi uchta bosqich qo‘shilish va yutilishni rejalashtirish jarayonini, qo‘shilish va yutilishning potensial ob‘ekti bo‘yicha tahliliy ishlarni olib borish, qo‘shilish va yutilish to‘g‘risida muzokaralar olib borish va zaruriy bitimni tayyorlash va imzolash jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Ikkinchi uchta bosqich bu loyihani amaliy jihatdan amalga oshirishdir. Qo‘shilish yoki yutilish kelishuvining asosiy bosqichlari quyidagilar:

- Qo‘shilish va yutilish strategiyasini ishlab chiqish;

- Qo‘shilish yoki yutilish potensial ob‘ektini tahlil qilish;
- Muzokaralar jarayoni va bitim imzolash;
- Vaziyatni baholash va barqarorlashtirish;
- Integratsiya;
- Keyingi integratsiya.

Qo‘shilish yoki yutilish strategiyasini ishlab chiqish bankning umumiy strategiyasini aks ettiradi, bu esa bankning bozordagi mavqegini baholash, kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilish, biznesni rivojlantirish imkoniyatlarini va xavflarini ko‘rib chiqish, raqobatchilarni tahlil qilish zaruriyatini bildiradi. Raqobatchilarni tahlil qilishning standart shartlariga strategiya, mahsulotlar qatori, mijozlar bazasi, bank mahsulotlarini etkazib berish texnologiyalarini baholashni o‘z ichiga oladi. Umumbank strategiyasini shakllanishi natijalariga ko‘ra, qo‘shilish yoki yutilish maqsadlari shakllanadi: ustuvor vazifalarni amalga oshirish uchun kim kerak. Agar yangi bozorlarga chiqish ko‘zda tutilgan bo‘lsa, quyidagilar inobatga olinishi zarur:

- Risk va daromadlilik nisbati;
- Biznesni rivojlantirish maqsadlari, biznes olib boriladigan asosiy sohalar, tashkilotning ixtisoslashuvi va imidji;
- O‘z kapitali miqdori va kapitalning etarliligi ko‘rsatkichlariga bo‘lgan talablar (xalqaro bozorlarga chiqishda davlatlarning tartibga soluvchi organlarining talablarini ham hisobga olish zarur);
- Qonuniy va normativ baza;
- Milliy va xalqaro bozorlardagi raqobat;
- Makroiqtisodiy parametrlar va sharoitlar;
- Biznes uchun muhim bo‘lgan mijozlar guruhini marketing tadqiqoti.

Qo‘shilish va yutilish jarayoni strategik, taktik va operatsion darajalarni o‘z ichiga oladi:

Strategik daraja – ob‘ektini tanlash:

- O‘shish strategiyasi
- Qo‘shilish yoki yutilish ob‘ektini izlash va baholash
- Kelishuv tarkibini aniqlash;

Taktik daraja – yutilish va stabillashish – integratsiya taktikasi, joriy holatni tahlil qilish:

- Konseptual reja
- Qismlarga ajratilgan reja
- Kelishuvni amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi;

Operatsion daraja - biznes turlari integratsiyasi:

- Koordinatsiyalashgan tadbiq etish
- Loyihani amalga oshirilishini oraliq baholash
- O‘zgartirishlar kiritish
- Natijalarni baholash.

Strategik darajada qo‘shilish yoki yutilish ob‘ektini tanlash ko‘zda tutiladi, uning ketidan rivojlanish strategiyasini amalga oshirish yo‘llari izchil tahlil qilinadi. Sotib oluvchi bank tomonidan shaxsiy strategik maqsadlar baholanadi va qo‘shilayotgan

bankning biznesi bilan optimal aloqa aniqlanadi, undan so‘ng qo‘shilish strategiyasi tanlanadi.

Banklarni qo‘shilish yoki yutilish ko‘rinishida qayta tashkil etish uchun bir qator omillar sabab bo‘ladi. Qo‘shilish va yutilish sabablarini aniqlash juda muhim, chunki aynan shu sabablar ikki yoki undan ortiq bankning birlashishi natijasida uning qimmatroq bo‘lishi sabablarini aks ettiradi. SHuni ta’kidlash joizki, ko‘pchilik qo‘shilish va yutilish holatlarining asosiy maqsadlaridan biri bu birlashgan banklarning kapitallashgan bahosini oshirish hisoblanadi.

YUtilish holatida yutayotgan bank moddiy va nomoddiy aktivlarga ega bo‘ladi, shuningdek bankning tashkiliy strukturasi ham egallab oladi. Moliya nazariyasi nuqtai nazaridan qaraganda qo‘shilish va yutilish holatlari bu oddiy investitsion qaror hisoblanadi va unda biror bir bank boshqa bankning jami aktivlariga ega bo‘lish evaziga ma’lum bir summani to‘laydi (yoki bankrot bankni olayotgan holatda uning zarari va majburiyatlarini o‘z bo‘yniga oladi). Demak, qo‘shilish ham boshqa investitsion qarorlar kabi bankning sof joriy qiymatini oshirishga qaratilgan holatdagina amalga oshirilishi zarur.

Endi banklarni tugatish tartibini o‘rganib chiqamiz. Bank ixtiyoriy yoki majburiy ravishda tugatilishi mumkin. Bunda Markaziy bank tomonidan bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun berilgan litsenziya chaqirib olinadi.

Ixtiyoriy tugatish. Bankni ixtiyoriy ravishda tugatish kreditorlar va omonatchilar oldida majburiyatlar bajarilishini ta’minlash imkoniyatiga ega bo‘lgan bank aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi tomonidan bankni ixtiyoriy ravishda tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilingan holda amalga oshirilishi mumkin.

Bankni ixtiyoriy ravishda tugatish quyidagi tadbirlarni o‘z ichiga oladi:

Bank aksiyadorlar yoki muassislar umumiy yig‘ilishi qaroriga asosan bankni ixtiyoriy ravishda tugatishga ruxsat berish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan Markaziy bankka murojaat qilishi lozim. Bankni ixtiyoriy ravishda tugatishga ruxsat berish to‘g‘risidagi iltimosnoma aksiyadorlar yoki muassislar umumiy yig‘ilishi vakolat bergan shaxs tomonidan imzolangan bo‘lishi zarur.

Bankni ixtiyoriy ravishda tugatish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan birga Markaziy bankka quyidagi hujjatlar taqdim etilishi kerak:

aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan bankni tugatish to‘g‘risidagi tugatish sabablari ko‘rsatilib qabul qilgan qarori;

bankni ixtiyoriy ravishda tugatish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan Markaziy bankka murojat qilingan vaqtdagi balans hisoboti;

tugatish komissiyasi a’zolari ro‘yxati;

aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tasdiqlagan tugatish rejasi.

Markaziy bank iltimosnoma qabul qilingan kundan boshlab bir oy davomida bankni ixtiyoriy ravishda tugatishga rozilik berish to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Markaziy bank ushbu iltimosnomaga rozi bo‘lmasa bank rahbarlari va aksiyadorlariga bankni ixtiyoriy ravishda tugatishga rozilik bermasligi to‘g‘risida asoslangan qarorni etkazadi. Markaziy bank zarur hollarda tugatish rejasi va jadvalini ko‘rib chiqish yoki boshqa hujjatlar va ma’lumotlarni talab qilishi mumkin.

Likvidator Markaziy bankning tugatish to'g'risidagi roziligi olingandan keyin, kreditorlar o'z talablarini bildirishi mumkin bo'lgan manzilni ko'rsatgan holda ushbu ma'lumotni kamida ikki respublika gazetasida e'lon qilishi lozim.

Talab qilinayotgan barcha choralar bajarilgach tugatish komissiyasi aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tasdiqlaganidan so'ng 7 kun ichida Markaziy bankka hisobot va tugatish balansini taqdim etishi lozim.

Majburiy tugatish. Bankni majburiy tarzda tugatish Markaziy bankning bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyasini chaqirib olish to'g'risidagi qaroriga asosan amalga oshiriladi.

Markaziy bankning litsenziyani qaytarib olish to'g'risidagi qaroriga asosan bankni majburiy ravishda tugatish quyidagi asoslarga ko'ra amalga oshiriladi:

a) passivlarning aktivlardan oshib ketishi tufayli bankning to'lovga layoqatsiz bo'lib qolishi;

b) litsenziya berilishiga asos bo'lgan ma'lumotlarning noto'g'ri ekanligi aniqlanishi;

v) bank o'z omonatchilari yoki boshqa kreditorlari oldidagi majburiyatlarni bajarishga layoqatsizligi;

g) hisobot ma'lumotlarining muntazam ravishda buzib ko'rsatilishi;

d) qonunchilikka hamda omonatchilar va kreditorlar manfaatlariga real xavf soluvchi litsenziya shartlariga zid bo'lgan bank operatsiyalarining amalga oshirilishi;

e) litsenziya berilgan vaqtdan boshlab bir yildan ortiq muddatda bank operatsiyalarini bajarishni kechiktirish;

j) monopoliyaga qarshi qoidalarning buzilishi;

z) O'zbekiston Respublikasi xududida sho'ba bankni tashkil etgan xorijiy davlat banki litsenziyasining qaytarib olinishi.

Bank tomonidan yo'l qo'yilgan omonatchilar va kreditorlar manfaatlariga real xavf soluvchi tartibbuzarliklarga quyidagilar kiradi:

a) amaldagi qonunchilik va Markaziy bank me'yoriy hujjatlarining buzilishi;

b) xavfli yoki nosog'lom bank faoliyatining yuritilishi;

v) bankning Markaziy bank ko'rsatmalarini atayin va uzoq muddat bajarmasligi;

g) bank tomonidan hujjatlar yoki yozishmalarning Markaziy bank inspektorlaridan yashirilishi yoki bank nazorati xizmatiga talab etilgan hujjatlarni taqdim etishdan bosh tortilishi.

Bank kapitalining etarlilik koeffitsienti darajasi Markaziy bank belgilagan ushbu iqtisodiy me'yorning 75 foizidan kam bo'lishi, bank ketma-ket keluvchi har uch chorakda bank regulyativ kapitalining 10 foizidan yoki vaqtdan qat'iy nazar regulyativ kapitalning 50 foizidan ortiq miqdorda potensial zarar ko'rishi yoki ko'rishi mumkin ekanligi, omonatchilar va kreditorlarning bankka ishonib topshirgan mablag'lari butligiga real xavf soluvchi boshqa hollar bank faoliyati omonatchilar va kreditorlar manfaatlariga real xavf soladi deb tan olinadi. Bular ham bank faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, banklarini tugatilishiga olib kelishi mumkin.

3.O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarini tugatish tartibi va uning huquqiy asoslari

Tijorat banklari faoliyatini tugatish - boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga huquqiy vorislik tartibida huquqlar va majburiyatlar o‘tmagan holda bank faoliyatini tugatishdir. O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning 19-moddasiga asosan tijorat banklari quyidagi hollarda faoliyatini to‘xtatish yoki faoliyatini tugatish mumkin:

- Aksiyadorlar yig‘ilishining qaroriga ko‘ra;
- Markaziy bank litsenziyani chaqirib olganida;
- Bankrot deb e‘lon qilinganida.

SHu bilan bir qatorda, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 101-104-moddalariga muvofiq tijorat banklari aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan bankni ixtiyoriy ravishda tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilingan yoki O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki bankdan bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun berilgan litsenziya qaytarib olingan hollarda tugatilishi mumkin.

Likvidator yoki tugatish komissiyasi Markaziy bank bilan kelishilgan holda aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan bankni tugatish to‘g‘risidagi qaror kuchga kirgan kundan boshlab uch kun mobaynida tayinlanadi. Tugatish komissiyasi tarkibiga Markaziy bank va uning bank joylashgan manzil bo‘yicha hududiy Bosh boshqarmasi mutaxassislari kiritilishi mumkin. Banklar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksida ko‘zda tutilgan tartibda bank qonunchiligida belgilangan xususiyatlarni hisobga olgan holda tugatiladi. Tugatish jarayonining maqsadi bank omonatchilari va kreditorlari talablarini tezlik bilan qondirishdan iborat. Bank ixtiyoriy yoki majburiy ravishda tugatilishi mumkin Bank Markaziy bank tomonidan tugatilganda bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya, shuningdek, ayrim operatsiyalarni bajarish uchun berilgan litsenziyalar chaqirib olinadi. O‘z faoliyatini to‘xtatgan bank Markaziy bank tomonidan banklarni davlat ro‘yxatiga olish daftaridan chiqariladi. Bankning faoliyati to‘xtatilganligi haqidagi xabar matbuotda e‘lon qilinadi. Bank faoliyatini to‘xtatish va uni tugatish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Bankni tugatish jarayoni Markaziy bank Boshqaruvining litsenziyalarni qaytarib olish to‘g‘risidagi qarori chiqqan kundan boshlangan deb hisoblanadi. Markaziy bank Boshqaruvining litsenziyalarni qaytarib olish to‘g‘risidagi qarori u qabul qilingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi. Qaror u qabul qilingan kuni bank rahbariyatiga mazkur qarorni olganligiga to‘g‘risida imzo qo‘ydirilgan holda topshiriladi.

Bankni tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilingandan keyin, Markaziy bank Banklarni ro‘yxatga olish Davlat kitobiga bankda tugatish jarayoni ketayotganligi to‘g‘risidagi yozuvni kiritadi. Tugatilayotgan bankning Markaziy bank majburiy zahiralari hisobvarag‘ida hisobda turgan mablag‘lari tugatuvchi tomonidan bankni tugatish jarayoni boshlanganligi to‘g‘risidagi tasdiqnoma taqdim etilganidan so‘ng uch kunlik muddatda tugatilayotgan bank joylashgan Markaziy bank hududiy Bosh boshqarmasi ho‘zuridagi Hisob-kitob-kassa markazida ochiladigan bankning tugatish hisobvarag‘iga qaytariladi. Markaziy bank Boshqaruvining litsenziyani qaytarib olish to‘g‘risidagi qarori qabul

qilingan kundan boshlab bankni tugatish jarayoni yakunlanishiga qadar quyidagi cheklashlar belgilanadi:

➤ aksiyadorlar umumiy yig'ilishi, boshqa organlar va bank mansabdor shaxslarining vakolatlari to'xtatiladi, jumladan, ularning mulkni tasarruf etish va majburiyatlarni to'lash, shuningdek, bankni boshqarish huquqlari bekor qilinadi. Bunda aksiyadorlar umumiy yig'ilishining likvidator hisobotlarini maslahatli tarzda muhokama qilish huquqi saqlanib qoladi;

➤ tugatilayotgan bank nomidan yoki uning hisobidan amalga oshirilgan harakatlar ular faqat likvidator tomonidan bajarilgan holdagina yuridik kuchga ega bo'lishi mumkin;

➤ bankning barcha qarz majburiyatlari muddati o'tgan hisoblanadi;

➤ tugatilayotgan bankning barcha turdagi qarzlari bo'yicha penya va foizlarning hisoblab yozilishi to'xtatiladi;

➤ tugatilayotgan bank ishtirokida sudda ko'rilayotgan mulkiy xususiyatga ega bo'lgan tortishuvlar agar ularga doir qabul qilingan qarorlar qonuniy kuchga kiritilmagan bo'lsa to'xtatiladi;

➤ bankka tegishli mulkiy xususiyatga ega bo'lgan barcha talablar faqat likvidator nomiga bildirilishi hamda mazkur nizom va amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgan tartibda ko'rib chiqilishi mumkin;

➤ tugatish jarayoni boshlangunga qadar sud tomonidan qabul qilingan qarorlar va tugatilayotgan bankka nisbatan mulkiy talablarga oid sudning ijro hujjatlari qonunchilikda belgilangan navbat tartibida ijro etilishi uchun tugatish komissiyasiga topshiriladi.

Bankni tugatish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

- moddiy nazorat va inventarlash;

- aktivlarni tekshirish;

- aktivlarni baholash va sotish;

- sotuvdan tushgan tushumlarni joylashtirish;

- tugatish jarayonini yakunlash.

Markaziy bank bankni tugatish jarayonini nazorat qilib turishi shart. Ushbu maqsadlarda Markaziy bank muntazam ravishda bank aktivlarini baholash, bu aktivlarni tugatish va daromadlarni taqsimlash to'g'risida hisobotlar olib turadi. Tugatish komissiyasi raisi etib tayinlagan shaxs yoki likvidator sifatida yollanayotgan yuridik shaxs rahbari, shuningdek, likvidatorning bosh buxgalteri sifatida yollangan shaxs va tugatish komissiyasining boshqa a'zolari Markaziy bankning banklar rahbarlari va bosh buxgalterlariga nisbatan qo'ygan malaka talablariga mos kelishi lozim. Likvidator, ekspertlar va tugatish jarayonida band bo'lgan boshqa shaxslar faoliyatiga haq to'lash shartlari likvidator tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda ishlab chiqiladigan tugatish rejasida qayd etiladi.

Bankni tugatish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlar mazkur bank hisobidan amalga oshiriladi. Banklarni tugatishga doir xarajatlarni Markaziy bank tomonidan moliyaviy ta'minlashga yo'l qo'yilmaydi. Tugatilayotgan bank majburiyatlariga doir hisob-kitoblarni bajarishda tugatish bilan bog'liq xarajatlar navbatdan tashqari tartibda amalga oshiriladi. Likvidator yoki tugatish komissiyasi a'zolari tomonidan amaldagi qonunchilik bo'zilgan hollarda, Markaziy bank boshqa likvidator yoki tugatish komissiyasi a'zolarini tayinlashni

talab qilishga haqli. Bank tugatilguniga qadar u Markaziy bank nazorati ostida bo‘ladi va Markaziy bank uni tekshirib turish huquqiga egadir.. Markaziy bankning bankni ixtiyoriy tugatishdan bosh tortishi, shuningdek, bankni majburiy tugatish to‘g‘risidagi qarori yuzasidan qonunchilikda belgilangan tartibda shikoyat berish mumkin.

Bankni ixtiyoriy ravishda tugatish kreditorlar va omonatchilar oldida majburiyatlar bajarilishini ta‘minlash imkoniyatiga ega bo‘lgan bank aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi tomonidan bankni ixtiyoriy ravishda tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilingan holda amalga oshirilishi mumkin.

Bankni ixtiyoriy ravishda tugatishda bank aksiyadorlar yoki muassislar umumiy yig‘ilishi qaroriga asosan bankni ixtiyoriy ravishda tugatishga ruxsat berish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan Markaziy bankka murojaat qilishi lozim. Bankni ixtiyoriy ravishda tugatishga ruxsat berish to‘g‘risidagi iltimosnoma aksiyadorlar yoki muassislar umumiy yig‘ilishi vakolat bergan shaxs tomonidan imzolangan bo‘lishi zarur. Bankni ixtiyoriy ravishda tugatish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan birga Markaziy bankka tegishli hujjatlar taqdim etilishi kerak.

Markaziy bank iltimosnoma qabul qilingan kundan boshlab bir oy davomida bankni ixtiyoriy ravishda tugatishga rozilik berish to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Markaziy bank ushbu iltimosnomaga rozi bo‘lmasa bank rahbarlari va aksiyadorlariga bankni ixtiyoriy ravishda tugatishga rozilik bermasligi to‘g‘risida asoslangan qarorni etkazadi. Markaziy bank zarur hollarda tugatish rejasi va jadvalini ko‘rib chiqish yoki boshqa hujjatlar va ma‘lumotlarni talab qilishi mumkin. Likvidator Markaziy bankning tugatish to‘g‘risidagi roziligi olingandan keyin, kreditorlar o‘z talablarini bildirishi mumkin bo‘lgan manzilni ko‘rsatgan holda ushbu ma‘lumotni kamida ikki respublika gazetasida e‘lon qilishi lozim.

Bankni majburiy tarzda tugatish Markaziy bankning bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyasini chaqirib olish to‘g‘risidagi qaroriga asosan amalga oshiriladi.

Likvidator noqonuniy yoki atayin noto‘g‘ri qilingan harakatlar natijasida bankka keltirilgan zarar uchun javobgardir. Likvidator tugatish bilan bog‘liq me‘yordagi operatsiya tavakkalchiligi toifasiga kiruvchi zararlar uchun javob bermaydi.

Likvidator quyidagi huquqlarga ega:

a) bank aktivlarini aniqlash hamda tugatish maqsadlarini hisobga olgan holda mulk egasi va bank boshqaruvi organlari vakolatlari doirasida ularni tasarruf etish;

b) bank nomidan tugatish ishlari va bank faoliyatini yakunlash maqsadlariga muvofiq bank rahbariyati vazifalarini bajarish;

v) bank aktivlari va mulkini zahiraga olish;

g) bank hujjatlari va mulki, shuningdek, garov ta‘minoti sifatida berilgan boshqa mol-mulk butligini ta‘minlash yuzasidan chora-tadbirlar ko‘rish;

d) tugatish jarayonini amalga oshirish uchun mustaqil mutaxassislar tarkibidan xodimlarni, shuningdek, o‘z xohishiga ko‘ra bank xodimlarini (qorovullardan tortib malakali maslahatchilargacha) shartnoma asosida yollash. Bank kreditorlari bu jarayonga xodimlar sifatida jalb etilishi mumkin emas;

e) tugatilayotgan bankning moliyaviy ahvolini hisobga olgan holda mehnat qonunchiligiga muvofiq xodimlarga ish haqi va boshqa to‘lovlarni belgilash;

j) sudda tugatilayotgan bank nomidan qatnashish;

z) omonatchilar va kreditorlarning talablarini qondirish uchun mablag'lar etishmasa tugatuvchi bank mulkini sotish huquqiga ega;

i) bank nomidan talablar qo'yish, bank kreditorlari talablarining qonuniyligini aniqlash va qonuniy deb topilgan talablarni qondirish.

Likvidator tayinlangunga qadar oxirgi uch oy davomida kreditorlarning biriga yoki bank bilan aloqador istalgan shaxsga imtiyoz berish maqsadida amalga oshirilgan to'lovlar va boshqa aktiv operatsiyalari likvidator tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin, omonatlarni olish, ish haqiga doir oddiy to'lovlar yoki boshqa mukofotlar bundan mustasno. Bu holda tugatuvchi amalga oshirilgan to'lov yoki bankning boshqa aktiv operatsiyalari haqiqiy emas deb tan olinishi to'g'risidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat qiladi. Kelib tushayotgan barcha depozitlar va garov xatlari ijro etilmay, bank tugatilayotgani haqidagi bildirishnoma bilan jo'natuvchiga qaytarilishi shart. Tugatish jarayoni boshlangach, tugatuvchi bank mulkini inventarlashni tashkil etishi va oraliq balansni to'zishi shart. Markaziy bank tomonidan bankni tugatish to'g'risidagi qaror qabul qilingan vaqtdan boshlab tugatuvchi bank aktivlari ustidan jismoniy nazoratni ta'minlashi shart. Bu quyidagilarni anglatadi:

a) xavfsizlik xizmati, militsiya organlari va boshqa mavjud vositalardan foydalangan holda bank binolari va jihozlari butligini ta'minlash;

b) qimmatbaho buyumlar, shu jumladan naqd pul, qimmatli qog'ozlar, avtomobillar va san'at asarlarini tugatuvchining ixtiyoriga o'tishi;

v) eshik qulflarini almashtirish;

g) bank hujjatlari va mulkidan foydalanishni nazorat qilish maqsadida qo'riqlash xizmatini almashtirish.

Firibgarlik yoki jinoiy faoliyat to'g'risida shubha tug'dirayotgan hollar aniqlansa, likvidator zarur choralar ko'rish uchun bu haqda zudlik bilan Markaziy bankka ma'lum qilishi zarur. Bankning barcha ishlari, jumladan ishlanmagan depozitlar va ssudalarni qoplash uchun tugatish jarayoni boshlangunga qadar olingan mablag'larga doir ishlar nihoyasiga etkazilishi hamda yordamchi va bosh daftarlarga kiritilishi shart. Bankning so'nggi ish kuniga yakuniy balans tayyorlanishi lozim. Likvidator Markaziy bankning bank joylashgan erdagi hisob-kitob-kassa markazida "X banki tugatilmoqda" degan maxsus tugatish hisobvarag'ini ochadi. CHet el valyutasi ular uchun mo'ljallangan alohida tugatish hisobvaraqlarida saqlanishi zarur.

Bank resurslari ushbu hisobvaraqlarga o'tkaziladi. Faqat likvidator tugatish hisobvaraqlaridan foydalanishning mutlaq huquqiga ega. Aktivlarni sotishdan tushgan barcha tushumlar tugatish hisobvaraqlarida saqlanadi. Likvidator bankning vakillik hisobvaraqlari, ayniqsa chet el banklaridagi hisobvaraqlar ustidan alohida nazorat o'rnatishi zarur. Likvidator bank mablag'lari saqlanayotgan barcha respublika va chet el moliya muassasalariga bank tugatilayotgani hamda ularning mablag'larini o'tkazish faqat likvidatorning ruxsati bilangina amalga oshirilishi mumkinligi to'g'risida xabar berishi kerak. Bunday xabarlar shoshilinch ravishda berilishi lozim. YOzma xabarlarni jo'natishdan oldin ularni oluvchilarga bu haqda telefon orqali ma'lum qilish kerak. Agarda

bank filiallari yoki chet el hisobraqamlarida mablag‘lar mavjud bo‘lsa, ularni telegraf orqali “X bank tugatilmoqda” degan xabar bilan tugatish hisobvarag‘iga o‘tkazish lozim.

Likvidator aktivlarni tekshirib, zarur bo‘lgan bildirishnomalarni jo‘natgach, quyidagilar asosida tugatish hisobotini tayyorlashi lozim:

- yakuniy balans;
- vakillik hisobvaraqlari ahvoli to‘g‘risidagi hisobotlarni qiyoslash;
- pul mablag‘lari va valyuta hisobini yuritish;
- bank inventarlash ro‘yxatlari bo‘yicha jihozlarni tekshirish;
- balans va kredit portfeli bo‘yicha kreditorlik qarzlarni tekshirish.

Milliy va chet el valyutalaridagi banknotlar, tangalar va bank vakillik hisobvaraqlaridagi mablag‘lar shaklidagi moliyaviy aktivlar nominal qiymati bo‘yicha baholanadi. Qimmatli qog‘ozlar shaklidagi aktivlar bahosi qimmatli qog‘ozlar bozoridagi vaziyatga bog‘liq. Bank kreditlari portfeli berilgan kreditlarni uchinchi tomonga sotish yoki bu qarzlarni bo‘yicha mablag‘larni olish imkonini beradigan boshqa yo‘l bilan tugatiladi. “YAxshi kreditlar” sifatida tavsiflangan kreditlar bozor narxida sotilishi kerak. Kredit va sotuv kunigacha hisoblangan foizlar miqdoridan tarkib topgan nominal narxdan past bo‘lgan bahoda mazkur kreditlar sotilgan har bir hol bo‘yicha likvidator tugatish hisobotida asoslar keltiradi. Muammoli zayomlarni sotishda tugatuvchi quyidagi tavsiyalarga amal qilishi lozim:

Ssuda qiymati uning nominal qiymatiga tenglashtiriladi. Bunday zayomlarni odatda banklar va boshqa moliya kompaniyalari xarid qiladi.

Muammoli zayomlarni sotish uchun yakka tartibdagi xaridorlarga shartnoma bo‘yicha sotish, tanlab olingan qatnashchilar guruhi o‘rtasida xususiy raqobot savdolari, shuningdek, kimoshdi savdolari kabi usullardan foydalaniladi. Zayomlarni boshqa xaridorlarga sotish imkoniyati bo‘lmagan hollarda ularni qarzdorning o‘ziga nominal qiymatidan kam bahoda sotish mumkin. Likvidator har bir shunday holni tugatish hisobotida asoslab berishi shart. Muammoli kreditlarni sotish imkoni bo‘lmasa likvidator garovga qo‘yilgan mulkni sotish chorasini ko‘radi yoki qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘g‘risidagi da‘vo bilan sudga murojaat qiladi. Nomoliyaviy aktivlarga binolar va inshootlar, transport vositalari, san‘at asarlari, orttexnika, mebel, jihozlar va bankning boshqa mulki kiradi:

Nomoliyaviy aktivlar likvidator tomonidan malakali baholovchi mutaxassis ishtirokida baholanadi. Tugatuvchi nomoliyaviy aktivlar narxiga ta’sir etuvchi barcha axborot va omillarni o‘rganadi va shular asosida taxminiy sotuv narxini belgilaydi. Binolar, inshootlar va transport vositalari ko‘chmas mulkni baholashga doir belgilangan talablarga muvofiq baholanadi. Nomoliyaviy aktivlar baholanganidan keyin tugatuvchi potensial xaridorlarga aktivlar sotilishi ko‘zda tutilayotganligi haqida xabar beradi yoki qonunchilik va mazkur Nizomda ko‘zda tutilgan hollarda bank mulkini sotadi.

Xaridorlar bilan muzokaralar davomida sotilayotgan nomoliyaviy aktivlarning dastlabki narxi o‘zgarishi mumkin. Agarda aktiv hisob-kitob qiymatidan ancha past narxda sotilsa, likvidator ushbu hol ro‘y berishi sabablarini hujjatlashtirishi shart. Ko‘rsatilgan hujjatlar hisobotda aks ettiriladi va unga ilova qilinadi.

Likvidator tayinlanganidan keyin bir kunlik muddatda ikkita markaziy gazetada kreditorlar talablarini tasdiqlovchi hujjat bilan birgalikda talablarni bildirish tartibi va muddati hamda kreditorlar o'z talablarini da'vo qilishlari mumkin bo'lgan manzilni ko'rsatilgan holda bankni tugatish ishlari boshlanganligi to'g'risidagi habarnomani beradi. Talablarni bildirish muddati tugatish jarayoni boshlanganligi to'g'risida habar berilgan kundan boshlab ikki oyni tashkil etadi. Ushbu muddat tugaganidan keyin likvidator tomonidan talablarni qabul qilinmaydi. Likvidator bankni tugatish ishlari boshlanganligi to'g'risida barcha kreditorlar va omonatchilarga yozma ravishda ma'lum qiladi. Bunda tugatuvchi xabarnomada ularning shaxsiy hisobvaraqlarida qayd etilgan qarz yoki omonat miqdor ko'rsatadi. Xabarnomada likvidator da'volarni berish muddatini ma'lum qiladi. Ushbu muddat tugagach da'volar qabul qilinmaydi va ko'rib chiqilmaydi. Kreditorlar va tugatilayotgan bankning o'zaro majburiyatlari mavjud bo'lsa, ular o'zaro qoplanishiga yo'l qo'yiladi.

O'zaro qoplash quyidagi talablarga rioya qilingan holda amalga oshiriladi:

- o'zaro qoplash faqat to'lov muddati etib kelgan majburiyatlar bo'yicha ruxsat etiladi;
- biron bir majburiyat bo'yicha e'tiroz bildirilmaydi;
- ikkala tomon ham qarzni inkassatsiya qilish va to'lash huquqiga ega bo'lishi shart;
- avtomatik ravishda o'zaro qoplashga yo'l qo'yilmaydi, tomonlar bir-biriga ariza bilan murojaat qilishlari shart;
- turli valyutalardagi majburiyatlarning o'zaro qoplanishi Markaziy bankning uni bajarish kunidagi ayirboshlash kursi bo'yicha amalga oshiriladi;
- bankka aloqador shaxslar bank oldidagi majburiyatlarini bajarmasa, ularga bankning boshqa qarzdorlariga qo'yilayotgan talablar qo'yiladi;
- bog'liq shaxslarga berilgan qarzlarga oid majburiyatlarning o'zaro qoplanishiga ruxsat etilmaydi;
- aksiyadorning aksiyadorlik kapitalini to'lashga doir bank oldidagi majburiyatlari bankning ushbu aksiyador oldidagi boshqa majburiyatlari bilan qoplanishi mumkin emas.
- O'zaro qoplashda omonatchilar va kreditorlar talablarini qondirish navbati hisobga olinadi.

Bank tugatilayotganda uning kreditorlari talablari amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda qondiriladi. Jismoniy shaxs bo'lgan omonatchilar tugatishdan kelib tushgan tushumlar hisobiga o'z omonatlarini olishda ustuvorlikka egadirlar. Tugatilayotgan bankning mulki bir navbatdagi barcha talablarni to'liq qondirish uchun etarli bo'lmasa, mavjud mablag'lar amaldagi qonunchilikka muvofiq kreditorlar o'rtasida taqsimlanadi.

Quyidagi hollarda kreditorlarning talablarini qondirishdan bosh tortilishi mumkin:

- a) talabnomalar belgilangan muddat o'tganidan so'ng olingan bo'lsa;
- b) tugatuvchi tomonidan asossiz deb topilgan bo'lsa;

Likvidator kreditorlar tomonidan talablarni bildirish muddati tugaganidan so'ng kreditorlar talablarini qondirishga doir qabul qilingan talablar ro'yxatini to'zish, tugatuvchi tasdiqlamagan talablarni rad etish, har bir kreditor qarzi miqdori va talablarni to'lash ketma-ketligini belgilash, kreditorga ularning talablari qabul qilinganligi yoki rad

etilganligi to'g'risida ma'lum qilish, oraliq balansni to'zishko'rishi lozim. Kreditorlar talablarini qondirish rad etilganligi to'g'risida ularning manziliga yozma tarzda habarnoma jo'natiladi. Kreditor talablarini qondirish rad etilgan yoki uni ko'rib chiqishdan bosh tortilgan holda u likvidatorga nisbatan da'vo bilan sudga murojaat qilishi mumkin. Tugatilayotgan bankning pul mablag'lari kreditorlar talablarini qondirish uchun mavjud bo'lmasa, tugatish komissiyasi sud qarorlari ijrosi uchun belgilangan tartibda kimoshdi savdolari orqali bank mulkini sotadi. Tugatilayotgan bankning mulki etarli bo'lmaganligi tufayli kreditorning qondirilmagan talablari to'langan hisoblanadi.

SHuningdek, kreditor da'vo bilan sudga murojaat qilmagan bo'lsa, tugatuvchi tomonidan tan olinmagan hamda sud qarori bilan kreditorning talablari qondirilishi rad etilgan talablar to'langan hisoblanadi. Kreditorlar talablari qondirilganidan so'ng qolgan bank mulki qonunchilikda belgilangan tartibda taqsimlash uchun bank aksiyadorlariga beriladi.

Tugatish ishlari yakunlanganidan so'ng likvidator bajarilgan ishlar to'g'risidagi yakuniy hisobotni va tugatish balansini tuzadi. Likvidator Markaziy bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- tugatish komissiyasining Markaziy bank tasdiqlaydigan qilingan ishlar to'g'risidagi hisoboti;
- ixtiyoriy ravishda tugatilganda bank aksiyadorlariumumiy yig'ilishining bankni tugatish to'g'risidagi bayonnomasi;
- Markaziy bank Boshqaruvining litsenziyani qaytarib olish to'g'risidagi qarori;
- bankni tugatish to'g'risida gazetalarda e'lon qilingan axborot nusxasi;
- tugatish komissiyasini to'zish to'g'risidagi qaror;
- bankning oxirgi ish kunidagi balansi;
- tugatish balansi;
- balansdan tashqari hisobvaraqlar bo'yicha tugatish balansi;
- soliq inspeksiyasining tugatish dalolatnomasi;
- yo'q qilish uchun bank hujjatlari va yig'majildlari ajrtirilganligi to'g'risida dalolatnoma;
- hujjatlarni arxivda saqlash uchun qabul qilish-topshirish dalolatnomasi;
- muhrlar yo'q qilish uchun huquqni muhofaza qilish organlariga topshirilganligi to'g'risida tasdiqnoma.

Markaziy bank taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqib, bankni Banklarni ro'yxatga olish Davlat kitobidan o'chirib tashlash to'g'risidagi qarorni qabul qiladi. Bankni Banklarni ro'yxatga olish Davlat kitobidan o'chirib chiqarib tashlash to'g'risidagi qaror qabul qilinganidan so'ng 10 kun davomida Markaziy bank Makroiqtisodiyot va statistika vazirligiga hamda bank joylashgan manzil bo'yicha ularning organlariga bank tugatilganligi to'g'risidagi ma'lumotni etkazadi. Bank Banklarni ro'yxatga olish Davlat kitobidan o'chirib tashlangan vaqtdan boshlab tugatilgan hisoblanadi

Tugatuvchi tayinlanganidan so'ngu darhol bank xodimlari va aksiyadorlarining nazoratsiz ravishda aktivlardan foydalanishini oldini olish yuzasidan tegishli chora-tadbirlarni ko'rishi shart.

O‘zbekiston Respublikasida oxirgi 3-4 yil davomida tijorat banklarining yopilishi kuzatildi, lekin banklar soni kamayishi bank tizimining asosiy ko‘rsatkichlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatmadi. Tijorat banklari aktivlari, kapitali va kredit qo‘yilmalarini o‘shirish tendensiyasi davom etdi. Buni quyidagi jadval ma‘lumotlaridan ham ko‘rish mumkin.

5-jadval

O‘zbekiston Respublikasi xududida tugatilgan yoki qo‘shib yuborilgan banklar ro‘yxati¹²

t/r	Banklar nomi	Izox
1.	Parvina bank	YOpilgan
2.	Alp-Jamol bank	YOpilgan
3.	Karvon bank	YOpilgan
4.	Nur-Anvar bank	YOpilgan
5.	Meva-sabzavot bank	Qo‘shilgan
6.	Avtodorbank	Qo‘shilgan
7.	Aviabank	Qo‘shilgan
8.	O‘ktam bank	YOpilgan
9.	Samarqand bank	YOpilgan
10.	Kredit-standart bank	YOpilgan
11.	Amir bank	YOpilgan

1990 yillarning oxiri 2000 yillarning boshida respublikamizda tijorat banklarining soni 40 tadan oshgan. Lekin Markaziy bank tomonidan belgilangan talablarga javob bermaslik holatlari natijasida bir necha banklarning litsenziyasi Markaziy bank tomonidan chaqirib olindi. Bu banklar butunlay yopildi. Meva Sabzavot bank, Avtodorbank, Avia banklar boshqa banklar tomonidan qo‘shib olindi, jumladan, Avia bank Kapital bankka, Avtodorbank Asaka bankka qo‘shib olindi. YOpilgan banklarga Nur-Anvar bank, Karvon bank, Parvina bank, Alp-Jamol banklarni kiritish mumkin. Oxirgi 3- yil davomida yana 4 ta bank yopildi, bular: O‘ktam bank, Samarqand bank, Kredit-standart bank va Amir bank.

Amir bankning litsenziyasi 2014 yilning iyun oyi boshida chaqirib olindi. Bu banklar litsenziyasining chaqirib olinishi O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati” to‘g‘risidagi qonunining 14-moddasiga hamda “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi qonunining 53-moddasiga binoan amalga oshirildi.

4. Tijorat banklarini qayta tashkil etish va qo‘shib olish asoslari

Bank boshqa tijorat bankiga qo‘shib yuborish yo‘li bilan qayta tashkil etilganida davlat ro‘yxatga olish organi qo‘shilib yuborilgan bank o‘z faoliyatini to‘xtatgani haqidagi yozuvni yuridik shaxslarning yagona davlat reestriga kiritgan paytdan e‘tiboran qo‘shib yuborilgan bank qayta tashkil etilgan deb hisoblanadi.

¹²Муаллиф томонидан мустақил тайёрланди.

Qayta tashkil etish natijasida yangidan vujudga kelgan bankni davlat ro'yxatidan o'tkazish hamda qayta tashkil etilgan bankning faoliyati to'xtatilgani to'g'risidagi yozuvni kiritish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Qayta tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran bank 30 kundan kechiktirmay o'z kreditorlarini bu haqda yozma ravishda xabardor etadi. Kreditor bankdan majburiyatlarni to'xtatish yoki muddatidan ilgari bajarishni hamda zararining o'rnini qoplashni quyidagi muddatlarda yozma ravishda xabar berish yo'li bilan talab qilishga haqlidir:

-qo'shib yuborish, birlashtirish yoki qayta tuzish tarzida qayta tashkil etish haqidagi xabarni bank kreditorga yuborgan sanadan boshlab uzog'i bilan 30 kun ichida;

-bo'lish yoki ajratib chiqarish tarzida qayta tashkil etish to'g'risidagi xabarni Bank kreditorga yuborgan sanadan boshlab uzog'i bilan 60 kun ichida.

Agar bo'linish balansi qayta tashkil etilayotgan bankning huquqiy vorisini aniqlash imkonini bermasa, yangi vujudga kelgan yuridik shaxslar qayta tashkil etilgan bankning majburiyatlari yuzasidan uning kreditorlari oldida solidarjavobgar bo'ladilar.

Bankni qo'shib yuborish tartibi. Qo'shib yuborishda ishtirok etayotgan bank qo'shib yuborish haqida shartnoma tuzadi, unda qo'shib yuborish tartibi va shartlari, shuningdek har bir bank aksiyalarini yangi bankning aksiyalariga va (yoki) boshqa qimmatli qog'ozlariga ayirboshlash tartibi belgilab qo'yiladi. Har bir bankning Kengashi qo'shib yuborishda ishtirok etayotgan Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi hukmiga qo'shib yuborish tarzida qayta tashkil etish to'g'risidagi, qo'shib yuborish shartnomasini tasdiqlash haqidagi va o'tkazish dalolatnomasini tasdiqlash haqidagi masalalarni havola etadi.

Yangi vujudga kelayotgan bank Ustavini tasdiqlash va Kengashini saylash qo'shib yuborishda ishtirok etayotgan banklar aksiyadorlarining qo'shma umumiy yig'ilishida amalga oshiriladi. Aksiyadorlarning qo'shma umumiy yig'ilishida ovoz berish tartibi banklarning qo'shib yuborilishi to'g'risidagi shartnomadabelgilab qo'yilishi mumkin. Majburiyatlar o'tkazish dalolatnomasiga muvofiq yangi vujudga kelgan bankga o'tadi.

Bankni birlashtirilish tartibi. Birlashtirilayotgan bank va birlashtirib olayotgan bank birlashish to'g'risida shartnoma tuzadilar, unda birlashishning tartibi va shartlari, shuningdek birlashtirilayotgan bankning aksiyalarini birlashtirib olayotgan bankning aksiyalari va (yoki) boshqa qimmatli qog'ozlariga ayirboshlash tartibi belgilab qo'yiladi. Har bir bankning Kengashi birlashishda ishtirok etayotgan o'z bankining umumiy yig'ilishi hukmiga birlashish tarzida qayta tashkil etish to'g'risidagi va birlashish shartnomasini tasdiqlash haqidagi masalani kiritadi. Birlashtirilayotgan bank Kengashi o'tkazish dalolatnomasini tasdiqlash to'g'risidagi masalani ham Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi hukmiga havola etadi.

Banklar Aksiyadorlarining qo'shma Umumiy yig'ilishi Ustavga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida qaror qabul qiladi. Aksiyadorlarning qo'shma Umumiy yig'ilishida ovoz berish tartibi birlashish to'g'risidagi shartnomada belgilab qo'yiladi.

Bir bank boshqa bankga birlashganda o'tkazish dalolatnomasiga muvofiq birlashtirilayotgan bankning barcha huquq va majburiyatlari qo'shib olgan bankga o'tadi.

Bankni bo'lish tartibi.Bo'lish tarzida qayta tashkil etilayotgan bankning Kengashi Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi hukmiga bo'lish tarzida bankni qayta tashkil etish to'g'risidagi, bu qayta tashkil etishning tartibi va shartlari xususidagi, yangi banklar tuzish hamda qayta tashkil etilayotgan bank aksiyalarini

tuzilayotgan banklar aksiyalariga va (yoki) boshqa qimmatli qog'ozlariga ayirboshlash tartibi to'g'risidagi masalalarni havola etadi.

Bo'lish tarzida qayta tashkil etilayotgan bank Aksiyadorlarining Umumiy yig'ilishi bankni bo'lish tarzida qayta tashkil etish to'g'risida, yangi bank tuzish hamda qayta tashkil etilayotgan bank aksiyalarini tuzilayotgan bankning aksiyalari va (yoki) boshqa qimmatli qog'ozlariga ayirboshlash tartibi to'g'risida qaror qabul qiladi. Yangi tuzilayotgan har bir bank Aksiyadorlarining Umumiy yig'ilishi uning Ustavini tasdiqlash hamda Kengashini saylash to'g'risida qaror qabul qiladi.

Bank bo'linganda uning barcha huquqlari va majburiyatlari bo'lish balansiga muvofiq yangi tashkil etilayotgan ikki yoki bir necha Bankga o'tadi.

Bankni ajratib chiqarish tartibi.Ajratib chiqarish tarzida qayta tashkil etilayotgan bankning Kengashi Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi hukmiga ajratib chiqarish tarzida bankni qayta tashkil etish, ajratib chiqarishni amalga oshirishning tartibi va shartlari, yangi bankni tuzish, ajralib chiqayotgan bankning aksiya va (yoki) boshqa qimmatli qog'ozlarini ayirboshlash imkoniyatlari va bunday ayirboshlash tartibi, bo'lish balansini tasdiqlash to'g'risidagi masalani havola etadi.

Ajratib chiqarish tarzida qayta tashkil etilayotgan bank aksiyadorlari Umumiy yig'ilishi bankni ajratib chiqarish tarzida qayta tashkil etish, ajratib chiqarishning tartibi va shartlari, yangi bankni tuzish, bankning aksiyalarini ajralib chiqayotgan bankning aksiyalariga va (yoki) boshqa qimmatli qog'ozlariga ayirboshlash imkoniyatlari va bunday ayirboshlashni o'tkazish tartibi, bo'lish balansini tasdiqlash haqida qaror qabul qiladi.

Bank tarkibidan bir yoki bir nechta bank ajralib chiqqanda ajratib chiqarish tarzida qayta tashkil etilgan jamiyat huquqlari va majburiyatlarining bir qismi bo'lish balansiga muvofiq ularning har biriga o'tadi.

Qayta tuzilayotgan Bank Aksiyadorlarining Umumiy yig'ilishi qayta tuzish to'g'risida, qayta tuzishni amalga oshirishning tartibi va shartlari haqida qaror qabul qiladi. Qayta tuzish jarayonida vujudga keltirilayotgan yangi yuridik shaxsning qatnashchilari o'zlarining qo'shma majlislarida uning ta'sis hujjatlarini tasdiqlash hamda qonun hujjatlarining talablariga muvofiq Boshqaruv organlarini saylash to'g'risida qaror qabul qiladilar. Bank qayta tuzilganida qayta tashkil etilgan bankning barcha huquqlari va majburiyatlari o'tkazish dalolatnomasiga muvofiq yangi vujudga kelgan yuridik shaxsga o'tadi.

3-mavzu: Tijorat banklarini tashkil etishning huquqiy va iqtisodiy asoslari

Reja.

1. Tijorat banklariga vasiylik qilish tartibi

2. O‘zbekistonda tijorat banklarini tashkil etishni takomillashtirish istiqbollari va xorij tajribasidan foydalanish imkoniyatlari

Vasiylik - bankni adekvat moliyaviy ahvolga keltirish, uning faoliyati qonunchilikka mos kelishini ta'minlash yoki buning iloji bo'lmasa, bankni qayta tashkil etish yohud tugatishga tayyorlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan joriy etiladigan hamda ma'muriy, yuridik, moliyaviy, tashkiliy va boshqa tadbirlarni o'z ichiga olgan chora-tadbirlar majmuidir. Banklarga vasiylik qilish "Banklarga vasiylik qilish to'g'risida"gi nizom asosida amalga oshiriladi.

SHuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunning Banklarga vasiylik qilish nomli IV bobining 36-moddasida vasiylikni tayinlash tartibi belgilab berilgan. Unga ko'ra, bankning muvaqqat ma'muriyatini tayinlash to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda Markaziy bank vasiy tayinlaydi va vasiylik qilish haqida farmoyish chiqaradi. Farmoyish matbuotda e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi. Bankning oldindan vasiydan rozilik olmay qilgan harakatlari haqiqiy emas.

Vasiy - vasiylik davrida bankning muvaqqat ma'muriyatini boshqaruvchi mansabdor shaxs. Vasiylik tartibi boshlang'ich muddatda 12 oygacha joriy etiladi. Bankka vasiylik qilish bilan bog'liq barcha xarajatlar bankning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Bankka vasiylik qilish tartibi bank tomonidan yo'l qo'yilgan hamda omonatchilar va kreditorlar manfaatlariga real havf soluvchi tartibbuzarliklar yuz bergan hollarda Markaziy bank qaroriga ko'ra joriy etiladi. Bunday tartib buzarliklarga katta zararlar ko'rilishiga olib keluvchi quyidagi hollar kiradi:

- qonunchilik va Markaziy bank me'yoriy hujjatlarining buzilishi;
- havfli va nosog'lom bank faoliyatini amalga oshirish;
- Markaziy bank majburiy ko'rsatmalarini atayin va uzoq vaqt davomida bajarmaslik;
- hujjatlar yoki yozuvlarni Markaziy bank nozirlaridan yashirish yohud bank nazorati xizmati talab qilgan hujjatlarni taqdim etishdan bosh tortish.

Quyidagi hollarda bank faoliyati omonatchilar hamda kreditorlar manfaatlariga real havf soladi:

a) har qanday darajadagi kapitalning etarliligi koeffitsienti Markaziy bank belgilagan ko'rsatkichdan 75 va undan ortiq foizga pasayishi;

b) bankning depozitorlar va kreditorlar talablari bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishga qodir emasligi;

v) bankning real yoki potensial zararlari:

- uchta bir-biridan keyin keluvchi har chorakda umumiy regulyativ kapitalning 10 foizidan;

- vaqtdan qat'iy nazar umumiy regulyativ kapitalning 50 foizidan oshib ketishi;

g) omonatchilar tomonidan bankka ishonib topshirilgan mablag'lar butligiga real havf soluvchi boshqa har qanday hollar.

Bankka vasiy belgilash to'g'risidagi qarorni qabul qilishda Markaziy bank vasiylik tartibi amal qilishi davrida bankning moliyaviy ahvoli zarur darajaga etishi ehtimolini, bank aktiv va passivlarining katta qismini saqlash imkoniyatini, vasiylik tartibi joriy etilishi vaqtidagi aktivlarning real summasi hamda vasiylik jarayonida bank aktivlarini sotishdan tushishi mumkin bo'lgan summa kabi shartlarni e'tiborga olishi kerak.

Vasiylikni joriy etish tartibini ko'rib chiqamiz. Vasiylik tartibi amal qilishi davrida bankning moliyaviy ahvoli zarur darajaga etishi ehtimoli va bank aktiv va passivlarining katta qismini saqlash imkoniyati mavjud bo'lsa, shuningdek, har qanday darajadagi kapitalning etariligi koeffitsienti Markaziy bank belgilagan ko'rsatkichdan 75 va undan ortiq foizga pasayishi, bankning depozitorlar va kreditorlar talablari bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishga qodir emasligi, bankning real yoki potensial zararlari uchta bir-biridan keyin keluvchi har chorakda umumiy regulyativ kapitalning 10 foizidan hamda vaqtdan qat'iy nazar umumiy regulyativ kapitalning 50 foizidan oshib ketishi kuzatilsa, Markaziy bankning Tijorat banklariga litsenziya berish va ular faoliyatini tartibga solish departamenti bank bo'yicha xulosa tayyorlaydi hamda vasiylikni belgilash to'g'risidagi masalani Markaziy bank Boshqaruviga ko'rib chiqish uchun taqdim etadi.

Vasiylikni joriy etishga doir taqdimnomada vasiylikni joriy etish asoslari, vasiy nomzodi hamda vasiylik tartibining amal qilish muddatlariga oid takliflar bo'lishi lozim. Markaziy bank Boshqaruvining vasiylikni belgilash to'g'risidagi farmoyishi quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- bankning nomi va manzili;
- bankka vasiylikni joriy etish asoslari;
- vasiylik amal qilishining boshlanishi va davom etish muddati;
- vasiy vakolatlari doirasiga kiruvchi cheklovlar ro'yxati (agar ular mavjud bo'lsa);
- vasiy nomzodi.

Markaziy bank Boshqaruvining bankka vasiylikni joriy etish to'g'risidagi farmoyishi ushbu qaror qabul qilingan vaqtdan boshlab 24 soat ichida imzo qo'ydirilgan holda bank rahbariyatiga topshiriladi. SHundan so'ng bankning barcha operatsiyalari va bitimlari to'xtatiladi.

Markaziy bank Boshqaruvining bankka vasiylikni joriy etish to'g'risidagi farmoyishi bank mablag'lari hisobiga Markaziy bank tomonidan matbuotda e'lon qilinadi. Mazkur farmoyish kuchga kirganidan so'ng bank rahbariyati vasiyga qabul qilish - topshirish dalolatnomasi asosida bank muhrlari, burchak muhrlari, blanklari, qimmatliklari, xonalar va seyflarning kalitlari, shuningdek, bankning boshqa mulki va hujjatlarini topshirishi shart.

Markaziy bankning bankka vasiylikni joriy etish to'g'risidagi qarori yuzasidan qonunchilikka muvofiq sud organlariga shikoyat qilinishi mumkin. Vasiy vakolatlari, majburiyatlari va unga nisbatan talablar qo'yiladi. Vasiy Markaziy bank tomonidan bank nazorati bilan shug'ullanuvchi Markaziy bank xodimlari, yuridik va konsalting firmalari xodimlari hamda mustaqil mutaxassislar tarkibidan tayinlanadi. Vasiy o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Markaziy bank me'yoriy hujjatlari va ko'rsatmalariga amal qiladi.

Bankka vasiy etib tayinlanadigan shaxs 1998 yil 25 sentyabrda tasdiqlangan 22-sonli “Banklarni ro‘yxatga olish va ularga litsenziya berish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomda bank boshqaruvi raisiga nisbatan belgilangan talablarga mos kelishi lozim. “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risidagi” Qonunning 26-moddasiga muvofiq bank aksiyadori, qarzdori va kreditori yoki bankka aloqador bo‘lgan shaxs yohud 1998 yil 9 dekabrda tasdiqlangan (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998 yil 2 dekabrda ro‘yxatga olingan) 423-sonli “Banklar o‘rtasida va ularga daxldor shaxslar bilan o‘tkaziladigan operatsiyalar to‘g‘risida”gi Nizomga ko‘ra bunday shaxsning yaqin qarindoshlari vasiy etib tayinlanishi mumkin emas.

Vasiy hamda muvaqqat ma‘muriyatda band bo‘lgan shaxsga ish haqi to‘lash shartlari Markaziy bank va vasiy o‘rtasida tuziladigan alohida shartnoma bilan belgilanadi. Muvaqqat ma‘muriyatda band bo‘lgan Markaziy bank xodimlari, jumladan, vasiyga vasiylik tartibi belgilangan bankda ish haqi to‘lanadi. Ushbu toifadagi shaxslar ish haqi miqdori ularning asosiy ish joylaridagi ish haqidan kam bo‘lmasligi lozim. Vasiyning ish haqi bank boshqaruvi raisining ish haqidan kam bo‘lmasligi kerak. Muvaqqat ma‘muriyat a‘zolarining qayd etilgan toifasi uchun ularning asosiy ish joylarida lavozim maoshi miqdorida ish haqi saqlanib qoladi.

Vasiyning vazifasi bankning kreditorlari va depozitorlari manfaatlarini ko‘zlab, uning to‘lovga layoqatliligini saqlab qolish hamda tiklash bo‘yicha choralar qabul qilish, mavjud tartib buzarlilarga barham berishni ta‘minlovchi boshqarish mexanizmini yaratish, shuningdek, moliyaviy ahvolni sog‘lomlashtirish va bank faoliyatining qonunchilikka mos kelishini ta‘minlashga yo‘naltirilgan samarali tadbirlarni amalga oshirishdan iborat.

Vasiylikni joriy etish to‘g‘risidagi qaror topshirilgan vaqtdan boshlab hamda butun tartib davomida:

a) bank boshqaruvi, bank kengashi va aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolatlari to‘xtatiladi;

b) bank boshqaruvi, bank kengashi va aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining barcha vakolatlari vasiyga o‘tadi;

v) vasiy vasiylik belgilangan bank nomidan harakat qiladi.

Vasiy quyidagi huquqlarga ega:

a) o‘z xohishiga ko‘ra bank, bank nazorati, yuridik, konsalting yoki auditorlik kompaniyalari xodimlari yoki mustaqil mutaxassislar tarkibidan muvaqqat ma‘muriyat uchun xodimlarni ishga yollash;

b) vasiylik qilinayotgan bank xodimlarining ish haqini uning moliyaviy ahvolini hisobga olgan holda belgilash;

v) bank xodimlarini amaldagi mehnat qonunchiligiga ko‘ra ishdan bo‘shatish;

g) amaldagi qonunchilikka muvofiq bank bo‘limlari va filiallarini yopish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

d) bank aksiyalari va boshqa qimmatli qog‘ozlariga doir dividendlarni, shuningdek, bank rahbariyati va mansabdor shaxslariga to‘lanadigan barcha to‘lovlarni to‘xtatib qo‘yish;

e) bank mablag‘lari hisobidan investitsiyalash yoki kreditlash ko‘zda tutilgan bank shartnomalariga bir tomonlama tartibda o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish;

j) agar fuqarolar depozitlari va investitsiyalarining (bank aksiyalaridan tashqari) taxminiy qiymatini saqlab qoladigan choralar ko'riladigan bo'lsa, ushbu depozitlar va investitsiyalarni ko'pi bilan bir yilga qisman yoki to'liq cheklab qo'yish to'g'risida istalgan vaqtda e'lon qilish;

i) bank nomidan va uning manfaatlarini ko'zlab, da'vo talablarini qo'yish, bank kreditorlari talablarining qonuniyligini aniqlash;

k) bank aktivlari va passivlarini sotish va boshqalar.

Vasiyga bildirilmay va uning yozma roziligini olmay turib, bank nomidan va uning hisobidan amalga oshirilgan barcha bitimlar haqiqiy deb hisoblanmaydi. Markaziy bank bankka vasiylikni joriy etish to'g'risidagi qarorni qabul qilgan vaqtdan boshlab, vasiy bank aktivlarini nazorat qilishni ta'minlashi lozim. Bu quyidagilarni anglatadi:

a) Bank mulki, jihozlari, barcha turdagi moliyaviy va moddiy aktivlarining but saqlanishini ta'minlash, bunda zarur bo'lsa, xavfsizlik va militsiya organlari xizmatidan foydalanish;

b) qimmatbaho buyumlar, jumladan, naqd pullar, qimmatli qog'ozlar, avtomobillar va san'at asarlarini vasiy tasarrufiga o'tkazish;

v) zarur bo'lsa, eshik qulflarini o'zgartirish;

g) bank hujjatlari va mulkidan foydalanishni nazorat qilish maqsadida qo'riqlash xizmatini yangi tarkib bilan almashtirish.

Bank faoliyatida jinoiy javobgarlikka oid hollar, ayniqsa, chet el hisobvaraqlariga doir tartibbuzarliklar aniqlangan vaqtda vasiy zudlik bilan Markaziy bankni bundan xabardor qilishi lozim. Vasiy banklarning, ayniqsa, chet el banklarining vakillik hisobvaraqlari likvidligi va ulardan noqonuniy foydalanish himoya qilinmaganligini inobatga olib, ular ustidan alohida nazorat o'rnatishi shart. Buning uchun bankning mablag'larini saqlovchi respublikadagi va chet eldagi barcha moliyaviy muassasalarga mablag'larni olish yoki o'tkazish faqat vasiyning ruxsati bilan amalga oshirilishi mumkinligi to'g'risida zudlik bilan xabar berish kerak. Ushbu xabarlar shoshilinch tartibda jo'natilishi lozim. YOzma xabarlarni jo'natishdan oldin oluvchilarni bu haqda telefon orqali ogohlantirib qo'yish zarur.

Markaziy bank (uning tegishli hududiy Bosh boshqarmalari) va vakil banklarga bankdagi hisobvaraqlar bo'yicha hisob-kitob-pul operatsiyalarini amalga oshirish uchun hujjatlarni imzolash huquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxslarning imzolari namunalari qo'yilgan yangi varaqcha taqdim etiladi (bunda vasiy tayinlangunga qadar taqdim etilgan varaqcha bekor qilinadi).

Vasiy quyidagi ishlarning amalga oshirilishini ta'minlashi lozim:

a) vakillik hisobvaraqlarining ahvoli to'g'risidagi hisobotlarni qiyoslash;

b) pul mablag'lari va valyuta hisobini yuritish;

v) bank inventarlash ro'yxatiga asosan jihozlarni tekshirish;

g) balans va kredit portfeli bo'yicha kreditorlik qarzlarni tekshirish;

d) aniqlangan balansni tayyorlash.

Bank aktivlari belgilangan buxgalterlik hisobi va baholash andozalariga muvofiq baholanadi. Vasiy aktivlarni tekshirib, baholab bo'lgach, vasiy bu ma'lumotni tayyorlab Markaziy bankka taqdim etishi lozim. Vasiylik muddati tugaganidan so'ng (ushbu davr

Markaziy bank tomonidan uzaytirilgan hollar bundan mustasno) vasiy Markaziy bankka bankning moliyaviy ahvoli va istiqbollari to'g'risidagi yozma hisobotni taqdim etadi. Hisobotda vasiy asoslanadigan moliyaviy hisobotlar va boshqa hujjatlar, shu jumladan bank aktivlari va passivlari qiymatini o'z ichiga oladi va quyidagi tavsiyalardan birini o'zida mujassamlaydi:

a) vasiylik tugatilganligi hamda bank aksiyadorlari, kengashi va boshqaruvining vakolatlari tiklanganligi to'g'risida;

b) bankni qonun va Markaziy bankning yo'riqnomalari talablariga muvofiqlashtirish maqsadida vasiylik tartibini uzaytirish to'g'risidagi batafsil reja, shu jumladan, imkon qadar bankning regulyativ kapitalini qonun talab etadigan yoki hisobotda belgilangan jadvalga muvofiq eng kam darajaga oshirish;

v) bank aktivlari yoki passivlarining istalgan qismini sotishga doir batafsil reja;

g) bankni qayta tashkil etish bo'yicha batafsil reja;

d) bank litsenziyasini qaytarib olish va bankni tugatish bo'yicha tavsiya.

Oldindan ko'zlangan yoki nojo'ya harakatlar (harakatsizlik) natijasida bankka etkazilgan zarar uchun vasiy amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortiladi. Bunda vasiy zimmasiga me'yordagi ishlab chiqarish tavakkalchiligi toifasiga kirishi mumkin bo'lgan zararlar uchun javobgarlik yuklatilmaydi.

Bankka vasiylik qilish muddati davomida Markaziy bank vasiyning faoliyatini nazorat etadi. Bunda u quyidagi huquqlarga ega bo'ladi:

a) bankka vasiylik qilish davrida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning asosiy yo'nalishlar bo'yicha vasiyga tavsiyalar berish (asosiy chora-tadbirlar rejasini tavsiya etish);

b) vasiydan uning faoliyati va bank faoliyati haqida istalgan axborotni taqdim etishni talab qilish;

v) vasiyning bajarilgan ishlar haqidagi hisobotini tinglash;

g) vasiylik boshlang'ich muddatini ko'pi bilan 6 oyga cho'zish;

d) bankka vasiylik qilishni yakunlash to'g'risida qaror qabul qilish.

Bankka vasiylik tartibi belgilangan davrda banklar uchun belgilab qo'yilgan tartib va muddatlarda Markaziy bankka hisobot taqdim etiladi. Agar vasiyning faoliyati Markaziy bankni qoniqtirmasa, u istalgan vaqtda vasiyni almashtirish huquqiga ega. Vasiyning yakuniy hisoboti olinganidan so'ng 30 kun davomida agar vasiy o'z hisobotida boshqa harakatlarni tavsiya etmagan bo'lsa hamda Markaziy bank ushbu harakatlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun real istiqbollar yo'q, deb belgilasa, Markaziy bank bank litsenziyasini qaytarib olishi va bankning tugatilishini tayinlashi mumkin.

Markaziy bank reja amalga oshirilishidan oldin yoki u amalga oshirilishi davomida unga o'zgartirishlar kiritishga haqli. Markaziy bank, shuningdek, vasiylik jarayonini to'xtatib qo'yish, bank litsenziyasini qaytarib olish va bank tugatilganligi to'g'risida e'lon qilish huquqiga ega. Vasiylik Markaziy bank qaroriga ko'ra belgilangan vasiylik muddati tugaganda hamda Markaziy bank tomonidan, jumladan bankni sog'lomlashtirishning iloji bo'lmasa yoki bankning moliyaviy ahvoli sog'lomlanishi munosabati bilan vasiylikni muddatidan oldin to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilinganda to'xtatiladi. Bankning moliyaviy ahvoli sog'lomlanishi va ish sifatining yaxshilanishi

munosabati bilan vasiylik to'xtatilgach, Markaziy bank yoki vasiy tomonidan mazkur bankka nisbatan belgilangan barcha cheklashlar bekor qilinadi. Bunda vasiylik muddati davomida ta'sis hujjatlariga, boshqaruv organlari va bank xodimlari tarkibiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar o'z kuchini saqlab qoladi.

Agar vasiylik davomida bankning moliyaviy ahvoli sog'lomlashmasa va uning ish sifati yaxshilanmasa, Markaziy bank qonunchilikda belgilangan tartibda bank litsenziyasini qaytarib olish va uni tugatish huquqiga ega.

2. O'zbekistonda tijorat banklarini tashkil etishni takomillashtirish istiqbollari va xorij tajribasidan foydalanish imkoniyatlari

Bugungi kunda tijorat banklari faoliyatini tugatish jaryonini takomillashtirishda jahon tajribasining ahamiyati katta hisoblanadi. Rossiya Federatsiyasida tijorat banklarini tugatish ushbu davlatda 02.04.1996 yildagi 264-sonli "Rossiya Federatsiyasida banklar va kredit tashkilotlari litsenziyalarini chaqirib olish tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan amalga oshiriladi. Ushbu nizomga asosan bank faoliyatini amalga oshirish uchun asos bo'ladigan litsenziyani Markaziy bank tomonidan chaqirib olinadi. CHaqirib olishga quyidagilar asos bo'lishi mumkin:

➤ Litsenziya berish jarayonida taqdim etilgan ma'lumotlarning noto'g'ri taqdim etilishi

➤ Litsenziyada ko'rsatilgan xizmat turlari bo'yicha bir yil mobaynida litsenziya berilgan kundan boshlab bank faoliyatini amalga oshirmasa

➤ Bank hisobotlarida noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etilsa

➤ Bank faoliyati davomida bir marta bo'lsada litsenziyada ko'rsatilmagan xizmat turini yoki bank operatsiyasini amalga oshirsa

➤ Rossiya hukumatining federal qonun talablarini bajaraslik, shuningdek Rossiya bankining o'rnatgan me'yoriy ko'rsatkichlarni bajarmaslik oqbitida

➤ Tijorat banki moliyaviy jihatdan o'z faoliyatini amalga oshirish qobiliyatini yo'qotsa tijorat bankining litsenziyasi chaqirib olinishi mumkin.

Bundan tashqari tijorat banki litsenziyasi ta'sischilarining qaroriga asosan bank faoliyatini to'htatayotganda yoki qaytadan tashkilayotganda chaqirib olinishi mumkin. SHundan kelib chiqqan holda tijorat banklarini faoliyatini tugatish yoki to'htatish ikki hil holatda amalga oshirilishi mumkin.

➤ Tijorat bankining litsenziyasi Rossiya banki tomonidan normativ talablarini bajarmagani uchun chaqirib olingan holda majburiy tugatish

➤ Bank ta'sischilarining qarori bilan bank faoliyatini ixtiyoriy tugatitishi mumkin.

Bank faoliyatini amalga oshirish asosi bo'luvchi litsenziya Rossiya banki tomonidan hududiy boshqarmalarining xulosasiga asosan chaqirib olinadi. Rossiya banki ikki hafta ichida:

— barcha hududiy boshqarmalariga

— davlat soliq xizmatiga

– davlat bojxona qo‘mitasiga, agar bank xorijiy valyutadagi hisob raqamga ega bo‘lsa, litsenziya chaqirib olingani to‘g‘risida ma‘lumotlarni taqdim etishi shart.

Qaror qabul qilingan kunning o‘zida tugatilayotgan bank joylashgan Rossiya bankining hududiy boshqarmasi qarorni bankka taqdim etadi va bankning balans va balansdan tashqari hisoblari orqali pul mablag‘lari harakatini to‘xtatishini nazoratga oladi. Agarda bank kassasida naqd pul mavjud bo‘lsa likvid bankning korrespondlik hisob raqami mavjud bo‘lgan bankning hisob-kassa markaziga jo‘natiladi.

Banklarni ixtiyoriy tugatish ta‘sischilarning qaroriga asosan Rossiya Federatsiyasining Fuqarolik kodeksining 92 va 104 moddalarining talablarini bajargan holda amalga oshiriladi. Tijorat bankini ixtiyoriy tugatish to‘g‘risidagi qaror qabul qilinishi bilan bank kreditorlari oldtdag barcha majburiyatlarini bajarishi shart. Agar bank to‘lovga layoqatsiz bo‘lsa bankni ixtiyoriy tugatish to‘g‘risidagi qaror qabul qilish ta‘qiqlanadi.

Qaror qabul qilingandan so‘ng likvid komissiya o‘z ishini boshlaydi. Tijorat bankini ixtiyoriy tugatishda likvid komissiya tarkibi ta‘sischilar tomonidan tasdiqlanadi. Bank majburiy tarzda o‘z faoliyatini tugatayotgan bo‘lsa, likvid komissiya tarkibi Rossiya bankining hududiy boshqarmasi bilan kelishgan holda sud tomonidan tayinlanadi.

Likvid komissiya Hisob-kassa markaziga o‘z hisob raqamini ochish bo‘yicha ariza bilan murojaat etadi. Hisob raqam ochilgandan so‘ng tugatilayotgan bankning barcha pul mablag‘lari va kreditorlik mablag‘lari ushbu hisob raqamga o‘tkaziladi. Likvid komissich harajatlari tasdiqlangan smeta hujjatlari asosida tijorat banki tomonidan qoplanadi. SHuningdek likvid komissiya quyidagi tadbirlarni amalga oshirishi majburiy hisoblanadi:

– Ommaviy ahborot vositlarida likvid komissiyaning manzilini, e‘tirozlarni qabul qilish muddatini e‘lon qilishi,

– Bankda mavjud mol-mulkni saqlash chora-tadbirlarini ishlab chiqishi,

– Muddat o‘tgan kreditlar bo‘yicha mavjud garov mulklarini sotish chora-tadbirlarini ishlab chiqishi

– Bankning mol-mulki va aktiv-passivlarini baholash ishlarini amalga oshirishi

– Bank majburiyatlarini bajara olmagan taqdirda bank mol-mulkini o‘rnatilgan tartibda sotishi

– Bank majburiyatlarini qoplagan taqirda qolgan mol-mulkni ta‘sischilar o‘rtasida taqsimlashi

– Hisobotlarni Rossiya bankining hududiy boshqarmalariga tavidim etishi shart.

Barcha tadbirlar amalga oshirilgandan so‘ng likvid komissiya Rossiya bankining hududiy boshqarmasiga amalga oshirilgan ishlar va ularning natijalari to‘g‘risida o‘z xulosasini rasmiy ravishda taqdim etadi.

1-jadval

Rossiya Federatsiyasi tijorat banklarining dinamikasi¹³

Rossiya banklari	01.01.2008.	01.01.2009.	01.01.2010.	01.01.2011.	01.01.2012.	01.01.2013.	01.01.2014.	O‘zgarishi 2013 y

¹³ <http://www.km.ru/economics>.

1.	Markaziy Federal okrugi	632	621	598	585	572	564	547	- 17
	Moskva shahri	555	543	522	514	502	494	489	- 5
2.	SHimoliy-G'arbiy Federal okrugi	81	79	75	71	69	70	70	0
3.	Janubiy Federal okrugi	118	115	113	47	45	46	46	0
4.	SHimoliy Kavkaz Federal okrugi	-	-	-	57	56	50	43	- 7
5.	Privoljsk Federal okrugi	134	131	125	118	111	106	102	- 4
6.	Ural Federal okrugi	63	58	54	51	45	44	42	- 2
7.	Sibir Federal okrugi	68	68	62	56	54	53	51	- 2
8.	Uzoq SHarq Federal okrugi	40	36	31	27	26	23	22	- 1
	Rossiya Federatsiyasi bo'yicha jami	1 136	1 108	1 058	1 012	978	956	923	- 33

Rossiya banklari soni 2014 yil boshiga 923 tani tashkil etgan. Bu avvalgi yilga nisbatan 33 taga kamayganligini ko'rsatadi. Agar oxirgi 7 yilni tahlil qilsak, bu davrda Rossiya banklari 213taga qisqarganini ko'rish mumkin. Agar 2007 yilda banklar soni 1136 ta bo'lgan bo'lsa bugungi kunga kelib ular soni 923 taga tushib qolgan. Rossiya Federatsiyasidagi barcha banklarning asosiy qismi mamlakatning Evropa qismida joylashgan. Jami banklarning 46%i yirik banklarda iborat. Umuman, Rossiya bank tizimida ham banklarning yopilish va qo'shib olish tendensiyasi namoyon bo'lmoqda.

Rossiya banklarini qo'shish tajribasi shuni ko'rsatadiki, oxirgi bir necha yillar davomida bu jarayonga banklarning o'zi bilan birga ularni tartibga soluvchi organlar ham tayyor emasligi ma'lum bo'ldi. Banklarni qo'shish, va qo'shib olish borasidagi qiyinchiliklarga duch kelish mumkinligi ko'pchilikning hayoliga ham kelmagan edi. Lekin bunday jarayon boshlangandan so'ng bu yo'lda juda ko'plab muammolarga duch kela boshlandi, qanday natijaga erishilishi noaniq edi. 90-yillarda yirik banklar o'rtasida banklarni qo'shib olish "moda"ga aylangan edi. SHu davrda AQSHda banklarning qo'shib olinishi juda rivojlandi, Evropada esa bunday qo'shilish 1995 yillarda yuqori darajada bo'ldi.

1996-2001 yillarda dunyoda etakchi bo'lgan, sanoati rivojlangan («yirik 10 ta lik») davlatlarda 34147 ta banklarni qo'shish holatlari ro'yhatdan o'tkazilgan. 1990-95 yillarda 19 996 ta banklarni qo'shish holatlari bo'lgan bo'lib, bu jarayon deyarli 1.8 barobar oshganligini ko'rsatadi. Lekin Evropada ham banklarni qo'shish holatlari boshqarish bobida oson bo'lmagan jarayon ekanligi, bank faoliyati to'liq izga tushib ketishi

rahbarlarning professional etukligiga bog'liqligini dastlab tushunib etilmagan. G'arb davlatlarida banklarni qo'shish natijalari statistikasi shuni ko'rsatadiki, 60% qo'shitilgan banklar qo'yilgan mablag'larni oqlamagan. Banklarning qo'shilishidan so'ng 1 yil o'tmasdan banklar o'zlarining 16-40% aksiyadorlarini yo'qotar ekan. Oxirgi 20 yil ichida 300 ta banklarning qo'shilishi asosida yiriklashuvidan 3 yil o'tgandan so'ng banklar qo'shilishining 57%i oldingi rivojlanish darajasida qolib, yana qaytadan bo'linish ishlarini amalga oshirgan.

Amerikaning FMCG-capital-strategies konsultatsion firmasi 400 ta banklarning qo'shilish holatlarini tahlil qilib ularning 80%i omadsiz yakunlandganini ma'lum qildi. Uning asosiy sababi — pozitiv jixatdan samaradorligi yuqori baholangan va aksincha, negativ jixatdan samaradorligiga etarli darajada baho berilmagan. SHuning uchun banklarni qo'shib olishda bir qator tavsiyalarni hisobga olish lozim.

1. Bank biror bankka qo'shilish haqida xulosaga kelgan bo'lsa, avvalo o'zining iqtisodiy holatini, o'zining avzalliklari, taklif va talablarini to'g'ri baholab olishi lozim. Bankni qo'shib olish bo'yicha muzokaralar olib borishdan avval qo'shilmoqchi bo'lgan bankning holati to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lishi kerak.

2. Qo'shilmoqchi bo'lgan bankning moliyaviy holati va uning maqsadini tahlil qilish lozim. Bunda bankning o'tgan davrdagi va kelajakdagi natijalari, yuksalish, baholar siyosati, iqtisodiy potentsiali, bank xizmatlari bozorida uning o'rnini o'rganib chiqishi lozim.

3. Qo'shilayotgan ikkala bankning iqtisodiy, tashkiliy va strategik jihatdan bir-biriga mosligini o'rganib chiqish banklar qo'shilishining yana bir asosiy aspektlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

4. Qo'shilayotgan ikkala bank o'rtasidagi muzokaralarning yo'nalishi, sifati ham kelajakda qo'shib olayotgan bankning faoliyatiga ta'sir qiladi. Muzokaralarda qatnashish uchun uzoqni ko'ra bilgan rahbar muzokara guruhlarini tuzayotganda ushbu guruhga turli yo'nalishdagi, jumladan, inson resurslari, kommunikatsiya texnologiyalar sohalaridagi ekspertlarni jalb qiladi.

5. Komanda tuzilgandag so'ng bank qo'shilish strategiyasi va tashkiliy rejalar ishlab chiqiladi.

Depozitlarning sug'urta tizimiga 2013 yil boshiga AQSHning 600ta banki a'zo bo'lgan. Banklarning yopilishi kuzatilgan bo'lsada, AQSH banklarining 2013 yil choragi natijalari bo'yicha foydasi avvlgi yilga nisbatan 15,8% yuqori bo'lgan.

Rossiya banklarining qo'shilishi rivojlangan g'arb davlatlaridagi qo'shilishdan farq qiladi. SHu bilan birga ko'p yillar davomida g'arb davlatlarida yig'ilgan boy tajriba hamda Rossiyada bir necha yillik tajribaga asoslangan holda bir qator hulosalar qilish imkoniyatini beradi. Bu hulosalar quyidagilar:

Banklari qo'shilishining muammoli yakunlanishi banklarni qo'shib olishda ishtirok etayotgan yoki jarayonni boshqarayotgan shaxslarda bu sohada tajribaning yo'qligi, tomonlarning kelajakdagi strategiya va rejaları mavjud emasligi, bank aktivlarning va kelajakdagi olinishi rejalashtirilgan natijalarning noto'g'ri baholanishi, qo'shilayotgan yoki o'ziga qo'shib olinayotgan banklarning bir biriga monandligi, qo'shilayotgan ob'ekt haqida to'liq ma'lumotga ega emasligi qo'shilayotgan banklarning kelajakdagi faoliyatiga

salbiy ta'sir ko'rsatadi. SHu o'rinda yana ta'kidlash lozimki, banklari qo'shilishining juda katta riskli bo'lib sanaladi.

Tijorat banklari faoliyati yuqori darajadagi iqtisodiy risklar bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Banklar faoliyati asosan jalb qilingan mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi. SHunga ko'ra banklar faoliyatida doimo likvidlilik riski, kredit riski va tizimli risk yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Tijorat banklarining bosh maqsadi - yuqori darajada foyda olishni ta'minlash, bu esa bankni yuqori daromadli, ayni vaqtda, yuqori riskli operatsiyalarni (kreditlar berish, tijorat qimmatli qog'ozlarini sotishsotib olish operatsiyalari va h.k.) amalga oshirishni taqozo etadi. Bularning barchasi pirovard natijada banklar faoliyatida foydalilik va likvidlilik kategoriyalari o'rtasidagi murakkab, ziddiyatli bog'liqlikni yuzaga keltiradi.

Tijorat banklarining bankrot bo'lishi aholining, korxonalar va tashkilotlarning pul mablag'larini yo'qotilishiga olib keladi. Ayniqsa, banklar tizimli bankrot bo'lishi korxonalarining ommaviy tarzda bankrot bo'lishiga olib kelishi mumkin. Oqibatda, birinchidan, aholining, korxonalar va tashkilotlarning bank tizimiga bo'lgan ishonchiga putur etadi. Ikkinchidan, jamiyatdagi ijtimoiy vaziyatni yomonlashuvi yuzaga keladi. Uchinchidan, hukumatning fiskal manfaatlariga ziyon etadi.

YUqorida bayon etilgan holatlar tijorat banklarining milliy iqtisodiyotda yuksak va ma'suliyatli mavqega ega ekanligidan dalolat beradi. SHu boisdan ular faoliyatini tartibga solish davlat iqtisodiy siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Barcha davlatlarda tijorat banklari faoliyatini makrodarajada joriy tartibga solish Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi. Markaziy bank banklar faoliyatini tartibga solish orqali moliya-bank tizimining yuqori darajadagi likvidliligini, banklarning to'lovga qobilligini ta'minlaydi va bir vaqtning o'zida o'zluksiz faoliyat ko'rsatadigan to'lov tizimini yaratish orqali banklarning mijozlarini himoya qiladi.

SHu bilan birga, respublika bank tizimini xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashtirish maqsadida amalga oshirilayotgan ishlar doirasida 2013 yilning mart oyida Germaniya federal banki – «Deutsche Bundesbank» bilan hamkorlikdagi loyiha doirasida «Tizimli tavakkalchilik tahlili va makroprudensial nazorat» mavzusida amaliy hamkorlik o'rnatildi. Xorijiy mamlakatlarda ko'p yillardan beri nihoyatta katta ahamiyat berib kelinayotgan bu jarayon bizning Respublikamizda ham rivojlanib bormokda.

Lekin shunga qaramay ayrim tijorat banklari faoliyati ma'lum bir davrga kelib yomonlashishi yoki Markaziy bank talablarini bajarmaslik oqibatida yopilib ketmoqda. Banklar faoliyatining tahlili shuni ko'rsatdiki, respublikamizda oxirgi 3 yil ichida 4 ta bank yopildi. Xuddi shunday tendensiya Rossiya Federatsiyasi AQSH, Evropa davlatlari bank tizimida ham kuzatilmoqda.

Umuman, g'arb mamlakatlarining iqtisodchi olimlari fikricha, banklarning qo'shilishi, qo'shib olinishi juda uzoq muddat davom etadigan jarayon bo'lib, har doim ham ketgan harajatlar to'liq qoplanib, rejalashtirilgan natijalarga erishib bo'lmaydi. Amerikaning FMCG-capital-strategies konsultatsion firmasi 400 ta banklarning qo'shilish holatlarini tahlil qilib ularning 80% i omadsiz yakunlandganini ma'lum qildi. Uning asosiy sababi - pozitiv jixatdan samaradorligi yuqori baholangan va aksincha, negativ jixatdan samaradorligiga etarli darajada baho berilmagan.

Bizning takliflarimiz banklarni yopilishini kamaytirish va uning oldini olish bilan bog'liq bo'lib ular quyidagilardir:

1. Bankning barqarorligini ta'minlashda bank boshqaruvi samaradorligi va iqtisodiy tamoyillarga amal qilish darajasini oshirish lozim. SHundagina bank barqaror moliyaviy institutga aylanadi.

2. Bank biror bankka qo'shilish haqida xulosaga kelgan bo'lsa, avvalo o'zining iqtisodiy holatini, o'zining avzalliklari, taklif va talablarini to'g'ri baholab olishi lozim. Bankni qo'shib olish bo'yicha muzokaralar olib borishdan avval qo'shilmoqchi bo'lgan bankning holati to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lishi kerak.

3. Qo'shilayotgan ikkala bankning iqtisodiy, tashkiliy va strategik jihatdan bir-biriga mosligini o'rganib chiqish banklar qo'shilishining yana bir asosiy aspektlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

4. Tijorat banklarini qo'shish va tugatish mexanizmini soddalashtirish kerak.

5. Bank tizimi barqarorligini xalqaro normalarga moslashtirish kerak, xususan, Bazel 3 talablarini bosqichma-bosqich joriy etish.

4-mavzu. Tijorat banklarining passiv operatsiyalari tarkibi va ularning joylashishi

Reja:

- 1. Tijorat banklarining resurslari, ularning tarkibi va tavsifi.**
- 2. Banklarning passiv operatsiyalari, ularning turlari.**
- 3. Tijorat banklari passiv operatsiyalarining balansda joylashishi.**

1. Tijorat banklarining resurslari, ularning tarkibi va tavsifi.

Resurs - frantsuzcha «ressource»¹⁴ so'zidan olingan bo'lib, pul mablag'lari, yordamchi mablag', imkoniyat, zahira, mablag' va imkoniyatlar manbai, daromadlar manbai, xom-ashyo degan ma'nolarni o'zida mujassamlashtiradi.

Iqtisodiy manbalarda «resurs» so'zi turli xil ma'nolarda, ya'ni, tabiat resurslari, moliyaviy resurslar, iqtisodiy resurslar, inson resurslari va boshqa ko'rinishlarda tez-tez uchrab turadi. Shundan iqtisodiy resurslarni jamiyat rivojlanishining har bir bosqichida taqsimlanadigan iqtisodiy imkoniyatlarining asosiy elementlaridan biri deb hisoblash mumkin. Undan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning aniq maqsadlariga erishishda foydalaniladi. Iqtisodiy resurslar asosiy qismi, bu moliyaviy resurslar bo'lib, bu resurslar iqtisodiyotning rivojlanishini ta'minlash uchun foydalaniladigan pul-kredit va byudjet mablag'larini tashkil qiladi.

Moliyaviy resurslarning asosiy manbai bo'lib, vaqtinchalik bo'sh turgan pul mablag'lari, soliqlar, jismoniy shaxslarning pul mablag'lari, chek- depozit emissiyasi bilan bog'liq mablag'lar va boshqalar hisoblandi.

Iqtisodiy manbalarda va bank mablag'larining shakllanishi bo'yicha olib borilgan

¹⁴Азрилияна А. Большой экономический словарь. М.: Институт новой экономики, 1999. - 852 с.

tadqiqotlarda «bank resurslari», «kredit resurslari», «depozit resurslari», «bank passivlari» kabi tushunchalarni uchratishimiz mumkin va bu tushunchalarga mualliflar o'zlarining turlicha ta'riflari orqali izoh berganliklarining shohidi bo'lamiz.

Rossiyalik olim O.Lavrushinning fikriga ko'ra, tijorat banklarining resurslari yoki «banklarning resurslari» bankning ixtiyorida bo'lgan o'z va jalb qilingan resurslarining yig'indisi bo'lib, uning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda ishlatiladi¹⁵. Shunday fikrni boshqa bir guruh mualliflarning ilmiy izlanishlarida ham uchratish mumkin. Tijorat banklarining resurslari o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'lar hisobidan tashkil qilinishini ta'kidlash, bizning fikrimizcha, ularning manbalariga ko'proq e'tiborni qaratadi. Bank resurslarining zarurligi bank faoliyatini tashkil qilish va olib borish natijasida shakllanadi. Banklar tashkil qilinishining ilk bosqichlarida banklardan avvalambor o'z kapitalining mavjud bo'lishi va banklar keyingi faoliyatlarini olib borishlari uchun esa mablag'lar jalb qilinishi talab qilinadi. Shu boisdan, tijorat banklari resurslari mohiyatini ta'riflaganda nafaqat ularning qaysi manbalar hisobidan tashkil qilinganligini e'tiborga olish, balki u mablag'lar bankning maqsadli faoliyati uchun zarur va muhimligini hamda ularning samaradorligiga erishishni ham ko'zda tutish lozim.

Bank resurslarini puxta urganish uchun ularni guruxlarga ajratib tasniflash lozim. Tugri, bank resurslarining turkumlanishi ularni boshqarishda jiddiy o'zgarish yaratmaydi, ammo ularni o'rganishning tizimli yondashuvini vujudga keltirish uchun asos yaratadi.

Tijorat banklari resurslarining shakllanishi jihatidan tasniflanishi bankirlar va iqtisodchi-olimlar tomonidan turlicha o'rganiladi. Bu boradagi o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlardan asosiy uch guruhga bo'lib o'rganish mumkin.

Birinchi guruh olimlari - Bu guruhga Rossiya olimlaridan - Bukato V.I. va Lvov Yu.I.larni va boshqa olimlarni kiritish mumkin. Ular o'zlarining «Banki i bankovskie operatsii v Rossii»¹⁶ kitobida «bank resurslarini shakllanishi jihatidan ikkiga bo'lib o'rgangan, ya'ni bank resurslari bankning o'z kapitali va jalb qilingan mablag'lardan iborat» deb ta'kidlovchi olimlardir. Lavrushin O.I. «Bankovskoe delo» kitobida «tijorat bank resurslari shakllanishi jihatidan, o'z resurslari va jalb qilingan mablag'larga bo'linadi»¹⁷, - deb aytib o'tgan. Maslencenkov Yu.S. «Finansoviy menejment v kommercheskom banke» kitobida: «bank resurslarini o'z va jalb qilingan mablag'glardan tashkil topadi»¹⁸, - deb o'rganadi. Bularning ishlaridan ko'rishimiz mumkinki, bu iqtisodchi-olimlar resurslarning tarkibiy shakllanishiga ko'p e'tibor berib, bank resurslarini faqat ikki guruhga bo'lib o'rganganlar.


Ikkinchi yo'nalish olimlari, bu guruhga Rossiya olimlaridan - Sadvakasov K.K., Kiselev V.V.lar kiradi. Bu gurux olimlari bank resurslarini o'rganishda tarkibiy jihatdan uch yirik guruhga bo'lib tasniflaydilar. Ya'ni, bank resurslari bankning o'z mablag'lari, jalb qilingan mablag'lari va emitentlashgan mablag'lar.

¹⁵ Банковская дело. Под редакцией О.И. Лаврушина М.Фин. и статистика. 1998. с.68.

¹⁶ Букато В.И., Львов Ю.И. «Банки и банковские операции в России», Москва, «Финансы и Статистика» нашриёти, 1996 йил 139-бет.

¹⁷ Банковское дело. Учебник под редакцией Лаврушина О.И. - М.: Финансы и статистика, 1998. - 576 с.

¹⁸ Масленченков Ю.С. Менеджмент в коммерческом банке. - М.: Перспектива, 1996. - 190 с.



Tijorat banklari resurslari tarkibi¹⁹

Tijorat banklari boshqa xo'jalik sub'ektlari kabi o'zining xo'jalik va tijorat faoliyatini ta'minlash uchun ma'lum miqdorda pul mablag'lariga, ya'ni resurslarga ega bo'lishlari lozim. Iqtisodiyot rivojlanishining zamonaviy talablarida bank resurslarini tashkil etish muammosi bank faoliyatini bir maromda olib borish uchun birinchi darajali hisoblanadi. Buni shunday izohlash mumkin, ya'ni iqtisodiyotning bozor modeliga o'tishi bilan bank ishida davlat monopoliyasi tugatildi, ikki bosqichli bank tizimini shakllanishida bank resurslari xarakteri ijobiy tomonga o'zgaradi.

Bundan tashqari, uning aktiv operatsiyalari ko'lami, resurslar hajmiga bog'liq bo'ladi. Bunday holat resurslarni jalb qilish bo'yicha banklar o'rtasida raqobatni keltirib chiqaradi.

Shundan kelib chiqib, bank resurslari tijorat banki faoliyatini keng olib borishga asos bo'lib, bankka ma'lum miqdorda daromad keltira olish qudratiga ega bo'lgan zahira va imkoniyatdir. Tijorat banklari o'zining kredit siyosatini ishlab chiqqanda yoki uzoq davrga o'z faoliyatining startegik yo'nalishlarini belgilaganda shu zaxira va imkoniyatlarning ko'lamini keng ko'rib chiqishi va resurslarni o'z faoliyat yo'nalishlarining daromad manbalari sifatida nazarda tutishi lozim.

Chet el adabiyotlarida²⁰ mablag'larni jalb qilish operatsiyalarini nafaqat tijorat banklari, balki moliyaviy kompaniyalar, jamg'arma kassalari, turli xil fondlar ham bajaradi degan fikrni uchratish mumkin. Lekin, fondlarning faoliyati va maqsadi bilan tijorat banklarining faoliyati va maqsadi bir xil emas. Turli fondlar va muassasalar

¹⁹ Абдуллаева Ш.З., Омонов А.А. “Тижорат банклари капитали ва уни бошқариш”. Ўқув қўлланма./ –Т.: “Иқтисод-Мoliya” 2006.

²⁰ Синки Дж. Ф. Управление финансами коммерческих банков. Превод с англ. М.: Catallaху. 1994. с. 22-23.

faoliyatidan ko'ra banklarda depozitlar sug'urtalangan va kafolatlangandir. Turli boshqa moliyaviy muassasalarga nisbatan tijorat banklari bu mablag'larni saqlash va riskdan himoya qilishda mablag' egasiga o'z kafolatini berishi mumkin va mijozning o'z mablag'ini yo'qotishi bilan bog'liq riski banklarda boshqa fondlar yoki kassalarga nisbatan ancha past yoki deyarli yo'q deyish mumkin.

Klassifikatsiya belgisi	Resurslar turlari	Izoh
1	2	3
Manbai	O'z mablaglari	Nizom, qo'shimcha kapital, zaxiralar, foyda va zararlar hisob rakamidagi qoldiq
	Jalb kilingan va karz mablag'lari	Mijozlarining hamda vakil-banklarining joriy, depozit, jamg'arma va boshqa hisob raqamlaridagi mablag'lar; yuridik shaxslar tomonidan olingan kreditlar
Mablag'larning kimga tegishligi bo'yicha	Bankka tegishli	O'z mablag'lari: jamg'armalar, taksimlanmagan foyda, taksimotdan keyinga joriy davrning foydasi, uz mablag'larini ko'payishiga ta'sir kiluvchi xarajatlarni hisobga olmagan holda emission daromad.
	Bankka tegishli bo'lmagan	Qarz banklararo kredit, banklararo moliyaviy mablag'lari yordam, muddatli qimmatli qog'ozlar
		Jalb depozitlar, maxsus jamg'armalar, hisob qilingan raqamlardagi vaqtincha bo'sh mablag'lar, mablag'lar bankning kreditorlik qarzlari, debitorlar bilan hisoblashishlar bo'yicha zaxiralar. o'z mablag'lariga tenglashtirilgan mablag'lar
Muddatiga ko'ra	Uzoq muddatli	O'z mablag'lari, o'z mablag'lariga tenglashtirilgan-mablag'lar (talab qilib olinguncha hisob raqamlaridagi minimal qoldiqlar), uzoq muddatli depozitlar, moliyaviy yordam.
	qisqa muddatli	Qisqa muddatli depozitlar, korxon va tashkilotlarning talab qilib olinguncha hisob raqamlaridagi minimal qoldiqdan ortgan mablag'lar
Qiymati	To'lovli	O'z mablaglari, depozitlar, boshqa yuridik shaxslarining kreditlari
	Nisbatan to'lovsiz	Talab kilib olinguncha xisob rakamlari, korxonalarining xisob va joriy xisob rakamlari
Ishonchlilik darajasiga ko'ra	Ishonchli	Uz mablaglari, uzok muddatli depozitlar, moliyaviy yordam
	Ishonchsiz	Qisqa muddatli depozitlar, talab qilib olinguncha depozitlar, korxon va tashkilotlarning hisob va joriy hisob raqamlari
Ko'payish manbai	O'z Ichki	Taksimlanmagan foyda
	Mablag'lari Tashqi	Qimmatli qog'ozlarni chiqarish (aktsiya, obligatsiya, veksellar), shu jumladan, konvertirlanadigan, bank aktivlarini sotish, ko'chmas mulkni ijaraga berish
	Jalb Ichki	Qimmatli qog'ozlarni konvertatsiya qilish

qilingan tashqi va qarz mablag'lari	Yuridik shaxslarni hisob rakamlarini ochish, fuqarolarning omonatlari, yuridik shaxslarning depozitlar, banklararo kreditlar.
-------------------------------------	---

2-rasm. Tijorat banklari resurslarining tasniflanishi

Yuqorida tavsiya qilingan tasnif, bizning fikrimizcha, banklar faoliyati uchun zarur bo'lib tijorat banklari o'zida mavjud bo'lgan resurslarni qaysi manbadan, qanday qiymatda, qancha muddatga jalb qilinganligi to'g'risida yaqqol tasavvurga ega bo'ladi. Undan tashqari bu tasnif asosida tijorat banklari mablag'lar qaysi sub'ektga tegishli ekanligi va bu sub'ektning moliyaviy ahvoli, unga shu mablag'lar qaysi muddatga zarurligi yoki boshqacha qilib aytganda ularning likvidlilik, ishonchlilik darajasi, shu mablag'lar bo'yicha mavjud risklar va ularning darajasining aniqlashga va shu omillar asosida chora tadbirlarni amalga oshirib banklarning resurs bazasini barqaror ushlab to'rishga yordam beradi.

Tijorat banklari, boshqa xo'jalik sub'ektlari kabi o'zining xo'jalik va moliyaviy faoliyatini ta'minlash uchun ma'lum miqdorda pul mablag'lariga, ya'ni resurslariga ega bo'lishlari lozim. Iqtisodiyot rivojlanishining zamonaviy talablarida bank resurslarini tashkil etish muammosi bank faoliyatini bir maromda olib borish uchun birinchi darajali hisoblanadi. Buni shunday izohlash mumkin, ya'ni iqtisodiyotning bozor modeliga o'tishi bilan bank ishida davlat monopoliyasi tugatiladi, ikki bosqichli bank tizimini shakllanishida bank resurslari xarakteri ijobiy tomonga o'zgaradi.

Bankning asosiy vazifalaridan biri bo'sh pul mablag'larini mumkin qadar ko'proq jalb qilish va ularni boshqa foyda keltiruvchi optimal aktivlarga joylashtirishdan iborat.

Bank kredit resurslari banklar tomonidan amalga oshiriladigan passiv operatsiyalari yordamida shakllanib, bank balansining passiv qismida ikki katta guruhga bo'lib hisobga olinadi. Bular: banklarning o'z mablag'larini va jalb qilingan mablag'laridir. Jalb qilingan resurslarni ba'zi hollarda ikkiga bo'lib qaraladi. Birinchisi, bu jalb qilingan depozitlar, ikkinchisi, boshqa majburiyatlar va sotib olingan resurslardir. Bu resurslar bankning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda ishlatiladi, ya'ni bank resurslari daromad olish maqsadida turli xil sohalarga joylashtiriladi. Bankning passiv va aktiv operatsiyalari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lganligi sababli, passivlarning tarkibi va xarakteri ko'p jihatdan banklarning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda o'z ifodasini topadi. Shu bilan birga, resurslar xarakteriga banklarning kreditlash siyosatining o'zgarishi ham ta'sir qiladi.

Bank kredit resurslarining asosiy qismini bank mijozlarining mablag'larini tashkil qiladi. Bank boshqa mablag'larini jalb qilish uchun, avvalambor me'yoriy hujjatlar talablari bo'yicha, o'z kapitalining etarlilik darajasi miqdorini shakllantirishi lozim.

Tijorat banklari bajarayotgan barcha operatsiyalar bevosita yoki bilvosita bank kapitalining etarliligi va uning sifatiga bog'liq bo'lib, har qanday tijorat banking to'lovga qobilligini va xatardan holiligini baholashda asosiy omil hisoblanadi. Tijorat banklarining etarli miqdorda bank kapitaliga ega bo'lishi, ularning likvidligini ta'minlashda va faoliyati davomida duch keladigan xatarlardan zarar ko'rmay chiqib ketish imkoniyatini beradi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kapitalining etarliligiga qo'yiladigan asosiy talablar "Tijorat banklari kapitalining etarliligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Markaziy bankning 420-sonli Nizomida belgilangan. Nizom bo'yicha tijorat banklari kapitalining etarliligiga qo'yiladigan talablar xalqaro Bazel qo'mitasining andozalarida ko'zda tutilgan talablarga mos keladi. Bazel qo'mitasining andozalari, unga a'zo bo'lgan o'n ikkita mamlakat markaziy banklarining vakillari ishtirokida 1988 yilda ishlab chiqilgan va 1993 yilda amaliyotga joriy etilgan.

Tijorat banki o'z mijozlarining bo'sh turgan mablag'larini qarzga olish bilan bir vaqtning o'zida, bu mablag'larni o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash majburiyatini ham oladi, shuning uchun bank barqaror likvidlikka ega bo'lishi kerak. Ishonchlilik va likvidlilik tamoyillari tijorat banki mavjudligining zarur shartlaridan bo'lib, ular aholining bo'sh turgan pul mablag'larining bank sari oqimini ta'minlaydi. Undan tashqari bankning ahvoli moliyaviy jihatdan kam samarali bo'lgan holatda mijozlar o'z mablag'larini qaytarib olishlariga ishonch hosil qilishlariga zamin yaratadi. Resurslar yordamida banklarning tashkiliy faoliyati amalga oshiriladi, kreditlar berish salohiyati, to'lovlarning amalga oshirilishi natijasida, banklarning daromadlari vujudga keltiriladi.

Bank kredit resurslarining shakllanishi va aylanishi uzluksiz jarayonni tashkil qiladi va bu esa, o'z navbatida banklar faoliyatini doimiyligiga asos hisoblanadi.

Shu sabab o'tish iqtisodiyotini boshidan kechirayotgan deyarli barcha mamlakatlarda tijorat banklari kredit resurslarini shakllantirish tizimida tubdan o'zgarishlar amalga oshirildi. Buday o'zgarishlarga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatdi. Bular:

- banklararo kredit bozorida Markaziy bankning faol ishtirok etishining ta'minlanishi va bu o'z navbatida kredit riskini kamaytirganligi;
- iqtisodiyotda noto'lovlar muammosining mavjudligi va kreditning qaytarilmasligi oqibatida, tijorat banklarining zarar ko'rish darajasining oshishi;
- aholi qo'lidagi omonatlarning o'sishi;
- korporativ qimmatli qog'ozlar bozorining etarli darajada rivojlanmaganligi va boshqalardir.

Banklarda mavjud bo'lgan mablag'lardan foydalanish imkoniyatiga va ularning manbaalariga qarab bank resurslari o'z resurslariga va qarz (sotib olingan) resurslarga bo'linadi. Bank resurslariga bank kapitalidan tashqari ma'lum vaqt davomida bank ixtiyorida bo'lgan jalb qilingan depozitlarni, boshqa banklardagi depozit va vakillik hisob raqamidagi qoldiqlarni, forvard valyuta kursi va kliring bo'yicha qoldiqlarni ham kiritish mumkin.

Undan tashqari, bankning ixtiyorida mavjud bo'lgan resurslar uning amalga oshirilishi mo'ljallanayotgan aktiv operatsiyalar uchun etarli bo'lmasa, zarur miqdordagi mablag'larni markaziy bankdan, nobyudjet fondlardan, resurslar bozorida sotib olishi yoki qarzga olishi mumkin. Shunday qilib, o'z mablag'lari va jalb qilingan yoki sotib olingan mablag'lari yig'indisi tarkibiy shakllanish jihatdan tijorat banklarining resurs bazasini tashkil qiladi. Xalqaro bank amaliyotida banklarning resurs bazasini shakllantiruvchi asosiy manbalarga o'z kapitalidan tashqari quyidagilar kiradi: yuridik va jismoniy shaxslarning depozit hisob varaqlaridan qoldiqlari; bank tomonidan yuridik shaxslar uchun muomalaga chiqarilgan veksellar va depozit sertifikatlar; olingan

banklararo kreditlar; vakil bank tomonidan ochilgan “Vostro” depozit hamda valyuta hisob varaqasidagi mablag’lar va boshqa manbalar.

Ustav kapitalining miqdori, uni shakllantirish va unga o’zgartirishlar kiritish tartibi bankning Nizomida belgilangan bo’ladi. Ustav kapitalini oshirish yangi aktsiyalarni muomalaga chiqarish, yoki sof foydani kapitalizatsiya qilish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Ustav kapitalidagi o’zgarishlar aktsiyadorlarning umumiy yig’ilishining qarori bilan tasdiqlanishi va Markaziy bank ro’yxatidan o’tishi kerak.

Bank kapitalining yana bir turi zaxira kapitali bo’lib, u tijorat banklarining foydasidan ma’lum foizini ajratish orqali tashkil qilinib, u majburiyatlarni qaytarishga va maxsus zaxiralar tashkil qilinmaydigan bank operatsiyalari bilan bog’liq xatarlarni qoplashga sarflanadi. Zaxira kapitali odatda kredit riski ochiq namoyon bo’lganda bank kengashining qarori bilan sarflanishi mumkin.

Turli debitorlar bilan hisoblashishlar bo’yicha tuzilgan jamg’armalar ham qonunchilikka asosan tijorat bankining o’z mablag’lari qatoridan joy olgan. Shu bilan birga xalqaro hisob standartlariga asosan, kredit tashkilotlari ushbu mablag’larni o’z mablag’lari qatoriga kiritmaydi, balki ularni o’zaro mos debitorlik qarz majburiyatlaridan chegirib tashlashadi. Bu esa zaxiralarning iqtisodiy mohiyatini, ya’ni ular o’zida aktiv daromad keltiradigan operatsiyalarni aks ettiradi. Shu sababdan ham, ular xatarli mablag’lar hisoblanadi va ishonch kamligi tufayli bankning o’z mablag’lari tarkibiga kiritilmaydi.

Ishonchlilik darajasi bo’yicha bankning o’z mablag’lari va ularga tenglashtirilgan mablag’laridan keyingi o’rinda turuvchi jalb qilingan va qarz mablag’lari bir qator ob’ektiv va sub’ektiv omillar ta’siriga bog’liqdir:

- fuqarolarning omonatlari va yuridik shaxslarning depozitlari bo’yicha foiz stavkalari miqdori;

- omonat va depozitlarni qabul qilish, hisob-kitob va boshqa hisob raqamlarini ochish hamda ularni yuritish shartlari.

Tijorat banklarining jalb qilingan mablag’lari qarz mablag’laridan shunisi bilan farq qiladiki, birinchi holda, mablag’larni taqdim qilish mijoz va bank omonatchilarining tashabbusi bilan amalga oshirilsa, keyingi holda - bank tashabbusi bilan amalga oshiriladi.

Jalb qilingan mablag’lar qatorida alohida resurs sifatida kredit tashkilotlari, kredit uyushmalari, mikrokredit tashkilotlarining mablag’larini ko’rsatish lozim. Chunki, banklar ishlab chiqarish va savdo tashkilotlari yoki xususiy shaxslardan farqli o’laroq bir-birlari bilan operatsiyalarni amalga oshirishda banklararo bozorda qatnashishlari mumkin, shu sababdan ham ular bir-birlarining likvidliklariga va moliyaviy holatlariga ta’sir ko’rsatishi mumkin. Xuddi shu tamoyil asosida, qarz mablag’larining alohida bir guruhiga, markaziy bank va boshqa banklar oldidagi majburiyatlar ham kiritiladi. Bundan tashqari, tashqi ob’ektiv va sub’ektiv omillar ta’sir ko’rsatadigan yuqori darajadagi riskli resurslar qatoriga norezident banklar, korxonalar va jismoniy shaxslarning mablag’lari ham kiradi. Nobank sektoridan jalb qilingan mablag’lar qatorida ishonchlilik darajasiga ko’ra depozitlar (asosan muddatli depozitlar) muhim o’rin tutadi.

Shu o’rinda, mijozlarning hisob raqamlaridagi qoldiqlariga ham alohida e’tibor qaratish lozim, chunki, bu mablag’lar deyarli tekin hisoblanadi va shu sababdan bu mablag’lar bankning kredit

resurslari qatoridan joy olishi mumkin. Bu mablag'lardan ustalik bilan foydalanilsa, ularni o'z mablag'lariga ham tenglashtirish mumkin. Tijorat banklari resurslarining shakllanish tartibi va ularning ustav kapitalining minimal miqdori Markaziy bank tomonidan muvofiqlashtirilib boriladi.

2. Banklarning passiv operatsiyalari, ularning turlari.

Bank resurslarini shakllantirish bilan bog'lik bo'lgan operatsiyalar banklarning- **passiv operatsiyalar** deyiladi. Passiv operatsiyalar yordamida tijorat banklarining passiv va aktiv-passiv schyotidagi pul mablag'larining salmog'i oshib boradi. Banklarning passiv operatsiyalari ularning faoliyatini tashkil qilishda katta rol o'ynaydi.

Passiv operatsiyalar yordamida tijorat banklari kreditlash uchun zarur bo'lgan kredit resurslarini tashkil qiladi.

Tijorat banklari passiv operatsiyalarining asosan to'rtta shakli mavjud:

- Tijorat banklari qimmatbaho qog'ozlarini muomalaga chiqarish yo'li bilan resurslar yig'ish;
- Bank foydasi hisobidan har xil fondlar tashkil qilish yoki fondlar summasini oshirish;
- Boshqa kreditlarning mablag'larini jalb qilish;
- Depozit operatsiyalarni amalga oshirish.

Tijorat banklarining resurslari bankning o'z mablag'lari jalb qilingan va emitentlashgan mablag'lar hisobidan shakllanadi. Yukorida keltirilgan passiv operatsiyalarning birinchi va ikkinchi shakllarida banklarning o'z mablag'lari yuzaga keladi va qolgan oxirgi ikki shaklida kredit resurslarining ikkinchi qismi jalb qilingan resurslar yuzaga keladi.

Banklarning o'z mablag'lariga — bankning ustav kapitali, rezerv kapitali, maxsus fondlar, moddiy rag'batlantirish fondi, boshqa har xil tashkil qilingan fondlar va taqsimlanmagan foydasi kiradi.

Banklarning o'z mablag'lari ichida asosiy o'rinni bankning o'z kapitali egallaydi. Bankning ustav kapitali summasi bank ustavida ko'rsatiladi va bank ishini boshlashning boshlangich nuqtasi hisoblanadi. Banklarning tashkil qilishning shakllariga qarab bankning ustav kapitali ham xar hil tashkil topadi.

Agar bank aksiyadorlik jamiyati tariqasida tashkil qilinadigan bo'lsa, ustav kapitali yoki fondi aksiyalar chiqarish va joylashtirish yo'li orqali tashkil topadi. Banklarning ustav kapitali summasi qonun yo'li bilan chegaralanmaydi. Banklarning barqaror faoliyatini taminlash maqsadida uning minimal miqdori belgilab beriladi.

Bankning ustav kapitali uning balansining passivida ko'rsatiladi. Ustav fondi summasining oshirilishi bank aksiyadorlik umumiy majlisida hal qilindi. Banklarning ustav kapitali ularning majburiyatlarini bajarishning asosi bo'lib xizmat qiladi. Bank kreditlar hisobidan banklarning ustav kapitalini tashkil qilish mumkin emas.

Banklar tashkil qilinganda ustav kapitalining tarkibi moddiy mablag'lardan va pul mablag'laridan tashkil topadi. Bank faoliyatining boshlangich bosqichlarida bankning o'z mablag'lari hisobidan birinchi navbatdagi bank xarajatlari (er, bino, asbob-uskuna, ish haqi) qoplanadi.

Banklarning o'z mablag'lari uzoq muddatli aktivlarga quyilmalar qilishning asosiy manbasi hisoblanadi. Odatda Markaziy bank tijorat banklari uchun banklarning uz

mablag'lari bilan chetdan jalb kilingan resurslar o'rtasida chegarani belgilab beradi. Banklarning aksiyador kapitali quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topishi mumkin.

Bular:

a) **o'z aksiyador kapitali** – bu kapital oddiy va imtiyozli aksiyalar chiqarish va sotish hisobidan, taqsimlanmagan fondi hisobidan yuzaga keladi;

b) xar xil ko'zda tutilmagan holatlar uchun tashkil kilingan rezervlar.

v) bankning uzoq muddatli majburiyatlari (uzok muddatli veksel va obligatsiyalar) bo'lishi mumkin.

Banklarning rezerv kapitali yoki rezerv fondi foydadan ajratmalar hisobiga hosil bo'ladi va u ko'zda tutilmagan zararlar hamda qimmatli qog'ozlar kursining tushishi natijasidagi yo'qotishlarni qoplash uchun mo'ljallangan.

Taqsimlanmagan foyda — rezerv fondiga ajratmalar va dividendlar tutilanganidan so'ng qoladigan foydaning bir qismidir. Banklarning o'z mablag'lari tijorat banklari faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Banklarning o'z kapitali hissasining kamayishi ba'zi hollarda banklarning sinishiga olib keladi.

Bank resurslari tarkibida aholining omonat qo'yilmalari muhim rol tutadi. Ular to'liq summaga yoki bo'lib-bo'lib qo'yiladi va berilishi mumkin. Omonatchi va bank o'rtasidagi mablag' ko'yishi bilan bog'lik munosabat omonat daftarchasini berish bilan tasdiqlanadi. Banklar to'lovchilik asosida turli xil maqsadli qo'yilmalarni, muddatli yoki talab kilish hamda olish mumkin bo'lgan jamg'armalar qabul qiladilar.

Banklar mablag'larni jalb qilish imkoniyatlari chegaralangan bo'lib, barcha mamlakatlarda bu jarayon Markaziy bank tomonidan tartibga solinib turiladi. Jalb qilingan mablag'lar tijorat banklari kredit resurslarining asosiy qismini tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bank kapitali bilan jalb qilingan mablag'lar orasidagi nisbatni bir qator zaruriy me'yorlar yordamida tartibga soladi.

Bu quyidagi normativlar:

- kapital etarliligi,
- bir kredit oluvchiga to'g'ri keladigan maksimal risk miqdori,
- aholidan jalb qilingan depozitlarning maksimal miqdori va boshqalar

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yo'riqnomasiga muvofiq, aholidan pul omonatlarini jalb qilish miqdori bankning o'z kapitali miqdori bilan chegaralanadi.

Banklar jalb qiladigan mablag'lar tarkibi turlicha bo'ladi. Ularning asosiy turlariga quyidagilar kiradi:

- bank mijozlar bilan ishlash jarayonida jalb qilgan mablag'lar (depozitlar),
- o'z qarz majburiyatlarini chiqarish yo'li bilan mablag'larni to'plash (depozit va jamg'arma sertifikatlarini, vekselar, obligatsiyalar)
- banklararo kredit vositasida boshqa kredit tashkilotlaridan olinadigan va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan olinadigan ssuda mablag'lari va boshqalar kiradi.

Halqaro bank amaliyotida jalb qilingan resurslar ularni yig'ish usuliga qarab quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- depozitlar;
- nodepozit resurslar.

Keng ma'noda passivlarni boshqarish omonatchilar va boshqa kreditorlarning mablag'larini jalb va mazkur bank uchun mablag'lar manbalari tegishli kombinatsiyasini belgilash bilan bog'liq faoliyatdir.

Tor ma'noda esa passivlar operatsiyalarini boshqarish deganda zaruriyatga ko'ra qarz mablag'larini faol ravishda topish yo'li bilan likvidlika bo'lgan ehtiyojni qondirishga qaratilgan harakatlar tushuniladi.

3. Tijorat banklari passiv operatsiyalarining balansda joylashishi.

Bank passivlari balansda quyidagi ko'rinishda joylashadi

№	Ko'rsatkichlar
	Majburiyatlar
1	Talab qilib olinguncha depozitlar
2	Jamg'arma depozitlar
3	Muddatli depozitlar
4	Depozit sertifikatlari
5	Hukumat hisobvaraqlari
6	Hamma depozitlar
7	MBga to'lanishi kerak bo'lgan mablag'lar
8	Hukumatga to'lanishi kerak bo'lgan mablag'lar
9	Boshqa banklarga to'lanishi kerak bo'lgan mablag'lar
10	REPO va boshqa qarz mablag'lari
11	Soliq majburiyatlari
12	Boshqa majburiyatlar
13	CHiqarilgan qarz qimmatli qog'ozlar
14	Hamma majburiyatlar
15	Oddiy aksiyalar
16	Imtiyozli aksiyalar
17	Kapital zaxiralar
18	Qayta baholash zahiralari
19	Taqsimlanmagan foyda
	Jami o'z mablag'lari

Jalb qilingan mablag'larni asosiy qismini depozitlar tashkil qiladi.

Depozit va ularning turlari

Banklarda maqsadlarni amalga oshirish uchun pul mablag'larini qo'yilmalarga jalb qilish operatsiyalari- **depozit operatsiyalari** deyiladi.

Depozitlar faqatgina omonatchiga emas, shu bilan birga bankka ham manfaatlidir. Ko'pgina depozitlar orqali bankning ssuda kapitali shakllanadi, keyinchalik esa bank turli xo'jalik sohalarini qulay shartlar asosida kreditlaydi.

Depozit va kredit foizlari orasidagi farq bo'sh pul mablag'larini jalb qilish va ssuda kapitalini joylashtirish borasidagi **bank marjasi** (mukofoti) bo'lib hisoblanadi.

Depozit operatsiyalar - banklarning depozitorlar bilan tuzgan shartnomalari asosida depozit maqsadlariga ko'ra yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag'larini muayyan muddatga jalb etish hamda saqlashga doir operatsiyalaridir.

Depozitor bankka kela olmagan yoki u depozit operatsiyalariga doir zarur hujjatlarni mustaqil ravishda to'ldira olmagan hollarda uning depoziti bo'yicha operatsiyalar ishonchli shaxs tomonidan amalga oshiriladi. Uning vakolati amaldagi qonunchilikka muvofiq asoslangan bo'lishi lozim. O'zbekiston Respublikasida yuridik va jismoniy shaxslar depozit operatsiyalarning sub'ektlari bo'la oladi.

Depozitlar naqd pul yoki naqd pulsiz shaklda qo'yilishi mumkin. Yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan qo'yiladigan depozitning eng kam miqdori har bir bank tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi.

Bank qabul qiladigan depozitning eng ko'p miqdori chegaralanmaydi. Barcha depozitlar joriy mablag'lar tarzida qabul qilinadi va shu asosda to'lanadi. Depozitlar tratta, cheklar, pul topshiriqnomalari, davlat xazina kafolatlari va boshqa shakllarda kelib tushsa, ular undirib olish sharti bilan qabul qilinadi, biroq, summa bankning hisobvarag'iga kelib tushmaguncha ushbu depozitga kiritilgan hisoblanmaydi.

Tijorat banklari, boshqa xo'jalik subektlari singari o'zining xo'jalik va tijorat faoliyatini ta'minlash uchun ma'lum miqdorda pul mablag'lariga, ya'ni resurslariga ega bo'lishlari lozim.

Bank resurslari banklar tomonidan amalga oshiriladigan passiv operatsiyalar orqali tashkil topadi va bank balansining passiv qismida yuritiladi. Bank resurslarini ikki kata guruhga bo'lish mumkin.

Bular:

- banklarning o'z mablag'lari va jalb qilingan mablaqlardir. Jalb qilingan resurslarni ba'zi hollarda ikkiga bo'lib qaraladi- bu jalb qilingan depozitlar ,
- boshqa majburiyatlar va sotib olingan resurslardir. Bu resurslar bankning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda ishlatiladi, ya'ni bank resurslari daromad olish maqsadida turli xil sohalarga joylashtiriladi.

Bank resurslarining asosiy qismini bank mijozlarining mablag'lari tashkil qiladi. Bank boshqa kapitallarni jalb qilish uchun bank o'z kapitalining etarli darajasi miqdorini ko'rsatishi lozim.

Tijorat banki o'z mijozlarining bo'sh turgan mablag'larini qarzga olish bilan bir vaqtning o'zida bu mablag'larini o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash majburiyatini ham oladi, shuning uchun bank barqaror likvidlikka ega bo'lishi kerak. Ishonchlilik va likvidlilik tamoyillari tijorat banki mavjudligining zarur shartlaridan bo'lib, ular aholining bo'sh turgan pul mablag'larining banka sari oqimini ta'minlaydi. Undan tashqari bankning ahvoli moliyaviy jihatdan kam samarali bo'lgan holatda mijozlar o'z mablag'larini qaytarib olishlariga ishonch hosil qilishlariga zamin yaratadi.

Resurslar yordamida banklarning tashkiliy faoliyati amalga oshiriladi, kreditlar berish salohiyati to'lovlar amalga oshiriladi, banklarning daromadlari vujudga keltiriladi. Bank

resurslari tarkibida bankning o'z resurslari alohida o'rin tutadi. O'z resurslari ustav kapitali, qo'shilgan kapital, rezerv kapital va taqsimlanmagan foydadan iborat.

Bank o'z mablag'i va o'z kapitali tushunchalari farq qiladi. «O'z mablag'i» tushunchasi keng ma'noli, u 1992 ichiga bankning ichki faoliyati jarayonida tashkil topgan hamma passivlarni ya'ni bankning ustav, rezerv va boshqa fondlari, bank tashkil qilingandagi hamma rezervlarni, taqsimlanmagan foyda va joriy yil foydasini oladi.

Bankning o'z kapitali - bank vaqtincha jalb qilgan qarz mablag'laridan farqli o'laroq, bevosita bankning o'ziga tegishli bo'lgan mablag'lardir. Bank kapitalining boshqa korxonalar kapitalidan farqi shundaki, bankning o'z kapitali aylanma mablag'larining 10 foizini, korxonalarda esa u taxminan 40-50 va undan ortig' foizni tashkil qiladi.

4-mavzu. Tijorat banklarining passiv operatsiyalari tarkibi va ularning joylashishi

Reja:

- 1. Tijorat bankining kapitali va uning tarkibi.**
- 2. Bank kapitalini etarililigiga qo'yilgan talablar.**
- 3. Bank kapitali va uning samaradorligini oshirish yo'llari.**
- 4. Bank kapitali etariligi bo'yicha xalqaro talablar.**

Tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarishda asosiy e'tibor bank balansi passividagi mablag'larning manbalariga qaratiladi. Ushbu mablag'lar ikkita yirik guruhga majburiyatlar va kapitalga bo'linadi.

Majburiyatlar – bank tomonidan jalb etilgan mablag'lar hisobidan, kapital – bankning o'z mablag'lari hisobidan shakllanadi. Ushbu mablag'larning barqaror manbalar hisobidan shakllantirilishi tijorat banklarining samarali ishlashini va iqtisodiy jihatdan baquvvatligini ta'minlaydi. Tijorat banklari balansi passivining asosiy ulushini majburiyatlar tashkil etib, ular 80–90 foizdan iborat bo'ladi. Majburiyatlarni muddati va vujudga kelish manbasiga qarab barqaror va nobarqaror, ular uchun to'lanadigan xarajatlar qiymatidan kelib chiqib, arzon va qimmat mablag'larga ajratish mumkin.

Tijorat banklarining ikkinchi yirik mablag'lari manbasini ularning kapitali tashkil etadi. Bank kapitali tarkibida ustav kapitalining tashkil topishi va barqarorligi jihatidan muhim moliyaviy manba bo'lib hisoblanadi. Bank kapitalini boshqarishda asosiy e'tibor ularning barqaror moliyaviy mablag'lar hisobidan shakllanishiga va yetarililigiga qaratiladi.

Demak, bank resurslarining mohiyatini ochib berishda ularning shakllanish manbasining asosini tashkil etadigan passiv operatsiyalarni e'tiborga olish juda muhim hisoblanadi. Tijorat banklarining jalb qilgan mablag'larining asosiy qismini depozitlar tashkil etadi. Depozitlar omonatchilar tomonidan qo'yilgan yoki operatsiyalar jarayonida bank hisobvarag'ida ma'lum vaqtgacha saqlanadigan mablag'lar hisobidan shakllantiriladi.

Depozit operatsiyalarga - bankning jismoniy va yuridik shaxslarning pul mablag'larini depozitlarga, ma'lum bir muddatga yoki talab qilib olinguncha depozitga jalb qilish bilan bog'lik operatsiyalari kiradi. Depozit operatsiyalarga, odatda banklar

passivlarining 95% gacha to'g'ri keladi. Depozit operatsiyalarini amalga oshirishning asosi bo'lib, bank balansining likvidligi va uning tijorat manfaati hisoblanadi.

Odatda bank resurslari tarkibida omonatlar ulushining tahlili asosida mamlakat bank tizimiga bo'lgan aholi ishonchining qay darajada ekanligi haqida xulosa chiqarish mumkin bo'ladi. Shu o'rinda respublikamiz bank tizimida aholi omonatlari qoldig'i o'sish tendentsiyasiga ega ekanligini aytib o'tish lozim.

Depozitlar summasining o'sishi bir vaqtning o'zida tijorat banklari jami kapitalining ham ortishini shart qilib qo'yadi. Shu bilan birga tijorat banklarining kreditlash potentsiali ham ortadi.

Tijorat banklari resurslari tarkibida muddatli depozitlar muhim moliyaviy manba hisoblanib, bank resurslari barqarorligi ko'p jihatdan shu manbalarning ulushini yuqoriligiga bog'liq. O'zbekiston tijorat banklari resurslari tarkibida depozit mablag'lari hisobidan shakllantirilayotgan mablag'larining ulushi xalqaro bank amaliyotidagi darajadan ancha past. Odatda, xalqaro bank amaliyotida ushbu ko'rsatkich kamida 60–65 foizni tashkil etadi.

Pul massasining maqsadli parametrlaridan kelib chiqqan holda tijorat banklari tomonidan uzoq muddatli depozitlar jalb qilinishini yanada rag'batlantirish maqsadida majburiy rezervlar normasi, yuridik shaxslarning muddati 1 yilgacha bo'lgan depozitlari uchun - 15 foiz, muddati 1 yildan 3 yilgacha bo'lgan depozitlari uchun – 12 foiz, muddati 3 yildan ortiq bo'lgan depozitlari uchun - 10,5 foiz miqdorida qilib belgilandi.

Bank resurslarining aksariyat qismini jalb qilingan mablag'lar tashkil etishi bilan banklar iqtisodiyotning boshqa sub'ektlaridan ajralib turadi. Odatda bankning o'z mablag'lari 20%gacha etadi, boshqa tijorat korxonalarida esa bu ko'rsatkich 50-60%ni tashkil etadi.

Jahon amaliyotida faqat ratsional tarzda resurslarni taqsimlab olayotgan banklarga o'zining likvidlilik darajasini saqlab qolishi mumkin. Moliyaviy inqiroz davrida banklar aholidan bo'sh pul mablag'larini yuqori foiz stavkalar evaziga jalb qilgan holda keng tarzda kredit siyosatining depozit siyosatini olib boradi, ammo ko'pgina banklarning mijozlarga ajratilgan kredit mablag'larining o'z vaqtida qaytmasligi sababli kapitallashuv darajasini kamayishiga, aks holda bankrotlik darajasiga olib kelishi mumkin bo'ladi. Mazkur holatlarni oldini olish uchun mamlakatimiz miqyosida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan davlat banklarining kapitallashuv darajasini oshirishga harakat qilib kelinmoqda.

Oxirgi paytlarda rivojlanayotgan mamlakatlarda “sekyuritizatsiya” terminini tor ma'noda moliyalashtirishning innovatsion shakli sifatida tushunila boshlandi. Zero aktivlarni sekyuritizatsiyalash tushunchasi, avval AQShda va keyinchalik Evropada ham keng tan olingan bo'lib, manbalarni jalb qilishning yangi texnikasini ifodalab kelmoqda.

Sekyuritizatsiya qilishning ahamiyatli tomonlari shundaki, bunda bank barcha harakatsiz aktivlarini ishga soladi. Bu degani masalan, ipoteka kreditlari bo'yicha bir bank tomonidan 1 mlrd. so'mlik kredit ajratilgan bo'lsa va shu bilan birga bankning barcha resurslari ishlatilib bo'lingan taqdirda bank resurslarni shakllantirish uchun sekyuritizatsiya operatsiyasiga murojat qilishi zarur. Bunda u yuqorida keltirilgan summadagi ipoteka kreditini ta'minot sifatida oladi va bunga mos ravishda, ya'ni 1 mlrd.

so'mlik qimmatli qog'ozlarni (masalan, aktsiya) muomalaga chiqaradi. Bundan kelgan, ya'ni yig'ilgan mablag'larni o'z aktiv operatsiyalarini davom ettirishda foydalanishi mumkin. Demak, Sekyuritizatsiyalash mexanizmini quyidagicha tasvirlashimiz mumkin: moliyaviy aktivlar boshqa mol-mulkdan ajratilgan holda korxonatashkilotlar balansidan chiqarilib, "maxsus maqsadli kompaniya/shaxs" (Special Purpose Vehicle)ga o'tkazilgandan keyin esa Pul bozori yoki Kapital bozorida qayta moliyalashtiriladigan mexanizm haqida gap ketmoqda. Qayta moliyalashtirish aktivlar bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar (Asset-Backed Securities)ni chiqarish yohud sindikatlashgan kreditlar (Asset-backed Loan)ni qabul qilish orqali amalga oshiriladi va bu aniq bir sharoitlarda quyidagi maqsadlarga erishish imkonini beradi:

- 1) o'z kapitalining daromadlilikini oshirishga;
- 2) moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalashga;
- 3) jalb qilinayotgan moliyalashtirishning qiymatini pasaytirishga (sekyuritizatsiyalangan qimmatli qog'ozlarning kredit reytingi emitent reytingidan balanadroq bo'lishi mumkinligi hisobiga);

- 4) uzoqroq vaqt moboyniga moliyalashtirishni jalb qilishga (oddiy kreditlash bilan taqqoslaganda);

- 5) o'z kapitali yyetarligiga qo'yilgan talabga rioya qilishga;

- 6) kredit riskini keng investorlar doirasi, ya'ni qimmatli qog'ozlar egalariga o'tkazish yo'li bilan kredit(lizing) portfeli risk darajasini pasaytirishga va boshqalar.

Tijorat banklari resurslari tarkibida kapitali kamroq ulushga ega bo'lsada, uning bank faoliyati uchun ahamiyati juda kattadir. Bank kapitalining ushbu ahamiyatidan kelib chiqib unga qisqacha to'xtalish maqsadga muvofiqdir.

«Kapital» termini (lotincha capitalis – bosh, asosiy) asosiy mol-mulk ma'nosini anglatadi. Bank kapitali o'z ichiga ustav kapital, qo'shilgan kapital, rezerv kapitali hamda taqsimlanmagan foydani oladi. Bank kapitali bankning o'z mablag'lari tushunchasi bilan tenglashtiriladi.

Bank kapitaliga berilgan iqtisodiy ta'riflarda uning iqtisodiy mohiyatini ochib beruvchi u yoki bu jihatlari ifodalangan.

Xorijlik iqtisodchi Kris Barltropning bank kapitalini «qimmatli» manba sifatida e'tirof etadi. Kapitalning «qimmatlilik» shundan iboratki, bank o'z kapitalini shakllantirish va uning miqdorini oshirib borish maqsadida oddiy aktsiyalarni chiqarish, ularni moliyaviy bozorlarda joylashtirish va ushbu jarayon bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlarni amalga oshiradi. Ushbu jarayon tijorat banki xarajatlarining oshishiga va foydasining kamayishiga olib keladi.

Tijorat banklari xususiy kapitalning quyidagi funktsiyalari mavjud:

1. Himoya funktsiyasi. Bu – xususiy kapitalning asosiy funktsiyasi va umumiy xususiyati hisoblanadi. Himoya funktsiyasi zarar ko'rish xavfi tug'ilganda aktiv rezervlar shakllantirish yo'li orqali bankning to'lov qobiliyatini saqlab qolish imkoniyatini beradi. Garchi bunday xarajatlarni qoplash uchun maxsus rezervlar mavjud bo'lsada, katta salbiy hodisalar yuz berganda rezervlar etmay qolishi va aynan shu paytlarda aktsionerlik kapitalining ma'lum bir qismi ishlatilishi mumkin. Bunday holatlarda faqat obligatsiyalarni sotishdan tushgan tushumlar evaziga bankning joriy xarajatlarini qoplash

mumkin emas, chunki obligatsiyalarning o'zi qarzdorlik guvohnomasidir. Albatta, bankrotlik yuz berganda yoki bank faoliyati to'xtatilganda, barcha mol-mulki auktsionda sotiladigan holati mustasno. Bank kapitalining boshqa korxonalar kapitalidan farqi shundan iboratki, bank o'z joriy faoliyatining zarar va xarajatlarini qoplashda aksionerlik kapitalidan foydalanmaguncha, u to'lovga qobiliyatli hisoblanadi.

2. Operativlik funktsiyasi. Tijorat banki faoliyatini boshlagan dastlabki davrlarda turli xil xarajatlar uchun pul mablag'lari zarur bo'ladi. Aynan shu paytda xarajatlarni to'lov vositasi sifatida xususiy kapital chiqadi. Kapitalining bu funktsiyasi bank faoliyatini tashkil qilishning barcha bosqichlarida banklarning tashkilot sifatidagi muhim ma'lumot manbasi bo'lib hisoblanadi.

3. Tartibga soluvchi funktsiyasi. Bank kapitalining bu funktsiyasi bankni jamoa sifatida o'z manfaatlaridan kelib chiqqan holda qonunchikka zid bo'lmagan tarzda bank faoliyatini boshqarish va tartibga solishni nazarda tutadi. Bank kapitalini tartibga soluvchi funktsiyasi bankning ssuda va investitsion operatsiyalarini chegaralashni nazarda tutadi.

Bank kapitali quyidagi uchta xususiyatga ega bo'lishi lozim:

1) U uzoq muddatli bo'lishi zarur (doimiy). Tijorat banklarining kapitali uzoq muddatli bo'lishi zarur deganda, asosiy e'tibor kapital egasining ushbu mablag'ni istalgan paytda talab qilish imkoniyatining chegaralanganligi nazarda tutilmoqda. Agar bank aksiyadori istalgan paytda bank kapitalini shakllantirish uchun yo'naltirilgan mablag'ni to'liq yoki qisman qaytarib olsa, bank iqtisodiy jihatdan tang ahvolga tushib qolishi tabiiy.

O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 25 aprelda qabul qilingan "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunida "Bank muassislari bank aksiyadorlari tarkibidan u ro'yxatga olingan kundan boshlab bir yil mobaynida chiqib ketish huquqiga ega emaslar", deya qayd etilgan. Demak, tijorat banklari ustav kapitaliga qo'yilgan mablag'larni bir yil davomida erkin ishlatish huquqiga ega.

2) Bank kapitali majburiy to'lovlarga tobe bo'lmasligi kerak. Tijorat banklari kapitalining majburiy to'lovlardan ozodligi bankning barqaror faoliyat yuritishiga keng imkoniyat yaratadi. Aksincha, bank kapitali soliq, penya va boshqa to'lovlar, shuningdek, bankning majburiyatlari bo'yicha tobe bo'lsa, uning iqtisodiy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va kapital doimo iqtisodiy jihatdan xavf ostida bo'ladi. Mazkur holat banklarga o'z nomidan moliya bozorlarida operatsiyalarni amalga oshirishda, omonatchilar va investorlarni bankka jalb qilishda hamda aholining ishonchini ta'minlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

3) Bank kapitali omonatchilar va kreditorlarning huquqiy manfaatidan mustaqil bo'lishi lozim.

Tijorat banklari moliyaviy vositachi sifatida omonatchilar va kreditorlardan juda katta miqdorda mablag'larni jalb etadi. Bank kapitali jalb qilingan mablag'larni qaytarish bilan bog'liq bo'lgan holatlar bo'yicha omonatchilar va kreditorlarning manfaatiga bevosita bog'liq bo'lmasligi zarur. Ya'ni omonatchilar va kreditorlarning bank kapitaliga nisbatan hech qanday qonuniy yoki bilvosita da'volari mavjud bo'lmasligi zarur.

Ma'lumki, bank kapitalining eng asosiy funktsiyalaridan biri – bu himoya funktsiyasi. Bazel qo'mitasi talablarining asosiy maqsadi ham tijorat banklarini turli risklardan himoya qilishga qaratilgan edi. Keyingi yillarda jahondagi ko'pchilik banklar

omonatchilarni ko'paytirish hamda bank faoliyati bilan bog'liq bo'lgan risk darajasini kamaytirish maqsadida bankka qo'shimcha kapital jalb qilishga katta e'tibor berishmoqda. Lekin iqtisodchi olimlarning fikricha, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining sabablaridan biri muammoning Qo'mita talablarini to'lig'icha hayotga tadbiiq qilinishidan oldinroq vujudga kelishidir. Ya'ni Bazel talablari deya nom olgan iqtisodiy me'yorlar va risklarni hisoblashda kechikish yoki "nazariyaning amaliyotdan bir qadam ortda qolishi" degan ibora bilan izohlash mumkin.

G'arbda inqirozning ilk ko'rinishlari yuzaga kela boshlagan davrdayoq, mamlakatimizda uni oldini olish chora-tadbirlari ishlab chiqilib hayotga tadbiiq qilindi. Bunday tadbirlardan eng muhimi sifatida banklarning kapitallashuv jarayonini oshirilishini aytish mumkin.

Har qanday bank tizimining barqarorligini, to'lovga qobilligi va ishonchliligini ta'minlashda, bank aktivlarini o'stirishda bank kapitali muhim vosita bo'lib hisoblanadi. Faqatgina yyetarlicha miqdorda barqaror kapitalga ega tijorat banklari aktiv operatsiyalarini erkin amalga oshirishlari, talab etilgan darajada likvidlikni doimo saqlagan holda samarali faoliyat yuritishlari hamda moliya bozorlariga erkin chiqish imkoniyatiga ega bo'lishadi.


Bank tizimining barqarorligini yanada mustahkamlash, banklarning kapitallashuv darajasini, ularning resurs bazasini yanada oshirish orqali bank-kredit tizimining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta'minlash, banklarning iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonlaridagi ishtirokini faollashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Tijorat banklari kapitalining iqtisodiy mazmunini to'liq anglab etish va uning amaliyotdagi ahamiyatini tushunish bank kapitalini samarali boshqarishda muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bugungi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida, aynan, tijorat banklari kapitalini samarali boshqarilishi va bank kapitalining yetarligini ta'minlamay turib mijozlarning bank tizimiga bo'lgan ishonchini qozonish mushkul vazifa ekanligi yana bir bor o'z tasdig'ini topdi.

Bank sarmoyasi Bazel andozadari talablariga ko'ra "Asosiy"(I darajali) va "qo'shimcha" (II darajali) sarmoyadan tashkil topadi. 1988 yilda Xalqaro Bazel qo'mitasi tomonidan bank kapitali yetarligigiga doir kelishuv (Bazel I) ishlab chiqildi va unda kapital yetarligigini hisoblash maqsadida regulyativ kapital (umumiy kapital) tushunchasi amaliyotga joriy qilindi. Regulyativ kapital asosiy va qo'shimcha kapitaldan tashkil topib, bank faoliyatini boshqarish va iqtisodiy me'yorlarning hisob-kitobini o'tkazish maqsadida hisoblash yo'li bilan aniqlanadigan bank kapitalidir.

Bunda asosiy kapital jami sarmoyaning kamida 50% ni tashkil etishi kerak. Bazel qo'mitasi bozor iqtisodiyoti sharoitida ko'zda tutilmagan risklarni qoplash maqsadida 1997 yildan III darajali kapitalni amaliyotga joriy qilish haqida qaror qabul qildi. Unga ko'ra, uchinchi darajali kapital qisqa muddatli (ikki yildan ortiq bo'lmasligi lozim) subordinar qarzlardan iborat bo'lib, birinchi darajali kapitalning 250 foizdan oshib ketmasligi lozim. Amaliyotda Respublikamizda fond bozori to'lig'icha o'z quvvatida ishlayotganligi sababli hozirda 3-darajali kapitalni ajratish uncha katta ahamiyat kasb etmaydi.

Bazel andozalariga ko'ra asosiy kapital elementlari quyidagi rasmda keltirilgan.




1-rasm. Bazel andozalariga ko'ra asosiy kapital elementlari²¹

Xorijiy bank amaliyotida O'zbekiston bank amaliyotidan farqli ravishda banklarda audit tekshiruvi o'tkazilib, audit xulosasi tasdiqlangunga qadar joriy yilning foydasi asosiy kapital tarkibiga kiritiladi. Audit xulosasidan keyin esa faqat taqsimlanmagan foyda kiritiladi.

Hozirgi vaqtda dunyoning 100 dan ortiq mamlakatida tijorat banklari kapitalining tarkibini shakllantirishda va uning yetarlilik darajasini belgilashda xalqaro Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan andozalardan asos sifatida foydalanilmoqda.

Xalqaro Bazel andozalari bo'yicha banklarning qo'shimcha kapitali tarkibi asosiy elementlari quyidagi chizmada berilgan.

²¹Ш.З.Абдуллаева, А.А.Омонов. Тижорат банклари капитали ва уни бошқариш. –Т.: «ИQTISOD-MOLIYA», 2006. 122 б.



2-rasm. Bazel andozalari bo'yicha banklarning qo'shimcha kapitali tarkibi asosiy elementlari²²

O'zbekiston tijorat banklarining birinchi darajali kapitali tarkibiga xalqaro Bazel andozalaridan farqli o'laroq, bankning ustav kapitalidagi valyuta qismiga teng bo'lgan valyuta aktivlarini qayta baholanish hisobiga tashkil etilgan devalvatsiya zaxirasi alohida manba sifatida e'tirof etiladi. Shuningdek, tijorat banklarining joriy yildagi sof foydasi ikkinchi darajali kapitali tarkibiga kiritilgan²³.

Maxsus zahiralari bank balansining kontr-aktiv hisob varaqasida aks ettirilib bank xarajatlari hisobidan shakllantiriladi. Bazel qo'mitasining andozalariga ko'ra aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash zahirasini riskka tortilgan jami aktivlar summasining 1,25 foizga teng miqdorini II darajali bank kapitali tarkibiga kiritiladi. Demak, muallifning maxsus zahiralarni 100 foiz bank kapitali tarkibiga kiritmasligi maqsadga muvofiq emas.

Devalvatsiya zahirasi esa, u shubhasiz bankning o'ziga tegishli bo'lgan xorijiy valyutadagi kapital zahira qiymatining o'sishi natijasida yuzaga keladi, ya'ni devalvatsiya zahirasi nobarqaror moliyaviy manba sifatida qarash mumkin.


Ayni vaqtda, milliy valyutasining kursi nobarqaror bo'lgan mamlakatlarda devalvatsiya zahirasi miqdorida keskin tebranish yuz bermoqda. Bu esa devalvatsiya zahirasini nobarqaror moliyalashtirish manbaiga aylantirmoqda. Shu munosabat bilan taklif qilardikki, xorijiy valyutalar bo'yicha devalvatsiya zahirasini asosiy kapital tarkibidan chiqarib qo'shimcha kapital tarkibiga kiritish lozim.

²² Ш.З.Абдуллаева, А.А.Омонов. Тижорат банклари капитали ва уни бошқариш. –Т.: «ИQTISOD-MOLIYA», 2006. 122 б.

²³ А.А.Омонов.Тижорат банкларининг молиявий ресурсларини бошқариш. –Тошкент, «Fan va texnologiya». 2008. Монография, 127- бет.

Tijorat banklarining kapitalini samarali boshqarishga erishish iqtisodiy islohatlar va bozor munosabatlarning samaradorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Tijorat banklari kapitalini boshqarish ko'pqirrali jarayon bo'lib, ushbu jarayonda asosiy e'tibor kapitalning tarkibiga qaratiladi. Quyidagi chizmada bank kapitalini boshqarish ob'ektlaridan kelib chiqib uning bank faoliyatiga ta'sirini ko'rish mumkin.



3-rasm. Bank kapitalini boshqarishning asosiy ob'ektlari²⁴

Rasmda bank kapitalini boshqarishning ob'ektiv asoslari keltirilgan. Tijorat banklarining kapitalini barqaror darajasini ta'minlash bank kapitalini boshqarishning asosiy jihatlaridan biri hisoblanadi.

Bunda asosiy e'tiborni tijorat banklari kapitalini shakllantirishning barqaror manbalariga qaratiladi. Tijorat banklari kapitali tarkibida barqaror manbalar sifatida ularning ustav kapitali va o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasini keltirish mumkin.

Ustav kapitali banklarning barqaror manbai hisoblangani bois tijorat banklari ham jami kapital tarkibida uning ulushini oshirib borishga e'tibor qaratishi zarur.

Tijorat banklari kapitalini boshqarishning yana bir asosiy jihati sifatida ular jami kapitalning yetarliligini ta'minlash masalasi hisoblanadi. Jami kapitalning yetarliligini ta'minlash tijorat banklarining faoliyatini normal ravishda harakat qilishga imkon berish bilan birga, ularning moliyaviy mustahkamligini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Banklar asosiy kapitali yetarliligini ta'minlash bank kapitalini boshqarishning muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Uning asosiy ko'rsatkichlaridan biri bank faoliyatining samaradorlik darajasini past yoki yuqori ekanligi bilan izohlanadi.

Tijorat banklari kapitalidan foydalanish samaradorligiga ta'sir qiluvchi omil guruhiga asosan quyidagi omillar kiradi.

a) Bank kapitalining daromadlik koeffitsientining o'zgarishi.

Bank kapitalining daromadlik darajasini aniqlash bank kapitalidan foydalanish samaradorligini belgilovchi bilvosita ko'rsatkich hisoblanadi. Chunki, birinchidan, bank kapitali hisobidan aynan qaysi aktiv operatsiya moliyalashtirilayotganligini bilishning iloji yo'q; ikkinchidan, bank kapitali bankning jami resurslariga nisbatan kichik salmoqni egallaydi.

Daromadlik koeffitsientini pasayishi kapitaldan samarali foydalanish darajasining

²⁴Ш.З.Абдуллаева, А.А.Омонов. Тижорат банклари капитали ва уни бoшқариш. –Т.: «ИQTISOD-MOLIYA», 2006. 122 б.

pasayayotganligidan dalolat beradi.

b) Bank ustav kapitalining jami kapital hajmidagi salmog'ining o'zgarishi.

Bunda ko'zda tutilmagan xarajatlar va zararlarni ustav kapitalidan qoplash imkoniyati nazarda tutiladi. Bankning ustav kapitali o'ziga xos sug'urta fondi sifatida operatsion faoliyat davomida yuzaga keladigan ko'zda tutilmagan xarajatlar va zararlarni qoplash uchun etishi kerak.²⁵

Kapitalning eng kam darajasiga qo'yiladigan talablar

Banklar ustav kapitalining miqdori:

xususiy banklar uchun – 5 mln. evro ekvivalentidan;

boshqa tijorat banklari uchun – 10 mln. evro ekvivalentidan kam bo'lmashligi kerak.

Bank I darajali kapitalining eng kam miqdori bank ustav kapitalidan kam bo'lmashligi lozim. Bunda bank I darajali kapitalining miqdorini aniqlash uchun bank ustav kapitali eng kam miqdorining milliy valyutadagi ekvivalenti valyuta operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya hisobi, statistik va boshqa hisobotlarni yuritish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan hisobot oyining oxirgi kuniga belgilangan valyutalar kursi bo'yicha aniqlanadi.

Markaziy bank faoliyatida xavfsiz va ishonchli bo'lmagan bank faoliyatini yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin bo'lgan qoniqarsiz moliyaviy holat, foydalilik prognozi, yuqori darajadagi moliyalash tavakkalchiligi va balansdan tashqari moddalar, shuningdek boshqa omillar mavjudligi aniqlangan tijorat banklariga nisbatan regulyativ kapital miqdorini oshirish to'g'risida talablar qo'yishga haqli.

Har bir bankning regulyativ kapitali uning etarligini aniqlash maqsadida mazkur Nizom talablariga muvofiq hisoblab chiqishi kerak.

Kapital tarkibi

Regulyativ kapital I darajali kapital va II darajali kapitaldan tashkil topadi.

Regulyativ kapital tarkibiga xavfsiz bo'lmagan va nosog'lom bank faoliyatini yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin bo'lgan shartlarni (tashkil qilinadigan jamg'armalar/zaxiralardan belgilangan maqsadga muvofiq foydalanish, qarz majburiyatlarini chiqarish shartlari va boshqalar) bilan cheklangan kapital elementlari kiritilishi mumkin emas.

I darajali kapital regulyativ kapitalning 75 foizidan kam bo'lmashligi lozim. II darajali kapital miqdori I darajali kapital miqdorining uchdan bir qismidan oshib ketsa, kapitalning oshib ketgan summasi regulyativ kapital hisob-kitobiga kiritilmaydi.

I darajali kapital asosiy kapital va qo'shimcha kapitalni o'z ichiga oladi.

I darajali asosiy kapital regulyativ kapitalning 60 foizidan kam bo'lmagan qismini tashkil etishi lozim va u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

to'liq to'langan va muomalaga kiritilgan oddiy aksiyalar;

qo'shilgan kapital– joylashtirishda bank aksiyadorlari tomonidan aksiyaning nominal narxidan yuqori to'langan summa;

taqsimlanmagan foyda;

²⁵Ш.З.Абдуллаева, А.А.Омонов. Тижорат банклари капитали ва уни бошқариш. –Т.:«ИQTISOD-MOLIYA»,2006. 122 б.

a) bank balansidagi avvalgi yillarning taqsimlanmagan foydasi hisobidan shakllangan kapital zaxiralar va boshqa zaxiralar (tekinga olingan mulklar va boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi bundan mustasno);

b) to'lanmagan dividend summalari chiqarib tashlangan o'tgan yillardan qolgan taqsimlanmagan foyda;

v) joriy yil zararlari chegirib tashlanadi.

aksiya egalari kamchiligining birlashgan korxonalar aksiyadorlik hisobvaraqlaridagi ulushi. Bu ulush shu'ba korxonalari hisobvaraqlari bank moliyaviy hisobotlarida birlashtirilganda va bank ulushi bunday korxonalar kapitalining 100 foizdan kam qismini tashkil qilganda vujudga keladi;

devalvatsiya zaxirasi.

I darajali qo'shimcha kapital o'z ichiga quyidagilarni oladi:

nokumulyativ muddatsiz imtiyozli aksiyalar. Bu aksiyalar:

a) muayyan sotib olish sanasi va shartlariga ega emas;

b) egasining xohishiga ko'ra sotib olinishi mumkin emas;

v) bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi qaroriga muvofiq ularga doir dividendlar to'lanmasligi mumkin;

g) ular bo'yicha o'tgan davrdagi olinmagan dividendlar to'lanmaydi;

d) chiqarilganiga 10 yildan kam bo'lmagan va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining dastlabki ruxsati bilan sotib olinadi, bunda bank sotib olinadigan summani kapitalning o'sha turi yoki boshqa undan yuqoriroq turiga almashtiradi, yoxud bank kapitalining etarliligi, kapitalning etarliligiga qo'yilgan minimal talabdan yuqori bo'lishi lozim.

birinchi marotaba yozilgan aksiyadorlardan olingan, imtiyozli aksiyalarning nominal qiymatidan yuqori bo'lgan bozor narxidagi summa;

I darajali qo'shimcha kapitalga qo'shilish me'zonlariga javob beruvchi sho'ba korxonalarining ulushi (sho'ba korxonalari tomonidan chiqarilgan va uchinchi shaxslar ixtiyorida bo'lgan kapitalga tenglashtirilgan vositalar).

Dividend stavkalari o'zgarib turuvchi imtiyozli aksiyalar 10 va 11-bandlardagi shartlar bajarilishidan qat'i nazar I darajali kapital hisob-kitobiga kiritilmaydi.

II darajali kapital quyidagilarni o'z ichiga oladi:

joriy yildagi sof foyda, bunda bankning oraliq moliyaviy hisoboti auditorlik tekshiruvidan o'tishi kerak, aks holda bankning joriy yil sof foydasining 50 foizi;

chegirmalardan so'ng tavakkalchilikni hisobga olgan holda hisoblab chiqarilgan aktivlar summasining 1,25 foizi miqdordagi umumiy zaxiralar;

chegirmalardan so'ng I darajali 100 foizli kapitalning uchdan bir qismidan oshmagan miqdorda aralash turdagi majburiyatlar (aksiyadorlik va qarz kapitali tavsiflarini o'z ichiga olgan vositalar). I darajali kapitalga kiritilmagan aralash turdagi majburiyatlar, jumladan imtiyozli aksiyalar, agarda ular quyidagi shartlarga javob bersalar, II darajali kapitalga kiritilishi mumkin:

a) to'liq to'langanligi;

b) garov bilan ta'minlanmaganligi;

v) bank tugatilganda ularga doir talablar bank depozitorlari va bank boshqa kreditorlari talablari qondirilgandan so'ng qondirilishi;

g) aksiya egasining tashabbusi bilan to'lanmasligi;

d) bankning barcha zaxiralarini qoplashi va bankni to'lovga qobiliyatsiz deb e'lon qilish huquqini bermasligi;

e) agar bank oxirgi 3 chorak mobaynida foyda olmagan bo'lsa, emitent xohishiga ko'ra oddiy va imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar (foizlar) to'lash to'g'risidagi qaror qabul qilishda ushbu majburiyatlarga doir dividendlar (foizlar)ni to'lash muddati kechiktirilishi mumkinligi.

subordinar qarz, bu bankning qarz majburiyatlari shakli bo'lib, bank kapitalini aniqlash maqsadida hisob-kitoblardan so'ng I darajali kapitalning uchdan bir qismidan oshmasligi kerak. II darajali kapitalga kiruvchi subordinar qarz to'lash muddati etib kelgunga qadar oxirgi 5 yil davomida yiliga 20 foizga kamayib borishi shart. II darajali kapital tarkibiga kiruvchi subordinar qarz quyidagi talablarga javob berishi lozim:

a) garov ta'minotiga ega bo'lmaslik;

b) bank tugatilayotganda ushbu majburiyatlar bo'yicha talablar depozitorlar va bank boshqa kreditorlari talablari qondirilganidan so'ng amalga oshirilishi;

v) boshlang'ich to'lov muddati 5 yildan ortiq bo'lishi;

g) subordinar qarz Markaziy bankning ruxsati bilan muddatidan avval qaytariladi.

aktivlarning boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasining 45 foizi miqdori.

Kapitaldan chegirmalar kapital etarililigi koeffitsientlari hisoblangunga qadar I darajali kapitaldan chegirilishi lozim.

I darajali kapitaldan chegirmalar o'z ichiga quyidagilarni oladi:

nomoddiy aktivlar;

birlashmagan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar kapitaliga barcha investitsiyalar summasi, shu jumladan, bunday xo'jalik yurituvchi sub'ektlar kapitalini tashkil qiluvchi qarz majburiyatlari;

boshqa banklarning kapitaliga qilingan investitsiyalar.

Bunda I darajali kapitaldan chegirmalar tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18 noyabrdagi "Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-4053-son Farmoniga muvofiq auksion va tanlov savdolarida banklarga realizatsiya qilingan ishlab chiqaruvchi bankrot korxonalar mol-mulki negizida tashkil qilingan korxonalarga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 19 noyabrdagi F-4010-son Farmoyishi bilan tasdiqlangan Iqtisodiy nochor korxonalarini auksion va tanlov savdolarida tijorat banklariga realizatsiya qilish tartibiga muvofiq xo'jalik sudlarining qarorlariga binoan kreditor banklar balansiga tugatish qiymati bo'yicha qabul qilingan ishlab chiqaruvchi bankrot korxonalar mol-mulki negizida tashkil etilgan korxonalarga banklarning investitsiyalari kiritilmaydi.

Tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlar

Balans aktivlari tavakkalchilik darajasi bo'yicha 0, 20, 50, 100 va 150 foizli besh guruhga bo'linadi. Har xil toifali aktivlar nisbiy tavakkalchiligi o'z zimmasiga majburiyatlarni qabul qilgan shaxs turi va garov yoki kafolat tavsifiga bog'liq. Masalan, naqd pul 0 foizli tavakkalchilik darajasiga ega bo'lsa, tijorat kreditlari 100 foizli tavakkalchilik toifasiga kiradi. Bu tijorat kreditlari kapitalning muayyan summasi bilan to'liq ta'minlangan bo'lishi kerakligini anglatadi.

Tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlar summasi har bir aktiv balans summasini unga tegishli tavakkalchilik miqdoriga ko'paytirish va tavakkalchilik bo'yicha aniqlangan aktivlar yig'indisi orqali topiladi.

Tavakkalchilikdan xolis bo'lgan aktivlar (tavakkalchilik koeffitsienti – 0 foiz) quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) bankda va uning filiallarida naqd pul ko'rinishida saqlanayotgan milliy va chet el valyutasi (jumladan, yo'ldagi naqd pullar va bank omborlarida yoki Markaziy bank omborlarida saqlanayotgan oltin quymalar);

b) Markaziy bankda vakillik va zaxira hisobvaraqlaridagi mablag'lar;

v) O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Markaziy bankiga to'g'ridan-to'g'ri talablar va bu emitentlar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar;

g) tavakkalchiligi past bo'lgan mamlakatlar hukumatlari va Markaziy banklari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar, shuningdek, bu mamlakatlar hukumatlari va Markaziy banklariga qo'yiladigan boshqa talablar;

d) aktivlar yoki ularning O'zbekiston Respublikasi va tavakkalchiligi past bo'lgan mamlakatlar milliy valyutalariga denominatsiya qilinib, naqd pul bilan ta'minlangan hamda bankka alohida cheklab qo'yilgan depozit hisob raqamda saqlanayotgan qismi;

e) nomoddiy aktivlar, shu jumladan gudvill, shuningdek 14–bandda keltirilgan birlashmagan korxonalar kapitaliga investitsiyalar.

Minimal tavakkalchilik darajasiga ega aktivlar (tavakkalchilik koeffitsienti – 20 foiz) quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) Tavakkalchiligi past bo'lgan mamlakatlar banklariga talablar, shu jumladan, qarzar va pul bozori vositalari;

b) tavakkalchiligi past bo'lgan mamlakatlarda ro'yxatga olingan banklar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bilan ta'minlangan boshqa barcha aktivlar. Tavakkalchiligi past bo'lgan mamlakatlarining depozitar institutlarining kapitaliga qilingan qimmatli qog'ozlar yuqori tavakkalchilik darajasiga (100 foiz) ega aktivlar qatoriga kiradi;

v) bankning Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro kredit tashkilotlariga nisbatan talablari, shuningdek, bu tashkilotlar tomonidan kafolatlangan bank aktivlari;

g) joriy bozor qiymatida baholangan va Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro kredit tashkilotlari tomonidan muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bilan ta'minlangan aktivlar va ularning qismlari;

d) bankning tavakkalchiligi past bo'lgan mamlakatlarga kirmagan mamlakatlarning milliy valyutalariga denominatsiya qilingan va milliy valyutadagi majburiyatlar bilan qoplangan, ushbu mamlakatlar Markaziy Hukumatlari va Markaziy banklariga nisbatan

talablari. Milliy valyutaga denominatsiya qilinmagan va milliy valyutada moliyalashtirish summasidan oshib ketgan aktivlar qismi tavakkalchilik darajasi yuqori (100 foiz) bo'lgan aktivlar qatoriga kiritiladi;

e) joriy bozor qiymatida baholangan va O'zbekiston Respublikasi Hukumati, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yoki tavakkalchiligi past mamlakatlar bo'lgan Markaziy Hukumatlari tomonidan emissiya qilingan yoki kafolatlangan qimmatli qog'ozlar ko'rinishidagi garov bilan ta'minlangan yoki kafolatlangan aktivlar, ularning qismlari va balansdan tashqari majburiyatlar. Qimmatli qog'ozlar bank tasarrufida bo'lishi va belgilangan tartibga muvofiq unga berilishi lozim. Kafolatlar to'g'ridan-to'g'ri va hech qanday shartlarsiz, ya'ni ularni qo'llashni cheklovchi biron-bir qo'shimcha shartlarni o'zida qamrab olmagan bo'lishi kerak;

yo) o'tkazish jarayonidagi pul hujjatlari (yo'ldagi naqd pullar hisobga kirmaydi).

O'rtacha tavakkalchilik darajasiga ega aktivlar (tavakkalchilik

koeffitsienti – 50 foiz) o'z ichiga jismoniy shaxslarga bir oilaga uy-joy (xonadon) sotib olish yoki qurish uchun berilgan va dastlabki garov (garov predmetiga egalik qilishning imtiyozli huquqi) sifatida sotib olinayotgan yoki qurilayotgan uy-joy (xonadon) bilan ta'minlangan kreditlarni oladi. Bunda kredit miqdorining garov qiymatiga nisbati 60 foizdan oshmasligi kerak. "O'stirmaslik" maqomi berilgan yoki restrukturizatsiya qilingan kreditlar tavakkalchilik darajasi yuqori (100 foiz) bo'lgan aktivlar toifasiga kiradi. Bank dastlabki garov huquqiga ega bo'lmasa, bunday kreditlar tavakkalchiligi yuqori (100 foiz) bo'lgan aktivlar hisoblanadi;

Yuqori tavakkalchilik darajasiga ega aktivlar (tavakkalchilik

koeffitsienti – 100 foiz) quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) bank tomonidan berilgan barcha kreditlar, jumladan, tadbirkorlik tuzilmalari, qishloq xo'jalik, ishlab chiqarish korxonalariga berilgan kreditlar, shuningdek, iste'mol va ipoteka kreditlari, 18–20–bandlarida ko'rsatilgan kreditlar bundan mustasno;

b) bankning asosiy vositalari, inshootlari, jihozlari va shaxsiy ko'chmas mulklari;

v) boshqa barcha aktivlar.

Quyidagi aktivlarga o'ta yuqori (150%) tavakkalchilik darajasi qo'llaniladi:

a) sud jarayonidagi aktivlar va (yoki) belgilangan muddatlarda undirilmagan aktivlarga;

b) bank tomonidan qarzdorning qarzini to'liq yoki qisman undirish uchun bank balansiga olingan ko'chmas mulk;

v) bank tomonidan ikki yildan ko'p bo'lgan muddatda foydalanilmayotgan ko'chmas mulk;

g) qarzdorning moliyaviy ahvoli og'irlashganligi sababli shartlari qayta ko'rib chiqilgan yoki muddati bir marotabadan ortiq uzaytirilgan kreditlar.

Balansdan tashqari vositalar

Tavakkalchilik darajasi hisobga olingan aktivlar summasi hisob-kitob qilinganda barcha balansdan tashqari vositalar hisobga olinadi, ichki bozorda tuzilgan forvard, svop bitimlari, sotib olingan opsiyonlar va shunga o'xshash boshqa (derevativ) vositalar bundan mustasno.

Balansdan tashqari moddalarning tavakkalchilik toifasi quyidagicha aniqlanadi:

balansdan tashqari moddaning to'lanmagan qoldig'i kreditni hisoblash omiliga ko'paytiriladi. Olingan natija balansdan tashqari moddaning balans ekvivalenti bo'lib, unga balans hisob raqamlari qoidalariga muvofiq tegishli tavakkalchilik darajasi belgilanadi. Agar balansdan tashqari vosita yoki uning qismi 4–bobda belgilanganidek kafolatlanisa yoki garov bilan ta'minlansa, tavakkalchilik darajasini belgilash kontrpartnyorga emas, balki kafolat turi va tavsifiga bog'liq bo'ladi. Past tavakkalchilik omili balansdan tashqari vositaning Markaziy bank uchun qulay garov yoki kafolat bilan ta'minlangan yoki kafolatlangan ma'lum bir qismiga qo'llanishi mumkin.

Masalan, bank tijorat buyurtmachi nomidan 10 mln. so'mlik alohida depozit hisobraqami bilan ta'minlangan moliyaviy zaxira akkreditivni chiqardi. Bunday akkreditivlar bo'yicha kreditni hisoblash omili quyida ko'rsatilganidek, 100 foiz miqdorida belgilanadi. Bankda alohida depozit hisobraqami bilan ta'minlangan balans aktivlari 0 foiz miqdorida balans tavakkalchiligi darajasiga ega. Balansning yakuniy tavakkalchilik darajasi 10 million so'mni kreditni hisoblash omiliga 1,00 (100 foiz) va 0 foizli tavakkalchilik toifasiga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

100 foizli kreditni hisoblash omili qo'llanadigan balansdan tashqari moddalarga quyidagilar kiradi:

a) nomidan kafolatlar yoki zaxira akkreditivi berilgan bank mijozi bitim va boshqa majburiyatlarga muvofiq holda uchinchi tomon majburiyatlarni qoplashga layoqatsiz bo'lsa, bankning uchinchi tomonga to'lovlar to'g'risidagi yuridik jihatdan chaqirib olinmaydigan majburiyatlarini o'zida aks etgan bevosita kredit o'rnini bosuvchilar, jumladan, umumiy kafolatlar, zaxira akkreditivlari va boshqa shunga o'xshash bitimlar;

b) qayta sotib olish haqidagi kelishuv yoki belgilangan shartlarda aktivlarni bankka qaytarish haqidagi kelishuvga muvofiq sotilgan aktivlar;

v) aktivlarni kelajakda ma'lum bir muddatga sotib olish majburiyati.

50 foizli kreditni hisoblash omili qo'llanadigan balansdan tashqari moddalar quyidagilardan iborat:

a) bitim kafolatlari yoki muayyan bitimga nisbatan akkreditivlar singari bitimlar bilan bog'liq majburiyatlar. Bu majburiyatlar, agar nomidan majburiyatlar chiqarilgan bank mijozi nomoliyaviy tijorat majburiyatlarini amalga oshiraolmagan bo'lsa, bankning uchinchi shaxsga kompensatsiya to'lash bo'yicha chaqirib olinmaydigan majburiyatlari hisoblanadi. Masalan, mol etkazib beruvchi yoki subpudratchi sifatida ma'lum bir funktsiya bajarilishini kafolatlovchi akkreditiv;

b) boshlang'ich to'lov muddati bir yildan ortiq bo'lgan kredit liniyasi yoki shunga o'xshash kelishuv singari kredit berishga doir majburiyatlarning bajarilmagan qismi.

20 foizli kreditni hisoblash omili qo'llaniladigan balansdan tashqari moddalar quyidagilardan iborat:

a) tovarlarni etkazib berish bilan ta'minlangan hujjatli akkreditiv singari savdo bilan bog'liq majburiyatlar. Ular qisqa muddatli yoki o'zini–o'zi tugatuvchi bo'lishi kerak;

b) boshlang'ich to'lov muddati bir yil va undan kam bo'lgan kredit liniyasi yoki shunga o'xshash kelishuv singari kredit berishga doir majburiyatlarning bajarilmagan qismi.

Derevativ (hosilaviy) vositalar

Bank tomonidan forvard kelishuvlari, svoplar, opsiyonlar va shunga o'xshash hosilaviy shartnomalar amalga oshirilganda, u bitimlar to'liq nominal qiymatida kredit tavakkalchiligiga uchramaydi. Agar shartnoma majburiyatlari kontragentlar tomonidan bajarilmagan bo'lsa, bank uchun naqd pul mablag'lari oqimini almashtirishning potensial qiymati tavakkalchilik hisoblanadi.

Ichki bozorlar Bazel kelishuvi talablariga muvofiq bozor asosida bitimlar qiymatini belgilash uchun etarli darajada rivojlanmasa va banklar bunday operatsiyalarni o'tkazishga tayyorligini ko'rsata olmasa, banklar ichki va tashqi bozorlarda aksiyadorlik kapitali, oltindan tashqari boshqa qimmatbaho metallar va boshqa tovarlarga asoslangan forvard va svop kelishuvlari, opsiyonlar va boshqa shunga o'xshash hosilaviy bitimlar tuzishga haqli emas. Hosilaviy vositalarni o'z ichiga oluvchi operatsiyalarni amalga oshirish uchun ruxsatnoma Markaziy bank tomonidan beriladi.

Hozirgi kunda foiz stavkasi va valyuta bilan bog'liq barcha shartnomalar uchun banklar "dastlabki tavakkalchilikka moyillik usuli" (DTMU)ni qo'llashlari mumkin. Bu usulga muvofiq qo'shimcha ravishda kapital bilan ta'minlash miqdori shartnoma turi, uni to'lash sanasi va nominal qiymatidan kelib chiqqan holda qayta hisoblash omili yordamida aniqlanadi.

Bu usul asosiy omili to'lash muddati, foiz stavkalari hamda narxlar tavsifi va ularning o'zgaruvchanligi bo'lgan bitim narxlarini tashkil etishda bozor qonuniyatlari asosida yondoshishni tan olmaydi. Bozor asosida yondoshish shartnomani aniqroq baholash imkonini beradi. Biroq, DTMU usuli barcha banklar tomonidan bozor usulidan foydalanish uchun sharoitlar yaratilguncha qo'llanishi shart.

Hosilaviy vositaning balans ekvivalenti hisoblash omilini har bir vositaning asosiy nominal qiymatiga ko'paytirish orqali quyidagi jadvalga asosan aniqlanadi.

To'lov muddatlari	Hosilaviy vositalar	
SHartnomadagi foiz stavkasi asoslangan	SHartnoma va oltin almashuv kurslariga asoslangan	
Bir yilgacha	0,5%	2,0%
Bir yildan ikki yilgacha	1,0%	5,0% (masalan 2%+3%)
Qo'shimcha har bir yil uchun	1,0%	3,0%

Hisoblash omili miqdori vosita tavsifi va barcha vositalar bo'yicha qolgan qoplash muddatiga bog'liq, boshlang'ich qoplash muddati qo'llaniladigan valyutaviy shartnomalar va oltin bundan mustasno. YUqoridagi usul bo'yicha hisoblangan ekvivalentlarga qarzdor turi, kafolat tabiati va ta'minotiga qarab balans vositalari singari tavakkalchilik qo'llaniladi.

Kredit va lizingga doir yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash uchun tashkil etilgan maxsus zaxiralar tavakkalchilikka tortilgan aktivlar umumiy summasidan chegiriladi.

Kapitalning monandligiga qo'yiladigan talablar

Tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasi (TAUS) chegirmalarajratilgan holda tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi balans va balansdantashqari aktivlar summasi sifatida aniqlanadi.

2015 yil 1 yanvardan boshlab tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasi (TAUS) quyidagitarzdahisoblanadi:

TAUS =
CHegirmalarajratilgan holda tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi balans va balansdantashqari aktivlar summasi + Operatsion tavakkalchiliklar summasi (OT) + Bozortavakkalchiliklar summasi (BT);

OT = 10 X (Bankning oxirgi uch yildagi yalpi daromadining o'rtacha summasi X 15%);

YAlpi daromad = (foizli daromadlar – foizli xarajatlar) + boshqa daromadlar.

Agar yalpi daromad yil yakunida nolga teng yoki salbiy ko'rinishda bo'lganda, o'rtacha ko'rsatkichni hisoblashda u maxrajdan va suratdan chiqarib tashlanishi lozim.

Agar yalpi daromadning ikki yil va undan ortiq davrda salbiy ko'rinishi natijasida, bank tomonidan operatsion tavakkalchilikni qoplash uchun hisoblangan kapital ko'rsatkichlari haqqoniy bo'lmagan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ushbu bankka nisbatan choralar qo'llashni ko'rib chiqishi lozim.

BT = 10 X (Ochiq valyuta pozitsiyalarining jami miqdori X 10%);

Kapitalning etarliligini baholash maqsadida ochiq valyuta pozitsiyalarini umumiy summasini hisoblashda banklar barcha xorijiy valyutalarning umumiy uzun yoki qisqa ko'rsatkichlaridan eng balandini olishlari lozim.

Regulyativ kapitalning tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasiga nisbati 10 foizdan kam bo'lmasligi kerak. Regulyativ kapitalning etarlilik koeffitsienti K1 quyidagi tarzda hisoblanadi:

$K1 = RK / TAUS$.

2016 yil 1 yanvardan boshlab K1 ning eng kichik darajasi 0,115 (11,5 foiz) miqdorida belgilanadi.

2019 yil 1 yanvardan boshlab banklar tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning 3,0 foizi miqdoridagi kapitalni konservatsiya qilish buferini hisobga olgan holda K1 ning eng kichik darajasini 0,145 (14,5 foiz) miqdorida ta'minlashlari shart. SHuningdek, 2017 yilning yanvaridan ushbu ko'rsatkich 0,125 (12,5 foiz); 2018 yilning 1 yanvaridan ushbu ko'rsatkich 0,135 (13,5 foiz) tashkil etadi.

Kapitalni konservatsiya buferi tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning 3,0 foizi miqdoridagi qo'shimcha zaxiradan iborat. Bunday zaxiradan maqsad banklar tomonidan moliyaviy va iqtisodiy qiyinchilik davrlarida zararlarni amortizatsiya qilish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan kapital zaxirasining ta'minlanishini kafolatlash hisoblanadi.

I darajali kapitalning etarlilik koeffitsienti K2 = I darajali kapital/TAUS sifatida aniqlanadi. K2 ning eng kichik darajasi 0,075 (7.5 foiz)ga teng.

Kapitalni konservatsiya buferi tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning 3,0 foizi sifatli I darajali kapital bo'lishini hisobga olgan holda va Bazel 3 me'yorlariga ko'ra K2 koeffitsientini yaxshilash maqsadida K2 2016 yilning

1 yanvaridan 0,085 (8,5 foiz); 2017 yilning 1 yanvaridan 0,095 (9,5 foiz); 2018 yilning 1 yanvaridan 0,105 (10,5 foiz) va 2019 yilning 1 yanvaridan 0,110 (11 foiz) miqdorida bo'lishi lozim.

Kapitalning etarlilik darajasi talablari bilan bir qatorda banklar I darajali kapitalni nomoddiy aktivlarni chegirib tashlangan va mazkur Nizomning

6– va 7– boblardagi aktivlarni qo'shilgan holdagi umumiy aktivlar summasiga nisbati sifatida aniqlanadigan leveraj koeffitsientiga rioya etishlari kerak:

$K3 = \text{I darajali kapital} / (\text{Umumiy aktivlar} + \text{mazkur Nizomning 6– va 7– boblardagi aktivlar} - \text{Nomoddiy aktivlar})$. Leveraj koeffitsientining eng kichik darajasi 0,06 (6 foiz)ga teng.

Leveraj koeffitsientini hisoblashda balansdagi aktivlarda aks etishi ehtimoli bo'lgan bank balansining "Ko'zda tutilmagan holatlar" hisobvaraqlaridagi summalar ham hisobga olinadi. Bularga kapitalni etarliligini hisoblashda qo'llaniladigan aktivlar kiradi.

Balansdan tashqari aktivlar leverajning asosiy manbasi hisoblanadi. Banklar leveraj koeffitsientini hisoblashda yuqoridagi balansdan tashqari aktivlarni hisobga olishlari lozim, bunda quyidagi ikki holatni chegirgan holda, kreditni standart konvertatsiyalash omilini (100%) qo'llash lozim.

Derevativ operatsiyalar kapitalni etarliligini hisoblashda foydalaniladigan "tavakkalchilikka dastlabki moyillik"ka muvofiq o'tkaziladi.

Bank har doim o'zi tomonidan so'zsiz inkor qiladigan barcha majburiyatlar uchun 10 foizlik kredit konvertatsiya omilini qo'llashi lozim.

Markaziy bank banklardan ularning faoliyatiga xos tavakkalchilik, iqtisodiy shart–sharoit va moliyaviy ahvolidan kelib chiqib, kapital monandligining yanada yuqori koeffitsienti ta'minlanishini talab qilishi mumkin. Bunday tavakkalchiliklar muammoli kreditlarning katta hajmi, sof zararlar, aktivlarning yuqori darajada o'sishi, foiz stavkalari bo'yicha yuqori darajali tavakkalchilikning yuzaga kelishi yoki tavakkalchilikka asosalangan faoliyatga jalb qilinish kabilarni o'z ichiga oladi, biroq ular bilan cheklanib qolmaydi.

Banklar 2015 – 2018 yillarda soliqlar to'langandan so'ng qoladigan sof foydadan ajratmalar ajratish orqali quyida keltirilgan ko'rsatkichlardan kam bo'lmagan miqdorda kapitalni ko'paytirish bo'yicha barcha choralarni ko'rishlari lozim.

Kapitalga bo'lgan minimal talablar (%)	Regulyativ kapital	I darajali kapital	I darajali asosiy kapital
Yillar			
01.01.2015	10	7,5	6
01.01.2016	11,5	8,5	7
01.01.2017	12,5	9,5	7,5

01.01.2018	13,5	10,5	8,5
01.01.2019	14,5	11	9,5

Bank aksiyadorlariga dividendlar hisobot yili yakunlar va oraliq deident to‘lanayotgan davr uchun moliyaviy hisobotning ishonchliligi haqida auditorlik xulosasi mavjud bo‘lgan taqdirda hamda kapitalni oshirishga ajratmalar amalga oshirilgandan so‘ng to‘lanadi.

Dividendlar ehtimoliy zararlarni qoplash zaxirasi shakllantirilgandan hamda Markaziy bank talablariga muvofiq tuzatishlar amalga oshirilgandan so‘ng to‘lanishi mumkin.

Banklar quyidagi hollarda dividend to‘lash (e‘lon qilish) to‘g‘risida qaror qabul qilish huquqiga ega emas:

a) butun ustav kapitalini to‘liq shakllantirmagan holda (qo‘shimcha emissiya qilish yo‘li bilan uni ko‘paytirish bundan mustasno);

b) dividendlar to‘lash paytida bank iqtisodiy nochorlik (bankrotlik) alomatlariga ega bo‘lsa yoki ko‘rsatilgan alomatlar bankda dividendlar to‘lash natijasida paydo bo‘lsa;

v) bank sof aktivlari qiymati uning ustav va zaxira kapitali summasidan kam bo‘lsa;

g) Markaziy bank tomonidan belgilangan iqtisodiy normativlarni buzish, shuningdek agar dividendlar to‘lash natijasida iqtisodiy normativlar buzilib, buning oqibatida omonatchilar va kreditorlar manfaatlariga jiddiy xavf tug‘ilishi mumkin bo‘lsa;

d) bankka nisbatan Markaziy bankning dividendlar to‘lashni to‘xtatish to‘g‘risida talabi mavjud bo‘lsa.

Bank Kengashi har yili bankning kredit va investitsiya siyosatining asosiy yo‘nalishlarini ishlab chiqish va tasdiqlash chog‘ida foydadan kapitalni oshirishga yo‘naltiriladigan ajratmalar miqdorini e‘tiborga oladi.

Mazkur Nizomning 39–bandiga muvofiq kapitalni oshirishga ajratilgan mablag‘lar 30903–“Umumiy zaxira fondi” balans hisobvarag‘ida hisobga olinadi.

Mazkur Nizomning talablari banklar tomonidan buzilgan taqdirda Markaziy bank “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 53–moddasida nazarda tutilgan chora–tadbirlar va jazo choralarini qo‘llashga haqli.

Kapitali mazkur Nizom talablariga muvofiq bo‘lmagan banklar quyidagilarni o‘z ichiga oluvchi kapitalga qo‘yiladigan talablarning bajarilishini ta‘minlash bo‘yicha chora–tadbirlar rejasini ishlab chiqishlari kerak:

a) bank kapitalini etarlilik darajasigacha ko‘tarish uchun zarur bo‘lgan strategiya va hatti–harakatlar;

b) rejaning amal qilish davri mobaynida belgilanadigan kapitalning cheklangan miqdorlari;

v) bankning faoliyatiga belgilangan cheklovlar ta‘siri ostida reja bilan qamrab olinadigan davr uchun tadbirlar rejasi;

g) Markaziy bank talablariga muvofiq boshqa axborot.

Muddatlari ko‘rsatilgan reja kapitalning etarliliqiga qo‘yiladigan talablarda nomuvofiqlik yuzaga kelgan va uni tijorat bankning moliyaviy hisobotida aks ettirilgan

paytdan boshlab 30 kun ichida Markaziy bankka ko'rib chiqish uchun taqdim etilishi kerak.

Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini belgilovchi asosiy ko'rsatkich bank kapitalining yetarliligi va uni barqaror manbalar hisobidan shakllantirilganligidir.

Tijorat banklari kapitalining yetarliligi deganda, odatda, bankning to'lovga qobilligi va likvidligini ta'minlash imkonini beradigan kapitalning zaruriy minimal darajasi tushuniladi.

Bugungi kunda tijorat banklari bajarayotgan barcha operatsiyalar bevosita yoki bilvosita bank kapitalining yetarliligi va uning sifatiga bog'liq bo'lib, har qanday tijorat bankining to'lovga qobilligini va risklardan holiligini baholashda bank kapitalining yetarliligi asosiy omil hisoblanadi. Tijorat banklarining yetarli miqdorda bank kapitaliga ega bo'lishi, ularning to'lovga qobilligi va likvidligini ta'minlash, shuningdek, faoliyati davomida duch keladigan risklardan zarar ko'rmay chiqib ketish imkoniyatini beradi.

Hozirgi davrda dunyoning 100 dan ortiq mamlakatlarida tijorat banklari kapitalining tarkibini shakllantirishda va uning yetarlilik darajasini belgilashda xalqaro Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan standartlardan asos sifatida foydalanilmoqda.

Bazel qo'mitasi faoliyatining asosiy yo'nalishi bank tizimi uchun o'z kapitaliga sifat va miqdor jihatdan yetarli talablarni o'rnatish yo'li bilan mustahkam faoliyatni ta'minlashdan iboratdir. Bu o'rinda asosiy hujjat bo'lib, 1988 yilda Markaziy bank vakillari tomonidan ishlab chiqilgan va 1993 yilda amaliyotga joriy qilingan kapital va risk bo'yicha Bazel-1 kelishuvi hisoblanib, unda kapital yetarliligi me'yorini hisoblash uslubi keltirilgan.

Kapital yetarliligini aniqlash bo'yicha ishlab chiqilgan mazkur uslub kapital summasi bilan bank aktiv operatsiyalarining riskliligi o'rtasida o'rnatilgan bog'liqlikka asoslanadi. Ushbu bog'liqlik o'z kapitalini riskka tortilgan aktivlarning jami miqdoriga yoki potentsial kreditlar, investitsiyalar hamda boshqa qo'yilmalar bo'yicha yuqotishlarning jami miqdori nisbati bilan aniqlanadi.

Ushbu standartda kapital sifat jihatidan ikkita yirik qismga ajratilgan va ularning har biriga nisbatan yetarlilik darajasi aniqlangan. Bazel standarti bo'yicha tijorat banklari kapitalining yetarliligi aniqlanayotganda ularning aktivlari risk darajasiga ko'ra o'zaro farqlanadi. Shuningdek, ushbu standart tijorat banklarining balansdan tashkari aktivlarining risk darajasini xam xisobga olgan xolda kapital yetarliligini ta'minlashni nazarda tutadi.

Tijorat banklari faoliyatini nazorat kilish buyicha Xalkaro Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan standart va uning takomillashtirilgan varianti bo'lgan Bazel-II kelishuvida tijorat banklari kapitali tarkibini shakllantirishga bevosita ta'sir qiluvchi talablar mavjud.

Xalkaro Bazel standarti bo'yicha banklarning asosiy kapitali barkaror moliyalashtirish manbalaridan tashkil topishi lozim.

Bazel-II talablarini joriy etish bo'yicha Markaziy bank asosiy rol o'ynaydi. Yangi talablar Markaziy bank tomonidan belgilangan me'yoriy hujjatlarda, risk - menejment usullarida va texnologiyalarda ham aks ettirilishi lozim.

2010 yilda bank sektori barqarorligini yanada kuchaytirish maqsadida Bazel III tavsiyalari ishlab chiqildi.

Bazel III tizimi, avvalgi tizimlardan farqli o'laroq, kutilayotgan ehtimoliy yo'qotishlar uchun rezervlar shakllantirishni, shu asosda, banklarda barqarorlashtirish jamg'armasini tashkil etishni, shuningdek, kapitalning yetarlilik va likvidlik darajasi mezonlarini kuchaytirishni ko'zda tutadi.

2010 yil sentyabr oyida Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi bank kapitali va likvidligining yangi standartlari to'liq ishlab chiqilganligini e'lon qildi hamda noyabr oyida ushbu yangi standartlar katta yigirmalik davlatlari rahbarlarining Seul sammitida tasdiqlandi. Bazel III deya nomlanayotgan ushbu yangi standartlar banklar kapitali yetarliliga minimal talablarning tobora va bosqichma-bosqich kuchaytirishni nazarda tutadi. Ushbu yangi standartlarga katta yigirmalik davlatlarida 2013 yildan boshlab o'tilishi hamda 2019 yilga kelib ushbu davlatlarda banklar o'z kapitallarini Bazel III talablariga to'liq moslashtirishlari kutilmoqda.

Bazel III talablari o'zi nimalardan iborat, degan savol yuzaga kelishi aniq. Ushbu savolga batafsilrok to'xtalib o'tsak.

Birinchidan, yangi talablarga ko'ra, 1-darajali kapitalning yetarlilik darajasi 6 foizni (shu va kapitalga oid boshqa ko'rsatkichlar tavakkalchilikka tortilgan aktivlarga nisbatan hisoblanadi), shu jumladan, to'langan oddiy aksiyalar yoki 1- darajali asosiy kapital ko'rsatkichi (chegirmalardan keyin) 4,5 foiz miqdorda bo'lishi lozim. Bunda 1- darajali asosiy kapital ko'rsatkichi 2013 yilgacha 2 foiz, 2013 yildan 3,5 foiz, 2014 yildan 4 foiz va 2015 yildan 4,5 foiz miqdorda bo'lishi lozimligi belgilangan.

Ikkinchidan, Bazel III da bank kapitaliga oid qator yangi tushunchalar, jumladan «Bufer kapitali» deb umumiy nom olgan ikkita: konservatsion hamda kontrtsiklik bufer kapitali tushunchalari kiritilmoqda.

Konservatsion kapital iqtisodiy, moliyaviy inqirozlar davrida banklar zararlarini qoplash uchun o'ziga yarasha qalqon sifatida xizmat qilishi kutilmoqda.

Kontrtsiklik kapital har bir mamlakat shart-sharoitidan kelib chiqqan holda, 0-2,5 foiz doirasida belgilanadi.

Banklar kontrtsiklik kapitalga 2016 yildan boshlab ega bo'lishlari va uning miqdori 2016 yildan 0,625 foiz, 2017 yildan 1,25 foiz, 2018 yildan 1,875 foiz va 2019 yildan 2,5 foiz bo'lishi talab qilinmoqda. Ushbu talabni 2,5 foizga etkazmagan banklarga dividendlar to'lash, o'z aksiyalarini qaytarib sotib olish hamda bonuslar to'lashga cheklovlar o'rnatiladi.

Yana bir yangi tushuncha — bu tizim uchun muhim banklar kapitaliga qo'shimcha talablaridir. Tizim uchun muhim banklar deganda hajmi, murakkabligi hamda tuzilmaviy o'zaro bog'langanligi sababli ularning tanazzulga uchrashi butun moliya tizimi inqiroziga hamda iqtisodiy faollik falajiga sabab bo'ladigan banklar tushuniladi. Bazel III da bunday banklar kapitaliga nisbatan qo'shimcha talablar ishlab chiqilishi lozimligi to'g'risida umumiy kelishuvga kelingan.

Demak, Bazel III ga ko'ra, banklar regulyativ kapitali ko'rsatkichi birinchi darajali bank kapitali, konservatsion bufer kapitali, kontrtsiklik bufer kapitali hamda tizim uchun muhim banklar kapitaliga qo'shimcha talablar yig'indisidan iborat bo'ladi.

**Bank kapitali tarkibining (Bazel III talablariga ko'ra) yangi ko'rinishi²⁶
(tavakkalchilikka tortilgan aktivlarga nisbatan foizda)**

	Jami to'langan (oddiy) aksiyalar (chegirmalardan keyin)	Birinchi darajali bank kapitali	Jami regulyativ kapital
Minimal talab	4,5	6,0	8,0
Konservatsion bufer kapitali	2,5		
Minimal talab+ Konservatsion bufer kapitali	7,0	8,5	10,5
Kontrtsiklik bufer kapitali	0-2,5		

Tijorat banklarida risk boshqaruvini takomillashtirish lozim. Xalqaro amaliyotda bank menejmentining markaziy bo'g'ini risk boshqaruvi ekanligi allaqachon isbotlangan. Bazel I, Bazel II va Bazel III standartlarining asl mohiyati ham risk va kapital o'rtasidagi bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Bazel III kelishuvining bosh maqsadi – bank ishida risk boshqaruvi sifatini oshirish hisoblanadi.

Bazel III bilan banklar likvidligiga ham ikkita yangi talab kiritilmoqda. Birinchisi — bu 30 kungacha bo'lgan joriy majburiyatlarning likvid aktivlar bilan 100 foiz qoplanishini nazarda tutuvchi talab. Ushbu normativni hisoblashda inobatga olinadigan aktivlar sifatiga bo'lgan talablar kuchaytiriladi. Jumladan, likvid aktivlar sifatida baholanadigan qimmatli qog'ozlar reytingiga yanada yuqori talablar belgilanadi.

Ikkinchi normativ — uzok muddatli likvidlik normatividir. Bankning normal faoliyati doirasida uning bir yilgacha bo'lgan aktivlari barqaror passivlar bilan 100 foizga ta'minlangan bo'lishi shart.

Banklarning kapitallashuv jarayonini mustahkamlashda hukumatning (davlatning) qimmatli qog'ozlaridan foydalanish lozim. Ya'ni, hukumat qimmatli qog'ozlarini bankning imtiyozli aksiyalariga almashtirish yo'li bilan bank tizimi qo'llab-quvvatlash uchun barqaror muhit yaratish imkoni tug'iladi. Bu jarayonni ko'plab rivojlangan davlatlarning inqirozga qarshi kurash tadbirlari doirasida guvohi bo'ldik. Bu tadbirlar banklar kapitallashuv darajasini oshirishga xizmat qiladi. Ma'lumki, inqiroz sharoitida banklar kreditlash faolligini saqlab qolishlari uchun esa qo'shimcha resurslar kerak bo'ladi.

2008 yilda boshlangan jaxon moliyaviy iqtisodiy inkirozi bank sektorining turli iqtisodiy tebranishlarga xar doim tayyor turishlari lozimligini isbotladi. Shuning uchun xam Bazel III talablari buyicha bank faoliyati nazoratida asosiy e'tibor bank kapitalining barkarorligi va uni boshkarish riskiga aloxida e'tibor berilishi lozimligi belgilangan. Turli iqtisodiy inqiroz holatlariga bardosh bera olish imkoniyatlarini oshirish uchun bank kapitalida qo'shimcha maxsus zaxira fondini shakllantirilishi ko'zda tutilgan.

²⁶ Bozor, Pul va Kredit/02(165) 2011,8-6er

Yukoridagi Bazel III talablarini o'z vaqtida va to'liq bajarish uchun avvalambor banklarning barqaror kapital bazasini oshirib borish talab etiladi. Ushbu maqsadga erishishda banklarning kapitallashuv darajasini oshirish, buning uchun esa bank faoliyatining samaradorligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

4-mavzu. Tijorat banklarining passiv operatsiyalari tarkibi va ularning joylashishi

Reja:

- 1. Banklarda depozit siyosati, depozitlarning mazmuni va ularning tarkibi**
- 2. Tijorat banklari depozit bazasining tarkibi va dinamikasi**
- 3. Tijorat banklari depozit bazasini mustahkamlash.**

Tijorat banklari passiv operatsiyalari hajmi, barqarorlik darajasi va shakllanish manbalari ularning moliyaviy va iqtisodiy samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatimizda bozor munosabatalarining chuqurlashuvi va iqtisodiy islohotlarning keng qamrovliligi, shuningdek, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi tijorat banklari passiv operatsiyalari, yoinki ularning depozit siyosatining ahamiyatini oshirmoqda. Tijorat banklari depozit siyosati samaradorligini ta'minlash bevosita ularning moliyaviy jihatdan barqaror resurs bazasini shakllantirish imkoniyatini beradi.

SHu bois, tijorat banklari depozit siyosati ularning asosiy vazifalaridan biri bo'lib, banklarning aktiv operatsiyalari natijasida shakllantirilayotgan daromadlari hajmi ushbu siyosatning samaradorligiga bevosita bog'liq.

“Depozit siyosati” so‘zining iqtisodiy mohiyatidan ko‘rinib turibdiki, “saqlashga topshirilgan” qiymat, buyum yoki boshqa predmetni “boshqarish” zarurligini angalatadi.

“Siyosat” tushunchasi – filosofiya ensiklopedik lug‘atida “Siyosat – ham amaliy munosabatlar ham mafkura sifatida iqtisodiy jarayon harakati bilan umumlashtirilgan va jamiyatning iqtisodiy bazisiga qurilma bo‘lib hisoblanadi. Iqtisodiy qiziqishlar oxir oqibatda siyosiy harakatning sababi sifatida maydonga chiqadi”.

Vebstrning lug‘atida “siyosat” tushunchasi “ketma-ket bog‘langan harakatlarning bajarilish usuli, bu erda tamoyillar uni amalga oshirishda tegishli usullar siyosatini aniqlashning asosi sifatida tushuniladi”.

“Siyosat”ni kelib chiqishini aniqlaydigan jamiyat munosabatlari sohasi siyosat ta'sirining ob'ekti bo'lib hisoblanadi. SHu bilan birga, “siyosat”ni ham biron bir sohadagi faoliyat ham mafkura sifatida tushunish mumkin.

SHunday qilib, “siyosat” ixtiyoriy sohada ma'lum bir uslublar to'plami aniq vazifalarni echishga qaratilgan tadbirlar majmui deb tushunilsa, unda bankning resurs bazasini shakllantirish bo'yicha o'tkazilayotgan operatsiyalar tavsifi bu siyosatni “depozit siyosati” deb atashga imkon beradi.

Demak, bizning fikrimizcha, “depozit siyosati” so‘zini alohida olib qaraydigan bo‘lsak, ushbu so‘z tijorat banklarining muddatli moliyaviy resurslarni boshqarish ma'nosini anglatmaydi. “Depozit siyosati” so‘zini, albatta “tijorat banklari depozit siyosati” tarzida qo‘llansagina, u tijorat banklarida jalb qilingan mablag‘lar doirasida tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqish va boshqarish ma'nosini anglatadi.

Depozitlar banklar tomonidan amalga oshiriladigan depozit siyosatining asosiy o'zagini tashkil etadi. Xorijiy va mahalliy iqtisodiy adabiyotlardan ma'lum bo'lishicha iqtisodchi olimlar bank depozitining iqtisodiy mohiyatiga turlicha yondashadilar.

Rossiyaning iqtisodiyot bilan bog'liq adabiyotlarida depozitlarga bank mijozlarining barcha pul mablag'lari, ya'ni yuridik yoki jismoniy shaxslar nomiga ochilgan xisobvarag'idagi, joriy yoki boshqa hisobraqamlardagi pullar kiritiladi.

Demak iqtisodchi olimlar depozitlarning iqtisodiy mazmuniga yondoshuvlari turlichadir. Xususan, L. S. Padalkina "depozit-bu kredit muassasalardagi barcha muddatsiz quyilmalardir²⁷" deya ta'kidlaydi.

L.S.Padalkinaning depozitni kredit muassasalaridagi muddatsiz quyilmalar degan fikriga qo'shila olmaymiz, chunki muallif depozitni muddatsiz quyilmalar tarzida ta'riflashi natijasida uning muddatli mablag'lar sifatida namoyon bo'lishini inkor etmoqda. SHu bilan birga, qiymat yoki natura ko'rinishida shakllanishi ham e'tibordan chetda qolgan.

Amerikalik iqtisodchi olim E. M. Rode "depozit – bank mijozlarining jamg'armadan tashqari barcha muddatli va muddatsiz quyilmalaridir" degan iqtisodiy talqinni ilgari suradi²⁸. E.M.Rodening depozitga bergan iqtisodiy ta'rifi L.S.Padalkinaning ta'rifiga nisbatan aniqroq bo'lishi bilan birga, muallif bank depozitining aynan qiymat ko'rinishida namoyon bo'lishini e'tiborga olmagan.

Rossiyalik iqtisodchi M. N. Berezina "depozit – bu mijozga uning barcha turdagi pul mablag'larini saqlash uchun ochiladigan hisobvaraqdır" degan yanayam soddaroq, agar ta'bir joiz bo'lsa depozitning iqtisodiy ma'nosiga judayam yaqin bo'lmagan fikrni ilgari suradi.

YUqorida keltirilgan ta'riflar va manbalardan ko'rinib turibdiki, bank amaliyotida qo'llanilayotgan depozitlar va umuman, depozitlar haqida iqtisodiy adabiyotlarda yagona yondoshuv mavjud emas. Xalqaro bank amaliyotida depozitlar deyilganda moliya – kredit yoki bank muassasalariga saqlash uchun berilgan qimmatli qog'ozlar yoki pul mablag'lari tushuniladi²⁹.


Bozor munosabatlari va bank tizimining rivojlanishi bilan bank resurslarining, jumladan, jalb qilinadigan mablag'lar strukturasi o'zgardi. Ularning asosiy turlari bank mijozlar bilan ishlash jarayonida jalb qilgan mablag'lar, ya'ni depozitlar, o'z qarz majburiyatlarini chiqarish yo'li bilan mablag'larni to'plash bo'lib, unga depozit va jamg'arma sertifikatlarini, veksellar, obligatsiyalar kiradi. SHuningdek, jalb qiladigan mablag'larga banklararo kredit vositasida boshqa kredit tashkilotlaridan olinadigan va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan olinadigan ssuda mablag'lari va boshqalar kiradi. Xalqaro bank amaliyotida jalb qilingan resurslar ularni yig'ish usuliga qarab quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- depozitlar;
- nodepozit resurslar.

²⁷ Падалкина Л.С. Современная денежно-кредитная система капитализма. –М.: ВЗФЭИ, 1982. –С.152.

²⁸ Роде Э.М. Банки, биржи, валюты современного капитализма. М.: «Дело ЛТД», 1995. -С. 148.

²⁹ Мицек С.А. Экономика финансовых институтов.–Екатеренбург: Дело,1996. -С.42.



3-rasm. Tijorat banklarning depozit turlari³⁰

Rasmdan ko‘rib turganimizdek, depozitlarning asosiy turlari bu talab qilib olinguncha saqlanadigan, muddatli va jamg‘armali depozitlardir. Bundan tashqari banklarda boshqa depozitlar, masalan, akkreditivlar bo‘yicha depozitlar ochilishi mumkin.

Jalb qilingan mablag‘larni asosiy qismini depozitlar tashkil qiladi. Depozitlarga olimlar tomonidan turlicha ta‘rif berilgan. Masalan, YO. Abdullaev, T. Karaliev, SH. Toshmurodov, S. Abdullaevalarning fikricha, “depozitlar-xo‘jalik sub‘ektlari va hususiy shaxslarning pul mablag‘lari yoki qimmatli qog‘ozlarni talab qilinishi bilanoq, shartnoma asosida kelishilgan muddatda foizlar yoki ustama haq to‘langan yoxud bunday to‘lovlarsiz hammasini qaytarib berish sharti bilan saqlash uchun bankka qo‘yiladigan omonatlaridir. Depozitlar banklarning kredit berish, faktoring operatsiyalarini o‘tkazish, investitsiyalarni amalga oshirishda foydalaniladigan ssuda fondini tashkil etish manbai hisoblanadi.”³¹

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2010 yil 31 dekabrda 42/1-son qarori bilan “O‘zbekiston Respublikasi banklarida depozit operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi” 2205-son bilan tasdiqlangan Yo‘riqnomada ham depozitlarga ta‘rif berilgan bo‘lib, u yuqorida ko‘rsatilgan ta‘rif bilan deyarli o‘xshash. Unga ko‘ra, “depozit – talab qilinishi bilanoq yoki to‘lovni amalga oshiruvchi shaxs bilan to‘lovni oluvchi shaxs yoxud ularning qonuniy vakillari o‘rtasida kelishilgan muddatda foizlar yoki ustama haq to‘langan holda yoxud bunday to‘lovlarsiz qisman yoki hammasini qaytarib berish sharti bilan topshiriladigan pul summasidir.”³² Ushbu ta‘rifda birinchi ta‘rifga nisbatan qo‘shimcha ravishda to‘lovni oluvchi shaxs bilan birgalikda ularning qonuniy vakillari tomonidan pul qo‘yish va olish amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan. SHu bilan birga, qo‘yilgan pul mablag‘larini qisman ham olishlari ko‘rsatilgan.

³⁰Муаллиф томонидан тайёрланди.

³¹Ё. Абдуллаев, Т. Каралиев, Ш. Тошмуродов, С. Абдуллаева Банк иши. Дарслик. -Т.: IQTISOD-MOLIYA 2010 й. 215 б.

³²“Ўзбекистон Республикаси банкларида депозит операцияларини амалга ошириш тартиби тўғрисидаги” 2205-сонли йўриқнома. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки Бoshqарувининг 2010 йил 31 декабрдаги 42/1-сон қарори.

Depozitlarga berilgan ta'riflardan shuni ko'rish mumkinki, depozitdan pul olinayotganda ularga foiz to'lanadi, bu esa depozit qo'yuvchi shaxsga qo'shimcha daromad manbai bo'lib hisoblanadi. Lekin depozitlar faqatgina omonatchiga emas, shu bilan birga bankka hammanfaatlidir. Depozitlar orqali bankning ssuda kapitalishakllanadi, shu asosida bank iqtisodiyotning turli sohalarini qulay shartlarasosida kreditlaydi. Depozit va kredit foizlari orasidagi farq bo'sh pulmablag'larini jalb qilish va ssuda kapitalini joylashtirish borasidagibank marjasi bo'lib hisoblanadi.

Bankning «Oltin qoidasi»ga ko'ra, bank moliyaviy talablarining hajmiva muddati bank majburiyatlari miqdori va muddatiga mos kelishi kerak. Buqoidaga rioya qilib, banklar joriy schetlar bo'yicha qoldiqlarni kreditresursi sifatida ishlata olmaydilar, chunki mijozlar ularni xohlagan vaqtdatalab qilib olishlari mumkin. Vaholanki, mijozlar, odatda, o'zmablag'larining hammasini birdaniga olishmaydi, shuning uchun, bankningnaqd pul rezervi omonatlarga nisbatan shakllanadi.

Bundan tashqari, aksariyat bank operatsiyalari naqd pulsiz ko'rinishda amalga oshiriladi. Kassa zahiralari ko'rinishida bo'lmagan naqd pullar banklikvidligini oshiradi va u boshqa mijozlarga yoki bankka kredit sifatidayo'naltirilishi mumkin. Kassa zahiralardan tashqari tijorat banklaritomonidan depozitlardan kredit resursi sifatida foydalanishda boshqacheklovlar bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidano'rnatiladigan majburiy zaxiralar shaklida ifodalanadi.

Depozit hisobvaraqalari turlicha bo'lishi mumkin va ularningtasniflanishi asosida qo'yilmalar manbai, ularning maqsadliyo'naltirilganligi, daromadlilik darajasi va boshqa shu kabi mezonlar etadi, ammo aksariyat hollarda mezon sifatida pul qo'yuvchi toifasi va qo'yilmanioli shakllari inobatga olinadi.

Pul qo'yuvchilar toifasidan kelib chiqqan holda, depozitlar quyidagilarga bo'linadi:

- yuridik shaxslar (korxonalar va tashkilotlar);
- jismoniy shaxslar;
- yakka tadbirkorlar.

Mablag'larni olish shakliga ko'ra depozitlar quyidagilarga bo'linadi:

- muddatli depozit mablag'lar;
- talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit mablag'lar;
- aholining jamg'arma qo'yilmalari.

O'z navbatida bu guruhlarning har biri turli belgilariga qarab tasniflanadi. Muddatli depozit mablag'lari ularning muddatidan kelib chiqib tasniflanadi;

- 3 oy muddatgacha depozitlar;
- 3 oydan 6 oygacha depozitlar;
- 6 oydan 9 oygacha depozitlar;
- 9 oydan 12 oygacha depozitlar;
- 12 oydan yuqori bo'lgan depozit mablag'lar.

Bank tomonidan jalb qilingan mablag'larning yuqori likvidlik darajasini ushlab turish va ma'lum yuqori daromad olish ehtiyojini belgilab beruvchi mavjud qonun va tartibga soluvchi aktlardan kelib chiqib turli aktivlarga joylashtiriladi. Mablag'larni olish shakliga ko'ra depozitlarga talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit, jamg'arma va muddatli depozitlarni kiritdik. Endi ularning har biriga tavsif beramiz.

Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar – bu bankni oldindan ogohlantirmay mijoz tomonidan xohlagan vaqtda talab qilib olinadigan mablag‘lardir. Ularga hisob-kitob, byudjet hisob–kitoblarini amalga oshirishi yoki mablag‘lardan maqsadli foydalanish bilan bog‘liq hisob- varaqalardagi mablag‘larni, boshqa banklarning vakillik hisobvarag‘idagi qoldiqlarni kiritish mumkin. Talab qilinguncha depozitlar joriy hisob- kitoblar uchun mo‘jallangan. Bu hisobvaraqdagi mablag‘lar harakati naqd pul, pul o‘tkazish, boshqa hisob-kitob hujjatlari bilan rasmiylashtirilishi mumkin. Bu depozit turining asosiy kamchiligi – ular bo‘yicha juda kam miqdorda foizlarning to‘lanishi yoki umuman to‘lanmasligidir.

Talab qilib olguncha bo‘lgan depozitlarga banklarning vakil banklarda ochilgan vakillik hisobvaraqlaridagi mablag‘larini ham kiritish mumkin. Bu hisobvaraqlar ular hisob kitoblarni va to‘lovlarni bir tomonlama tartibda yoki bir birlarining topshiriqlari bo‘yicha amalga oshirish maqsadida ochilgan. Mazkur bankning boshqa bankda ochilgan vakillik hisobvarag‘i «Nostro hisobvarag‘i, mazkur bank boshqa bank uchun ochgan vakillik hisobvarag‘i «Loro» hisobvarag‘i deb yuritiladi va bunday hisobvaraqlarini ochish banklararo imzolangan shartnomaga muvofiq amalga oshiriladi. Bu hisobvaraqlardan to‘lovlar, qoidaga ko‘ra, ulardagi mablag‘lar hajmi chegarasida amalga oshirilishi kerak. Ular bo‘yicha mavjud mablag‘lardan ko‘proq operatsiyalar o‘tkazish zaruriyati tug‘ilganda, vakilga alohida balans hisobvarag‘idan overdraft krediti berilishi mumkin.

Talab qilib olinguncha bo‘lgan depozitlarga kontokorrent hisobvarag‘i mablag‘larini ham kiritish mumkin. Xalqaro bank amaliyotida talab qilib olinguncha yuqoridagi depozitlardan tashqari nau-hisobvaraqlar (uchinchi shaxs foydasiga hisob hujjatlarini yozib berish), bank tomonidan belgilanadigan hisob cheklari ham kiritiladi.

Talab qilib olingungacha saqlanadigan depozitlar quyidagi xususiyatlarga ega:

- depozitning bu turida xohlagan vaqtda, xohlagan summada mablag‘ni qo‘yish yoki olishi mumkin;
- depozit muddati chegaralanmagan;
- kam miqdorda foiz to‘lanadi;
- bu turdagi depozitlar bo‘yicha Markaziy bankka o‘tkaziladigan majburiy rezervlar salmog‘i yuqori va h.k.

Tijorat banklarida jalb qilingan mablag‘lar tarkibida talab qilib olinguncha depozitlar turlicha hajmga ega. Bu odatda, bank resurslarininishakllantirishning eng arzon manbaidir. Mablag‘larning yuqoriharakatchanligi tufayli talab qilib olinguncha hisobvaraqlardagi qoldiq doimiyemas, ba’zida juda o‘zgaruvchan. Hisobvarag‘i egasi istagan paytda mablag‘larniolish ehtimoli bank oborotida yuqori likvid aktivlarning hissasi ko‘proqbo‘lishini talab qiladi. Bu esa kamroq likvidlika ega bo‘lgan, biroq yuqoridaromad keltiruvchi aktivlarning hissasining qisqarishi evaziga yuz beradi. SHu sababli banklar talab qilgungacha hisobvarag‘i egalariga past foiz to‘laydilar yoki umuman to‘lamaydilar. Biroq, talab qilguncha hisobvaraqlardagi mablag‘larning yuqori darajadagi harakatchanligiga qaramasdan, ularning minimal, doimiy qoldig‘ini aniqlash va ulardan barqaror kredit resursi sifatida foydalanish imkoniyatiga banklar ega bo‘lmog‘i lozim.

Muddatli depozitlar – bu banklar tomonidan ma'lum muddatga jalb qilinadigan depozitlardir. Bu turdagi depozitlar qo'yilgan muddatda o'zgarmas bo'lishi lozim va ular joriy to'lovlar uchun ishlatilmaydi. Muddatli qo'yilmalar mablag'larni shartnoma bo'yicha muddat va shartlarda to'liq bank ixtiyoriga berishni anglatadi, bu muddat tugashi bilan muddatli qo'yilma xohlagan paytda egasi tomonidan qaytarib olinishi mumkin. Muddatli qo'yilma bo'yicha to'lanadigan foiz hajmi depozit muddati, summasi va shartnomani pul qo'yuvchi tomonidan bajarilishiga bog'liqdir.

Qo'yilmaning muddati va summasi qanchalik katta bo'lsa, foizi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek amaliyotda asosan 1, 3, 6, 9, 12 oy yoki yanada uzoqroq muddatga qo'yilmalar rasmiylashtiriladi. Bunday aniq chegaralar pul qo'yuvchilarni o'zlarining mablag'larini ratsional tashkil qilish va qo'yilmalar qo'yishga rag'batlantiradi, shuningdek banklarga o'zlarining likvidliklarini boshqarish uchun sharoit yaratadi.

Pul qo'yuvchi tomonidan qo'yilma bo'yicha mablag'larni muddatidan oldin olinganda u shartnomada ko'rsatilgan foizlardan to'liq yoki qisman mahrum bo'lishi mumkin. Odatda bunday hollarda foizlar talab qilgungacha qo'yilmalarga to'lanadigan foizlar hajmigacha pasaytiriladi.

Muddatli depozitlar depozitlarning boshqa turlariga nisbatan banka barqaror resurs bazasini ta'minlaydi. SHu bois tijorat banklari uddatli depozitlar salmog'ini ko'paytirishga harakat qilishlari lozim. Muddatli depozitlar quyidagi xususiyatlarga ega:

- aniq muddatga ega va ular bo'yicha o'zgarmas (depozit siyosatida ko'rsatilgan) foiz to'lanadi;

- joriy hisob-kitoblar uchun foydalanilmaydi;

- mijoz tomonidan muddatidan oldin olinmasligi lozim aks holda foiz to'lash bo'yicha shartnoma shartlari bekor qilinadi va talab qilib olinguncha depozit miqdorida foiz to'lanishi mumkin;

- mablag'lar sekin aylanadi, uzoq muddatli ssudalarga yo'naltiriladi;

- majburiy rezerv normasi nisbatan past bo'lishi mumkin va h.k.

Jamg'arma depozitlari aholi pul jamg'armalarining to'planishi uchun xizmat qiladi. Jamg'arma depozitlarga pul mablag'larini jamg'arish yokisaylash maqsadida shakllantirilgan qo'yilmalar kiradi. Ularning maxsus xususiyatli tomonlari – saqlashning rag'batlantirilishi va yuqoridaromadlilik darajasi, ma'lum davr ichida jamg'arila borishi kabilarhisoblanadi. O'zimizning amaliyotda jamg'arma depozitlari deganda aholi mablag'larini muddatli qo'yilmalar yoki talab qilgungacha hisobvaraqaalarida jamg'arilishi bilan bog'liq har qanday operatsiyalar tushuniladi.

Banklar mablag'larni jalb qilish imkoniyatlari chegaralangan bo'lib, barcha mamlakatlarda bu jarayon Markaziy bank tomonidan tartibga solinib turadi. Jalb qilingan mablag'lar tijorat banklari kredit resurslarining asosiy qismini tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bank kapitali bilan jalb qilingan mablag'lar orasidagi nisbatni bir qator zaruriy me'yorlar yordamida tartibga soladi. Bu quyidagi normativlar kapital etariligi, bir kredit oluvchiga to'g'ri keladigan maksimal risk miqdori, aholidan jalb qilingan depozitlarning maksimal miqdori va boshqalar O'zbekiston Respublikasi

Markaziy banki yo'riqnomasiga muvofiq, aholidan pul omonatlarini jalb qilish miqdori bankning o'z kapitali miqdori bilan chegaralanadi.

Rejali iqtisodiyot davrida banklarda bo'sh turgan mablag'larini jalb qilishdan manfaatdorlik yo'q edi, chunki banklarning aktiv operatsiyalari miqdori jalb qilingan mablag'lar miqдорiga qarab emas, balki kredit qo'yilmalar bo'yicha o'rnatilgan limitga qarab aniqlanar, jalb qilingan mablag'lar bo'yicha rag'batlantirish bilan banklar shug'ullanmas edilar. Aksariyat hollarda yirik loyihalarni amalga oshirish uchun bank ssudalari o'rniga ko'proq byudjet mablag'lari jalb qilinardi. SHu bois muddatli omonatlarni o'rta va uzoq muddatli kredit manbalari sifatida jamg'arishga htiyoj bo'lmagan. Ikki pog'onali bank tizimiga o'tilishi, iqtisodiy mustaqil tijorat banklarining tashkil topishi, banklarning o'z-o'zini moliyalashtirish tamoyiliga o'tishi, passivlar va aktivlar muvofiqligiga erishish muammosi bank faoliyatida dolzarb masalalarga aylandi.


2. Tijorat banklari depozit bazasining tarkibi va dinamikasi


Banklar tomonidan jalb etilayotgan mablag'lar o'z tarkibiga ko'ra turlicha bo'ladi. Mijozlar bilan ishlash jarayonida jalb etilgan mablag'lar va boshqa kredit muassasalaridan qarzga olingan mablag'lar asosiy turdagi jalb etilayotgan mablag'lardir.

Depozit amallari banklarning asosiy vazifalaridan biri xisoblanib, depozit amaliyotisiz tijorat banklari o'zlarining boshqa asosiy vazifalarini bajarishlari mumkin emas. Banklarning bosh maqsadi bo'lgan foyda olishga erishish istiqbollari belgilovchi, ya'ni daromad keltiruvchi aktiv amallarni bajarish bilan bog'liq faoliyatlarida jalb qilingan va jamg'arilgan mablag'lar yoki depozitlar muxim o'rin tutadi.

Agar, aholi bo'sh pul mablag'larini banklarda bexavotir saqlash kafolatlari mavjudligi xamda topshirilgan omonatlar bo'yicha foizli daromad olishdan manfaatdor bo'lsa, banklar esa ushbu jalb qilingan mablag'lar xisobiga mijozlarga kreditlar berib yoki lizing, faktoring, trast, overdraft va overnays kabi jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan xizmatlarni ko'rsatish orqali foizli daromadlar olishadi. SHu yo'l bilan bo'sh pul mablag'larini bank orqali yig'ish va iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirish, natijada pul aylanish tezligini o'stirishi evaziga milliy valyuta qadrsizlanishining jilovlanishiga erishish mumkin. Aynan, mana shu omil ham depozitlarning rivojlanishida asosiy o'rin tutadi.

Quyidagi rasmda mamlakatimiz tijorat banklarida depozitlarning turkumlanishi keltirib o'tilgan bo'lib, unda banklar tomonidan jamg'armalarning yuridik va jismoniy shaxslardan qabul qilinishi hamda jamg'armalar muddati bo'yicha talab qilib olingunga qadar, muddatli va oldindan kelishilgan shart asosida olinishi ko'rsatib berilgan.





4-rasm. Depozitlarning turkumlanishi³³

O'zbekiston Respublikasidagi depozitlarning turlari:

- 1) talab qilib olingunga depozitlar;
- 2) jamg'arma depozitlari;
- 3) muddatli depozitlar;
- 4) jamg'arma (depozitlar) sertifikatini;
- 5) boshqa depozitlar.

Talab qilib olinguncha depozitlar yuridik va jismoniy shaxslarning kundalik maqsadlar uchun xoxlagan vaqtda talab qilib olinguncha xisob varaqlardagi mablag'laridir.

Talab qilib olinguncha depozitlar mijozning talabiga ko'ra shartnomaning oldindan kelishilgan shartlari asosida ushbu mijozning boshqa turdagi depozitlarga o'tkazilishi mumkin.

Talab qilib olinguncha qadar bo'lgan depozitlarning ijobiy tomonlari:

- Mijozlar uchun bunday depozitlar yuqori likvidli mablag'lar xisoblanadi.
- Bunday depozitlarga mablag'lar mijozlarning xo'jalik va boshqa operatsiyalarini o'tkazish natijasidan keladigan barcha pul mablag'lari qo'yiladi va olinadi.

Talab qilib olinguncha depozitlarning salbiy tomonlari va kamchiliklari quyidagilardan iborat:

Bunday depozitlarga foizlar deyarli to'lanmaydi yoki juda past foiz stavkalari to'lanadi.

Ushbu depozitlarning o'ziga xos xususiyatlari:

- pul mablag'larini qo'yib va olish, xoxlagan vaqtda amalga oshiriladi, xamda chegaralanmaydi.
- xisobvaraqa egasi bankka xisobvaraqdagi foydalanganligi uchun debet muomalasidan mukofat puli to'laydi.
- bank pul mablag'laridan foydalangani va saqlangani uchun past foiz to'laydi yoki umuman to'lamaydi.

Banklar tomonidan jalb qilingan muddatli depozitlar yuridik va jismoniy shaxslarning shartnomada qat'iy kelishilgan muddat va unda ko'rsatilgan foizlarni to'lashga doir mablag'laridir. Muddatli depozit xisobvarag'i ochilganda jismoniy shaxslarga omonat daftarchalari beriladi.

³³ Муаллиф томонидан тайёрланди.

Banklar depozitlarga belgilangan muddat etib kelgunga qadar muddatli depozit xisob-varaqlaridan mablag'larini olishga ruxsat etadilar. Bunday xollarda depozitor muddatli depozit xisobvarag'idan muddatidan oldin mablag' olinishi mumkinligini bankka oldindan bildirishi lozim.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining kreditlari, depozitlari va umumiy kapitali³⁴(trln. so'm)


Ko'rsatkichlar	2011	2012	2013	2014	2015
Kreditlar	15652	20392	26500	34800	42685
Depozitlar	18042	23725	26100	28500	35600
Umumiy kapital	5334	6200	6500	6900	7784

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2012-2016 yil 1 yanvar holati mobaynida tijorat banklari kreditlari hajmi 2,7 marta, depozitlari hajmi 2,0 marta, umumiy kapitali 1,5 marta oshgan.

Muddatli va jamg'arma depozitlar. Bu xisob-varaqlaridagi pul mablag'lari o'z egalariga foizli daromad keltiradi, biroq uchinchi shaxs bilan xisob-kitob qilishga belgilanmagan. Jamg'arma depozitlarining asosiy xususiyatlari qa'tiy belgilangan muddatga ega emas va o'z egasidan mablag'larni oldindan olish uchun xabar berishlarini talab qilmaydi. Muddatli jamg'arma aniq belgilangan muddatga ega va unga (o'z egasiga) qat'iy belgilangan foiz asosida daromad keltiradi. SHu bilan birga oldindan pul mablag'larini olish uchun ma'lum miqdorda chegaralangan.

Tijorat banklari depozit mablag'lari saqlanish nuqtai nazardan qanchalik uzoq muddatga saqlaydigan bo'lsa, ushbu mablag'lar bankning riskka tortilgan aktivlari hajmini shu darajada oshirish imkoniyatini beradi. SHu bois, depozit mablag'lari tarkibida uzoq muddatli mablag'lar ulushini oshirish uchun tegishli iqtisodiy va siyosiy imkoniyatlardan samarali foydalanishga harakat qiladi. Respublikamiz tijorat banklarining depozit bazasi transaksion depozitlar, muddatli va jamg'arma depozitlarini o'z ichiga oladi. Ularning depozit bazasi tarkibi va dinamikasini baholash maqsadida quyidagi rasm ma'lumotlaridan foydalanamiz.

³⁴ Тижорат банклари йиллик хисоботлари 2013 йил.



5-рasm. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari depozit bazasining tarkibi va dinamikasi³⁵, %

5-рasm ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, tahlil qilingan davr mobaynida respublikamiz tijorat banklari depozitlari umumiy hajmida transaksion depozitlarning salmog‘i yuqorligicha qoldi. 2015 yilda ushbu ko‘rsatkichning amaldagi darajasi 58,51 foizni tashkil qildi. Bu esa, respublikamiz tijorat banklari depozit bazasining etarli emasligidan dalolat beradi. Chunki, tijorat banklari depozit bazasi etarli bo‘lishi uchun transaksion depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog‘i 30 foizdan oshmasligi zarur. 2011-2015 yillarda muddatli depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog‘i o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Ushbu tendensiyaning yuzaga kelishi mazkur davr mobaynida transaksion depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog‘ining kamayish tendensiyasiga ega bo‘lganligi bilan izohlanadi va pirovard natijada respublikamiz tijorat banklari depozit bazasining holati yomonlashayotganligidan dalolat beradi. 2011-2015 yillarda respublikamiz tijorat banklari depozitlari umumiy hajmida jamg‘arma depozitlari salmog‘i kichikligicha qolgan. Ushbu holat tijorat banklari pul mablag‘larini jamg‘arma depozit hisobraqamlariga jalb qilish operatsiyalari rivojlanmaganligidan dalolat beradi. Ammo 2011-2015 yillarda mazkur ko‘rsatkichning o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lganligi ijobiy holat hisoblanadi. Muddatli va jamg‘arma depozitlari xalqaro bank amaliyotida tijorat banklari resurslarining asosiy qismini tashkil etadi. AQSH va G‘arbiy Evropa tijorat banklarida muddatli depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog‘i 60 foizdan oshadi³⁶.

Rivojlangan davlatlarning bank amaliyotida aholining jamg‘arma depozitlari barqaror resurs manbai sifatida muhim o‘rin tutadi. Chunki ularning foiz stavkalari yuridik shaxslar muddatli depozitlarining foiz stavkalariga nisbatan past. Buning ustiga, ularning barqaror qoldig‘ini bankda saqlanish muddati yuridik shaxslarning muddatli depozitlariga nisbatan uzoq.

³⁵Ўзбекистон Республикаси Марказий банкнинг статистик маълумотлари асосида муаллиф томонидан ҳисобланди.

³⁶Банковское дело. Под. ред. Лаврушина О.И. – М.: Финансы и статистика, 2004. - С. 88.

Moliyaviy tahlilni chuqurlashtirish maqsadida respublikamizning yirik tijorat banklaridan biri bo‘lgan Aksiyadorlik-tijorat “Agrobank”i depozitlarining tarkibini tahlil qilamiz.

Tijorat banklarning depozit bazasi tarkibini o‘rganishda uni depozit turlari bo‘yicha segmentlab tahlil qilishga yondashamiz. Bunda, ATB Agrobank va taqqoslanayotgan tijorat banklarning depozit resurslarini har-bir depozit turlari (ya’ni talab qilib olinguncha, jamg‘arib boriluvchi va muddatli depozitlar) bo‘yicha solishtirib mavjud bo‘lgan tendensiyalar va tafovut sabablariga xulosalar qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mazkur tartibda tijorat banklarning depozit bazasini tahlil qilish har bir depozit turi yo‘nalishi bo‘yicha aniq ma’lumotlar to‘plash, bank faoliyatida tutgan o‘rni va jamg‘arilgan miqdorlarning samaradorlik holatini baholash imkoniyatini beradi.



6-rasm. Aksiyadorlik tijorat “Agrobank”depozit bazasining tarkibi va dinamikasi³⁷, %.

6-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, Agrobank depozitlarining umumiy hajmida transaksion depozitlarning salmog‘i ko‘rsatkichi Agrobanki ko‘rsatkichi va respublikamiz banklari bo‘yicha hisoblangan umumiy ko‘rsatkichga nisbatan ijobiy. Bu esa, Agrobank depozit bazasining nisbatan barqaror ekanligidan dalolat beradi. Lekin shunga qaramasdan Agrobankning depozit bazasi etarli emas. Chunki transaksion depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog‘i 30 foizdan yuqoridir. 2011-2015yillarda “Agrobank” muddatli depozitlarining brutto depozitlar hajmidagi salmog‘i beqarorligicha qolgan. 2011yilda ushbu ko‘rsatkich 22,08 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2013yilda - 34,83%, 2015 yilda esa, 32,78 foizni tashkil qildi. Transaksion depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog‘i beqarorligi “Paxtabank” depozit bazasi barqarorligini ta’minlashda ayrim muammolar mavjudligini ko‘rsatadi va uning depozit bazasi barqarorligini ta’minlashda muammolarning mavjudligidan dalolat beradi.

3.Tijorat banklari depozit bazasini mustahkamlash.

³⁷ АТБ “Агробанк”нинг баланс маълумотлари асосида муаллиф томонидан ҳисобланди.

Banklarning moliyaviy barqarorligi, iqtisodiy samaradorligi va risklarning xavfsiz me'yorining ta'minlanishi, ularning depozit bazasini mustahkamligi bilan bevosita bog'liqdir. Keyingi yillarda xalqaro va mahalliy moliya bozorlarida depozit mablag'larga bo'lgan talabning ortib borishi banklar depozit bazasiga oid dolzarb masalalarni yuzaga chiqarmoqda. Xususan, banklar depozit bazasining iqtisodiy mazmunini nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilish, shuningdek, uning manbalari va unga ta'sir qiladigan omillarni aniqlash shular jumlasidandir.

Ma'lumki, banklarning depozit bazasi jalb qilingan mablag'lar hisobidan shakllantiriladi, ushbu mablag'lar bank passivlari tarkibida asosiy ulushni tashkil etadi.

Bank tomonidan depozitlar bo'yicha to'lanadigan foizlar bankning asosiy operatsion harajatlari hisoblanadi. SHuning uchun ham bank bir tomondan jalb qilingan depozitlar bo'yicha belgilangan foiz stavkasi yuqori darajada bo'lganligini qo'llab quvvatlamasada, boshqa bir tomondan mijozlarni jalb qilish uchun shu tarzda yo'l tutishiga to'g'ri keladi. Odatda tijorat banklari katta miqdordagi mablag'larni uzoq muddatga jalb qilish uchun yuqori darajadagi foiz stavkalarini belgilashlariga to'g'ri keladi.

Ko'pgina davlatlarning Markaziy banklari tomonidan tijorat banklarining likvidlik darajasini yoki resurslar etarlilik me'yorini majburiy normativ orqali boshqarib boradi. Mazkur normativ aholi pul qo'yilmalarining umumiy miqdori nisbatini o'z mablag'lari (kapitali) foiz nisbatida olinib, uning maksimal belgilanganlik darajasi 100% dan ko'p bo'lmasligi kerak.

Xulosa qilib aytganda, banklarning depozit bazasi ularning passivlari tarkibida muhim moliyaviy manba hisoblanib, uning hajmini past yoki yuqori darajada bo'lishiga depozitlarning foiz stavkasi, milliy valyutaning barqarorligi va boshqa qator omillar ta'sir qiladi.

Tijorat bankining foiz siyosatini olib borishda barcha resurslarning qiymati va depozit operatsiyalarining tahlili olib borilishi shart. Buning uchun quyidagilarni belgilab olish lozim.

- omonatlar bo'yicha foizlarni belgilash;
- jalb qilingan resurslar bo'yicha foiz stavkasining dinamikasini o'rganib borish;
- inflyasiya sharoitida resurslarning real qiymatini hisobini olib borish;

Bank amaliyotida depozit siyosati instrumentlarini foydalaniladigan yo'nalish boshqarmalari mavjud:

- Kredit boshqarmasi;
- Amaliyot boshqarmasi va albatta g'aznachilik boshqarmasi qatnashadi.

Jahon amaliyotida banklarning faqat ratsional tarzda resurslarni taqsimlab olayotgan moliya muassasagina o'zining likvidlilik darajasini saqlab qolishi mumkin. Moliyaviy inqiroz davrida banklar aholidan bo'sh pul mablag'larini yuqori foiz stavkalar evaziga jalb qilgan holda keng tarzda kredit siyosatining depozit siyosatini olib boradi, ammo ko'pgina banklarning mijozlarga ajratilgan kredit mablag'larining o'z vaqtida qaytmasligi sababli kapitallashuv darajasini kamayishiga, aks holda bankrotlik darajasiga olib kelishi mumkin bo'ladi. Mazkur holatlarni oldini olish uchun mamlakatimiz miqyosida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan davlat banklarining kapitallashuv darajasini

o'shishga harakat qilib kelinmoqda. Binobarin, ayni shu usullarni qo'llashda davlat banklarining depozit siyosatlarini qayta qo'rib chiqish zaruriyati dolzarb masala sifatida namoyon bo'ladi.

Hozirgi davr moliya va iqtisodiy tahlil mutaxassislari moliyaviy inqiroz davrida quyidagi fikrlarni ilgari surishadi: barcha tijorat banklari moliyaviy vositachi sifatida omonatchilar va kreditorlardan davrlar mobaynida juda katta miqdorda mablag'larni jalb etadi. Bank kapitali jalb qilingan mablag'larni qaytarish bilan bog'liq bo'lgan xatarlar bo'yicha omonatchilar va kreditorlarning manfaatiga bevosita bog'liq bo'lmasligi zarur. YA'ni, omonatchilar va kreditorlarning bank kapitaliga nisbatan hech qanday qonuniy yoki bilvosita da'volari mavjud bo'lmasligi zarurdir. Tijorat banklari ustav kapitalining boshlang'ich miqdori shakllantirilgandan so'ng, uning miqdorini ko'paytirish bank aksiyadorlarining qarori va bankning faoliyatini samarali ishlashiga bevosita bog'liq bo'ladi. Odatda, tijorat banklari ustav kapitalining miqdorini oshirish asosan, ikkita yo'l bilan amalga oshiradi. Bankning moliyaviy hisobot yakunida shakllantirilgan foydasidan ajratmalar hisobidan va qo'shimcha ravishda bankning oddiy aksiyalarini chiqarish yo'li, fikrimizcha, daromadlarini tahlil qilishda choraklik davriy oraliqlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda tijorat banki daromadlari va harajatlarini o'sib boruvchi yakun tarzida aks ettirilshpi bilan izohlanadi. Tijorat banklari foydasidan ajratmalar hisobiga tashkil etiladigan zaxira fondi bankning moliya bozoridagi qimmatbaho qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalardan ko'rilgan zararlarni qoplashga mo'ljallangan. Depozit siyosatining asosiy himoyachisi bo'lgan zaxira fondining minimal miqdori tijorat banklarining ustav kapitaliga nisbatan o'rnatiladi.

Tijorat banklarining jalb qilingan mablag'lari tarkibida talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar, Markaziy bankdan olingan kreditlar va bankka jalb qilinadigan mablag'lar qiymati jihatidan arzon, lekin muddati jihatidan nobarqaror moliyaviy resurslar hisoblanadi.

Qimmat mablag'lar guruhiga tijorat banklarining regulyativ kapitali tarkibidagi ustav kapitali, muddatli depozitlar, jamg'arma va depozit sertifikatlar, banklararo kreditlar va boshqa mablag'larni kiritish mumkin. Ushbu mablag'lar tijorat banklari uchun qiymati jihatidan qimmat mablag'lar bo'lsa-da, ular muddati jihatidan nisbatan moliyaviy barqaror hisoblanadi. Xalqaro bank tajribalari va amaliyotdagi mavjud holatlarning natijasi shuni ko'rsatmokdaki, tijorat banklari depozit siyosati mahsuloti bo'lmish depozit portfeli likvidligini ta'minlashda moliyaviy barqaror mablag'larning ulushi qanchalik yuqori bo'lsa, ularda moliyaviy inqiroz davrida likvidlilikni ta'minlash yuzasidan muammolar shunchalik kam bo'ladi. Moliyaviy inqirozning jalb qilingan mablag'lar tarkibida tahlil etilgan davrning boshida kreditlar asosiy salmoqqa ega bo'lgan, tahlil etilayotgan davrning so'nggiga kelib, ushbu manbaning ulushi pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Kreditlar tarkibida banklararo kreditlarning ulushi boshqa turdagi kreditlarga nisbatan yuqori salmoqqa ega ekanligi respublikamiz banklari o'rtasida resurslarni o'zaro almashish jarayoni faol darajada amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi. Jalb qilingan mablag'lar tarkibidagi kreditlarni nisbatan qimmatli va moliyaviy barqarorligini e'tiborga oladigai bo'lsak, ularni mablag'lar tarkibidagi ulushining pasayish tendensiyasiga ega ekanligini salbiy holat natijalarini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Tijorat banklari jalb qilingan

mablag'lar tarkibida keyingi manba jami kapital hisoblanadi. Jami kapital tarkibidagi ustav kapitali qiymati va muddati jihatidan esa barqaror manba hisoblanadi.

Banklar depozit bazasining tarkibidagi muddatli depozitlar va jamg'arma omonatlari moliyaviy jihatdan barqaror manbalar hisoblanadi. Muddatli depozitlar va jamg'arma depozitlar naqd pullarning banklardan tashqari aylanmasini qisqartirishi va bank kreditlari uchun garov ta'minoti vazifasini bajarishi mumkin, buning natijasida kredit qo'yilmalari hajmi oshadi, kredit riski ma'lum darajada kamayadi.

Bank depozitlari bazasi tarkibidagi transaksion (talab qilib olinguncha saqlanadigan) depozitlar banklarning likvidligiga jiddiy ziyon etkazadi. SHu sababli, Glass-Stigoll qonuniga asosan 1933 yilda transaksion depozitlarga foiz to'lashning taqiqlanishi oqilona tadbir hisoblanadi. Lekin muddatli va jamg'arma depozit hisob raqamlariga tijorat banklari tomonidan to'lanadigan foiz stavkalari past darajada belgilanishi ularning depozit bazasiga salbiy ta'sir qiladi

Ma'lumki, banklar passivining asosiy ulushi depozit mablag'lar hissasiga to'g'ri keladi. Depozit – ma'lum miqdordagi summa bo'lib, omonatchi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini jamg'arib borish, saqlash va qo'shimcha foyda olish maqsadida bankka topshiradi. Albatta, omonatchining vaqtinchalik bo'sh pul mablag'ini bankka topshirishga undaydigan asosiy omil qo'shimcha foyda hisoblanadi. Biroq, bozor iqtisodiyoti sharoitida omonatchining vaqtinchalik bo'sh pul mablag'ini bankka topshirishga iqtisodiy foydadan tashqari boshqa qator omillar ta'sir qiladi. Xususan:

- milliy valyutaning barqarorligi. Milliy valyuta qanchalik barqaror bo'lsa, uning sotib olish qobiliyati ortadi va inflyasiya darajasi pasayadi. Natijada omonatchining depozitlar hisobidan oladigan sof daromadining miqdori ortib boradi (6-jadval).

- banklar majburiyatlarni to'liq va o'z muddatida bajarishi. Omonatchi bankka topshirgan depozitlarga hisoblangan foiz to'lovlari bilan birgalikda depozit shartnomasi muddati tugagandan yoki ayrim hollarda muddatidan oldin naqd pullarni olish bo'yicha talabini zudlik bilan qondirish lozim;

- banklar omonatlarining turlari, shakllari va foizlari bo'yicha reklama. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iste'molchi har qanday xizmat va mahsulot haqidagi ma'lumotni asosan, reklama orqali qabul qiladi. Reklama ham barchaning e'tiborini tortadigan darajada televidenie va radio orqali berilishi maqsadga muvofiq.

YUqorida qayd etilganlardan tashqari, bank depozit bazasi hajmi va uning barqarorligiga bank foiz stavkalari va omonatchilar oladigan daromadlar bevosita ta'sir qiladi. Quyidagi jadvalda bank depozitlari bo'yicha foiz stavkalari o'zgarishining depozitlar taklifiga ta'sirining ssenariylari keltirilgan.

6-jadval

Omonatchilar depozit taklifiga bank foiz stavkasining ta'siri (ming so'm hisobida)

Ssenariy	Foiz stavkasi	Depozit summasi, (1 oylik jamg'armasi)	Omonatchilar soni	Bir oylik depozitlar summasi	Jamiga nisbatan ulushi, foizda	O'zgarishi, % (-;+)	O'zgarishi, % (-;+) zanjirli

1	2	3	4	5	6	7	8
1	10,0	100,00	200	20 000,00	7,41	0	0
2	12,0	150,00	200	30 000,00	11,11	3,70	3,70
3	14,0	200,00	200	40 000,00	14,81	7,41	3,70
4	16,0	250,00	200	50 000,00	18,52	11,11	3,70
5	18,0	300,00	200	60 000,00	22,22	14,81	3,70
6	20,0	350,00	200	70 000,00	25,93	18,52	3,70
Jami bir oylik depozit summasi				270 000,00			

6-jadvalda bank foiz stavkasining omonatchilar depozit taklifiga ta'siri 6 ta ssenariyda ko'rib chiqildi. Ssenariy shartiga ko'ra, bankning omonatchilari soni o'zgarishsiz qolgan holda, foiz stavkalari oshishi depozit bazasining hajmiga ta'siri aniqlangan.

1-ssenariyda foiz stavkasi 10,0 foiz bo'lganda 200 ta omonatchining depozit mablag'lari 20 mln so'mni tashkil etadi. 2-ssenariyda depozit foiz stavkasi 10 foizdan 12 foizga oshirilgan har bir omonatchining depozit taklifi 50,0 ming so'mga, 200 ta omonatchining depozit taklifi esa 10 mln so'm ortgan. SHu tariqa bank depoziti foiz stavkasining har gal 2 foizga oshirilishi omonatchilarning depozit taklifini 10 mln so'mga yoki 3,7 foizga ortishiga olib kelgan.

Agar, depozit hajmining o'zgarishini bazis asosida ko'rib chiqadigan bo'lsak, 6 ssenariydagi o'zgarish hajmi 1 ssenariyga nisbatan 18,52 foizni tashkil etgan. Depozitlar hajmining o'zgarishi zanjirli usuldagisida o'sish barqaror ravishda 3,7 foizni tashkil etgan.

Ta'kidlash joizki, yuqoridagi jadvalda bank depozit bazasiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan qator omillarni inkor qilgan holda, faqat birgina foiz omilini ko'rib chiqdik. SHuning o'zidayoq,

bankning depozit mablag'lari hajmining deyarli 3 martaga ortishi ro'y berdi. Zero, banklar foiz stavkasining past yoki yuqoriligi omonatchilar depozit taklifiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan hisoblanadi. Agar shu jarayonda reklama omilidan samarali foydalaniladigan bo'lsa, bu ko'rsatkich yana bir necha barobarga ortishi mumkin edi.

Respublikamiz tijorat banklarida depozitlar barqarorligini ta'minlashga qaratilgan strategiyani ishlab chiqish zarur. Buning uchun esa, birinchidan, mijozlarga depozit hisobraqamlarining jozibadorligini oshirish imkoniyatini beradigan marketingni rivojlantirish lozim; ikkinchidan, depozitlarning barqarorlik darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqilishi lozim; uchinchidan, bank uchun depozit bazasining asosini tashkil qiluvchi mijozlar guruhini aniqlab olish va ularga kompleks depozit-ssuda xizmatini taklif qilish lozim.

4-mavzu. Tijorat banklarining passiv operatsiyalari tarkibi va ularning joylashishi

Reja:

- 1. Tijorat banklarining nodepozit operatsiyalari.**
- 2. Banklararo kreditlar uning mohiyati, maqsadi va vazifalari**
- 3. Banklararo kreditlarning tarkibi va dinamikasi**
- 4. Banklararo kreditlar dinamikasiga ta'sir qiluvchi omillar tahlili**

Tijorat banklarini qayta moliyalash uchun kreditni berishni Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi. Bu operatsiya O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi tomonidan 1998 yil 9 noyabr 19/8-sonli qaror №261 tasdiqlangan «Qayta moliyalash kreditlarini berish tartibi to'g'risida»gi Nizomga asosan amalga oshiriladi. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 3 maydagi 234-sonli qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi Valyuta birjasi huzuridagi kredit resurslari kimoshdi savdolari orqali tijorat banklarini qayta moliyalash uchun kreditlar berish tartibini belgilaydi. Bu jarayon Markaziy bankning pul-kredit vositalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Qayta moliyalash – Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan pul kredit siyosati vositalaridan biri bo'lib, u ikkinchi daraja banklarining likvidlik holatini qo'llab-quvvatlash uchun yo'naltiriladi.

Markaziy bankning qayta moliyalashtirish operatsiyasi quyidagi usullarda olib borilishi mumkin:

- tijorat banklarining ixtiyoridagi veksellarni hisobga olish yo'li bilan kreditlash;
- tijorat banklari ixtiyoridagi qimmatli qog'ozlarni garov olish yo'li bilan kreditlar berish, ya'ni lombard krediti;
- to'g'ridan-to'g'ri kredit berish usuli.

Markaziy bank «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi Qonuniga asosan oltin, chet el valyutasi, xalqaro rezervlar toifasiga kiruvchi valyuta boyluklari va boshqa boyluklar, davlat qarz majburiyatlari va hukumat kafolatlagan boshqa qarz vositalari, Markaziy bankda depozitga o'tkazilgan va uning depozitariysi uchun maqbul bo'lgan, xarid qilinishi va sotilishiga ruxsat berilgan qonun doirasidagi boshqa xil operatsiyalar o'tkazilishi mumkin bo'lgan aktivlar, to'lanishiga banklar kafolat bergan tijorat veksellari, shuningdek, Moliya Vazirligini kafolatiga asoslangan holda banklarga qayta moliyalash kreditlarini beradi. Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga beriladigan kreditlarning asosiy maqsadi banklarning likvidligini qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Qayta moliyalash kreditlarini berayotganda Markaziy bank tijorat banklarining kredit potensialining joriy holatini doimiy kuzatib turadi. Buning uchun u joriy monitoringlar o'tkazadi, ular vakillik hisobvaraqlarini tahlil qiladi va asosan o'zi kreditlarni joylashtirish va jalb etish uchun qatnashadigan banklararo kredit bozori – O'zbekiston Respublikasi Valyuta birjasi huzuridagi kredit resurslari kimoshdi savdosini kuzatib boradi.

Tijorat banklarining likvid holatini saqlashga yo'naltiriladigan, ularni qayta

moliyalash uchun beriladigan kreditlar miqdori, shuningdek, qayta moliyalash stavkasi, Markaziy bank tomonidan pul-kredit siyosatining joriy vaqtdagi aniq vazifalariga muvofiq, hamda pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlarini hisobga olgan holda belgilanadi. Bunda qayta moliyalash stavkasi inflyasiya darajasidan kelib chiqqan holda o'zgartirilishi mumkin.

Markaziy bank yuqorida aytilgan qonunga muvofiq, tijorat banklariga milliy valyutada lombard kreditni berishi mumkin. Lombard krediti qayta moliyalash shakllaridan biri bo'lib, ushbu kredit Davlat qisqa muddatli obligatsiyalarini garovga qo'yish yo'li orqali beriladi.

Lombard kreditining berilishi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1998 yil 22 avgustidagi 416-sonli "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan banklarga lombard krediti berish tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan amalga oshiriladi.

Qayta moliyalash kreditlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan 1996 yil 20 apreldagi 141 sonli "O'zbekiston Respublikasida kredit resurslari kim oshdi savdolarini o'tkazish tartibi"ga muvofiq joylashtiriladi.

Keyinchalik qayta moliyalash kreditlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining maxsus ko'rsatmalari bo'yicha, ularda belgilangan shartlar asosida Markaziy bank hududiy Bosh boshqarmalari va tijorat banklari o'rtasida tuziladigan kredit shartnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Kredit shartnomasida quyidagilar ko'zda tutiladi:

- tomonlar nomi;
- ularning o'zaro majburiyatlari va iqtisodiy ma'suliyati;
- kredit muddati va miqdori;
- aniq maqsad ko'zlanganligi;
- kredit berish va qaytarish tartibi;
- foiz stavkasi va uni o'zgartirish shartlari;
- ta'minlash shakllari;
- jarima solish va tomonlar shartlashuvining boshqa jihatlari.

Bu kreditni olgan tijorat banklari kreditdan foydalanish va uning holati bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Pul-kredit siyosati" departamentiga ma'lumotnoma taqdim etib boradi.

Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga kredit berishda Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan iqtisodiy me'yorlarga, majburiy zahira talablariga rioya qilish e'tiborga olinadi.

Ayrim hollarda tijorat banklarining vakillik hisobvaraqlarida mablag'lar umuman bo'lmagan yoki etarli bo'lmagan holatlarda kechiktirib bo'lmaydigan to'lovlarni amalga oshirish uchun tijorat bankiga, istisno tariqasida majburiy to'lovlarni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ruxsati bilan uning hududiy Bosh boshqarmasi rahbari taqdimnomasi bo'yicha bank likvidligini qo'llab-quvvatlash uchun kredit berilishi mumkin.

Bu kreditni olish huquqiga O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining iqtisodiy normativlariga rioya etadigan, rezerv, majburiy rezerv shartlarini to'liq bajaradigan, tijorat banklariga beriladigan ya'ni kreditni qaytmaslik riski yo'q va u muddatida foizi bilan

to'liq qaytishi ta'minlangan holda beriladi. Kredit 7 ish kuni muddati bilan tijorat banki tomonidan kredit resurslarini tartibga solish fondiga o'tkaziladigan mablag'larning 30% miqdorida beriladi. Kreditning o'z vaqtida, to'liq qaytmaslik hollari yuz berganda yoki kredit shartlari buzilgan hollarda Markaziy bank tijorat bankiga nisbatan kredit shartnomasida ko'rsatib o'tilgan choralarni qo'llash huquqiga ega. Agar kreditning qaytmaslik hollari yuz bersa Markaziy bank garov mol-mulkini talab qilib olishga haqli.

Ushbu kredit bo'yicha foiz stavkasi Markaziy bank amaldagi qayta moliyalash stavkasidag 1,3 barovarga ortiq miqdorda belgilanadi.

Tijorat bankida Markaziy bank tomonidan unga ilgari berilgan ushbu kreditlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik vujudga kelgan hollarda, asosan belgilangan foiz stavkasi 2 baravar oshirilish yo'li bilan ta'sir choralari qo'llaniladi

“O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi qonunning 59-moddasiga binoan muddati o‘tgan qarz bosh bank hisobvarag‘idan undirib olinadi. Agar bosh bank hisobvarag‘ida qarzlarni qoplaydigan miqdorda mablag‘lar bo‘lmasa, ushbu qarz to‘la qaytarilmaguncha bank vakillik hisobvarag‘i bo‘yicha operatsiyalar to‘xtatiladi.

Muddatidan oldin bo‘shagan qayta moliyalash kreditlarini o‘z vaqtida qaytarmaganlik uchun tijorat banklariga nisbatan Markaziy bank kredit qaytarilmagan hollarda Markaziy bank garovga qo‘yilgan mulkni sotish yoki kafolat xati bo‘yicha talabnoma qo‘yish orqali qarz summasini undirib olish huquqiga ega.

Qayta moliyalash kreditlarini belgilangan muddat ichida qaytarilishni ta'minlamagan tijorat banklariga nisbatan 1997 yil 25 yanvardagi 74-sonli yo'riqnomaning 6-bandiga va unga kiritilmagan 1998 yil 27 iyundagi 406-sonli qo'shimchaning 1-bandida ko'rsatilgan ta'sir choralari qo'llaniladi.

Banklar tomonidan aniq maqsadli kredit resurslaridan belgilangandan tashqari maqsadlarda foydalanilishiga yo'l qo'yilgan hollarda, ushbu kreditlar muddatidan oldin qaytarib olinadi.

Qayta moliyalash kreditlari bo'yicha marja darajasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadi.

Qayta moliyalash kreditlari qaytarilmagan hollarda, Markaziy bank garovga qo'yilgan mulkni sotish yoki kafolat xati bo'yicha talabnoma qo'yish orqali qarz summasini undirib olish huquqiga ega.

Banklar tomonidan aniq maqsadli kredit resurslaridan belgilangandan tashqari maqsadlarda foydalanishiga yo'l qo'yilgan hollarda, ushbu kreditlar muddatidan oldin qaytarib olinadi.

Ta'sir choralari Markaziy bank hududiy Bosh boshqarmasi va tijorat banki o'rtasida tuziladigan kredit shartnomalarida aks ettirilishi shart.

2. Banklararo kreditlar uning mohiyati, maqsadi va vazifalari

Mamlakat iqtisodiyotida ko'p sonli tijorat banklari va ularning filiallari mavjud bo'lgan sharoitda ular o'rtasida o'zaro aloqalar o'rnatish talab etiladi. Bu aloqalar korrespondentlik munosabatlari tizimi orqali amalga oshiriladi. Korrespondentlik munosabatlari korrespondent banklar o'rtasidagi ishonchning muayyan darajasini aks

ettirib, banklarning o‘zaro topshiriqlari bajarilishiga imkoniyat yaratadi. Korrespondentlik munosabatlari o‘zaro bank xizmatlarining keng majmuini nazarda tutadi.

Bizning nazarimizda, mohiyati, maqsadi va vazifalari xususida so‘z yuritishdan oldin, banklararo kreditlarni iqtisodiy mohiyatini aniqlab olish juda muhim.

Xorijiy va mahalliy iqtisodchilar “banklararo kredit” tushunchasini har xil talqin qilishadi. Professor O.I. Lavrushin “Banklararo kreditlar” – bu banklar bo‘sh pul mablag‘larini bir – birlari bilan banklararo resurs bozorida almashtirish va oshirishidir degan³⁸. Banklararo kreditning umumiy kredit tushunchasi bilan bog‘liqlik tarafini har hil bo‘lgan iqtisodiy lug‘atlardagi fikrlar orqali ya’ni kreditning ahamiyatini aniqlash bo‘yicha ko‘rib chiqamiz.

Biz O.I. Lavrushinning “kredit”- bu nafaqat sub’ektlararo qayta ishlab chiqarish aloqasi jarayoni balki, kredit –qiymat harakatining teskari holati jarayoni sifatida vujudga keladi –qiymatning aylanishi va ishlab chiqarish holatining oralig‘ida, xo‘jalikda ishlatiladigan ehtiyojlar va uni vaqt oralig‘ida pasayishi degan fikriga qo‘shilamiz. Avtor shuning uchun ham banklararo kredit –banklar bo‘sh tugan pul mablag‘larini bir-birlari bilan banklararo resurs bozorida almashtirish va oshirishidir deb aniqlashtirgan.

M.V. Romonovskiy esa kreditni –qaytarishlilik shartining qiymat harakati bilan bog‘liq umumiy munosabatlarni o‘zida aks ettiruvchi iqtisodiy kategoriya sifatida qaraydi.

Bizning fikrimizcha, banklararo kreditlash ham qiymat harakatining teskari jarayoni hisoblanadi –bir bankda resurslarini oshirish uchun ehtiyoj bor yana bir bankda esa resurs bazasida ortiqcha pul.

G.N. Beloglazova va L.P Krolivetskaya o‘zlarining ishida umumiy ma’noda kredit tushunchasini oydinlashtirmaydi, shunday bo‘lsada, kreditor va qarzdor tushunchasini yoritib beradi³⁹. Kreditorlar belgilangan vaqtga vaqtincha bo‘sh pul mablag‘larini buyuruq asosida joylatiruvchi shaxslar hisoblanadi. Qazdorlar mablag‘larni oluvchi va belgilangan muddat ichida qaytarish vazifasini olgan shaxslar hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, banklararo kredit xuddi bank kreditdek kreditor sifatida bank ishtirok etadi biroq, banklararo kreditning o‘ziga xosligi shu erda tugamasdan bank nafaqat kreditor sifatida nomoyon bo‘ladi balki qarzdor sifatida ham ishtirok etadi. Banklararo kredit, banklar o‘rtasida belgilangan shartnoma muddati roziligi va naqd bo‘sh pul mablag‘lariga chambarchas bog‘liqdir.

Banklararo kredit – bu kredit muassasalarining vaqtinchalik bo‘sh turgan pul mablag‘lari banklar tomonidan jalb qilinishi va o‘zaro joylashtirilishidir. Tijorat banklari va markaziy banklar kredit munosabatlarning sub’ektlari hisoblanadi. Bo‘sh kredit resurslariga ega banklar ularni banklararo kreditlar bozori – pul bozorida sotadi. Banklar banklararo kreditlar yordamida o‘z likvidligini operativ boshqarishi, zarur holda mablag‘larni tez jalb qilishi yoki vaqtinchalik bo‘sh turgan kredit resurslarini joylashtirishi mumkin. O‘z operatsiyalarini nomuntazam ravishda, yuzaga kelayotgan moliyaviy vaziyatga qarab o‘tkazadigan banklar banklararo kreditlar bozori ishtirokchilari hisoblanadi. Diler banklar banklararo kreditlar bozorining eng faol operatorlari bo‘lib, ular o‘z nomidan va o‘z hisobidan ish ko‘radi, qarz oluvchi yoki kredit sifatida amal qilishi

³⁸Лаврушин О.И. и др. Банковское дело. – М.: “ФинС”, 2001

³⁹Банковское дело./ Под ред. Г. Белоглазовой и Л. Кропивецкой.- 2002

mumkin. Ular foiz marjasi, mablag'larni joylashtirish va jalb qilish stavkalari o'rtasidagi tafovut tarzida daromad oladi. Nufuzli mijozlarga ega bo'lgan banklarda bo'sh kredit resurslari ko'p bo'ladi. Banklararo kreditlash moliya bozorining eng yirik segmentlari qatoriga kiradi. Banklararo kreditlar ikkinchi daraja banklar balansining likvidligini quvvatlash, shuningdek aktiv operatsiyalar o'tkazish va korrespondentlik hisobvaraqlarini to'ldirish uchun eng operativ manba hisoblanadi.

Bank tomonidan kreditlash nobank kredit muassasalari, masalan, lombardlarning ssuda operatsiyalaridan kreditni ta'minlash masalasi iqtisodiy tahlildan keyin ikkinchi o'rinda turishi bilan farq qiladi. To'g'ri, O'zbekistonda hozirgi vaqtda mavjud bank amaliyotida kreditni ta'minlash masalasi ko'pincha birinchi o'ringa chiqadi. Bu hol asosan banklar tomonidan kreditlanadigan operatsiyalar risklilik darajasining kattaligi, bank atrofidagi bozor muhitida mavjud risklar sonining ko'pligi, uzoq kredit tarixiga ega bo'lgan, o'ta ishonchli va sifatli qarz oluvchilar yo'qligi bilan izohlanadi.

Bank bozorning tovarlari bank tomonidan kreditni ta'minlash vositasi sifatida qabul qilinadigan eng professional ishtirokchilari bilan yaqin aloqa qilgani ma'qul. Professionallar tovarning sifatli ekspertizasini o'tkazishga ko'maklashadi, qarz oluvchi va uning muayyan davrdagi mavqei haqida axborot berishi, kredit qaytarilmagan taqdirda kreditni ta'minlash vositasini realizatsiya qilishning optimal sxemasini tuzishi mumkin.

Kredit shartnomasini tayyorlash va tuzish kredit berish bosqichining muhim yakunlovchi protsedurasi hisoblanadi.

Kredit jarayonining uchinchi bosqichi – kreditdan foydalanilishi ustidan nazorat olib borish.

Ssudadan foydalanish bank ajratgan mablag'larni moliya-xo'jalik faoliyati majburiyatlari bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishga yo'naltirishni anglatadi. Kredit tadbirining samaraliligi ssudadan foydalanishning muhim sharti hisoblanadi.

Kredit jarayoni bu bosqichining bosh maqsadi – qarz bo'yicha foizlar muntazam to'lanishi va qarz uzilishini ta'minlashdir.

O'z-o'zidan ravshanki, har bir qarz bo'yicha u voqealarning kutilmagan rivoji tufayli uzilmay qolishi riski mavjud. Bank faqat mutlaqo ishonchli mijozlarga kreditlar berish siyosatini olib borishi mumkin, biroq bu holda u juda ko'p foydali imkoniyatlarni boy beradi. Ayni vaqtda, kreditni qaytarish bilan qiyinchiliklar yuzaga kelgudek bo'lsa, bu bankka juda qimmatga tushadi. SHu sababli oqilona kredit siyosati ehtiyotkorlik va resurslarni foydali joylashtirish uchun mavjud barcha imkoniyatlardan mumkin qadar to'la foydalanish o'rtasida muvozanatni ta'minlashga qaratiladi.

Ssudalarni qaytarish bilan bog'liq qiyinchiliklar ko'pincha tasodifan tug'ilmaydi va darhol yuzaga kelmaydi. Bu muayyan vaqt mobaynida rivojlanadigan jarayondir. Bankning tajribali xodimi mijozda yuzaga kelayotgan moliyaviy qiyinchiliklar jarayoni alomatlarini ilk bosqichdayoq payqashi va bank manfaatlarini himoya qilish choralarini ko'rishi mumkin. Bunda bank ko'radigan zarar qarz va foizlar qaytarilmasligi bilangina cheklanmasligini hisobga olish lozim. Bank bundan ko'proq zarar ko'radi. Bu zarar hisobga olinishi lozim bo'lgan boshqa holatlar bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin:

- bank obro'si to'kiladi, chunki o'z vaqtida qaytarilmagan kreditlar va uzilmagan qarzarlar sonining ko'pligi bankka nisbatan omonatchilar, investorlar va hokazolarning ishonchi yo'qolishiga olib keladi;

- ma'muriy xarajatlar ko'payadi, chunki muammoli ssudalar kreditlar bilan ishlovchi xodimlarning alohida e'tiborini va ish vaqtdan erkin foydalanishni talab qiladi;

- operatsiyalarning daromaddorlik darajasi pasaygan sharoitlarda malakali kadrlarni rag'batlantirish imkoniyatlari kamayishi natijasida ularning bankni tark etish xavfi kuchayadi;

- mablag'lar samarali bo'lmagan aktivlarga joylashtiriladi;

- qarzdor bankka qarshi da'vo qo'yishi xavfi tug'iladi. U bankning ssudani chaqirib olish haqidagi talabi o'zini bankrotlik yoqasiga olib kelib qo'yganini isbotlashi mumkin.

Bu zararlarining barchasi bankka qimmatga tushishi va qarzning qaytarilmagani natijasida ko'rilgan to'g'ridan-to'g'ri zarardan oshib ketishi mumkin.

Kredit jarayonining to'rtinchi bosqichi – bank ssudasini qaytarish.

Ssudaning qaytarilishi pul mablag'lari banklarga qaytib kelishini va foizlarning tegishli summasi to'lanishini anglatadi. Ssudaning qaytarilishi kredit bo'limi amalga oshirgan ishning yakuni hisoblanadi va u xodimlar kredit jarayonining oldingi bosqichlarida qay darajada sifatli va samarali ishlaganini ko'rsatadi.

Qarzdor ssudani muammolarsiz qaytarib, tegishli foizlarni to'lagan bo'lsa, kredit ishi (dosesi) yopiladi va qarz oluvchi ishonchli va mazkur bankda ijobiy kredit tarixiga ega mijoz sifatida e'tiborga olinadi. Ssuda qaytarilmagan va foizlar to'lanmagan taqdirda bank kredit bo'limi xodimlari bu muammoli kreditni tugatish bo'yicha juda katta ishni amalga oshirishiga to'g'ri keladi. So'ngra kredit berish haqida qaror qabul qilish va undan foydalanilishini tekshirish jarayonida yo'l qo'yilgan xatolar albatta tahlil qilinishi lozim. Kreditni ta'minlash uchun sifatli vosita qabul qilingan bo'lsa, har qanday tang vaziyat yuzaga kelgan taqdirda muammoli kreditni yopish to'g'risida so'z yuritish mumkin. Baholovchilar malakasi va bankka kreditni ta'minlash vositasini qabul qilish uchun tanlangan sxemaning qulayligi ayni shu erda sinovdan o'tadi.

Bank tomonidan kreditlash kredit jarayonini tashkil etishga qo'yiladigan talablardan iborat bo'lgan kreditlash prinsiplariga qat'iy rioya etilgan holda amalga oshiriladi. Kreditlash jarayonining muayyan bosqichiga qarab kreditlash prinsiplarini har bir bosqichning o'ziga xos xususiyatlariga bog'lash talab etiladi. Masalan, dasturlashtirish bosqichida kreditlash prinsiplari korxonalarining biznes-rejalari bilan, kredit berish bosqichida – ssudalarning maqsadli xususiyati bilan, kreditdan foydalanilishi ustidan nazorat olib borish bosqichida – qarz oluvchi amalga oshirayotgan ishlarning samaradorligi bilan, kreditni qaytarish bosqichida – tushumning kelishi, qarzning qaytarilishi va foizlar to'lanishi bilan bog'lanishi lozim.

Kreditlash prinsiplari qatoriga quyidagilar kiradi:

a) kreditlashning muddatliligi va qaytarishliligi;

b) kreditlashning differensiallanganligi;

v) kreditning ta'minlanganligi;

g) bank ssudalarining to'lovliligi.

Prinsiplarning har birini batafsilroq ko'rib chiqamiz.

1. Qaytarishlilik iqtisodiy kategoriya sifatidagi kreditni tovar-pul munosabatlarining boshqa iqtisodiy kategoriyalaridan farqlash imkonini beruvchi omil hisoblanadi. Qaytarishliliksiz kredit mavjud bo'lishi mumkin emas, shu sababli u kreditning ajralmas qismi, uning muhim belgisi hisoblanadi.

Kreditlashning muddatliligi va qaytarishlilik shu bilan belgilanadiki, banklar kreditlash uchun korxonalar, muassasalar va aholining vaqtincha bo'sh turgan mablag'larini jalb qiladi. Bu mablag'lar banklarga qarashli bo'lmaydi va pirovard natijada ular bankka bozorning turli segmentlaridan kelib, mohiyat e'tibori bilan ularga qaytib ketadi (iste'mol, tijorat kreditlari va h.k.). Bu mablag'larning eng muhim xususiyati shundaki, ular o'zini bankka muddatli depozitlar shartida qo'ygan egalariga qaytarilishi lozim. SHu sababli bankning "oltin" qoidasi bank moliyaviy talablarining miqdori va muddatlari uning majburiyatlari miqdori va muddatlariga muvofiq bo'lishini talab qiladi. Bu asosiy prinsipning buzilishi bankni bankrotlikka olib keladi.

Kreditlashning muddatliligi kreditning qaytarishlilikiga erishishning zaruriy shakli hisoblanadi. Muddatlilik prinsipi kredit shunchaki qaytarilmasligi, balki aniq belgilangan muddatda qaytarilishi lozimligini anglatadi, ya'ni unda vaqt omili o'zining aniq ifodasini topadi. Kreditdan foydalanish muddati buzilgan taqdirda kreditning mazmun-mohiyatiga putur etadi, u o'zining asl mohiyatini yo'qotadi.

2. Kreditlashning differensiallanganligi tijorat banklari kredit olishga da'vogar o'z mijozlariga kredit berish masalasiga uzil-kesil bir xilda yondashmasliklari lozimligini anglatadi. Kredit faqat uni o'z vaqtida qaytarishga qodir bo'lgan xo'jalik organlariga berilishi lozim. Ehtimol tutilgan qarz oluvchilar sifatiga ularning balansini likvidlik, o'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik, rentabellikning joriy va bo'lg'usi darajasi nuqtai nazaridan tahlil qilish yo'li bilan baho beriladi.

Mijozning kredit qobiliyati darajasi muayyan mijoz va unga berilgan muayyan suda bilan bog'langan bank uchun individual yoki xususiy kredit riskining ko'rsatkichi hisoblanadi.

3. Kreditning ta'minlanganligi asosiy kredit risklaridan biri – qarzning uzilmaslik riskini qoplash imkonini beradi. Agar bu prinsip e'tiborga olinmaganida, bank ishi spekulativ ishga aylangan, bu erda operatsiyalarni amalga oshirish riskining kattaligi foiz stavkalari sezilarli darajada o'sishiga olib kelgan bo'lur edi.

Kreditning ta'minlanganligi muammosining echimi kreditlash tipi va ssuda ob'ektiga bog'liq bo'ladi. O'n yilliklar mobaynida samarali ish olib borayotgan, yaxshi va uzoq kredit tarixiga ega bo'lgan, bozorda etakchi mavqeni egallagan, mashhur professionallar tomonidan boshqariladigan katta kompaniya uchun kreditlarni ta'minlash masalasi bir yondashuvni taqozo etadi. Endigina ro'yxatga olingan va o'z tadbirkorlik faoliyatini noldan boshlayotgan kichik korxonalar uchun ssuda masalasini echish kreditni ta'minlash masalasini echishni talab qiladi.

4. Bank ssudalarining to'lovliligi kredit oluvchilar pul mablag'laridan vaqtinchalik foydalanganlik uchun ma'lum miqdorda haq to'lashini anglatadi. Bu prinsip bank foizi mexanizmi orqali amalga oshiriladi. Bank foizi stavkasi – bu bank kreditining o'ziga xos "narxi"dir. Kreditning to'lovliligi korxonalarining xo'jalik yuritish (tijorat) borasidagi mo'ljallariga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatishini, ularni o'z resurslarini ko'paytirish va

jalb qilingan mablag'lardan tejamli foydalanishga da'vat etishini nazarda tutadi. Kreditning to'lovliligi bankka depozitlarga jalb qilingan mablag'lar uchun foizlar to'lash, o'z apparatini saqlash bilan bog'liq xarajatlarni qoplash imkonini beradi, shuningdek kreditlash uchun resurslar (zaxira, ustav) fondlarini ko'paytirish, ulardan o'z ehtiyojlarida va boshqa maqsadlarda foydalanish uchun daromad olishni ta'minlaydi.

Kredit uchun haq miqdori masalasini ko'rib chiqishda banklar quyidagi omillarni hisobga olishlari lozim:

- O'zR MBning qayta moliyalashtirish stavkasini;
- kredit resurslari tarkibini (jalb qilingan mablag'lar ulushi qancha ko'p bo'lsa, kredit shuncha qimmat bo'lishi lozim);
- ehtimol tutilgan qarz oluvchilar tomonidan kreditga bo'lgan talabni (talab qancha kam bo'lsa, kredit shuncha arzon bo'ladi);
- kredit so'ralayotgan muddatni, kredit turini, aniqrog'i kreditni ta'minlash vositasiga qarab uning bank uchun risklilik darajasini;
- mamlakatdagi pul muomalasining barqarorlik darajasini (inflyasiya sur'ati qancha yuqori bo'lsa, kredit uchun haq shuncha qimmat bo'lishi lozim, chunki bankda pullarning qadsizlanishi natijasida o'z resurslarini yo'qotish riski ortadi).

Bank tomonidan kreditlash prinsiplarining barchasidan amalda to'laqonli foydalanish kredit bitimining ikkala sub'ekti – bank va qarz oluvchining makroiqtisodiy manfaatlariga ham, ularning mikrodarajadagi manfaatlariga ham rioya etish imkonini beradi.

MDH mamlakatlari bank tizimining vujudga kelish jarayonining dastlabki bosqichida bank uchun banklararo kreditlar mablag'larni to'ldirishning birdan-bir manbai sanalar edi. Jahon amaliyotida depozitlar shunday manba hisoblanadi. Banklararo kreditlar muammosini echish uchun dastlab kredit do'konlaridan foydalanilgan. Do'konga resurslarni sotib olish va realizatsiya qilish haqida ariza berish mumkin bo'lgan, shundan so'ng "qisqa pullar" bozori (kredit muddati – 1-7 kun) ishlay boshlagan. "Qisqa pullar" sotuvchilarni ham, xaridorlarni ham (ayniqsa sotuvchilarni) o'ziga tortgan. Kreditni qaytarish muddatlari qisqa bo'lgani bois risklar sezilarli darajada kamaygan. SHu bilan bir vaqtda qisqa muddatli banklararo valyuta depozitlari, banklararo valyuta kreditlari bozorlari shakllangan. Banklararo kreditlash borasidagi faoliyatga inflyasiya va iqtisodiyotning barcha sektorlarida to'lamaslik hollarining ko'payishi o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bozor qonunchilik bazasi, yagona qoidalar, texnologiyalar, tartib-taomillar, tahlil xizmatlariga ega bo'lmagan holda ish ko'ra boshladi. To'lovga layoqatsizlik holatida bozor ishtirokchilarining moddiy javobgarligi mexanizmi mavjud emas edi.

Operatsion tizimlar, masalan REUTERS DEALING bitimlarni operativ tuzish uchun texnik imkoniyatlar yaratadi. Banklar standart (joriy kotirovkalar, shartlar va hokazolar haqida) axborot oladi, shuningdek bitimlarni amalga oshirish uchun muayyan vositalarga ega bo'ladi. Operatsion tizimlar daromadi hisob-kitob ishtirokchilarining vositachilik va abonent haqlaridan tarkib topadi.

Tijorat banki boshqa banklardan to'g'ridan-to'g'ri yoki vositachi (boshqa bank, fond birjasi, brokerlik idorasi va boshqalar) orqali kreditlar olishi mumkin. Banklararo kredit ancha qimmat kredit resursi hisoblanadi, biroq, depozitlardan farqli o'laroq,

banklararo kreditlar bo'yicha zaxiraga oid talablar qo'yilmaydi, shu sababli banklararo kreditning butun summasidan bank daromadli qo'yilmalar uchun foydalanishi mumkin.

Kredit resurslari narxi – kredit bo'yicha foiz stavkasi banklararo kreditlar bozorida talab va taklifning o'zaro ta'siri natijasida tarkib topadi.

Banklararo kreditlar bozorida foiz stavkalari darajasi kreditlar muddatlariga qarab differensiallanadi.

Banklararo kreditlar bozorida kredit bitimlari standart vaqt rejimlarida va boshqa muddatlarga tuziladi. Banklararo kreditlarni farqlashda banklararo bitimlar nomiga qarab mo'ljallanish kerak. Masalan, overnait banklararo kreditlarining aksariyati depozitlar sifatida qaralishi lozim. Onkol ssudalari ham banklararo kreditlar qatoriga kiradi. Onkol ssudasi – bu qaytarishlik, to'lovlilik va muddatlilik, ta'minlash, garov qo'yish va maqsadli foydalanish shartlarida bir yildan o'ttiz yilgacha muddatga beriladigan banklararo ssuda.

Markaziy bank quyidagi bank ssudalarini beradi:

-ikkinchi daraja banklarda mablag'lar vaqtinchalik mavjud bo'lmagan yoki korrespondentlik hisobvaraqlarida mablag'lar etarli bo'lmagan holda to'lovlarni amalga oshirish va mijozlar topshirig'iga ko'ra pullarni o'tkazish uchun mo'ljallangan kunduzgi bank ssudalari;

- overnait – banklarning Markaziy bankdagi korrespondentlik hisobvaraqlarida debet qoldig'i yuzaga kelgan holda banklar hisob-kitoblarni yakunlashi uchun bir kechaga beriladi;

- oxirgi instansiya kreditori sifatida beriladigan qarzlari;
- maxsus ahamiyatga molik qarzlari.

Banklararo bozor ko'p sonli kontragentlarmavjudligi bilan tavsiflanadi. Bank normal faoliyat olib borgan holda unda zaxiralar va ortiqcha resurslarga ehtiyoj tug'iladi. Ehtiyoj yoki ortiqcha resurslar bankning korrespondentlik hisobvarag'iga mijozlarning to'lovlari tushishini aniq redalashtirish mumkin emasligi tufayli yuzaga keladi. SHu sababli bankda vaqti-vaqti bilan yuzaga keladigan ortiqcha resurslar mijozlarning hisobvaraqlariga tushuvchi pul mablag'laridan tashkil topadi va tegishli ravishda qisqa muddatli xususiyat kasb etadi.

Bank likvidlikni saqlash uchun bu ortiqcha resurslarni qaytarishning ishonchlilik darajasi yuqori bo'lgan sharoitlarda qisqa muddatga joylashtirishi talab etiladi. Tijorat banki banklararo kreditlar bozorining ishtirokchisi hisoblanadi va navbatma-navbat kreditlar va qarz oluvchi sifatida amal qiladi. Bu kreditlar tijorat bankining likvidlik darajasini tartibga solishning oqilona vositasi hisoblanadi.

Bitimni amalga oshirish tezligining yuqoriligi banklararo kreditning afzalligi bo'lib xizmat qiladi. Tijorat bankida ortiqcha resurslar paydo bo'lgani zahoti undan banklararo bozorda foydalanilishi mumkin, chunki banklararo kredit qisqa muddatli bank resurslarini joylashtirishning eng tez va ishonchli usuli hisoblanadi.

Banklararo kreditning ikki asosiy vazifasini qayd etish mumkin: banklararo kreditlar bank uchun daromad olishning spekulativ usuli, shuningdek joriy likvidlikni saqlash vositasi hisoblanadi. Bu hol asosan banklararo kreditlarning qisqa muddatli xususiyatini belgilaydi: ular, odatda, 1-2 kunga beriladi.

Bunday qisqa vaqt ichida bankning moliyaviy holati o'zgarishi mumkin emas, shu sababli kredit berilgan holda qarz oluvchi bankning kredit qobiliyatini tahlil qilishni amalga oshirish uchun hojat ham, imkoniyat ham mavjud bo'lmaydi.

Banklararo resurslar bozorida operatsiyalar tijorat banklari tomonidan Banklararo resurslar bozorida hamkorlik to'g'risidagi yoki Ichki pul bozorida operatsiyalarni o'tkazishning umumiy shartlari to'g'risidagi bitimga muvofiq o'tkaziladi. Bu hujjat har bir bitim bo'yicha emas, balki bir marta uzoq muddatga tuziladi. Bu erda banklar bir-biri bilan amalga oshiruvchi operatsiyalar, bitimlarni o'tkazish tartibi, hujjatlar taqdim etish tartibi kelishiladi. Bitimni tuzgach, banklar o'z ehtiyojlariga muvofiq qisqa muddatli banklararo kreditlar bilan o'zaro oldi-sotdi qilish bitimlarini amalga oshira boshlaydilar. Lekin bitim tuzish bilan bevosita dilerlar shug'ullanadi.

Diling – valyuta, qimmatli qog'ozlar, depozitlar, qimmatli qog'ozlar bilan bitimlarni telefon, teleks va boshqa aloqa vositalari yordamida amalga oshirish. Bitim shartlari yo telefon orqali, yo "REYTER" tizimi orqali kelishilishi mumkin. REYTER axborot tizimi turlaridan biri "Diling 2000" deb ataladi, shuningdek "PRIZMA" deb ataluvchi zamonaviyroq diling tizimi mavjud.

Mazkur bitim og'zaki muzokaralarga muvofiq tuzilib, keyinchalik yozma tarzda rasmiylashtiriladi. Muzokaralar o'tkazilib, og'zaki kelishuvga erishilganidan so'ng tizim bitim sharti qayd etilgan muzokaralar bayonnomasini o'z-o'zidan qog'ozga chiqaradi ("TIKET"). Diler bitimni tuzadi, unga imzo chekadi va uni banklararo kreditlarni rasmiylashtirish bo'limiga topshiradi.

Kredit arizasini ko'rib chiqishning o'ziga xos xususiyati shundaki, uni qabul qilish yoki rad etish quyidagi shartlarga rioya etgan holda amalga oshiriladi:

- kreditlashning belgilangan limitiga rioya qilish;
- banklararo kreditlar bozorida tez-tez o'zgarib turuvchi foiz stavkalarining maqbulligi;
- kreditor bankda bo'sh pul resurslarining mavjudligi.

Bugungi kunda banklarning moliyaviy holatini tahlil qilishning bir qancha metodikalari mavjud, lekin ularning umumiy kamchiligi shundaki, ular banklararo kreditlarni boshqarish jarayonini hisobga olmasdan ishlab chiqilgan.

Ma'lumotlarning manbalari nuqtai nazaridan, kredit tahlili ikki jihatni o'z ichiga oladi:

- kontragent banklardan olingan buxgalteriya ma'lumotlariga muvofiq o'z tahliliy materiallarini yaratish;
- tashqi manbalar – iqtisodiy va kasbiy adabiyotlar, ommaviy axborot vositalaridan olingan ma'lumotlarni tahlil qilish.

Birinchi tahlil nisbatan aniqroqdir. Buxgalteriya axborotiga muvofiq qarz oluvchi bankka baho berishning ikki tomoni qamrab olinadi:

1. Bankning tahliliy tavsifi:

- afzalroq operatsiyalar;
- umumiy daromaddorlik;
- aktivlar;
- passivlar.

Mazkur tavsiflash foyda va zararlar balansi ma'lumotlariga muvofiq o'tkaziladi.

2. Har bir qarz oluvchi bankni qolgan banklar bilan taqqoslash, shu sababli banklarning ishonchlilik reytingini tuzish lozim.

Bankni tahliliy baholash uning portretini yaratish imkonini beradi, qarz oluvchini reyting usulida baholash esa boshqa banklarga nisbatan uning qiyosiy tavsifini aks ettiradi. Qarz oluvchi bankni tahlil qilish natijasida tahliliy materiallar:

- tijorat banking asosiy balansiga muvofiq tuzilgan tahliliy balans;
- bankni reyting usulida baholash natijalari jamlanadi.

Banklararo kreditlar bozorida kontragentlarni tanlashda banklar o'z bo'lg'usi qarz oluvchisining huquqiy holati va moliyaviy ahvolini hisobga oladi. Qarz oluvchining moliyaviy ahvoli balans ma'lumotlari va iqtisodiy normativlarga muvofiq aniqlanadi. SHuningdek reytinglar haqidagi axborotdan ham foydalaniladi. Bu ma'lumotlarga asoslanib kontragent uchun kredit riskining yo'l qo'yiladigan kattaligi – mazkur qarz oluvchi uchun kreditning eng katta miqdorini hisoblab chiqarish mumkin.

Tijorat banki banklararo kreditlar bozorida yuqorida zikr etilgan limitni hisoblab topmasdan kontragent bilan ish boshlamaydi. Kontragent banklar uchun belgilanadigan limitni hisoblab topishning maxsus metodikalari mavjud bo'lib, ular har qanday bankning holatiga balans ma'lumotlari, iqtisodiy normativlar, balans hisobvaraqlari ma'lumotlariga muvofiq aniq baho berish uchun imkoniyat yaratadi. Ko'pincha limit kontragent bankning o'z kapitali haqidagi ma'lumotlarga muvofiq bankning moliyaviy ahvolini aks ettiruvchi maxsus sintetik koeffitsient yordamida hisoblab chiqariladi. Bu koeffitsientni kontragent bankning o'zi ishlab chiqadi. Banklar o'zlari bilan hamkorlik qiluvchi banklar faoliyatiga ularning reytingiga ko'ra baho berishlari ham mumkin.

Reyting – banklar faoliyatining maxsus ko'rsatkichlari. Reyting zamirida berilgan belgiga ko'ra umumiy tavsif yotadi. U mazkur belgining kamayib borish darajasiga qarab tijorat banklarini muayyan ketma-ketlikda guruhlash imkonini beradi. Reytinglar bank nazorati organlari tomonidan banklarning hisobot ma'lumotlari va joylarda o'tkazilgan tekshiruvlar ma'lumotlarining tahliliga muvofiq tuzilishi mumkin.

Banklararo kreditlash moliya bozorining boshqa sektorlarida bankning aktiv operatsiyalari uchun mablag'lar etkazib beruvchi hisoblanadi. Banklararo kreditlash bankning joriy likvidligini ta'minlash vositasidir. Banklararo kreditlash kreditni jalb qilish va joylashtirish narxlari o'rtasidagi tafovut va har xil muddatli kreditlar bo'yicha stavkalarni differensiallash hisobiga qo'shimcha daromad manbai hisoblanadi. Banklararo kreditlar bozor kon'yunkturasida yuz bergan o'zgarishlarga darhol moslashadi. Banklararo kreditlash bank faoliyatining eng barqaror turlaridan biri hisoblanadi. U banklarga kredit tarixiga ega bo'lish, o'zini ijobiy tomondan namoyish etish, ishonchli mijozlar va sheriklar topish imkonini beradi.

Kreditorlar qatoriga quyidagilar kiradi: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, ikkinchi daraja banklar. Banklararo kreditlash vositachilari: brokerlik idoralari, fond birjalari, moliya uylari va kredit do'konlari. Qarz oluvchilar: ikkinchi daraja banklar va nobank kredit muassasalari.

Banklararo kreditga bo'lgan ehtiyojlar tasnifi:

- to'lov aylanmasidagi uzilish – kredit summasi qarz oluvchining o'z kapitalidan ortiq bo'lmashligi tavsiya etiladi;
- joriy likvidlikka bo'lgan ehtiyoj;
- jalb qilingan va joylashtirilgan mablag'larning muddatlari va summalari o'rtasidagi nomutanosiblik;
- aktiv va passiv operatsiyalar bo'yicha mukofot stavkalaridagi tafovut hisobiga daromad olish;
- valyuta fond bozorida operatsiyalarning kengayishi.

Pirovard qarz oluvchi kreditni qaytarmasligi ehtimoli bank kreditor bank oldida o'z majburiyatlarini bajarmasligi xavfini yuzaga keltiradi. Kreditni qaytarish uchun bank "qisqa pullar"ni qarz olishga majbur bo'ladi. SHuni e'tiborga olish lozimki, bu chora likvidlik muammosini hal qilish imkonini bermaydi. Natijada banklararo inqiroz yuzaga kelishi mumkin.

Banklararo kredit kredit shartnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Banklararo bozorda hamkorlik bosh bitim bilan rasmiylashtiriladi. Kredit shartnomasida quyidagilar nazarda tutilishi lozim:

- shartnoma predmeti;
- kreditlash ob'ekti (kredit maqsadi);
- shartnoma muddati;
- shartnoma narxi (mukofot);
- kreditni ta'minlash;
- shartnoma bo'yicha taraflarning huquqlari, burchlari va javobgarligi;
- boshqa shartlar (fors-major holatlar); imzolar.

Tijorat banklari o'z kredit resurslarini boshqa banklarning resurslari, ya'ni banklararo kreditlar hisobiga to'ldirishlari mumkin.

Deyarli barcha banklar vaqti-vaqti bilan ortiqcha kredit resurslariga ega bo'lishi yoki aksincha, ularga vaqtinchalik ehtiyoj sezishi mumkin. Bu muammo banklararo kreditlar bozorida hal qilinadi. Vaqtinchalik bo'sh kredit resurslari daromad keltirishi uchun kreditor banklar ularni boshqa qarz oluvchi banklarga joylashtirishga harakat qiladilar. Mablag'larni bunday joylashtirish ularni xo'jalikka joylashtirishga qaraganda ishonchliroq hisoblanadi, chunki bank tomonidan mablag'larning qaytarilish kafolati yuqoriroq bo'ladi. Qarz oluvchi bank mablag'larni jalb qilishiga har xil omillar sababchi bo'ladi: bank likvidligini operativ tartibga solish zaruriyati, aktiv operatsiyalarini kengaytirish uchun qo'shimcha mablag'larga ehtiyoj va h.k. YAngi ochilgan va mijozlar doirasi torligi tufayli muomalaga kiritilmagan resurslarga ega bo'lgan banklar ham banklararo kreditlar bozorida faol kreditorlarga aylanishi mumkin. Kredit resurslarini joylashtirish shartlari va muddatlari har xil bo'ladi. Halqaro amaliyotda bir kundan bir necha yilgacha bo'lgan muddatlar ayniqsa ko'p uchraydi. Banklararo kreditlarni jalb qilish ikki usulda: to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar olib borish yo'li bilan mustaqil yoki moliyaviy vositachilar orqali amalga oshiriladi. Banklararo kredit haqida banklar o'zi kelishgan holda ularning munosabatlari maxsus shartnoma bilan rasmiylashtiriladi. Banklararo kreditlarning asosiy qismi muddatli shaklda, qolganlari – muddatsiz tuziladi. Iqtisodiy beqarorlik sharoitida kredit bozorida vaziyat qanday shakllanishi va bankning moliyaviy

ahvoli qanday bo'lishini bashorat qilish qiyin: kredit resurslarining taqchilligi yuzaga kelishi yoki ortiqcha resurslar paydo bo'lishi mumkin. Banklararo shartnomaning muddatsiz shakli banklararo kreditni shartnomada nazarda tutilgan minimal muddatga berishni nazarda tutadi. Bu muddat o'tganidan so'ng kredit muddatsiz kreditlar darajasiga o'tadi, ya'ni kreditor bank tomonidan istalgan vaqtda oldindan xabar berish yo'li bilan talab qilinishi mumkin. Kredit resurslarini qarzga olgan bank ularni qaytarish imkoniyatiga ega bo'lmasa, u boshqa banklardan muddatli qarzlar oladi. SHartnomaning muddatli yoki muddatsiz shaklida foiz stavkasi shartnoma tuzilgan kunda bozorda yuzaga kelgan foiz stavkasi darajasidan kelib chiqib belgilanadi.

Muddatsiz shaklda stavka odatda shartnoma amal qiladigan butun davr mobaynida, ya'ni minimal muddat o'tganidan keyin ham o'zgarishsiz qoladi. Muddatli banklararo kredit shartnomasi uzaytirilgan holda stavka shu davrda yuzaga kelgan stavka darajasidan kelib chiqib qayta ko'riladi.

Banklararo kredit ustidan nazorat asosiy zonasi – bankning korrespondentlik hisobvarag'idan mablag'lar o'z vaqtida o'chirilishi ustidan nazorat. Mablag'larni o'z vaqtida o'chirmaslik kreditor bank obro'siga putur etkazadi. Bu hol shu bilan izohlanadiki, banklararo kreditlar spekulyativ vosita, shuningdek bank likvidligini quvvatlash vositasi hisoblanadi. Pul mablag'lari hisobdan o'chirilgani bankning korrespondentlik hisobvarag'idan ko'chirma bilan tasdiqlanadi.

Banklararo kredit berilganini balansda aks ettirish pul mablag'lari bankning korrespondentlik hisobvarag'idan o'chirilganidan keyin darhol amalga oshiriladi.

Kredit qaytarilgani va undan foydalanganlik uchun foizlar to'langani balansda pul mablag'lari bankning korrespondentlik hisobvarag'iga tushganidan keyin aks ettiriladi. Bankning korrespondentlik hisobvarag'idan olingan ko'chirmadan banklararo kreditdan foydalanganlik uchun foiz miqdorini hisoblash uchun foydalaniladi. Odatda bankning korrespondentlik hisobvarag'idan pul mablag'lari o'chirilgan kun va kredit qaytarilgan kun foizni hisoblashda bir kun deb olinadi. To'lov hujjatlarini to'g'ri rasmiylashtirish alohida nazorat qilinishi lozim, chunki hujjatlar noto'g'ri rasmiylashtirilgan taqdirda pul mablag'larini etkazib berish o'z vaqtida amalga oshirilmaydi va banklararo kreditlarning bosh maqsadi – qarz oluvchi bankning korrespondentlik hisobvarag'ida o'ta likvid mablag'larga bo'lgan shoshilinch ehtiyojini qondirishga erishilmaydi.

3. Banklararo kreditlarning tarkibi va dinamikasi

Banklararo kreditlarning tarkibi va dinamikasi holati bevosita banklararo pul resurslariga bog'liqdir. Banklararo pul resurslari bozorini tahlil qilmasdan turib banklararo kreditlar dinamikasi holatini tushunish qiyinroq bo'ladi.

Bank kreditlarini banklararo kreditga aylanishi ham banklararo pul resurslari bozorida vujudga keladi. Ularning dinamikasi esa pul resurslarini almashtirishi va oshirishi natijasida vujudga keladigan hisob ko'rsatkichlarining umumiy yig'indisidir. SHunday ekan, biz bu rejamizda avval banklararo pul resurslari bozorini holatini undan keyin esa banklararo kreditlarni dinamikasini ko'rib chiqamiz.

Banklararo bozor moliya bozorining segmentlaridan biri hisoblanib, bank investitsiyalarini real iqtisodiyotga bank tizimida jamlangan mablag'larni tez va samarali qayta taqsimlash orqali joylashtirishni ta'minlaydi. Banklararo bozorning faoliyat yuritishi

iqtisodiyot uchun investitsiya bo'yicha ma'lum qarorlarni qabul qilish nuqtai nazaridan ularning umumiy hajmi va samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi va pirovard natijada iqtisodiy o'sishga erishishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Banklararo bozor faoliyatida tartibga solingan tizimning mavjudligi har qanday zamonaviy bank tizimining asosini tashkil etib, banklarning zaruriy mablag'lardan foydalanishlarini engillashtiradi, bank bitimlari xajmini ko'payishini ta'minlaydi, qo'shimcha mablag'larni ushlab turish zaruriyatini pasytiradi. SHuningdek banklarning ham harajatlar evaziga yanada samarali ishlashlariga imkoniyat yaratib beradi. YAxshi ishlaydigan banklararo bozor nafaqat banklar faoliyatini engillashtiradi, balki, bozor nomutonositliklarini vujudga kelishini kamaytiradi. Har qanday bank tizimiga likvidlikni tebranishi xos. Lekin yaxshi faoliyat yuritayotgan banklararo bozor likvidli mablag'larning nazarda tutilmagan iste'moli natijasida vujudga kelgan nobarqarorlikni kamaytiradi va kutilmagan holatlarga nisbatan bank sektori barqarorligini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi real sektorini rivojlantirish va kichik biznesni qo'llab quvatlash masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan va bunda tijorat banklariga ularni moliyalashtirish vazifasi yuklatilgan. Ushbu jarayonlarda har bir bankning ishtirok etishi to'g'ridan-to'g'ri ularning mablag'larini boshqarish darajasi bilan bog'liq. Boshqa tomondan esa banklarni likvidligi va rentabelligi darajasi mavjud aktiv va passivlarini boshqarish samaradorligiga bog'liqdir.

Banklar vaqtinchalik erkin aktivlarni joylashtirish, bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun resurslarni jalb qilish va o'zini likvidligini ta'minlash maqsadida banklararo bozorda ishtirok etadilar. Banklararo bozor ushbu mablag'larga ehtiyoji bo'lgan va yuqori rentabellikga ega bo'lgan biznes sub'ektlari o'rtasida erkin pul mablag'larini qayta taqsimlanishini ta'minlaydi. Sanab o'tilgan vazifalarni bajarish uchun yaxshi rivojlangan banklararo bozor mavjud bo'lmog'i lozim.

Banklararo bozorda mablag'lar asosan quydagi ko'rinishlarda mavjud bo'ladi.

- banklararo kreditlar;
- banklararo depozitlar;
- korespondent hisoblarining qoldiq mablag'lari;
- vakolatli banklar tomonidan iqtisodiyotni ustivor yo'nalishlarini rivojlantirishga mo'ljallangan markazlashtirilgan kredit mablag'lari;
- auksion asosida taqsimlanadigan markazlashtirilgan kredit mablag'lari.

Tijorat banklari banklararo bozorga asosan quydagi holatlarda murojat qiladi:

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (MB) tomonidan o'rnatilgan zahira me'yorini bajarishlari uchun;
- investitsion loyihalar va kredit operatsiyalariga mablag'lar jalb qilishlari uchun;
- joriy likvidligini ushlab turish uchun (shu jumladan, naqd pullarni mustaxkamlash uchun);
- arbitraj o'tkazishlari uchun.

O'zbekiston Banklari Assotsiatsiyasi huzuridagi "Banklararo Maslahat Xizmati" MCHJ tomonidan banklararo kreditlar (depozitlar) bo'yicha milliy valyutadagi foiz stavkalarining uchta indeksi UZIBOR, UZIBID va UZIAR joriy etilganligi respublika bank va moliya tizmini rivojlantirishdagi muhim voqealardan biri bo'ldi.

Indekslar sakizta har xil muddat- bir kun (overnight), bir hafta, bir oy, ikki oy, olti oy, to'qqiz oy va bir yil muddat bo'yicha hisoblab chiqariladi.

Hozirgi vaqtda sakkizta bank (O'zR TIF MB, "Asaka" banki, "Agro Banki", "Qishloq qurilish bank", Halq banki, "Kapitalbank", "Ipak yo'li", banki va "Ravnaqbank") har kuni soat 11:30 gacha banklararo depozitlarni yuqorida ko'rsatilgan muddatlar bo'yicha joylashtirish va jalb etish yuzasidan kotirovkalarni kiritadilar. Foydalanilayotgan DEPO MARKET dasturi avtomat usulda uchta indeksni hisoblab chiqaribgina qolmasdan, shu bilan birga banklarga Reuters Dealing diling tizimiga o'xshab, muzokaralar olib borish va bitimlar tuzish imkonini ham beradi.

Eslatib o'tamiz, UZIBOR (Uzbekistan Interbank Offered Rate) sotuvchi banknig sumlardagi banklararo kreditlar (depozitlar) bo'yicha banklararo stavkasi bo'lib, 2004 yil may oyida joriy etilgan. 2005 yil boshlarida UZIBID va UZIAR joriy etildi. UZIBID (Uzbekistan Interbank Bid Rate)- foiz stavkasi bo'lib, shu stavka bo'yicha banklar O'zbekiston banklararo bozoridan mablag'larni jalb etishga tayyor bo'ladilar, UZIAR (Uzbekistan Interbank Avaraje Rate)- O'zbekistonning banklararo o'rtacha mediana stavkasi bo'lib, UZIBID bilan UZIBOR o'rtasida turadi. Garchi banklar bo'sh mablag'larini o'zlari ko'rsatgan OFFER (stish kursi) va BID (xarid kuri) stavkalari bo'yicha jalb etish yoki joylashtirishga majbur bo'lmasalar-da, amaldagi stavkalar o'sha kuni indekslarni hisoblab chiqarish chog'ida ko'satilgan stavkalardan katta farq qilmasligi kerak. UZIARDan banklararo bozorning barqarorligini aniqlash uchun foydalanish mumkin: OFFER va BID stavkalari o'rtasidagi farq (spred) qancha kam bo'lsa, banklararo bozor shunchalik barqaror bo'ladi va aksincha.

Banklararo kredit va banklararo bozorni yanada ochiqroq o'rganish maqsadida banklararo kredit tarkibini va ular bank resurslari tarkibida qanchalik ulushga ega ekanligi hamda uni bank likvidligiga qanchalik ta'sir qilayotganini ko'rib chiqamiz.

Tijorat banklarining resurslarining boshqarishning asosiy mezonlaridan biri jalb qilingan mablag'larning oqilona qymatini shakillantirish hisoblanadi. Tijorat banklariga jalb qilingan mablag'larning bahosi ularning aktiv operatsiyalari bo'yicha o'rnatiladigan foiz darajasiga bevosita ta'sir qiladi. SHu bois ham jalb qilingan mablag'larning bahosini boshqarishda asosiy e'tibor ularni nisbatan arzon manbalar hisobidan shakillantirishga qaratiladi.

Ta'kidlash lozimki, tijorat bankining jalb qilingan mablag'lari qiymati jihatidan arzon va qimmat mablag'larga guruhlanadi. Lekin arzon mablag'lar bank uchun muddati jihatidan nisbatan nobarqaror mablag'lar hisoblanadi. CHunki ushbu mablag'lar uning sohibi tomonidan kutilmagan bir paytda qisman yoki to'lig'icha talab qilinishi natijasida bankni nolikvid holatiga tushib qolishiga sabab bo'ladi.

Tijorat banklarining jalb qilingan mablag'lari tarkibida talab qilib oluguncha saqlanadigan depozitlar, Markaziy bankdan olingan kreditlar va boshqa jalb qilingan mablag'lar qiymati jihatidan arzon, lekin muddati jihatidan nobarqaror ya'ni moliyaviy nobarqaror resurslar hisoblanadi.

Qimmat mablag'lar guruhiga tijorat banklarining regulyativ kapitali tarkibidagi ustav kapitali, muddatli depozitlar, jamg'arma va depozit sertifikatlar, **banklararo kreditlar** va boshqa mablag'larni kiritish mumkin. Ushbu mablag'lar qiymati jihatidan

qimmat mablag'lar bo'lsada, ular muddati jihatidan nisbatan moliyaviy barqaror hisoblanadi.

Xalqaro bank tajribalari va amaliyotdagi mavjud holatlarning natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, tijorat banklari likvidligini ta'minlashda moliyaviy barqaror mablag'larning ulushi qanchalik yuqori bo'lsa, ular likvidligini ta'minlash yuzaidan muammolar shunchalik kam bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kreditlar tarkibida banklararo kreditlarning ulushi boshqa kreditlarga nisbatan yuqori salmoqqa ega ekanligi respublikamiz banklari o'rtasida resurslarni o'zoro almashish jarayoni faol darajada amalga oshirilayotganidan dalolat beradi. Lekin kreditlarning nisbatan qimmatligi va moliyaviy barqarorligini e'tiborga oladigan bo'lsak, ularni mablag'lar tarkibidagi ulushini pasayish tendensiyasiga ega ekanligini salbiy holat sifatida baholash mumkin.

Tijorat banklarining depozitsiz manbalari tarkibida markaziy bankdan olingan kreditlar hajmining pasayishi, qimmatli qog'ozlar hisobidan shakillantirilayotgan mablag'lar hajmining keskin darajada pastligi va banklararo kreditlarning salmog'ini pasayishi tendensiyasiga ega ekanligi kabilar salbiy holat sifatida baholanadi.

Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklari resurslari tarkibida Markaziy bankdan olingan kreditlarning hajmi yuqori salmoqni tashkil etadi. Markaziy bank tijorat banklariga kredit berishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad, **birinchidan**, Markaziy bank qayta moliyalash instrumenti orqali iqtisodiyotda pul-kredit siyosatini amalga oshiradi, **ikkinchidan**, tijorat banklarini arzon moliyaviy resurslar bilan ta'minlaydi.

Ta'kidlash lozimki, Markaziy bankning qayta moliyalash instrumenti (uchyotnaya stavka) mamlakatda pul-kredit siyosatining samarali vositasi sifatida foydalanilmayapti. Vaholanki, xalqaro bank amaliyotida mamlakatda amalga oshirilayotgan pul-kredit instrumentlari ichida ushbu vositadan faol ravishda foydalanadi.

Tijorat banklari Markaziy bankning qayta moliyalash instrumenti asosida depozitsiz resurslarining asosiy qismini shakillantiradi.

Masalan, Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi asosida berilgan kreditlar Xitoy, Qozog'iston, Rossiya, Litva, AQSH banklarining jalb qilingan resurslari tarkibida 0,5 foizdan 8,0 foizgachani tashkil qiladi.

Tijorat banklarining resurslari tarkibida Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi asosida berilayotgan mablag'lari arzon moliyaviy manba bo'lib, tijorat banklari ushbu resurslarni mumkin qadar ko'proq jalb etishga ishtiyoqman bo'lishadi. Chunki tijoart banklari tomonidan aktiv operatsilarga joylashtirilgan ushbu mablag'larning foydalilik darajasi yuqori bo'lishi bilan birga banklar uchun nisbatan moliyaviy barqaror manba hisoblanadi.

Respublikamiz tijorat banklari resurslari tarkibida ushbu manba hisobidan shakillantirilayotgan mablag'larning amaliyotdagi holatini tahlili natijasida bu manbadan foydalanish imkoniyati barcha banklar uchun ham bir hilda emasligini guvohi bo'ldik. YUqoridagi jadval ma'lumotlariga murojat qiladigan bo'lsak, Markaziy bankdan olingan mablag'larning ulushi 2011 yilda "0" foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatgich 2015 yilga qadar o'zgarishsiz qolgan. Bu mablag'lar ham asosan, TIF milliy bankiga hukumat kafolati ostida 2010 yilga qadar olingan horijiy kreditlarni qoplashga berilgan.

Banklararo bozorda qo'yilmalar hajmi banklarning katta kichikligiga bog'liq bo'ladi. Ushbu bozor sektorining hajmi kichik banklar operatsiyalari bilan teng bo'ladi. Biz bu holatni quydagi jadval asosida ko'rib chiqamiz.

1-jadval

Banklararo qisqa muddatli kreditlarni joylashtirish muddatlari bo'yicha tarkibi.⁴⁰
(31.06.2015 yil holatiga)

Kredit turlari	Hajmi(%)	Oylar bo'yicha joylashtirish muddatlari (%)			
		1 oygacha	1 oydan 6 oygacha	6 oydan 12 oygacha	12 oydan ortiq
Qisqa muddatli,	100	33,2	57,9	7,9	1
-yirik banklar;	57,2	44,78	67,5	29,21	100
-o'rta banklar;	41,7	54,42	31,64	66,29	0
-kichik banklar;	1,1	0,86	0,86	4,49	0
JAMI:	100	100	100	100	100

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, yirik banklar ulushi 87,85 foizni, o'rta banklar guruhlari 11,85 foizni va kichik banklar 0,3 foizni tashkil qilgan. Ushbu tahlillardan ko'rinib turibdiki, yirik banklar guruhlari banklararo bozorda qushimcha mablag'larni jalb qilish uchun faol ishtirok etganlar. Banklararo kreditda yuqori 1-bobda keltirganimizdek muddat ko'rsatkichining muhimligi banklar uchun muhim vazifa o'taydi. Holbuki banklarning banklararo bozorda qanchalik darajad yoki qaysi muddatlarda ishtirok etishi uning likvidligiga bevosita ta'sir qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Hukumatini makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustaxkamlashga yo'naltirilgan iqtisodiy siyosati respublika bank tarmog'iga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Bank tarmoqlari o'sishi dinamikasini Banklararo "Axborot-reyting" reyting kompaniyasi umurespublika reytingi qatnashchilari- tijorat banklari misolida ko'rib chiqilganda, bir yil ichida o'zbek banklarida kapitallashuv sezilarli o'sganligini guvohi bo'lamiz. Ijobiy o'sish dinamikasi, shuningdek, aktivlar, ssuddalar, investitsiyalar va depozitlar kabi ko'rsatkichlarda ham kuzatilgan.

4. Banklararo kreditlar dinamikasiga ta'sir qiluvchi omillar tahlili

O'zbekiston Markaziy banki amalga oshirayotgan pul-kredit siyosati natijasida pul bozorining barqarorligi reja ko'rsatkichlari atrofida saqlanib qolmoqda. O'zR MB qayta moliyalash stavkasining qiymati keyingi yillarda pul bozoridagi vaziyatdan kelib chiqib rejali kamayish tendensiyasiga ega, masalan 2006 yilning 6 oyi moboynda uning miqdori 16 foiz darajisida saqlangan bo'lsa, 2006 yilning 15 iyulidan boshlab 14 foizga tushirildi, hozirgi paytda uning miqdori 9 foizni tashkil etmoqda. Stavkaning pasayishi bozorning umumiy barqarorligi va oxirgi yillar mobaynida inflyasiyaning pastligi sharoitida ob'ektiv omildir. Qayta moliyalash stavkasining darajasi inflyasiya tuzatishini hisobga olganda real ifodasida musbatligicha qolmoqda. Qayta moliyalash stavkasi iqtisodiyotda muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning o'zgarishi bozor ishtirokchilari uchun o'ziga xos signaldir.

⁴⁰www.uzbearingpoint.com сайти маълумотларидан фойдаланилди

Qayta moliyalash stavkasining pasayishi bozorning boshqa stavkalariga, shu jumladan banklararo bozor stavkalariga muayyan darajada ta'sir ko'rsatadi. Bu stavkalar o'rta hisobda 1,0- 1,5 foizga pasaydi. Ishimizda biz Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasini yillar buyicha o'zgarishini ko'rib chiqamiz.

Yaxshi ishlaydigan banklararo bozor mavjud bo'lsa u investitsiyalar samaradorligini xamda banklarning o'z likvidligini oshirish shuningdek bank sektoriinigi oshkoraligini kuchaytirish imkonini beradi. Qoida tariqasida, banklar zarur likvidlik darajasini saqlab turish uchun banklararo bozordan boshqa ishtirokchilar mablag'larini jalb etish; bo'sh turgan resurslarni joylashtirish; o'z korporativ mijozlarining extiyojlarini qondirish va arbitraj bitimlarini o'tkazish uchun qatnashadilar. Banklararo depozitlar ulishi so'ngi yillarda ancha ko'paydi, lekin ular boshqa turdagi depozitlarga qaraganda eng kam bo'lib, banklar umumiy depozit portfelining 10 foizdan oshmaydi.

Uchchala indeksning joriy etilishi alohida olingan har qaysi bankning va butun O'zbekiston bank tizimining tiniqligiga xizmat qiladi. O'zbekiston banklari endilikda sumlardagi bo'sh turgan mablag'larni joylashtirish va jalb etish bo'yicha foiz stavkalariga doir axborotga ega bo'lib, shu tariqa o'zlari beradigan qarzlar va investitsiyalarning samaradorligini oshira oladilar. Banklararo kreditlar stavkalarini qo'llash va ular xaqida ahborotdan foydalanish foiz stavkalrini va ularning boshqa foiz stavkalari bilan o'zaro aloqasini tahlil qilish imkonini beradi. O'zbekiston Markaziy banki monitar siyosatning banklararo bozorga ta'sirini ko'rish mumkin.

2-jadval

2015 yil birinchi yarmidagi UZIBOR indeksining statistikasi⁴¹

	1 kun	1hafta	1 oy	2 oy	3 oy	6 oy	9 oy	12 oy
Modda	10.6	13.5	15	15	16	16	17	17
Minimum	10.2	11.75	13	14	14.8	15	15.8	16.4
Maksimum	11.7	14	15.5	15.95	16.3	16.88	17.31	18
O'rtacha	10.85	13.22	14.51	15.18	15.77	16.15	16.7	17.25
Bazaviy punktlardagi o'zgarish	100	170	180	122	80	90	75	72

Banklararo bozorning UZIBOR stavkasi o'zgarishini tahlil qilish bir kunlik va 12 oylik muddatlar bo'yicha foiz stavkalari o'z minimumi darajasiga etganligini ko'rsatmoqda. 2015 yilning birinchi yarimi ohirida 12 oylik banklararo kredit bahosi 16,9 foizni, bir kunlik resurslar bo'yicha foiz stavkalari esa 10,25 foizni tashkil qildi. Bu esa oldingi yilning shunday ko'rsatkichlaridan ancha kamdir.

Markaziy bank o'zining vakolati doirasida hukumat bilan hamkorlikda davlatning valyuta munosabatlari bo'yicha siyosatining asosiy yo'nalishini belgilaydi. Mamlakatda valyuta siyosatining joriy va kelgusi davrdagi holati yuzasidan rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqadi. Bularning ichida eng asosiylari sifatida mamlakatning to'lov

⁴¹ <http://www.uzibor.uz/> сайти маълумотларидан фойдаланилди

balansi, hukumatning valyuta munosabatlari bo'yicha ichki va tashqi pul-kredit siyosati va milliy valyutaning chet el valyutasidagi nisbatan kursini aniqlashning tartibini ta'kidlash mumkin. Markaziy bank qayta moliyalash stavkasi orqali faqat pul bozoriga emas, balki mamlakat fond bozoriga ham ta'sir o'tkazadi. Qayta moliyalash stavkasining ortishi pul bozoridagi depozit mablag'larning foizini va bank krediti foizining ortishi, o'z navbatida, fond bozorida qimmatli qog'ozlarga bo'lgan talabning pasayishiga va ularning taklifini ortishiga olib keladi.

3-jadval

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash stavkasi⁴²

Kuchda bo'lgan davr	Yillik %
01.01.2015 — ...	9
01.01.2014 — 31.12.2014	10
01.01.2011 — 31.12.2013	12
2006 y. 15 iyul-31.12.2010	14
2006 y. 1 yanvar-2006 y. 15 iyul	16
2004 y. 21 dekabr-2006 y. 1 yanvar	16
2004 y. 5 iyul-2004 y. 21 dekabr	18
2003 y. 10 sentyabr-2004 y. 5 iyul	20
2003 y. 16 iyul-2003 y. 10 sentyabr	24 (oylik 2%)
2002 y. 1 yanvar-2003y. 16 iyul	30 (oylik 2,5%)
2000 y. 1 iyul-2002 y. 1 yanvar	24
2000 y. 1 iyun-2000 y. 1 iyul	27,6(oylik 2,3%)
2000 y. 1 may-2000 y. 1 iyun	28,8(oylik 2,4%)
2000 y. 1 aprel-2000 y. 1 may	30 (oylik 3%)
1998 y. 1 yanvar-2000 y 1 aprel	36,6(oylik 3,3%)
1997 y. 1 noyabr-1998 y. 1 yanvar	30
1997 y. 1 yanvar-1997 y. 1 noyabr	39,6 (oylik 3,3%)
1996 y. 1 avgust- 1997 y. 1 yanvar	48 (oylik 4%)
1996 y. 1 iyul- 1996 y. 1 avgust	60 (oylik 5%)
1995 y. 1 avgust- 1996 y. 1 iyul	84 (oylik 7%)
1995 y. 1 iyul-1995 y. 1 avgust	120 (oylik 10%)
1995 y. 20 mart-1995 y. 1 iyul	300
1995 y. 1 fevral-1995 y. 20 mart	250
1994 y. 1 oktyabr- 1995 y. 1 fevral	225

Valyuta yoki jamg'arma bozoridagi o'zgarishlar bevosita banklararo kredit bozoriga o'z ta'sirini o'tkazadi va aksincha, Markaziy bankning zaxira stavkasi hamda chiqarilayotgan qisqa muddatli davlat obligatsiyalari hisobidan banklararo kredit bozoriga o'z ta'sirini o'tkazadi. Lekin zaxira stavkalrining keskin yuqoriga ko'tarilishi, qisqa muddatli davlat obligatsiyalarining ko'payishi banklararo kredit bozorining faoliyatini murakkablashtiradi.

⁴²www.cbu.uzМарказий банкнинг сайти маълумотлари асосида тузилди

Bu esa tijorat banki aktiv va passiv operatsiyalaridagi etishmovchilik oqibatlariga olib keladi. Quyidagi jadvalda biz Markaziybankning zaxira stavkasi talablari o'zgarishini ko'rib chiqamiz.

4-jadval

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki majburiy zaxira talablarining o'zgarishi.⁴³ (foizlarda)

Amal muddati qilish	Talab olinguncha yildan bo'lmagan muddatlar	qilib va 3 ortiq	Uch yildan oshiq muddatli depozitlar uchun	CHet el valyutasidagi depozitlar uchun
2002 yil.	20		20	0
2003 yil.	20		20	0
2004 yil.	20		20	0
2005 yil.	15		15	8
2007 y. sentyabrdan hozirgacha (2008 yil aprel)	13		13	13
2009 yil sentyabrdan-.....	15		12	10,5

Jadval ma'lumotlaridan shunday hulosaga keldikki, majburiy zahira talablarini 2007 yilgacha tabaqalashtirilgan holatida barcha majburiyatlar uchun bir hil 13 foiz qilib belgilandi. Buning ijobiy ta'siri iqtisodiy sub'ektlarga yo'naltiriladigan kredit resurslarini salmog'i ortadi. Lekin hozirgi kunga kelib ular tabaqalashtirilgan, bu xolat esa banklarga resurs bazasini kengaytirishga imkon beradi.

⁴³www.cbu.uzМарказий банкнинг сайти маълумотлари асосида тузилди

5-mavzu. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari tarkibi va ularning joylashishi

Reja:

1. Bankaktivlari, ularning mohiyati va mazmuni
2. Bank aktivlari tarkibi va ularni balansda joylashishi.
3. Bank aktivlarining sifat darajasi va ularning diversifikatsiyasi.

1. Bankaktivlari, ularning mohiyati va mazmuni

Iqtisodiy manfaat odatda aktivlarda pul oqimi shaklida namoyon bo'ladi. Naqd puldan tashqari har qanday resurs aktivga aylanishi uchun alohida yoki biron bir boshqa resurs bilan birgalikda bevosita yoki bilvosita pul oqimini taminlashi zarur. Bank aktivlari, bankning aktiv amalyoti natijasida shakllanadi, ya'ni bank balansini likvid xolda ushlab turib, o'z va jalb qilgan mablag'larini foyda olish maqsadida joylashtirish faoliyatini taminlaydi. Bank aynan aktiv amaliyotlari natijasida daromadning asosiy qismini oladi.

“Aktiv” so'zi lotincha “activus” so'zidan olingan bo'lib “faol, ta'sirchan, ishchan” ma'nosini bildiradi.

Bankaktivlari - bu bank kateqishli ham moddiy qiymatga egabo'lgan qiymatliklar: naqd pul mablag'lar, qarzga berilgan mablag'lar, binolar va asbob- uskunalar dan tashkil topadi. Bulardan tashqari bankda nomoddiy aktivlar ham mavjud bo'lib, bularo'zlarining moddiy shakliga egabo'lmaydilar, ammo bankning asosiy faoliyatida faol ishtirok etadilar. Bankaktivlar tarkibining to'g'ri belgilab olinishi va ular dan maqsadli foydalanish banklarning samarali faoliyatolibborishiga asos hisoblanadi. Tijorat banklari faoliyatida uning aktivlar i va ular bilan bog'liq aktiv operatsiyalarining risklik darajasini aniqlash bu jarayon ibo shqaribborish muhim o'rintutadi. Bankaktivlar tarkibi deyilganda, balans yakuniga nisbatan har xil sifatdagi aktivlar salmog'itushuniladi.

Tijorat banklari aktivlarini asosant o'rtkategoriyaga bo'libo'rganish mumkin:

- kassadagi pul mablag'lar i va ular gatenglashtirilgan mablag'lar;
- investitsiya va qimmatli qog'ozlar;
- ssudalar;
- binolar va asbob-uskunalar.

Bank aktivlarining eng asosiy qismini:

- ssudalar, yani bank kreditlari tashkil qiladi -19.9 % dan to 82.3% gacha;
- ikkinchi o'rinda investitsiya va qimmatli qog'ozlar bilan bo'ladigan operatsiyalar tashkil qiladi -2.1 foizdan 23.9 foizgacha;
- Uchinchi o'rinda kassadagi naqd pullar- 0.2 foizddan 12.9 foizgacha;
- boshqa turdagi aktivlar, yani asosiy fondlarga qo'yilmalardan tortib, to bankning turli hisob operatsiyalarigacha 0.2 foizdan to 7.8 foizgachani tashkil qiladi.

Kassadagi pul mablag'lari – bankning kassasidagi saqlanayotgan va bank kunlik hisobraqamlar bo'yicha naqd pul berishga, pulni maydalab berishga, naqd pul shaklida kreditlar berishga, bank xarajati uchun haq to'lashga, xizmatchilarga ish haqi berishga va boshqa xarajatlarga ishlatish uchun zarur bo'lgan qog'oz pullar va

tangalar hisoblanadi. Shuning uchun ham bank mijozning talabini qondirish uchun beriladigan qog'oz pullar gavatangalarga egabo'lishi kerak. Ushbu kassa daginaqd pullarning qoldig'iga bir nechta omillar ta'sir qiladi,

Jumladan: mavsumiylik, bankning hududiy joylashishi va boshqalar. Odatda jahon amaliyotida bank aktivlarning naqdpul bo'limiga, kassa daginaqd pullar, majburiy zahiralar fondiga ajratmalar, vakillik banklarga joylashtirilgan depozitlar hamda inkassatsiya qilinayotgan naqdpullar qo'shiladi, chunki buma blag'lar birinchi talab qilinganda naqdpul ga aylanadi. Shuning uchun ham buma blag'larni bankda "birinchi mudofaa chizig'i" deb atashadi, chunki mijoz tasodifano'z depozitini yok kredit so'rab kelganda aynan shu mablag'lardan foydalaniladi.

Bizning fikrimizcha, tijorat banklarining kassali aktivlariga xos bo'lgan asosiy xususiyatlar quyidagilardan iborat:

a) Kassali aktivlarning likvidlilik darajasi nisbatan juda yuqori bo'lganligi sababli ularning daromadlilik darajasi sezilarli darajada pastdir.

Tijorat banklarining aylanma kassasidagi naqd pullar xalqaro bank amaliyotida daromad keltirmaydigan aktiv hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, tijorat banklarining Markaziy bankdagi «Nostro» vaqillik hisobvaraqlarining qoldiqlari ham daromad keltirmaydi, chunki dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida markaziy banklar mazkur hisobvaraqlarining qoldiqlariga foiz to'lamaydi.

Tijorat banklarining kassali aktivlarining tarkibida ularning boshqa banklardagi «Nostro» vaqillik hisobvaraqlarining qoldiqlari bank uchun sezilarli harajatni yuzaga keltiradi, chunki boshqa banklar «Nostro» vaqillik hisobvaraqlarini yuritganligi uchun komission to'lov oladilar. Inkassatsiya jarayonidagi pul mablag'lariga kelsaq, ularning daromadlilik darajasi juda past bo'lib, bu holat undiriladigan komission to'lov stavkasining past ekanligi bilan izohlanadi.

b) Kassali aktivlar moliya bozorlari rivojlanmagan mamlakatlarda tijorat banklari balansining likvidlilikini ta'minlash imkonini beradigan yagona aktivlar guruhi hisoblanadi.

Rivojlanag'tgan mamlakatlarning ko'pchiligida moliya bozorlari zaif rivojlangan bo'lib, bu holat tijorat banklarining likvidlilikini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanmaganligi tijorat banklari aktivlarining bir qismini yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar hisobidan shakllantirish imkonini bermaydi.

v) Kassali aktivlar mamlakatdagi iqtisodiy vaziyatning o'zgarishiga, moliya bozorlarining segmentlaridagi o'zgarishlarga nisbatan sezilarli darajada ta'sirchan bo'lgan aktivlar hisoblanadi.

Tijorat banklari aktivlarining likvidlilik darajasiga ko'ra ikkinchi guruhini ularning qimmatli qog'ozlarga qilgan investitsiyalari egallaydi.

Rivojlangan xorijiy davlatlarning bank amaliyotida hukumatning qimmatli qog'ozlariga qilingan bank investitsiyalarini yuqori salmoqqa ega ekanligining asosiy sabablari, fikrimizcha, quyidagilardan iboratdir:

a) Hukumatning qimmatli qog'ozlari yuqori likvidlilik xususiyatiga ega. Chunki ularga nisbatan qimmatli qog'ozlar bozorida doimiy harakterga ega bo'lgan barqaror talab mavjud. Bu esa, hukumatning qimmatli qog'ozlari hisobidan tijorat banklarining likvidliligini ta'minlash imkonini beradi.

b) Hukumatning qimmatli qog'ozlari qat'iy belgilangan foizda bankka daromad keltiradi. Demak, ular bankning foizli daromadlari hajmini oshirish imkonini beradi, bu esa, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlashning zaruriy shartidir.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, rivojlangan xorijiy davlatlarda tijorat banklari qimmatli qog'ozlar portfelida veksellar bilan bog'liq aktivlar yuqori salmoqni egallaydi. Buning boisi shundaki, birinchidan, tijorat veksellari indossament orqali bir sub'ektdan ikkinchi sub'ektga uzatilish xususiyatiga ega. Bu esa, ularni to'lov vositasi sifatidagi rolini oshishiga olib keladi. Ikkinchidan, tijorat banklari vekselni o'zlarida diskont stavkasi bo'yicha hisobga olish yo'li bilan real daromad oladilar. Bundan tashqari, tijorat banklari hisobga olingan veksellarni Markaziy bankka qayta hisobga oldirish yo'li bilan Markaziy bank kreditlarini olish imkoniga ega bo'ladilar.

Hissali ishtirok shaklidagi bank investitsiyalari Germaniya va Yaponiya tijorat banklari amaliyotida keng rivojlangan. Ushbu mamlakatlarning tijorat banklari mijozlarining ustav kapitalida ishtirok etish yo'li bilan ular faoliyatini boshqarish jarayonlariga ta'sir etishni o'z faoliyatlarining ustivor yo'nalishlaridan biri deb hisoblaydilar. Ayni vaqtda, shuni e'tirof etish lozimki, investitsiyalar ichida risk darajasi eng yuqori bo'lgan investitsiya shakli hissali ishtirok shaklidagi investitsiya hisoblanadi. Chunki oddiy aktsiyalarga dividend sof foyda hisobidan to'lanadi. Sof foyda esa barcha harajatlar moliyalashtilgandan so'ng hosil bo'ladi.

Demak, rivojlangan xorijiy davlatlarning tijorat banklarida qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning asosiy qismi hukumatning va korporatsiyalarning tijorat qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalariga to'g'ri keladi. O'zbekiston Respublikasida esa buning teskarisidir.

Qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarni daromadlilik darajasiga ko'ra ikki yirik guruhga bo'lish mumkin:

1. Tijorat qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar.
2. Hukumatning qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar.

Tijorat qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalarning daromadlilik darajasi juda yuqori, shu sababli, ularning risk darajasi yuqori.

Hukumatning qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalarning likvidlilik darajasi yuqori, shu sababli, ularning daromadlilik darajasi past.

Korxonalar va tashkilotlar hamda shaxslarga ajratilgan kreditlar:

Mubolag'asiz, bankning yirik aktivi bo'lib kreditlar hisoblanadi. Mablag'larni turli kredit operatsiyalariga joylashtirayotgan bank boshqaruvi mijozning kreditga bo'lgan talabini kondirish bilan birga daromad olish birinchi galdagi vazifa deb hisoblaydi. Ma'lum kredit bitimining likvidlilik darajasi ikkinchi darajali ahamiyatga ega. Shuningdek, bank boshqaruvi mablag'larning "kredit portfeli" ichida taqsimlanish masalasini ham xal etishi lozim, ya'ni muddatli haridlarni, savdo sanoat kompaniyalarini, ko'chmas mulk va boshqalarni kreditlash kabi turlar o'rtasida. Bunday taqsimlanishning

asosi bo'lib kreditlarning nisbiy daromadliligi, shuningdek turli turdagi kreditlarga bo'lgan talab hisoblanadi.

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar - bank aktivlarining asosiy moddalaridan biri bo'lib hisoblanadi, chunki bank O'z faoliyatini tashkil qilish uchun moddiy bazaga, operatsiyalarni bajarish uchun shart - sharoitga ega bo'lishi lozim. Bankning asosiy vositalariga bino - inshootlar, kapital kurilish uchun bank tomonidan qilingan harajatlar, ofis va ish mebeli, jixozlar, kompyuter va boshqa hisoblash texnikasi aloqa vositalari kabilar kiradi. Markaziy Bank belgilagan me'yorlar tijorat bankining kapital harajatlari miqdorini bank aktivining 10 foiz miqdorida cheklaydi

Tijoratbanklarining aktivlari o'zigaxosbelgilarigako'ralikvidlikvarisk darajasiga qarab hamdadaromadkeltirishiga qarab bir nechta guruhlarga bo'linadi.

Bank balansida aktivlar likvidlik darajasiga qarab aks ettiriladi va likvidlik darajasiga qarab quyidagi 3 guruhga:

-yuqorilikvidli aktivlar;

-likvidli aktivlar;

-nolikvid (pastlikvidli) aktivlarga bo'linadi.

1. Yuqori likvidli aktivlar — bu moliyaviy aktivlar, bir necha kun ichida oladigan yoki tezda realizatsiya qilib pul mablag'lariga aylanadigan aktivlar tushiniladi. Bularga kassadagi pul mablag'lari, Markaziy bankdagi korrschyotdagi mablag'lar hamda yetakchi rivojlangan banklarda vakillik hisobraqamdagi mablag'lar.

2. Likvidli aktivlar — bunga o'rtacha darajadagi likvid aktivlar kiradi. Bularga – 30 kun ichida realizatsiya qilinadigan va pulga aylanadigan aktivlar kiradi. Qisqa muddatli aktivlarga tez sotiladigan veksellar va boshqa qisqa muddatli qimmatli qog'ozlar, hukumatning qimmatli qog'ozlari kiradi.

3. Past likvidli aktivlarga — qiyinchilik bilan pulga aylanadigan aktivlar kiradi., bular: uzoq muddatli kreditlar, investitsiyalar, qiyin sotiladigan bin o va inshootlar hamda muddati o'tgan qarzlari kiradi.

1 guruh-yuqorilikvidli aktivlar. Bularga:

a) kassadagi vayo'ldagina qdpullar, qimmatbaho toshlar, moneta, cheklar va boshqa pul hujjatlari;

b) vakillik hisobvarag'idagi mablag' qoldiqlari;

v) «Nostro» va «Vostro» schetlardagi qoldiqlar;

g) majburiy rezervlarscheta bo'yicha mablag'lar qoldig'i;

d) qimmatli qog'ozlar, xazina veksellari, davlat obligatsiyalari, O'zR MBning qimmatli qog'ozlari va obligatsiyalari.

2 guruh-likvidli aktivlar. Bularga:

a) berilgan kreditlar (jumladan, banklararo ham);

b) o'z investitsiyalari;

v) boshqa qimmatli qog'ozlar, muddati 30 kungacha bo'lgan debitorlar;

3 guruh-nolikvid (pastlikvidli) aktivlar. Bularga:

a) muddat o'tgan ssudalar;

b) muddat o'tgan foizlar;

v) sudaralashuv bilan o'zlashtirilishi ko'zdatutilgan ssudalar;

g) tugallanmagan ishlabchiqarish;

d) asosiy vositalar kiradi.

Bank doimiylar zdao' zining likvidligi nima'lumbirdarajada saqlashi kerak, ya'nio' zining to'lovga qobilligini shubha ostida qoldirmasligi kerak. Likvidlikka bo'lgan talab aktivlardan keladigan daromadni oshirish faoliyatiga mialumdarajada qarshituradi. Bankning aktivlari qanchalik darajadaliqvidlibo'lsashunchalik ular bilan bog'liq risk kichik bo'ladi, ammoshunga javoban ulargato'lanadigan foiz ham ya'ni daromad xam shunchalik kam bo'ladi. Belgilangan to'lovga qobillik doirasidan chiqmagan holda, aktivlarga joylashtirilgan kapitaldan daromadni oshirish, bankdabosh qarish san'atini belgilaydi.

O'zbekiston bank tizimida likvidlikni ta'minlashning eng oddiy usuli bankning bir qism aktivlarini likvid shaklida, masalan, naqd pul, Markaziy bank vaboshqa banklar vakillik hisob varaqa laridagi qoldiqlar, davlatning qisqa muddatli obligatsiyalar shaklida saqlash hisoblanadi. Jahon bank materiallari ga ko'rato'lovga qobiliyatli ko'z kapitalining ijroiy kattaligi bog'liqdir.

Bank aktivlar tarkibi darajaliqvidliktivlar hissasi qanchalik ko'p bo'lsa, banklik likvidligi shuncha yuqori bo'ladi. Lekin, shuni ham alohida belgilash zarurki, bunday aktivlar daromad keltirmaydi, shuning uchun bunday tarkibiy aktivlarni har qanday holatda maqsadga muvofiq deb hisoblab bo'lmaydi.

Balans aktivlari risk darajasi bo'yicha 0, 20, 50, 100 foizli to'rt guruhga bo'linadi. Har xil toifa aktivlar nisbiy riskligi o'z zimmasiga majburiyatlarini qabul qilgan shaxs turiva garov yoki kafolattavsi figa bog'liq. Masalan, naqd pul 0 foizli risk darajasiga ega bo'lsa, tijorat kreditlari 100 foizli risk toifa sigakiradi. Bu tijorat kreditlari kapitalning muayyan summasi bilan to'liq ta'minlangan bo'lishi kerakligini anglatadi.

Riskni hisobga olingan holda aktivlar summasi har bir aktiv bilan summasini unga tegishli risk miqdoriga ko'paytirish va risk bo'yicha aniqlangan aktivlar yig'indisi orqali topiladi. quyidagi bank aktivlari toifalarining ta'rifi keltirilgan.

Riskdan hisob bo'lgan aktivlar (risk ko'effitsienti - 0 foiz) quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) bankdavauning filiallarida naqd pul ko'rinishida saqlanayotgan milliy va chet el valyutasi (jumladan, yo'ldagi naqd pullar va bank omborlarida yoki Markaziy bank omborlarida saqlanayotgan oltin quymalar);

b) Markaziy bank va uning hududiy boshqarmalarida vakillik vazaxira hisob raqamlaridagi mablag'lar;

v) hukumat va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga to'g'ridan-to'g'ri talablar va bu emitentlar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar;

g) Iqtisodiy hamkorlik vataraqqiyot tashkiloti (IHTT) ga kiruvchi mamlakatlar hukumatlari va markaziy banklari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar, shuningdek, bu mamlakatlar hukumatlari va markaziy banklariga qo'yiladigan boshqatalablar;

d) aktivlari yoki ularning O'zbekiston Respublikasi va IHTT ga kiruvchi mamlakatlari milliy valyutalariga denominatsiya qilinib, naqd pul bilan ta'minlangan hamda bankda alohida chek lab qo'yilgan depozit hisob raqamda saqlanayotgan qismi.

Minimal risk darajasiga ega aktivlar (risk ko'effitsienti - 20%) quyidagilardan iborat:

a) IHTT davlatlarida ro'yxatga olingan depozitar institutlariga nisbatan talablar,

shujumladan, qarzlar va pul bozori vositalari;

b) IHTT davlatlaridaro'yxatgaolingandepozitar institutlar kreditlar bilan ta'minlangan boshqabarcha aktivlar. IHTT davlatlaridepozitar institutlarining kapitali bo'lgan qimmatli qog'ozlari yuqori risk darajasiga (100 foiz) ega aktivlar qatoriga kiradi;

v) bankning IHTT davlatlaridamaxalliy hokimiyat organlariganisbatantablari, shuningdek, ulartomonidankafolatlangan bankaktivlari. Butalablar vakafolatlar bo'yichato'lovlar alohida loyihalar bo'yicha tushumlardan emas, balki yuqorida ko'rsatilgan tashkilotlar byudjet hisobidan amalga oshiriladi.

g) bankning Jahon banki, Xalqaro Valyuta Fondi, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo Taraqqiyot banki kabixalqaro kredit tashkilotlariganisbatan talablari, shuningdek, butashkilotlar tomonidankafolatlangan bankaktivlari;

d) joriy bozor qiymatidabog'langan va Jahon banki, Xalqaro Valyuta Fondi, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki kabixalqaro kredit tashkilotlari tomonidan muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bilan ta'minlangan aktivlar va ularning qismlari;

e) bankning IHTTga a'zo bo'lmagan mamlakatlarning milliy valyutalariga denominatsiya qilingan va milliy valyuta dagimajburiyatlar bilan qoplangan, IHTTga a'zobo'lmagan davlatlar Markaziy Hukumatlarivamarkaziy banklariganisbatan talablari.

Milliy valyutaga denominatsiya qilinmagan va milliy valyutada moliyalashtirish summasidan oshib ketgan aktivlar qismini risk darajasi yuqori (100 foiz) bo'lgan aktivlar qatoriga kiritiladi.

z) joriy bozor qiymatidabaholangan va O'zbekiston Respublikasi hukumati, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiyoki IHTTga kiruvchi davlatlar Markaziy hukumatlaritomonidan emissiya qilingan yoki kafolatlangan qimmatli qog'ozlar ko'rinishidagigarov bilan ta'minlangan yoki kafolatlangan aktivlar, ularning qismlar va balansi dantashqarimajburiyatlar. qimmatli qog'ozlar bank tasarrufidabo'lishiva belgilangan tartibga muvofiq uning qabul qilinishi lozim. Kafolatlar to'g'ridan-to'g'ri hech qanday shartlarsiz, ya'ni ularni qo'llashni cheklovchi biron-bir qo'shimcha shartlarnio'zida qamrab olmagan bo'lishi kerak;

i) o'tkazish jarayonidagipul hujjatlarini (yo'ldagina qdpullar hisobga kirmaydi).

O'rtacha risk darajasiga ega aktivlar (risk koeffitsient-50 foiz) quyidagilardan iborat:

a) jismoniy shaxslar gabi roilaga uy-joy (xonadon) sotib olish yoki qurish uchun berilgan va dastlabki garov (garov predmetiga egalik qilishning imtiyozli huquqi) sifatida sotib olinayotgan yoki qurilayotgan uy-joy (xonadon) bilan ta'minlangan kreditlar. Bunda sudamiqdorining garov qiymatiganisbati 60 foizdan oshmasligi kerak. 60 va undan ortiq kunga muddati o'tgan, foizlar hisoblash to'xtatilgan yoki restrukturizatsiyalangan kreditlar risk darajasi yuqori (100 foiz) bo'lgan aktivlar toifasiga kiradi. Biroilachun uy-joy qurish maqsadida beriladigan kreditlar shu uy-joydayashamoqchibo'lgan xususiy shaxslar gagina berilishi kerak. Bank dastlabki garov huquqiga egabo'lmasa, bunday kreditlar riskligi yuqori (100 foiz) bo'lgan aktivlar hisoblanadi;

b) bankning IHTTga kiruvchi davlatlar mahalliy hokimiyat organlariga nisbatan

talablari yoki bu talablar va kafolatlar bo'yicha to'lovlar mazkur majburiyatlar bo'yicha moliyalashtiriladigan muayyan loyihatushumlari bog'liq bo'lsa, ushbu tashkilotlar tomonidan kafolatlangan aktivlar. Yuqoridagi tashkilotlar tomonidan emissiya qilingan qimmatli qog'ozlar.

Yuqori risk darajasiga ega aktivlar (risk koeffitsienti -100 foiz) quyidagilardan iborat:

a) bank tomonidan berilgan barcha kreditlar, jumladan, tadbirkorlik tuzilmalari, qishloq xo'jalik, ishlab chiqarish korxonalariga berilgan kreditlar, shuningdek, iste'mol va ipoteka kreditlari.

b) bankning asosiy vositalari, inshootlari, jihozlari va shaxsiy ko'chmas mulki;

g) boshqabarcha aktivlar.

Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarning bankamaliyotida aktivlarning sifatini aniqlashning asosiy mezon bo'lib riskka tortilgan aktivlarning kapitalga nisbatimaydonga chiqmoqda vashunga asosan banklar reytingi belgilanadi. Reyting besh tipdagi baholarturkumiga ega.

1. reyting (kuchli). Agartortilgan aktivlarning aksioner kapitali nisbati 5 foizdan oshmasa, ba'zi hollarda nisbat 5 foizlik chegaradan ozoq oshmasa, agar bankning iqtisodiy sharoiti baquvvat bo'lsa, avval boshqaruv organlarining muammasi bilan ishlashda bilimdonligini ko'rsatsa, bu aktivni kuchli aktivlar sifatida keltirish mumkin.

2. reyting (qoniqarli). Rezervning o'rtacha tortilgan miqdori jamii kapitali nisbatan 15% dan yuqori bo'lmasligi lozim. Buholdaham sudalar bo'yicha muammolar bo'lmasa, bankning kredit siyosatida darajasida olib borilsa, hushugurugakiritish mumkin.

3. reyting (o'rtacha). Tortilgan aktivlar jamii kapitalning 30 foizidan oshmasligi kerak

4. reyting (muammoli). Tortilgan aktivlar jamii kapitalning 50 foizidan oshmasligi kerak.

5. reyting (qoniqarsiz). Tortilgan aktivlar jamii kapitalning 50 foizidan oshgan holda qo'llaniladi.

Daromad keltirishga qarab bank aktivlari: daromad keltiruvchi va daromad keltirmaydigan aktivlarga bo'linadi.

Daromad keltiruvchi aktivlar;

○ Daromad keltiruvchi aktivlarni baholash muhim ahamiyatga ega. Ular kredit salohiyatining asosini va bankning ssuda portfelini tashkil etadi.

○ Daromad tahlili sifat ko'rsatkichiga nisbatan miqdor ko'rsatkichiga ko'proq tegishlidir, shu sababdan u bank faolyatini baholashda katta ahamiyatga ega. Bank kapitalini oshirish va kredit potensialini mustahkamlash uning mustaqilligiga bog'liqdir. Bankning daromadi asosan kreditlar bo'yicha foiz stavkasi, kredit qo'yilmalari hajmi va bank likvidligiga bog'liq.

○ Tijorat banki aktivlarining asosiy qismini, odatda mijozlarga berilgan kreditlar va banklararo kreditlar tashkil etadi.

Daromad keltiruvchi aktivlarga quyidagilarkiradi:

1. Qisqa va uzoq muddatli ssudalar (axoliga, mijozlarga, boshqa banklarga);
2. Muddati o'tib ketgan ssudalar bo'yicha qarzarlar va foizlar;
3. Faktoring, lizing, forfeiteng, trust operatsiyalaridan olinadigan daromadlar;
4. Qimmatli qog'ozlar operatsiyalaridan olinadigan daromadlar;
5. Berilgan kafolat va topshiriqnomalar keltiradigan daromadlar.

Daromad keltirmaydigan aktivlar

○ Bank aktivlari hajmida daromad keltirmaydigan aktivlarning salmog' yuqori bo'lishi bankning resurslar bazasida samarasiz aktivlarni mavjudligini izohlaydi va likvidlik darajasiga tasir qiladi.

○ Bankka daromad keltiruvchi va daromad keltirmaydigan aktivlarni tahlil qilish, ularning funksiyalarini iqtisodiy sharoitga bog'liq holda aktivlarni tarkibini o'zgartirib turish kerakligi to'g'risida xulosa chiqarishga imkon beradi. Agar tijorat banklari o'zlarining balanslari tarkibini o'zgartirmasa, bu so'zsiz yangi inqirozga olib keladi.

Daromad keltirmaydigan aktivlarga quyidagilarkiradi:

a) pulaktivlari guruh

b) asosiy vositalar

v) kapital harajatlar

g) barchamoddiy aktivlar vaboshqa aktivlar d) nomoddiy aktivlar kiradi.

2guruh aktivlariga bank faoliyatidakatta e'tibor berilishi lozim. Chunki bu guruhda aktivlarni sifatini pasaytiruvchi aktivlar, muddat kechiktirilgan, foizsiz ssudalar, muddat o'tgan ssudalar va foizlar to'lanmagan ijaravaboshqalar bo'lishi mumkin.

Aktivlarning maqsadga muvofiq joylashishi bo'yicha umumiy ko'rsatkich – daromad keltiruvchi aktivlarning umumiy aktivlar summasiga nisbati orqali aniqlanadi. Tijorat banklarining daromad keltiruvchi asosiy aktivlari – mijozlarga berilgan kreditlardir. Banklarning ikkinchi daromad keltiruvchi aktiv turi – davlatning qisqa muddatli obligatsiyalari (DQMO) gajal b qilingan banklararo kreditlar va investitsiyalar kichik salmoqni tashkil qiladi.

Muddat o'tgan aktivlarning salmog' i umumiy aktivlar hajmidan 3 foizdan oshmasligi lozim. Agar bu aktivlar miqdori 2 va undan ortiq marta o'rnatilgan norma danko'p bo'lsa, bank faoliyati juda muammoli, uning kredit siyosat i juda zaif deb baholanadi. Tijorat banklarida daromad keltiruvchi aktivlar qatoridak kreditlardan tashqari qimmatli qog'ozlar, chet el valyutasidajal b qilingan mablag'lar ham mavjud. Agar aktivlar tarkibida daromad keltiruvchi aktivlar salmog' i qancha ko'p bo'lsa, bu holat bank o'z aktivlaridan daromad olish maqsadida samarali foydalanayotganini bildiradi.

Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozorida investitsion institut sifatida faol ishtirok etadilar. Banklar qimmatli qog'ozlar bozorida broker va diller sifatida ishtirok etadilar. Tijorat banklari faoliyatining o'zigaxo xususiyat i shundan iboratki, ular qimmatli qog'ozlar bozorining boshqa qatnashchilaridan farqli o'laroq, shubozorda ayni vaqtda eng salmoqli investorlar va eng ishonchli emitentlar sifatida o'zin namoyon etadilar. Rivojlangan bozoriqtisodiyoti mamlakatlari dako kompaniya aktivlarining 40-80% bank kapitali hisobidan ta'minlanadi, qimmatli qog'ozlar bilan o'tkaziladigan operatsiyalardan tushadigan daromadlar esa bank foydasini

shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Tijorat banklari o'z aktivlarini diversifikatsiyalash, qo'shimcha daromad olish va balansining likvidligini ta'minlash maqsadida DQMO dan keng foydalanadilar. Bu qimmatli qog'ozlar bo'yichaolinadigaromadkafolatlanganvaularyuqorilikvidlilikkaegadir.

Daromadkeltirmaydiganaktivlarguruhiga kassa,Markaziybankdagi«Nostro» vakillikhisobvarag'idagi mablag'lar,asosiyvositalarkiradi.Bankaktivlarihajmida daromad keltirmaydigan aktivlar salmog'ini yuqori bo'lishi bankning resursla bazasida samarasiz likvidlilik darajasini ko'rsatadi.

Bankdadaromadkeltiruvchi vadaromadkeltirmaydiganaktivlarnitahlilqilish, ularningfunktsiyalariiqtisodiysharoitgabog'liqholdaularningtarkibinio'zgartirib turish kerakligito'g'risidaxulosa chiqarishgaimkon beradi. Iqtisodiybeqarorlik sharoitidafaoliyatsiz aktivlarningko'pginaqismifaoliyat qilayotganaktivlarning elementlariga aylanadi,ko'pinchabu valyutava harakatsiz aktivlarga tegishlidir.

Agar tijorat banklar o'zlarining balanslari tarkibi o'zgartirib, bu bank faoliyatida muammolaryuzagakelishigaolibkeladi.Tijoratbanklari aktivlaribilanbog'liqbo'lganrisklarichidakreditoperatsiyalar bo'yicharisklarasosiyo'rinniegallaydi.Buaktivoperatsiyalaribilanbog'liqbo'lib, bu risklargaberilgankreditlar,hamdato'lovmuddatikechiktirilganssudarbo'yicha risklarkiradi. Kredit riski nafaqat kredit ob'ektiga, balki kredit sub'ektiga yangicha yondashishiorqalihamo'sibboradi.

Burisko'tg'rimijozningmoliyaviyahvoliog'irlashganda,ularningfaoliyatida ko'zdatutilmagan qiyinchilik va muammolaryuzagakelganda,bozordanoqulay sharoityuzagakelganisabablipaydobo'lishimumkin.

Xuddishuninguchunhamhambirtijoratbankio'zaktivlarinijoylashtirishniva uni boshqarishusullarinio'zi ishlab chiqmog'izarur. Ma'lumki,tijorat banklari aktivlariningqiymativalardanolinadiganfoydao'zgaribturishimumkin. Aktivlar bilan bog'liq risklar aktivlar bahosining va ular lar qiymatinio'sishibilanqoplanishivanatijadabankaktivlariningumumiyqiymatlarini saqlabqolishiimkoniyatigaega bo'lishimumkin. Bankaktivlariningqiymatinivaulardankeladigaromadlarni to'g'rihisob- kitob qilib rejalashtirish bank faoliyatining samaradorligigaolib kelishi, aktivlar qiymatininoto'g'ri hisoblash, ularnijoylashtirishbankningmoliyaviyahvolida qiyinchiliklartug'dirishimumkin.

2.Bank aktivlari tarkibi va ularni balansda joylashishi.

Banklar o'z faoliyatlarini amalga oshirishlari uchun kerakli qimmatliklar: binolar, asbob-uskunalar, hozirgi zamonda tezkor hisob-kitobni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kompyuterlar, naqd pul mablag'lari va kreditga berilgan mablag'lari bo'ladi. Banklarning mavjud bunday mablag'lari banklar buxgalteriya balansida iqtisodiy mazmuniga ko'ra (asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar. naqd pullar va x.k) qiymatlari guruhlashtirilib bank balansining aktiv tomonida ko'rsatiladi. SHuning uchun ham xalqaro miqyosda bank mablag'larini – aktivlari deb aytishadi. Bank mablag'lari hozirgi kunda bizda ham aktivlar deyilmoqda.

Bank aktivlari deyilganda-bank faoliyatida amalga oshirilgan va oshiriladigan amaliyotlari jarayoni-da mablag‘ni xarid qilish, foydalanish uchun uchinchi shaxsga berish natijasida iqtisodiy manfaat keltiruvchi moddiy va nomoddiy mablag‘lar tushuniladi.

Iqtisodiy manfaat odatda aktivlarda pul oqimi shaklida namoyon bo‘ladi. Naqd puldan tashqari har qanday resurs aktivga aylanishi uchun alohida yoki biror bir boshqa resurs bilan birgalakda bevosita yoki bilvosita pul oqimini ta‘minlashi zarur.

Bank aktivlari, bankning aktiv amaliyoti natijasida shakllanadi, ya‘ni bank balansini likvid holda ushlab turib, o‘z va jalb qilingan mablag‘larni foyda olish maqsadida joylashtirish faoliyatini ta‘minlaydi. Bank aynan aktiv amaliyotlari natijasida daromadining asosiy qismini oladi.

Bank aktivlari – bu bankka tegishli hamda moddiy qiymatga ega bo‘lgan qiymatliklar: naqd pul mablag‘lari, qarzga berilgan mablag‘lar, binolar va asbob-uskunalardan tashkil topadi. Bulardan tashqari, bankda nomoddiy aktivlar ham mavjud bo‘lib, bular o‘zlarining moddiy shakliga ega bo‘lmaydilar, ammo bankning asosiy faoliyatida faol ishtirok etadi.

Bank aktivlari juda turli-tuman bo‘lishi mumkin, lekin hamma tijorat banklari o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, bir xil turdagi aktivlarga ega. Ularning bir qismi maxsus jihozlangan banklar naqd pullarni saqlash uchun seyflar yoki temir shkaf, komp’yuterlar, avtomashinalar tashkil etadi. Bunday aktivlar banklarda ko‘p yil ishlatiladi va asosiy vositalar deb yuritiladi.

Bank aktivi deganda passivlar joylashtirilishi tushuniladi. Uning tarkibiy tuzilmasi deganda esa har bir aktiv turining jami aktivlarga bo‘lgan nisbati tushuniladi. Tijorat banklarining aktivi va uning tarkibi quyidagilar bilan tavsiflanadi. (jadval).

jadval

Tijorat banklarning aktivi va uning turlari⁴⁴


№	Aktivlar	%
1.	Kassadagi naqd va unga tenglashtirilgan pullar	0,2 - 12,9
2.	Kreditlar (ssudalar)	19,9 - 83,2
3.	Investitsiya va qimmatli qog‘ozlar	2,1 - 23,9
4.	Boshqa turli aktivlar	0,2 – 7,8
	Jami aktivlar	100

Jadvaldagi ma‘lumotlardan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

- bank aktivining eng asosiy qismini ssudalar, ya‘ni bank kreditlari tashkil qiladi – 19,9 dan to 83,2 foizgacha;
- ikkinchi o‘rinda investitsiya va qimmatli qog‘ozlar bilan bo‘ladigan operatsiyalar tashkil qiladi – 2,1 foizdan to 23,9 foizgacha;
- uchinchi o‘rinda kassadagi naqd pullar – 0,2 dan 12,9 foizgacha;
- boshqa turli aktivlar, ya‘ni asosiy fondlarga qo‘yilmalardan tortib, to bankning turli hisob operatsiyalarigacha – 0.2 foizdan to 7,8 foizgachani tashkil qiladi.

⁴⁴ Ё.Абдуллаев “Банк иши” Ўқув қўлланма, 2010 йил, 532 бет

Tijorat bank aktivlari daromadlilikiga karab



- berilgan kreditlar;
- qimmatli qog'ozlar;
- turli investitsiyalar.
- kapital xarajatlar

- asosiy vositalar
- nomoddiy aktivlar
- pul mablag'lari

Ikkinchi guruh aktivlariga bank faoliyatida katta e'tibor berilishi lozim, chunki bu guruhda aktivlar sifatini pasaytiruvchi aktivlar, muddati kechiktirilgan, foizsiz ssudalar, muddati o'tgan ssudalar va foizi to'lanmagan ijara va boshqalar bo'lishi mumkin. Aktivlarning maqsadga muvofiq joylashishi bo'yicha umumiy ko'rsatkich - daromad keltiruvchi aktivlarning umumiy aktivlar summasiga nisbati orqali aniqlanadi.

Daromad keltiruvchi aktivlar

Umumiy aktivlar

Tijorat banklarining daromad keltiruvchi asosiy aktivlari- mijozlarga berilgan kreditlardir. Banklarning ikkinchi daromad keltiruvchi aktiv turi –davlatning qisqa muddatli obligatsiyalari (DQMO) ga jalb qilingan banklararo kreditlar va investitsiyalar kichik salmoqni tashkil etadi. Muddati o'tgan aktivlarning salmog'i umumiy aktivlar hajmining 3 foizidan oshmasligi kerak.

3. Bank aktivlarining sifat darajasi va ularning diversifikatsiyasi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 1998 yil 9 noyabrda tasdiqlangan 242-sonli «Aktivlar sifatini tasniflash, mumkin bulgan yukotishlar buyiicha tijorat banklari tomonidan rezervlar tashkil kilish va undan foydalanish koidasiga asosan, tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlar yukorida keltirilgan mezonlar buyicha «yaxshi», «standart», «substandart», «shubxali», «umidsiz» kreditlarga tasniflanadi. Aktivlarni boshqarishning asosiy maqsadi tavakkal qilishning eng pats darajasi sharoitida daromad foiz tushumlari va xarajatlar orasidagi farqni mumkin kadar oshirish yoki uni juda bo'lmaganda barqaror darajada saqlab turishdan iborat ekanligi malum. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasining [«O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»](#)gi, [«Banklar va bank faoliyati to'g'risida»](#)gi, [«Buxgalteriya hisobi to'g'risida»](#)gi qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 maydagi PQ–2344-son «Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi [qaroriga](#) muvofiq yangi nizom ishlab chiqilgan. «Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha

ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibiga ‘g‘risidagi” Nizom 2015 yil 14 iyuldan kuchga kirgan.

Ushbu tartibda asosan quyidagilar ko‘rib chiqilgan jumladan:

1. umumiy qoidalar;
2. aktivlarni tasniflash tizimi;
3. ta‘minotga qo‘yilgan talablar;
4. Shartlari qayta ko‘rib chiqilgan aktivlar sifatini tasniflash;
5. ehtimoliy yo‘qotishlarga doir zaxirani shakllantirish tartibi;
6. Investitsiya portfelining sifatini tasniflash
7. Tijorat banki aktivlari bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarga doir zaxirani shakllantirish
8. Majburiy zaxiralar depozitlariga mablag‘ o‘tkazish
9. Zaxiralardan foydalanish

Yangi tartibni oldingisidan asosiy farqlari bunda iqtisodiy terminlarga oydinlik kiritildi, zaxira yaratish qoidalari mustahkamlandi, kreditlarni tasniflashdan aktivlarni tasniflashga o‘tildi, ta‘minotga qo‘yilgan talablar kiritildi, restrukturizatsiya qilingan kreditlarni tasniflashning o‘ziga xos jihatlari inobatga olinib, ularni tasniflash tizimi ko‘rsatildi, mezonlari aniqlashtirildi.

Ilk marta quyidagi tushunchalardan foydalanildi hamda ta‘riflari keltirildi:

aktivlar — kredit, overdraft, lizing, faktoring, qimmatli qog‘ozlar, investitsiyalar, boshqa banklardagi mablag‘lar, bo‘lib-bo‘lib to‘lash shaklida sotilgan mulklar, balansdan tashqari moddalar (chaqirib olinmaydigan kredit majburiyatlari, foydalanilmagan kredit liniyalari, akkreditivlar, kafolatlar) hamda moliyalash bilan bog‘liq barcha boshqa talablar.

muammoli aktivlar — sifati «qoniqarsiz», «shubhali» va «umidsiz» deb tasniflangan aktivlar;

maxsus zaxiralar — sifati «substandart», «qoniqarsiz», «shubhali» va «umidsiz» deb tasniflangan aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplashga mo‘ljallangan majburiy zaxiralar;

standart aktivlarga yaratiladigan zaxiralar — tijorat banki faoliyati davomida umuman yoki biror-bir faoliyat turi natijasida ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash maqsadida tashkil qilinadigan zaxiralar;

shartlari qayta ko‘rib chiqilgan aktivlar — shartnoma va (yoki) unga qo‘shimcha kelishuvga muvofiq asosiy shartlari o‘zgartirilgan aktivlar;

tijorat banki aktivlari bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun majburiy zaxiralar depozitlari (bundan buyon matnda majburiy zaxiralar depozitlari deb yuritiladi) — aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun tijorat banklarining O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankidagi (bundan buyon matnda Markaziy bank deb yuritiladi) majburiy zaxiralar depozitlari;

ta‘minlanmagan aktivlar — ta‘minotsiz berilgan yoki ta‘minoti belgilangan tartibda rasmiylashtirilmagan aktivlar. Bunday aktivlar mustahkam tushumga ega bo‘lgan qarzdorga uning yaxshi kredit tarixi asosida berilishi mumkin.

Tijorat banklarining hisobotlari ularning aktivlari sifatining haqiqiy holatini aks ettirishi lozim.

Hisobotlarning haqqoniy bo'lmashligi tijorat banki omonatchilari, kreditorlari va aksiyadorlari, shuningdek Markaziy bank va boshqa manfaatdor tomonlarni chalg'itishga va yangilashga urinish deb baholanadi hamda xavfsiz bo'lmagan, nosog'lom bank amaliyoti deb hisoblanadi.

Daromad keltirmaydigan aktivlarning ulushi jami aktivlarning etmish foizidan ortiq bo'lishi bank kredit siyosati, kreditlar ajratish va ularni boshqarish jarayonining bo'shligini bildiruvchi ko'rsatkich hisoblanadi.

2011-2015 yillarda respublika bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish va yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasining tijorat banklari aktivlarini, shu jumladan kredit portfellarini yanada o'sishini va sifatini yaxshilashni ta'minlash, tavakkalchilikni baholash tizimini takomillashtirish maqsadida bank tavakkalchiliklarini boshqarishda chuqur omilli tahlilni amalga oshirishning aniq mexanizmini joriy qilish, zaxiralarni shakllantirish, kredit portfelini diversifikatsiyalashlarni ko'zda tutgan holda banklar aktivlari sifati monitoringini takomillashtirish, shuningdek muammoli qarzdorlik paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik yuzasidan ogohlantiruvchi choralar qabul qilish belgilangan edi.

№	Aktivlarning sifati	Zaxiralar
1	Standart	1%
2	Substandart	10%
3	Қониқарсиз	25%
4	SHubxali	50%
5	Umidsiz	100%

Standart. Ushbu aktivlar bo'yicha qarzlarning o'z muddatida to'lanishi shubxa tug'dirmaydi. Qarz oluvchi moliyaviy jihatdan barqaror hisoblanadi, u etarli miqdorda kapitalga, yuqori daromadlilik darajasiga hamda barcha mavjud majburiyatlar, jumladan, mazkur qarzni qondirish uchun etarli pul mablag'lari oqimiga ega. Qarz oluvchi amalda bajariladigan, jumladan, bozorda raqobatlasha olish, yaxshi mahsulot ishlab chiqarishga doir strategik rejani taqdim etadi va o'z mahsulotlari uchun marketing rejasiga ega bo'ladi. Qarzdor mavqeini baholash kreditga doir to'lovlar tarixi, garovning bozorda sotilishi (mulk va ko'chmas mulk, kafolat) kabi omillarni o'z ichiga qamrab oladi. Garov "yaxshi ta'minlangan" kredit mezonlariga mos keladi. Garov amaldagi qonunchilikka muvofiq notarial jihatdan puxta tasdiqlangan bo'lishi va zarur hollarda tegishli mulk bitimini ro'yxatdan o'tkazish uchun belgilangan tartibda ro'yxatga olinishi lozim. Bank kredit qaytarilmagan holda cheklovlarsiz va erkin ravishda uni garov hisobidan undirib olishi mumkin. Ta'minotga doir taqdim etilayotgan barcha hujjatlar qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtirilishi kerak.

"Стандарт" deb tasniflangan kreditlarda ular qaytarilmasligi alomatlari bo'lmaydi. Foizlar muddati o'tgan ssudalar "YAxshi" deb tasniflanishi mumkin emas.

Substandart. Substandart. toifaga kiritilgan aktivlar berilishida ikkilamchi to'lov manbasi (kafolat yoki garov bilan) puxta ta'minlangan bo'lishi lozim. Umuman olganda

qarzdorning moliyaviy ahvoli barqaror hisoblanadi, lekin ayrim noqulay vaziyatlar yoki yo'nalishlar mavjud bo'lib, agarda ular bartaraf etilmasa, qarzdorning kreditni o'z vaqtida to'lash qobiliyatiga nisbatan shubha uyg'onishi mumkin. SHu bilan birga moliyaviy ahvol yoki garovni nazorat qilish borasida bir muncha shubhalar bo'lishi mumkin. Kredit hujjatlarida etarlicha axborot bo'lmagan yoki garov ta'minoti bo'yicha hujjatlari bo'lmagan "Standart" kreditlar (aktivlar) ham "Substandart. " aktivlar sifatida tasniflanishi mumkin. "Standart" sifatida tasniflangan aktivlar bo'yicha bank qaytarilmagan asosiy qarz summasining 10 foizi miqdorida zaxiralar tuzishi shart.

Qoniqarsiz.Qoniqarsiz. aktivlar aniq ifodalangan kamchiliklar belgilariga ega bo'lib, bu holat dastlabki shartnomaga muvofiq qarz qaytarilishi shartlarining bajarilishiga shubha uyg'otadi. "Substandart" sifatida tasniflangan kreditlarda qarz to'lashning dastlabki manbai qarzga xizmat ko'rsatish uchun etarli darajada bo'lmaydi va bank qarzni qaytarish uchun qo'shimcha manbalar (garovdan undirish va qarzdor tomonidan ssuda qaytarilmaganda garovni sotish, asosiy fondlarni sotish singari manbalar)ni qidirishga majbur bo'ladi, SHuningdek substandart aktivlar ishonchli joriy moliyaviy ahvol va qarz oluvchining to'lov qobiliyati bilan himoyalangan. Substandart aktivlar odatdagiga nisbatan qoniqarli joriy moliyaviy axborotning yo'qligi yoki garov hujjatlarining etarli emasligi bilan bog'liq bo'lgan tavakkalchilik darajasi ancha yuqori bo'lgan kreditlarni ifodalaydi. (AV 22.09.2011 y. 632-2-son bilan ro'yxatga olingan MB Boshqaruvining Qarori tahriridagi xatboshi) (Oldingi tahririga qarang)

SHuningdek quyidagi muammo yoki xususiyatlardan kamida bittasi mavjud bo'lsa, aktiv to'lov muddati to'lgunicha substandart sifatida tasniflanishi mumkin:

a) asosiy to'lov manbalari qarz to'lash uchun etarli emas, bank garovga qo'yilgan mulkni sotish, qarz oluvchining boshqa asosiy mablag'larini sotish, to'lanishi lozim bo'lgan boshqa qarz mablag'larini qayta moliyalash kabilarni hisobga olgan holda qo'shimcha to'lov manbalarini topishi kerak;

b) qarz oluvchining joriy moliyaviy holati yoki uning pul mablag'larining mo'ljallanayotgan oqimi majburiyatlarni qoplash uchun etarli bo'lmagan hollarda;

v) qarz oluvchi kapitali ko'p darajada etarli bo'lmagan korxonaga bo'lgan taqdirda;

g) ushbu sohaga nisbatan yo'nalish va istiqbollar barqaror bo'lmagan holda;

d) kreditlar (aktivlar), garov qiymati asosiy qarz summasidan oshmagan, hech bo'lmaganda asosiy qarzning to'lanmagan summasiga teng bo'lgan holda (ya'ni kredit qisman ta'minlangan bo'lsa).

"Substandart" sifatida tasniflangan aktivlar bo'yicha bank asosiy qarzning to'lanmagan summasining 25 foiziga teng bo'lgan zaxiralarni shakllantirishi lozim.

SHubxali. SHubxali kreditlar substandart deb tasniflanuvchi kreditlarga xos barcha xususiyatlarga ega bo'lib, mavjud sharoitda aktivlarning to'liq qaytarilishini shubha ostiga qo'yadi va kam ishonchli qilib qo'yadi. Ziyon ko'rish ehtimoli yuqori bo'lgan, lekin ayrim ijobiy omillari mavjud bo'lgan ushbu kreditlar sharoit oydinlashguncha "shubxali" deb tasniflanmaydi.

Quyidagi omillarning kamida bittasi mavjud bo'lsa, aktiv "shubxali" deb, tasniflanishi mumkin:

a) "substandart" aktivlarning hech bo'lmaganda bironta ko'rsatkichi, shuningdek ayrim boshqa noqulay tavsiflari mavjud bo'lsa (bozorda oson sotiluvchan garovning mavjudligi yoki qarz oluvchining bankrot deb e'lon qilinishi);

b) yaqin kelajakda aktivning qisman to'lanishi ehtimolining mavjudligi, shuningdek ushbu paytda aktivning "umidsiz" deb tasniflanishi zarur emasligi;

v) foizlar va asosiy qarz bo'yicha to'lash jadvaliga binoan to'lanmagan to'lovlar mavjudligi.

Aktivni "umidsiz" deb tasniflashga imkon beruvchi muhim omillarga quyidagilar kiradi:

- bank aktivlar bo'yicha ayrim to'lov turlarini yoki hech bo'lmaganda, qisman to'lovlarni oladi;

- bank garovni undirib olish bo'yicha Huquqiy xatti-harakatlarni qo'llay boshlaydi va ta'minot sotuvini o'z vaqtida amalga oshiradi (90 kun ichida);

- qarzdor tomonidan keyinchalik aktivni to'liq ta'minlaydigan qo'shimcha ta'minotni taqdim etish harakatlarining amalda boshlanishi.

"SHubhali" deb tasniflangan aktivlar bo'yicha bank asosiy qarz to'lanmagan summasining 50 foizi miqdorida zaxirani tashkil etishi shart.

Umidsiz deb tasniflangan kreditlarga qaytarilmaydigan kreditlar kiradi. Qiymati juda pastligi tufayli bank aktivlari sifatida ularning Hisobini yuritish maqsadga muvofiq emas, deb Hisoblanadi. Bunday tasniflash kreditlarda umuman Hech qanday tugatiladigan qiymat mavjud emasligini bildirmaydi. Lekin banklar o'z balanslarida bu qarzdorlikning Hisobini yuritishni davom ettirishlari maqsadga muvofiq emas. Bank garovga olingan mulkni sotish orqali bunday qarzdorlikni bartaraf etish choralarini ko'rishi yoki uni qaytarish choralarini qo'llashi kerak

Quyidagi muammolar yoki tavsiflarning kamida biri mavjud bo'lganda aktiv "umidsiz" deb tasniflanadi:

shartnoma jadvaliga muvofiq oraliq to'lovlarni to'lash kuni 180 va undan ortiq kunga kechiktirilgan bo'lsa;

aktiv shartnomada belgilangan muddatda to'lanmagan bo'lsa;

sudda ishni ko'rish jarayonida bo'lgan aktivlar;

qarz oluvchining yomon moliyaviy ahvoli va to'lovga qodir emasligi sababli to'lash muddati uzaytirilgan aktivlar bo'lsa;

qarz oluvchi va lizing oluvchidan undirilgan mol-mulk bank maqsadlarida foydalanilmaydigan Hamda garovga qo'yilgan mol-mulkka bo'lgan Huquqlardan foydalanish yo'li bilan bank balansiga qabul qilingan kundan boshlab uch oylik muddatda bank tomonidan realizatsiya qilinmagan bo'lsa.

Aktiv shartnomada belgilangan muddatda qaytarilmasligidan dalolat beruvchi dalillar yoki alomatlar mavjud bo'lganda ushbu aktiv Ham "umidsiz" deb tasniflanadi

Umidsiz deb tasniflangan aktivlar bo'yicha bank asosiy qarzning to'lanmagan summasining 100 foizi miqdorida zaxiralar yaratishi kerak.

5-mavzu. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari tarkibi va ularning joylashishi

Reja:

- 1. Tijorat banklari aktivlarini boshqarish asoslari**
- 2. Bank aktivlari va passivlarini mutanosibligini ta'minlashda bank likvidligining ahamiyati va ularni bank daromadiga ta'siri**
- 3. Tijorat banklarida aktiv va passivlarni boshqarish usullari.**
- 4. Bank aktiv va passivlarini boshqarishning xorij tajribasi**

1. Tijorat banklari aktivlarini boshqarish asoslari

Bankning passiv va aktiv operatsiyalari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lganligi sababli, passivlarning tarkibi va xarakteri ko'p jihatdan banklarning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda o'z ifodasini topadi. Shu bilan birga resurslar xarakteriga banklarning kreditlash siyosatining o'zgarishi ham ta'sir qiladi.

Bank aktiv va passivlarini boshqarish nazariyalari 4 ta va ular quyidagilar:

1. Tijorat ssudalari nazariyasiga ko'ra, bankning aktivlarni qisqa muddatli ssudalarga joylashtirilgan paytda saqlanadi. Bunda ssudalarning qisqa muddatligi, aylanish tezligi, daromadligi hisobga olingan. Boshqacha qilib aytganda, banklar tovarlar harakati ishlab chiqarishdan uni iste'molgacha bo'lgan bosqichlarni moliyalashtirishni ko'zda tutadi.

2. Joydan-joyga (aktivlar) ni ko'chirish nazariyasi -bank likvidligini boshqarishda qimmatbaho qog'ozlar bozorining, xususan, davlat qisqa muddatli obligatsiyalarga asosiy urg'u beradi. Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari davlat kafolatiga ega ekanligi va undagi daromadlarning kafolatlanganligi hamda, bu turdagi daromadlarning soliq to'lovlaridan ozod etilganligi sababli ikkilamchi bozorda osongina sotilar va naqd pulga aylanishi qulay edi.

3. Kutilayotgan daromadlar nazariyasi kreditlar bo'yicha asosiy qarz va foiz to'lovlarining qaytishi, avvalo, mijozlar tomonidan kutilayotga daromad darajasiga ham miqdor, ham vaqt nuqtai nazaridan mos kelishi va o'zaro bog'lanishi amalga tadbiiq qilindi. Banklar kreditlarni diversifikatsiya qilish jarayonida shu xususiyatni hisobga olish lozim. Bu nazariyaga ko'ra, bank likvidligini kreditlarni qaytarishda to'lovlar grafigiga, kelajakda qarz oluvchining oladigan daromadini qo'ygan holda rejalashtirsa bo'ladi.

4. Passivlarni boshqarish nazariyasi banklar o'z likvidligini pul bozori va sarmoya bozorida qarz olish, ya'ni mablag'lar jalb qilish orqali boshqara boshlaydi. Bu asosan Markaziy bankdan mablag'lar sotib olish, depozit sertifikatlari, qisqa muddatli tijorat veksellar va yevrodollar kabi qarz majburiyatlarini muomilaga chiqarish shaklida amalga oshirildi. Bu usulning banklarga foydali tomoni: birinchidan, daromad nuqtai nazaridan-banklar sotib olingan mablag'larga barcha uchun yagona imtiyoz bo'lgan bozor foiz darajasida to'lovlar amalga oshirishga muvaffaq bo'lishgan bo'lsa, ikkinchidan, miqdor nuqtai nazaridan-fundamental, doimiy jamg'armalar yuzaga kelib, bu mablag'lar bank balansining ham aktiv, ham passivida bank likvidligini ushlab turadi.

Mazkur nazariyada asosiy e'tibor tijorat banklarining depozit bazasini yaxshilashga qaratiladi. Tijorat banklarining depozit bazasi o'zining tarkibiga tranzaksion depozitlarni,

muddatli depozitlarni va jamg'arma depozitlarini oladi. Tijorat banklari depozit bazasining sifatini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan biri tranzaksion depozitlarning salmog'i ko'rsatkichi hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichni hisoblash uchun tranzaksion depozitlarning so'mmasi depozitlarning umumiy so'mmasiga bo'linadi va olingan natija 100 foizga ko'paytiriladi. Jahon Tiklash va Taraqqiyot banki ekspertlarining fikriga ko'ra, bu ko'rsatkichning maksimal darajasi 30 foizni tashkil etishi lozim. Agar bu ko'rsatkichning natijasi 30 foizdan oshsa, u holda bankning resurs bazasining holati yomonlashayotgan hisoblanadi.

Birinchi 3 ta nazariya bevosita bank aktivlarini boshqarish nazariyasi bilan bog'liq. Bank amaliyotida yuqoridagilarni barchasi qo'llaniladi, lekin turli banklar ulardan turlicha foydaniladi hamda qaysidir biriga faoliyati davomida ko'proq e'tibor qaratadi.

Bugungi kungacha bank aktivlari va passivlarini joylashtirish borasida bir qancha uslublardan foydalanilgan. Bular: "Tijorat kreditlari", "Mablag'larni qayta taqsimlash", "Kutilayotgan daromadlar", "Passivlarni boshqarish", "Aktiv va passivlarni boshqarish" kabi uslublardir. Ma'lumki, bank faoliyatidagi har qanday risk, avvalo, bank foydasi miqdoriga ko'rsatadigan tasir darajasiga qarab guruhlarga ajratiladi. Bank foydasining o'zgarishiga bevosita ta'sir qiluvchi xatarlar "birlamchi", bilvosita ta'sir qiluvchi xatarlar esa "ikkilamchi" xususiyatga ega. Bugungi kunda bank aktiv va passivlarini boshqarish texnologiyasi, yagona tahlil bilan bank faoliyatidagi mavjud va kutilayotgan risklari darajasini aniqlash va bankning ertangi moliyaviy ahvoli haqida oldindan ma'lumot to'plash imkoniyatini talab etmoqda.

Aktivlarni samarali boshqarish quyidagilardan iborat:

- bank daromadi va xarajati o'rtasidagi marja ko'rinishidagi farqning o'sishi ;
- daromad va kredit resurslari tavakkalchiligiga yetarli darajada rioya qilish;
- bank aktivlarda % stavkasi o'zgarishi bilan % tavakkalchiligini kamaytirish maqsadida e'tiborini qaratish.

Bank aktivlarini turli aktivlarga joylashtirish yuqori likvidlik darajasini ushlab turish va ma'lum yuqori daromad olish ehtiyojini belgilab beruvchi mavjud qonun va tartibga soluvchi aktlardan kelib chiqadi. «Likvidlik- daromadlilik» dilemmasini yechishga urinishlar aktivlarni boshqarishda 3 usulni keltirib chiqaradi.

Tijorat bank aktivlarini boshqarish usullari:

1. Aktivlarni boshqarishning umumiy fond mablag'lari usuli;
2. Aktivlarni taqsimlash metodi;
3. Ilmiy boshqarish metodi;

Ko'pgina xorijiy banklar amaliyotida aktivlarni boshqarishning quyidagi usullaridan keng foydalaniladi:

Bank aktivlarini boshqarishning umumiy mablag'lar manbalari usuli bankning o'z va jalb qilingan mablag'larini birlashtirishni nazarda tutadi, bunda bankda dastlab birlamchi va ikkilamchi zaxiralar shakllantiriladi. Mazkur usulni qo'llashning keyingi bosqichida kredit portfeli shakllantiriladi. Banklar amaliyotida kredit mablag'lari aktivlarning yirik ulushini tashkil etadi va bank faoliyatida muhim o'rin tutadi, chunki banklar daromadlarining asosiy qismini yuridik va jismoniy shaxslarga kreditlash xizmatlarini ko'rsatishdan oladi. Ushbu usul jalb qilingan resurslarni imkon qadar

bankning daromadli aktiv amaliyotiga yo'naltirishni nazarda tutadi. Banda bankdan likvidlilik va foydalilik tamoyillariga alohida e'tibor qaratish talab etiladi, chunki resurslarni foyda olish uchun aktiv amaliyotlarga, xususan, ko'p miqdorda yuqori daromad keltiruvchi sohaga yo'naltirish, o'z navbatida risklilik darajasini nazoratdan chiqishiga yoki likvidlilik riskliligini yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli ushbu usulni resurslar ortiqchaligida qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Aktivlarni taqsimlash usulini qo'llash esa, jalb qilinayotgan resurslarning manbalarini tahliliga asoslanadi. Mazkur usulda resurslarning manbalari bo'yicha taqsimlashda resurslarning aylanuvchanligi bilan bog'liq bo'lgan muayyan cheklanishlar yuzaga keladi.

Ya'ni jalb qilingan qisqa muddatli resurslar qisqa muddatli aktivlar amaliyotlariga yo'naltiriladi. Mazkur usulning afzalligi shundaki, bu usulni qo'llash jarayonida resurslarni toifalarga qarab taqsimlash orqali likvid aktivlarning jami aktivlardagi ulushini qisqartirish imkoni yuzaga keladi. Ushbu ikkala usulning kamchiligi shundaki, bu holatlarda mijozlarning kreditlarga bo'lgan talabi va ehtiyoji yetarlicha qondirilmaydi, ya'ni kreditlashda mijozlarning kreditlarga bo'lgan mavsumiy talablari to'liq e'tiborga olinmaydi. Mazkur muammolarning yechimidan kelib chiqqan holda xorij tajribasida aktivlarni boshqarishda chiziqli dasturlash usulidan foydalanish ham keng tarqalgan bo'lib, mazkur usulning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bank aktivlarini boshqarishning chiziqli dasturlash usuli murakkab hisob-kitoblar orqali bir necha muqobil usullardan maqbulini tanlab olishni nazarda tutadi. Bu usul jalb qilinayotgan resurslarni qay tariqa yuqori daromad keltiruvchi va kam sarflarni talab qiladigan sohalarga joylashtirish vazifasi qo'yiladi.

Ilmiy metod, shuningdek EHMni qo'llash bilan bog'liq bo'lgan metod. Bu metod nisbatan murakkab matematik metodlar va EHM orqali boshqarish muammolariga yondashishni kasb etadi. Ushbu usul orqali aktiv operatsiyalarni amalga oshirishda matematik model usullaridan foydalaniladi.

Aktivlarni boshqarishda asosiy e'tibor risklarni eng past darajasi shartida daromadlar va xarajatlar orasidagi ijobiy farqni mumkin qadar oshirish yoki uni juda bo'lmaganda barqaror darajada saqlab turishga qaratilishi zarur. Shu sababli, tijorat banklarida aktivlarni boshqarish mexanizmini quyidagi taribda ifodalash maqsadga muvofiq:

1. Daromad keltiruvchi aktivlarni boshqarishning boshqarish vositalari bank ichki siyosatlarini(kredit, foiz, investitsiya, likvidlilikni boshqarish) hisoblanadi.
 - Kredit mablag'larini boshqarish
 - Lizing amaliyotlarini boshqarish
 - Faktoring amaliyotlarini boshqarish
 - Investitsiya qo'yilmalarini boshqarish
 - Qimmatli qog'ozlarni boshqarish
2. Daromad keltirmaydigan aktivlarni boshqarishning boshqarish vositalari hisob siyosati, bank biznes rejasi, tender komissiyasi qarorlari va boshqalar hisoblanadi.
 - Kassa aktivlarini boshqarish
 - Vakillik hisob raqamlaridagi mablag'larni boshqarish

- Muammoli aktivlarni boshqarish
- Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni boshqarish
- Bankning boshqa aktivlarini boshqarish

Tijorat banklarida daromad keltiruvchi aktivlarni boshqarish usul va vositalari bank kengashi tomonidan tasdiqlangan ichki siyosatlarida belgilanadi hamda banklar tomonidan kredit risklarini pasaytirish va aktiv operatsiyalarning daromadlilikini oshirish maqsadida amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar majmuasini o'zida ifoda etadi.

Daromad keltiruvchi aktivlarni joylashtirish davrida loyihaning xususiyatlari va risklilik darajasini hisobga olgan holda mijozning qaysi mulkchilik shaklida faoliyat ko'rsatishi; jalb qilingan mablag'lar qiymati; loyihaning o'z-o'zini qoplash sifatlari; loyihaning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatidan; mijozning kredit tarixi, bank bilan moliyaviy munosabatlar olib borgan davridagi moliyaviy holati kabilardan kelib chiqib diversifikatsiya qilish maqsadga muvofiq.

Daromad keltiruvchi aktivlarni boshqarish elementlari quyidagilar:

- Aktivlarni diversifikatsiyalash;
- Aktivlarni to'g'ri tasniflash va zaxira shakllantirish;
- Aktivlarni maqsadli ishlatilishini monitoring qilish.

Daromad keltirmaydigan aktivlarni boshqarishda esa mazkur aktivlar tarkibiga kiruvchi qimmatliklarni bank Kengashi tomonidan har yili tasdiqlangan biznes rejada ko'rsatilgan miqdordan oshib ketmasligini nazorat qilish amalga oshiriladi.

Aktivlarni boshqarishning samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlaridan biri bank aktivlarining umumiy hajmida daromad keltirmaydigan aktivlarning salmog'ini o'zgarishi ko'rsatkichi hisoblanadi. Agar bu ko'rsatkich tahlil qilingan davr mobaynida o'sish tendensiyasiga ega bo'lsa yoki uning nisbatan barqaror darajasi saqlab qolingan bo'lsa, u holda bank aktivlarining daromadlilik darajasi past hisoblanadi.

Daromad keltirmaydigan aktivlar tarkibida sud jarayonidagi aktivlarning o'sishi bank uchun bir qancha muammolarni keltirib chiqaradi, xususan bu holat pul mablag'lari aylanmasiga salbiy ta'sir qiladi; ushbu aktivlarni undirish ishlarini tashkil etish uchun maxsus ishchi guruh tuzish zarur bo'ladi, bu esa, o'z navbatida, xizmat safari bilan bog'liq xarajatlarni oshiradi. Shu sababli, aktivlarni joylashtirishdan oldin mijozlarning moliyaviy holatini chuqurroq tahlil qilish va qo'yilgan ta'minot obyekti ahvolini dastlabki monitoringdan o'tkazish zarur. Daromad keltirmaydigan aktivlar tarkibida asosiy vositalar salmoqli o'rin egallaydi. Ko'pgina banklarning balansida boshqa aktivlar (bank ehtiyojlari uchun sotib olinayotgan, ammo bankka keltirilmagan qimmatliklar, tugallanmagan qurilishlar uchun bank to'lovlari, xodimlarning bank oldidagi qarzlari, kelgusi davr xarajatlari va h.k) miqdori hisobot davri oxirida yirik summani tashkil etib qolmoqda. Bu holat o'z navbatida bankning debitorlik qarzlarni oshishiga, shuningdek, bankda daromad keltirmaydigan aktivlar ulushini ortishiga olib kelmoqda.

Tijorat banklarining aktivlarini boshqarishda ularni tasniflashning quyidagi zarurati mavjud:

1. Aktivlarni to'g'ri tasniflash va bu borada tegishli choralar ko'rishga yetarlicha e'tibor berilmasligi oqibatida jami aktivlar tarkibida muammoli aktivlar hajmining o'sishi, joylashtirilgan aktivlar bo'yicha hisoblangan foizlarni undirilmay qolishi

kabi holatlarni yuzaga keltirmoqda.

2. Aktivlarni to'g'ri tasniflash jami aktivlar tarkibida daromad ketiruvchi aktivlarning real miqdorini aniqlash va ularning hajmini oshirish bo'yicha zarur choralar ko'rish imkonini beradi.
3. Aktivlarni tasniflash asosida ularning riskka beriluvchanligini kamaytirish, bu toifadagi aktivlarni doimiy ravishda monitoringini qilib borish zarur bo'ladi.

Passivlarni boshqarish strategiyasi yuqori sinfli qarzlarga bo'lgan talabni qoniqtirish va zaxira talablarini bajarish uchun boshqa moliya muassasalaridagi fondlarni sotib olishdan iboratdir. Bank buning uchun zarur bo'lgan mablag'larni turli usullar bilan izlab topishi mumkin. Ular asosan ikki usulga bo'linadi, ya'ni, depozitsiz usul orqali va deposit usuli orqali. Deposit ko'rinishda passivlarni shakllantirishga esa depozitning turlari bo'yicha mablag'larni jalb qilish tushuniladi va bu usul ko'proq an'anaviy hisoblanadi. Depozitsiz usul orqali mablag'larni izlab topish quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin: mahalliy yoki xorijiy fond bozorlaridan qarz olish yo'li bilan; mijozlarga qo'ldan-qo'lga o'tib yuruvchi depozit sertifikatlarini sotish yo'li bilan; mintaqaviy davlat zaxira bankidan qarz olish yo'li bilan; ortiqcha mablag'ga ega bo'lgan muassasalar yoki xususiy shaxslar bilan qayta sotib olish to'g'risida shartnoma bog'lash yo'li bilan; yoki mazkur bank xolding kompaniyasining bir qismi hisoblanadigan shaxobchalar orqali qimmatli qog'ozlar(veksel) chiqarish yo'li bilan.

Passivlarni boshqarish kredit faoliyatini ushlab turish uchun muhim vosita bo'lib hisoblanadi. U bankirlardan bankning moliyaviy ta'minlanganligini mustahkamlash uchun bozor bilan o'zaro aloqalarini rivojlantirish maqsadida mashaqqatli, jiddiy ishni talab qiladi. Passivlarni boshqarish bank mablag'larini shakllantirish usuli sifatida foiz tebranishlariga nisbatan juda sezgirdir. Agar foiz stavkalari ko'tarilsa-yu, biroq bu kabi yuqori stavkalar bo'yicha to'lov to'lashni istamasa, unda qisqa muddatli sarmoyalar bozorida jalb qilinadigan mablag'lar sanoqli daqiqalar ichida sotib yuboriladi. Chunki kreditlar bozorida foiz stavkalarining o'zgarishiga juda sezgirlik bilan javob beradilar.

O'sib borayotgan kredit qo'yilmalarini yoki zaxira tanqisligini qoplash uchun qo'shimcha mablag'larga ehtiyoj sezayotgan bank, passivlarni boshqarishda taklif etilayotgan stavkalarni oshirishi mumkin. Buning uchun u kreditorlardan olgan zaruriy mablag'larga ega bo'lsa kifoya. Qarzgga bo'lgan talabning pasayishi va naqd pul zaxiralarining ortiqchaligi bilan to'qnashgan banklar bozordagi o'zlarining qisqa muddatli qarzlari, hajmini kamaytirish mumkin.

Bank passivlarini boshqarishning alohida belgilari quyidagilar hisoblanadi: 1) qisqa muddatli sarmoya bozorida passivlarni sotish yordamida fondlarni sotib olish; 2) o'z mijozlarining kreditga bo'lgan ehtiyojlariga bankning sezgirlik bilan javob qaytarishini ta'minlash uchun tushayotgan mablag'larning boshqaruv richagi sifatida baho olishidan (foiz stavkasining taklif etilayotgan bahosi) foydalanish.

2. Bank aktivlari va passivlarini mutanosibligini ta'minlashda bank likvidliligining ahamiyati va ularni bank daromadiga ta'siri

Aktivlar va passivlarni boshqarishda bank aktivlari likvidligi masalasini ko'rib chiqish muhim hisoblanadi. Banklar samarali faoliyat yuritishi va ularning ishonchligini

ta'minlashga erishish uchun banklarning likvidliligini qay darajada ekanligini aniqlash juda muhimdir. Likvidlilik bank faoliyatini tavsiflaydigan asosiy sifat ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, u bank tomonidan majburiyatlar o'z vaqtida bajarilishi hamda aktivlar o'sishini ta'minlash bilan birga, depozitlar va qarz mablag'lari darajasining samarali boshqaruvini bildiradi.

2008 yildan beri davom etayotgan xalqaro iqtisodiy-moliyaviy inqiroz davrida "leveraj" ta'sirida qimmatbaho qog'ozlar bozoridagi "moliyaviy pufak" muammosining "bank krediti inqirozi" shaklida rivojlanishi va iqtisodiy-moliyaviy inqirozning kelib chiqishi ham banklarning o'z aktiv va passivlarini joylashtirishdagi "likvidlik/daromad" xatari nisbatining buzilishi deya baholanayotganligi bunga yana bir yorqin misoldir. Tijorat banklarida "likvidlik/daromad" xatarini boshqarish asosan aktiv va passivlarning mos va optimal shaklda joylashtirilishiga bog'liq. Hech bo'lmaganda, kerakli vaqtda, talab qilingan miqdorda hamda foydali foiz darajalarida mablag' topish yoki aktivlarni oshirish imkoniyati bo'lishi lozim. Demak, banklarning aktiv va passiv operatsiyalari bir-biriga o'zaro mutanosib bo'lib, ularni samarali boshqaruv mexanizmini ishlab chiqish banklar uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bank faoliyatining rivojlanishidan ma'lumki, bank aktivlari daromadlilik va likvidlilik bir-biriga teskari proportsional ko'rsatkichlar hisoblanadi. Tijorat banklaridan aktiv va passivlarini samarali boshqarish orqali likvidlik va daromadlilik muammosini hal etishlari talab etiladi.

Tijorat banklarida "likvidlik/daromad" xatarini boshqarish asosan aktiv va passivlarning mos va optimal shaklda joylashtirilishiga bog'liq. Hech bo'lmaganda, kerakli vaqtda, talab qilingan miqdorda hamda foydali foiz darajalarida mablag' topish yoki aktivlarni oshirish imkoniyati bo'lishi lozim.

Ko'pgina mamlakatlarda likvidlilik ko'rsatkichlari tijorat banklari balansining aktiv va passiv qismini tahlil qilish asosida baholanadi.

Fransiya amaliyotida tijorat banklarining likvidliligini baholashda ishlatiladigan koeffitsientlari umumiy talab qilib olingunga qadar muddatli depozitlarning (3-o'ygacha bo'lgani) va boshqa resurslarning aktivlarga nisbati orqali aniqlanadi. U yerda bu koeffitsientning hisoboti nazorat organlariga har kvartalda taqdim etiladi, bu koeffitsient 60% dan kam bo'lmasligi kerak.

Likvidlilikni ta'minlashda aktiv va passivlarni boshqarish strategiyalari quyidagilar:

1. Aktivlarni boshqarish orqali likvidlilikni boshqarish strategiyasi odatda mayda banklar faoliyatida qo'llaniladi, chunki ushbu likvidlilikni boshqarish metodi qarz likvid mablag'lari orqali aktivlarni transformatsiyalash strategiyasi likvidlilikni boshqarishning arzon yo'li hisoblanmaydi. Aktivlarni sotilishi bankning kelgusi daromadlarini yo'qolishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, ko'p aktivlarning sotilishi qimmatli qog'ozlar bilan bo'ladigan operatsiyalarda brokerlarga to'lanadigan komission xarajat bilan bog'liq. Bundan tashqari, naqd pul mablag'lariga ega bo'lish maqsadida aktivlarning sotilishi bank balansining yomonlashuviga olib keladi, ammo bu aktivlar (masalan, davlat qisqa muddatli obligatsiyalari) ni mavjud bo'lishi bankning moliyaviy faoliyati barqarorligidan dalolar beradi. Aktivlarni sotilishi lozim bo'lgan paytda bozorda qimmatli qog'ozlarning bahosi tushayotgan davrga to'g'ri kelishi bank kapitalining yo'qolishiga sabab bo'lishi

mumkin. Bank boshqaruvchilari bank kelgusi davr daromadlarini muqobil qiymatini minimallashtirish uchun birinchi navbatda minimal foyda potensialiga ega bo'lgan aktivlar sotilishini ta'minlab berishi kerak. Likvid aktivlarning salmog'i oshib borgan sari bankning daromadlarini qisqarishiga olib keladi.

2. Pul mablag'lariga talabni qondirish likvid qarz mablag'laridan foydalanish strategiyasi (passivlarni boshqarish). Ko'pgina yirik banklar likvid mablag'larning manbasi sifatida ko'proq pul bozoridagi qarz mablag'lari foydalanishadi. Odatda bu strategiyani passivlarni boshqarish deyiladi. Bunda tijorat banklari o'zlarining likvid mablag'lariga bo'lgan talabni yirik miqdordagi deposit sertifikatlari va boshqa banklardan olgan kredit mablag'lari orqali ta'minlashadi. Passivlarni boshqarish strategiyasi orqali ma'lum bir muddat uchun qarz mablag'lari hisobiga likvidlik ta'minlanadi. Bu strategiyani yirik banklar amalga oshirishiga sabab, banklarning o'z mablag'lariga nisbatan qarz mablag'larining oshishi va bank balansida tez pulga aylana oladigan aktivlarning yetarli darajada bo'lmasligi, bankning to'lovga layoqatsizlik riski paydo bo'lishi mumkin hamda bank likvid mablag'larga bo'lgan talabini qondira ololmasligi mumkin.

3. Aktiv va passivlarni boshqarish qarz likvid mablag'larini boshqarish strategiyasi riskligini va aktivlarda likvid mablag'larning yuqori bahosini hisobga olgan holda, banklar likvidlikni boshqarishni aktiv va passivlarini boshqarish strategiyasini tanlaydilar. Bu strategiyaga muvofiq likvid mablag'larga kutilayotgan talabning bir qismi tez sotiladigan qimmatli qog'ozlar va boshqa banklardagi depozit ko'rinshlarida saqlanadi, shu paytda likvid mablag'larga bo'lgan boshqa talablar bank korrespondentlar bilan ochilgan kredit liniyalari va boshqa mablag'lar orqali qondiriladi. Kutilmaganda yuzaga keladigan likvid mablag'larga talablar qisqa muddatli kreditlar orqali qoplanadi.

Dastlab bank likvidligi 2 ta nazariy yondashuvni o'z ichiga olar edi:

- Bank aktivlari tarkibi-summasi, muddati, bank passivlari tarkibi-summasi va muddatlariga mos kelishi shart. Bu esa amaliy jihatdan tijorat banklari o'z likvidligini boshqarish bo'yicha faol siyosat yuritishga yo'l qo'ymas edi. Ushbu berilgan nazariy asoslar natijasida bankning "oltin qoida" si kelib chiqdi, ya'ni bank moliyaviy talablari hajmi va muddati bank majburiyatlari hajmi va muddatlariga mos kelishi shart;
- Bank balans aktivlar va passivlar tarkibi real mos kelmasligiga asoslangan, xatto eng qudratli, moliyaviy barqaror tijorat banklari ham bankrotlik, moliyaviy va iqtisodiy inqirozlardan va boshqa mojarolardan sug'urtalanmagan. Bu rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tgan davlatlarga xos hisoblanadi.

Tajribadan shu narsa ma'lumki, ayrim tijorat banklari yuqori daromadni ko'zlagan holda talab qilib olgunga qadar va qisqa muddatda qo'yilgan omonatlar hisobidan kredit berish va boshqa aktiv operatsiyalarga uzoq muddatli tartibda joylashtiradilar. Jalb etilgan mablag'larning muddati kelgan paytda esa bank omonatchilar oldidagi o'z majburiyatlarini muddatida bajarish imkoniga ega bo'lmaydi. Buning natijasida bank o'z to'lov qobiliyatini yo'qotadi. Bunday holat bankning o'z faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatibgina qolmasdan, balki omonatchilarning moliyaviy ahvoriga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bank operatsiyalarini bajarish bo'yicha lizenziyasi tortib olingan banklar bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Mazkur holatlarga yo'l qo'ymaslik maqsadida bank amaliyotida aktiv va passiv mablag'larning miqdori va muddatlarini balanslash talablari o'rnatildi. Bu to'g'rida jahon bank tajribasining «bankning oltin qoidasi» deb nomlanuvchi qoidasi amal qiladi. Unga binoan bankning moliyaviy talablari miqdori va muddati uning majburiyatlari miqdori va muddatlariga muvofiq kelishi shart.

Tijorat banklari aktivlarining sifatini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri - aktivlarning daromadlilik ko'rsatkichi hisoblanadi. Aktivlar daromadlilikiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri aktivlar tarkibida daromad keltirmaydigan aktivlar salmog'ining o'zgarishi hisoblanadi.

Banklar faoliyatini nazorat qilish jarayonida aktivlar daromadlilikining o'zgarishi, aktivlar tarkibida daromad keltirmaydigan aktivlar salmog'ining o'zgarishi asosiy nazorat ob'ektlari sifatida e'tiborga olinishi lozim.

Tijorat banklari faoliyatida kreditlar eng ko'p daromad keltiradigan aktivlardan biri hisoblanadi. Shu tufayli, ushbu aktivlarni ko'zdan kechirish va tahlil qilish jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Inspektorning bu yo'nalishdagi dastlabki vazifalaridan biri - kredit portfelining umumiy holatini tahlil qilish va joriy yoki potensial muammolar manbalarini aniqlashdan iborat. Aktivlar sifatining tahlilida asosiy e'tibor aktivlarning qaytishiga qaratiladi.

Shu o'rinda tijorat banklarining reytingiga baho beruvchi kompaniyalar tomonidan tijorat bankining ma'lum davr ichidagi faoliyati yakuniga baho berish emas, balki mavjud aktiv va passivlarning joylashtirilishiga va bankning kelajak faoliyatida kutilayotgan risklar darajasining yuqori yoki pastligiga qarab, bank faoliyatiga barqaror deb baho berish muhimroqdir.

Tijorat banklarida daromadlilik darajasini oshirish bevosita aktivlarni samarali joylashtirishga bog'liq bo'lganligi sababli, aktivlar bilan bog'liq risklarni baholash muhim masalalardan hisoblanadi. Tijorat banklarida aktivlar risklilikini yuzaga kelishining bir qator sabablari mavjud. Ular qatoriga bank ichki siyosatida aktivlarni samarali joylashtirish bo'yicha talablarning yetarli emasligi; bank tomonidan marketing tadqiqotlarini to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi; bankda kredit ajratilayotgan loyihalar, obyektlar va mijozlar, ularning moliyaviy ahvoli to'g'risidagi ma'lumot va axborotlarning to'liq emasligi; kreditlanayotgan tarmoqlar faoliyati xususiyatlarini yetarlicha tahlil qilinmasligini kiritish mumkin.

Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o'tkazilgan tahlillar talab qilib olinguncha depozitlar ko'proq barqaror emasligini ko'rsatgan. Depozitning mazkur turi foiz stavkasiga bog'liq emas. Ularning tahliliga ko'ra, jamg'ariluvchi va muddatli depozitlar yuqori darajadagi barqarorlikka ega. Bu turdagi depozitlarning ma'lum bir bankda mavjud bo'lishiga foiz stavkasining miqdori katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bu depozitlar har xil banklar tomonidan o'rnatiladigan foiz stavkalarining ma'lum bir tebranishlari yuz bergan holda, migratsiya ta'siri ostida bo'ladi. Shu bilan birga bank likvidlilik banklararo kreditlardan tashkil topgan tashqi manbalardan bog'liq bo'lishi bilan ham asoslaniladi. Banklararo kreditning belgilangan miqdorda mavjud bo'lishi bank likvidlilikiga xavf solmaydi, balki likvid aktivlarga bo'lgan qisqa muddatli tanqislikni bartaraf etish imkonini

beradi. Lekin banklararo kreditlar jalb qilingan resurslar tarkibda asosiy o'rinni egallasa, banklararo bozordagi salbiy konyuktura bankni inqirozga uchratishi mumkin.

Aktivlarni passivlar bilan miqdori va muddati bo'yicha mos kelishi bank likvidliligiga jiddiy ta'sir qiladi. Bank o'z mijozi oldidagi majburiyatlarni bajarishda omonatchilar tomonidan taqdim qilingan mablag'larning muddati, shu mablag'ni investitsiya qilish muddatiga mutanosib bo'lishi lozimligi yuzasidan kelishib olganligini anglashi lozim. Jalb qilingan resurslar hisobiga ishlayotgan banklar tomonidan bu qoidaning inkor qilinishi kreditorlari oldidagi majburiyatlarini to'liq va o'z vaqtida bajara olmaslik holatidga olib keladi.

Tijorat banklarida likvidlik riskini samarali boshqarish turli muddatlarda qaytadigan aktivlar va to'lanadigan majburiyatlarning mutanosibligini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda aktiv va passivlarni turli davr oraliqlariga ajratgan holda ularning qaytish muddatlari bo'yicha tahlil qilinadi.

Tijorat banklari likvidliligini ta'minlash va uni oqilona boshqarish asosida bank aktivlari va majburiyatlar oqimini, ya'ni bank mablag'larining manbalari va bu mablag'lardan foydalanish muddatlarini muvofiqlashtirish yotadi. Tijorat banking likvidlik bo'yicha menejeri ikkala oqimining o'zgarishini oldindan ko'ra bilib rejalashtirishi va natijada, likvid mablag'larning taklifi va ularga bo'lgan talab o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadigan bankning sof likvid pozitsiyasiga intilishi lozim.

3. Tijorat banklarida aktiv va passivlarni boshqarish usullari.

Tijorat banklari aktiv va passiv operatsiyalarni shu jumladan, likvidlikni kompleks va o'zaro bog'liq holda boshqarish zaruriyati shunday izohlanadi. Bank aktiv va passivlarini boshqarish asosida bankning jalb qilingan va o'z mablag'larini samarali joylashtirish masalasi hal etiladi. Buning asosida tijorat banklari moliyaviy resurslarni investitsiyalarga, kreditlarga va boshqa aktivlarga joylashtirishi mumkin.


Aktivlar va passivlarni boshqarishning asosiy maqsadi riskning eng past darajasi sharoitida daromadlar va xarajatlar orasidagi ijobiy farqni mumkin qadar oshirish yoki uni juda bo'lmaganda barqaror darajada saqlab turishdan iborat ekanligi ma'lum.

Likvidlikni boshqarish o'rganilayotganda bu kategoriya aktiv va passivlarni boshqarishning tarkibiy qismi ekanligini esda tutmoqlik kerak. Aktiv va passivlarni boshqarishdan asosiy maqsad riskning minimal darajasini ta'minlagan holda foiz tushumlarini va foiz to'lovlari o'rtasidagi farqni maksimallashtirish yoki xech bo'lmasa barqaror darajada saqlashdan iboratdir. Bu maqsadga erishishning muhim sharti depozit potensialini oshishini aktiv operatsiyalari kengayishiga bog'liqligi ustidan nazorat o'rnatishdir. Halqaro bank amaliyotida banklarning aktiv va passivlarini boshqarishning amaliy jihatdan bir qancha metodlar ishlab chiqilgan. Jahon amaliyotida eng keng tarqalgan quyidagi ikki metod aktiv va passivlarni boshqarishda shug'ullaniladi:

1. Birlashgan (yagona) manba metodi:
2. Taqsimlangan manbalar metodi (konvertatsiya):

Birlashgan manba metodining mazmuni uning nomidan ham anglashiladi. Bunda jalb qilingan va o'z mablag'lari turli aktivlarga joylashtiriladi. Birlashgan manba metodida

banklarning jalb qilingan mablagʻlari bank kassassiga yoki bankning vakillik hisobvaragʻiga yigʻiladi va ushbu yigʻilgan mablagʻlar hisobidan aktiv operatsiyalar amalga oshiriladi. Quyidagi keltirilgan rasmda banklarda aktiv va passivlarni boshqarishning birlashgan manba metodi aks ettirilgan.




1-rasm. Umumiy fond mablaglari modeli yordamida aktivlarni boshqarish.

Ushbu rasmda koʻrish mumkinki, tijorat banki tomonidan jalb qilingan mablagʻlar avval umumiy fondga yigʻiladi va ehtiyojga qarab turli yoʻnalishlarda foydalaniladi. Masalan, jismoniy shaxslarning bankdagi jamgʻarma depozitlari shakllantirilsa, ushbu mablagʻ kassada aks ettiriladi va bank ushbu mablagʻlardan xizmatlarni koʻrsatish yoki mahsulotlarni realizatsiya qilishda erkin foydalanadi. Ushbu usuldan xalqaro amaliyotda ham Oʻzbekiston bank amaliyotida ham keng foydalaniladi. Chunki samaradorlik yuqori

boʻlgan usul hisoblanadi. Albatta barcha metodlar singari mazkur metod universallikka daʼvo qilmaydi, Metodning kuchsiz tomoni aktiv va passivlar bogʻliqligiga ahamiyatining yoʻqligidir.

Tijorat banklarida shuningdek, jalb qilingan mablagʻlar toʻgʻridan-toʻgʻri aktivlarga joylashtirilishi mumkin. Jalb qilingan maʼlum muddatga jalb qilinadi va ushbu muddat va summaga mos aktiv operatsiyalarga yoʻnaltiriladi. Ushbu usul texnik jihatdan murakkab va riskli hisoblanadi. Quyidagi rasmda aktivlar va passivlarni boshqarishning taqsimlash metodiga muvofiq boshqarish tartibi keltirilgan.



2-rasm. Aktivlarni taqsimlash modeli yordamida aktiv va passivlarni boshqarish.

Mazkur metodga muvofiq bankning jalb qilingan yoki oʻz resurslari boʻlimidan qatʼiy nazar barcha resurslar aktiv operatsiyalarga mudatti va summasiga muvofiq joylashtiriladi. Taqsimlangan manbalar metodi fondlar manbalarini boʻlinishga

asoslanadi. Bu metodni qo'llashda aktivlarni ishlatishning belgilangan yo'nalishlari belgilangan manbalar bilan bog'lanadi va bunda ularning mos holda likvidlilik va foydaliligi hisobga olinadi.

Aktiv va passivlarni boshqarish texnikasining taraqqiyoti, bir vaqtning o'zida risklarning ortishi va fondlarni o'zgaruvchanligi manbalarning bo'linganligi metodikasini ustun qilib qo'yadi. Masalan, agar bank fondlari asosan qisqa muddatli, doimiy bo'lmagan majburiyatlardan iborat bo'lsa, demak mablag'larning asosiy qismi qisqa muddatli kreditlar va qimmatli qog'ozlarga joylashtirilishi kerak. Aksincha bank o'z fondlarini uzoq, muddatli manbalar hisobiga shakllantirgan bo'lsa, ma'lum bir risk bilan manbalarni uzoq muddatli kreditlarga joylashtirish yoki loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirishi mumkin.

Tijorat banklarida aktiv va passivlarni mos hajmda va muddatda mutanosibligi tamoyili mavjud. Buning nazariy asosi bankning «oltin qonuniyat»ida o'z aksini topgan. «Bankning aktivlari uning majburiyatlari bilan muddatda va miqdor jihatdan moc bo'lishi kerak». Amalda bank aktivlari va passivlari tarkibi mos holda xajmi va muddat mutanosibligi to'la ta'minlanmaydi. Chunki yuz berayotgan moliya va kredit jarayonlari, iqtisodiy kon'yunkturasi bunga to'sqinlik qiladi. Aynan «oltin qonuniyat» sof holda takrorlanmasada bu qoidaga intilish va maqsad qilib strategiya ishlab chiqish likvidlilik va to'lovga qobiliyatlilik muammolarini samarali hal qilishga yordam beradi. SHunday qilib aktiv va passiv operatsiyalar tarkibini tahlili yordamida kerakli likvidlilik mavqeiga erishish mumkin. Foydalilikni oshirish uchun aktiv va operatsiyalar daromadligiga erishish va passivlar bo'yicha xarajatlarni minimallashtirish hamda likvidlilik va to'lovga qobiliyatlilikni optimal nuqtada bank boshqarishning kaliti hisoblanadi.

Bankni samarali boshqarilishi aktiv va passivlarni boshqarish strategiyasini to'g'ri belgilanishiga bog'liq. Hozirgi vaqtda bir qancha banklar aktiv va passivlarni boshqarish strategiyasi maxsus qo'mitalar xulosalariga ko'ra ishlab chikadilar (masalan, aktiv va passivlarni boshqarish qo'mitasi). Bunday qo'mitalarning foizlarni o'zgarish riski strategiyasi ishlab chiqishini belgilaydi, balki qisqa va uzoq muddatli rejalashtirish, nolikvidlilik riskidan himoyalash choralarini ishlab chiqish, berilayotgan kreditlar sifatini nazorat qilish, resurslarpi jalb qilish xarajatlarini optimalashtirish bilan ham shug'ullanadi. Aktiv va passivlarni boshqarish qo'mitasi faoliyati aktiv va passivlarni boshqarish strukturasiiga asoslanadi.

Tijorat banklarining passivlarini boshqarishda, xalqaro bank amaliyotida, «Bank passivlarini boshqarish» nazariyasidan keng foydalaniladi. Mazkur nazariyada asosiy e'tibor tijorat banklarining depozit bazasini yaxshilashga qaratiladi. Tijorat banklarining depozit bazasi o'zining tarkibiga transaksion depozitlarni, muddatli depozitlarni va jang'arma depozitlarini oladi. Tijorat banklari depozit bazasining sifatini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan biri transaksion depozitlarning salmog'i ko'rsatkichi hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichni hisoblash uchun transaksion depozitlarning so'mmasi depozitlarning umumiy so'mmasiga bo'linadi va olingan natija 100 foizga ko'paytiriladi. Jahon Tiklash va Taraqqiyot banki ekspertlarining fikriga ko'ra, bu ko'rsatkichning maksimal darajasi 30

foizni tashkil etishi lozim. Agar bu ko'rsatkichning natijasi 30 foizdan oshsa, u holda bankning resurs bazasining holati yomonlashayotgan hisoblanadi.

Passivlarni boshqarish strategiyasi yuqori sinfli qarzlarga bo'lgan talabni qoniqtirish va resurs talablarini bajarish uchun boshqa moliya muassasalaridan fondlarni sotib olishdan iboratdir. Bank buning uchun zarur bo'lgan mablag'larni turli usullar bilan topishi mumkin, jumladan:

- mahalliy yoki xorijiy fond bozorlaridan qarz olish yo'li bilan;
- mijozlarga qo'ldan-qo'lga o'tib yuruvchi depozit sertifikatlarini sotish yo'li bilan;
- mintaqaviy davlat zaxira bankidan qarz olish yo'li bilan;
- vaqtincha ortiqcha mablag'ga ega bo'lgan muassasalar yoki xususiy shaxslar bilan qayta sotib olish to'g'risida shartnoma tuzish yo'li bilan;
- mazkur bank xolding kompaniyasining bir qismi hisoblanadigan shaxobchalar orqali qimmatli kog'ozlar (veksellar) chiqarish yo'li bilan.

Passivlarni boshqarish kredit faoliyatini ushlab turish uchun muhim vosita bo'lib hisoblanadi. U bankirlardan bankning moliyaviy ta'minlanganligini mustahkamlash uchun bozor bilan o'zaro aloqalarni rivojlantirish maqsadida murakkab, jiddiy ishni talab qiladi. Passivlarni boshqarish bank mablag'larini shakllantirish usuli sifatida foiz tebranishlariga nisbatan juda sezgirdir. Agar foiz stavkalari ko'tarilsa-yu, biroq bank bu kabi yuqori stavkalar bo'yicha to'lov to'lashni istamasa, unda qisqa muddatli sarmoyalar bozorida jalb qilinadigan mablag'lar qisqa vaqt ichida sotib yuboriladi. Chunki kreditlar bozorida foiz stavkalarining o'zgarishlariga juda sezgirlik bilan javob beradilar.

Passivlarni boshqarish usullari sezgirlikka (egiluvchanlikka) ega, bank o'ziga qancha va qanday muddatga qo'shimcha mablag'lar kerakligini aniq belgilab olishi va bu talablarning barchasini qondira oladigan manbani topishi mumkin. Bank oladigan o'z mablag'larini shakllantirish uchun depozitlarni sotganda ish boshqacha bo'ladi. Unda qo'yilmalar miqdori qancha bo'lishi va u bank ixtiyorida qancha turishini omonatchi hal qiladi. O'sib borayotgan kredit qo'yilmalarini yoki resurs tanqisligini qoplash uchun qo'shimcha mablag'larga ehtiyoj sezayotgan bank, passivlarni boshqarishda taklif etilayotgan stavkalarni oshirishi mumkin. Buning uchun u kreditorlardan olgan zaruriy mablag'larga ega bo'lsa kifoya, qarzga bo'lgan talabning pasayishi va naqd pul zahiralarining ortiqchaligi bilan to'qnashgan banklar bozordagi o'zlarining qisqa muddatli qarzlari hajmini kamaytirish uchun taklif etilayotgan stavkani kamaytirishlari mumkin.

Aktivlarni boshqarish nazariyasi quyidagi uslubiy qoidaga asoslanadi:

Birinchidan, tijorat bank mablag'larini qisqa muddatli ssudalarga berganda uning likvidliligi saqlanadi. Bu qoida ba'zi G'arb davlatlari qonunlarida o'z aksini topsada, amaliyotda esa u «ikkinchi darajali zaxiralar» nomini olgan.

Ikkinchidan, agar kreditni to'lash grafigi uchun mijozning kelgusi davrda oladigan daromadlarning tushish grafigi asos qilib olinsa, u holda bank likvidligini rejalashtirish mumkin. Demak, bank likvidligiga kredit va investitsiyalarning to'lash muddatini o'zgartirish orqali ta'sir etish mumkin. Amaliyotda bu qoida investitsiya portfelini pog'onali boshqarishda o'z aksini topadi.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklari aktivlarini boshqarish samaradorligini oshirish aktivlarning maqsadga muvofiq tarkibiy tuzilishini, aktiv operatsiyalarning diversifikatsiya

darajasini, xatarli aktivlarning hajmini, muammoli va sifatsiz aktivlarni, aktivlarning o'zgaruvchanlik sifatlarining oqilona darajasini ta'minlashni o'zida mujassamlashtiradi.

4. Bank aktiv va passivlarini boshqarishning xorij tajribasi

Jahon moliya bozoridagi mutassil o'zgarishlar, shuningdek, banklarning xalqaro tarmoqda o'zaro jips munosabatga kirishib ketganligi barcha mamlakatlarda banklarni ishlash tajribasini doimiy ravishda tahlil qilib borishni taqazo etadi. Shu sababli, ayni paytda xorij banklari amaliyotida boshqaruv vositalari va uslublarini tadqiq etish, shu asosda respublikamiz tijorat banklari faoliyatiga zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish muhim masalalardan hisoblanadi. Xususan, xalqaro amaliyotda bank aktivlarini samarali boshqarishga nisbatan bir qancha yondashuv va talablar belgilangan bo'lib, ular bugungi kunda jahonning yetakchi banklari faoliyatida keng qo'llanilmoqda. Shu o'rinda, bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi faoliyatini alohida ta'kidlash zarur. Bazel qo'mitasining asosiy vazifasi-banklar faoliyatini muvofiqlashtirish imkonini beruvchi yagona standartlarni ishlab chiqish hisoblanadi. Qo'mitaning asosiy me'yoriy hujjatlari quyidagilar:

1. Samarali nazoratning asosiy qoidalari(1997-yilda ishlab chiqilgan, 2006-yilda takomillashtirilgan)
2. Bazel I - "Kapitalni baholashning xalqaro konvergentsiyasi "(1988-yilda ishlab chiqilgan)
3. Bazel II - "Kapitalni o'lchash va kapital standartlarining xalqaro konvergentsiyasi "(2004-yilda ishlab chiqilgan)
4. Bazel III – kapital yetarligiga qo'yilgan yangi talablar(2010 yilda ishlab chiqilgan)

Bazel qo'mitasining bank aktivlarini boshqarishdagi muhim tavsiyalari (Bazel II bo'yicha)- banklarda aktivlar bilan bog'liq risklarni pasaytirish bo'yicha yondashuvlarda ifodalangan. Unda aktivlar bilan bog'liq risklar, xususan, kredit risklarini boshqarish, bozor riskliligini boshqarish, operatsion risklarni boshqarish borasidagi talablar umumlashtirilgan. Bundan tashqari, Bazel II da bank kapitalining ta'minlanganligi ham me'yorlar bilan belgilangan, jumladan, bank kapitalining riskka tortilgan aktivlarining umumiy summasiga nisbatan 8% dan kam bo'lmasligi zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2010-yil 26-noyabrda qabul qilingan "2011-2015-yillarda Respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlarga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi 1438-sonli Qaroriga muvofiq, respublikamiz bank tizimiga Bazel qo'mitasining yangi tavsiyalarini joriy etish, tijorat banklarining moliyaviy holatini baholash tizimini yanada takomillashtirish, shuningdek, banklarda samarali korporativ boshqaruv mexanizmini shakllantirish, ular amaliyotiga risklarni baholashning zamonaviy usullarini tadbiiq etish vazifasi qo'yildi.

Ayni paytda bank aktivlarini boshqarish mexanizmini takomillashtirish Bazel III tavsiyalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, unga muvofiq, banklar likvidligiga ikkita yangi talab kiritilmoqda:

1. Banklarning 30 kungacha bo'lgan joriy majburiyatlarining likvid aktivlar bilan 100% qoplanishini nazarda tutuvchi talab;

2. Uzoq muddatli likvidlik me'yori. Unga muvofiq, banklarning bir yilgacha bo'lgan aktivlari barqaror passivlar bilan 100% gacha ta'minlangan bo'lishi shart.

Nazariy qarashlar va aktiv - passivlarning optimal balanslashtirilgan strukturasi asosida quyidagilar yotadi:

Birinchi, tijorat banki aktiv va passivlari strukturasi optimallashtirishdan maqsad bank daromadini oshirish va xarajatlarini kamaytirish hisoblanadi, ya'ni:

$$SFD = \sum_i A_{SRi} \cdot D_i - \sum_j P_{SRj} \cdot Z_j \rightarrow \max \quad (1)$$

Bunda: SFD - sof soizli daromad; A_{SR} va P_{SR} - i-guruh aktivlarning o'rtacha qiymati; D_i va j-guruh aktivlarning o'rtacha qiymati; - i-guruh aktivlardan olinadigan daromad darajasi; Z_j - j-guruh passivlarga to'lanadigan xarajatlar.

Ikkinchi, tijorat banklari faoliyati risklarni kamaytirish uchun ishlab chiqilgan normativlar asosida tartibga solib boriladi. quyidagi jadvalda Rossiya Markaziy banki tomonidan o'rnatilgan normativlar keltirilgan.

2- jadvalda keltirilgan me'yorlar mavjud chegaralarda bo'lib, ularni bajarish har bir bank uchun majburiydir. Rossiya banki har oyda tijorat banklari tomonidan taqdim etilgan hisobotlar asosida ularning holati bo'yicha nazorat o'rnatadi. Mana shu iqtisodiy me'yorlarga rioya qilinmasa, Rossiya banki ogohlantiruvchi yoki cheklov choralarni (jarima, ayrim operatsiyalar bo'yicha cheklovlar yoki taqiq o'rnatish, filiallar ochishni taqiqlash va boshqalar) qo'llashi mumkin.

Mazkur ko'rsatkichlarga amal qilishni nazorat qilish uchun Rossiya banki tomonidan yana bir qancha vositalar nazarda tutilgan. Ushbu vositalarga: me'yorlarni aniqlash, banklarni Rossiya bankida majburiy zahiraga qatnashish tartibi va qayta moliyalash tizimi kiradi. Markaziy bank bu vositalar orqali tijorat banklari likvidligiga bilvosita ta'sir etadi.

1-jadval

Rossiya banki tomonidan ajratilgan majburiy me'yorlar⁴⁵

Ko'rsatkichlar.	Ko'rsatkichlarni hisoblash formulalari.	O'rnatilgan me'yorlar, %
Yuqori likvidli aktivlar va jalb mablag'larning o'zaro nisbati ko'rsatkichi.	$PL1 = (Lam/PS) \cdot 100\%$	$PL1 \geq 300\%$
Lahzali likvidlilik ko'rsatkichi.	$PL2 = (Lam/Ovm) \cdot 100\%$	$PL2 \geq 15$
Joriy likvidlilik ko'rsatkichi.	$PL3 = (Jlat / Ovt) \cdot 100\%$	$PL3 \geq 50$
Jalb qilingan mablag'lar strukturasi ko'rsatkichi	$PL4 = (Ovm / PS) \cdot 100\%$	$PL4 \leq 50$

⁴⁵ www.finance.ru ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Banklararo resurslar bozoriga bogliqlik ko'rsatkichi.	$PL5 = ((PS_{bk} - SZ_{bk}) / PS) \cdot 100\%$	$PL5 \leq 27$
o'z veksel majburiyatlarining risklilik ko'rsatkichi.	$PL6 = (Ov / K) \cdot 100\%$	$PL6 \leq 90$
Berilgan kreditlar ko'rsatkichi (bankdan tashqari)	$PL7 = (SZ_{bk} / PS_{nb}) \cdot 100\%$	$PL7 \leq 180$
Yirik kreditorlar va omonatchilarning riskka moyillik ko'rsatkichi.	$PL10 = (Ov_{kk} / Lat) \cdot 100\%$	$PL10 \leq 270$
O'z mablag'larining yetarlilik ko'rsatkichi.	$PK1 = (K / (Avz_{risk})) \cdot 100\%$	$PK1 \geq 11$
Umumiy Kapital yetarliligi ko'rsatkichi.	$PK2 = (K / (A_{risk})) \cdot 100\%$	$PK2 \geq 6$
Ssudalar sifati ko'rsatkichi	$PA1 = (SZ_{bn} / SZ) \cdot 100\%$	$PA1 \leq 20$
Aktivlar sifati ko'rsatkichi	$PA2 = ((A20 - P20) / K) \cdot 100\%$	$PA2 \leq 15$
Muddati o'tgan ssudalar sifati o'rsatkichi	$PA3 = (SZ_{pr} / SZ) \cdot 100\%$	$PA3 \leq 18$
Kreditlar bo'yicha yo'qotishlar va boshqa aktivlar uchun qilingan zaxira anormasi o'rsatkichi	$PA4 = (RVPS_f / SZ) \cdot 100\%$	$PA4 \leq 20$
Jami yirik kreditlarning risklilik ko'rsatkichi	$PA5 = (K_{skr} / K) \cdot 100\%$	$PA5 \leq 750$
Aksionerlarga berilgan kreditlar xatari ko'rsatkichi	$PA6 = (K_{rsa} / K) \cdot 100\%$	$PA6 \leq 45$
Bankka daxldor shaxslarga berilgan k.x.k	$PA7 = (K_{rsi} / K) \cdot 100\%$	$PA7 \leq 2,7$

Bunda: Lam - yuqorilikvidli aktivlar; Lat - 30 kungacha bo'lgan likvid aktivlar; PS - jalb qilingan mablag'lar; Ovm - talab qilib olinguncha majburiyatlar; Ovt - 30

kungachabo'lganmajburiyatlar; PSbk - banklararoolingankreditlarvadepozitlar; SZbk - banklararoberilgankreditvadepozitlar; Ov - banktomonidanchiqarilganveksellar; K - bankkapitali; SZnb - mijozlargaberilgankreditlar (banklardantashqari); PSnb - mijozlarmablag'larinjialbqilishko'rsatkichi (banklardantashqari); Ovkk - bankningomonatchilarvakreditorlaroldidagimajburiyatijamibankmajburiyatlarining 10 % vaundanyuqorisinitashkilqiladi; Avzrisk - riskkatortilganaktivlar; Arisk - risklilikdarajasiyuqoribo'lganaktivlar; SZbn - umidsizkreditlar; SZ - jamiberilgankreditlarbo'yichaqarzdorlik; A20 - bank 20 % danko'prezervshakllantiradiganaktivlar; R20- A20 bo'yichaamladataktilqilinganzahiralar; SZpr - to'lovmuddati 30 kundanoshgankreditlarmiqdori; RVPSf - amaldakreditlarbo'yichaehtimoliyyo'qotishlargaqarshitashkilqilinganzahiralar; Kskr - biryokibirguruhqarzdorlargaberilgankreditlarningumumiysummasi; Krsa - bankningaksionerlargaberilgankreditlari; Krsa - bankningdahldorshaxslargaberilgankreditlari.

Rossiyabankidaharbirtijoratbankiningmajburiyazahiralarfondigaishtirokijalbqilinganresurslarsummasivaularbo'yichao'rnatilganfoizasosidato'lovlarniqabulqilishtarzidahosilbo'ladi. Bumajburiyazahirafondidantijoratbanklario'zlikvidliginita'minlashuchunfoydalanishimumkin

2-jadval

Bank aktiv va passivlarining bir-biriga muvofiqligi.⁴⁶

№	Aktivlar	Passivlar
1	Daromad keltiruvchi qo'yilmalar	Majburiyatlar
2	Berilgan kreditlar, jumladan:	Omonatlar va depozitlar
3	Yuridik shaxslarga:	Jismoniy shaxslarga
3.1	LAMi (yuqori likvidli aktivlar)	OBMi (talab qilib olinguncha bo'lgan majburiyatlar)
3.2	LATi(Likvidli aktivlar-30 kungacha bo'lgan)	OBTi(30 kungacha bo'lgan majburiyatlar)
3.3	JLi (Boshqa aktivlar)	Oi (Boshqa majburiyatlar)

Rossiya banklarida banklarning resurslarini samarali boshqarish uchun Direktorlar kengashi qoshida "Bank moliyaviy resurslarini boshqarish" qo'mitasi tashkil qilingan. Ushbu qo'mita ichki va tashqi boshqaruv ma'luomotlarini to'playdi, moliyaviy resursni boshqarish bo'yicha qaror qabul qilish jarayon bo'ladi, keyin ushbu jarayon bo'yicha moliyaviy resurslarni boshqarish siyosatiga asosan qaror qabul qilinib, resurslar maqsadli yo'naltiriladi. Qo'mita bankning risk darajasi va foydalilik darajasiga javobgar hisoblanadi.

Qo'mita quyidagi funksiyalarni bajaradi: Bank passivlarini boshqarish bo'yicha metod va reglamentlarni belgilash; resurslarni jalb qilish va joylashtirish bo'yicha qarorlarni qabul qilish; o'rnatilgan strategik rejaga muvofiq nazoratni olib borish; moliyaviy risklarni qayta ishlash; bankning narx siyosatini ishlab chiqish, zararsizlik marjasi va rentabillik darajasini o'rnatish; bank ishi effektivligini monitoringi va tahlilini

⁴⁶www.finance.ru ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

olib borish; bank kapitalini boshqarish; risklar boyicha amaldagi Rossiya qonunchiligiva normativ huquqiy hujjatlarga amal qilinayotganlini nazorat qilish.

Moliyaviy resurslarni boshqarish qo'mitasiga bozor risklarini boshqarish qo'mitasi, kredit risklari qo'mitasi va ga'znachilik kiradi. G'aznachilik bank lividliligini amalga oshiradi. Bozor va kredit risklari qo'mitasi risklarni boshqarish bilan shug'ullanadi. Moliyaviy resurslarni boshqarish qo'mitasi oyiga ikki marta yig'ilish olib boradi. Qo'mita tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlar direktorlar kengashi tomondan tasdiqlanadi. Qo'mita yig'ilishi a'ziligiga banking resurslarni jalb qilish va joylashtirish bo'yicha hamda risklarni boshqarish bilan bog'liq bo'lgan bo'limlar boshliqlari kirishi mumkin. Qo'mita quyidagi hujjatlarga ega bo'lishi kerak: foiz stavkalari o'zgarishiga sezgirlik balansi haqida hisobot; foiz stavkalari o'zgarishiga sezgir aktiv va passivlarni qaytishi grafigi.

Ushbu grafik xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan GEP tahlili asosida olib boriladi. Shuningdek Rossiya banklarida banklarning foydalilik darjalarini belgilovchi bir necha ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

1. Balans kapitali tengligi- bu bankning xususiy kapiatlini tahlili bo'lib, quyidagicha aniqlanadi: $Xususiy\ kapital = Aktivlar - to'langan\ jalb\ qilingan\ passivlar$.
2. Buxgalteriya balansining dinamik tengligi-ushbu tahlil bankning foydalilik darjasini ko'rsatib beradi: $Foyda = daromad - xarajat$
3. Modifikatsiyalashgan balans tengligi- aylanma mablag'lar tahlili: $Aktivlar = Passivlar$
4. Asosiy balans tengligi- bank balansi tahlili. $Aktivlar = Xususiy\ Kapital + to'langan\ passivlar$.

Ushbu tenglamada bankka tegishli aktivlarning o'zlashtirilishi va joylashtirilishi tamoyili yotibdi.

Ushbu tahlil bankning likvidlilik va foydalilik darjasini optimallashtirishga, yoki, bank aktiv va pasiv operatsiyalarini diversifikatsiyalash bo'yicha menejmentni olib borish yoki olib bormaslikni belgilab beradi. Ushbu modelni qo'llash hech qanday zarar keltirmaydi va hech qanday kamchilikka ega emas, aksincha ko'rsatkichlar bir-birini to'ldiradi.

Bizga ma'lumki, tijorat banklari aktivlarini boshqarish bank uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi chora va tadbirlardan biri hisoblanadi. Umuman olganda bank aktivlarini boshqarishning quyidagi usullari mavjud, bular;

- Fondlar manbalarini birlashtirish usuli
- Fondlar manbalarini bir-biridan ajratish usuli
- Qo'shma usul

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ko'pgina xorijiy banklar amaliyotida aktivlarni boshqarishning quyidagi usullaridan keng miqyosda foydalanilmoqda.

Bank aktivlarini boshqarishning umumiy mablag'lar manbalari usuli bankning o'z va jalb qilingan mablag'larini birlashtirishni nazarda tutadi, bunda bankda dastlab birlamchi va ikkilamchi zahiralar shakllantiriladi.

Mazkur usulni qo'llashning keyingi bosqichida kredit portfeli shakllantiriladi. Banklar amaliyotida kredit mablag'lari aktivlarning yirik ulushini tashkil etadi va bank

faoliyatida muhim o‘rin tutadi, chunki bankla daromadlarining asosiy qismini yuridik va jismoniy shaxslarga kreditlash xizmatlarini ko‘rsatishdan oladi.

Ushbu usul jalb qilingan resurslarni imkon qadar bankning daromadli aktiv amaliyotlariga yo‘naltirishni nazarda tutadi. Bunda bankdan likvidlik va foydalilik tamoyillariga alohida e‘tibor qaratish talab qilinadi, chunki resurslarni foyda olish uchun aktiv amaliyotlarga, xususan ko‘p miqdorda yuqori daromad keltiruvchi sohaga yo‘naltirish, o‘z navbatida tavakkalchilik darajasini nazoratdan chiqishiga yoki likvidlik tavakkalchiligini yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin. SHu sababli, mazkur usulni asosan resurslar ortiqchaligida qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Aktivlarni taqsimlash usulini qo‘llash esa, jalb qilinayotgan resurslarning manbalarini tahliliga asoslanadi. Mazkur usulda resurlarning manbalari bo‘yicha taqsimlashda resurslarning aylanuvchanligi bilan bog‘liq bo‘lgan muayyan cheklanishlar yuzaga keladi.

YA’ni, jalb qilingan qisqa muddatli resurslar qisqa muddatli aktiv amaliyotlarga, uzoq muddatli resurslar esa uzoq muddatli aktiv amaliyotlarga yo‘naltiriladi. Mazkur usulning afzalligi shundaki, bu usulni qo‘llash jarayonida resurslarni toifalariga qarab taqsimlash orqali likvid aktivlar (kassadagi naqd pullar)ning jami aktivlardagi ulushini qisqartirish imkoniyati yuzaga keladi.

Ushbu ikkala usulning kamchiligi shundaki, bu holatlarda mijozlarning kreditlarga bo‘lgan talabi va ehtiyoji etarlicha qondirilmaydi, ya’ni kreditlashda mijozlarning kreditlarga bo‘lgan mavsumiy talablari to‘liq e‘tiborga olinmaydi. Mazkur muammolarning echimidan kelib chiqqan holda xorij tajribasida aktivlarni boshqarishda chiziqli dasturlash usulidan foydalanish ham keng tarqalgan bo‘lib, mazkur usulning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Bank aktivlarini boshqarishning chiziqli dasturlash usuli murakkab hisob-kitoblar orqali bir nechta muqobil usullardan maqbulini tanlab olishni nazarda tutadi. Bu usulda jalb qilinayotgan resurslarni qay tariqa yuqori daromad keltiruvchi va kam sarflarni talab qiladigan sohalarga joylashtirish vazifasi qo‘yiladi.

Aktivlarni samarali boshqarish kuyidagilardan iborat:

- bank daromadi va xarajati urtasidagi marja kurinishidagi farkning usishi :
- daromad va kredit resurslari tavakkalchiligiga etarli darajada rioya qilish;
- bank aktivlarda % stavkasi uzgarishi bilan % tavakkalchiligini kamaytirish maqsadida e‘tiborini karatish.
- Bank aktivlarini turli aktivlarga joylashtirish yukori likvidlik darajasini ushlab turish va malum yukori daromad olish extiyojini belgilab beruvchi mavjud konun va tartibga soluvchi aktlardan kelib chikadi. «Likvidlilik- daromadlilik» dillemasini echishga urinishlar aktivlarni boshqarishda 3 usulni keltirib chikaradi.

Tijorat bank aktivlarini boshqarish usullari:

1. Aktivlarni boshqarishning umumiy fond mablag‘lari usuli;
2. Aktivlarnitaqsimlashmetodi;
3. Ilmiy boshqarish metodi;

Bankning kassali aktivlari asosan daromad keltirmaydigan aktivlar hisoblanadi. SHuning uchun ularning aktivlar umumiy hajmidagi salmog‘ini pasayishi aktivlar

daromadliligini oshishiga, ular salmog'ini oshishi esa aktivlar daromadliligini pasayishiga sabab bo'ladi.

Fikrimizcha, banklarda aktivlarni boshqarish bilan bog'liq tavakkalchiliklarni imkon darajada pasaytirish, aktivlar samaradorligini oshirishda mazkur usullarni o'zaro uyg'un holda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilganimizda, respublikamizda bank menejmentida aktivlarni samarali boshqarish bu boradagi xalqaro andozalar talablarini banklarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda joriy etish, rivojlangan mamlakatlar tajribasida sinovdan o'tgan usul va vositalarni chuqurroq tadqiq etishni taqozo etadi.

6-mavzu. Tijorat banklarining valyuta operatsiyalari

Reja:

- 1. Valyuta va valyuta kursi tushunchasi.**
- 2. Valyuta operatsiyalarini tashkil etishning huquqiy asoslari.**
- 3. Valyuta pozitsiyasi va nazorati.**
- 4. Joriy va muddatli valyuta operatsiyalar.**
- 5. Xedjerlash va uning valyuta munosabatlarini tashkil qilishdagi roli.**
- 6. Rivojlangan davlatlarda tijorat banklarining xalqaro operatsiyalarining xususiyatlari.**

Valyuta va valyuta kursi tushunchasi.

Tashqi iqtisodiy munosabatlar taraqqiyoti turli mamlakatlarning valyutalari qiymatining o'zaro nisbatini o'lchashni talab etadi. SHu sababli valyuta kursi valyuta tizimining muhim elementi hisoblanadi.

Valyuta kursining zaruriyati quyidagilarda ifodalanadi:

- tovarlar va xizmatlar bilan savdo qilishda, kapital va kreditlar harakatida valyutalarni o'zaro almashtirish uchun; bunda, eksporter kelib tushgan chet el valyutasini milliy valyutaga almashtiradi. CHunki boshqa mamlakatlarning valyutalari mazkur davlat hududida qonuniy xarid qilish va to'lov vositasi sifatida muomalada aylana olmaydi. Importyor chet eldan sotib olgan tovarlarini to'lash uchun milliy valyutani chet el valyutasiga almashadi. Qarzdor esa qarzini to'lash uchun va tashqi qarzlar bo'yicha foizlarni to'lash uchun chet el valyutasini sotib oladi;
- jahon va milliy bozor baholarini taqqoslash, shuningdek, milliy va chet el valyutalarida ifodalangan turli mamlakatlarning baho ko'rsatkichlarini taqqoslash uchun;
- firma va banklarning chet el valyutasidagi hisob varaqlarini vaqti-vaqti bilan qayta baholash uchun valyuta kursi zarur.

Valyuta kursi – bu bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakatlar pul birliklarida yoki xalqaro valyuta birliklarda ifodalangan bahosidir. Tashqi valyuta kursi almashuv qatnashchilari uchun valyuta bozorida talab va taklif nisbati orqali aniqlanadigan bir valyutani boshqasiga qayta hisoblash koefitsientidir. Biroq valyuta kursining qiymat asosi bo'lib valyutaning xarid qobiliyati hisoblanadi. Valyutaning xarid qobiliyati investitsiya,

tovar va xizmatlarning o'rtacha milliy narxlari darajasini ifodalaydi. Bu iqtisodiy (qiymat) kategoriyasi tovar ishlab chiqarishga tegishli bo'lib, u tovar ishlab chiqaruvchilar va jahon bozori o'rtasidagi ishlab chiqarish munosabatlarini ifodalaydi. Qiymat tovar ishlab chiqarish iqtisodiy shartlarining keng ko'lamli ifodasi bo'lgani uchun, turli mamlakatlarning milliy pul birliklarining taqqoslanishi qiymat munosabatiga asoslanadi va u ishlab chiqarish va almashuv jarayonlarida yuzaga keladi. Tovar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchilar hamda sotib oluvchilar valyuta kursi yordamida milliy narxlarni boshqa mamlakat narxlari bilan solishtiradilar. Taqqoslash natijasida mazkur mamlakatlarda ishlab chiqarish yoki xorijda investitsiyani rivojlantirishning foydaliligi darajasi ko'rinadi. Qiymat qonuniga qanchalik amal qilinmasin, oxir oqibat valyuta kursi uning ta'siriga bo'ysinadi. Valyuta kursi valyutaning real kurs nisbatlari ko'rinadigan milliy va jahon iqtisodiyotlarining o'zaro aloqasini ifodalaydi.

Tovarlar jahon bozorida sotilayotganida milliy mahsulot qiymatini internatsional o'lchovlari asosida jahon talabiga ega bo'ladi. SHuningdek, ushbu tovarlarning jahon xo'jaligi doirasida almashinishida valyuta kursi vositachi bo'ladi.

Valyuta kursining qiymat asosi shu bilan shartlanadiki, oxirgi navbatda jahon narxlariga asoslangan ishlab chiqarishning internatsional bahosi jahon bozoriga asosiy tovar etkazib beruvchi mamlakat ishlab chiqarishning milliy baholariga tayanadi.

Xalqaro kapital harakatining tez o'sishi bilan tovarlarga, shuningdek, moliyaviy aktivlarga nisbatan valyutaning xarid qobiliyati valyuta kursiga ta'sir ko'rsatadi.

■ Turli mamlakatlarning valyutalari va halqaro pul birliklari tuzilgan xalqaro bitimlariga xizmat ko'rsatish jarayonida valyuta kursi aniqlanadi.

Kapitalning xalqaro xarakatining tez o'sishi bilan bog'liq ravishda valyuta kursini o'zgarishiga valyutaning tovarlarni xarid qilish qobiliyati bilan birga moliyaviy aktivlarni xarid qilish qobiliyati ham ta'sir kursatadi.

Valyuta kurslari tasnifi

Kurs o'rnatish mezonlari	Valyuta kursining turlari
1. Belgilash turi bo'yicha	Suzuvchi, Qat'iy belgilangan, aralash
2. Hisoblash usuli bo'yicha	Paritet, haqiqiy kurs
3. Nisbat bo'yicha	Kross kursi, to'g'ri, egri (teskari), fiksing
4. Bitim turi	Spot – kurs, muddatli bitim (forward) kursi
5. O'rnatish joyi	Rasmiy (MB), tijorat (banklar), qora bozor
6.Valyutaning xarid qobiliyati paritetiga nisbatan	Paritetli, oshirilgan, kamaytirilgan kurs
7. Bitim qatnashchilari bo'yicha	Sotib olish kursi (sotib oluvchi uchun), sotish kursi (sotuvchi uchun)
8. Inflyasiyani hisobga olish bo'yicha	real kurs, nominal kurs, o'rtacha

Qonuniy normalarga va amaliyotga mos holda birjada chet el valyutasining kursining kimmatli kogoslar kursini yoxud tovarlar bahosini o'rnatilishi katirovkalash deb ataladi. g'ki kiskacha qilib aytganda valyuta kursini o'rnatish katirovkalash deb ataladi. Jaxon amaliyotida katirovkalashning 2 xil usuli mavjud;

1) to'g'ri katirovkalash. Agar xorijiy valyuta birligining baxosi milliy valyutada kursatilsa, ya'ni milliy valyutada xorijiy valyutaning bir birligiga to'g'ri keladigan miqdor kursatilsa, bu to'g'ri katirovkalash deb ataladi. Egri (teskari) katirovkalash. Bunda bir birlik milliy valyutaning xorijiy valyutalardagi miqdori urnatiladi, ya'ni bir birlik milliy valyutaning xorijiy valyutadagi baxosi kursatiladi, masalan;

«Spot-kurs» bu naqd (kassa) bitimlarining kursidir. Spot-kurs bu bir mamlakat pul birligining shartnoma tuzilgan vaqtda o'rnatilgan baho bo'yicha boshqa mamlakatlar pul birliklarida ifodalangan bahosidir. Bunda valyutani valyuta bitimi to'zilgan kundan boshlab 2 ish kunida almashtirib berish shart hisoblanadi. «Forvard» kurs-bu muddatli valyuta bitimlarining kursidir.

Forvard kursi valyutani kelajakda aniq bir kunga etkazib berish sharti bilan sotilish va xarid qilish bahosini o'zida ifoda etadi.

Forvard bitimlari odatda valyuta kurslarining o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan risklarni bartaraf qilish maqsadida ishlatiladi. Bitim tuzilayotgan paytda forvard kursda aniqlanadi va ana shu kurs bo'yicha valyuta sotiladi yoki sotib olinadi.

Sotuvchi kursi - bankning valyutani sotish kursi.

Xaridor kursi - bankning valyutani sotib olish kursi.

Bu kurslar o'rtasidagi farq marja deb ataladi va u xizmat xarajatlarini qoplashga va ma'lum darajada foyda olishga sarflanadi.

Valyutaaning eng muhim xarakteristikasi uning konvertirlanganligidir.

Konvertirlanganlik - darajasiga ko'ra valyuta kursi 3 ga bo'linadi.

Erkin «suzib» yuruvchi cheklangan darajada «suzib»yuruvchi.

Qayd etilgan valyuta kurslari.

Erkin «suzib» yuruvchi valyuta kursi ma'lum valyutaga bo'lgan bozor talabi va taklifi ta'sirida o'zgarib turishi mumkin. Masalan. AQSH dollari, Yaponiya ienasi, Angliya funt stirlingi; Evro kabi valyutalar jahon valyuta ayirboshlashida keng ishtirok etadi.

CHeklangan darajada «suzib» yuruvchi valyuta kurslarining o'zgarishi ayrim valyutalar yoki bir guruh valyutalar (valyuta savati) kursi o'zgarishiga bog'liq. Misol uchun «Uchinchi dunyo»ning ko'pchilik mamlakatlari o'z valyutalarini AQSH dollariga, Erop mamlakatlarining «EURO»siga va boshqa boshqa xorijiy valyutalarga bog'laydilar. CHeklangan darajada «suzib» yuruvchi valyuta kurslari kiritilgan mamlakatlar o'z valyutalarining tebranish chegarasini o'zlari hamkorlik kilayotgan mamlakatlar bilan kelishib oladilar.

Valyuta kursiga ta'sir etuvchi omillar.

Har qanday baho kabi valyuta kursi valyutaga talab va taklif ta'sirida asosiy qiymatidan (ya'ni valyutaning xarid qilish qobiliyatidan) nari-beri siljiydi. Bunday talab va taklifning o'zaro mosligi bir qator omillarga bog'liq. Valyuta kursining ko'p omilliligi uning boshqa iqtisodiy kategoriyalar bilan bog'liqligini, jumladan, qiymat, narx, pul, foiz, to'lov balansi va boshqalar bilan bog'liqligini aks ettiradi. SHuningdek ularing murakkab biri kuvi va ba'zi omillarning eng muhim omil sifatida yuzaga chiqishiga olib keladi. Bu omillar ichida quyidagilarni ko'rsatish mumkin.

Inflyasiya sur'atlari. Valyutalarning xarid qobiliyatlari bo'yicha ularning o'zaro nisbati o'zida qiymat qonunini aks ettirib, valyuta kursini aniqlash vositasidir. SHu sababli valyuta kursiga inflyasiya sur'atlari ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatda inflyasiya darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, milliy valyuta kursi shunchalik past bo'ladi, (agar boshqa omillar qarshi tasir ko'rsatmasa).

Inflyasiya oqibatida pul qadrsizlanishi mamlakatda pulning xarid qobiliyatining pasayishiga va inflyasiya suratlari nisbatan past mamlakatlarning valyutalari kursidan tushib ketishiga sabab bo'ladi. Bunday moyillik, odatda, o'rta va uzoq muddatli rejada kuzatiladi. Valyuta kursining tenglashtirilishi, uni sotib olish qobiliyatining paritetiga moslashtirish o'rtacha ikki yil davomida amalga oshiriladi. Bu shu bilan izohlanadiki, valyuta kursining kundalik kotirovkasi faqatgina uni sotib olish kobiliyatiga asosan amalga oshirilmay, unga shuningdek, boshqa omillar ham tasir etadi. 80- yillarda ko'pincha valyuta kursining paritetidan 30%dan ortiq miqdorda siljishi yuz berib turar edi. Lekin spekulyativ va konyukturaviy omillar tasiridan ozod bo'lgan valyuta kurslarining o'zaro nisbati qiymati qonuniga muvofiq tarzda pul birliklarining xarid qobiliyati o'zgarishi bilan o'zgaradi.

Valyuta kursining inflyasiya sur'atlariga bog'liqligi, ayniqsa, tovar-xizmatlar va kapitallarni xalqaro ayirboshlash hajmi katta bo'lgan mamlakatlarda kuchliroqdir. Sababi shundaki, valyuta dinamikasi va inflyasiya sur'ati o'rtasidagi kuchli bog'liqlik, valyuta kursining eksport baholarda hisob-kitob qilishda yuzaga keladi. Jahon bozori narxlari internatsional qiymatning puldagi ifodasini aks ettiradi. Import narxlariga kelsak, tegishli valyuta paritetida hisob-kitob qilish unchalik qulay kelmaydi, chunki, uning o'zi valyuta kursi dinamikasiga bog'liq. Sanoati rivojlangan mamlakatlar bunday hisob-kitob uchun ulgurji baholar indeksidan foydalangani ma'qulroq. CHunki bu mamlakatlarda ulgurji ichki savdo va eksport ma'lum darajada mos keladi. Boshqa mamlakatlarda ushbu indeksga ko'pgina eksport qilinadigan tovarlar kirmaydi. CHakana narxlar asosidagi bunday hisob-kitob noto'g'ri talqin qilinishi mumkin, chunki u jahon savdo ob'ekti bo'lmagan bir qator xizmatlarni o'z ichiga oladi. Oxirgi navbatda jahon bozorida real xarid qobiliyatiga mos ravishda stixiyali tarzda milliy valyuta kurslarining tenglashishi yuz bermoqda. Real valyuta kursi ikki mamlakat narxlari darajasi nisbatiga ko'paytirilgan nominal kurs sifatida aniqlanadi.

1. **To'lov balansi holati.** Aktiv to'lov balansi milliy valyuta kursining ko'tarilishiga olib keladi, chunki unga chet el qarzdorlari tomonidan talab ortadi. Passiv to'lov balansi milliy valyuta kursining pasayishiga moyillik yaratadi, unda qazdorlar milliy valyutani chet el valyutasiga o'z tashqi majburiyatlarini qoplash maqsadida sotadilar. To'lov balansining nobarqarorligi tegishli valyutaga talab va taklifning sakrash tarzida o'zgarishiga olib keladi. Zamonaviy sharoitlarda xalqaro kapital harakatining to'lov balansiga va natijada valyuta kursiga ta'siri ko'paydi.

2. **Turli mamlakatlarda foiz stavkalarining har xilligi.** Bu omilning valyuta kursiga ta'siri 2 ta asosiy holat bilan tushuntiriladi. Birinchidan, mamlakatda foiz stavkalarni o'zgarishi xalqaro kapital harakatining boshqa shartlarida ham ta'sir qiladi. Boshqacha qilib aytganda, foiz stavkasining ko'paytirilishi chet el kapitalining oqib

kelishini, uning pasayishi esa kapitalning (milliy kapitalni ham) chet elga oqib chiqib ketishini rag'batlantiradi.

Kapitallar harakati, ayniqsa, spekulyativ «qaynoq» pullar harakati to'lov balanslarining nobarqarorligini kuchaytiradi. Operatsiyalarni amalga oshirganda banklar milliy va jahon bozorlaridagi foiz stavkalaridagi farqni e'tiborga oladilar. Ular foyda olish maqsadida chet el bozorida arzonroq kredit olib (pastroq stavkada) hamda milliy kredit bozoriga, agar foiz stavkalari yuqori bo'lsa, chet el valyutasini joylashtirishni afzal ko'radilar.

3. Valyuta bozori faoliyati va spekulyativ valyuta operatsiyalari. Agar qandaydir bir valyuta kursi pasayishga moyil bo'lsa, firma va banklar vaqtdan unumli foydalanib, uni yaxshiroq valyutaga sotadilar. Bunda kuchsizlashgan valyuta pozitsiyasi yanada yomonlashadi. Valyuta bozorlari iqtisod va siyosatdagi o'zgarishlardan, kurs nisbatlari siljishidan tez ta'sirlanadi. SHu bilan birga, ular valyuta spekulyasiyasi imkoniyatlarini va stixiyali tarzdagi «qaynoq» pullar harakatini kengaytiradi.

4. Ma'lum bir valyutani evrobozorda va xalqaro hisob-kitoblarda ishlatish darajasi.

Masalan, bank operatsiyalarining 60-70%ni dollarda, Evroda amalga oshirilishi shu valyutalarga bo'lgan talab va taklif masshtablarini belgilaydi. Valyuta kursiga valyutaning xalqaro hisob-kitoblarda ishlatilish darajasi ham ta'sir ko'rsatadi. 90-yillar boshida xalqaro to'lovlarning 55%ni neft, uchun hisob-kitoblarning 86-90%ni, tashqi qarzdorlikning 70% i dollarda amalga oshirilgan. SHu sababli, davriy neftga narxning o'sishi, hattoki dollarning xarid qilish qobiliyati tushgan sharoitlarda ham davlat qarzlari bo'yicha to'lovlarning o'sishi dollar kursining ko'tarilishiga imkon beradi.

5. Valyuta kursi nisbatiga xalqaro to'lovlarning tezlashishi yoki sekinlashishi ham ta'sir qiladi. Milliy valyuta kursining pasayishiga umid bog'lab, importyorlar kurs ko'tarilishi oqibatida zarar ko'rmaslik maqsadida, kontragentlariga chet el valyutasida to'lovlarni tezroq amalga oshirishga harakat qiladilar. Milliy valyutani mustahkamlashda esa ular chet el valyutasidagi to'lovlarni sekinlashtirishga harakat qiladilar. «Lidz end legz» nomli bunday usul to'lov balansi va valyuta kursiga ta'sir ko'rsatadi.

6. Milliy va jahon bozorlarida valyutaga ishonch darajasi. U mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy holat bilan, shuningdek, valyuta kursiga ta'sir qiluvchi yuqorida ko'rsatilgan omillar bilan aniqlanadi. SHuningdek, dilerlar nafaqat hozirgi vaqtdagi iqtisodiy o'sish sur'atlari, inflyasiya, valyutaning xarid qobiliyati darajasi, valyutaga bo'lgan talab va taklif nisbatini, balki ularning dinamikasi istiqbollari ham hisobga oladilar. Ba'zida hattoki savdo va to'lov balansi xaqidagi ma'lumotlar yoki saylov natijalari qanday bo'lishi talab va taklif nisbatiga, valyuta kursiga bog'liq.

7. Valyuta siyosati. Valyuta kursining davlat boshqaruvi va bozor boshqaruv o'rtasidagi nisbat valyuta kursi dinamikasiga ta'sir qiladi. Valyuta bozorlarida valyutaga talab va taklif mexanizmi orqali valyuta kursining shakllanishi oqibatida kurs nisbatlarining kuchli o'zgarishi ro'y beradi. Bozorda real valyuta kursi yuzaga keladi (Iqtisodiy holatni, pul aylanishi, moliya, kredit va muayyan valyutaning ishonchliligining ifodalovchi ko'rsatkich). Valyuta kursini davlat boqaruvi valyuta-iqtisodiy siyosatdan

kelib chiqqan holda, uning ko'tarilishi yoki tushishiga yo'naltirilgan. SHu maqsadda ma'lum bir valyuta siyosati o'tkaziladi.

SHunday qilib, valyuta kursining shakllanishi-murakkab ko'p omilli jarayon bo'lib, milliy va jahon iqtisodiyoti va siyosatining o'zaro aloqasiga asoslanadi. SHu sababli, valyuta kursini prognoz qilishda yuqorida aytib o'tilgan kursni shakllantiruvchi omillar, hamda ma'lum shart-sharoitga bog'liq ravishda ularning valyutalar nisbatiga ko'p tomonlama ta'siri hisobga olinadi.

Valyuta kursi takror ishlab chikarishda ham faol rol o'ynaydi. Tadbirkor valyuta kursi yordamida o'z ishlab chiqarish xarajatlarini jahon bozori narxlari bilan solishtiradi. Bu alohida korxonalar va mamlakatlarning tashqi iqtisodiy operatsiyalari natijalarini ko'rishga imkon beradi. Valyuta kursi eksport va import baholari nisbatiga, firmalar raqobatbardoshligiga korxonalar foydasiga ta'sir qiladi.

Valyuta kursi yoki milliy valyuta bahosi har qanday boshqa tovar bahosi kabi erkin boshqariladigan, o'rnatiladigan bo'lishi mumkin. SHuning uchun uni erkin suzib yuruvchi, cheklangan darajada suzib yuruvchi va qayd etilgan valyuta kurslariga ajratiladi.

Erkin suzib yuruvchi valyuta kursi ma'lum bo'lgan bozor talabi va taklifi ta'sirida o'zgarib turishi mumkin. Masalan, AQSH dollari, Evro, Yaponiya ienasi, Angliya funt sterlingi kurslari. SHu bois bu valyutalar jahon valyuta ayriboshlashida keng ishtirok etadi.

CHeklangan darajada suzib yuruvchi valyuta kurslarining o'zgarishi ayrim valyutalar yoki valyuta savati kursi o'zgarishiga bog'liq. Misol uchun, «uchinchi dunyoning ko'pchilik mamlakatlari o'z valyutalarini AQSH dollariga, fransuz franki»ga va boshqa xorijiy valyutalarga bog'laydilar. CHeklangan darajada suzib yuruvchi valyuta kurslari kiritilgan mamlakatlar o'z valyutalarining tebranish chegarasini hamkorlik qilayotgan sheriklari bilan kelishib oladilar.

Qayd etilgan valyuta kursi-bu xorijiy valyutada ifodalangan milliy pul birligining davlat tomonidan rasmiy o'rnatilgan bahosi bo'lib, unga valyuta bozori talab va taklifning o'zgarishi ta'siri qilmaydi. Hozirgi vaqtda qayd etilgan valyuta kursi ham rivojlangan mamlakatlarda yoki iqtisodiyoti tashqi bozorga etarli darajada kirib bormagan mamlakatlarda ularning moliya tizimini va milliy ishlab chiqarishni kuchli xorijiy raqobatchilardan himoya qilish va quvvatlash maqsadida qo'llaniladi.

Valyuta operatsiyalarini tashkil etishning huquqiy asoslari.

O'zbekiston Respublikasi hududida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish prinsiplari va valyuta qimmatliklari bilan ishlash tartibi O'zbekiston Respublikasining «Valyutani tartibga solish to'g'risida»gi qonuni bilan aniqlanadi. Ushbu qonun talablariga muvofiq O'zbekiston hududida xorijiy valyuta bilan bog'liq barcha hisob-kitoblar faqat vakolatli banklar orqali, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining valyuta operatsiyalarini o'tkazishga ruxsat beruvchi litsenziyasiga ega bo'lgan tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladi. Bunday litsenziyaga ega bo'lgan tijorat banklari vakolatli bank hisoblanadi.

Davlat mustaqilligiga erishilishi bilan O'zbekiston Respublikasi oldida inflyasiya jarayonlari va ishlab chiqarish tushkunligiga barham berish, bozor talablariga javob beradigan moliyaviy tizimni vujudga keltirish, xalqaro valyuta va savdo tizimiga

integratsiya qilinishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga oid murakkab masalalar paydo bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan valyuta siyosati, bevosita hukumat tomonidan ishlab chiqilgan islohotlar strategiyasiga muvofiq holda olib borilmoqda. Davlat tomonidan valyutaviy huquqlarni himoyalashga doir mustaxkam qonunchilik va institutsional asosni yaratish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rgan holda – davlat bosh islohotchi sifatida faoliyat ko'rsatmoqda. Bu shuningdek, valyuta bozori infratuzilmasini yaratishga doir aniq maqsadga yo'naltirilgan siyosatning amalga oshirilishida ham namoyon bo'lmoqda. SHu tarzda davlat islohotlarining murakkab bosqichlarida islohotlarni ancha oshirishga qodir bo'lgan etakchi kuch ekanligini ko'rsatmoqda. Davlat shuningdek, bir qator maxsus davlat organlarini tashqil etish yo'li bilan islohotlarni tartibga solishni amalga oshirmoqda. Albatta, Markaziy bank davlat banki sifatida bu borada muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, quyidagilar valyuta nazorati organlari hisoblanadi: jumladan, Markaziy bank, Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi, Davlat Soliq Qo'mitasi, Davlat Bojxona Qo'mitalaridir. Ularni har biri o'z vazifa va funksiyalarga egadir. Vakolatli banklar esa valyuta nazorati agentlari hisoblanadi.

Joriy va muddatli operatsiyalar

Xalqaro iqtisodiy, shuningdek valyuta-kredit va moliya, munosabatlari qatnashchilari risk ostida faoliyat ko'rsatadilar. Bu tijorat risklariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) shartnoma tuzilgandan so'ng narxning o'zgarishi;
- 2) importchining tovar qabul qilishdan bosh tortishi, ayniqsa hisob-kitob inkasso shaklida bo'lganda;
- 3) xujjatlardagi yoki tovar uchun to'lovlardagi hatolar;
- 4) valyuta mablag'larini suiste'mol qilish yoki o'g'irlash, ularni qalbakilashtirish;
- 5) xaridor yoki qarzdorning to'lovga noqobilligi;
- 6) valyuta kurslarining nobarqarorligi;
- 7) inflyasiya;
- 8) foiz stavkalarining o'zgaruvchanligi va boshqalar;

70-yillardan boshlab valyuta va kredit risklarining oldini olish va qoplash uchun yangi usullardan foydalanila boshlandi. Ular qatoriga

- valyutaviy opsion (birinchi marta 1973 yil CHikago birjasida qo'llanila boshlagan)

- banklararo "svop" operatsiyasi

- forvard valyuta operatsiyasi

- valyutaviy fyuchers (1973 yildan boshlab Nyu-York valyuta bozorida, 1972 yildan boshlab CHikago valyuta bozorida va b.).

YUqorida sanab o'tilgan operatsiyalarni bir so'z bilan muddatli valyuta operatsiyalari deb ham nomlash mumkin, banklarda esa ular asosan konversion operatsiyalar nomi bilan ataladi.

O‘z navbatida, barcha valyuta qiymatliklari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar o‘z harakteri va namayon bo‘lish usuliga ko‘ra quyidagilarga bo‘linadi:

1. Spot turidagi valyuta operatsiyalari;
2. Muddatli valyuta operatsiyalari:
 - Forvard tipidagi valyuta operatsiyalari;
 - valyuta opsionlari bilan bog‘liq valyuta operatsiyalari;
 - valyuta fyucherslari bilan amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalari.
3. Svop turidagi valyuta operatsiyalari.

SPOT operatsiyalari yoki kassa bitimlari (naqd bitimlar).

SPOT operatsiyasi - bu bitim kunini hisobga olmagan holda ikki ish kuni davomida valyuta ayriboshlash bo‘yicha operatsiyadir.

Spot kurs - bu spot bitim tuzilayotgan vaqtda bir mamlakat valyutasini boshqa bir mamlakat valyutasidagi bahosidir. Spot kurs uning suzib yuruvchi yoki qat‘iy belgilangan rejimda ishlashdan qat‘iy nazar operatsiya amalga oshirilayotgan vaqtda milliy valyutaning chet ellardagi qadri qancha ekanligini o‘zida aks ettiradi.

Asosan spot bitimlarining kursi - bu telegraf o‘tkazmasi kursidir. spot- kurs ikki xil yo‘l bilan aniqlanadi:

- valyuta birjasida dillerlarning yuzma-yuz savdo qilishi orqali;
- birjadan tashqari savdoda dilerlarning o‘zaro telefon orqali savdosida aniqlanadi.

Valyuta kursi sotib olish kursi (xaridor kursi) va sotish kursi (sotuvchi kursi)ga bo‘linadi. Valyuta kotirovkasini amalga oshiruvchi bank valyuta bitimini har doim o‘zi uchun foydali kurs bo‘yicha amalga oshiradi. Banklar xorijiy valyutani har doim qimmatga sotib (sotish bahosi), arzonroqqa sotib olishga (sotib olish bahosi) harakat qiladilar. Bu valyuta-tijorat operatsiyalarning asosiy tamoyilidir.

Sotish va sotib olish kurslari orasidagi farq marja deb atalib, bank xarajatlarini qoplash va qisman valyuta riskini sug‘urtalashga yqnaltiladi. Agarda bank amalga oshirilgan bitimni xuddi shu kurslar asosida taklif qilingan kontrbitim hisobiga qoplasa, u marja hisobiga foyda kqradi. SHuning asosida banklar valyuta operatsiyalari bo‘yicha mijozlarni ko‘proq jalb qilishdan manfaatdor.

Spot operatsiyalaridan keladigan foyda marjaga (albatta komissiya haqini chegirib tashlasa) teng bo‘lishi ham mumkin.

Umuman olganda spot operatsiyalari bir tomondan qisqa vaqtda yuqori foyda olishga imkoniyat bersa, ikkinchi tomondan mavjud valyuta operatsiyalari orasida risk darajasida eng yuqori bo‘lgan valyuta operatsiyasi hisoblanadi. Sababi shuki, spot operatsiyalarini amalga oshirish vaqti qisqa bo‘lganligi tufayli odatda u sug‘urta qilinmaydi. SHuning uchun banklar payshanba va juma kunlari spot operatsiyalarini katta hajmda amalga oshirmaydilar, chunki bunda spot operatsiyasi muddati uzayib ketadi. Xuddi shu sababga asosan, banklar uzun va qisqa valyuta pozitsiyalarini ham maksimal darajada qasqartirishga harakat qiladilar.

Bu valyutalardan biri bank uchun yaxshi boshqasi yomon deb bo‘lmaydi.

CHunki agarda bank misol uchun AQSH dollariga nisbatan «qisqa» pozitsiga ega bo'lsa va USD kursi tqsatdan kqtarilib ketsa, bank zarar kqrishi aniq. Kurs oshishi prognoz qilinayotgan vaqtda pozitsiyaning «uzun» bo'lgani ma'qul.

Agarda valyuta kursi tushib ketishi (USD) prognoz qilinganda «uzun» pozitsiya ijobiy natija bermasligi mumkin. Albatta, o'z mablag'larini garovga tikkisi kelmagan banklar valyuta pozitsiyalarini «yopiq» ushlashlari mumkin, lekin bunda ular kurs o'zgarishdan kelishi mumkin bo'lgan foydadan ham mahrum bo'ladilar.

Ikkinchi jahon urushidan keyin valyuta bozorlarida amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalarining turlari rivojlanib ketdi. Amalga oshirilishiga kqra valyuta operatsiyalari naqd va muddatli bitimlarga bo'linadi.

Naqd valyuta operatsiyalari asosan «spot» shartlarida amalga oshiriladi. Buning mohiyati shundaki, valyuta sotish-sotib olish bitimi tuzilgandan keyin tuzilayotgan vaqtdagi kurs bo'yicha ikkinchi ish kunida naqd valyuta etkazib beriladi. Bu operatsiyalar eng kengtarqalgan bo'lib, butun valyuta bitimlarining 90 foiziga yaqinini tashqil etadi.

Spot turidagi valyuta bitimlari o'zida mablag'ni etkazib berish vaqti bo'yicha farqlanuvchi uch turdagi bitimni mujassamlashtiradi. Bu operatsiyalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

Kassa asosida amalga oshiriluvchi valyuta bitimlari turlari

	Operatsiya bo'yicha mablag'ni etkazib berish muddati	Bitim nomi	Ularning Qat'iy belgilangan kursi
Kassa asosida amalga oshiriluvchi valyuta bitimlari turlari	Bitim tuzilgan kun	TOD (TOD) bitimi	TOD kursi (ing. today - bugun)
	Bitim tuzilgandan keyingi ish kuni	TOM (TOM) bitimi	TOM kursi (ing. tomorrow - ertaga)
	Bitim tuzilgandan bir ish kuni (ya'ni ikkinchi kun) keyin	SPOT bitimi	SPOT (ing. spot - naqd)

Tijorat banklari valyuta sotmoqchi yoki sotib olmoqchi bo'lsa, bitimning nomini (TOD, TOM, SPOT), kursini, summasini ko'rsatib ariza berishi lozim.

Valyuta bozorining ishtirokchilari bo'lgan banklar o'z nomidan o'zi uchun, yana o'z nomidan lekin mijozlari uchun valyuta sotib olish yoki sotishi mumkin. Agar banklar o'z hisobiga valyutani sotsa yoki sotib olsa, bu operatsiyalar ular yoki foyyda olish uchun, yoki o'z likvidligini uslub turish uchun, yoki chet eldan bank uchun jihozlar sotib olish va boshqa maqsadlar uchun amalga oshiradi.

«Spot» bitimlari bo'yicha valyuta oluvchi bank tomonidan kqrsatilgan hisobvaraqlarga etkazib beriladi. Bitimda kqrsatilgan kurs «spot» kurs deyiladi. Xuddi mana shu kurslar asosida valyuta bozoridagi muddatli kurslar ham, valyutani etkazib berish bo'yicha qisqaroq muddatli bir martalik bitimlar uchun kurslar ham aniqlanadi.

«Spot» operatsiyalari yordamida banklar o'z mijozlarining chet el valyutasidagi

ehtiyojlarini, kapitallarning harakatini, shuningdek bir valyutaning boshqa valyutaga oqib qitishini ta'minlaydi, arbitraj va spekuliyativ operatsiyalarni amalga oshiradi. «Spot» operatsiyalari risk darajasi eng yuqori operatsiya hisoblanadi.

Foyda olish uchun banklar arbitraj va chayqovchilik bitimlarini amalga oshirishlari mumkin. Arbitraj bitimlar turli valyuta bozorlarida mavjud bo'lgan valyuta kurslari o'rtasidagi farqlardan foyda olish maqsadida chet el valyutasini qayta sotish (sotib olish) bo'yicha tuzilgan qarshi bitimdir. Agar valyuta bir valyuta bozorida sotib olinsa va boshqa valyuta bozorida sotilsa – bu keng tarqalgan arbitraj deyiladi. Agar foyda vaqt o'tishiga qarab kurslar o'zgarishidan yuzaga keladigan bo'lsa bu vaqtinchalik arbitraj deyiladi.

Muddatli valyuta operatsiyalari va ularni amalga oshirish

Muddatli valyuta operatsiyalari - bu bitim tuzilgandan keyin bitimdagi kurs bo'yicha kelishilgan xorijiy valyutani ma'lum muddat qtgach etkazib berish kelishib olinadigan valyuta bitimlaridir. Bundan muddatli valyuta operatsiyalarining ikki xususiyati kelib chiqadi:

1. Bitim tuzilishi bilan bajarilish o'rtasida ma'lum davr vaqt bor.

2. Muddatli valyuta operatsiyalar bo'yicha valyuta kursi, ma'lum muddat o'tganidan keyin foydalanilsa ham, bitim tuzilayotgan paytda belgilanadi.

Muddatli bitimlar deb, belgilangan muddatda, ammo ikki ish kunidan oshik bulgan muddatda amalga oshiriladigan operatsiyalarga aytiladi. Amaliyotda muddatli bitimlarning kuyidagi keng tarkagan turlari mavjuddir.

Ularga:

1. forvard valyuta bitimlari;
2. fyuchers bitimlari;
3. valyuta opsiioni;
4. svop operatsiyalarini kursatish mumkin.

Valyuta operatsiyalari tasnifi

Nakd valyuta operatsiyalari	Muddatli valyuta operatsiyalari
SPOT	Forvard
	Fyuchers
	Opsion
	Svop
	Arbitraj

Emitent davlat tashqarisida bir yoki bir nechta funksiyalarni bajaruvchi valyuta xalqaro valyuta hisoblanadi. Valyutaning xalqaro rolni bajarishi quyidagi omillarga bog'liq: milliy iqtisodiyot hajmiga, xorijiy investorlar ishonchiga, xalqaro savdoda mamlakatning tutgan o'rniga, moliyaviy bozorning erkinlik darajasiga. Asosiy valyuta (key currency) – xorijda pulning bir nechta vazifasini bajaruvchi valyutadir. Hozirgi vaqtda valyutaning ushbu turiga evro, yapon ienasi, shveysariya franki, funt sterling kabi valyutalar kiradi. Xalqaro aylanmada sezilarli darajada yirik masshtablarda boshqa asosiy

valyutalarga nisbatan pulning ko'pgina vazifalarini bajaruvchi valyuta dominantlik qiluvchi valyuta hisoblanadi. II jaxon urushidan so'ng, qariyb yarim asrdan buyon AQSH dollari dominant valyuta hisoblanadi. Etakchi valyuta (vehicle currency)- ikki davlatning o'zaro operatsiyalarida ishlatiluvchi va ushbu davlatlarning milliy valyutasi hisoblanmagan valyutadir. Amaliyotda agar valyuta, asosiy valyuta hisoblansagina etakchi valyuta bo'la oladi. Masalan, Rossiyadan Belorusiyaga etkazilgan neft to'lovi AQSH dollarida amalga oshiriladi.

Agar yuqorida keltirilgan mezonlarni umumlashtirsak, xulosa qilish mumkinki, milliy valyuta milliy iqtisodiyot doirasidan chiqib xalqaro hisob-kitoblarda ishlatilishni boshlaydi, agar mamlakat iqtisodiyoti etarlicha ulkan bo'lsa, bozor munosabatlari ochiq va yuqori darajada rivojlangan bo'lsa. Ochiq, lekin kichik iqtisodiyotga ega mamlakat o'z valyutasini etakchi valyutaga aylantira olmaydi. SHu bilan birga samarali valyuta siyosatini olib borish, o'z navbatida, ushbu davlat va boshqa davlatlar bilan tashqi savdo munosabatlarini rivojlantirishni rag'batlantiradi, ichki cheklangan konvertatsiyaga ega bo'lgan valyuta erkin konvertatsiyalanuvchi va hattoki xalqaro valyuta maqomiga ham ega bo'lishi mumkin. Har qanday davlat milliy valyuta maqomining o'zgarishi valyuta bozori hamda tashqi savdo aloqalari erkinlashayotganligiga yorqin dalil bo'la oladi.

Valyuta fyuchers operatsiyalari ham boshqa muddatli valyuta bitimlari kabi ma'lum bir valyutani boshqa bir valyutaga belgilangan muddatda sotish yoki sotib olish bitimidir. Bu jihatdan bu turdagi bitim autrayt-forward bitimi bilan o'xshash bo'lib, lekin ular bir-biridan tuzilmaviy va institutsional tarzda farq qiladi:

- Fyuchers bitimlari savdosi ochiq ommaviy tarzda taklif asosida tashqillashtirilgan birjalarda amalga oshiriladi. Va ularning faoliyati milliy qonunchilik va maxsus muvofiqlashtiruvchi organlar tomonidan tartibga solinadi. forward bitimlari esa birjadan tashqari bozorda amalga oshiriladi, ularning ustidan nazorat tijorat va soliq qonunchiligiga asosan amalga oshiriladi;

- Fyuchers bitimlari standartlashgan bo'ladi, ya'ni ularning summasi va sanasi standart shaklda bo'ladi. Forward bitimlari odatda mijoz ehtiyojiga qarab tuziladi;

- Fyuchers bitimlari har kuni qayta baholanadi va bozordagi joriy baholarga qarab kotirovkalanadi hamda korrekcirovka qilinadi. Forward bitimlari bitim muddatigacha hech qanday to'lovni talab qilmaydi, lekin bank forward bitimini imzolayotganda ta'minot talab etishi mumkin;

- Fyucherslar bilan hisob-kitoblar valyuta kliring palatasi orqali amalga oshiriladi. Kliring palatasi marjasini o'tkazib beradi va har bir bitimni sotib oluvchi va sotuvchi tomonidan bajarilishini kafolatlaydi. Forward bitimlari esa ikki tomonlama bitim bo'lib, unda hech qanday vositachilar bo'lmaydi.

Valyuta opsionlari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar

Valyuta opsionlari birinchi marta 1982 yilda Filadelfiya birjasida amalga oshirilgan. SHundan keyin valyuta opsionlari bilan savdolar jahonning ko'pgina birjalarida amalga oshirila boshladi. Opsiondan investitsiya portfelining muhim elementi va sug'urtalashning samarali usuli sifatida foydalanish uchun uni qanday ishlatilishini bilish lozim. Fyuchers va forward bitimlaridan farqli ravishda u majburiyat emas, balki huquqdir.

Valyuta opsiioni – bu sotuvchi va xaridorning shunday bitimki, u xaridorga biror valyutaning bozor narxlaridan qat’iy nazar belgilangan miqdorini oldindan belgilangan vaqtda va kursda etkazib berish bo’yicha huquq beradi. Sotuvchiga esa belgilangan valyutani oldindan belgilangan vaqtda va kursda sotish majburiyatini beradi.

Valyuta opsiioni shunday instrumentki, u ham spekulyasiya ham xedjirlash vositasi sifatida qo’llanilishi mumkin.

Opsionlar birjadan tashqari bozorda va birjadagi bozorda ham keng ko’lamda qo’llaniladi. Valyuta opsiionlarining katta qismi, jumladan 81 % birjadan tashqari bozorda amalga oshiriladi.⁴⁷ Valyuta opsiionida fyuchers savdosida qatnashmaydigan ekzotik valyutalar uchun ham bitimlar tuzish mumkinligi uning ahamiyatini oshiradi. Valyuta opsiioning muddati turli muddatlarda tuzish mumkinligi bilan ajralib turadi uni bir necha soatdan tortib bir necha yillargacha tuzishingiz mumkin, ammo asosan muddatlar sifatida to’liq muddatlar masalan bir hafta, bir oy, ikki oy va h.klar olinishi mumkin.

Quyidagi etti omil opsiion narxini shakllantiradi:

1. Valyuta kursi.
2. Strayk baho (realizatsiya bahosi).
3. Valyuta kursining volatillik darajasi.
4. Amalga oshirilish muddati.
5. Foiz stavkalaridagi farqlar.
6. Bitim turi (koll yoki put).
7. Opsionning modeli – amerika yoki evropa opsiioni.

Ushbu etti omildan valyuta kursi asosiy omil sanaladi. Aynan valyuta kursiga qarab opsiion narxi o’zgaradi. Opsion narxini o’zgarishini va uni shakllantirishda quyidagi indekslardan foydalaniladi.

Svop operatsiyasi – bu bir vaqtning o’zida chet el valyutasini har xil sanaga turli hisob-kitoblar shartida teng summaga sotib olish va sotishdir. YA’ni svop – bu valyutani kelajakda sotib yuborish garovi bilan qandaydir vaqtga sotib olishdir. Bunda bir vaqtning o’zida valyuta almashuvi bo’yicha 2ta alohida bitim tuziladi. Bu bitimlar qarama-qarshi yo’nalishga va turli hisob-kitob sanasiga ega bo’ladi.

Svop opreitsiyalari ko’pgina banklar tomonidan o’zlarining chet el valyutasidagi majburiyatlarini qoplash maqsadida foydalanadi. Svop operatsiyasi ikki bank tomonidan amalga oshirilganda bir bank ikkinchi bankga bir valyutani, ikkinchisi ikkinchi balyutani almashadi va qandaydir vaqt o’tishi bilan valyutalar qaytarib olinadi.

Asosiysi shundaki, svop bitimlari ochiq valyuta pozitsiyasini keltirib chiqarmaydi va vaqtincha kurs o’zgarishi bilan bog’liq riskdan holi bo’lgan valyuta bilan ta’minlaydi. Svop bitimlari odatda 1 kundan 6 oygacha muddatga tuziladi, muddati 5 yilgacha bo’lgan svop bitimlari esa juda kam uchraydi.

Svop operatsiyalari tijorat banklari o’rtasida, tijorat bank va markaziy bank o’rtasida, hamda mamlakatlar markaziy banklariaro amalga oshirilishi mumkin.

Umumiy qilib aytganda, kassa va forvard operatsiyalarini muvofiqlashtiruvchi valyuta shartnomasini svop shartnomasi hisoblanadi.

⁴⁷Кравченко П.П “Фьючерсный рынок и рынок опционов”, Финансовый Менеджмент № 4/2001

Valyuta atribtaji – bu valyutani sotish yoki sotib olish bo‘lib, keyinchalik teskari bitim tuzib, valyuta kurslari farqi yordamida foyda olish maqsadida o‘tkazishni ifodalaydi. Arbitraj operatsiyalarini o‘tkazishning asosiy shartlaridan biri bozorning turli sgmentlariaro kapital oqimi erkin bo‘lishi, ya’ni valyutalarning erkin konvertirlanishi, valyuta cheklovlarining yo‘qligi va boshqalar hisoblanadi.

Arbitraj ikki xil – joylashuvga ko‘ra va vaqtli bo‘ladi. Ularning har biri ham o‘z navbatida oddiy va murakkabga bo‘linadi. Operatsiya ikki valyuta ishtirokida amalga oshirilsa oddiy, uch va undan ortiq valyutalar bilan amalga oshirilsa murakkab bo‘ladi.

Joylashuvga ko‘ra arbitraj banklarning turli valyuta bozorlaridagi kurs farqi orqali foyda olishini bildiradi. U valyuta risk bilan bog‘liq emas, chunki valyuta savdosi bir vaqtning o‘zida amalga oshiriladi. Masalan, bank vakili Singapurda valyutani sotib oladi (sotadi) va shu vaqtning o‘zida u o‘zining Londondagi korrespondenti orqali shu valyutani sotadi (sotib oladi).

Vaqtli arbitraj vaqt o‘tishi bilan valyuta kursi orasidagi farq orqali foyda olishdir. Valyuta arbitraji spot va forvard sharoitida amalga oshirilishi mumkin va bu turdagi operatsiyalarda valyuta risklari mavjud bo‘ladi.

Arbitraj operatsiyalari tijorat banklari dillerlari ishining asosiylaridan hisoblanadi. Ko‘pincha arbitraj bitimlarini o‘tkazish imkoniyatlari sanoqli daqiqalardagina to‘g‘ri kelishi mumkin, shuning uchun dillerning arbitraj operatsiyasini tezda baholash va hisoblashi qobiliyatidan ko‘p narsa kelib chiqadi. Arbitraj operatsiyasini muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun bozorni yaxshi o‘rganish, kelajakni ko‘ra bilish kabilar dillerlar uchun zaruriy shartlardan biridir.

Hozirgi kunda vakolatli banklar valyuta amaliyotlarini amalga oshirish doirasini jaxon amaliyotiga muvofiq, kengaytirishga yordam beradigan O‘zbekiston valyuta bozorini erkinlashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishni hisobga olgan holda, manfaatdor idoralarga xalqaro valyuta bozori faoliyat yuritish uslublarini diqqat bilan o‘rganish hamda mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta’sirlarga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida valyuta risklarini tartibga solish instrumentlarini qo‘llash uchun shart-sharoitlar yaratish choralarini ko‘rishlari lozim.

Hozirgi vaqtda tijorat banklarining valyuta bozoridagi faoliyatining Markaziy bank tomonidan tartibga solinishi bank tizimidagi eng muhim va dolzarb masalalardan biri bo‘lib turibdi. «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida»gi qonunning 40-moddasiga muvofiq, Markaziy bank valyutani tartibga solish va valyutani nazorat qilish davlat organi bo‘lib hisoblanadi.

Bu masalaning dolzarbligi asosan, ko‘pgina yirik vakolatli banklar aktivlarining asosiy qismini valyuta sohasiga yo‘naltirilganligi, ya’ni xorijiy valyutadagi aktivlardan iboratligi bilan izohlanadi. O‘zbekiston Respublikasi hududida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish prinsiplari va valyuta qimmatliklari bilan ishlash tartibi O‘zbekiston Respublikasining «Valyutani tartibga solish to‘g‘risida»gi qonuni bilan aniqlanadi. Ushbu qonun talablariga muvofiq O‘zbekiston hududida xorijiy valyuta bilan bog‘liq barcha hisob-kitoblar faqat vakolatli banklar orqali, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining valyuta operatsiyalarini o‘tkazishga ruxsat beruvchi litsenziyasiga ega bo‘lgan

tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladi. Bunday litsenziyaga ega bo'lgan tijorat banklari vakolatli bank hisoblanadi.

Tijorat banklarining valyuta faoliyatlarini tartibga solishda ochiq valyuta pozitsiyasini yuritilishi haqidagi hisobot muhim o'rin tutadi. Bu hisobotni tahlil qilishning zarurati Markaziy Bank tomonidan vakolatli banklarga chet el valyutasi bilan bog'liq operatsiyalarga limit o'rnatilishidir. Bu tartib bo'yicha bankning o'z mablag'lariga nisbatan 20%gacha valyuta sotib olishi va sotishiga ruxsat bor, ya'ni bir valyuta turi bo'yicha bu ko'rsatkich 5% qilib belgilangan. Limit o'rnatishning asosiy sababi, vakolatli banklar barcha aktivlarini chet el valyutalariga qo'ysa va bu valyutalarning kursi jahon valyuta bozorida tushib ketsa, bank aktivlari kamayishi va hatto bank bankrot bo'lishi mumkin va bu o'z navbatida mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta'sir qiladi. SHuning oldini olish maqsadida, bu limit barcha vakolatli banklar uchun joriy qilingan. Ana shu erda shuni ta'kidlash lozimki, respublikamizda 15 oktyabr 2003 yildan joriy operatsiyalar bo'yicha to'liq konvertatsiya joriy qilinishi bu limitni o'zgartirishni zarur qilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida xozirgi vaqtda amalda Markaziy Bank boshqaruvida 1998 yilning 28 martida 392-son bilan qabul qilingan «Ochiq valyuta pozitsiyasini yuritilishi qoidalar» amal qiladi.

Fikrimizcha, yuqorida qayd etilgan tartibda bir qator o'z echimini kutuvchi masalalar uchraydi. Xususan, qoidaning 2-bandi bo'yicha: ochiq valyuta pozitsiyasining limit miqdori juda kam o'rnatilgan, ya'ni barcha xorijiy valyuta pozitsiyasi bo'yicha 20%, aniq bir valyuta turi bo'yicha esa 5%. Fikrimizcha, ushbu foizlar miqdorini qayta ko'rib chiqish kerak. CHunki, bizning respublika vakolatli banklari asosan ikki valyuta(EVRO, AQSH dollari) bilan ishlaydi.

Joriy operatsiyalar bo'yicha konvertatsiya masalasining hal qilinishi, banklar, jumladan, ularning mijozlari hisoblanmish korxonalar va tashkilotlar xalqaro jahon bozoriga, ya'ni integratsiya jarayoniga jadal kirishib ketadilar. Demakki, umumiy pozitsiyaning miqdori kimligi bu jarayonga xalaqit berishi mumkin.

Valyuta pozitsiyasi va nazorati

Valyutali banklar chet el valyutasini sotish va sotib olish huquqiga egalar:

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining «Ochiq valyuta pozitsiyasini yuritish» qoidasida ochiq valyuta pozitsiyasi uchun quyidagi limitlar o'rnatilgan:

- Ixtiyoriy valyutada ochiq valyuta pozitsiyasi limiti har bir operatsion kun oxirida valyutali banklarda regulyativ kapitalning 5%idan oshmasligi va bankning umumiy ochiq valyuta pozitsiyasining limiti har operatsion kunning oxirida uning bank regulyativ kapitalining 20%idan oshmasligi lozim;

- Summali ochiq valyuta pozitsiyasida uzun valyuta pozitsiyasi ko'rinishi o'rnatiladi. Valyutani sotish va sotib olishda bank faqat ochiq valyuta pozitsiyasidan foydalanmaydi. Kun ora banklarda umumiy valyuta pozitsiyasi «Nostro» schyoti bo'yicha olib boriladi. Quyidagiga ko'ra ular to'lovi foydalanadigan kungacha o'rnatiladi. Agar to'lovlar kirim bilan qo'shib ketsa, bir schyotdan boshqa schyotga mablag'larni o'tkazishda xatolikka yo'l qo'yilsa, bunda bank kun ora ochiq maxsus schyot bo'yicha tekshirish o'tkazadi.

CHet el valyutasini sotish va sotib olishda bank valyuta pozitsiyasi limitiga rioya qilishi kerak. Bank valyuta operatsiyalarini bajarganda valyuta operatsiyalarining bir qismini sarflaydi. Bunda bankning xorijiy valyutalar bo'yicha majburiyati va talablari orasidagi nisbat o'zgaradi. Bankning xorijiy valyutalarni sotish va sotib olish jarayonidagi valyutalar bo'yicha talab va majburiyatlari nisbati holati banklarning valyutaviy holati deyiladi. Valyutaviy holat ochiq va yopiq bo'lishi mumkin.

Hohlagan bir valyuta bo'yicha ochiq valyuta pozitsiyasi deganda bankning shu xorijiy valyuta bo'yicha aktivlarining majburiyatlaridan oshgan summasi tushuniladi va u uzun valyuta pozitsiyasi deb yuritiladi. Bank valyutani sotib olganda u uzun valyuta pozitsiyasiga ega bo'ladi va uni shu valyuta bo'yicha boshqalar oldida talabi oshadi, sababi sotgan tomon valyutani etkazib berish majburiyatini olgan.

Aksincha, shu valyuta bo'yicha majburiyatlarning aktivlardan oshsa, ya'ni xorijiy valyutani sotish uni sotib olishdan yuqori bo'lsa valyuta pozitsiyasi qisqa bo'ladi. Xorijiy valyuta sotganda qisqa valyuta pozitsiyasi yuzaga keladi, sababi valyutani sotib olgan tomonga etkazib berish majburiyati shakllanadi.

Agar valyuta bo'yicha talablar va majburiyatlar teng bo'lsa valyuta pozitsiyasi yopiq bo'ladi.

Valyuta pozitsiyasining umumiy holati(summasi) deganda barcha valyutalar bo'yicha uchun(qisqa) pozitsiyalar umumiy summasi tushuniladi.

Agar bank operatsion kun davomida valyuta operatsiyalarini olib borishda ochiq valyuta pozitsiyasi bo'yicha qo'yilgan limitdan ortiq operatsiya amalga oshirgan, ya'ni valyutani ko'p sotib olgan bo'lsa bo'lsa, u holda valyuta pozitsiyasi ortiq sotib olingan valyutani sotib yuborish yo'li bilan balanslashtirib yopiladi.

Vakolatli banklar ochiq valyuta pozitsiyasi limitiga hisoblangan foizlar, ko'chmas mulk, qimmatli qog'ozlar va boshqa moddiy qiymatliklarni sotish yoki sotib olish bilan bog'liq valyuta operatsiyalarini ham amalga oshiradi. Vakolatli banklar o'zlarining joylaridagi filiallari uchun ochiq valyuta pozitsiyasining chegarasini mustaqil belgilashlari mumkin. Lekin filiallar bo'yicha belgilangan ochiq valyuta pozitsiyasining yig'indisi bank bo'yicha uning o'z mablag'larining 20%idan oshmasligi lozim.

Vakolatli banklar har oyda oyning 3chi kunigacha Markaziy Bankka o'zlarining ochiq operatsiyalari va unga rioya qilinganligi to'g'risida hisobot berishlari lozim. Hisobot quyidagi shaklda tuziladi:

Ochiq valyuta pozitsiyasi limitini hisoblash.

Aytaylik tijorat bankining regulyativ kapitala miqdori 50.000 so'm. Bankning xorijiy valyutalar bo'yicha quyidagicha pozitsiyaga ega:

Valyuta pozitsiyasi va uning turlari

Valyutalar	Sotish-sotib olish operatsiyalari		Muddatli operatsiyalar		Umumiy(summa) pozitsiya	
	uzun	qisqa	uzun	qisqa	uzun	qisqa
AQSH dollari	80		-100		-20	
evro	40		-10		30	
SHveysariya franki	-90		150		60	

Kanada dollari	10		-		10	
Avstraliya dollari	-200		40		-160	

«-» bilan qisqa valyuta pozitsiyasi belgilangan.

Jadvaldan ko‘rib turganimizdek mazkur bank umumiy pozitsiya bo‘yicha AQSH va Avstraliya dollarida qisqa, qolgan valyutalar bo‘yicha esa uzun pozitsiyalarga ega.

O‘zbekiston Respublikasi valyuta bozorining shakllanishi.

O‘zbekiston Respublikasida ijobiy tendensiya kuzatilmoqda. YA’ni, amalga oshirilgan oqilona iqtisodiy siyosat natijasida tashqi qarzlarning yalpi ichki mahsulotdagi salmog‘i 2005 yildagi 29% dan 2008 yilda 13,3% ga qadar qisqargan.

- iqtisodiyotning ildam, barqaror rivojlanishini ta’minlash, uning importga
- bog‘liqligini kamaytirish;
- ishlab chiqarish jarayonlariga yangi, samarali texnologiyalarni joriy qilishni
- tezlashtirish;
- mahalliy xom ashyo va ishlab chiqarish resurslaridan keng foydalanish va buning asosida
- zamonaviy raqobatbardoshli mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish;
- valyuta resurslaridan tejab-tergab va omilkorlik bilan foydalanish;
- tovarlarni ishlab chiqarishda nafaqat ichki bozor, balki tashqi bozor ham hisobga olinishi lozim.
- bojxona va soliq imtiyozlari hisobiga bo‘shayotgan mablag‘lardan uskunalarni modernizatsiya qilish va ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirishda foydalanishlari mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, raqobatbardoshli eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va kengaytirish mafsadga muvofiq.
- tijorat bankalari, «O‘zstandart» agentligi hamda manfaatdor vazirlik va muassasalar tomonidan
- xalqaro standartlarga javob beruvchi sifatni boshqarish tizimlarini ishlab chiqish va
- joriy qilishda, shuningdek, xodimlarni yangi malakalarga o‘qitishda har tomonlama ko‘mak
- ko‘rsatiladi. Bu esa korxonaning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshiradi.

Hozirda ko‘plab mutaxassis va ekspertlar tomonidan jahon moliyaviy inqirozining global tus olishi va iqtisodiy inqiroz jarayonlarining kuchayishi retsessiya va iqtisodiy pasayishni, investitsion faollik ko‘lami cheklanib borishini, talab va xalqaro savdo hajmining kamayishi hamda jahonning ko‘plab mamlakatlariga ta’sir ko‘rsatadigan jiddiy ijtimoiy talofotlar sodir bo‘lishi mumkinligi e’tirof etilmoqda.

Xususan, 2008 yilda jahon miqyosida bevosita xorijiy investitsiyalar oqimi 20% gacha pasayganligi kuzatilgan. 2009 yilda jahon yalpi ichki mahsulotining pasayishi, bevosita xorijiy investitsiyalar ko‘lamining yanada pasayishini kuzatilishi hamda xalqaro savdo hajmi qariyb 15% ga pasayishi ehtimol qilinmoqda. Bu holat esa ishsizlik darajasining ortishi bilan bog‘liq jiddiy ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Ma’lumotlardan ko‘rinadiki, jahonning rivojlangan mamlakatlaridagi ishsizlik keyingi 3 yil mobaynida o‘sib borishi kuzatilmoqda. 2009 yilda AQSHda ishsizlik

darajasi 7,2%, Yaponiyada 4,4%, Buyuk Britaniyada 6,4%, Germaniyada 8,2% ga o'sishi kutilmoqda. Bu o'z-o'zidan ijtimoiy transfertlarning ko'payishi hisobiga davlat harajatlarining o'sishiga olib keladi.

SHunga ko'ra, hukumatlar darajasida inqirozdan chiqish bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqishda bandlik masalalarini, talabni rag'batlantirish orqali ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirishga qaratilgan keskin choralarni ko'rish masalasini ko'ndalang qilib qo'ymoqda.

Vakolatli banklar (Bo'limlar,boshqarmalar) quyidagi xujjatlar tikiladigan ish jildi ochishlari lozim

- korxonaning arizasi;
- ruyxatga olgan shartnomaning nusxasi ;
- shartnomaga identifikatsiya nomeri uzlashtirilganligi to'g'risidaga ma'lumotnoma ;
- xisob-kitob ma'lumotnomasi;
- maxsulotlarni O'zbekiston Respublikasidan chiqarganligini tasdiklovchi bojxona riestori;

-Xakikatda eksportchi tashqilotiga kelib tushgan valyuta tushumitushganligini tasdiklovchi litsevoy schetdan bildirishnoma Belgilangan tartibda valyuta tushumidan majburiy sotuvni amalag oshirish va qoldiqni asosiy xisob varagiga utkazish ;

-Ushbu shartnomaga tegishli bo'lgan har xil turdagi ezishmalar , yuqori tashqilot bilan solik idoralari , bojxona xizmati ;

-Xizmat ko'rsatayotgan bank tomonidan talab kilingan zarur bo'lgan xujjatlar

.Eksport bitimlarini ro'yxatdan o'tkazuvchi organlar va ularni ko'rib chiqish muddatlari.

ORGAN	MUDDATLARI
Bitimni TIASSV (agar shunday talab bo'lsa)da ro'yxatdan o'tkazish	5 ish kunidan 10 ish kunigacha.
Tovarni tovar-xom ashyo birjasida ro'yxatdan o'tkazish (tovar faqat tovar-xom ashyo birjasi orqali sotilayotgan hollarda)	Bitim imzolangan paytdan boshlab 1 ish kuni mobaynida.
Bitimni vakolatli bankda hisobga qo'yish	1 ish kunidan (dehqon va fermer xo'jaliklari bitim lari) 2 ish kunigacha (boshqa eksport bitimlari).
Bitimni bojxona organida hisobga qo'yish	1 ish kunida (qishloq xo'jalik mahsulotlarini eks port qilish bitimlari), 2 ish kunigacha (tovar-xom - ashyo birjasida imzolangan bitimlar), 3 ish kunigacha(boshqa eksport bitimlari).
Bitimni vakolatli bankda hisobdan chiqarish	1 ish kuni.
Bitimni bojxona organida hisobdan chiqarish	1 ish kunidan 7 ish kunigacha.

Quyida eksport sohasida mavjud imtiyozlarga doir qisqacha ma'lumotlarni keltiramiz:

- Tovar va xizmatlar eksportida bojxona rasmiylashtirish yig'imidan tashqari bojxona bojlari olinmaydi.

- Eksportchi korxonalar uchun daromad (foyda) solig'i va mulk solig'i to'lashning shunday tartibi o'rnatilganki, unga ko'ra, bu soliqlarning miqdori korxonalar tomonidan ishlab chiqarilib, realizatsiya qilingan jami tovarlar (ishlar va xizmatlar) hajmida erkin almashtiriladigan valyuta (EAV) hisobidagi eksport ulushiga bog'liq (eksport ulushi 15%dan 30%gacha bo'lgan holda yuqorida ko'rsatilgan soliqlar miqdori 30%ga, eksport ulushi 30 % va undan yuqori bo'lgan holda 2 baravarga pasayadi. Mazkur tartib yagona soliq to'lovini hisoblashda mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun ham joriy etilgan (bu tartib korxonalar tomonidan o'z eksport mahsulotini to'g'ridan-to'g'ri emas, balki vazirlik, muassasa va korporativ birlashmalarning bo'linmalari hisoblangan ixtisoslashgan tashqi savdo birlashmalari va firmalari orqali realizatsiya qilinganda amal qiladi).

- Eksport qilinayotgan tovarlarni tashish, ortish, yukni tushirish, qaytadan ortish xizmatlari va O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida EAV hisobiga tovarlar,

- ishlar va xizmatlar eksport qilish qo'shimcha qiymat solig'iga tortilmaydi. Eksport qilinayotgan tovarlardan aksiz solig'i olinmaydi.

Don (bug'doy, javdar, arpa, suli, guruch, makkajo'xori, grechixa); non mahsulotlari (korxonaning o'zi tomonidan ishlab chiqarilgan unli konditerlik mahsulotlari, pirojniylar, pechenelardan tashqari); un va yorma; qoramol, parranda, go'sht va go'shtli kalla-pocha mahsulotlari; shakar; jiddiy badiiy, tarixiy, ilmiy yoki o'zga madaniy qiymatga ega bo'lgan qadimiy buyumlar (Madaniyat va sport ishlari vazirligining xulosasiga ko'ra); o'simlik moylari (texnik moylardan tashqari); teri xom ashyosi (jumladan, nostandart teri mahsulotlari ham), mo'yna xom ashyosi, shu jumladan qorako'l teri (nostandart qorako'l teri ham); rangli metallarning parchalari va chiqindilari; pilla, xom ipak, ipak chiqindilari.

Qizil kitobga kiritilgan yovvoyi o'simliklar, ularning qismlari va ulardan olingan mahsulotlar (ruxsatnoma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan beriladi);

ozon qatlamini buzadigan moddalar va tarkibida shu modda bo'lgan mahsulotlar (ruxsatnoma O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan beriladi);

ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari, nou-xaular, kashfiyotlar (Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnika rivojini muvofiqlashtirish qo'mitasi);

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet ellardagi kasbiy faoliyati (O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligi)

Qurollar va harbiy texnika, ularni ishlab chiqarish uchun maxsus ehtiyot qismlar; qimmatbaho metallar, qotishmalar, ulardan yasalgan buyumlar; qimmatbaho ruda metallari, konsentratlari, parchalari va chiqindilari;

qimmatbaho toshlar va ulardan yasalgan buyumlar, qimmatbaho tabiiy toshlarning chiqindilari, kukunlari va ularning reko‘peratorlari, marvarid va undan yasalgan buyumlar, qahrabo va undan yasalgan buyumlar;

uran va boshqa radioaktiv moddalar hamda ulardan yasalgan buyumlar, radioaktiv moddalarning chiqindilari, radioaktiv moddalar foydalanilgan asbob va uskunalari;

rangli metallar, rangli metallari prokati, rangli metallarning parchalari va chiqindilari;

qora metallar, qora metallari prokati, qora metallarning parchalari va chiqindilari;

xom neft, tabiiy gaz; paxta tolasi, paxta linti.

paxta tolasi, paxtadan yigirilgan ip; paxta linti; xom neft, gaz kondensati, neft mahsulotlari; elektr quvvati; qimmatbaho metallar, ularning qotishmalari, parchalari va chiqindilari; qora metallar, ularning qotishmalari, parchalari va chiqindilari.

Davlat sub’ektlariga ular zimmasiga davlat tomonidan yuklangan xuquq va majburiyatlarni tasarrufchilari kiradi. Bo‘lar o‘z-o‘zini boshqaradigan hududlar, ularning mulkchilik shaklidan qat’iy nazar xo‘jalik yurituvchi sub’ektlardir (aksionerlik jamiyatlari, davlat korxonalari, kichik va o‘rta korxonalar, xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar, xususiy korxonalar, tadbirkorlar va boshqalar).

7-mavzu. Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalari

Reja:

1. Qimmatli qog‘ozlar tushunchasi va uning turlari.

2. REPO. va Anderraytingoperatsiyalari

3. Trast va boshqa operatsiyalar.

4. Qimmatli qog‘ozlar bilan balans va nobalans operatsiyalari.

1. Qimmatli qog‘ozlar tushunchasi va uning turlari

Qimmatli qog‘oz – o‘zi bilan bog‘liq mulkiy huquqlarni aks ettiradigan hujjatdir, u daromad manbai bo‘lib xizmat qiladi, bozorda muomalada yuritilishi va oldi-sotdi vositasi bo‘lishi mumkin. Jahon amaliyotida qimmatli qog‘ozlarning har xil turlari ishlatilmoqda.

Qimmatli qog‘ozlar bozori kredit munosabatlari bilan birgalikda, o‘z qiymatiga ega bo‘lgan, sotish, sotib olish va to‘lovini amalga oshirish mumkin bo‘lgan maxsus hujjatlar (qimmatli qog‘ozlar)ga egalik qilish bilan ham bevosita bog‘liq. Qimmatli qog‘ozlar o‘zida mulkchilik huquqini mujassamlashtirgan bozorda erkin aylanadigan, sotib olish-sotish va boshqa bitimlarning ob’ekti bo‘ladigan, doimiy va bir martalik daromad olish manbai bo‘lib xizmat qiladigan, pul kapitalining bir ko‘rinishidagi hujjatdir. Qimmatli qog‘ozlar turli sub’ektlar tomonidan chiqarilishi mumkin. Umumiy holda bu emitentlar 5 guruhga bo‘linadi:

1. hukumat;
2. davlat korxonalari;
3. xususiy sektor;
4. Markaziy bank;
5. chet el sub’ektlari.

Hamma qimmatli qog'ozlarni davlat, xususiy yoki xalqaro qimmatli qog'ozlarga ajratish mumkin. Xususiy sektor tomonidan chiqarilayotgan qimmatli qog'ozlar tarkibiga turli ishlab chiqarish korxonalari, tijorat banklari, investitsion banklar, investitsion fondlar va boshqalarning qimmatli qog'ozlari alohida o'rin tutadi. Xalqaro qimmatli qog'ozlar ularning hisoblanadigan valyuta va emitentlari bo'yicha bo'linadi.

Qimmatli qog'ozlar muomalada bo'lish xududiga ko'ra regional (mahalliy), milliy va xalqaro qimmatli qog'ozlarga bo'linadi.

o'zbekiston Respublikasi mustaqillikga erishgandan so'ng 1993 yil 2 sentyabrda Oliy Kengash tomonidan «qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun qimmatli qog'ozlar bozorini tashkil qilish bo'yicha birinchi va asosiy hujjat bo'ldi. Keyinchalik bu qonunga 5 marotaba qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi (1994 yil 23 sentyabrda, 1995 yil 22 dekabrda, 1999 yil 26 aprelida, 30 avgustida, 27 dekabrda).

Bu qonunga asosan, o'zbekiston Respublikasi xududida quyidagi turdagi qimmatli qog'ozlar chiqarilishi va muomalada bo'lishi mumkin:

1. Aksiyalar;
2. Obligatsiyalar;
3. Xazina majburiyatlari;
4. Depozit sertifikatlari;
5. Veksellar;
6. Qimmatli qog'ozlar hosilalari, ya'ni opsiya va fyucherslar kiradi. (1-sxemaga qarang).

Hu bilan birgalikda, o'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 96 moddasiga binoan qimmatli qog'ozlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1. CHek.
2. Depozit va jamg'arma sertifikatlari.
3. Bankning taqdim qiluvchiga pul beriladigan jamg'arma daftarchasi.
4. Konosament.
5. Obligatsiyalar.
6. Veksellar.

Qimmatli qog'ozlarning bu turlariga qisqacha ta'rif beramiz:

aksiya – bu qimmatli qog'oz bo'lib:

- xarakat muddati cheklanmagan;
- huquqiy yoki jismoniy shaxs tomonidan aksionerlik jamiyatiga muayyan hissa qo'shgan ulushini va mazkur jamiyat mulkidagi ishtirokini guvohlovchi;
- aksiya bo'yicha dividend ko'rinishida foyda olish huquqini beruvchi aksiyadorning shu jamiyat boshqarish ishiga qatnasha olishini tasdiqlovchi yuridik hujjatdir.

obligatsiya. «obligo» – lotintilida «qarzolish» mazmuninibildiradi. emitentgaobligatsiyaegasitomonidanma'lumbirpulumablag'inkiritganligivaundako'rsatilganmuddatdanominalqiymatinihamdaqo'shimchafoizto'labberishmajburiyatiniguvohlovchiqimmatliqog'ozdir.

obligatsiyauningegasigaemitentningishiniboshqarishdaqatnashishhuquqinibermaydi.

xazinamajburiyatlari–

uningegasitomonidanma'lumbirpulumablag'inibyudjetgakiritganligivauningbutunaylanishd avridaaniqchegaralanganfoiznito'labberishmajburitiniguvohlovchiqimmatliqog'ozdir.

depozitsertifikatlarijamg'armachiningbankkaqo'yganpulumablag'iniifodalovchivamu omalamuddatito'gaganidankeyinqo'yganpulumablag'inihamdafoydasifatidaustamafoizinihu quqvaimkoniyatiniberuvchiqimmatliqog'ozdir. depozitsertifikatibanktomonidanberiladi.

veksel

-

qarzmajburiyatibo'lib,

vekselberuvchiningushbuvekselniko'rsatilganmuddatdataqdimetganda,

vekselushlovchigauningnominalqiymatinito'labberishguvohiniberuvchiqimmatliqog'ozvat o'lovvositasidir.

qimmatliqo'sozlarhosilalari–

bularshundayqimmatliqog'ozlarki,

ularningfoydasiyokizararibirnechtabozorko'rsatkichlaribilan,

ya'nibozorindekslaribilanbog'liqdir. qimmatliqog'ozlarhosilalari – «opsion» yoki «fyucherslar» ko'rinishidabo'ladi.

konosament

-

yuktashuvchitomonidanyukegasiga,

yuknidengizorqaliolibotishgaqabulqilinganliginiguvohlovchivayukqabulqiluvchigayuknie tibborishportidataqdimqilishmajburiyatinitasdiqlabberuvchihujjatdir.

Hozirgidavrgakelibqimmatliqog'ozlaraqo'yilmalartoborako'payibbormoqda.

YAngivayoshdavlatlardaaksionerlashtirishvamulknidavlattasarrufidanchiqarish,

korxonavatashkilotlarniakutsionerlikjamiyatlargaaylanishivaulartomonidanharxilqimmatli qog'ozlarnimuomalagachiqarishlari,

shubilanbirgalikdafondbozorlarinirivojlanishigaturtkibo'lmoqda. Agar 1985 yilga kelib butun dunyoda muomalada aylanib turgan barcha aksiya va obligatsiyalarning bozor narxi 9 trln. AQSH dollarini tashkil qilgan bo'lsa, ayrim baholarga ko'ra, hozirgi kunda ushbu ko'rsatkich 50 trln. AQSH dollarga yaqin summani tashkil qilar ekan.

Qimmatli qog'ozlar jahonning katta bir boyligi hisoblanib, boshqa boylıklarga nisbatan ham umumiy qiymati bo'yicha, ham hajmi bo'yicha oldingi o'rinlarga chiqmoqda.

Qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarib, pullarni bir necha o'n yillar yoki umuman muddatsiz foydalanishga olish mumkin. Bu korxon va tashkilotlar uchun nihoyatda muhim ahamiyat kasb etib, ularga ishlab chiqarish, hamda moddiy-texnika bazasini rivojlantirish uchun bank ssudalaridan foydalanmasdan turib pul resurslarini jalb qilish imkoniyatini beradi.

CHunki, barqaror bo'lmagan iqtisodiyot va pulning qadrsizlanishi sharoitida bank qisqa muddatli kreditlarni berishni afzal ko'radi. Qimmatli qog'ozlar aholi uchun ham juda katta ahamiyatga ega, ular pullarni ko'lda ushlab turmasdan, qimmatli qog'oz olib, ularga egalik qilish yo'li bilan o'z jamg'armalari hisobiga daromad oladilar va korxonalarni boshqarishda amalda ishtirok etadilar.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlari va aholi vaqtincha bo'sh turgan mablag'larini omonatga qo'yishdan ko'ra qimmatli qog'ozlarga sarflashlari ma'lum afzalliklarga ega, masalan, sarflangan mablag'lar muddatidan ilgari foydalanish zarurati tug'ilganda uni sotishi hamda undan qulay va hech qanday sarf-xarajatsiz to'lov vositasi yoki kredit olish uchun garov sifatida foydalanishi mumkin.

Qimmatli qog'ozlar bozori va uning ishtirokchilari.

Fond birjasi - qimmatli qog'ozlar bilan oldi-sotdisi o'tkaziladigan joy.

Fond birjasidagi qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni shartli ravishda 3 turga bo'lish mumkin:

- brokerlik operatsiyalari;
- dillerlik operatsiyalari;
- market-meykerlik.

Brokerlik operatsiyalari – mijozning topshirig'iga asosan va uning pul mablag'lari evaziga amalga oshiriladigan operatsiyalar.

Dillerlik operatsiyalari – tashkilot o'z nomidan va o'z pul mablag'i evaziga amalga oshiriladigan operatsiyalar.

Market-meykerlik fond bozorida emitentlarga ko'rsatiladigan xizmat turi. Bu xizmatlarga quyidagilar kiradi:

- Sotib olish va sotish kotirovkalarini bir maromda ushlab turish;
- Aksiyalar likvidligini ushlab turish;
- Moliyaviy maslahatlar;
- Aksiyalarni emissiyaga va bozorga taklif qilishda boshqarish;
- Maqsadli sotib olish yo'li bilan aksiyalarga sun'iy talabni tashkil etish;
- Emitentning aksiyalarini sotib oladigan jiddiy investorlarini jalb qilish.

Fond birjasining asosiy vazifalari:

- qimmatli qog'ozlarning bir maromda muomalada bo'lishining zarur sharoitini ta'minlash;
- qimmatli qog'ozlarga bo'lgan talab va takliflar o'rtasidagi muvozanatni aks ettiruvchi narxlarni, ya'ni bozor bahosini belgilash;
- qimmatli qog'ozlar va qimmatli qog'ozlar bozori qatnashchilarini kasb mahoratini yuqori darajada saqlab borish;
- muntazam ravishda narx aniqlanishiga, indeksatsiya o'zgarishiga, savdo-sotiq vaqti, qimmatli qog'ozlar, shartnomalarning miqdoriga va boshqa ko'rsatkichlarga doir axborotlarni, birjaning holatini va uning rivojlanishiga doir taxminiy shartlarni e'lon qilish.

Hozirgi vaqtda, rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda 150 dan ortiq fond birjasi bo'lib, ulardan o'n ikkitasi eng yirik birja sifatida xalqaro qimmatli qog'ozlar bozorining asosini tashkil etadi.⁴⁸ Bularga Nyu-York, London, Tokio, Frankfurt, Tayvan, Seul, Syurix, Parij, CHikago, Kuala-Lumpur, Gonkong, Istambul fond birjalaridir.

Xalqaro fond birjalarining infrato'zmasida yuzaga kelgan muhim o'zgarishlardan biri birjalar o'rtasida mijoz uchun raqobat kurashining kuchayganligi hisoblanadi. Uning isboti sifatida bozorning professional ishtirokchilari sonining tobora oshib borayotganligini ko'rsatish mumkin.

XX asrning 80-yillarida Angliya SEAQ International yuzaga keladi.

Bu nafaqat ingliz korxonalarining aksiyalarini, balki ular bilan birga, boshqa evropalik emitentlar hamda amerikalik va yaponiyalik emitentlar tomonidan chiqarilgan qimmatli

⁴⁸ И.Г. Доронин. Мировые фондовые рынки: закономерности тазвития и соврменное состояние //Дик, №8-2002.-с49.

qog'ozlarni oldi-sotdi qilish maqsadida tashkil etilgan dilerlik bozori hisoblanadi. Undan keyin Bryusselda yuqori texnologiyali kompaniyalarning aksiyalarini oldi-sotdi qilish amalga oiriladigan Evropa savdo tizimi-ESDAQ yuzaga keladi.

XX asrning 90-yillarida muqobil savdo tizimlari- INSTINET va TRADEPOINT yuzaga keladi. Bularning birinchisi litseziyal broker-diler bo'lsa, ikkinchisi Angliyadagi litsenziyal investitsiya birjasi hisoblanadi.

90-yillarning ikkinchi yarimida elektron kommunikatsiya tarmog'i-Elektron communication networks yuzaga keladi. Ushbu tizim AQSHning an'anaviy birja xizmatlaridan qoniqmasdan, investitsiya kompaniyalarining tashshabusi va ishtiroki bilan yuzaga keladi.

Xalqaro qimmatli qog'ozlar bozorining yuqorida qayd etilgan professional ishtirokchilari va ularga xizmat ko'rsatuvchi kommunikatsiya tizimlarining rivojlanishi, provard natijada, ular o'rtasidagi raqobat muhitini keskinlashuviga olib keladi. Buning natijasida ko'satilayotgan xizmatlar uchun olinadigan to'lovlarning kamayishi yuz beradi. Ular mijozlarga an'anaviy birjalar yopilgandan keyin ham savdo qilish imkoniyatini yaratadi, investitsiyalar uchun turli xildagi instrumentlar foydalanishni taklif qiladi va kotirovkalarni sir tutilishi kafolatlaydi.

2000 yilning boshiga kelib sharbiy Evropadagi barcha yirik fond birjalari to'liq elektron birjalarga aylanadi. Bu esa, o'z navbatida, savdo ishtirokchilari sonini keskin oshirish, savdo chiqimlarini kamaytirish imkonini beradi.

Bir qator mamlakatlarda fond birjalari o'zlarining raqobat pozitsiyalarini mustahkamlamoqda. Bu holat moliyaviy bozorlarning xizmatlaridan foydalanuvchilar uchun bir necha xizmat turlarini bir joyda markazlashtirayotganligida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Parij, Amsterdam, Frankfurt, Xelsinki, Bryussel birjalari birlamchi va ikkilamchi bozorlarni, hosila instrumentlari bozorlarini, kliring va hisob-kitoblarni birlashtiradi.

Xalqaro qimmatli qog'ozlar bozorining infrato'zilmasidagi ikkinchi jiddiy o'zgarishlar birja ittifoqlarini to'zish jarayonlarining boshlanganligi va tobora chuqurlashib borayotganligi hisoblanadi.

Birja ittifoqlarini to'zish yo'lidagi dastlabki qadam 1997 yilda Benilyuks birjasining to'zish orqali qo'yildi. Ushbu birjani to'zish to'g'risidagi shartnomaning imzolanishi bir vaqtning o'zida uchta birjaga kross-a'zolik huquqini ta'minladi. Hamkorlik hosila instrumentlari bozorlariga (forward, fyuchers, opsiyon bozorlari), kliring va hisob-kitoblar jarayoniga ham tarqaldi.

Ayni vaqtda, AQSHning birjadan tashqari savdo tizimi NASDAQ global ahamiyatiga ega bo'lgan xalqaro qimmatli qog'ozlar bozoriga aylanib bormoqda. U amerika bozorida muvaffaqiyatli tarzda faoliyat yuritish bilan birga, jahonning 10 ta yirik fond birjasidan biri sifatida e'tirof etiloqda.

nasdaq aksiyalar savdosining hajmi va o'sishi sur'ati bo'yicha Nyu-York fond birjasini ortda qoldirdi.

Listing va delisting.

Listing – bu qimmatli qog‘ozlarni birjaga qo‘yish, ya’ni joylashtirishdir. Qimmatli qog‘ozlar listingga qo‘yilgan bo‘lsa, birja ro‘yxatidan o‘tgan bo‘lsa, ularni savdoga qo‘yish mumkin.

Delisting – bu qimmatbaho qog‘ozlarni birjaning yoki kompaniyaning o‘z qaroriga binoan ro‘yxatdan chiqarilishi, ya’ni listing imtiyozlaridan to‘la maxrum bo‘lishidir.

Birjada qimmatli qog‘ozlar bilan oldi-sotdi operatsiyalarini faqat vositachilar bajaradi. Ularga jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar, investitsiya kompaniyalari, brokerlik firmalarning topshirig‘i bilan brokerlar bitimlarni amalga oshirib qimmatli qog‘ozlarni sotib oladi yoki o‘zining hisobidan keyinchalik qayta sotish uchun xarid qiladi.

Fond birjasiga qimmatli qog‘ozlar olib kelinmaydi. Uning borligini broker qo‘lidagi xujjatlar, sertifikatlar bilan tasdiqlashi zarur.

Birjada qimmatli qog‘ozlar to‘plarda savdoga qo‘yiladi. Birjada faqat listingda qayd qilingan qimmatli qog‘ozlar sotiladi. Baho fond birjasida talab va taklifdan kelib chiqqan holda ochiqdan-ochiq o‘rnatilib, birja tablosida e‘lon qilib turiladi. Birjada uch tomon qatnashadi. Bir tomonda birja, emitentlar va tadbirkorlar, ikkinchi tomonda vositachilik haqi evaziga mijozlarning topshirig‘ini bajaruvchi brokerlar va uchinchi tomon qimmatli qog‘ozlarga muxtoj shaxslar. Har uchchala tomonning manfaatini birlashtiruvchi joy – bu fond birjasidir.

Birja kotirovkasi – bu birjada sotiladigan qimmatli qog‘ozlarning e‘lon qilingan narxi.

Birja indeksleri – bu qimmatli qog‘ozlarning birjadagi harakatini ifodalovchi ko‘rsatkich.

Birjada ko‘llaniladigan eng mashxur indekslardan biri bu – Dou-Djons indeksidir. U AQSHdagi 30 yirik sanoat korporatsiyalari aksiyasining birjadagi kursi bilan belgilanadi. Dou-Djons indeksini hisoblash uchun kundalik bozor narxini o‘sha davrdagi aksiyalar guruhidagi sonlarga ko‘paytirib umumiy aksiyalar soniga bo‘lish kerak:

$$\sum A_i P_i$$

Dou-Djons indeksi -----

1. A

Bunda, A_i – kompaniyalarda chiqarilgan aksiyalar soni;

P_i – tegishli kompaniyalar aksiyalarining bozor narxi;

A - umumiy aksiyalar soni.

Professional fond bozorida faoliyat ko‘rsatish jarayonida turli «o‘yinlarni» qo‘llaydilar.

«Ayiqlar» o‘yini – daromad olish maqsadida qimmatli qog‘ozning bozor narxini pasaytirishga qaratilgan jarayon. Professional ma’lum qimmatli qog‘ozning bozor narxini pasayishini oldindan sezgan holda uni ma’lum muddatga qarzga olib turadi. Qarzga olingan qimmatli qog‘ozning narxi pasaymasdan payt poylab darrov sotib yuboriladi.

Qarz muddati etib kelgan qimmatli qog‘ozning narxi pasayib ketadi va shu pasaygan narx bo‘yicha «ayiq» qarzga olgan qimmatli qog‘oz uchun o‘z qarzini to‘laydi.

Bunda, «ayiq»ning daromad qarzga olingan qimmatli qog'ozni sotish narxi va qarzni to'lash vaqtida uning bahosi tafovuti ko'rinishida ifodalanadi.

«Buqa» - qimmatli qog'ozlarni naqd pulga sotib oladi va ularni qimmatroq narxda sotish maqsadida bozor narxining ko'tarilishini poylab turadi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida bank faoliyatining turlari

Qimmatli qog'ozlar bozorida bank faoliyatining umumiy asoslari Rossiya Federatsiyasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunida aks ettirilgan. Rossiya banklarining bank operatsiyalarini amalga oshirish to'g'risidagi litsenziyasi banklarga qimmatli qog'ozlarni chiqarish, sotish, sotib olish, hisobini yuritish, saqlash va boshqa operatsiyalarni quyidagi turlarini amalga oshirish imkoniyatini beradi:

- to'lov hujjati (veksel, chek) funksiyasini bajarish;
- pul mablag'larini jamg'arma va bank schyotlariga jalb qilish (depozit va jamg'arma sertifikatlarini)ni muljallamoq.

O'zbekiston banklari Markaziy bankdan olingan bosh litsenziyaga muvofiq, fond bozorida operatsiyalarni amalga oshirish huquqiga ega bo'ladi.

Bank maxsus litsenziya asosida federal qonunlarga muvofiq ravishda qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyat yuritish huquqiga ega. Bank qimmatli qog'ozlar bozorida o'z faoliyatini tashkil qilishi uchun litsenziyani qo'lga kiritish uchun o'z shtatida har bir operatsiya turi bo'yicha (kamida) bitta FKSB tomonidan berilgan kvalifikatsiya attestatiga ega bo'lgan mutaxassis bo'lishi shart.

Qimmatli qog'ozlar bozoridagi bank faoliyati rangbarangdir.

Brokerlik faoliyati - bu qimmatli qog'ozlar bilan ishonchli shaxs yoki komissiya a'zosi sifatida bitim to'zish, topshiriq shartnomasi yoki komissiya asosida amalga oshadi.

Dillerlik faoliyati – bu qimmatli qog'ozlarni o'zining hisobidan sotish – sotib olish bitimini amalga oshirish.

Depozitar faoliyati – bu qimmatli qog'ozlar sertifikatlarini saqlash bo'yicha xizmat ko'rsatish yoki qimmatli qog'oz huquqini o'tkazish va hisobini yuritish bo'yicha xizmat ko'rsatish. Depozitariya xizmatidan foydalanuvchi tomon deponent deyiladi. Deponent nomiga qimmatli qog'ozlar xarakatining hisobini yurituvchi depo schyoti ochiladi. Qimmatli qog'ozlar bilan banklararo operatsiyalarni amalga oshirish uchun banklar bir-birlarida depo («loro» va «nostro») schyotlari ochiladi. Depozitar va mijoz o'rtasida ochiq yoki yopiq saqlash yo'llari aks ettirilgan shartnoma to'zilgan bo'lishi mumkin. Qimmatli qog'ozlarni ochiq saqlash usuli – bu qimmatli qog'ozlarga egalik qilish huquqini shunday registratsiya qilish yo'liki, qaysiki, deponent depozitariyga alohida nishonalarsiz (nomer, razryad, seriya) faqatgina ma'lum miqdordagi qimmatli qog'ozga topshiriq berishi mumkin. Saqlashning yopiq usulida depozitariy depo schyotidagi mavjud aniq qimmatli qog'oz bo'yicha deponentning barcha topshiriqlarini qabul qilish va bajarishga majbur.

Ishonchli boshqaruv bo'yicha faoliyat (trast) bankning o'z nomidan amalga oshiriladi va egaligi jihatidan boshqa shaxsga tegishli bo'ladi, ishonchli boshqaruvni quyidagilar bilan amalga oshirish mumkin:

- qimmatli qog'ozlar bilan;
- pul mablag'lari bilan (qimmatli qog'ozga investitsiya qilish uchun mo'ljallangan bo'lsa);

- qimmatli qog'ozlarni boshqarish jarayonida qo'lga kiritilgan pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlar bilan.

Trast (agentlik) xizmatlari tijorat banklari bilan mijoz o'rtasidagi shartnoma asosida ko'rsatiladi. qimmatli qog'ozni saqlash uchun depo schyoti ochiladi. Ko'rsatilgan xizmat uchun bank komission xaq undiradi. Bank, shuningdek qimmatli qog'ozlar bilan bajarilgan operatsiyalar uchun to'lovni o'rnatadi. qimmatli qog'ozlar portfelining shakllanishi va uni boshqarish uchun ularga doimiy axborotlar oqimi va ish analizi kerak bo'ladi, hamma investor ham bu muammoni o'zi hal qila olmaydi. Mahsus trast bo'limlariga ega bo'lgan banklar xavfsizlik, daromadlilik va likvidlilik talablariga javob beradigan qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirishga yordam beradilar.

Banklar qimmatli qog'ozlarni birlamchi joylashtirish bo'yicha ham xizmatlar ko'rsatishi mumkin: aksiyalarni moliya bozoriga joylashtirish (andarrayting), aksionerlar reestrlarini yuritish, yillik foydani to'lash.

Kliring faoliyati – bu faoliyat o'zaro majburiyatlarni aniqlash bo'yicha (yig'im, sverka, qimmatli qog'ozlar bo'yicha bitim axboroti korrektirovkasi va bular bo'yicha buxgalteriya hujjatlarini tayyorlash) va qimmatli qog'ozlar taklifi bo'yicha hisobotdir.

Aksionerlik tijorat banki o'zining shaxsiy qimmatli qog'ozlarini ustav kapitalini oshirish yoki mablag'larni o'zlariga jalb qilish maqsadida chiqarishlari mumkin.

SHu yo'l bilan bank qimmatli qog'ozlar bozoriga moliyaviy vositachi (broker), moliyaviy investor (diler) va qimmatli qog'ozlar emitenti sifatida qatnashishi mumkin.

REPO operatsiyalari.

REPO operatsiyasi – bu qimmatli qog'ozlarni keyinchalik yuqoriroq bahoda sotish (sotib olish) majburiyati bilan sotib olish (sotish). REPO shartnomasining birinchi qismida sotuvchi kreditlanadi va ikkinchi qismida pul mablag'lari egasiga ortig'i bilan qaytariladi. Qimmatli qog'ozlar egaligini huquqiy berish ma'lum vaqtga kreditni ta'minlangan qiladi va riskni kamaytiradi.

Haqiqiy REPO va sotuv turidagi REPO qayta sotib olish bilan farqlanadi. Haqiqiy REPO faqatgina tomonlar o'rtasida REPO bitimini to'zish to'g'risidagi bosh shartnoma bo'lgandagina to'ziladi. Bunday shartnomada tomonlarning huquq va majburiyatlarini hamda ular o'rtasidagi hisob-kitob qoidalari aniq ko'rsatiladi. Haqiqiy REPOning foizli daromadlari sotish va qaytib sotib olish turidagi REPOnikidan yaqqol farq qiladi.

Banklar mustaqil ravishda investitsiya va savdo portfelini shakllantirish tartibini o'rnatadi shu bilan birga qimmatli qog'ozni bir portfeldan ikkinchisiga o'tkazishni ham.

Odatda qimmatli qog'ozlar kutilgan daromadni keltirmasa va keltirish kutilmasa, shuningdek u o'z oldiga qo'yilgan vazifani bajarib bo'lsa yoki moliyaviy resurslarni ishlatilishini yaxshiroq yo'llari paydo bo'lsa ular sotiladi.

Bankning qimmatli qog'ozlar portfelining strukturasi.

Qimmatli qog'ozlar portfeli		
Investitsiya portfeli	Savdo portfeli	
Foiz va dividend shaklida foyda olish maqsadida olingan qimmatli qog'ozlar	qaytarib bo'yicha qog'ozlar	sotish qimmatli qog'ozlar
		REPO operatsiyalari bo'yicha olingan qimmatli qog'ozlar

Moliya bozorida ishtirok etuvchi KTi bank boshqaruvining umumiy shartlariga bo'ysungan holda axborotlarni sir saqlaydi.

Qimmatli qog'ozlarning bozor koterovkasiga ega bo'lgan turiga ularning qadrsizlanishi bo'yicha rezervlarni hosil qilish maqsadida chiqarilgan emission qimmatli qog'ozlar kiradi, quyidagi shartlarga javob beradigan:

a) qimmatli qog'ozlar bozorida savdo tashkillashtiruvchi orqali yoki fond birjasida amal qilish uchun ruxsat, bunda davlat komissiyasi qimmatli qog'ozlar bo'yicha tegishli litsenziyani bergan bo'lishi kerak, xorijiy fond birjasi yoki savdo tashkiloti uchun – milliy vakolatli organ;

b) yuqorida ko'rsatilgan fond birjasi yoki savdo tashkiloti hisobot oyi oboroti miqdori 20 ming evrodan kam bo'lmasligi kerak;

v) bozor narxi to'g'risida axborotning ochiqligi, ya'ni unga kirish uchun qonunchilik asosida foydalanuvchidan maxsus huquq (imtiyoz) talab qilinmaydi.

Bozor narxi deganda bitim bo'yicha bir fond birjasi yoki savdo tashkiloti kunidagi bir qimmatli qog'ozning o'rtacha o'lgangan narxi tushuniladi. Agar qimmatli qog'oz to'zish sanasi yoki bitimning rezerv korektirovkasi ikki yoki undan ortiq fond birjalarida amalga oshirilgan bo'lsa, unda bozor narxi hisobot oyida eng katta oborotni fond birjasidan olinadi.

K.T. hisobot oyining natijalari bo'yicha oldin to'zilgan rezervlarning korektirovkasini qimmatli qog'ozlarni miqdori va bozor narxini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Agar qimmatli qog'ozlarga bank mablag'i qo'yilgan bo'lsa, hisobot oyi natijalari bo'yicha ularni qadrsizlanishiga rezervlar to'zish uchun mo'ljallangan bozor koterovkasini qimmatli qog'ozlarga tegishli bo'lsa, hisobot oyini oxirgi ish kunidagi bozor narxi qimmatli qog'ozlarning ikki marta kamaygan amaldagi narx bo'yicha olinadi.

Bozor koterovkali qimmatli qog'ozlarga aksiyalarni olib borishda ularni qadrsizlanishiga rezerv hisoblash uchun ushbu emitent bir qancha chiqargan va turli davlat nomerli aksiyalar bo'yicha to'zilgan bitimlar hisobot oyi bozor oboroti qimmatli qog'ozlarga ruxsat beriladi. Rezerv har bir olingan qimmatli qog'ozlar paketini, ularning balans qiymatidan kelib chiqqan holda to'zishi kerak bir turdagi qimmatli qog'ozlarning o'rtacha qiymatidan kelib chiqqan holda rezerv shakllantirishga ruxsat berilmaydi.

Agar hisobot oyi natijalari bo'yicha bank rezidentlari va boshqa yuridik shaxs rezidentlar chiqargan qarz majburiyatlari va aksiyalar qayta sotishga va investitsiyaga olingan bo'lsa unda ular bozor korektirovkasiga ega kategoriyadan koterovkalanmaydigan kategoriya o'tkaziladi

Qimmatli qog'ozlar qadrsizlanishi bo'yicha rezervlarni shakllantirish va boshqarish tartibi.

Qog'ozning bozor narxi o'zgarish xarakteri	Qadrsizlanish bo'yicha rezerv tashkil qilish tartibi
Rezervlarni birlamchi tashkil qilinishi	
Qimmatli qog'ozlarning balans	Pasaytirish narxi miqdorida rezerv

tannarxidan past bo'lgan bozor narxi	tashkil qilinadi (balans tannarxi va qayta baholash narxi o'rtasidagi farq)
Rezervlarni boshqarish	
A) rezerv tashkil qilishda qo'llaniladigan bozor narxi bazaviy narxdan oshib ketdi	Mablag'larning foyda schyotiga butunlay o'tkazilguniga qadar rezerv kamaytirib borladi
B) rezerv tashkil qilish uchun qo'llanilgan bozor narxi bazaviy narxdan tushib ketdi.	Narx tushganda rezervga qo'shimcha kiritiladi.

Qimmatli qog'ozlar bo'yicha yuzaga keluvchi turli xil risklarni qoplash uchun tashkil qilinadigan rezervlarda avvalombor qimmatli qog'ozlarning tannarxidan past bo'lmagan bozornarxi bo'lishini e'tiborga olish kerak.

Bu holda qimmatli qog'ozlarni balans tannarxi va ularni qayta baholash bo'yicha narx o'rtasidagi farqdan kam bo'lmagan rezerv tashkil qilinishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tashkil qilingan rezervlarni samarali boshqarishda turli usullarda foydalanish mumkin.

Bu usullarni barchasi tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan olib boriladigan operatsiyalarni unga yuqori daromad olib kelishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Anderrayting operatsiyalari.

Investitsiya kompaniyasi faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri anderrayting — kimmatli kogozlarni xarid qilish yoki ularni sarmoyadorlar o'rtasida joylashtirish kafolatini berish—xisoblanadi. Anderraytingga quyidagilar kiradi: kimmatli kogozlarni chikarish shartlarini belgilash, ularning yangi nashrlarini tayyorlash, kimmatli kogozlarni keyin sarmoyadorlarga kayta sotish uchun emitentlardan sotib olish, ularni joylashtirish kafolatini berishni tashkil etish.

Anderrayter — bu kimmatli kokozlarga xizmat ko'rsatuvchi va ularning birlamchi joylashtirilishiga kafolat beruvchi, kimmatli kogozlarni keyinchalik xususiy sarmoyadorlarga kayta sotish uchun emitentdan sotib oluvchi investitsiya muassasasidir.

Investitsiya kompaniyalari tomonidan anderraytingning amalga oshirilishini quyidagi asosiy boskichlarga bo'lish mumkin: kimmatli kogozlarni muomalaga chikarishga tayyorlash, shu jumladan, emitent va bunga ko'maklashuvchi boshka tashkilotlar bilan xamkorlikda nashrlarni rejalashtirish, muomalaga chikariladigan kimmatli kogozlarni baxolash, emitent xamda nazarda tutilayotgan sarmoyadorlar o'rtasida alokalarni o'rnatish va x.k.; kimmatli kogozlarni taksimlash, shu jumladan, emissiyaning bir kismini yoki butun summasini sotib olish, kimmatli kogozlarni sarmoyadorlarga sotish, mazkur kimmatli kogozni joylashtirish vaktida uning bozor narxini ko'llab —kuvvatlash; sotilgandan keyingi davrda kimmatli kogoznining kursini ma'lum vakt mobaynida ko'llab — kuvvatlash (odatda bir yil); shuningdek,

qimmatli kogosning kurs qiymati o'zgarishini taxlil va nazorat qilish, unga ta'sir etuvchi omil larni aniqlash.

TRAST OPERATSIYALARI

Trast-ingliz tilida "ishonch" degan ma'noni bildiradi. Bank jismoniy va yuridik shaxslardan pul mablag'larini ma'lum bir muddatga jalb qilib, shu muddat ichida ishonch olingan mablag'ni yuqori foyda olib keladigan operatsiyalarga joylashtiradi. Trast operatsiyalari bank ishida va banklarning sanoat va iqtisodiyotning boshqa sohalari bilan aloqalarida katta rol o'ynaydi.

Trast operatsiyalarini banklarda paydo bo'lish tarixi yana bir bor tijorat banklariga bo'lgan ishonchni katta ekanligidan dalolat beradi. Sababi shundaki, juda badavlat insonlar tomonidan hali balog'at yoshiga etmagan farzandlari nomiga qoldirilayotgan boyliklarni, ularning vafotidan so'ng boshqarish muammosini yuzaga kelishi banklarning trast operatsiyalarini paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Banklar ushbu mablag'lari fazandlar balog'at yoshiga etgunga qadar, ishonchli tarzda boshqaradilar.

Trast operatsiyalari asta-syokin banklarning korporativ mijozlari bilan bo'ladigan munosabatlariga ko'chdi.

Mijozning qimmatli qog'ozlari portfelini yoki ushbu portfelning bir qismini hamda u bilan bog'liq bo'lgan pul mablag'larini boshqarish tijorat banklarining trast operatsiyalari tashkil qiladi.

Tijorat banklari trast operatsiyalarini amalga oshirish tufayli birinchidan, qimmatli qog'ozlarni joylashtirish, birjadagi operatsiyalarda foydalanishi mumkin bo'lgan o'zoq muddatli moliyaviy resurslarni bahramand bo'la oladi. Ikkinchidan, trast operatsiyalariga bog'liq bitimlarni banklar o'z mijozlarining shartnomalari asosida amalga oshiradi, shuning uchun bitimlar qonunlar bilan cheklanmaydi. Uchinchidan, bank qimmatli qog'ozlarni boshqarishdan komission mablag'lar olib, o'zi boshqarayotgan qimmatli qog'ozlardan tushayotgan foydadan o'z ulushini oladi. To'rtinchidan, bank o'z sarmoyalari bilan emas, balki o'z galar sarmoyalari bilan operatsiyalar o'tkazadi va faqat trast shartnomasi doirasidagina javobgar bo'ladi, asosiy tavakkalchilik esa qimmatli qog'ozlar egasining zimmasida bo'ladi.

Tijorat banklari xilma-xil trast operatsiyalarini bajarishi mumkin: mijozlarning pul mablag'larini boshqarish, mijozlarning fond portfellarini shakllantirish va qimmatli qog'ozlar paketlarini boshqarish; meroslar va xususiy trastlarni tasarruf etish, agentlik vazifalarini bajarish; obligatsiyalar chiqarish va to'lov muddati kelganda obligatsiyalarni to'lash fondlarini boshqarish; dividendlarni to'lashga qimmatli qog'ozlarni saqlashga, ularning xarakatini hisobga olishga, ularni boshqa qimmatli qog'ozlarga almashtirib olishga oid, agentlik vazifalarini amalga oshirish; qimmatli qog'ozlarga va qimmatli qog'ozlar operatsiyalariga oid tavakkalchilikni sug'urtalashda vositachilik qilish, qimmatli qog'ozlar operatsiyasi yuzasidan buxgalterlik hisobi yuritish va hisobotlar to'zish, qimmatli qog'ozlar emitenti uchun transfert bo'yicha agent (qimmatli qog'ozlarni ro'yxatga oluvchi) vazifasini bajarish va boshqalardir.

Qimmatli qog'ozlar bilan balans va nobalans operatsiyalari.

Tijorat banklari asosan qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni Respublika Fond bozorida yuqorida aytib o'tilgan qonunlardan tashqari «Banklar va bank faoliyati

to'g'risida»gi hamda o'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlari asosida olib boradilar.

Qimmatli qog'ozlar bilan tijorat banklarining aktiv operatsiyalari deganda bank o'z yoki jalb qilingan boshqa mablag'larini har xil qimmatli qog'ozlarni sotib olish bilan bog'liq bo'lgan quyilmalarni, mablag'larni bankdan chiqib ketishi va uning evaziga bankka bu mablag'lar qimmatli qog'ozlar sifatida qaytib kelishiga tushuniladi.

Banklarni aktiv operatsiyalariga quyidagilar kiradi:

8. Aksiyalarga va korporativ qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish.

9. Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari (DQMOlar) bilan operatsiyalarni bajarish.

10. Qimmatli qog'ozlarni sotib olish uchun kredit berish va hokazolar.

Aksiyalarga va qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish ya'ni, har xil aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini va boshqa qimmatbaho qog'ozlarni sotib olish operatsiyalari hisoblanadi.

Ushbu operatsiyadan maqsad:

- birinchidan, aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini sotib olib, ulardan keladigan dividend orqali bankka daromad keltirish;
- ikkinchidan, aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini arzonroq narx bo'yicha sotib olib, qimmatroq narxda sotish (spekulyativ operatsiyalar);
- uchinchidan, aksiyadorlik jamiyatlari nazorat paketini sotib olib, ushbu aksiyadorlik jamiyati faoliyatini boshqarishda qatnashib, uni moliyaviy ahvolini yanada tiklab maksimal jihatda foyda olish.

Tijorat banklarni qimmatli qog'ozlar bilan passiv operatsiyalari deganda, shunday operatsiyalar tushuniladiki, unda bank qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish va ularni sotish bilan bog'liq operatsiyalar, buning evaziga bankka pul mablag'lari jalb qilish tushuniladi.

Banklarning passiv operatsiyalariga quyidagilar kiradi;

- Aksiyalarni emissiya qilish.
- Depozit va jamg'arma sertifikatlarini chiqarish.
- Veksellarni joylashtirish.
- Obligatsiyalarni chiqarish.
- «Trast» operatsiyalarini bajarish va hokazolar.

Depozit va jamg'arma sertifikatlarini sotishdan tushgan arzon pul mablag'ini bankdagi boshqa har xil yo'nalishlarga joylashtiriladi va naqd pul tushumi ko'payadi, buning hisobiga emissiya miqdori kamayadi. Bank o'z operatsiyalarini aylangan muddatga o'rnatilgan qo'shimcha foiz to'lash yo'li bilan va obligatsiyalarini diskont yo'li bilan, ya'ni nominal miqdoridan past miqdorda sotishi mumkin.

Fond birjasi va depozitariylar faoliyati bilan bank tizimining o'zaro hamkorlik darajasi.

Depozitar faoliyati – bu qimmatli qog'ozlar sertifikatlarini saqlash bo'yicha xizmat ko'rsatish yoki qimmatli qog'oz huquqini o'tkazish va hisobini yuritish bo'yicha xizmat ko'rsatish. Depozitariya xizmatidan foydalanuvchi tomon deponent deyiladi. Deponent nomiga qimmatli qog'ozlar xarakatining hisobini yurituvchi depo schyoti ochiladi. Qimmatli qog'ozlar bilan banklararo operatsiyalarni amalga oshirish uchun banklar bir-birlarida depo («loro» va «nostro») schyotlari ochiladi. Depozitar va mijoz o'rtasida ochiq

yoki yopiq saqlash yo‘llari aks ettirilgan shartnoma to‘zilgan bo‘lishi mumkin. Qimmatli qog‘ozlarni ochiq saqlash usuli – bu qimmatli qog‘ozlarga egalik qilish huquqini shunday registratsiya qilish yo‘liki, qaysiki, deponent depozitariyga alohida nishonalarsiz (nomer, razryad, seriya) faqatgina ma‘lum miqdordagi qimmatli qog‘ozga topshiriq berishi mumkin. Saqlashning yopiq usulida depozitariy depo schyotidagi mavjud aniq qimmatli qog‘oz bo‘yicha deponentning barcha topshiriqlarini qabul qilish va bajarishga majbur.

Investitsiya institutlari sifatida yuridik va jismoniy shaxslar katnashshishi mumkin. Yuridik shaxs xisoblangan investitsiya muassasalarining faoliyati litsenziyalanishi lozim. Litsenziyalar 5 yil muddatga beriladi. Investitsiya institutlarining litsenziyalanishi ular faoliyatining davlat tomonidan nazorat kilinishini anglatadi. Jismoniy shaxslar kimmatli kogozlar bozorida investitsiya maslaxatchisi va investitsiya vositachisi sifatida faoliyat ko‘rsatishi mumkin. Ushbu faoliyatni amalga oshirish uchun jismoniy shaxslar maxalliy xokimiyat idoralarida tadbirkorlar sifatida ro‘yxatga olinishi xamda fond bozorini tartibga soluvchi organ tomonidan beriladigan malaka shaxodatnomasiga va litsenziyaga ega bo‘lishi lozim. Malaka shaxodatnomasi 3yil muddatga beriladi.

Iktisodiy munosabatlarning murakkab soxasi xisoblanadigan kimmatli kogozlar bozorini nafakat institutsional va funksional tomonlarini rivojlantirish, balki undagi ishtirokchilar faoliyatini tartiblash, muvofiklashtirish va nazorat kilishning samarali mexanizmini shakllantirish lozim.

1. Bugungi kunda kimmatli kogozlar bozorini samarali muvofiklashtirish jarayonlari kechayotgan Uzbekistondek mamlakat uchun jaxonda umumiy tarzda kabul kilingan andozalarga mos keladigan, jaxon tajribasi bilan chukur ishlab chikilgan, barcha afzalliklarni uziga singdirgan va shu bilan bir vaktida milliy mentalitetni, milliy rivojlanishning uziga xos xususiyatlarini inobatga olgan xolda uz-uzini muvofiklashtirish mexanizmini iqlab chikish zaruratdir. Bu mexanizmnda, jaxon tajribasiga kura, asosiy rolni uz –uzini muvofiklashtiruvchi nodavlat-tijorat tashkilotlar uynaydi. Bu tashkilotlar oldida bir kator echimini kutayotgan muammolar mavjud.

Xozir vujudga kelgan sharoitda Kimmatli kogozlar bozori xamda moliya bozorining boshka vositalari muammolariga yuzaki yondashish xavfi mavjud. Vaxolanki, Garbda mazkur soxa buyicha tuplangan boy amaliy va tarixiy materialni umumlashtiruvchi taxlillovchi bir kator rakobatbardosh nuqtai-nazarlar va nazariyalar yaratilgan. Uzbekiston uchun uziga xos yulni tugri tanlash shuning uchun xam dolzarbki, bu erda me‘yoriy xukukiy ba‘zi vositalar yordamida birlamchi kimmatli kogozlar bozori yaratildi xamda aksiyadorlik jamiyatlarining tuzilishi xususiylashtirishning amalga oshirilishi tufayli bu bozorda xaddan tashkari kup massa jamlandi. Investitsion vositachilar instituti shakllanmokda; unda xususiylashtirish investitsiya fondlari faol ishtirok etmokda. SHunday kilib, shart-sharoit yaratildi, endi gap kimmatli kogozlar bozorining ishlashida koldi, kimmatli kogozlar muomalasi rivojlanishi uchun ikkilamchi kimmatli kogozlar bozorini shakllantirish zarur.

7-mavzu. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari

Reja:

- 1. Banklarning qimmatli qog'ozlar bog'liq operatsiyalarining nazariy asoslari**
- 2. Qimmatli qog'ozlar bog'liq operatsiyalarining banklar faoliyatida tutgan o'rni**
- 3. Banklarning qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq investitsion operatsiyalari**
- 4. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq emission operatsiyalari.**
- 5. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarini amalga oshirishdagi xorij tajribasi.**

1. Banklarning qimmatli qog'ozlar bog'liq operatsiyalarining nazariy asoslari

O'zbekiston Respublikasining qimmatli qog'ozlar bozori modeli tamoyillariga asoslangan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish mamlakat iqtisodiy rivojlanish strategiyasining yaxlit ekanligi xozirgi kundagi haqiqatdir. O'zbekiston Respublikasida qimmatli qog'ozlar bozori bozor iqtisodiyoti tizimining moliyaviy mexanizmi bo'lib, aholi va xo'jalik sub'ektlarini vaqtincha bo'sh mablag'larining aylanishiga keng imkoniyatlar yaratadi. Jumladan, qimmatli qog'ozlarning har bir egalari u fuqaro yoki yuridik shaxs bo'lishidan qat'iy nazar tadbirkorlar harakatiga taaluqli shaxs bo'lib qoladi. Ushbu bozorga kirishda motivatsiya mexanizmlari, turtkilar bo'lib iqtisodiy o'zgarishlar, siyosiy masalalarning xal qilinishi, qimmatli qog'ozlarning kurs qiymati dinamikasi, tijorat banklarini fondlarining miqdori, qimmatli qog'ozlar bo'yicha taklif etilayotgan foydaning miqdorlari xizmat qiladi.

Qator olimlarning tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozoridagi investitsiya faoliyati bo'bozoridagi investitsiya faoliyati vositalarini o'rganib chiqqan va ularni quyidagi ikki sinfga bo'lgan: yicha ilmiy ishlar nashr etilgan. Masalan, Piter Rouz, u banklarning qimmatli qog'ozlar:

1) pul bozori instrumentlari;

2) kapital bozor instrumentlari. U investitsiya faoliyatini asosiy yo'nalishiga veksel va obligatsiyalar jalb qilish taklifini bergan.

O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 27 iyunda qabul qilingan «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi Qonuni 3 – moddasiga muvofiq, «Qimmatli qog'ozlar – hujjatlar bo'lib, ular bu hujjatlarni chiqargan yuridik shaxs bilan ularning egasi o'rtasidagi mulkiy xuquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlaydi, dividendlar yoki foizlar tarzida daromad to'lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga o'tkazish imkoniyatini nazarda tutadi.

Qimmatli qog'ozlarni qiymati O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida ifodalanadi⁴⁹».

Qimmatli qog'ozlar bozori kredit munosabatlari bilan birgalikda, o'z qiymatiga ega bo'lgan, sotish, sotib olish va to'lovini amalga oshirish mumkin bo'lgan maxsus hujjatlar (qimmatli qog'ozlar)ga egalik qilish bilan ham bevosita bog'liq. Qimmatli qog'ozlar o'zida mulkchilik huquqini mujassamlashtirgan bozorda erkin aylanadigan, sotib olish-

⁴⁹ O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi Qonuni. T.: «O'zbekiston»2008 yil 27 iyun

sotish va boshqa bitimlarning ob'ekti bo'ladigan, doimiy va bir martalik daromad olish manbai bo'lib xizmat qiladigan, pul kapitalining bir ko'rinishidagi hujjatdir. Qimmatli qog'ozlar turli sub'ektlar tomonidan chiqarilishi mumkin. Umumiy holda bu emitentlar 5 guruhga bo'linadi:

6. hukumat;
7. davlat korxonalar;
8. xususiy sektor;
9. Markaziy bank;
10. chet el sub'ektlari.

Hammaqimmatli qog'ozlarni davlat, xususiyyoki xalqaro qimmatli qog'ozlarga ajratish mumkin. Xususiy sektor tomonidan chiqarilayotgan qimmatli qog'ozlar tarkibiga turli ishlab chiqarish korxonalar, tijorat banklari, investitsion banklar, investitsion fondlar va boshqalarning qimmatli qog'ozlari alohida o'rin tutadi. Xalqaro qimmatli qog'ozlar ularning hisoblanadigan valyuta va emitentlari bo'yicha bo'linadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng 1993 yil 2 sentyabrda Oliy Kengash tomonidan «qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun qimmatli qog'ozlar bozorini tashkil qilish bo'yicha birinchi va asosiy hujjat bo'ldi. Keyinchalik bu qonunga 5 marotaba qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi (1994 yil 23 sentyabrda, 1995 yil 22 dekabrda, 1999 yil 26 aprelida, 30 avgustida, 27 dekabrda).

Bu qonunga asosan, o'zbekiston Respublikasi xududida quyidagi turdagi qimmatli qog'ozlar chiqarilishi va muomalada bo'lishi mumkin:

7. Aksiyalar;
8. Obligatsiyalar;
9. Xazina majburiyatlari;
10. Depozit sertifikatlari;
11. Veksellar;
12. Qimmatli qog'ozlar hosilalari, ya'ni opsiya va fyucherslar kiradi.

Shu bilan birgalikda, o'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 96 moddasiga binoan qimmatli qog'ozlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

7. Chek.
8. Depozit va jamg'arma sertifikatlari.
9. Bankning taqdim qiluvchiga pul beriladigan jamg'arma daftarchasi.
10. Konosament.
11. Obligatsiyalar.
12. Veksellar.

Qimmatli qog'ozlarning bu turlariga qisqacha ta'rif beramiz⁵⁰:

Aksiya – bu qimmatli qog'oz bo'lib:

- ✓ xarakat muddati cheklanmagan;
- ✓ huquqiy yoki jismoniy shaxs tomonidan Aksionerlik jamiyatiga muayyan hissa qo'shgan ulushini va mazkur jamiyat mulkidagi ishtirokini guvohlovchi;

⁵⁰Sh. Z. Abdullayeva «Bank ishi» Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2010 y 171-175-betlar

✓ aksiya bo'yicha dividend ko'rinishida foyda olish huquqini beruvchi aksiyadorning shu jamiyat boshqarish ishiga qatnasha olishini tasdiqlovchi yuridik hujjatdir.

Obligatsiya – bu «Obligo» – lotin tilida «qarz olish» mazmunini bildiradi. Emitentga obligatsiya egasi tomonidan ma'lum bir pul mablag'ini kiritganligi va unda ko'rsatilgan muddatda nominal qiymatini hamda qo'shimcha foiz to'lab berish majburiyatini guvohlovchi qimmatli qog'ozdir. Obligatsiya uning egasiga emitentning ishini boshqarishda qatnashish huquqini bermaydi.

Xazina majburiyatlari – uning egasi tomonidan ma'lum bir pul mablag'ini byudjetga kiritganligi va uning butun aylanish davrida aniq chegaralangan foizni to'lab berish majburiyatini guvohlovchi qimmatli qog'ozdir.

Depozit sertifikatlari - bu jamg'armachining bankka qo'ygan pul mablag'ini ifodalovchi va muomala muddati to'gaganidan keyin qo'ygan pul mablag'ini hamda foyda sifatida ustama foizini huquq va imkoniyatini beruvchi qimmatli qog'ozdir. Depozit sertifikati bank tomonidan beriladi.

Veksel - qarz majburiyati bo'lib, veksel beruvchining ushbu vekselni ko'rsatilgan muddatda taqdim etganda, veksel ushlovchiga uning nominal qiymatini to'lab berish guvohini beruvchi qimmatli qog'oz va to'lov vositasidir.

Qimmatli qog'ozlar hosilalari – bular shunday qimmatli qog'ozlarki, ularning foydasi yoki zarari bir nechta bozor ko'rsatkichlari bilan, ya'ni bozor indekslari bilan bog'liqdir. Qimmatli qog'ozlar xosilalari – «opsion» yoki «fyucherslar» ko'rinishida bo'ladi.

Konosament – yuk tashuvchi tomonidan yuk egasiga, yukni dengiz orqali olib o'tishga qabul qilinganligini guvohlovchi va yuk qabul qiluvchiga yukni etib borish portida taqdim qilish majburiyatini tasdiqlab beruvchi hujjatdir.

Mamlakatimiz hududida muomalaga chiqarilishi mumkin bo'lgan qimmatli qog'ozlarni mulkchilikka munosabatiga (ulushli), qarz munosabatiga qarab va qimmatli qog'ozlarning hosilalariga bo'lish mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, qimmatli qog'ozlar puldan farqli o'z xususiyatlariga ega. Bu xususiyatlar quyidagilar:

1. Likvidlik (samaradorlik);
2. Foydalilik;
3. Ishonchlilik darajasi;
4. Kapitalni oshirish manbai;
5. Risk (qaltislik)


Shuni ta'kidlash lozimki, qimmatli qog'ozlar ichida faqatgina aksiyalar ulushli qimmatli qog'ozlarning tarkibiga kiradi. Uning qolgan turlari hisoblangan obligatsiyalar, g'azna majburiyatlari, deposit sertifikatlari va veksel qarz majburiyatli qimmatli qog'ozlar tarkibiga kiradi. Qimmatli qog'ozlarning hosilalariga esa opsion, fyuchers va varrant kiradi.



1-rasm.
Qimmatli qog'ozlarning tasnifi⁵¹

Yuqoridagi rasmdan

ko'rinadiki ulushli qimmatli qog'ozlar faqatgina bittani tshkil qiladi. Qarz majburiyatli qimmatli qog'ozlar esa bir nechtni tashkil etadi. Bu qimmatli qog'ozlarni o'z harakati mavjud. Bu esa quyidagichadir:



2-rasm. Qimmatli qog'ozlarning harakati bo'yicha tasnifi⁵²

Yuqoridagi rasmdan ko'rinib turibdiki, qimmatli qog'ozlar o'zlarining muomalada bo'lishi shakliga asosan nomi yozilgan va egasiga taqdim etiluvchi turlarga ajratiladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, qimmatli qog'ozlar puldan farqli o'z xususiyatlariga ega. Bu xususiyatlar quyidagilar:

1. Likvidlik (samaradorlik);
2. Foydalilik;
3. Ishonchlilik darajasi;


⁵¹Sh. Z. Abdullayeva «Bankishi» Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2010 yma'lumotlari asosida tayyorlangan

⁵²Sh. Z. Abdullayeva «Bankishi» Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2010 yma'lumotlari asosida tayyorlangan

4. Kapitalni oshirish manbai;

5. Risk (qaltislik)

Bizga ma'lumki yuqorida keltirilgan qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar juda katta qismni o'z ichiga oladi. Va shu bilan birgalikda juda katta qatlamni o'z ishtirokchisi qilib oladi. Misol uchun biz bularga quyidagilarni aytib o'tishimiz mumkin: birinchi navbatda jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va keyingi navbatda davlat, banklar, fond birjalari va chet el davlatlari, xalqaro tashkilotlarni aytishimiz mumkin.



3-rasm. Moliya bozori ishtirokchilari⁵³.

Fond birjasi - qimmatli qog'ozlar bilan oldi-sotdisi o'tkaziladigan joy.

Fond birjasidagi qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni shartli ravishda 3 turga bo'lish mumkin:

- ✓ brokerlik operatsiyalari;
- ✓ dillerlik operatsiyalari;
- ✓ market-meykerlik.

Brokerlik operatsiyalari – mijozning topshirig'iga asosan va uning pul mablag'lari evaziga amalga oshiriladigan operatsiyalar.

Dillerlik operatsiyalari – tashkilot o'z nomidan va o'z pul mablag'i evaziga amalga oshiriladigan operatsiyalar.

Market-meykerlik fond bozorida emitentlarga ko'rsatiladigan xizmat turi. Bu xizmatlarga quyidagilar kiradi:

- ✚ Sotib olish va sotish kotirovkalarini bir maromda ushlab turish;
- ✚ Aksiyalar likvidligini ushlab turish;
- ✚ Moliyaviy maslahatlar;
- ✚ Aksiyalarni emissiyaga va bozorga taklif qilishda boshqarish;
- ✚ Maqsadli sotib olish yo'li bilan aksiyalarga sun'iy talabni tashkil etish;
- ✚ Emitentning aksiyalarini sotib oladigan jiddiy investorlarini jalb qilish.

Qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilari — qimmatli qog'ozlarning emitentlari, qimmatli qog'ozlarning egalari, investorlar, qimmatli qog'ozlar bozorining professional

⁵³Sh. Z. Abdullayeva «Bankishi» Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2010yma'lumotlari asosida tayyorlangan

ishtirokchilari, shuningdek birjalar va Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariylarini kiritishimiz mumkin⁵⁴.

Qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisi — qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs⁵⁵.

Qimmatli qog'ozlar muomalada bo'lish xududiga ko'ra regional (mahalliy), milliy va xalqaro qimmatli qog'ozlarga bo'linadi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyat qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan beriladigan litsenziya asosida amalga oshiriladi, qonun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno.

Qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyat quyidagilar sifatida amalga oshiriladi:

- investitsiya vositachisi;
- investitsiya maslahatchisi;
- investitsiya fondi;
- investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchi;
- transfer-agent;
- qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari savdosi tashkilotchisi.

Qimmatli qog'ozlar bozori mutaxassisining malaka guvohnomasi bo'lgan kamida ikki xodimga ega yuridik shaxslargina (investitsiya fondi bundan mustasno) qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari bo'lishi mumkin. Qimmatli qog'ozlar bozori mutaxassisining malaka guvohnomasi besh yil muddatga beriladi. Qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarning tashkil etilishi, faoliyati, qayta tashkil etilishi va tugatilishi tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Investitsiya fondining faoliyati boshqa turdagi faoliyat bilan birga qo'shib olib borilishi mumkin emas.

Transfer-agent investitsiya vositachisining va qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchisining professional faoliyatini amalga oshirishga haqli emas.

Mijozning topshirig'iga binoan, mijoz nomidan va uning hisobidan qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar hamda operatsiyalarni amalga oshiruvchi qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisi investitsiya vositachisidir.

Investitsiya vositachisi mijozlarining qimmatli qog'ozlari va pul mablag'lari, agar qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, investitsiya vositachisining o'z hisobvaraqlaridan alohida hisobvaraqlarda turishi kerak.

Investitsiya vositachisi har bir mijozning qimmatli qog'ozlari va pul mablag'lari hisobini yuritishi, qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar va operatsiyalarni mijoz bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshirishi, tuzilgan bitimlar va amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risida unga hisobot berishi shart.

Investitsiya vositachisi depozitar operatsiyalarni amalga oshirayotganda⁵⁶:

⁵⁴O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar bozorito'g'risida»gi Qonuni. T.: «O'zbekiston»2008 yil 27 iyun

⁵⁵O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar bozorito'g'risida»gi Qonuni. T.: «O'zbekiston»2008 yil 27 iyun

⁵⁶ «Qimmatli qog'ozlar bozorito'g'risida» (yangitahriri) O'zbekiston Respublikasining Qonuni 27-modda

▪manfaatdor shaxslarning qimmatli qog'ozlarni va pul mablag'larini hisobga olish qoidalari bilan tanishib chiqish imkoniyatini ta'minlashi;

▪deponentlarning har biriga tegishli qimmatli qog'ozlarning soni va nominal qiymati hisobini yuritishi;

▪qimmatli qog'ozlarga majburiyatlar yuklatilganligi, shuningdek ularning tugatilganligi faktlari hisobini yuritishi;

▪qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar tuzish va mijozlarning hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalar bajarish uchun asos bo'lgan birlamchi hujjatlarni idoraviy arxivda saqlashi;

▪depo hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni deponentlarning yoki ular vakil qilgan shaxslarning yozma topshiriqlari asosida amalga oshirishi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

▪deponentning qimmatli qog'ozlarga bo'lgan mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarini uning depo hisobvarag'idan tegishli ko'chirma bergan holda tasdiqlashi;

▪mijozlarning hisobvaraqlaridagi qimmatli qog'ozlar va pul mablag'larining mavjudligi va harakati, ularning holati to'g'risidagi axborotning maxfiyligini ta'minlashi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

▪depo hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarni qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining, monopoliyaga qarshi davlat organining, shuningdek sudning, surishtiruv va tergov organlarining qarorlari asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'xtatib turishi;

▪o'z faoliyatiga taalluqli ma'lumotlarni qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining, davlat soliq xizmati organining, monopoliyaga qarshi davlat organining, shuningdek sudning, surishtiruv va tergov organlarining yozma talablariga ko'ra qonun hujjatlarida belgilangan doirada va tartibda taqdim etishi;

▪o'zi yetkazgan zararining o'rnini ushbu Qonunning 23-moddasiga muvofiq kafolat fondini shakllantirishda ishtirok etish, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikni sug'urta qilish yo'li bilan qoplash imkoniyatini nazarda tutishi;

▪qimmatli qog'ozlar egalarining reyestrini shakllantirish uchun zarur bo'lgan qimmatli qog'ozlarning egalari to'g'risidagi ma'lumotlarni Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysining talabiga ko'ra taqdim etishi;

▪o'zida hisobga olinadigan qimmatli qog'ozlar va ularning emitentlari rekvizitlariga Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysidan olingan ma'lumotlar asosida o'zgartirishlar kiritishi shart.

Investitsiya vositachisining zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Investitsiya vositachisi tomonidan mijozlarning pul mablag'larini hisobga olish va ularning but saqlanishini ta'minlash tartibi qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

Investitsiya maslahatchisining faoliyati. Qimmatli qog'ozlarni chiqarish, joylashtirish va ularning muomalasi masalalari, qimmatli qog'ozlar bozori va uning ishtirokchilari holatini tahlil etish hamda istiqbolini belgilash bo'yicha maslahat xizmatlari ko'rsatuvchi,

shuningdek qimmatli qog'ozlar bozori mutaxassislarini qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi yuridik shaxs investitsiya maslahatchisidir⁵⁷.

Investorlarning pul mablag'larini va qo'yilmalarini investitsiya aktivlariga jalb qilish maqsadida aksiyalar chiqaradigan yuridik shaxs — aksiyadorlik jamiyati investitsiya fondidir.

Qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olish tizimiga taalluqli hujjatlarning qabul qilinishi, ularga ishlov berilishi va ularning o'tkazilishi bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxs transfer-agentdir. Emitent, shuningdek qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar tuzuvchi shaxslar transfer-agentning mijozlaridir. Transfer-agent emitentga aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini tashkil etish va o'tkazish yuzasidan xizmatlar ko'rsatishga haqlidir⁵⁸.

Mijozlar hisobidan bitimlar tuzish mijozlar bilan tuzilgan shartnomalar asosida faqat investitsiya vositachisi va investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchi tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Investitsiya vositachisi uzaytirish imkoniyati bilan bir yil uchun tuziladigan shartnoma asosida mijozlarga:

- mijozning nomidan va hisobidan brokerlik xizmatlari;
- o'z nomidan, lekin mijozning hisobidan brokerlik xizmatlari;
- depozitar xizmatlar ko'rsatadi.

Investitsiya vositachisi mijozlarga depo hisobvaraqlari ochishga, qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish uchun ularning topshiriqlarini qabul qilishga, shuningdek qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi hamda axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalar sohasidagi maxsus vakolatli organ tomonidan belgilangan tartibda mijozlarga elektron shaklda va o'zga aloqa vositalari orqali boshqa xizmatlarni ko'rsatishga haqli⁵⁹.

Kiritilganulushshaklidanqat'iynezar,
qimmatliqog'ozlarningqiyamatiO'zbekistonRespublikasimilliypulbirligi «so'm»da,
ularnichiqarishshartlaridanazardatutilganhollardaesa — chetelvalyutasida
(aksiyalarbo'yicha – mulknio'tkazibberishyo'libilanham) ifodalanadivato'lanadi.

Umuman olganda qimmatli qog'ozlar moliya instrumentlarining tasnif belgilari asosida tasniflanadi. Lekin qimmatli qog'ozlarning ma'lum mazmun va hususiyatlari ularni qo'shimcha tarzda alohida tasniflashni taqazo etadi.

Qimmatli qog'ozlarning hisobi mahsus depozitariylarda va (yoki) reestrlarda yuritiladi. Orderli qimmatli qog'ozlarning qo'ldan qo'lga o'tishi indossament asosida indossant tomonidan amalga oshiriladi. Taqdim etuvchiga bo'lgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha xuquq indentifikatsiya qilinmaydi.

2.Qimmatli qog'ozlar bog'liq operatsiyalarining banklar faoliyatida tutgan o'rni

Respublikada qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish yuzasidan qabul qilinayotgan qonunlar, farmonlar va qarorlar, bozor ishtirokchilari faoliyatini, o'tkaziladigan operatsiyalarni kengaytirish asosi hisoblanadi.

⁵⁷ «Qimmatliqog'ozlarbozorito'g'risida» (yangitahriri)O'zbekistonRespublikasiningQonuni28-modda

¹⁰ «Qimmatliqog'ozlarbozorito'g'risida» (yangitahriri)O'zbekistonRespublikasiningQonuni 31-modda

⁵⁹ «Qimmatliqog'ozlarbozorito'g'risida» (yangitahriri)O'zbekistonRespublikasiningQonuni 35-modda

Prezidentimiz “ bugungi kunda bank tizimini isloh qilish borasida eng muhim vazifalar – banklarning o‘z ustav kapitalini ko‘paytirish, aholi, tadbirkorlik sub’ektlari va sarmoya kiritish mumkin bo‘lgan investorlar, shu jumladan, xorijiy investitsiyalarning bo‘sh pul mablag‘larini jalb qilish uchun aksiyalar chiqarish va ularni fond bozorlarida faol joylashtirish kabi kompleks choralarni amalga oshirishdan iborat bo‘lmog‘i lozim...” deb ta’kidlab o‘tganligi bejiz emas⁶⁰.

Banklar qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq faoliyati turlarini amalga oshirishlari uchun quyidagi qonunchilikka muvofiq amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Qimmatli qog‘ozlar bozorining faoliyat yuritishi mexanizmi to‘g‘risida”gi va boshqa qonunchilik xo‘jjatlariga muvofiq holda amalga oshiriladi.

Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar quyilmalariga nisbatan xukumatimiz va Markaziy bank tomonidan O‘zbekiston Respublikasi cheklov va talablar o‘rnatilgan bo‘lib, bundan ko‘zlangan asosiy maqsad, tijorat banklarining likvidligini va to‘lovga layoqatligining borqaror holatini saqlab turish hamda mijozlar oldidagi majburiyatlarni o‘z vaqtida bajarilishini ta‘minlash hisoblanadi.

Bular quyidagilardan iborat:

1. Bankning bir korxonaga ustav kapitaliga, shuningdek, shu korxonaning boshqa qimmatli qog‘ozlariga quyilmalari miqdori birinchi darajali bank regulyativ kapitalining 15 foizidan oshmasligi kerak;

2. Bankning barcha emitentlar ustav kapitali va boshqa qimmatli qog‘ozlariga investitsiyalari miqdori birinchi darajali bank regulyativ kapitalining 15% dan oshmasligi kerak;

3. Bankning oldi – sotdi uchun nodavlat qimmatli qog‘ozlarga quyilmalari birinchi darajali bank regulyativ kapitalining 25 % dan oshmasligi lozim;

4. Banklar to‘g‘ridan – to‘g‘ri, bevosita va bilvosita korxonalar (moliyaviy muassasalar va xususiy lashtiriladigan korxonalardan tashqari) ustav kapitalining 20 % dan ortiq qismiga ega bo‘lishi mumkin emas.

Yuqorida keltirilgan banklar tomonidan qimmatli qog‘ozlarga quyilmalarni amalga oshirishlariga doir cheklovlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1998 yil 19 dekabrda ro‘yxatga olingan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tasdiqlangan “Tijorat banklar tomonidan qimmatli qog‘ozlar bilan o‘tkaziladigan operatsiyalariga quyiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizomda aniq belgilab quyilgan. Mazkur Nizom talablariga mamlakatimiz iqtisodiyotida olib borilayotgan chuqur islohotlar natijasida xukumat tomonidan qabul qilinayotgan qaror va farmonlar bilan o‘zgartirishlar kirilgan.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 15 apreldagi PQ – 56–sonli “Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori e‘lon qilindi. Mazkur qarorga asosan, tijorat banklarining xususiy lashtirish jarayonlaridagi ishtirokini kengaytirish uchun tijorat banklariga qimmatli qog‘ozlarning birlamchi bozorida qatnashishlariga hamda xususiy lashtiriladigan korxonalar

⁶⁰Karimov I.A. “Demokratik huquqiy davlat, erkiniqtisodiyot talablarini to‘liq joriy etish, fuqarolik jamiyatiasoslarini qurish – farovon hayotimiz garovidir” - T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2007. 43 b.

aksiyalarining 50 foizigacha miqdorini sotib olishgaruxsat berildi. Bunday imtiyozning joriy etilishi tijorat banklarining yirik mulkdorgaaylanishiga va bankning kelgusi daromadlarini oshirishga imkoniyat yaratadi.

Shuningdek, tijorat banklarining aksiyalari bo'yicha jismoniy shaxslarning dividend tarzida olgan daromadlari 2010 yilning 1 yanvariga qadar soliqqa tortishdan ozod qilingan edi. Bu o'z navbatida tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozorida ham investor, ham emitent sifatida faol ishtirok etishiga va boshqa xizmat turlarini (investitsiya vositachisi, investitsiya aktivlarini boshqaruvchi va investitsiya maslaxatchisi) taklif etishini rag'batlantiradi.

Shuningdek, ushbu qarorga asosan, 2008 yilning 1 yanvaridan boshlab 3 yil muddatga yuridik shaxslarning tijorat banklarining depozitlariga va qarz qimmatli qog'ozlariga 1 yildan ortiq muddatga joylashtirishdan olingan foizli daromadlari soliqqa tortishdan ozod etildi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining investitsiya faoliyatini takomillashtirish, ularning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini yanada rivojlantirish, qimmatli qog'ozlar portfelini samarali shakllantirishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 27 sentyabrdagi PQ-475-sonli "Qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori e'lon qilindi. Mazkur Qaror bilan tasdiqlangan "2006-2007yillarda qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish dasturi"ga muvofiq, institutsional investorlarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi professional faoliyati standartlarini belgilab beruvchi talablar va institutsional investorlar tomonidan korporativ qimmatli qog'ozlarga qilinadigan investitsiyalarning sifati va minimal darajasiga o'rnatilgan talablar to'g'risidagi Nizomlarning ishlab chiqilishi belgilab berilgan. Ushbu nizomlarning ishlab chiqilishi va joriy etilishi, tabiiyki, tijorat banklarining faoliyatigaham tadbiriq etiladi. Chunki, jahon moliya bozorida qabul qilingan qoida ko'ra, qimmatli qog'ozlar bozorida institutsional investor sifatida investitsiya kompaniyalari, boshqaruv kompaniyalari, investitsiya fondlari, sug'urta kompaniyalari va tijorat banklari bo'lishi mumkin. Yuqorida aytilgan asosiy qonunlarga qo'shimcha ravishda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 26.04.1996 yildagi 211 sonli "Tijorat banklarida qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalar bo'yicha tavsiyalar", O'ZR Adliyavazirligida 571 sonli 19.12.1998 yildagi ro'yxatga olingan "Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar bajarishiga doir talablar to'g'risida nizom", O'ZR Adliyavazirligida 1216 sonli 12.02.2003 yildagi ro'yxatga olingan "Tijorat banklari qimmatli qog'ozlarni chiqarishi, davlat ro'yxatidan o'tkazishi, so'ndirishi tartibi to'g'risidagi nizom", O'ZR Adliya vazirligida 522 sonli 09.11.1998 yildagi ro'yxatga olingan "Banklarning depozit sertifikatlarini chiqarish, ro'yxatga olish va ular muomalada bo'lishi qoidalari", "Bo'sh pul mablag'larini bank aylanmasiga jalb etish va bank tizimini yanada rivojlantirish" bo'yicha 7.11.2007 yildagi PP-726 sonli prezident qaroriva boshqa me'yoriy hujjatlarga asosan tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq faoliyatini amalga oshiriladi. Bu me'yoriy hujjatlarga asosan Qimmatli qog'ozlar chiqarilishini davlat ro'yxatiga olishni rad etish, qimmatli qog'ozlarni joylashtirishni va muomilasini to'xtatish, chiqarilishini amalga oshmagan deb tan olish va qimmatli

qog'ozlar chiqarilishining davlat ro'yxatiga olinganini bekor qilishi quyidagilar asos bo'lishi mumkin:

a) taqdim etilgan hujjatlarda qimmatli qog'ozlar chiqarilishi amaldagi qonunchilikka zid kelishi to'g'risidagi ma'lumotlar mavjudligi;

b) taqdim qilingan hujjatlarda mavjud bo'lgan ma'lumotlarning amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq emasligi;

c) v) taqdim etilgan hujjatlar tarkibida ko'rsatilgan hujjatlardan birortasiniing bo'lmasligi.

Qimmatli qog'ozlar chiqarilishni ro'yxatga olishni rad etish uchun boshqa asoslarga ro'xsat etilmaydi. Qimmatli qog'ozlar chiqarilishini ro'yxatga olishni rad etilgani to'g'risidagi xabar ro'yxatga oluvchi tomonidan banka yozma ravishda tegishli sabablari ko'rsatilgan holda yetkaziladi. Ro'yxatga olish uchun taqdim etilgan hujjatlar yoki ulardagi ma'lumotlar qonunchilik talablariga mos yoki tuluq bo'lmagan holda, ular ruyxatga olish organ ko'rsatgan kamchiliklar bartaraf etilgandan so'ng takroran taqdim etilishi mumkin. Bank qimmatli qog'ozlar chiqarilishi to'g'risidagi qarorini bekor qilganligi xaqida ro'yxatga oluvchi organni xabardor qilishi yoki tuzilgan va qayta ishlangan xo'jjatlarni taqdim etishi shart. Bank tomonidan qimmatli qog'ozlar chiqarilishi va ro'yxatga olishning belgilangan tartibi bo'zilganda, qimmatli qog'ozlar chiqarilishining ruyxatga olinishi qonunbuzarliklar bartaraf etilganidan keyin va iqdisodiy jarimalar, agar ular qullanilgan bo'lsa, tulangandan keyin amalga oshiriladi. Mamlakatimizda mavjud qonun hujjatlariga asosan Qimmatli qog'ozlar chiqarilishini to'xtatish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

a) qimmatli qog'ozlar chiqarilishini ro'yxatga olingan risolasiga muvofiq emasligi aniqlanganda;

b) chiqarilish xajmi ro'yxatga olingandan oshib ketganda;

c) v) bank tomonidan ruyxatga oluvchi organning qonuniy talablari belgilangan muddatlarda bajarilmaganda;

d) g) bank faoliyatini amalga oshirishga berilgan Markaziy bank litsenziyasi chiqarib olinganda;

e) qimmatli qog'ozlar joylashtirilishini to'xtatish to'g'risida Markaziy bankning qarori, lekin olti oydan ortiq bo'lmagan muddatga.

Qimmatli qog'ozlar chiqarilishini to'xtatish quyidagilarni anglatadi:

a) Banka qimmatli qog'ozlar chiqarilishini mazkur chiqarilishini joylashtirilishini vaqtinchalik taqiqlash;

b) Qimmatli qog'ozlarning mazkur chiqarilishini joylashtirish bo'yicha reklama foliyatini to'xtatish.

Qimmatli qog'ozlar emissiyasini to'xtatish uchun asoslar aniqlangan holda, asos aniqlangan vaqtdan 3 ish kunidan kechiktirmay ro'yxatga oluvchi organ qimmatli qog'ozlarni joylashtirishni to'xtatish to'g'risida qaror qabul qiladi va bir vaqtning o'zida kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risida ko'rsatma chiqaradi hamda qaror qabul qilingan kundan 2 ish kunidan kechiktirmay qaror nusxasini bankka, Markaziy depoziitariyaga va Markaziy banka yuboradi. Bank kamchiliklar bartaraf qilinishi to'g'risidagi tegishli ko'rsatmani olgan vaqtdan boshlab qimmatli qog'ozlarni joylashtirishni to'xtatish va

ro'yxatga oluvchi organ tomonidan aniqlangan kamchiliklarni belgilangan muddatlarda bartaraf etishi shart. Qimmatli qog'ozlar joylashtirishni qaytadan boshlash, ro'yxatga oluvchi organning tegishli ko'rsatmasi bilan belgilangan muddatlarda taqdim qilingan kamchiliklarni bartaraf qilish to'g'risidagi hisobotni (tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilib) ko'rib chiqish natijalariga ko'ra qabul qilgan qarori asosida amalga oshiradi. Ro'yxatga oluvchi organ qimmatli qog'ozlar emissiyasini qo'ydagi xollarda amalga oshmagan deb tan olish xuquqiga ega:

✓ bank tomonidan qimmatli qog'ozlar emissiyasini to'xtatish uchun asos bo'lib xizmat qilgan kamchiliklarni tuzatish bo'yicha talablar bajarilmaganda;

✓ qimmatli qog'ozlar chiqarilishi to'g'risidagi qarorida ko'zda tutilgan ular joylashtirilmaganda amalga oshmagan deb tan olinadigan qismi joylatirilmay qolgan taqdirda chiqarilishning birorta qimmatli qog'ozi ham joylashtirilmagan.

Banklar qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni Markaziy bank tomonidan beriladigan umumiy litsenziya asosida amalga oshirishlari mumkin. Litsenziyada ko'rsatilgan, banklar tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalar ro'yxatida qimmatli qog'ozlar bilan olib boriladigan faoliyat maxsus qayd etilgan bo'lishi kerak. Banklar qimmatli qog'ozlar bilan faoliyatini amalga oshirish uchun quyidagi ma'lumotlarni ko'rsatishi lozim:

a) qimmatli qog'ozlar bilan rejalashtirilayotgan faoliyatning batafsil tavsifi, ushbu faoliyatni amalga oshirishda bank qanday siyosat olib borishi va qanday tadbirlardan foydalanmoqchi ekanligi;

b) bankning ushbu faoliyatni amalga oshirishi natijasida olinishi ko'zda tutilayotgan foydaning taxminiy miqdori (foizlar hisobida);

v) bunday faoliyat ustidan o'rnatiladigan ichki nazorat turlari va unga qo'yiladigan talablar;

g) qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshiradigan shaxslar uchun bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish va cheklashlar bo'yicha vakolatlar;

d) qimmatli qog'ozlar bilan bitimlarni amalga oshiradigan shaxslarga qo'yiladigan malakaviy talablar;

e) bankning ichki hisob yuritish va hisobot tuzish ishlariga rahbarlik qilish;

j) qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar monitoringi bo'yicha axborotlashtirish tizimiga qo'yiladigan talablar.

Respublika tijorat banklari bir holda o'z tarkibiy tuzilmalarida qimmatli qog'ozlar bo'yicha fond bo'limlari yoki boshqarmalariga egadirlar, ular fond qimmatliklari bilan amalga oshirish mumkin bo'lgan turlicha operatsiyalarni – bankning o'z qimmatli qog'ozlari emissiyasini tashkil etishdan tortib investitsiya muassasalariga xos bo'lgan barcha operatsiyalar majmuini bajaradi. Bunda fond bo'limlari bevosita bank operatsiyalarini qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarni uygunlashtirishi (masalan, veksellar hisobini yuritish), shuningdek, investitsiya muassasalari uchun xos bo'lgan operatsiyalar bilan birga amalga oshirishi mumkin.

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini shartli ravishda uchta: emissiya, investitsiya va vositachilikyunalishiga ajratish mumkin.

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozorida faol ishtirokini shu bilan izohlash mumkin, bugungi kunda ular sarmoya miqdori likvidlik va barqarorlik bo'yicha yagona raqobatbardosh investorlar hisoblanadi. Ular vositachilik faoliyatini olib borgan holda boshqa iqtisodiy agentlarga nisbatan ko'proq imkoniyatlarga ega bo'ladi. Banklarning yana bir ustunligi shundaki, ular iqtisodiy xatar, bozordagi ahvolni malakali tahlil qilishi mumkin. Bozor iqtisodiyotiga utish moliyaviy resurslarning fond bozorida tijorat banklarining faol ishtirokida taqsimlanishi va qayta taqsimlanishini ko'zda tutadi.

O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunga muvofiq tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozorida qo'yidagi operatsiyalarni amalga oshirishiga ruxsat etilgan:

- qimmatli qog'ozlar (veksel, aksiya, oligasiyalar, depozit sertifikatlar va boshqalar) chiqarish;

- qimmatli qog'ozlarni sotib olish, sotish, saqlash ular bilan boshqa operatsiyalarni amalga oshirish;

- tovar yetkazib berish va xizmat ko'rsatishdan kelib chiqadigan talab huquqini olish, bundan talablarni inkassasiya qilish;

- mijozlar ishonib topshirgan operatsiyalarni: mablag'larni jalb etish va joylashtirish, qimmatli qog'ozlarni boshqarish va hokazo ishlarni bajarish;

- fond bozori ishtiroqchilarga bu boradagi bank faoliyati yuzasidan maslahatlar berish.

Bank siyosati bir yo'la ko'plab maqsadlarni kuzlagan holda yuritiladi. Banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyatdan asosiy maqsadlari qo'yidagilardan iboratdir.⁶¹

1. qimmatli qog'ozlar chiqarish asosida an'anaviy kredit va hisob-kitob faoliyati yuritish uchun qo'shimcha pul resurslari jalb etish;

2. qimmatli qog'ozlarga sarflangan o'z investitsiyalaridan bankka to'lanadigan foiz va dividendlar evaziga va qimmatli qog'ozlarning kurs qiymati oshishi tufayli foyda olish;

3. mijozlarga qimmatli qog'ozlar operatsiyalariga doir xizmatlar ko'rsatishdan foyda olish;

4. erkin raqobat asosida bankning ta'sir sohasini kengaytirish hamda korxonalar va tashkilotlarning kapitallarida qatnashish evaziga yangi mijozlarni jalb etish;

5. tanqis resurslardan bahramand bo'lish huquqini beradigan va bankniki bo'ladigan qimmatli qog'ozlar orqali shunday resurslardan foydalanish;

6. bankning likvidlik mablag'lariga qo'yilmalarning daromadligini ta'minlagan holda likvidlik zaruriy zaxirasini saqlab borish;

7. mijozlarning qimmatli qog'ozlarni me'yorida olib sotishdan hamda moliyaviy

8. tavakkalchiliklarini qimmatli qog'ozlar hosilalari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar orqali sug'urta qilish.

Qonunlarda tijorat banklariga aksiyalar, obligatsiyalar, depozit sertifikatlar va jamg'arma sertifikatlar, veksellar kabi qimmatli qog'ozlar turlarini chiqarishga ruxsat beriladi. Banklar aksiyalarni ustav fondlarini shakllantirish maqsadida chiqaradi.

Yuqorida sanab o'tilgan faoliyat turlarini amalga oshirish borasida tijorat banklari uchun cheklashlar yo'qligi uchun ular fond bozorida professional

qatnashchi investitsion institut sifatida ish tutadi. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyati olingan umumiy bank litsenziyasi dorasida amalga oshiriladi. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarga oid operatsiyalarni amalga oshiradigan mutaxassislariga nisbatan birgina cheklash bor.


O'z moliyaviy barqarorligini oshirish maqsadida, tijorat banklar O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorida ham eng yirik brokerlar va dilerlar sifatida ish yuritadi. O'zbekistonda ko'p tijorat banklari o'z mablag'larini turli xildagi moliyaviy dastaklarga qo'yish yo'li bilan qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantiradilar. Bunda bank portfelni yuqori likvidli va yuqori daromadli fondlardan shakllantirib, aniq investitsiya siyosatni ishlab chiqadi. Bank tomonidan o'z hisobiga amalga oshiriladigan fond qimmatli qog'ozlari bilan dilerlik operatsiyalari keng tarqalgan bo'lib, ularning maqsadi – qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish bahosidagi farqdan foyda olishdir.

Agarda tijorat banki brokerlik faoliyatini amalga oshirayotgan bo'lsa, O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra, uning operatsiyalari fond birjasi orqali amalga oshirilishi lozim. Buni hisobga olib, tijorat banklarining brokerlik funksiyasi brokerlik idoralari tarmog'i orqali amalga oshiriladi.

Qimmatli qog'ozlari bilan operatsiyalarning afzalliklarini tushungan holda, O'zbekiston tijorat banklari birinchilar qatorida qimmatli qog'ozlarni milliy bozorini shakllantirish portfeliga qo'shildilar. O'zbekiston fond bozorida birinchi bo'lib tijorat banklarining aksiyalari «Toshkent» Respublika fond birjasida 1994 yilda paydo bo'lgani tasodif emas.

Moliya bozorida ishtirok etuvchi kredit tashkilotlari bank boshqaruvining umumiy shartlariga bo'ysungan holda axborotlarni sir saqlaydi.


Banklar moliya bozori ya'ni qimmatli qog'ozlar bozorida ishtirok etish davrida fond birjalari bilan tengma teng ravishda faoliyat olib bormoqda. Va buni amalga oshirish jarayonida bir qancha operatsiyalarni amalga oshirib keladi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tsak bo'ladiki umuman olganda banklar quyidagi operatsiyalarni amalga oshiradi buni esa



quyidagi rasmlarda ko'rishimiz mumkin.

4-rasm. Banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyati⁶²

Bizga ma'lum hozirgi kundagi O'zbekiston Respublikasidagi barcha banklar universal banklar hisoblanadi. Bu banklar birgina qimmatli qog'ozlar bo'yicha bir qancha operatsiyalarni bajarishga qodir. Shu bilan birgalikda banklar bir vaqtning o'zida ham emitent, ham vositachi, ham investr sifatida moliya bozorida ishtirok etadi.



5-rasm Banklarning qimmatli qog'ozlar bo'yicha operatsiyalari⁶³

Qayd etib o'tilganidek, qimmatli qog'ozlar bozorining barcha qatnashchilari orasida banklar shu bilan farqlanadiki, ular bir vaqtning o'zida fond bozorining qonunchilik bilan ruxsat berilgan deyarli barcha moliyaviy vositalarida: aksiya, obligatsiya, depozit sertifikatlar va veksellarda emitentlar sifatida qatnashishi mumkin.

Har bir bank emissiya siyosati (qimmatli qog'ozlarni chiqarish) to'g'risida ishlab chiqilgan va Bank kengashi tomonidan tasdiqlangan Nizomiga ega bo'lishi kerak, unda majburiy tartibda quyidagi masalalar aks ettirilgan bo'lishi lozim:

- 1) bank emissiya faoliyatining strategiyasi va maqsadlari (ustav kapitalini shakllantirish, likvidlikni qo'llab-quvvatlash, qarz mablag'larini jalb etish);
- 2) bank tomonidan chiqarilishi rejalashtirilayotgan qimmatli qog'ozlar turi va xillari, emissiya muddatlari;
- 3) qimmatli qog'ozlar likvidligi va aylanishini qo'llab-quvvatlash;
- 4) qarz majburiyatlarining o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash.

Investitsion va moliyaviy maslahat berish. Banklar ko'p sonli mijozlariga ega bo'lib, ularga nafaqat kredit-hisob-kitob xizmati ko'rsatadi, balki ularga chet el sarmoyadorini tanlash, sarmoyadorlarga investitsiya ob'ektlarini tanlash bilan bogliq bo'lgan investitsion konsalting sohasidagi xizmatlar ko'rsatishni ham amalga oshiradi. Bunda banklar texnik-

⁶²Sh. Z. Abdullayeva «Bankishi» Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2010yma'lumotlariasosidatayyorlangan

⁶³Sh. Z. Abdullayeva «Bankishi» Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2010yma'lumotlariasosidatayyorlangan

iqtisodiy jihatdan asoslab berilgan, potensial samaradorlik bahosini o'z ichiga olgan investitsiya loyixalarini ishlab chiqadi, xalqaro andozalarga muvofiq loyiha hujjatlarni tayyorlaydi, amalga oshiriladigan loyihalar doirasida marketing tadqiqotlari olib boradi. Bunda eng maqbul emissiya portfellarini shakllantirish, investitsiyalarni jalb etish dasturlarini ishlab chiqish, mijozning o'ziga kerak bo'lgan pul mablag'larini jalb etishi uchun yordam beradigan vositalarni tanlash, qimmatli qog'ozlar emissiyasi uchun biznes-rejalarni ishlab chiqish, moliyaviy vositalarning har xil turlari bo'yicha olinadigan daromadlarni taxmin qilish va h.k. muhim bank xizmatlaridir. O'zbekistonda banklar o'z mijozlariga bepul, texnik xususiyatdagi ko'pgina og'zaki maslahatlarni berishadi.

Depozitar xizmat ko'rsatish. Bu vazifa xorijiy banklar amaliyotida mavjud. Tijorat banki, depozitariydagi kabi, mijozning qimmatli qog'ozlarini saqlaydi, ularga bo'lgan huquqlarini hisobga oladi, ularning harakati hisobini yuritadi. qimmatli qog'ozlarni saqlash uchun banklar mijozlarga "depo" hisobraqamini ochadi va depozitar xizmat ko'rsatish shartnomasiga muvofiq ular bo'yicha qonunchilikda ruxsat etilgan barcha operatsiyalarni amalga oshiradi. Banklar har xil turdagi korxonalar, shu jumladan, investitsiya fondlari uchun depozitariy vazifalarini amalga oshirishi mumkin. O'zbekistonda qonunchilikka muvofiq depozitar faoliyat faqat ixtisoslashgan investitsiya muassasalari-depozitariylar tomonidagina amalga oshirilishi mumkin. Banklar ushbu vazifani bajarish huquqiga ega emas.

Bir qancha mamlakatlarda banklar boshqaruvchi kompaniyalar vazifasini bajaradi. Ushbu vazifalarni banklar mijozlar bilan tuziladigan shartnomaga muvofiq amalga oshiradi. Bunda bank mijozning qimmatli qog'ozlar portfeli va uning barcha investitsiyalarini shakllantiradi hamda boshqaradi. Bu borada banklar investitsiya fondlariga ham xizmat ko'rsatishi mumkin.

Trast xizmatlari. Bu – banklar faoliyatining keng tarqalgan sohasidir. Tijorat banklari tarkibida ushbu operatsiyalarni bajarish uchun maxsus trast-bo'limlar tuziladi. Ular xususiy mulkdorlar, shuningdek, firma va aksiyadorlik jamiyatlari uchun trast operatsiyalarini amalga oshiradi. Ularga aktivlar (mulk)ni tasarruf etish, aksiyadorlik jamiyatlari ishini boshqarish, vositachilik xizmati ko'rsatish kabilar kiradi.

Aktivlarni tasarruf etish. Bu – guruh operatsiyalarining eng ko'p tarqalganlariga pensiya, o'zaro va boshqa maqsadli fond (jamg'arma)larni boshqarish bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar kiradi. Mazkur holda trast - bo'limning ishi mablag'larni biror maqsadli fondga va trast to'g'risidagi shartnomaga asosan oluvchilarga pul to'lash uchun mablag'larni to'plash, jamg'arish (akkumulyasiyalash)dan iborat. Alohida shaxslar uchun trast-bo'lim vasiyatnoma bo'yicha ishonchli shaxsga (vasiyatnoma ijrochisi sifatida) xizmat ko'rsatishi mumkin. Bir qancha hollarda trast-bo'lim firma tomonidan chiqarilgan obligatsiyalarning saqlanishini ta'minlaydigan qimmatli qog'ozlar egasi bo'lishi ham mumkin.

Kompaniya ishlarini yoki alohida shaxsning mulkini boshqarish. Bunday boshqarish vaqtinchalik, muvaqqat xususiyatga ega bo'lishi mumkin. Korxonaga qayta tashkil etilayotgan, qo'shilayotgan, sanatsiya qilinayotgan vaqtda katta tashkiliy, moliyaviy qiyinchiliklarni boshidan kechiradi yoki bankrot bo'ladi. SHunday paytda trast-bo'lim ishonchli shaxs sifatida kreditorlarga qarzlarni, byudjetga to'lanmagan soliqlarni to'laydi,

korxonani tugatishga oid hujjatlarni rasmiylashtiradi, vakolatlik vazifalarini bajaradi va h.k. Xususiy shaxsning mulkini boshqarish trust bitim asosida yoki sud farmoyishi bo'yicha, odatda, ishonchli shaxs yoki uchinchi shaxs (masalan, layoqatsiz) bo'lgan benefitsiar foydasiga amalga oshiriladi. Mazkur holda bank o'z nomidan ish tutib, mulkning har xil turlarini boshqaradi, mablag'larning samarali qo'yilishini ta'minlaydi, bunday qo'yilmalardan tushadigan daromadni va trust bitimning asosiy summasini tasarruf etadi.

Agentlik xizmatlari. Bunda bank muayyan muddatga tuzilgan shartnoma asosida prinsipal deb ataluvchi o'z mijozni nomidan va uning topshiriri bo'yicha harakat qiladi. Bu holda bank mulkni tasarruf etish huquqiga ega bo'lmaydi; mulkni tasarruf etish huquqi prinsipalning o'zida qoladi, Vositachilik xizmatlari qimmatliklarni seyflarda saqlashdan iborat bo'lib, bunda bank mijozning topshirig'i bo'yicha qimmatliklarni oladi, saqlaydi va beradi yoki seyflarni ijaraga beradi, Mijozning o'zi bu seyflarda o'z qimmatliklarini, shu jumladan, qimmatli qog'ozlarini saqlaydi. Bank vositachilik xizmatlarini ko'rsatib, mijozning aktivlarini saqlaydi: uning ko'rsatmalariga asosan harakat qilib, aksiyalar bo'yicha dividendlar, obligatsiyalar bo'yicha foizlar olish, obligatsiyalarni to'lash, qimmatli qog'ozlarni almashtirish va h.k.ga doir operatsiyalarni bajaradi. Nihoyat, vositachilik xizmati ko'rsatish doirasida prinsipal aktivlarini boshqarish amalga oshiriladi, bunda bank mijozning topshirig'i bo'yicha investitsiyalashni amalga oshiradi, mijoz nomidan shartnomalar tuzadi, qimmatli qog'ozlarni beradi, ssudalar oladi, cheklar yozib beradi va imzolaydi, veksellarni indossatsiya qiladi, qimmatli qog'ozlar portfelining Holatini tahlil qiladi, mijoz portfelida mavjud bo'lgan qimmatli qog'ozlar kurslarini kuzatib boradi, qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisini amalga oshiradi, ularning sug'urtasini rasmiylashtiradi va h.k.

Aksiyadorlar reestri (ro'yxati)ni yuritish. Odatda, bunday xizmat ko'p sonli aksiyadorlari bo'lib, bank mijozlaridan hisoblangan aksiyadorlik jamiyatlari foydalanadi. Aksiyadorlarning reestrini yuritib, bank aksiyadorlik jamiyati qatnashchilarining tarkibi, unda kuchlarning joylashishi, aksiyalar harakati va h.k. to'g'risida axborot oladi.

Veksel operatsiyalari – bank operatsiyalarining eng keng tarqalgan turidir. Ularga veksel hisobini yuritish, veksellarni qayta hisoblash, vekselga ssuda berish, veksellarni inkasso qilish, vekselar domitsilyasiyasi, veksellarni avallash, vekselar aksepti, vekselar bilan amalga oshiriladigan forfeyting operatsiyalari kiradi.

Vekselar hisobini yuritish. Vekselar hisobini yuritish – bu veksel egasi tomonidan vekselni bankka indossament bo'yicha to'lov muddati kelguniga qadar berish (sotish) va buning evaziga hisob yuritish foizi yoki diskont deb ataladigan muayyan foiz chiqarib tashlangan holda, veksel summasini olishdir.

Forfeyting operatsiyalari. Forfeyting - bu mol (tovarlarni) etkazib berish va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha talablar qo'yish huquqini olish, ushbu talabga doir operatsiyalarni bajarish va uni inkasso qilish xatarini qabul qilishdir. Forfeyting, odatda, eksportyordan importyor tomonidan akseptlangan tijorat vekselarini sotuvchiga qaytib kelmasdan sotib olish shaklidagi tashqi savdo operatsiyalarini kreditlashda qo'llanadi. Banklarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari boshqa turdagi boshqa operatsiyalardan tashkil topishi mumkin.

Bizga ma'lumki hozirgi vaqtga kelib banklar qimmatli qog'ozlar bilan ishtiroki fond birjalarida yetakchi o'rinlarni egallab kelmoqda. Biz bu kabi o'zgarishlarni quyidagi ma'lumotlar asosida ko'rishimiz mumkin.

Qimmatli qog'ozlar bozoridagi bank faoliyati rangbarangdir.

Brokerlik faoliyati - bu qimmatli qog'ozlar bilan ishonchli shaxs yoki komissiya a'zosi sifatida bitim tuzish, topshiriq shartnomasi yoki komissiya asosida amalga oshadi.

Dillerlik faoliyati – bu qimmatli qog'ozlarni o'zining hisobidan sotish – sotib olish bitimini amalga oshirish.

Kliring faoliyati – bu faoliyat o'zaro majburiyatlarni aniqlash bo'yicha (yig'im, sverka, qimmatli qog'ozlar bo'yicha bitim axboroti korrektirovkasi va bular bo'yicha buxgalteriya hujjatlarini tayyorlash) va qimmatli qog'ozlar taklifi bo'yicha hisobotdir.

Aksionerlik tijorat banki o'zining shaxsiy qimmatli qog'ozlarini ustav kapitalini oshirish yoki mablag'larni o'zlariga jalb qilish maqsadida chiqarishlari mumkin.

SHu yo'l bilan bank qimmatli qog'ozlar bozoriga moliyaviy vositachi (broker), moliyaviy investor (diler) va qimmatli qog'ozlar emitenti sifatida qatnashishi mumkin.

REPO operatsiyasi – bu qimmatli qog'ozlarni keyinchalik yuqoriroq bahoda sotish (sotib olish) majburiyati bilan sotib olish (sotish). REPO shartnomasining birinchi qismida sotuvchi kreditlanadi va ikkinchi qismida pul mablag'lari egasiga ortig'i bilan qaytariladi. Qimmatli qog'ozlar egaligini huquqiy berish ma'lum vaqtga kreditni ta'minlangan qiladi va riskni kamaytiradi.

Haqiqiy REPO va sotuv turidagi REPO qayta sotib olish bilan farqlanadi. Haqiqiy REPO faqatgina tomonlar o'rtasida REPO bitimini tuzish to'g'risidagi bosh shartnoma bo'lgandagina to'ziladi. Bunday shartnomada tomonlarning huquq va majburiyatlarini hamda ular o'rtasidagi hisob-kitob qoidalari aniq ko'rsatiladi. Haqiqiy REPOning foizli daromadlari sotish va qaytib sotib olish turidagi REPOnikidan yaqqol farq qiladi.

Banklar mustaqil ravishda investitsiya va savdo portfelini shakllantirish tartibini o'rnatadi shu bilan birga qimmatli qog'ozni bir portfeldan ikkinchisiga o'tkazishni ham.

3. Banklarning qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq investitsion operatsiyalari

Bank investitsiyalariga, qoida bo'yicha, foyda olish maqsadida bir yildan ortiq vaqtda to'lash sharti bilan qimmatli qog'ozlarga mablag'larni qo'yilma qilish kiradi.

Agar bank turli emitentlar qimmatli qog'ozlaridan bir necha turini sotib olsa, ya'ni uning qo'yilmalari diversifikatsiyalangan bo'ladi va bunda mazkur bank investitsiyalar portfeli haqida gapirish mumkin bo'ladi, U portfel tarkibini rejalashtirish, tahlil qilish va tartibga solib turish, portfel oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun uni shakllantirish hamda quvvatlab turish, uning likvidligi zarur darajada bo'lishini saqlab turish va u bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirishni o'z ichiga oladi. Investitsiya siyosatini ishlab chiqish va investitsiya portfeli tuzilmasini aniqlash vaqtida banklar avvalambor likvidlik, daromadlilik va xatarga e'tibor beradi. Banklarning qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar qilishdan maqsadi foizlar olish, kapitalni saqlab qolish va qimmatli qog'ozlar kursi qiymatining o'sib borishi asosida sarmoyaning ortib borishini ta'minlashdan iboratdir.

O'zbekiston banklarining portfelini investitsiyalash ob'ekti bo'lib korporativ qimmatli qog'ozlar, shuningdek, davlat qisqa muddatli qog'ozlari xizmat qiladi.

Investitsiyalash jarayonida bank strategiyasining ikki turi farqlanadi: passiv va aktiv. Passiv, kutibturuvchi strategiyaning maqsadi – o'rtacha bozornikiga yaqin bo'lgan darajadagi barqaror va qat'iy daromad olinishini ta'minlashdir. Bu holda, odatda, "narvon" usuli yoki "shtanga" usuli qo'llanadi. Birinchi usul turli muddatli qimmatli qog'ozlarni bank tomonidan tanlab olingan investitsiyalash muddati doirasida bir tekis taqsimlagan holda sotib olishga asoslangan. "SHtanga" usuli investitsiyalarning aksariyat qismi portfelning yuqori likvidligini ta'minlay-digan juda qisqa muddatli qimmatli qog'ozlarga hamda yuqori daromad olish uchun imkon beradigan anchagina uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilishini anglatadi.

O'zbekistonda banklar o'zlarining qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirishda ushbu ikkala usulni qo'llaydilar. Biroq O'zbekiston uchun umuman investitsiyalashning nisbatan qisqaroq muddatlari xosdir.

Agressiv (tajovuzkor) siyosat kurslar va foizlarning bozorda o'zgarib (tebranib) turishidan daromad olish imkoniyatlaridan eng ko'p darajada foydalanib qolishga yo'naltirilgan. Bunday strategiyani faqat katta investitsiya portfeliga ega bo'lgan yirik banklarga qo'llashi mumkin. Agressiv strategiyani muvaffaqiyatli olib borish uchun bank kundalik bozorni xolisona baholay oladigan va unda vaziyatning o'zgarishiga oid taxminlar tuzishni ta'minlaydigan tegishli tahliliy imkoniyatlarga ega bo'lishi lozim.

O'zbekiston banklarini investitsiyalashning bosh ob'ekti davlat qisqa muddatli obligatsiyalari (DqMO) bo'lib, ular bankka kafolatli qat'iy va barqaror daromad olish uchun imkon beradi. Ko'pgina banklar o'zlarining vaqtincha bo'sh turgan pul resurslarini ayni mana shu DQMOga qo'yilma qiladilar. SHuni qayd etish lozimki, ko'pgina banklar DQMOga qo'yilma qilayotganlarida bir qancha hollarda ikkilamchi bozorda narx ko'tarilishi narx pasayishi vaqtidagi fursat (o'yin)dan foydalanib, katta daromad olib, tajovuzkor siyosat yuritadilar.

Ahamiyatiga ko'ra ikkinchi o'rinda turgan, ammo eng katta istiqbolga ega bo'lgan investitsiyalash ob'ekti xususiylashtirilgan korxonalarining aksiyalari bo'lib, ular dividendlar shaklida daro, madlar olish va kurs qiymatini oshirish uchun, shuningdek, keyinchalik ancha yuqori narxda qayta sotish uchun sotib olinadi.

Sanoat korporatsiyalari aksiyalariga banklar investitsiyalari amalga oshirilgan vaqtda bank kapitali bilan sanoat kapitali qo'shib-birlashib, moliya kapitali hosil bo'ladi. Bunday birlashuv, yuqorida qayd etilganidek, hamma mamlakatlarda ham bo'lavermaydi, lekin O'zbekistonda u etarlicha keng rivojlandi. Agar biror aksiyadorlik jamiyatining aksiyalar paketiga ega bo'lgan bank uni boshqarishda, shuningdek, kreditlar, jumladan, imtiyozli kreditlar yordamida emitentning moliyaviy ahvolini sog'lomlashtirishda faol ishtirok etsa, shunday birlashib ketishning afzalliklari namoyon bo'ladi.

Har bir bank investitsiya portfelining muayyan qismini bank tomonidan qo'shma va shu'ba korxonalariga kiritilgan paylar va ulushlar tashkil etadi. Ushbu qo'yimlardan keladigan daromad ba'zan katta miqdorlarga etishi, ammo ayrim hollarda umuman bo'lmasligi ham mumkin. Turlicha bozor tuzilmalarining ta'sischilari bo'lmish banklar

ularga katta mablaglarni qo'yilma qiladi, Masalan, banklar investitsiya muassasalari va birjalarning ta'sischi bo'lishi mumkin. Amalda O'zbekistondagi har bir bank turli yo'nalishdagi bir yoki hatto bir necha investitsiya muassasalar – investitsiya vositachilari, investitsiya kompaniyalari va x.k.larning ta'sischi bo'ladi. O'zbekistonda banklarga institutsional sarmoyadorlarning, ya'ni o'z ish faoliyatining xususiyatiga ko'ra doimiy va katta miqdordagi pul mablag'lariga ega bo'lgan hamda ularni qimmatli qog'ozlar portfeliga qo'yilma qilishga qurbi etadigan tashkilotlarning ta'sischi bo'lish uchun ruxsat berilgan. Banklar institutsional sarmoyadorlarning aksiyalarini sotib olib, pul mablag'larini jamg'arish (akkumulyasiyalash) uchun qo'shimcha imkoniyatga ega bo'ladi, shuningdek, mijozlarning qimmatli qog'ozlar portfelini boshqarish bo'yicha o'z operatsiyalarini kengaytiradi.

Banklar andarrayting bo'yicha operatsiyalarni bajarayotgan vaqtda mablag'larni qimmatli qog'ozlarga investitsiyalashga doir operatsiyalarni amalga oshiradi, ya'ni bank emitent-mijozning qimmatli qog'ozlarini joylashtira olmagan vaqtda, o'z majburiyatlarini bajarish va mijozning ustav sarmoyasini o'z vaqtida shakllantirish uchun bankning o'zi mijozning qimmatli qog'ozlarini sotib olishiga to'rri keladi. Ammo ushbu operatsiyalar ko'proq nochorlik xususiyatiga ega. Keyinchalik bank bunday qimmatli qog'ozlarni sotib olib, ularni sotishga harakat qiladi yoki u foyda, shu bilan birga, dividendlar keltira boshlashi uchun emitentni boshqarishda ishtirok etadi.

Banklar korxonaga aksiyalariga ega bo'lib va unga kreditlar berib, o'z investitsiyalarini himoya qilish maqsadida kreditlashni davom ettirishga jalb etilishi mumkin. Ular o'z obro'sini saqlab qolish uchun korxonaning moliyaviy barqarorligini quvvatlab turishga majburdir. qimmatli qog'ozlarga investitsiyalashni amalga oshirishda bankning yo'qotishlari bo'yicha mavjud xatar asosan qisqa muddatlidir lekin u bankning asosiy kapitaliga nisbatan juda yuqori bo'lib qolishi ham mumkin. Bank-emitent korxonaning bankrot bo'lishi bilan bog'liq holda uning aksiyalariga ega bo'lgani uchun zarar ko'rishi ham mumkin, ammo bunday yo'qotishlarning eng ko'p tarqalgan sababi, bozor qiymatini noto'g'ri baxrlash va qimmatli qog'ozlarni uzoq vaqt davomida saqlab turishdan iboratdir. Mana shuning uchun ham banklar uchun qimmatli qog'ozlarga qo'yilmalar qilishni amalga oshirish bo'yicha cheklanishlar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1) bankning bir korxonaga ustav kapitaliga, shuningdek, shu korxonaning boshqa qimmatli qog'ozlariga qo'yilmalari miqdori birinchi darajadagi bank regulyativ kapitalining 15 foizidan oshmasligi shart;

2) bankning barcha emitentlar ustav kapitali va boshqa qimmatli qog'ozlariga investitsiyalari miqdori birinchi darajadagi bank regulyativ kapitalining 50 foizidan oshmasligi kerak;

3) bankning oldi-sotdi uchun nodavlat qimmatli qog'ozlarga qo'yilmalari birinchi darajadagi bank regulyativ kapitalining 25 foizidan oshmasligi lozim.

Bank to'g'ridan-to'g'ri bevosita va bilvosita (masalan, shu'ba korxonalar orqali) har qanday korxonaga (moliyaviy muassasalardan tashqari) ustav kapitalining 20 foizdan ortiq qismiga ega bo'lishi mumkin emas.

Ammo bank qo'yilmalariga belgilangan ushbu cheklashlar kredit ta'minoti uchun taqdim etilgan qimmatli qog'ozlarga berilgan garov huquqini amalga oshirish natijasida

bank tomonidan olingan qimmatli qog'ozlarga nisbatan qo'llanmaydi. Ayni vaqtda, agar bank qimmatli qog'ozlarni garov huquqlari amalga oshirilgan holda olgan bo'lsa, ularni bir oy mobaynida sotishi kerak.

Avval qayd etilganidek, banklar investitsiya muassasalari vazifalarini bajarishi mumkin. Turli mamlakatlarda tijorat banklari buni qimmatli qog'ozlar bozorini umumiy nazorat etadigan organning ruxsati bilan yoki davlat bosh bankidan bank faoliyatini amalga oshirish uchun olinadigan umumiy litsenziya (ruxsatnoma) doirasida amalga oshiradi. O'zbekistonda banklar qonuniy jihatdan qayd etilgan tijorat banklari va investitsiya banklariga ajratilmagan, shu sababli tijorat banklari investitsiya muassasalariga xos bo'lgan vazifalarni erkin bajarayapti.

Banklar qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni Markaziy bank tomonidan beriladigan umumiy litsenziya asosida amalga oshirishlari mumkin. Litsenziyada ko'rsatilgan, banklar tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalar ro'yxatida qimmatli qog'ozlar bilan olib boriladigan faoliyat maxsus qayd etilgan bo'lishi kerak. Banklar qimmatli qog'ozlar bilan faoliyatini amalga oshirish uchun quyidagi ma'lumotlarni ko'rsatishi lozim:

a) qimmatli qog'ozlar bilan rejalashtirilayotgan faoliyatning batafsil tavsifi, ushbu faoliyatni amalga oshirishda bank qanday siyosat olib borishi va qanday tadbirlardan foydalanmoqchi ekanligi;

b) bankning ushbu faoliyatni amalga oshirishi natijasida olinishi ko'zda tutilayotgan foydaning taxminiy miqdori (foizlar hisobida);

v) bunday faoliyat ustidan o'rnatiladigan ichki nazorat turlari va unga qo'yiladigan talablar;

g) qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshiradigan shaxslar uchun bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish va cheklashlar bo'yicha vakolatlar;

d) qimmatli qog'ozlar bilan bitimlarni amalga oshiradigan shaxslarga qo'yiladigan malakaviy talablar;

e) bankning ichki hisob yuritish va hisobot tuzish ishlariga rahbarlik qilish;

j) qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar monitoringi bo'yicha axborotlashtirish tizimiga qo'yiladigan talablar.

Respublika tijorat banklari bir holda o'z tarkibiy tuzilmalarida qimmatli qog'ozlar bo'yicha fond bo'limlari yoki boshqarmalariga egadirlar, ular fond qimmatliklari bilan amalga oshirish mumkin bo'lgan turlicha operatsiyalarni – bankning o'z qimmatli qog'ozlari emissiyasini tashkil etishdan tortib investitsiya muassasalariga xos bo'lgan barcha operatsiyalar majmuini bajaradi. Bunda fond bo'limlari bevosita bank operatsiyalarini qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarni uygunlashtirishi (masalan, veksellar hisobini yuri-tish), shuningdek, investitsiya muassasalari uchun xos bo'lgan operatsiyalar bilan birga amalga oshirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida mavjud tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarning asosiy ishtirokchisi bo'lib kelmoqda. Buni quyidagi ma'lumotlarda ham ko'rishimiz mumkin:

2016 yilning 2 – 6 may kunlari «Tashkent» Respublika fond birjasi sav-dolarida 9 ta aksiyadorlik jamiyatining qimmatli qog'ozlari bilan 96 ta bitim qayd qilinib, 2,8 mln. dona aksiya 4,3 mlrd. so'mga sotildi.

Shu o'rinda ayta olamizki O'zbekiston Respublikasidagi mavjud tijorat banklar rivojlangan universal banklar sirasiga kiradi. Bu banklar shu sabab moliya bozorining asosiy ishtirokchilari bo'lib kelmoqda.

Ma'lumki, bank resurslarini joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar aktiv operatsiyalar deyiladi, boshqacha qilib aytganda bankning aktiv operatsiyalari bu bank tomonidan foyda olish maqsadida o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'larni samarali yo'naltirishdir. Ko'pchilik iqtisodiy adabiyotlarda bankning aktiv operatsiyalari, deganda, eng avvalo, resurlarni daromad olish maqsadida yo'naltirilgan aktivlar, ya'ni qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar, kreditlar, lizing va faktoring operatsiyalari nazarda tutiladi.

Biz quyidagi ma'lumot asosida esa banklarning qimmatli qog'ozlarga kiritayotgan sarmoyasi haqida tanishib o'tsak bo'ladi. Bugungi kunda moliya-bank sektorida inqirozga qarshi davlat belgilab bergan

4. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq emission operatsiyalari.

Umuman olganda qimmatli qog'ozlar moliya instrumentlarining tasnif belgilari asosida tasniflanadi. Lekin qimmatli qog'ozlarning ma'lum mazmun va hususiyatlari ularni qo'shimcha tarzda alohida tasniflashni taqazo etadi. Shu munosabat bilan o'quv maqsadlarida qimmatli qog'ozlarni quyidagi rasmlarda keltirilgan shakllarda tasniflanishini keltirish mumkin.

Qimmatli qog'ozlarning hisobi mahsus depozitariylarda va (yoki) reestrlarda yuritiladi. Orderli qimmatli qog'ozlarning qo'ldan qo'lga o'tishi indossament asosida indossant tomonidan amalga oshiriladi. Taqdim etuvchiga bo'lgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha xuquq indentifikatsiya qilinmaydi. Emissiyalanuvchi qimmatli qog'ozlarga sertifikat (lotincha certifico - tasdiqlayman) chiqarilishi mumkin. Sertifikat oldi-sotti ob'ekti bo'lmaydi.

Qimmatli qog'ozlarni chiqarishda quyidagi maqsadlar ko'zlanadi:

1. Aktsiya (oddiy va imtiyozli) chiqarish va joylashtirish yo'li bilan aksiyadorlik kompaniyasini tuzish;
2. Obligatsiya chiqarish va joylashtirish yo'li bilan moliyalashtirishni kengaytirish;
3. Qo'shimcha investitsiya jalb qilishda kompaniyada hukmronlikni saqlab qolish uchun imtiyozli aksiyalar va obligatsiyalar chiqarish.

Davlat qimmatli qog'ozlari quyidagi maqsadlarda chiqariladi:

- ✓ joriy byudjet kamomatini (defitsitini) moliyalashtirish;
- ✓ avval joylashtirilgan qarzlarni so'ndirish;
- ✓ davlat byudjeti kassasining bajarilishini ta'minlash;
- ✓ soliq to'lovlarining notekis tushumini tekislash;
- ✓ tijorat banklarini likvid rezerv aktivlar bilan ta'minlash;

✓ davlat va mahalliy xokimiyat organlari tomonidan amalga oshiriladigan maqsadli investitsion dasturlarni moliyalashtirish;

✓ ijtimoiy muhim ahamiyatga ega bo'lgan muassasa va tashkilotlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash.

Nodavlat tashkilotlar esa investitsiyalarni jalb qilish uchun korporativ qimmatli qog'ozlar chiqaradilar.

Yuqorida kelib chiqib aytish mumkinki, qimmatli qog'ozlarni umuman ikki katta guruhga ajratish mumkin: bazaviy va bazisli qimmatli qog'ozlarga. Bazaviy qimmatli qog'ozlarga ulush va qarz munosabatlarini o'zida mujassamlash-tiruvchi emissiyalanuvchi (derivativlardan tashqari) va emissiyalanmaydigan qog'ozlar kiradi. Bazislilariga esa derivativlar (hosilaviy qimmatli qog'ozlar) kiradi.

Qimmatli qog'ozning hayot tsikli (davr bosqichlarini o'z ichiga oluvchi) quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi: emissiyaga tayyorgarlik (emissiyaoldi), emissiya risolasini davlat ro'yhatidan o'tkazib chiqarish va joylashtirish (emissiya), bozor muomalasi, muomaladan chiqarish (so'ndirish). Har bir jarayondagi ishlar tegishli qonun hujjatlarida belgilanganidek amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich (emissiyaga tayyorgarlik) quyidagi jarayonlardan iborat: chiqarilajak qimmatli qog'ozlarni, ularning hajmini va qiymatini bazisiga ekvivalentlilik darajasi asosida maqsadga muvofiqligini, bozor tendentsiyasini, shartlarini tadqiq qilish va asoslash; emissiya taktikasi va strategiyasini ishlab chiqish; uni muhokama qilish va chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish (vakolatli organ tomonidan); emissiya risolasini davlat ro'yhatidan belgilangan tartibda o'tkazish uchun tayyorlash.

Ikkinchi bosqichda emissiya risolasi davlat ro'yhatidan o'tkaziladi, qonunchilik hujjatlari va risolada belgilangan tartibda reklama qilinib potentsial investorlar o'rtasida joylashtiriladi, emissiya natijalari to'g'risida hisobot berib boriladi.

Uchinchi bosqichda joylashtirilgan qimmatli qog'ozlar ikkilamchi bozorda uning kon'yunkturasi bog'liq holda erkin muomalada bo'ladi, buning uchun emitent ularning ekvivalentlilik darajasini uzluksiz ta'minlab bozordagi kursini monitoring qilib boradi. Bunda emitent va bozorning transparentlilik katta ahamiyatga ega.

To'rtinchi bosqich qimmatli qog'ozlarni ularning risolasi shartlariga asosan hamda (yoki) qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va tartibda muomaladan chiqarish (so'ndirish).

O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi" Qonuni loyihasiga asosan korporativ qimmatli qog'ozlarning (aktsiyadorlik jamiyatlari aktsiyalari va obligatsiyalari, korxonalarining derivativlari) hayot tsikli jarayonlari bunday qog'ozlar bilan bog'liq munosabatlarni tartiblashtiruvchi vakolatli davlat organi (hozirda qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish Markazi) tomonidan muvofiqlashtiriladi va nazorat qilinadi. Bunda tijorat banklarining aktsiyalarini chiqarilishi Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish Markazi (keyingi matnlarda Markaz deb yuritiladi) tomonidan Markaziy bank bilan kelishilgan kelishilgan tartibda amalga oshiriladi.

Banklarning aktivlari bilan bog'liq qimmatli qog'ozlarni Markaziy bank tartiblashtiradi.

Veksellarni chiqarilishi Markaziy bank va Moliya vazirligi tomonidan tartiblashtiriladi.

Davlat qimmatli qog'ozlari bozorini vakolatli davlat organlari (qog'oz turlariga qarab Vazirlar Mahkamasi, Moliya vazirligi, Markaziy bank) tartiblashtiradi. Korporativ qimmatli qog'ozlar chiqarilishida emitentdan davlat byudjetiga qonunda belgilangan hajmda emission yig'im olinadi. Vakolatli davlat organi respublikada davlat ro'yhatidan o'tkazilgan qimmatli qog'ozlarning umumiy davlat reestrini yuritadi va ro'yhatini muntazam e'lon qilib boradi.

Qimmatli qog'ozlarni davlat ro'yhatidan o'tkazmasdan ommaviy axborot vositalari orqali reklama qilish man etiladi.

Bizga ma'lumki hozirgi vaqtga kelib banklar qimmatli qog'ozlar bilan ishtirokifond birjalarida yetakchi o'rinlarni egallab kelmoqda. Biz bu kabi o'zgarishlarni quyidagi ma'lumotlar asosida ko'rishimiz mumkin.

Mamlakatimiz fond bozorida tijorat banklariga bevosita qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq barcha turdagi operatsiyalarni amalga oshirishiga ruxsat berilishi tufayli ularning ushbu bozordagi faolligi yanada oshib bormoqda.

“O'tgan yili fond birjasida qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshirilgan bitimlar soni so'nggi besh yildagi rekord ko'rsatkichni – 2794 tani tashkil qilgan. Shu qimmatli qog'ozlardagi bitimlar asosan banklarning hissasiga tog'ri kelishini ko'rishimiz mumkin, ya'ni asosiy shartnomalar banklar qimmatli qog'ozlariga to'g'ri kelayotganligini ko'ramiz. Buni quyidagi ma'lumotlar asosida ham ko'rishimiz mumkin⁶⁴.

Yuqoridagi jadval va diogrammada keltirilgan ma'lumotlardan ma'lumki banklar moliya bozorining asosiy ishtirokchisi bo'lib, 2794 ta qimmatli qog'ozlar bo'yicha bitimlarning 78%ni, ya'ni 2178 ta bitimda ishtirok etmoqda.

5. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarini amalga oshirishdagi xorij tajribasi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida keng islohotlarni amalga oshirish, jamiyatni barcha jabhalarini tubdan o'zgartirish yo'liga kirib borishi mamlakat bank tizimini qimmatli qog'ozlar bozoridagi investitsiya faoliyatini amalga oshirishga kerak bo'lgan yangi vazifalarni belgilab berdi. Prezidentimiz «...qimmatli qog'ozlar bozorini, ayniqsa, ikkilamchi bozorni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, raqobatga bardoshli fond bozorini rivojlantirish bo'yicha yaqin istiqbolga mo'ljallangan samarali strategiyani ishlab chiqish, aksiyalar va ob'ektlarning birja savdolarida sotilishida oshkoralik tamoyillarini keskin kuchaytirish kerakligini...» ta'kidlab o'tganligi bejiz emas⁶⁵.

Jahonning birinchi banki paydo bo'lganidan hozirgacha faqatgina investitsiya banklari o'z faoliyatini bankrotlikka uchrab tugatmaganlar. Respublikamizda tashkil

⁶⁴“Toshkent” RFB Tahliliy xizmati boshlig'i O'ktam Ochilov ma'ruzasi asosida tayyorlandi (26 yanvar, 2016 - 10:00 www.cbu.uz)

⁶⁵Karimov I.A. “Erishilganyutuqlarni mustahkamlab, yangi marralarni izchil harakat qilishimiz lozim” - T.: “O'zbekiston” NMIU, 2006. 18-b.

qilingan bank tizimi asosan ixtisoslashgan banklardan iborat. Lekin ularning faoliyatining chuqurroq o'rganilsa, shunisi ma'lum bo'ladiki, hech qaysi bank o'z ixtisoslashuvi bilan cheklanib qolmaydi hamda iqtisodiyotni kam o'rganilgan sohalariga kirib boradi. Xuddi shuningdek, qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklarining investitsiya faoliyati banklar uchun yangi imkoniyatlarni va o'z hokimiyati doirasini kengaytirish hamda barqaror daromadni olib, bankni likvidligini ta'minlash istiqbolini ochib berdi.

Bizga ma'lumki bu qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni asosiy rivojlanishi Yevropa va Amerika mamlakatlariga to'g'ri keladi. Ammo MDH mamlakatlarida bu ko'rsatkich nisbatan sust. Ammo shunday bo'lsa ham bu MDH mamlakatlari ichida yetakchi o'rinlarda bo'lib kelayotgan Rossiyada qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar sezilarli darajada yaxshi holatga ko'tarilgan. Quyidagi jadvalda Rossiya tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari bo'yicha qisqacha ma'lumotga ega bo'lamiz. Bunda quyidagicha ma'lumotlar keltirilgan:

Rossiya tijorat banklari boshqa muassasalar ustavida qatnashish bilan birgalikda qarz majburiyatli qimmatli qog'ozlarga ham sarmoya kiritib kelmoqda. Qarz majburiyatli qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar Rossiya tijorat banklari tomonidan keng yo'lga qo'yilgan.

Jahonda qimmatli qog'ozlar bozorining ikki modeli ajratilib, ularni o'rtasidagi chegara sifatida tijorat banklariga aksiyalar bilan operatsiyalarni o'z hisobidan amalga oshirishni taqiqlanishi yoki, aksincha, ruxsat berilishi qo'llaniladi. Bunda gap «anglosakson» modeli to'g'risida ketmoqda (asosiy namoyandalari: AQSH hamda Buyuk Britaniyaning iqtisodchi olimlari), unga ko'ra aksiyalarga investitsiyalar quyish banklar uchun taqiqlangan, hamda «nemis» modeli haqida (asosiy namoyandalari Germaniya, Shveysariya), unga ko'ra banklar aksiyalar bilan deyarli cheklovlarsiz muomala qiladilar va quyidagi savollarga javoblar mazkur ikkita modelni samaradorlik mezonlari bo'lib hisoblanadi:

Bu mamlakatda investitsiya va bank faoliyatini bir-biridan ajratish g'oyasi izchil olib borilgan hamda ko'pchilik boshqa mamlakatlar uchun o'rnak bo'lgan. AQShda tijorat banklariga qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar amalga oshirish hamda fond birjalariga a'zo bo'lish taqiqlangan edi.

1933 yilda qabul qilingan qonunga ko'ra, (Glass-Stigal qonuni), tijorat banklari sanoat kompaniyalari aksiya va obligatsiyalari chiqarishni tashkil qilishda qatnashishlari mumkin emas. Mazkur qonun tijorat banklariga bevosita ham, shuba kompaniyalar orqali ham aksiyalarga investitsiyalar quyishni taqiqlagan edi. Bu qonun «Buyuk depressiya» vaqtida qabul qilinib, bank sektori va umuman iqtisodiyot achinarli holatda bo'lgan. Qonunning bosh maqsadi bank tizimiga ishonchni qayta tiklash va mustahkamlashdan iborat edi. Qonunga ko'ra, buning uchun «bank aktivlaridan bundan ko'ra xavfsizroq va samaraliroq foydalanishni ta'minlash, bank ichidagi boshqaruv usullarini tartibga solish, fondlarni spekulyativ operatsiyalarga, noqonuniy jalb qilinishining oldini olish» zarurdir. Ya'ni, qonun mualliflari banklarning aksiyalar bilan operatsiyalarini banklar xavfsizligiga tahdid soluvchi spekulyatsiyalar deb qaragan.

1987 yilda I.Spreg mega banklarni tashkil qilishga qarshi chiqdi. Uning fikriga ko'ra, amerika banklari jahon bozorlarida raqobatlashish uchun yetarli darajada yirikdirlar. Banklarning riskli keng miqyosdagi investitsiya faoliyatida qatnashishi borasida fikrlar turlicha ekanligi haqida mintaqalar bank birlashmasining raisi Robert Striklendning qarashlari e'tiborga loyiq. Uning fikricha, bank va tijorat faoliyati o'rtasidagi farq vaqt o'tishi bilan butunlay yo'qoladi.

Aksiyalar bilan operatsiyalarni taqiqlashda banklarning moliyaviy qudrati xaddan tashqari jamlanishidan xavfsirash katta rol o'ynadi.

Mazkur ta'qiqlash AQShda hozirgacha ham bekor qilinmaganligining sababi aynan ana shu xavfsirashdadir, chunki, katta qudratga ega bo'lgan barcha narsalarni rad etish amerikaliklar uchun xosdir.

Endi qimmatli qog'ozlar bozorining «nemis» modeliga to'xtalib o'tamiz. Yuqorida qayd etilganidek, unga ko'ra korxonalar aksiyalari bilan operatsiyalar bo'yicha tijorat banklari uchun cheklovlar mavjud emas. Buning natijasida Germaniyaning moliya tizimi quyidagi xususiyatlarga ega bo'ldi:

1. Banklar nemis korxonalarini jamg'armasining katta qismiga egadirlar;
2. Korxonalar tashqi moliyalashtirishning asosiy manbasi sifatida bank kreditlaridan, jumladan uzoq muddatlaridan foydalanadilar;
3. Germaniyaning qimmatli qog'ozlar bozori «ingliz-sakson» modeliga yo'naltirilgan mamlakatlarnikiga nisbatan takomillashgan bo'lib chiqdi;
4. Qimmatli qog'ozlar bozorida banklar hukmronlik qilmoqda ularga bog'liq bo'lgan investitsiya biznesi rivojlangan.

Boshqa tomondan, aksiyalarga egalik qilgan banklar o'z kreditlari qo'llanilishi samaradorligini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'lganligi sababli, nemis sanoati qimmatli bo'lmagan va muhimi, uzoq muddatli qarz mablag'laridagi ehtiyojlarni doimo qondirgan. Bu bilan u jahon bozorlarida jiddiy raqobat ustunligiga ega bo'lgan. Bir vaqtning o'zida, J.Matukning fikriga ko'ra, «fransuz sanoatiga doimo shaxsiy jamg'arma yetishmaydi, va uning zimmasida qisqa muddatli qarzlarni yotadi, natijada u ishlab chiqarishni moliyalashtirishning yuqori qiymatiga ega». Qimmatli qog'ozlar bozorining «nemis» modelini moliya bozorida banklarning hukmdorligi korxonalarni nazorat ostiga quyib, moliyaviy masalalarni hal qilishda korporativ sektorini to'liq erkinlikdan maxrum etadi.

«Ingliz-sakson» modeli qabul qilingan mamlakatlarda fond bozorlari evolyutsiyasini kuzatamiz. Hozirgi vaqtga kelib o'sha mamlakatlarning deyarli barchasi tijorat banklariga korxonalar aksiyalari bilan operatsiyalar o'tkazishni taqiqlashdan voz kechdilar. Bu mamlakatlarda 70-80 yillar davomida banklarga bevosita (Buyuk Britaniya), yoki sho'ba korxonalar orqali (Kanada) u yoki bu cheklovlar bilan aksiyalarga egalik qilish, ularni kafolatli joylashtirish, dilerlik funksiyalarini bajarishiga ruxsat etilgan edi.

Aksiyalar bilan operatsiyalar banklar uchun uzoq vaqt mobaynida taqiqlangan yagona mamlakat – bu AQSH. Lekin bu yerda ham mavjud bo'lgan taqiqlashni bekor qilishga urinmoqdalar. Shunday qilib, hozirgi vaqtda jahon amaliyotida qimmatli qog'ozlar bozorida banklar investitsiya faoliyatining ikkita asosiy modeli mavjud.

Ulardan biri, bu bozorda tijorat banklarining hukmronligini ko'zda tutadi (Germaniya). Ikkinchisi aralash hisoblanib, ham bank, ham nobank moliya – kredit institutlarining faol rolini ko'zda tutadi (AQSH, Yaponiya).

AQShda banklarga qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatning ba'zi bir turlari bilan shug'ullanish man qilingan (brokerlik, dilerlik, banklar o'z zimmasiga qo'shimcha risklarni olishi bilan bog'liq bo'lgan faoliyat). Shuningdek, noprofessional faoliyatning alohida turlari sezilarli darajada cheklangan (nodavlat qimmatli qog'ozlariga quyilmalar, sho'ba bank va moliya kompaniyalardan tashqari).

Qimmatli qog'ozlar bozorida banklar investitsiya institutlari sifatida quyidagi faoliyat turlarini amalga oshirishlari mumkin:

1. qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi vaqtida vositachi – agentlik vazifalarini mijoz hisobi va topshirig'iga ko'ra, komissiya yoki topshiriq shartnomasi asosida bajarish, ya'ni moliya brokeri funksiyasini bajarish;

2. investitsiya bo'yicha maslahat berish, ya'ni qimmatli qog'ozlarni chiqarish va aylanishi yuzasidan maslahat xizmatlarini ko'rsatish;

3. investitsiya kompaniyasi funksiyalarini bajarish;

4. qimmatli qog'ozlar chiqarishni tashkil qilish;

5. qimmatli qog'ozlarni uchinchi shaxslar foydasiga joylashtirish bo'yicha kafolatni ta'minlash;

6. qimmatli qog'ozlarga mablag'lar quyish;

7. qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisini o'z nomidan va o'z hisobiga amalga oshirish, jumladan qimmatli qog'ozlar kotirovkasi yo'li bilan (investitsiya kompaniyasi qimmatli qog'ozlarni sotish va sotib olish majburiyatini oladigan ma'lum qimmatli qog'ozlarga «haridor narxi» hamda «sotuvchi narxi»ni e'lon qilish).

Xulosa qiladigan bo'lsak, rivojlangan mamlakatlar tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi investitsiya faoliyati ikki modelga ajratilib, ularni o'rtasidagi chegara sifatida tijorat banklariga aksiyalar bilan operatsiyalarni o'z hisobidan amalga oshirishni taqiqlanishi yoki, aksincha, ruxsat berilishi qo'llaniladi. Bunda gap «anglosakson» modeli to'g'risida ketmoqda (asosiy namoyandalari: AQSH hamda Buyuk Britaniyaning iqtisodchi olimlari), unga ko'ra aksiyalarga investitsiyalar quyish banklar uchun taqiqlangan, hamda «nemis» modeli haqida (asosiy namoyandalari Germaniya, Shveysariya), unga ko'ra banklar aksiyalar bilan deyarli cheklovlarsiz muomala qiladilar.

Yuqorida qayd etilganidek, unga ko'ra korxonalar aksiyalari bilan operatsiyalar bo'yicha tijorat banklari uchun cheklovlar mavjud emas. Buning natijasida Germaniyaning moliya tizimi quyidagi xususiyatlarga ega bo'ldi:

1. Banklar nemis korxonalari jamg'armasining katta qismiga egadirlar;

2. Korxonalar tashqi moliyalashtirishning asosiy manbasi sifatida bank kreditlaridan, jumladan uzoq muddatlilaridan foydalanadilar;

3. Qimmatli qog'ozlar bozorida banklar hukmronlik qilmoqda ularga bog'liq bo'lgan investitsiya biznesi rivojlangan.

8-mavzu. Kreditlashni tashkil etish asoslari

Reja:

1. **Tijorat banklarida kreditlashni tashkil etish asoslari.**
2. **Kredit mexanizmi va uning elementlari.**
3. **Tijorat banklarida kredit operatsiyalarini tashkil etishning huquqiy asoslari.**

Jamiyat taraqqiy etib evolutsion yo'l bilan asrlar davomida bugungi kundagi rivojlanish bosqichiga erishgan bo'lsa, bank-moliya sohasining rivojlanishida ibtidoiy jamoa davrida chorvachilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishi, shuningdek ortiqcha iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi muhim turtki bo'lib xizmat qilgan. Bugungi kundagi jamiyatga xizmat qilayotgan iqtisodiyot asrlar davomida ishlov berilib, sayqallanib kelgan. Shunga qaramasdan iqtisodiyotning asosiy maqsadi cheklangan resurslar bilan cheksiz ehtiyojlarni qondirish masalasi murakkabligini yo'qotmagan. Yer yuzida integratsiyalashuv va globallashuv jarayonining rivojlanishi bilan savdo aloqalari kengayib ishlab chiqaruvchilar qo'lida ortiqcha mablag'lar paydo bo'lgan. Ortiqcha mablag'lardan foydalanish va uning qiymatini saqlab qolish zarurati yuzaga kelgan. Dastlab Italiyada Jirobanklarning paydo bo'lishi pul ayriboshlash operatsiyalarning rivojlanishiga sabab bo'lgan bo'lsa, keng ma'noda bank-moliya sohasining rivojlanishiga asos bo'lgan. Shu tariqa iqtisodiyotga ssuda tushunchalari kirib kelgan. Ssuda tushunchasi kredit tushunchasidan oldin paydo bo'lgan bo'lib, ko'rinish jihatdan tovar va pul shaklida bo'lgan. Kredit tushunchasi paydo bo'lish tarixiga ko'ra ssuda tushunchasidan "o'sib" chiqqan bo'lib bozor iqtisodiyotiga xos tushunchadir. Jamiyatda tovar-pul munosabatlaridan keying vujudga kelgan muhim ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlardan biri *kredit* munosabatlari hisoblanadi. Kredit pul kabi iqtisodiy kategoriya bo'lib, pul mablag'larining samarali ishlashiga, xo'jalik yurituvchi subyektlar va jismoniy shaxslarning ortiqcha vaqt va pul sarf qilmasdan qo'shimcha pul mablag'lariga bo'lgan talabini qondirishda ayniqsa muhimdir. Iqtisodiy adabiyotlarda "kredit" so'zi lotincha "creditium"- ssuda, qarz so'zidan paydo bo'lganligi qayd etiladi. Ayrim iqtisodchi olimlar "credo", ya'ni "ishonaman" degan ma'noni anglatishini qayd etishgan. Albatta kredit munosabatlarida ishtirok etayotgan tomonlarning bir birlariga bo'lgan ishonchi muhim omil hisoblanadi. Bu yerda kreditor, kreditni berishda asosiy masala kredit oluvchiga nisbatan "ishonchi" muhim ahamiyat kasb etadi. Kredit va kredit munosabatlarining vujudga kelishida ishonch bilan birgalikda shunday bir kategoriya mavjudki, bu kreditor va qarz oluvchi o'rtasida o'zaro iqtisodiy hamkorlikni amalga oshirishga undaydi. Buni kreditor va qarz oluvchi nuqtayi nazardan qaraydigan bo'lsak, kreditorning ushbu munosabatlarni rivojlantirishiga asosiy omil bu iqtisodiy manfaatdorlik, ya'ni kredit foizi hisoblanadi. Qarz oluvchi uchun esa ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash orqali tegishli iqtisodiy manfaatdorlikka erishishdir.

Zamonaviy iqtisodiyotda kredit muhim moliyaviy element sifatida mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Kredit va kredit munosabatlarining vujudga kelishi va rivojlanishining asosida tovar ishlab chiqarish, chuqurroq ma'noda aytadigan bo'lsak, kapital muomalasi va aylanishi yotadi. Kreditning mohiyatiga bir qator olimlar o'zlarining turli ta'riflarini berishgan. Jumladan, V. A Shegorsova: "Kredit – qaytarish va to'lov sharti bilan qarzdorga vaqtinchalik foydalanish

maqsadida pul mablag'i yoki moddiy buyum ko'rinishida berish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimidir"⁶⁶.

Kreditning iqtisodiy mohiyatiga berilgan ta'riflardan ko'rinib turibdiki, bu borada olimlarning fikrlari har xil va turli yondashuv asosida yuzaga kelgan. Kreditning mohiyatini to'liqroq ochib berishda uning subyektiv va obyektiv mohiyatiga alohida e'tibor berish lozim. Kreditning sub'yektiv mohiyati bir – biriga bog'liq bo'lgan “kreditor” va qarz oluvchining munosabatlari namoyon bo'ladi.

Kreditor – kredit munosabatlarini tashkil etishda kredit beruvchi sifatida maydonga chiqadi. Kreditor bo'sh turgan mablag'larini vaqtinchalik foydalanishga beruvchi subyektlar hisoblanadi. Bunday subyektlar banklar, kredit uyushmalari, mikrocredit tashkilotlar, lombardlar, davlat va boshqa moliyaviy tashkilotlar bo'lishi mumkin. Kreditor ssuda sifatida beriladigan pul mablag'larini o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'lar evaziga shakllantiradi. Kreditor jamiyatdagi vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini tegishli shartlar asosida jalb qilib, ushbu mablag'larni kreditning qayta taqsimlash funksiyasi orqali real sektorning zarur bo'lgan bo'g'inlariga joylashtiradi. Bu jarayon vaqtinchalik bo'sh turgan mablag'lardan samarali foydalanish imkoniyatini beradi.

Kredit oluvchi – kredit munosabatlarida kredit oluvchi sifatida ishtirok etuvchi shaxs. Kredit oluvchi sifatida aholi, davlat, banklar va boshqa shaxslar qatnashishi mumkin. Kreditor berilgan kredit uchun iqtisodiy foydani aniq foiz ko'rinishida undirsa, qarz oluvchi kredit yordamida ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlash, shuningdek ishlab chiqarishni kengaytirish orqali ko'zlagan iqtisodiy foydasiga erishadi.

Kreditning mohiyati uning funksiyalarida yanayam aniqroq namoyon bo'ladi. Kreditning funksiyalari turli iqtisodiy adabiyotlarda turlicha usulda va miqdorda keltirilgan. Ayrim adabiyotlarda kreditning funksiyalari ikkita deyilsa, boshqalarida beshta funksiyadan iborat deyilgan. Iqtisodchi olimlarning fikrlariga tayangan holda quyida kreditning funksiyalari keltirilgan:

- 1) qayta taqsimlash funksiyasi;
- 2) muomala jarayonini tezlashtirish;
- 3) pullarni muomalaga chiqarish va naqdlashtirish;
- 4) pul kapitalini jamg'arish va markazlashuvini jadallashtirish;

Kreditning funksiyalari ichida *qayta taqsimlash funksiyasi* asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi. Kreditning qayta taqsimlash funksiyasi orqali ssuda kapitali iqtisodiyotning tarmoqlari o'rtasida, qaytarish sharti asosida joylashtiriladi.

Kreditning muomala jarayonini tezlashtirish funksiyasi mamlakat pul muomalasi, pul massasi, pulning aylanish tezligiga bevosita ta'sir qiladi.

Kapital to'planishining jadallashuvi va markazlashuvi. Kapital to'planishi jarayoni iqtisodiy rivojlanishning barqarorlashuvi va xo'jalik yurituvchi subyektning o'z maqsadiga erishishining muhim sharti hisoblanadi. Bu ishlab chiqarishni kengaytirish uchun kredit yordamida katta hajmdagi mablag'ga ega bo'lishga imkon yaratadi. Ushbu funksiya rejali iqtisodiyot davrida rivojlanmagan va mablag'lar bilan ta'minlanmagan faoliyat jabhalarini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash jarayonini sezilarli tezlashtiradi.

⁶⁶ A. A. Omonov, T. M. Qoraliyev “Pul kredit va banklar” “Iqtisod-moliya” Toshkent. 2012 yil 157 bet.

Muomalaga to'lov vositalarini chiqarish. Bu funksiyani amalga oshirish jarayonida kredit faqatgina tovar emas, balki pul muomilasining jadallashuviga, undan naqd pullarni siqib chiqarib, to'lovlar aylanishining tezlashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Kredit tufayli pul muomalasi doirasiga veksel, chek, kredit kartochkalari kabi vositalar kiritilib, naqd pulli hisob-kitoblarni, naqd pulsiz hisob-kitoblarga almashtiradi. Bu esa ichki va tashqi bozordagi iqtisodiy munosabatlar mexanizmini osonlashtiradi va tezlashtiradi. Bu masalani hal etishda tijorat krediti zamonaviy tovar almashinishining kerakli elementi sifatida muhim o'rin tutadi.

Kreditning asosiy tamoyillari:

Kredit munosabatlari ma'lum tamoyillarga asoslanadi. Iqtisodiy kategoriya sifatida kredit quyidagi tamoyillarga ega:

Kreditning qaytarilishi. Bu tamoyil kreditning umumiy belgisi hisoblanadi, lekin u o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. U moddiy jarayonlarga, qiymat aylanishining tugashiga asoslanadi. Ammo doiraviy aylanishning tugashi – bu qaytarib berish emas, qaytarib berish uchun zamin tayyorlash hisoblanadi. qaytarib berishlik obyektiv belgi hisoblanadi va bu tamoyil boshqa iqtisodiy kategoriyalardan, shu jumladan moliyadan farq qiladi.

Kreditning bu tamoyili amaliyotda kredit va undan foydalanganlik uchun foiz summasini kredit bergan muassasa hisobiga ko'chirish yo'li bilan to'lanadi. Shu yo'l bilan banklar kredit resurslarini qayta tiklanishini ta'minlaydi. Sobiq ittifoq davrida «qaytarilmaydigan ssuda» tushunchasi mavjud bo'lib, u qishloq xo'jaligida ham keng tarqalgan edi. Bu banklarni korxonalar moliyaviy ahvolini hisobga olmagan holda berilib, aslida u budjet subsidiyasining qo'shimcha shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Kreditning muddatliligi. Bu kreditning ma'lum muddatga berilishini anglatib, u qisqa va uzoq muddatli kreditga bo'linadi. Bu muddat qarzdor uchun xohlagan muddatda emas, balki u shartnomada belgilangan muddat hisoblanadi. Kreditning o'z vaqtida qaytarilishi ikkala tomon uchun ham muhim hisoblanadi. Qarz bergan tomon uchun kreditni o'z vaqtida foiz bilan qaytarilishi uni yana kreditga berish imkoniyatini yaratadi, qarzdorni esa shartnomada ko'zda tutilgan jazo choralaridan ozod etadi. Kreditning muddatliligi kelib tushuvchi boyliklarning tejamli va qayta ishlatish muddatiga, ishlab chiqarilgan mahsulotning jo'natish muddatiga, tovarlarni sotish muddatiga va pirovard natijada aylanma mablag'larning doiraviy aylanishining tezligiga bog'liqdir.

Kreditning tovar-moddiy boyliklar bilan ta'minlanganligi. Bu tamoyilning mohiyati shuki, bunda xo'jalik aylanmasida ishtirok etuvchi bank mablag'larining bir so'miga muayyan boyliklarning har bir so'mi qarama-qarshi turishi kerak. Berilgan kreditlar tovar-moddiy boyliklari va ma'lum xarajatlar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Ta'minlanmagan kreditlarning berilishi kreditlarni bankga qaytib kelmasligiga sabab bo'ladi. Buning uchun hozirgi sharoitda qarz oluvchilar bankga tovar yoki tovar xujjatlarini, mulkni garovga qo'yadi. Kredit warrant (garov uchun xizmat qiluvchi xujjat) yoki uchinchi shaxs kafolati asosida ham berilishi mumkin.

To'lovlilik. Bu tamoyilga asosan korxonalar foydalanilgan qarz mablag'larini hisoblangan foizi bilan to'liq o'tkazadilar. Kredit uchun haq to'lashning iqtisodiy mohiyati qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasidagi qo'shimcha olingan foydaning taqsimlanishini

qayd qilishda namoyon bo`ladi. Hozirgi sharoitda ssuda foizi miqdori shartnomada o`z aksini topadi va u kreditlashning o`rtacha normasi va bank marjasidan tashkil topadi.

Kreditning maqsadliliği. Bu shu bilan bog`liqki, qarz oluvchi olingan kreditni ma`lum maqsadga (tovar moddiy boyliklar sotib olish, ishlab chiqarish xarajatlarini qoplash va boshqalar) yo`naltirilgan bo`lishi zarur. Bu maqsadlar kredit beruvchi va kredit oluvchi o`rtasida tuzilgan shartnomada o`z aksini topadi. Korxonaga olgan kreditni faqatgina kredit shartnomasida ko`rsatilgan ishni bajarishga (sotib olishga va boshqalar) sarflashi kerak.

Kreditning shakllari va turlari

Jahon amaliyotida kreditlarni yagona, umumlashgan tasnifi yo`q. Chunki kreditlarning turli xil shakllari har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga, uning urf-odatlariga, aholi orasida kreditlarni berish va qaytarish bo`yicha tarixan shakllangan (tovar shaklida, pul shaklida, boshqa shakllar va shartlarda) usullariga bog`liq bo`ladi. Kreditning asosiy turlari:

1. Bank krediti.
2. Davlat krediti.
3. Iste`mol krediti.
4. Tijorat krediti.
5. Lizing.
6. Xalqaro kredit.

2. Kredit mexanizmi va uning elementlari.

Mustaqillikka erishilgandan so`ng mamlakatning o`ziga xos xususiyatlarini qamrab olgan iqtisodiy siyosat shakllanib, istiqbol yo`nalishlari belgilab olindi. Sobiq ittifoqning parchalanishi oqibatida O`zbekistonga o`ta markazlashgan, direktiv usul bilan boshqarilgan, mulkchilikning cheklangan turlariga asoslangan iqtisodiyot meros qilib qoldirilgan edi. Bu esa chuqur iqtisodiy inqirozga olib keldi. Ishlab chiqarish hajmi, milliy daromad ko`rsatkichlari pasayib ketdi.

Respublika Prezidenti va hukumati zudlik bilan qat`iy choralar ko`rish va eng avvalo yangicha iqtisodiy siyosat ishlab chiqildi. Uning negizigabozor iqtisodiyotiasos qilib olindi. Dunyodagi barcha rivojlangan mamlakatlar tajribasidan, ayniqsa, Turkiya, Janubiy Koreya va boshqa qator Osiyo davlatlari namunalaridan to`g`ri foydalanilgan holda mumkin qadar tezroq, aholining hechbirtabaqasiga katta ziyon etkazmasdan bozor iqtisodiyotiga o`tish kerakligi davlat siyosatining mazmunini tashkil qildi. Buning uchun har taraflama keng iqtisodiy islohotlar o`tkazish rejalashtirildi va respublikada bozor munosabatlariga o`tishning quyidagi nazariyasoslari va mezonlari aniqlandi:

- iqtisodning mafkuradan xoli bo`lishi va uning siyosatdan ustuvorligi;
- davlatning bosh islohotchi bo`lishi;
- qonunlar va ularga rioya qilish ustuvorligi;
- xalq manfaatlariga qaratilgan kuchli ijtimoiy siyosatni yurgizish;
- bozor iqtisodiyotiga asta-sekin, bosqichma-bosqich o`tib borish.

Shuni alohida ta`kidlash joizki, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti ilgari surgan rivojlanishning bu besh tamoyili amalda o`zining hayotiyiligini to`la tasdiqladi. Amaliy ish jarayonida O`zbekiston tub iqtisodiy islohotlarni o`tkazishni o`ziga xos yo`lini to`g`riligi va

ta'sirchanligi tasdiqlandi. Bu tamoyillar jahon jamoatchiligi tomonidan ma'qullandi. Mazkur tamoyillarni amalga oshirib, respublikada ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, eng muhimi - bozor munosabatlarini joriy etish sari bosqichma-bosqich ilgarilab borish ta'minlandi.

Bozor iqtisodiyotining qonunlari, talablari bir vaqtning o'zida ham tijorat banklariga ham xo'jalik yurituvchi subyektlarga ta'sirini o'tkazib, umuman yangi bir mexanizmni ishga tushirdi. Bank-moliya tizimi tubdan isloh qilinib tijorat banklari faoliyati erkinlashtirilar ekan, bank aktiv operatsiyalari asosini tashkil etuvchi kredit operatsiyalari foydasi va u tufayli yuzaga keladigan risklar banklar zimmasiga yuklandi. Shundan keyin yangi mexanizm joriy etilishi uchun talablar paydo bo'ldi.

1980-yillarga kelib rejali iqtisod davridagi kredit mexanizmi bir muncha ish bermay qoladi. 1990-yillarga kelib yangi mexanizm va ular bilan birgalikda kreditga layoqatlilik, garov, kafolat kabi yangi terminlar kirib kela boshlaydi. Tijorat banklari tomonidan kredit qo'yilmalarini yanada oshirishga ayrim muammolarning mavjudligi salbiy ta'sir qilgan. Banklardagi muddati o'tgan kreditlarning umumiy berilgan kreditlardagi ulushi ortib borgan. Shu tariqa kredit mexanizmi yangi elementlarga ehtiyoj seza boshlagan. Mulkchilik shakli o'zgarishi mamlakatimizda erkin sharoitda bozor qonun qoidalariga bo'ysunuvchi bozor iqtisodiyoti rivojlanish yo'li tanlanganidan keyin bank-moliya sohasida ham katta o'zgarishlar yuz berdi. Xususan rejali iqtisodiyot davridagi davlat banklari xususiylashtirishga berilib, raqobatbardoslilikni ta'minlash uchun bo'lib yuborildi. Markaziy bank tashkil qilinib barcha tijorat banklariga yangidan majburiyat va huquqlar belgilandi. Rejali iqtisodiyotdan farqli ravishda tijorat banklari reja asosida emas, balki tavakkalchilikni hisobga olgan holda o'zlari kredit berish huquqini qo'lga kiritdilar. Bozor iqtisodiyoti qonunlarini hisobga olgan holda kredit mexanizmi shakllanib, u quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi:



1-rasm. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kredit mexanizmi.⁶⁷

⁶⁷ S. Norqobilov, H. Ortiqov "Kredit mexanizmi va uning elementlari" "Farg'ona" nashriyoti 2012y. 24-bet.

Bozor iqtisodiyotining o'ziga xos kredit mexanizmiga to'xtaladigan bo'lsak, uning akkumulatsiya mexanizmi sifatida bank resurslarining jalb qilinishi tushuniladi. Bozor iqtisodi sharoitida akkumulatsiya mexanizmi ikki elementdan tashkil topadi:

1. Tijorat banklarining o'z mablag'lari;
2. Tijorat banklarining jalb qilingan mablag'lari;
 - a) depozit mablag'lar;
 - b) nodepozit mablag'lar;

Bank resurslarining asosiy manbasini jalb qilingan mablag'lar egallab, ular bank resurslarining 80-90 foizini tashkil etadi. Jalb qilingan mablag'lar aktiv operatsiyalarni, avvalo kredit operatsiyalarini amalga oshirish uchun pul resurslariga bo'lgan ehtiyojni qoplaydi. Yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtinchalik bo'sh mablag'laridan foydalanish orqali, tijorat banklari ular yordamida xalq xo'jaligining va aholining qo'shimcha aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojini qondiradi, pullarni kapitalga aylanishiga yordam beradi. Banklar mablag'larni jalb qilish imkoniyatlari chegaralangan bo'lib, barcha mamlakatlarda bu jarayon Markaziy bank tomonidan tartibga solinib turadi. Jalb qilingan mablag'lar tijorat banklari kredit resurslarining asosiy qismini tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bank kapitali bilan jalb qilingan mablag'lar orasidagi nisbatni bir qator zaruriy me'yorlar yordamida tartibga soladi. Bu quyidagi normativlar: kapital etariligi, bir kredit oluvchiga to'g'ri keladigan maksimal risk miqdori, aholidan jalb qilingan depozitlarning maksimal miqdori va boshqalar.

Depozit siyosatiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri tijorat banklari tomonidan muddatli va jamg'arma depozitga to'lanadigan foiz stavkalarining shakllantirish hisoblanadi. Bu albatta bankning kredit siyosati bilan birgalikda ishlab chiqiladi. Tijorat banklari depozit siyosatiga ta'sir qiluvchi ikkinchi omil Markaziy bankning majburiy zahira siyosati hisoblanadi. Majburiy zahira stavkasining o'zgarishi bank resurslari likvidligiga ham ta'sir o'tkazadi. Hozirgi kunda bu stavkalar respublikamiz bank amaliyotida muddatlarga qarab takomillashtirilgan:

- 1 yilgacha muddatda – 15%
- 1 yildan 3 yilgacha muddatda – 12%
- 3 yildan uzoq muddatga – 10,5%

Bu siyosatni ishlab chiqilishi ustidan bevosita Markaziy bank o'z nazoratini amalga oshiradi.

Jalb qilingan mablag'larni asosiy qismini depozitlar tashkil qiladi. Banklarda maksadlarni amalga oshirish uchun pul mablag'larini qo'yilmalarga jalb qilish operatsiyalari depozit operatsiyalari deyiladi. Depozitlar faqatgina omonatchiga emas, shu bilan birga bankka ham manfaatlidir. Ko'pgina depozitlar orqali bankning ssuda kapitali shakllanadi, keyinchalik esa bank turli xo'jalik sohaslarini qulay shartlar asosida kreditlaydi. Depozit va kredit foizlari orasidagi farq bo'sh pul mablag'larini jalb qilish va ssuda kapitalini joylashtirish borasidagi bank marjasi (mukofoti) bo'lib hisoblanadi. Bankning "Oltin qoidasi"ga ko'ra, bank moliyaviy talablarining hajmi va muddati bank majburiyatlari miqdori va muddatiga mos kelishi kerak. Bu qoidaga rioya qilib, banklar joriy hisobraqamlar bo'yicha qoldiqlarni kredit resursi sifatida ishlata olmaydilar, chunki mijozlar ularni hohlagan vaqtda talab qilib olishlari mumkin. Va'holanki, mijozlar, odatda,

o'z mablag'larining hammasini birdaniga olishmaydi, shuning uchun, bankning naqd pul zahirasi omonatlarga nisbatan shakllanadi.

Bankning o'z mablag'lari deganda, ustav fondidan tashqari moliyaviy barqarorlikni, xo'jalik faoliyatini ta'minlash maqsadida tashkil qilingan turli jamg'armalar, joriy va o'tgan yildagi faoliyat natijasidan olingan sof foydani tushunish kerak.

Bank kapitalining shakllanishi va uning har yili oshirib borilishi nafaqat akkumulatsiya mexanizmi, balki bankning boshqa operatsiyalari shuningdek nufuzi, banlararo raqobatbardoshligi, mijozlarning ishonchini qozonishi va inqirozlarga chidamli bo'lishi uchun xizmat qiladi. "Kapitalning yetarliligi" termini bankning ishonchliligini va riskni bajarish darajasini aniqlaydi. Bu yerda yetarlilik tamoyili kelib chiqadi: o'z kapitali hajmi risk bo'yicha hisoblangan aktivlar hajmiga mos kelishi kerak.

Bunda kapitalning riskka tortilgan aktivlar miqdoriga nisbatan bank kapitali sifatida olinadi. O'zbekiston respublikasi tijorat banklariga qo'yilgan kapital yetarlilik darajasi Bazal qo'mitasi talablaridan biroz farq qilib, respublikamiz tijorat banklarining o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda belgilangan. Markaziy bankning 2000-yil 26-apreldagi 422-sonli nizomiga muvofiq bank umumiy kapitali yetarlilik darajasi minimal miqdori 10 foiz, asosiy kapital yetarlilik darajasi minimal miqdori 5 foizni tashkil qiladi. Bankning ustav kapitalidan tashqari qo'shimcha kapital, taqsimlanmagan foyda kabi o'z mablag'lari jalb qilingan mablag'lar miqdorining va sifatining oshishiga bevosita ta'sir qiladi.

O'zbekistonda banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish va mustahkamlash borasida ko'rilgan chora tadbirlar natijasida tijorat banklarining umumiy kapitali 2010-yilda 4 trillion 100 milliard so'mga yetgan. Shu yili banklar kapitalining yetarlilik darajasi 23,4 foizni tashkil etgan va Bazal qo'mitasining banklar kapitalining yetarlilik darajasi minimal miqdoridan qariyb uch barobar ko'pdir.⁶⁸ Tijorat banklari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning pul mablag'larini bankka jalb qilish bilan bog'liq operatsiyalar depozit operatsiyalari deyiladi. Bu operatsiyalar yordamida tijorat banklari passivlarining qariyb 90 foizini tashkil qilib oladilar. Ularning asosiy qismini talab qilib olinguncha depozitlar tashkil qiladi. Qolgan qismi esa muddatli va jamg'arma depozitlariga tegishlidir.

Tijorat banklari resurs bazasi ya'ni o'z va jalb qilib olingan mablag'lari birgalikda bozor iqtisodiyoti sharoitidagi o'ziga xos shakllangan kredit mexanizmining akkumulatsiya mexanizmi asosiy elementlari bo'lib hisoblanadi. Bu elementlarning har birining rivojlanishi va ko'payishi kelajakda rejalashtirilgan kreditning manbasi bo'lib xizmat qiladi. Tijorat banklari resurslar bazasini yanada to'liqroq aniqlashtirish maqsadida yuqorida rasmda keltirilgan. "**Kreditlash mexanizmi**" tushunchasining o'ziga alohida ta'rif beradigan bo'lsak, kreditlash shart-sharoitlarini belgilovchi elementlarning yig'indisi tushuniladi. U o'z mazmun jihatdan "**Kredit mexanizmi**" tushunchasiga qaraganda bir muncha "tor" ma'noni anglatadi. Shu bilan birga, kredit mexanizmining tarkibiga kiradi va bu fikr ko'pchilik iqtisodchilar tomonidan ham tan olingan. "Kredit mexanizmi" va "Kreditlash mexanizmi" tushunchalarining chegarasi R. G. Olxovada fikrlarida ko'rinadi. Uning fikricha kreditlash mexanizmi kredit mexanizmining bir elementi bo'lib, o'zida

⁶⁸ F. Mullajonov. Pul-kredit sohasidagi mavjud vaziyat va monetary siyosatning 2011-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari. "Bozor, pul, kredit" jurnali. 2011-yil 1-son.

quyidagi bo'g'inlarni birlashtirgan bo'lishi zarur: o'z va qarz aylanma mablag'larini chegaralash tamoyillari, kreditlash uslublari, ssuda schoti turlari, kreditlash obyektlari, kreditni rejali boshqarish uslublari, kreditdan foydalanish ustidan nazoratni tashkil etish metodlari va turlari. Kredit mexanizmining mazmunini o'rganishda uning tarkibiy elementlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu elementlar adabiyotlarda ayrim hollarda umumlashtirib, ba'zan esa alohida holda beriladi. Professor O. K. Iminovning kredit mexanizmining tarkibiy qismlari to'g'risidagi fikri alohida e'tiborga molikdir. Uning fikricha, kredit mexanizmi kredit mablag'laridan unumli foydalanish, boshqarish shakli va usullari tizimidan iboratdir. Kredit munosabatlari, kredit muassasalari va kredit mexanizmi birgalikda *kredit tizimi* ni tashkil qiladi. Kredit mexanizmi tarkibi har xil mulkchilikka asoslangan davrlarda turli ko'rinishda aks etsada tub mohiyati o'zgarmagan. Quyida rejali iqtisodiyot davrida mavjud bo'lgan kredit mexanizmi chizma ko'rinishida berilgan.



3-rasm. Rejali iqtisodiyot davrida kredit mexanizmi.⁶⁹

Rasmdan ko'rinib turibdiki, kredit mexanizmi uch qismdan iborat: kredit resurslarni jalb qiluvchi **akkumulatsiya mexanizmi**, kredit berish jarayonini o'z ichiga oluvchi **kreditlash mexanizmi** va **iqtisodiy ta'sir mexanizmi**.

Akkumulatsiya mexanizmi- kredit mexanizmining kredit resurslarini jalb qilishga oid qismi bo'lib, rejali iqtisodiyot sharoitida nisbatan rivojlanmagan. Chunki bu davrda yuridik shaxslar bo'sh mablag'lari banklarda majburan saqlanib turilgan.

Kreditlash mexanizmi- davlat mulkiga asoslangan korxonalarni reja bo'yicha kreditlashni to'liq o'z ichiga olgan. Shu davrda keng taraqqiy etgan.

⁶⁹ S. Norqobilov, H. Ortiqov "Kredit mexanizmi va uning elementlari" "Farg'ona" nashriyoti 2012y.16-bet.

Iqtisodiy ta'sir mexanizmi- kredit uchun o'rnatiladigan foizlarning o'rnatilishi va rejali iqtisodiyotda ular ishlab chiqarilgan tovarning tannarxini oshirib yubormaslikka qaratilgan.

3. Tijorat banklarida kredit operatsiyalarini tashkil etishning huquqiy asoslari.

Respublikamiz tijorat banklari kredit operatsiyalarining rivojlanishi takomillashuvi shuningdek yuqori daromad keltirishi bilan birgalikda kam riskli bo'lishi zarur. Banklarda kredit operatsiyalarining joriy etilishi, kreditlash jarayoni va amaliyoti bilan bog'liq bozor iqtisodiyoti qonuniyatlarini o'z ichiga olgan, bir vaqtning o'zida kreditor va qarz oluvchining huquq va majburiyatlarini teng taqsimlaydigan qonun va qonun osti hujjatlar davlatimiz tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ularning barchasi mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, chet el kapitali ishtiroki va boshqa sho'ba banklar va kredit operatsiyalari bilan shug'ullanuvchi moliyaviy tashkilotlarga birdek xizmat qilmoqda.

Quyida tijorat banklarimizning kreditlash jarayonida yo'l yo'riq bo'lib xizmat qiluvchi meyoriy hujjatlar va huquqiy asoslar keltirilgan:

- O'zbekiston Respublikasining qonuni "Banklar va bank faoliyati to'g'risida" 1996-yil 25-aprel;
- O'zbekiston Respublikasining qonuni "Bank siri to'g'risida" 2003-yil 30-avgust 530-II-sonli;
- O'zbekiston Respublikasining qonuni "Ipoteka to'g'risidagi" 2006-yil 4-oktabr O'RQ-58-son;
- O'zbekiston Respublikasining qonuni "Iste'mol krediti to'g'risidagi" 2006-yil 6-may O'RQ-33-sonli;
- O'zbekiston respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 02.03.2000-yil ro'yxatga olingan №905-sonli "Tijorat banklari kredit siyosatiga nisbatan qo'yilgan talablar to'g'risidagi" nizom;
- O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2004-yil 17-dekabrda ro'yxatga olingan №1435-sonli "Tijorat banlarida kreditlarning buxgalteriyasini yuritish to'g'risidagi" nizom;
- O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 02.03.2000-yil ro'yxatga olingan №906-sonli "O'zbekiston respublikasi banklarida kredit hujjatlarini yuritish tartibi to'g'risidagi" nizom;
- O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1999-yil 16-martda ro'yxatga olingan №675-sonli "O'zbekiston respublikasi hududida banklar tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlarga qisqa muddatli kreditlar berishni tashkil etish tartibi to'g'risidagi" nizom;

Tijorat banklarida har yili bankning imkoniyatlari va o'ziga xos jihatlari hisobga olgan holda bank kengashi tomonidan kredit siyosati ishlab chiqilishi va amaliyotga berilishi zarur. Ushbu kredit siyosati O'zbekiston respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 02.03.2000-yil ro'yxatga olingan №905-sonli "Tijorat banklari kredit siyosatiga nisbatan qo'yilgan talablar to'g'risidagi" nizom orqali tartibga solinadi.

Bankning kredit siyosati - kreditlash jarayonida yuzaga keluvchi tavakkalchilikni boshqarishda bank rahbariyati tomonidan qabul qilinadigan choralar va uslublarni belgilovchi hamda bank rahbariyati va xodimlarini kreditlar portfelini samarali

boshkarishga doir ko'rsatmalar bilan ta'minlovchi hujjatdir. Kredit siyosati bankning kredit faoliyati maqsadlarini aniq ko'rsatishi va aniqlab berishi shart. Kredit siyosatining tavsifi kredit portfelining tarkibiga, bank o'z faoliyatini amalga oshirayotgan hududning iqtisodiyotiga qarab aniqlanadi. Kredit strategiyasini shakllantirishda va tegishli kredit siyosatini tayyorlashda, bank ushbu omillarni hisobga olishi shart. Bankning kredit siyosati uning joriy bank strategiyasi va iqtisodiy holatiga muvofiqligini ta'minlash uchun bank Kengashi tomonidan yiliga kamida bir marta tegishli yilning 1- fevraligacha bo'lgan muddatda kayta ko'rib chiqilishi va tasdiqlanishi kerak. Kredit siyosati bank faoliyati turlariga karab mazmuni va tuzilmasi jihatidan farq qiladi. Mazkur bo'lim bank maqomi va u joylashgan manzildan qat'iy nazar kredit siyosatida aks ettirilishi lozim bo'lgan umumiy masalalar ro'yxatini belgilab beradi. Bunda kredit siyosatining yo'nalishlarida berilayotgan kreditlarning hajmi va shakli, qisqa va uzoq muddatli kreditlar o'rtasidagi nisbat, moliyaviy axborotlarni tahlil etish jarayoni, kredit portfeli hamda mablag'larning qaytarilishini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar aks ettirilishi lozim. Har qanday kredit siyosatining maqsadi odatda quyidagilardan iborat bo'ladi: uzoq muddatli investisiyalardan aksiyadorlarga yuqori daromad kelishini ta'minlash, likvidlikni saqlab turish, tavakkalchilikni diversifikasiya qilish, siyosat va tadbirlar birligini kafolatlash, qonunlar va me'yoriy hujjatlarga rioya qilish, hududning kreditlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish. Kreditlashning strategik yo'nalishlari bank Kengashi tomonidan belgilanadi va tasdiqlanadi.

Kredit siyosati kredit berish jarayoniga jalb etilgan kredit xodimining lavozimi va vakolatlariga qarab ularning har biri uchun kreditlash to'g'risida qaror qabul qilish va kredit miqdorini cheklash tartibini belgilab beradi. Kreditlash uchun mas'ul bo'lgan barcha shaxslar vakolatlari kredit siyosatida qayd etiladi. Kredit qo'mitasi majlislari va uning bank boshqaruvi organlari oldida hisobot berishi davriyligi ham kredit siyosatida belgilab qo'yilishi kerak.

Kredit siyosati bank tomonidan beriladigan kreditlar toifasi va turlarini aniqlashi va belgilashi lozim. Masalan, kreditlash sohalari bo'yicha: tijorat faoliyati, sanoat, qishloq xo'jaligi, kapital qo'yilmalarni moliyalash va boshqalar. Kredit turlari bo'yicha: "kredit liniyalarini ochib va ochmay" kreditlash, lombard va veksel kreditlari va boshqalar. Kredit siyosatida maxsus ssudalarni berish direktiv tamoyillari aniq ifodalangan holda mazkur bank uchun mos kelmaydi yoki maqbul bo'lmaydi, deb hisoblanuvchi kredit turlari va toifalari ham ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Kreditni to'lash muddati uni to'lashning birlamchi va ikkilamchi manbalarini sinchiklab baholash asosida belgilanishi kerak. Kredit siyosat rahbariyat nuqtai nazaridan har xil toifa va turdagi kreditlarni to'lashning ma'qul dasturlaridan iborat bo'lishi zarur. Kredit siyosati kreditlar berishning maksimal muddatlarini belgilashi lozim. Ushbu siyosat shuningdek kreditning asosiy summasini kredit to'lash muddatining so'ngida va kredit to'lashning boshlang'ich muddati uzaytirilayotganda qaytariladigan kredit turlarini berish tartibini ham o'z ichiga olishi kerak. Kredit siyosati to'lovlarni o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash, mablag'larning qaytarilishi va berilgan kreditlar bo'yicha qarzdorlikni undirib olish bo'yicha chora-tadbirlarni o'z ichiga olishi lozim.

Bank kredit siyosati kredit berish bosqichida ham, keyingi monitoring bosqichlarida ham jismoniy va yuridik shaxslarning moliyaviy hisobotlariga nisbatan qo'yiladigan talablarni o'z ichiga olishi kerak. Moliyaviy hisobotlarni auditorlik tekshiruvlaridan o'tkazish, naqd pul oqimi va boshqa ma'lumotlar bo'yicha hisobotlarni taqdim etish yuzasidan qo'yiladigan talablar aniq ifodalanishi zarur. Shuni ham qayd etib o'tish lozimki, banklar talab qiladigan ma'lumotlar Milliy Buxgalterlik Hisobi Standartlariga (MBXS) muvofiq taqdim etilishi kerak. Kredit siyosatida potensial qarzdorlarning kredit qobiliyatini (likvidlik, qoplanish, muxtoriylik koeffisientlari, kapitallashtirish darajasi, garov ta'minoti ekspertizasi va boshqalar) aniqlash uchun ularning moliyaviy ahvolini tahlil qilish tadbirlari batafsil yoritilishi lozim. Bank qarzdorlarning kredit qobiliyati mezonlari va ularni baholash metodikasini aniq belgilab olishi zarur. Bundan tashqari, kredit siyosati qarzdorlar tomonidan biznes rejaga buyurtmalar portfelining tuzilishi va bank kreditidan foydalangan holda ko'rsatiladigan xizmatlar, ishlab chiqariladigan tovarlarni sotish bozorining mavjudligini kiritish bo'yicha talabni o'z ichiga olishi kerak.

Kredit siyosati muayyan turdagi qimmatliklar (ko'chmas mulk, avtomobillar va boshqalar) garovi asosida beriladigan ssudalarning maksimal miqdori limitlarini o'z ichiga olishi hamda ta'minlangan ssudalarning har bir turi uchun kredit hujjatlari to'plamini rasmiylashtirish tadbirlarini belgilashi lozim. Bank kredit siyosatida garov kreditlashning uni berish vaqtidayok kreditni to'lash manbasi (naqd pul yoki davlat qisqa muddatli obligatsiyalari (xazina veksellari) bilan ta'minlangan kreditlar bundan mustasno) hisoblangan yagona asosi bo'lmasligi belgilab qo'yilishi zarur. Kredit siyosati garovga olingan mulk turiga qarab garov mavziga nisbatan qo'yiladigan talablar va kreditning garov qiymatiga nisbatini o'z ichiga olishi kerak. Mazkur bandeda garov mavzui sinchiklab baholanishi va uning bozor qiymati uni sotish lozim bo'lgan paytda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zarar o'rnini qoplashi lozimligi aniq yoritilishi zarur. Hujjatda garov mavzui mustaqil baholovchi va ichki bank baholovchisi tomonidan baholanadigan hollar ko'rsatib o'tilishi kerak. Turli garov toifalarini baholash uslublari batafsil aks ettirilishi lozim. Siyosat ko'chmas mulk, ishlab chiqarish jihozlari va iste'mol kreditlarini moliyalash uchun beriladigan kreditlarni to'lash hisobiga qarzdor tomonidan bo'nak to'lovlarini kiritishga doir muayyan talablarni o'z ichiga olishi zarur.

Kredit siyosatida kreditlarni tasniflash tizimi aniq ifodalanishi lozim. Kredit xodimlari kredit portfelidagi barcha ma'lum bo'lgan salbiy o'zgarishlar to'g'risida rahbariyatga xabar berishlari kerak. Qarzdor yoki garov ahvoli yomonlashishini oldindan aniqlash ehtimoliy yo'qotishlarni kamaytirish uchun juda muhimdir. Kredit siyosati kreditlarning barcha toifalari bo'yicha "to'lovsizlik" tushunchasining aniq ifodalanishi, foizlarni o'stirmaslik mezonlari, shuningdek bank Boshqaruvi va Kengashining tegishli hisobotlariga nisbatan talablarni o'z ichiga olishi lozim. Hisobotlarda ahvolning yomonlashishi, yashirin zararlar sabablari va sog'lomlashtirish rejalari batafsil bayon etiladi. Kredit siyosat qarzlarni qaytarishga doir izchil bosqichma-bosqich chora-tadbirlar ko'rilishini talab qilishi kerak. Rahbariyat Markaziy bank tomonidan belgilangan talablarga muvofiq kreditlarni hisobdan chiqarish tadbirlarini ishlab chiqishi lozim.

Kredit siyosati turli kreditlar va qarzdorlar bo'yicha belgilanuvchi foiz stavkalarini aniqlashda foydalaniladigan omillarni o'z ichiga olishi kerak. Bunda hech bo'lmaganda

resurslar qiymati, kredit bo'yicha xizmat ko'rsatishga doir kutilayotgan xarajatlar, vositachilik haki, ma'muriy sarflar, ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zahiralalar va bank marjasi baholanishi zarur.

Kredit siyosati bank bilan bog'liq shaxslarga beriladigan kreditlar bo'yicha Markaziy bank talablariga muvofik keluvchi limitlarni o'z ichiga olishi lozim. Kredit siyosatida bank bilan bog'lik shaxslar bilan bitimlarni qisqartirish yoki ularni tuzishning har qanday imkoniyatlarini bartaraf etish maqsadida bog'liq shaxslarga beriladigan kreditlarni tasdiqlash va qayta tiklash tartibi va tadbirlari belgilab qo'yilishi kerak.

Kredit siyosatida kafolatlar va akkreditivlarning maqsadi va ishlatilishi, mansabdor shaxslarning bunday majburiyatlarni chiqarishga doir vakolatlari va bunday vositalar chiqarilishi mumkin bo'lgan hollar, shuningdek ularga doir hujjatlar va hisobotlarga nisbatan qo'yiladigan talablar batafsil yoritilishi lozim. Balansdan tashkari majburiyatlarni berishda moliyaviy xisobotlar (hujjatlar)ni taqdim etishga oid talablar kreditning istalgan boshqa turlarini berishda foydalaniladigan hujjatlar va hisobotlar bilan bir xil bo'lishi zarur. Tijorat akkreditivlari bo'yicha to'lovlarni o'tkazish, to'lov va yuk ortish hujjatlari (yuk xatlari), sug'urta polisleri hamda xalqaro andozalar va tadbirlarga muvofiq talab qilinadigan boshqa hujjatlarga nisbatan qo'yiladigan qo'shimcha talablar qayd etilishi kerak. Siyosat bank kredit portfelini vaqti-vaqti bilan baholashga javobgar bo'lgan mansabdor shaxslar ro'yxatini belgilashi hamda kredit portfeli sifatini aniqlash va tuzatishlar minimal yuzaga keluvchi yo'qotishlar bilan kiritilishi uchun muammoli kreditlarni aniqlash uchun zarur bo'lgan ichki bank kredit tahlili maqsadlarini belgilab qo'yishi lozim. Tahlil maqsadlari kredit sifatini aniqlash bilan bir qatorda kreditlash jarayonini boshqarish sifatini baholash, jumladan, tasdiqlangan kredit siyosati muvofiqligini ta'minlash va kredit hujjatlarini rasmiylashtirish tadbiri, moliyaviy tahlil, garovni rasmiylashtirish va baholash, kreditlashga doir vakolatlarni taqsimlash, qonunchilik me'yorlariga rioya qilish.

Kredit siyosati bank xizmatlari va bo'linmalari tomonidan Bank Boshqaruvi va Kengashiga kreditlashning turli jihatlari bo'yicha topshiriladigan hamda kredit portfeli sifati va kredit portfelini boshqarish bilan bog'liq bo'lgan boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hisobotlar turi va davriyligini belgilashi lozim. Hisobotlar filiallar va bank bo'yicha umuman kreditlash vositalari va yo'nalishlariga qarab tavakkalchiliklarni baholash uchun boshqarishning turli darajalariga moslashtirilgan hamda batafsil yoritilgan bo'lishi kerak.

Tijorat banklari kredit siyosatini ishlab chiqqanlaridan keyin, kredit berish uchun maxsus hisob raqamlar bilan ishlashi kerak. Ushbu maxsus ssuda hisob raqamlari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2004-yil 17-dekabrda ro'yxatga olingan 1435-sonli "Tijorat banklarida kreditlarning buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to'g'risidagi" nizomga asosan ochiladi va yuritiladi.

Bank tomonidan berilgan kredit amaldagi qiymatida aks ettiriladi va u qarzdorga berilgan pul mablag'lari summasini ifodalaydi. Bank tomonidan kredit berilganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt 11900-15500 (tegishli ssuda hisobvarag'i)

Kt 10301 - "Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'i - Nostro" (agar mablag' oluvchiga boshqa tijorat banki tomonidan xizmat ko'rsatilsa), yoki

Kt – mablag' oluvchining talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i (agar mablag' oluvchiga mazkur bankda xizmat ko'rsatilsa) yoki

Kt - 10100 - "Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari" (kredit naqd pulda berilganda).

Kreditlarning qaytarilishi qarz oluvchining asosiy, shuningdek ikkilamchi talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlaridan quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali amalga oshiriladi:

Dt- qarz oluvchining talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i

Kt - Ssuda hisobvarag'i

Agar kredit kafolat beruvchi (kafil) tomonidan qaytarilsa, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt - Kafolat beruvchi (kafil) talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i, yoki Dt 10301 - Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'i – Nostro (agar oluvchiga boshqa tijorat banki xizmat ko'rsatsa)

Kt - Ssuda hisobvarag'i

Kreditlar qarz oluvchi tomonidan naqd pulda qaytarilganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt 10100 - "Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari"

Kt - Ssuda hisobvarag'i.

Agar kreditga foiz o'stirmaslik maqomi berilmagan bo'lsa, unda kreditlar bo'yicha foizlar tushumi quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali aks ettiriladi:

Dt- qarz oluvchining talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i

Kt 16309 - "Kreditlar bo'yicha hisoblangan foizlar"

Foizlarni o'stirmaslik maqomi berilgan kreditlar bo'yicha foizlar hisobi Foizlarni o'stirmaslik to'g'risida Nizom (ro'yxat raqami 1304, 2004-yil 24-yanvar)ga muvofiq amalga oshiriladi.

Agar qarzdor tomonidan olingan garov bilan ta'minlanmagan kredit qaytarilmasa yoki to'liq qaytarilmasa, u holda ushbu kreditlar zararlar uchun tashkil qilingan zaxira hisobiga quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali hisobdan chiqariladi:

Dt - Kreditlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar zaxirasi - Kreditning mos kategoriyasi (kontr-aktiv)

Kt - Ssuda hisobvarag'i.

Agar qarzdor tomonidan olingan garov bilan ta'minlangan kredit qaytarilmasa yoki to'liq qaytarilmasa, u holda bank olingan kreditni garovga qo'yilgan mol-mulk orqali undirish huquqiga ega. Undirib olish bo'yicha garovga qo'yilgan mol-mulk kim oshdi savdosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sotiladi. Garovga qo'yilgan mol-mulkni sotishdan mablag'lar kelib tushganda:

Dt 10301- Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'i - Nostro – debetlanadi

Kt 29801 "Mijozlar bilan hisob-kitoblar" hisobvarag'i kreditlanadi.

Kreditlar bo'yicha asosiy qarzni va mazkur kredit bo'yicha hisoblangan, lekin hali olinmagan foizlarni qaytarish quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali amalga oshiriladi:

a) Asosiy qarz qaytarilganda:

Dt 29801 "Mijozlar bilan hisob-kitoblar"

Kt - Ssuda hisobvarag'i.

b) Asosiy qarz to'liq qaytarilgandan keyin, foizlar qaytarilayotganda:

Dt 29801 "Mijozlar bilan hisob-kitoblar"

Kt 41400-44600 - Kreditlar bo'yicha foiz daromadlari.

Foiz o'stirmaslik.

Banklar kreditlar, qarz qimmatli qog'ozlari va boshqa moliyaviy vositalar bo'yicha foizlarni hisoblab borishni quyidagi hollarda to'xtatadi:

- 1) aktivlar Markaziy bank normativ hujjatlariga muvofiq substandart, dargumon va ishonchsiz turlarga tasniflanganda;
- 2) aktiv MHXS ga muvofiq qadrsizlanganda;
- 3) asosiy summani qaytarish yoki uning foizini to'lash muddati 60 kun va undan ortiq muddatga kechiktirilgan holda (qaytarish muddati bir yilgacha bo'lgan foizli aktivlar bo'yicha);
- 4) asosiy summani qaytarish yoki uning foizini to'lash muddati 90 kun va undan ortiq muddatga kechiktirilgan holda (qaytarish muddati bir yildan ko'p bo'lgan foizli aktivlar bo'yicha);

Aktivlarga "o'stirmaslik" maqomini bergan paytdan boshlab, banklar quyidagilarni amalga oshirishlari lozim:

- 1) foizli daromadlarni balans hisobvaraqlarida hisoblash to'xtatiladi;
- 2) barcha hisoblangan, lekin olinmagan foizli daromadlar balans hisobvaraqlaridan ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlariga o'tkazilishi lozim va aktivga "o'stirmaslik" maqomi berilgandan so'ng keyingi foizlar hisoblanishi ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlarida amalga oshiriladi;
- 3) ushbu aktivlar bo'yicha barcha keyingi to'lovlar birinchi navbatda, hisoblangan, lekin olinmagan foizli daromadlarni, keyin esa kreditning asosiy summasini qoplashga yo'naltiriladi.

Kredit hujjatlari yig'ma jildi tarkibi umumiy holatda.

Qarzdor tomonidan imzolangan va kredit berilishidan oldingi sana qo'yilgan, kreditdan foydalanish maqsaddati bayon etilgan va kredit ta'minlangan holda garov mavzui ko'rsatilgan ariza;

Qarz oluvchining ta'sis hujjatlari; bunda hujjatning nusxalari mas'ul kredit xodimi tomonidan qarz oluvchining yuridik ishidan olingan bo'lishi shart;

Biznes-reja (iste'mol krediti va biznes-rejani taqdim etish shart bo'lmagan kreditning boshqa turlari bundan mustasno);

Agar shaxs qarzdorning vakili bo'lsa, qarzdor nomidan kredit shartnomasini imzolash huquqini tasdiqlovchi hujjat, imzolar nusxasi;

Tuzilgan kredit shartnomasining asl nusxasi;

Qabul qilingan buxgalteriya standartlariga muvofiq tayyorlangan, oxirgi hisobot sanasida qarzdor tomonidan imzolangan moliyaviy hisobotlar, jumladan balans hisoboti hamda daromadlar va pul oqimiga doir hisobotlar, zarurat tug'ilganda qarz oluvchining hisobotlari bank va bankning konsultasion bo'limining mas'ul kredit xodimi hamkorligida talab qilinayotgan formatga muvofiq keltirilishi shart;

Bank kredit qo'mitasining kredit tasdiqlangan muddat va shartlarini o'z ichiga oluvchi kredit shartnomasini tasdiqlashga doir qarori.

8-mavzu. Kreditlashni tashkil etish asoslari

Reja:

1. Kreditlash ob'ekti, sub'ekti va ssuda schyotlarining turlari.

2. Bank kreditining shakllari va turlari

3. Banklarda kreditlash jaryonini tashkil qilishning huquqiy asoslari

Kreditning mohiyatini yanada aniqlashtirish uchun uning tarkibini, harakat bosqichlarini, iqtisodiy kategoriya sifatidagi muhim belgilarini va ijtimoiy - iqtisodiy xarakteristikasini ko'rib chiqamiz. Kreditning mohiyatini tushunish uchun avvalom bor, uning tarkibi nimadan iborat ekanligini tushunib olish zarur. Kredit munosabat bo'lishi uchun uning zarur elementlari - kreditning ob'ekti va sub'ekti bo'lishi zarur.

Kredit munosabatlarida sub'ektlar ikki xil bo'ladi:

1. Kreditor (qarz beruvchi)
2. Qarz oluvchi

Bundan tashqari kredit munosabatlari tarkibining elementi sifatida kreditning ob'ekti yuzaga keladi.

Kredit ob'ekti - bu (kreditor) qarz beruvchidan qarz oluvchiga beriladigan va qarz oluvchidan kreditor (qarz beruvchi)ga qaytib beriladigan qiymatdir.

Bunda qarzga berilgan mablag' o'z qiymatini saqlab qolishliligi kreditning asosiy sifati hisoblanadi.

Kredit sub'ektlari har xil, bularga korxonalar, firma, tashkilot, davlat va turli toifadagi aholi kiradi.

Kreditning ob'ektihar qanday pul emas, balki faqat vaqtincha bo'sh turgan, egasi tomonidan ishlatilmay va qarzga berilishi mumkin bo'lgan puldir.

Bo'sh pul uch xil bo'ladi:

- tadbirkorlar yoki katta puldorlar qo'lidagi pul, ya'ni pul kapitali;
- aholi qo'lidagi pul - ertami-kech ehtiyojni qondirish uchun to'plangan pul, egasi qo'lida kapital emas, balki iste'molini qondirish vositasi;
- davlat ixtiyoridagi pul. Bu ham pul kapitali (davlat korxonasi uchun), ham umumiy iste'mol pulidir.

Aytilgan turdagi bo'sh pullar ssuda (qarz) fondini tashkil etadi va uning yuzaga kelishi ob'ektiv tarzda muqarrardir. Qarzga berilgan pul, ya'ni kredit harakatini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$K_b \longrightarrow K_o \longrightarrow K_i \longrightarrow K_{fq}$$

Bu erda,

K_b - kredit berildi;

K_o - kredit olindi;

K_i - kredit ishlatildi;

K_{fq} - kredit foiz (%) bilan qaytarildi.

SHu tarzda bo'sh pullar kreditning asosiy sharti-qarz uchun haq to'lashni ta'minlaydi. Bu haq qarz qilingan summaga nisbatan foiz hisobida olinganidan u qarz protsenti deb yuritiladi. Qarz protsenti pul bozorida amal qiladi.

Kredit tarkibi uning elementlari birligini ifodalaydi.

Kreditning harakat boskichlari ham uni muhim belgisi hisoblanadi. Qarzga beriluvchi qiymat harakatini quyidagi sxemada ifodalash mumkin:

$$B_k - O_{kz} - I_k \dots V_r \dots Q_k - F_{ks}$$

B_k - kreditning berilishi

O_{kz} - kreditni qarz oluvchi tomonidan uning vaqtinchalik ehtiyojlarini qondirish uchun olinishi

I_k - kreditni ishlatilishi qarz oluvchining kreditni nima maqsadda olganligi bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

V_r - qarz oluvchining xo'jaligida qarzga olingan qiymatni aylanma oboroti tugallanishini resurslarning oborotdan chiqarilishi ifodalaydi.

Q_k - kreditni qaytarish

F_{ks} - vaqtinchalik berilgan qiymatni kreditor qo'liga qaytib kelishi (%) bilan

Kreditning mohiyatini uning asosi malum vaqtdan keyin qaytarib beruvchanlik sharti va foiz bilan qaytarishi sharti yanada kengroq ochib beradi. Bu har ikkala shartdan tashqari kreditning iqtisodiy kategoriya sifatida harakat qilishini asoslash uchun iqtisodiy munosabatlarning chuqur ijtimoiy - iqtisodiy belgilarini hisobga olish zarur.

Kredit mohiyatining tahlili uzluksiz jarayon. Bunda tahlil jarayonida yangidan yangi belgilar, xususiyatlar yuzaga chiqishi mumkin.

Har qanday iqtisodiy kategoriya o'zining funksiyalariga ega bo'lgani kabi kredit ham o'zining bir qator funksiyalariga ega. Ijtimoiy iqtisodiy tizimda kreditning o'rni va roli u bajarayotgan funksiyalari bilan aniqlanadi. Kreditning funksiyasi - bu kreditning iqtisodiyotda faoliyatining konkret ravishda namoyon bo'lishidir.

O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunning 28 va 34 - moddalariga muvofiq korxonalarni, tashkilotlarni, muassasalarni, xususan kichik, o'rta biznes faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlarni kreditlash tijorat banklarining asosiy vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Kredit berish (olish) «O'zbekiston Respublikasi banklarida kredit hujjatlarini yuritish tartibidagi nizom»ga muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu nizom banklar tomonidan beriladigan barcha kreditlarga, shuningdek, unga ochilayotgan kredit liniyalariga nisbatan qo'llaniladi. Bank kreditlarni o'zining ichki kredit siyosatiga va kredit operatsiyalarini yuritishning umumiy shartlariga muvofiq ravishda beradi.

Kreditlar yuridik shaxs huquqlariga, o'z sarmoyasi va mustaqil balansiga ega bo'lgan, O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar to'g'risida»gi qonuni tatbiq etiladigan mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ekt hisoblanadigan korxonalariga taqdim etiladi. Zarar ko'rib ishlaydigan, nolikvid balansga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga kredit

berilmaydi, ilgari berilgan ssudalar esa belgilangan tartibda muddatidan oldin undirish uchun da'voga beriladi.

Kredit olish uchun korxonaga yoki tashkilot o'ziga xizmat ko'rsatuvchi bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- kredit olish uchun ariza;
- korxonaning moliyaviy ahvolini aniqlash uchun oxirgi hisobot davri uchun buxgalteriya balansi;
- biznes-reja;
- foyda va zararlar to'g'risida hisobot;
- oborot mablag'larining aylanuvchanligi hisob-kitobi;
- boshqa kreditorlardan qarzga mablag'lar olingani va boshqa banklarda erkin mablag'lari borligi to'g'risida ma'lumotnoma.

Bu hujjatlar sinchiklab o'rganilgach, bank xodimi xulosani rasmiylashtiradi, so'ngra u ilova qilingan hujjatlar bilan birga ko'rib chiqish uchun kredit qo'mitasiga yuboriladi. Kredit qo'mitasi o'z vakolatlaridan kelib chiqib, uch kun mobaynida tegishli qaror qabul qiladi.

Kredit qo'mitasining ijobiy qaroridan keyin kredit shartnomasi tuziladi. Unda quyidagilar ko'zda tutiladi:

- kredit maqsadi va summasi;
- kreditni berish tartibi va shakli, kredit liniyasi miqdori va haqiqatdagi qarzidan kelib chiqib belgilangan uzish muddatlari;
- foiz stavkalari miqdori, ularni hisoblab yozish va to'lash tartibi;
- kreditni berish uchun zarur ma'lumotlar, hisob-kitoblar va boshqa hujjatlarning ro'yxati va ularning davriyligi;
- buxgalteriya va ombor hisobi, kreditdan maqsadli foydalanish, qaytarishni ta'minlash holatini joyning o'zida har chorakda tekshirish va boshqa masalalar.

Tashkilotga kredit berish alohida hisob varag'idan «kredit liniyasini ochib» yoki «kredit liniyasini ochmasdan» amalga oshirilishi mumkin.

«Ochiq kredit liniyasi» bilan ssuda berish bankning kafolat majburiyati bilan rasmiylashtiriladi. Bu bilan bank o'z zimmasiga, o'zining bog'lanish hisob varag'i holatidan qat'i nazar, kredit shartnomasi bilan belgilangan kredit miqdori, kredit berish muddati va limiti doirasida korxonaga yoki tashkilotga kreditni to'siqsiz berish kafolatlangan majburiyat oladi.

Bankning kafolat majburiyati ikki nusxada tuziladi, ularning bittasi kredit xodimi farmoyishiga binoan balansdan tashqari 9925- hisob varaqda hisobga olish uchun buxgalteriyaga beriladi, ikkinchisi mijozning yig'majildida saqlanadi.

«Ochiq kredit liniyasi» bilan kreditga ega bo'lgan ehtiyoj:

- kreditdan foydalanish va uni uzish davriyligi;
- moddiy boyliklarni etkazib berish to'g'risida mol etkazib beruvchilar va xaridorlar bilan tuzilgan shartnomalar tahlili asosida belgilanadi.

«Ochiq kredit liniyasi» bilan kreditlash limiti har chorakda, tovar zaxiralarining haqiqatdagi o'rtacha qoldiqlari, yuklab jo'natilgan tovarlar (amalga oshirishning bir oylik

muddati doirasida) avvalgi chorak uchun tovar operatsiyalari bo'yicha kreditorlik qarzidan kelib chiqib belgilanadi. Berilgan kreditlar muddati majburiyatlar bilan rasmiylashtiriladi. Ular balansdan tashqari 9921 - hisob varaq bo'yicha kiritiladi.

Kredit munosabatlarining sub'ektlari va ob'ektiga, foiz stavkasiga va kreditning harakat doirasiga qarab, kreditning quyidagi mustaqil shakllari amaliyotda qo'llanilishi mumkin. Bular bank krediti, tijorat krediti, ist'emol krediti, davlat krediti, xalqaro kredit. Amaliyotda kreditning har bir shakli ham bir necha bo'laklarga bo'linishi mumkin.

Iqtisodiyotda keng tarqalgan kredit munosabatlarining shakllaridan biridir. Uning ob'ekti pul mablag'larini bevosita ssudaga berish jarayoni hisoblanadi. Bank kreditini beruvchi kredit muassasalari kreditlash jarayonini amalga oshirish uchun Markaziy bankdan maxsus litsenziya (ruxsatnoma) olgan bo'lishlari zarur. Qarz oluvchi sifatida yuridik shaxslar, aholi, davlat, xorijiy davlat mijozlari ishtirok qilishlari mumkin. Kredit munosabatlarining vositasi bo'lib, kredit shartnoma yoki kredit kelishuvi hisoblanadi. Bu kredit turi bo'yicha olinadigan daromad yoki stavka tomonlar bilan kelishiladi va bank foizi yoki ssuda foizi ko'rishida bo'ladi.

Jahon amaliyotida bank kreditidan foydalanishda uning turli xil xususiyatlari hisobga olinadi.

Qisqa muddatli bank kreditlari qarz oluvchi korxonaning xo'jalik faoliyatida aylanma mablag'lar etishmovchiligini to'ldirish uchun qo'llaniladi. Bozor iqtisodiyoti tamoyillariga mos keluvchi bunday jarayonning bo'lishi ssuda kapitali bozorida mustaqil segment pul bozorining yuzaga kelishiga olib keladi. Qisqa muddatli kreditlar fond bozorida, savdo va xizmatlar ko'rsatishda, banklararo kreditlash rejimida ko'proq qo'llaniladi.

Hozirgi sharoitda qisqa muddatli kreditlar quyidagi ko'rsatkichlar bilan xarakterlanadi:

- kreditlarning juda qisqa muddatlarga (ba'zida bir oygacha muddatga) berilishi;
- kreditning muddati va foiz stavkasining bir-biriga teskari proporsional (kreditning muddati juda qisqa bo'lsada, foiz stavkasi juda yuqori) bo'lishi;
- ishlab chiqarish sohasidan ko'proq muomala sohasiga xizmat ko'rsatish;

Hozirgi vaqtda bir yil muddatga beriladigan kreditlardan tijorat xarakteridagi faoliyatini amalga oshirish, agrar sektorda va investitsiyalarni talab qiluvchi innovatsion jarayonlarni kreditlashda keng foydalanilmoqda.

Uzoq muddatli kreditlar asosiy fondlar xarakatini ta'minlaydi va ular kredit resurslarning katta hajmi bilan ajralib turadi. Uzoq muddatli kreditlar 1 yildan ortiq muddatga, davlat tomonidan tegishli moliyaviy kafolatlarni olgan holda, kreditning muddati 10 yil va undan ortiq muddatga uzaytirilishi mumkin.

Qarzdor tomonidan bir martada to'liq summada to'lanadigan kreditlar. Bu usul qisqa muddatli kreditlarni qaytarishning an'anaviy usuli hisoblanib, huquqiy jihatdan rasmiylashtirilishi juda sodda mexanizmga ega bo'ladi, chunki bu usulda tabaqalashtirilgan foiz stavkasini hisoblash mexanizmini qo'llash talab qilinmaydi.

Kreditni to'lashda kredit shartnomasida ko'rsatilgan muddat davomida bo'lib bo'lib to'lanadigan kreditlar bo'lishi mumkin. Qarzni to'lashning bu usulida kreditni

qaytarishning aniq shartlari kredit shartnomada keltirilgan bo'ladi. Kreditni bo'lib bo'lib to'lash usuli ko'pincha uzoq muddatli kreditlarni to'lashda ishlatiladi.

Amaliyotda olingan kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini to'lashning bir necha xil usullari mavjud:

*Kreditni to'lash muddati kelganda foiz stavkasini ham qo'shib to'lash usuli. Bu usul bozor iqtisodi yaxshi taraqqiy qilgan mamlakatlarning xo'jalik tashkilotlari faoliyatida keng qo'llaniladigan ananaviy usul bo'lib, u hisob-kitob xarakteri jihatidan oddiy bo'ladi. Bu usul ko'proq qisqa muddatli ssudalarni to'lashda qo'llaniladi.

*Kredit shartnomasida ko'rsatilgan muddat davomida bir tekisda qarz oluvchi tomonidan to'lanadigan kredit bo'yicha foizni undirib olish usuli. Amaliyotda bu usul uzoq muddatli kreditlarni to'lashda qo'llaniladigan ananaviy usuldir va tomonlar kelishgan holda kredit bo'yicha foizlarni to'lashga har xil yondashishlari mumkin. Masalan, kredit uzoq muddatga berilgan bo'lsa, kredit bo'yicha foiz stavkasini to'lashni kreditdan foydalanib boshlaganidan bir yoki ikki yil o'tgandan keyin belgilab berish mumkin.

*Qarz oluvchiga kredit berilayotgan vaqtda kredit uchun to'lanadigan foiz bevosita bank tomonidan ushlab qolinadigan kreditlar. Kredit uchun foiz stavkasini bu usulda to'lash rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos kelmaydi va u uchun xarakterli emas. Bu usul faqat sudxo'rlik kapitalida ishlatiladi. Mamlakatda iqtisodiy holat nobarqaror bo'lganida banklar qisqa muddatli kreditlashni va kreditlar bo'yicha foizlar to'lashni shu usulda olib borganlari ular uchun qulay hisoblanadi va amaliyotda shu usuldan keng foydalanadilar.

Ishonchli kreditlar va ularning qaytarilishini ta'minlovchi birdan-bir garov shakli bevosita kredit shartnomasi hisoblanadi. Kredit shartnomasi shartlarining bajarilishini kredit ta'minlanganligining sharti sifatida qabul qilish, xorijiy banklar tomonidan cheklangan xajmda, ishonchga sazovor bo'lgan doimiy mijozlarni qisqa muddatli kreditlash jarayonida qo'llaniladi. Uzoq muddatli kreditlashda ham berilgan kreditlarni sug'urta qilish sharti bilan istisno tariqasida qo'llanilishi mumkin. Odatda sug'urta qilish, qarz oluvchi hisobidan amalga oshiriladi. Bizning amaliyotimizda bu bazi hollarda tijorat banklari tomonidan o'z sho'x balarini va muassasalarini kreditlashda qo'llanilishi mumkin.

Yaxshi ta'minlangan kreditlar. Bunday kreditlar zamonaviy bank kreditining asosiy turi sifatida ta'minlangan ssudalar hisoblanadi. Ta'minlanganlik sifatida qarz oluvchining har xil shakldagi mulki, ko'proq - ko'chmas mulki va uning ixtiyoridagi qimmatli qog'ozlar, boshqa mulk shakllari bo'lishi mumkin. Qarz oluvchi o'z majburiyatlarini bajara olmagan hollarda ta'minlanganlik asosi bo'lgan mulk bank ixtiyoriga o'tadi va bank uni sotib etkazilgan zararlarni qoplash huquqiga ega bo'ladi. Bank tomonidan berilayotgan kredit miqdori taklif etilayotgan ta'minlanganlikning o'rtacha bozor narxidan past bo'ladi va mulk bahosi tomonlarning kelishuvi natijasida aniqlanadi.

Kreditning ta'minlanganligi uchun qabul qilinadigan mulk tez sotiladigan, oldin biror majburiyat bo'yicha garovga qo'yilmagan, korxonaga tegishli bo'lgan mulk bo'lishi kerak.

Uchinchi shaxsning moliyaviy kafolati yoki kafilligi bilan beriladigan ssudalar. Kredit boshqa bir tashkilotning kafolati asosida beriladi. Kafolat beruvchi korxonaga yoki muassasa, agar qarz oluvchi kredit shartnomasida ko'rsatilgan shartlarni vaqtida bajarmasa, shu tufayli bank ko'rgan zararlarni qoplashga kafillik beradi va faoliyat davomida haqiqatda shunday ahvol ro'y bersa o'z mablag'lari hisobidan zararni qoplab beradi. Moliyaviy kafillik beruvchi tomon sifatida yuridik shaxslar, shuningdek turli darajadagi davlat hokimiyati organlari ishtirok qilishlari mumkin.

Jahon amaliyotida umumiy biror ehtiyojni qoplash uchun ishlatiladigan kreditlar mavjud. Bunda bank tomonidan beriladigan kreditlar qarz oluvchining moliyaviy resurslarga bo'lgan turli ehtiyojlarini qondirish uchun o'z ixtiyori bo'yicha ishlatiladi. Hozirgi sharoitda ular qisqa muddatli kreditlash sohasida cheklangan tarzda qo'llaniladi, o'rta va uzoq muddatli kreditlashda umuman qo'llanilmaydi. Bizning amaliyotimizda banklar tomonidan biror maqsadni amalga oshirish uchungina kreditlar beriladi.

Kreditning qaysi maqsad uchun berilayotganligi kredit shartnomasida ko'rsatiladi va bank tomonidan berilgan resurslar qarz oluvchi tomonidan faqatgina shartnomada ko'rsatilgan masalani hal etish uchun ishlatiladi. (masalan, olinayotgan tovarlar bo'yicha hisoblashish, ish xaqi to'lash va x.k. uchun) Qarz oluvchi tomonidan ko'rsatilgan majburiyatlarning buzilishida bitimda ko'rsatilgan jarimalar qo'llaniladi.

O'zining faoliyat doirasiga qarab qarz oluvchi korxonaga va tashkilotlar bir necha guruhlariga bo'linishi mumkin. Masalan agrar sohada kreditlar oluvchilar. Bu sohaning bo'lishi - maxsus kredit muassasalari - agrobanklarning, keyinchalik qishloq xo'jaligi sohasiga xizmat ko'rsatuvchi boshqa banklar Paxtabank, G'allabank va boshqa shu turdagi banklarning tashkil topishini belgilab beruvchi asos hisoblanadi. Bu banklar faoliyatining o'ziga xos xususiyati qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan bog'liq bo'lgan mavsumiylikni e'tiborga olgan holda kreditlash hisoblanadi.

Tijorat sohasi uchun kreditlar berish. Bu soha bo'yicha kreditlar savdo va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatuvchi xo'jalik sub'ektlariga beriladi. Bu kreditlar tez aylanib kelish xususiyatiga ega bo'lib, tijoratchilar ehtiyojini qondirishda katta ahamiyatga egadir.

Bank tomonidan kreditlar qimmatli qog'ozlar bo'yicha oldi-sotdi operatsiyalarini amalga oshiruvchi, fond birjasi vositachilari: broker, makler, diler firmalariga beriladi.

Ko'chmas mulk uchun ipoteka kreditlari berilishi mumkin. Ular ham oddiy, ham ixtisoslashgan ipoteka banklari tomonidan beriladi. Bu hozirda xorij amaliyotida keng tarqalgan bo'lib, hatto ba'zi manbalarda kreditning alohida shakli sifatida namoyon bo'ladi. Bizning amaliyotimizda esa bu faqatgina 1996 yildan boshlab keng tarqala boshladi. Xususiyashtirish jarayonining rivojlanishi, mulkka egalik asoslarining qonunlashtirilishi ipoteka kreditini yanada ravnaq topishiga olib keldi.

Banklararo kreditlar - bank kreditining keng tarqalgan shakllardan biri. Banklararo kreditning joriy stavkasi ma'lum bir tijorat bankning boshqa turlardagi ssudalar berish siyosatini aniqlab beruvchi muhim omil hisoblanadi. Bu normaning aniq miqdori (hisob stavkasi) Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Tijorat krediti. Iqtisodiyotda kredit munosabatlarining vujudga kelishining birinchi shakllaridan bo'lib, veksel muomalasini vujudga keltirgan va naqd pulsiz hisob

kitoblarning rivojlanishiga yordam bergan. Tijorat kreditining sub'ektlari sifatida yuridik shaxslar: mol etkazib beruvchi va mol sotib oluvchi korxonalar, kreditning ob'ekti sifatida sotilayotgan tovar ishtirok qiladi. Tijorat krediti o'zining amaliy ko'rinishini huquqiy shaxslar o'rtasida tovar va xizmatlarning to'lov muddatini cho'zish orqali sotish shaklidagi moliya xo'jalik munosabatlarida topadi. Bu kredit shaklining asosiy maqsadi tovarlarni sotishni tezlashtirish va shu orqali foyda olishdan iborat.

Tijorat kreditning an'anaviy vositasi bo'lib, qarz oluvchining qarz beruvchiga nisbatan moliyaviy majburiyatlarini aks ettiruvchi veksel hisoblanadi. Veksel bu qarz majburiyati bo'lib, qarz oluvchi o'z zimmasiga qarzni ko'rsatilgan summada, ko'rsatilgan joyda, belgilangan muddatda to'lash majburiyatini oladi.

Amaliyotda vekselning ikki turi qo'llaniladi. Oddiy va o'tkazma veksel. Oddiy vekselni qarz oluvchi korxonaga qarz beruvchi korxonaga beradi va tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun unga to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

O'tkazma vekselda kreditor tomonidan belgilangan tovar va xizmatlar summasi uning topshirig'iga asosan uchinchi shaxsga yoki vekselni ko'rsatuvchiga o'tkazilishi zarur. Kreditorning vekselda ko'rsatilgan summani uchinchi shaxsga to'lash to'g'risidagi buyrug'ini ifodalovchi hujjat amaliyotda tratta deb ham yuritiladi.

Tijorat krediti bank kreditidan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

1. Kreditor (qarz beruvchi) rovida maxsus kredit-moliya tashkilotlari emas, balki tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish hamda sotish bilan shug'ullanuvchi turli yuridik shaxslar ishtirok qiladi;

2. Tijorat krediti faqatgina tovar shaklida beriladi;

3. Tijorat kreditida ssuda kapitali, sanoat va savdo kapitali bilan integratsiyalashgan holda harakat qiladi. Bu bozor iqtisodiyoti sharoitida turli ixtisosdagi va faoliyat yo'nalishdagi korxonalarni o'z ichiga oluvchi xolding, moliyaviy kompaniyalarning vujudga kelishida o'z amaliy aksini topadi;

4. Berilgan vaqt oralig'ida tijorat kreditining o'rtacha qiymati bank foizining o'rtacha stavkasidan doimo kichik bo'ladi;

5. Qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasidagi shartnoma huquqiy rasmiylashtirilganda tijorat krediti bo'yicha to'lov (foiz stavkasi) alohida aniqlanmaydi. Foiz to'lovi tovar bahosiga qo'shilgan holda rasmiylashtiriladi.

Xorijiy mamlakatlar amaliyotida tijorat krediti keng tarqalgan. MDH davlatlari bank amaliyotida tijorat krediti qo'llanilmaydi. Sobiq ittifoq davrida kredit munosabatlarining rivojlanishiga nazar soladigan bo'lsak, 1930-32 yillardagi kredit islohatigacha amaliyotda tijorat kreditidan foydalanilgan. Bu kredit tovarlar ishlab chiqarishning mo'l-ko'lchiligi sharoitida tovarlarni sotish jarayonini tezlashtirishda qulay hisoblanadi. 30- yillarda kreditning bu shaklidan foydalanishda malum kamchiliklarga yo'l qo'yilgani uchun kredit islohati o'tkazish davomida bu kreditdan foydalanish bekor qilindi va xo'jaliklar to'g'ridan-to'g'ri bank tomonidan kreditlashga o'tkazilgan.

Hozirgi sharoitda jahon amaliyotida tijorat kreditning asosan 3 turi qo'llaniladi:

*qayd qilingan to'lov muddati bo'yicha kredit;

*tovarlarni sotgandan keyingina qarzni to'lash bo'yicha kredit;

*ochiq hisobvaraqa bo'yicha kreditlash.

Bunda tijorat krediti shartlari bo'yicha, keyingi tovar partiyasini jo'natish, oldingi jo'natilgan tovarlar bo'yicha qarzlarni to'lash muddatigacha amalga oshirilishi zarur.

Korxonalar tomonidan tijorat kreditidan foydalanish ular tomonidan bank kreditidan foydalanishni inkor qilmaydi. Tijorat krediti bank kreditidan farq qilsada, ularning harakati bir biri bilan chambarchas bog'liq bo'lishi mumkin. Korxonalar tijorat kreditidan foydalanganda, bank krediti korxonalar faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri tasir qiladigan kredit sifatida namoyon bo'la olmaydi. Tijorat kreditida korxonalar hisob kitob shetida mablag'lari bo'lmagan sharoitda korxonalar tovarlarni kreditga sotib oladilar. SHuning uchun iste'molchi korxonalar bank kreditiga ehtiyoj sezmasligi mumkin. Ayni vaqtda mol sotuvchi korxonalar faoliyatida u tovarlarini kreditga sotganligi uchun mablag'ga muhtojlik sezilishi mumkin. Mana shu sharoitda mol etkazib beruvchi korxonalar pul mablag'larga bo'lgan ehtiyojini qoplash maqsadida kredit olish uchun bankga murojaat qilishi mumkin. Bu hol 30-yillar amaliyotida bank tomonidan egri kreditlash deb yuritilgan. Egri kreditlash deb yuritilishining sababi shundaki, kreditni haqiqatda mablag'i etarli bo'lmagan korxonalar, mol sotib oluvchi korxonalar olishi zarur edi. Mol sotib oluvchining xo'jalik faoliyatidagi mablag'lar etishmovchiligi mol etkazib beruvchiga bank tomonidan kredit berish yo'li bilan qoplangan.

YUqorida ko'rsatilgan kamchiliklarni hisobga olmagan holda tijorat krediti tovarlar sotish jarayonini tezlashtirishda va korxonalarining aylanma mablag'larini xo'jalik faoliyatidan tezroq bo'shashini ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

Iste'mol krediti. Iste'mol krediti o'zining maqsadi bilan kreditning boshqa shakllaridan farq qiladi. Uning farqli belgisi - jismoniy shaxslarni kreditlash hisoblanadi. Kreditning bu shaklida kredit beruvchi sifatida maxsus kredit muassasalari bilan birga tovar va xizmatlarni sotishni amalga oshiradigan jismoniy shaxslar ham bo'lishi mumkin.

Iste'mol krediti ikki shaklda: pul shaklida yoki tovar shaklida berilishi mumkin. Jismoniy shaxslarga ko'chmas mulkka egalik qilish uchun, qimmat bo'lgan davolanishni to'lash, har xil tovarlar va uy jihozlari sotib olish va boshqa ehtiyojlarni qondirish uchun iste'mol kreditlari berilishi mumkin. Pul shaklida iste'mol krediti banklar tomonidan, tovar shaklida esa tovarlar chakana savdosi jarayonida to'lov muddatini cho'zish orqali amalga oshiriladi.

O'zbekistonda hozirgi kunlarda uy-joy sotib olish, uy joy qurish uchun pul shaklidagi, uzoq muddatli iste'mol krediti va tovar shaklida avtomobil kreditga berilmoqda.

Davlat krediti. Kreditning bu shaklining asosiy xususiyati kredit munosabatlarida davlatning qatnashuvidir. Davlat kreditida davlat bir tomondan qarz beruvchi va ikkinchi tomondan qarz oluvchi sifatida ishtirok qilishi mumkin. Qarz beruvchi vazifasini bajara turib, davlat, davlat kredit institutlari, jumladan Markaziy bank orqali iqtisodiyotning har xil sohalarini kreditlashni o'z zimmasiga oladi. Davlat tomonidan:

- * iqtisodiyotning ustivor tarmoqlarini kreditlash;
- * moliyaviy resurslarga ehtiyoj sezayotgan davlat ahamiyatiga ega bo'lgan aniq tarmoq yoki mintaqalarga, agar byudjetdan moliyalashtirish imkoniyati tugagan bo'lsa, vaqtincha foydalanishga mablag' ajratilishi mumkin.

Undan tashqari, tijorat banklariga banklararo kreditlar bozorida kredit resurslarni kim oshdi savdo yo'li bilan yoki to'g'ridan-to'g'ri sotish jarayonida davlat tomonidan mablag'lar vaqtincha foydalanishga berilishi mumkin.

Davlatning qarzlari ko'paygan hollarda davlat byudjeti kamomadini moliyalashtirish maqsadida, davlat qarz oluvchi sifatida, davlat qarzlarni joylashtirish jarayonini amalga oshiradi.

Davlat kreditining xarakterli xususiyati shundaki, davlat tomonidan olingan qarz mablag'lar ishlab chiqarish fondlari aylanishida yoki moddiy boyliklar yaratishda ishtirok qilmaydi. Bu mablag'lar davlat qarzlarni qoplash uchun ishlatiladi.

Davlat xazina majburiyatlarini chiqarish, moliya bozorlarida davlat qimmatli qog'ozlarini joylashtirish, davlat zaemlarini chiqarish va sotish yo'li bilan banklarning aholining va boshqa moliya - kredit institutlarining pul mablag'larini yig'adi va ularni davlat qarzi va byudjet kamomadini qoplashga (moliyalashtirishga) sarflaydi.

SHuni ta'kidlash zarurki, o'tish davrida davlat krediti faqatgina moliyaviy resurslarni jalb qilish manbai sifatida emas, balki iqtisodni markazlashgan kredit tizimi orqali tartibga solishning samarali vositasi sifatida ishlatilishi kerak.

Xalqaro kredit. Kredit munosabatlarining xalqaro miqyosda (davlatlar o'rtasida) amalga oshirilishi xalqaro kreditning yuzaga kelishiga olib keladi. Xalqaro kreditga xalqaro miqyosda xarakat qiluvchi kredit munosabatlari to'plashi sifatida qarash zarur. Kreditning bu shaklining bevosita ishtirokchilari millatlararo moliya-kredit institutlari, tegishli davlat xokimiyati, kredit tashkilotlari va alohida yuridik shaxslar bo'lishi mumkin.

Xalqaro kredit bir davlat, shu davlat banki, yuridik shaxsi tomonidan ikkinchi bir davlatga, uning banklariga, boshqa yuridik shaxslariga muddatlilik va to'lovlilik asosida beriladigan kredit hisoblanadi.

Xalqaro kredit davlat va xalqaro institutlar ishtirok etgan munosabatlarda pul (valyuta) shaklida, tashqi savdo faoliyatida esa tovar shaklida bo'lishi mumkin.

Xalqaro kredit quyidagi xususiyatlari bilan xarakterlanadi:

qarz oluvchi va qarz beruvchi sifatida davlat tashkilot va muassasalari, banklar, kompaniyalar, xalqaro valyuta kredit tashkilotlari qatnashadilar;

qarzga olingan mablag'lar qarz oluvchi mamlakat tomonidan daromad keltiruvchi kapital sifatida ishlatiladi;

qarz beruvchi mamlakatga to'lanadigan ssuda foizining manbasi qarz oluvchi mamlakat aholisi tomonidan yaratilgan milliy daromad hisoblanadi.

Xalqaro kredit mahalliy kredit bilan bir qatorda fondlar aylanishining barcha bosqichlarida qatnashadi.

Xalqaro kredit xalqaro iqtisodiy munosabatlar doirasida quyidagi funksiyalarni bajaradi:

*mamlakatlar o'rtasida kapitalning qayta taqsimlanishini ta'minlaydi;

*kapitalning konsentratsiyalashuviga va markazlashuviga sharoit yaratadi va bu jarayonni tezlashtiradi;

*har xil valyutalarda xalqaro hisob-kitoblarni olib borishda muomala xarajatlarini qisqartiradi.

Xalqaro kreditlar xarakteri bo'yicha - davlatlararo, xususiy, firma kreditlariga;

shakli bo'yicha - davlat, bank, tijorat;
tashqi savdo tizimida tutgan o'рни bo'yicha - eksportni kreditlash, importni kreditlashga;

muddati bo'yicha-qisqa muddatli-1 yilgacha, o'рта muddatli -1 yildan 5 yilgacha, uzoq muddatli -5 yildan ortiq muddatga;

ob'ekti bo'yicha - tovar va valyuta;

ta'minlanganligi bo'yicha - tovar-moddiy boyliklar bilan yoki hujjatlar bilan ta'minlangan kreditlarga bo'linadi.

Tovar shaklida beriladigan xalqaro kredit yoki firma kreditlari tijorat kreditining xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasida qo'llanilishi hisoblanadi va bir mamlakat firmasining tovari ikkinchi mamlakat firmasiga kreditga - to'lov muddati kechiktirilib sotiladi. Bu jarayon odatda tratta (o'tkazma veksel) bilan rasmiylashtiriladi. Eksportni kreditlashda davlat tomonidan subsidiya ajratilganligi uchun firma kreditlari bo'yicha foiz stavkalari odatda foiz stavkalarining bozor bahosidan past bo'ladi.

Xalqaro bank kreditlarining bank eksport kreditlari (xorijiy importyorlarga xususiy tijorat banklari, maxsus tashqi savdo banklari tomonidan beriladigan kredit), evrokredit (yirik tijorat banklari tomonidan evrovalyuta bozori resurslari hisobidan evrovalyutada, 2 yildan 10 yilgacha bo'lgan muddatga, o'zgaruvchan foiz stavkada kreditlar berish) kabi turlari mavjud.

Xalqaro davlat krediti ikki tomonlama kelishuv asosida rivojlangan mamlakatlar tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlarga tovar yoki valyuta shaklida, foiz to'lash yoki foiz to'lamaslik sharti bilan, uzoq yoki qisqa muddatga beriladi.

Xalqaro valyuta - kredit tashkilotlarining kreditlari qisqa muddatli - 1 yilgacha (xalqaro valyuta fondining kreditlari), o'рта muddatli - 5 yilgacha (Jahon tiklanish va taraqqiyot banki) va uzoq muddatli - 20 yilgacha (Evropa tiklanish va taraqqiyot banki va boshqalar) kreditlar berishi mumkin Xalqaro valyuta-kredit tashkilotlaridan olingan kreditlar xususiy tijorat banklaridan olingan kreditlardan (bu kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi yiliga 7-9% ni tashkil qiladi.) arzonga tushadi.

2.Bank kreditining shakllari va turlari

Bank krediti. Iqtisodiyotda keng tarqalgan kredit munosabatlarining shakllaridan biridir. Bank kreditlari xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning takror ishlab chiqarish jarayonini to'xtovsizligini ta'minlashga va oborot mablag'larining hajmini oshirishga yo'naltiriladi. Uning ob'ekti pul mablag'larini bevosita ssudaga berish jarayoni hisoblanadi. Bank kreditini beruvchi kredit muassasalari kreditlash jarayonini amalga oshirish uchun Markaziy bankdan maxsus litsenziya (ruxsatnoma) olgan bo'lishlari zarur. Qarz oluvchi sifatida yuridik shaxslar, aholi, davlat, xorijiy davlat mijozlari ishtirok qilishlari mumkin. Kredit munosabatlarining vositasi bo'lib, kredit shartnoma yoki kredit kelishuvi hisoblanadi. Bu kredit turi bo'yicha olinadigan daromad yoki stavka tomonlar bilan kelishiladi va bank foizi yoki ssuda foizi ko'rinishida bo'ladi.

Hozirgi vaqtda bir yil muddatga beriladigan kreditlardan tijorat xarakteridagi faoliyatni amalga oshirish, agrar sektorda va investitsiyalarni talab qiluvchi innovatsion jarayonlarni kreditlashda keng foydalanilmoqda.

Bank krediti o'z tabiatiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Bank krediti muddatiga ko'ra:

- qisqa muddatli,
- uzoq muddatli.

2. Kreditlash ob'ektlarining iqtisodiy mohiyatiga qarab:

- tovar moddiy boyliklari uchun beriladigan kreditlar;
- ishlab chiqarish xarajatlari (mahsulotning yangi turini o'zlashtirish, mavsumiy xarajatlarni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarni) uchun beriladigan kreditlar;
- hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun beriladigan kreditlar (akkreditiv ochilganda, tayyor mahsulotni jo'natganda va boshqa hollarda)
- muomala xarajatlari uchun.

3. To'lash muddatiga qarab:

- muddatli,
- muddati kechiktirilgan
- muddati o'tib ketgan kreditlar.

1. Kreditni to'lash manbalariga qarab:

- qarz oluvchining o'z mablag'lari hisobidan;
- grant mablag'lar hisobidan;
- yangi kreditlar jalb qilish hisobidan.

2. Ta'minlanganlik tamoyilining amal qilishiga qarab:

- to'g'ridanto'g'ri ta'minlanganlikka ega bo'lgan kreditlar;
- egri (biror korxonada va tashkilot vositasida) ta'minlanganlikka ega bo'lgan kreditlar;
- ta'minlanmagan kreditlar.

4. To'lanadigan foiz darajasiga qarab:

- o'rtacha (normal) foiz stavkali;
- yuqori foizli;
- past foiz stavkali;
- foizsiz kreditlarga bo'linadi.

Kreditga bo'lgan talab qaysi usulda va muddatda, kim tomondan qondirilishiga va qarz oluvchilarga taklif qilinishiga qarab, kredit bir necha tur va shakllarga bo'linadi.

Bank kreditlari muddati jihatidan qisqa va uzoq muddatlarga guruhlanadi.

Qisqa muddatli kreditlar bir yilgacha muddatga berilib, korxonada aylanma kapitalining xarakatini ta'minlash, joriy hisob – kitoblarni amalga oshirish, to'lov qobiliyatini mustahkamlash moliyaviy faoliyatining barqarorligini ta'minlash kabi masalalarga yo'naltiriladi. Qisqa muddatli kredit korxonada va tashkilotlarning aylanma kapitalini shakllantirishning ideal manbasi bo'lib hisoblanadi.

Qisqa muddatli kredit berishda kreditlar bir necha oydan bir yilgacha bo'lgan muddatga beriladi. Bu turdagi kreditlar:

- aylanma kapitalni to'ldiruvchi;
- qurilish maqsadida olinadigan “oraliq”;
- qimmatli qog'ozlar dillerlariga beriladigan;
- chakana savdo bilan shug'ullanuvchi shaxslarga beriladigan;
- o'z aktivlari hisobidan ta'minlovchi (debitorlik qarzlari, factoring va tovar-moddiy zaxiralari bilan ta'minlangan) kreditlar deb yuritiladi.

Qisqa muddatli bank kreditlari qarz oluvchi korxonaning xo'jalik faoliyatida aylanma mablag'lar etishmovchiligini to'ldirish uchun qo'llaniladi. Bozor iqtisodiyoti tamoyillariga mos keluvchi bunday jarayonning bo'lishi ssuda kapitali bozorida mustaqil segment pul bozorining yuzaga kelishiga olib keladi. Qisqa muddatli kreditlar fond bozorida, savdo va xizmatlar ko'rsatishda, banklararo kreditlash rejimida ko'proq qo'llaniladi. Hozirgi sharoitda qisqa muddatli kreditlar quyidagi ko'rsat-kichlar bilan xarakterlanadi:

- kreditlarning juda qisqa muddatlarga (ba'zida bir oygacha muddatga) berilishi;
- kreditning muddati va foiz stavkasining bir-biriga teskari proporsional (kreditning muddati juda qisqa bo'lsada, foiz stav-kasi juda yuqori) bo'lishi;
- ishlab chiqarish sohasidan ko'proq muomala sohasiga xizmat ko'rsatish.

Uzoq muddatli kreditlar korxonada asosiy kapitali harakatini ta'minlashga yo'naltiradi. Xususan, korxonada amalga oshirilayotgan qurilish va faoliyat yuritayotgan tashkilotlarning rekonstruksiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish bilan bog'liq sohalarga sarflanadi. Qisqa muddatli kreditlar bir kundan bir yilgacha, uzoq muddatli kreditlar esa 3-5 yildan ortiq muddatga beriladi. Uzoq muddatli kreditlar asosan, asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish va ular bilan bog'liq sohalarni ta'minlashda ishlatiladi. Hozirgi davrda uzoq muddatli kreditlar banklar tomonidan juda kam miqdorda berilsada, ular kapital qo'yilmalarini, loyihalarni moliyalashtirishning asosiy manbai sifatida davlatimiz iqtisodini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Uzoq muddatli kreditlar xo'jalik tashkilotlari tomonidan quyidagi ob'ektlar uchun jalb qilinishi mumkin:

- qayta tiklashga kapital xarajatlarni amalga oshirish uchun;
- harakatdagi asosiy fondlarni kengaytirish va modernizatsiya qilish bilan bog'liq xarajatlar uchun;
- yangi qurilish va qo'shimcha yuqori samarali tadbirlar bo'yicha xarajatlarni amalga oshirish uchun;
- yangi fan, ilmiy texnika sohasida tadqiqotlar olib borish va yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy qilish uchun va boshqalar.

Bank kreditining asosiy turlaridan biri banklararo kredit hisoblanadi, ushbu kreditni banklar bir – biriga berishadi. Banklararo kreditlar bankning vaqtinchalik bo'sh pul mablag'laridan samarali foydalanish, o'zaro likvidlikni ta'minlash maqsadida beriladi. Banklar vaqtinchalik bo'shturgan yoki yuqori daromadlarga quyilma sifatida yo'naltirilayotgan mablag'larini banklararo bozorga taklif etadi. Halqaro bank amaliyotida banklararo kredit qisqa muddatli xarajatlarga ega bo'lib, bir necha soatdan, bir necha oygacha berilishi mumkin. O'zaro bitimlar telefon yoki faks orqali tuzilib, so'ngra tasdiqlovchi hujjatlar bilan ta'minlanishi ham mumkin.

Muddati o'tgan kreditlar – qarzdor tomonidan kredit shartnomasida ko'zda tutilgan to'lash shartlari va jadvali buzilgan hamda asosiy qarz va unga oid foizlarning navbatdagi to'lovi to'lov muddati yetib kelgandan kegin to'lanmagan kreditlar.

Restrukturizatsiya qilingan kreditlar – qarzdorning moliyaviy ahvoli sababli to'lovning dastlabki shartlari o'zgargan kreditlar. Agarda bank tomonidan quydagi omillarning hech bo'lmaganda bittasi bajarilsa, kreditlar restrukturizatsiyalangan hisoblanadi:

- foiz stavkasining kamaytirilishi yoki hisoblangan foizlarning undirib olinmasligi;
- jami asosiy qarzning kamaytirilishi yoki undan voz kechilishi;
- kreditning to'lash muddatining kechiktirilishi yoki uzaytirilishi;
- foizlarga doir to'lovlarning bir qismi yoki umumiy miqdoridan voz kechish;
- oddiy sharoitlarda qarzdorga berilmay, balki, kreditni restrukturizatsiyalash zarurligi natijasida qilinishi mumkin bo'gan boshqa yon berishlar.

O'stirilmaydigan kreditlar – belgilangan tartibga muvofiq foizlar hisoblanishi to'xtatiladigan kreditlar.

Yaxshi ta'minlangan kreditlar – qimmatli qog'ozlar bozorida baholanadigan mulk yoki kreditning asosiy summasi va unga doir foizlarni to'liq qoplash imkonini beradigan miqdorda bank depozitlari ko'rinishidagi garov bilan ta'minlangan kreditlar.

Qisman ta'minlangan kreditlar – “Yaxshi ta'minlangan kreditlar” mezoniga muvofiq kelmaydiganta'minotga ega kreditlar. Xususan, ularga doir taqdim etilgan garov qiymati kredit summasi va doir foizlarning 100 foizidan, shuningdek, garovni sotishda ko'zda tutilayotgan xarajatlardan kam (e'lon qilingan garov qiymatidan qat'iy nazar) yoki e'lon qilingan qiymat bo'yicha garovning sotilishi shubha tug'diradigan kreditlar.

Ta'minlanmagan kreditlar – biror-bir ta'minotsiz berilgan kreditlar. Odatda, bunday kreditlar qarzdorning kuchli tushumlari potentsiali yoki uning yaxshi kredit tarixi asosida beriladi. “Taminlanmagan kreditlar”ga garov belgilangan tartibda rasmiylashtirilmagan kreditlar ham kiradi.

Jahon amaliyotida bank o'zini-o'zi qoplovchi kreditlar asosan tovar-moddiy zaxiralar, xomashyo va materiallar hamda sotish uchun olinadi. Bunday kreditning afzalligi shundaki, tadbirkor o'z faoliyati uchun zarur bo'lgan naqd pulning yetarli miqdori bilan ta'minlanadi.

Bunda:

- naqd pullar xomashyo va materiallar, chala va tayyor mahsulotlarni sotib olish uchun ishlatiladi;
- mahsulotlar asosan sotish uchun tayyorlanadi;
- savdo asosan kredit hisobidan amalga oshiriladi
- savdo orqali olingan mablag' bankdan olingan kreditni qoplash uchun ishlatiladi.

Aylanma kapitalni to'ldirish uchun olinadigan kreditlar ham vazifasiga ko'ra, o'z-o'zini qoplovchi kreditga o'xshab, tovar, xomashyo, materiallar sotib olish, tayyor mahsulotlar zaxirasini to'ldirish uchun uzog'I bilan bir yil muddatga olinadi. Bu kreditning farqi shundaki, u asosan mavsumiy talabni qondirish uchun olinadi. Masalan, yoz mavsumida kiyiladigan zamonaviy ko'ylaklar tikish uchun kreditlar ta'lab qilinganda, bank ushbu mijozga 6 oydan 9 oygacha muddatga kredit tizimini ochadi va mijoz zarur

bo'lganda ushbu tizimdan shu muddat ichid foydalana oladi. Agar mijoz shu davr mobaynida kreditning to'la hajmini yoki kattagina qismini to'lashga erishsa, bank ushbu shartnomani yana uzaytirishi mumkin. Aylanma mablag'ni qoplash uchun olinadigan kredit firmaning debitorlik qarzi tovar mahsulotlari hisobidan ta'minlanadi va tizim doirasida suzib yuruvchi foiz stavkasida foiz o'rnatiladi. Mijoz bu kreditni qoplash uchun o'zining deposit hisob varag'ida olingan kreditning kamida 15-20 foizi miqdorida mablag'larni saqlashi lozim. Majburiyat uchun komissiya haqi, asosan, kredit tizimining foydalanilmagan qismidan olinadi. Davlatga tegishli va xususiy qimmatli qog'ozlar savdosi bilan shug'ullanuvchi dillerlarga ularni sotish yoki muddati tugaganda hisobdan chiqarganiga qadar yangilarini sotib olish va mavjud qimmatli qog'ozlar portfelini qo'llab-quvvatlash uchun qisqa muddatli kreditlar kerak bo'ladi. Bunday kreditlarni banklar odatda hech qanday to'siqlarsiz beradilar, chunki bunday kreditlar yuqori sifatli hisoblanib, ular asosan davlatning qimmatli qog'ozlari bilan ta'minlangan bo'ladi. Bundan tashqari, bunday kreditlar juda qisqa muddatga beriladi (bir kundan bir necha kungacha). Agar sharoit yomonlashsa, bank kreditni qaytarib oladi yoki foiz stavkasini ko'taradi. Bunday kreditlar yangi korporativ aksiyalar, obligatsiyalar va davlatning qimmatli qog'ozlarini joylashtiruvchi investitsiya firmalariga beriladi. Investitsiya firmalar yangi qimmatli qog'ozlarni kapital bozorida sotishi natijasida kreditlar va ularga o'rnatilgan foizlar to'lanadi.

Chakana savdo bilan shug'ullanuvchi shaxslarga kreditlar asosan avtomabillar, elektr-xo'jalik mollari, mebel va boshqa uzoq muddat ichida foydalaniladigan tovarlarni sotib olish uchun, savdo bo'yicha shartnoma imzolanganidan keyin yuzaga kelgan dilerning debitorlik qarzini mablag' bilan taminlash maqsadida beriladi. Bank dilerlarning shartnomalarini tahlil qiladi. Agar shartnoma o'rnatilgan talablarga javob bersa, bank bu shartnomalarni sotib oladi, risk darajasi va ta'minot sifati hamda kredit muddatini e'tiborga olib, foz stavkasini o'rnatadi. Chakana savdo bilan shug'ullanuvchi shaxslar kredit olish bilan birga sotuvdan tushgan tushumlari hisobida ssuda hisob varag'idagi mablag'larni qoplaydilar. Revolver kredit shartnomasi bo'yicha kredit oluvchi firma kredit tizimi muddati ichida belgilangan miqdorda kredit olishi, olingan qarzning bir qismini yoki to'liq hajmini to'lashi va zarur hollarda yana qarz olishi mumkin. Bu kreditning afzalligi shundaki, uni olayotganda firma maxsus garov bilan uni ta'minlashi shart emas va bu kredit qisqa muddatga yoki 3-5 yilga beriladi. Mijoz naqd pullar tushimi hajmi va kelajakda olinadigan kredit hajmini aniq bilmasa, revolver kreditdan foydalanadi. Revolver kredit mijozning ishlab chiqarishida bo'ladigan tebranishlarni tartibga solishda muhim omil bo'lib hisoblanadi. Mijoz faoliyati davomida daromadi oshgan vaqtida kredit hajmini to'lab boradi, sotuv hajmi kamayib, naqd pul oqimi qisqarsa kredit tizimi muddatiga ko'ra bankdan qo'shimcha mablag' olish imkoniga ega bo'ladi.

Kredit munosabatlarining sub'ektlari va ob'ektiga, foiz stavkasiga va kreditning harakat doirasiga qarab, kreditning quyidagi mustaqil shakllari amaliyotda qo'llanilishi mumkin. Bular bank krediti, tijorat krediti, iste'mol krediti, davlat krediti, xalqaro kredit. Amaliyotda kreditning har bir shakli ham o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra bir necha bo'laklarga, ya'ni turlarga bo'linishi mumkin. Ulardan bir ikkitasiga to'xtalib, ularning turlari va xususiyatlariga e'tibor beradigan bo'lsak, ular:

Hozirgi vaqtda bir yil muddatga beriladigan kreditlardan tijorat xarakteridagi faoliyatni amalga oshirish, agrar sektorda va investitsiyalarni talab qiluvchi innovatsion jarayonlarni kredit-lashda keng foydalanilmoqda.

Uzoq muddatli kreditlar asosiy fondlar harakatini ta'minlaydi va ular kredit resurslarning katta hajmi bilan ajralib turadi. Uzoq muddatli kreditlar 1 yildan ortiq muddatga, davlat tomonidan tegishli moliyaviy kafolatlarni olgan holda, kreditning muddati 10 yil va undan ortiq muddatga uzaytirilishi mumkin.

Qarzni to'lash usuli. Qarzdor tomonidan to'liq summada to'lanadigan kreditlar. Bu usul qisqa muddatli kreditlarni qaytarishning an'anaviy usuli hisoblanib, huquqiy jihatdan rasmiylashtirilishi juda sodda mexanizmga ega bo'ladi, chunki bu usulda tabaqalashtirilgan foiz stavkasini hisoblash mexanizmini qo'llash talab qilinmaydi.

Kreditni to'lashda kredit shartnomasida ko'rsatilgan muddat davomida bo'lib to'lanadigan kreditlar bo'lishi mumkin. Qarzni to'lashning bu usulida kreditni qaytarishning aniq shartlari kredit shartnomada keltirilgan bo'ladi. Kreditni bo'lib - bo'lib to'lash usuli ko'pincha uzoq muddatli kreditlarni to'lashda ishlatiladi.

Kredit bo'yicha foizni undirib olish usuli amaliyotda olingan kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini to'lashning bir necha xil usullari mavjud:

– Kreditni to'lash muddati kelganda, foiz stavkasini ham qo'-shib to'lash usuli. Bu usul bozor iqtisodi yaxshi taraqqiy qilgan mamlakatlarning xo'jalik tashkilotlari faoliyatida keng qo'llaniladigan an'anaviy usul bo'lib, u hisob-kitob xarakteri jihatidan oddiy bo'ladi. Bu usul ko'proq qisqa muddatli ssudalarni to'lashda qo'llaniladi.

– Kredit shartnomasida ko'rsatilgan muddat davomida bir tekis-da qarz oluvchi tomonidan to'lanadigan kredit bo'yicha foizni undirib olish usuli. Amaliyotda bu usul uzoq muddatli kreditlarni to'lashda qo'llaniladigan an'anaviy usuldir va tomonlar kelishgan holda kredit bo'yicha foizlarni to'lashga har xil yondashishlari mumkin. Masalan, kredit uzoq muddatga berilgan bo'lsa, kredit bo'yicha foiz stavkasini to'lashni kreditdan foydalanib boshlaganidan bir yoki ikki yil o'tgandan keyin belgilab berish mumkin.

– Qarz oluvchiga kredit berilayotgan vaqtda kredit uchun to'lanadigan foiz bevosita bank tomonidan ushlab qolinadigan kreditlar. Kredit uchun foiz stavkasini bu usulda to'lash rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos kelmaydi va u uchun xarakterli emas. Bu usul faqat sudxo'rlik kapitalida ishlatiladi. Mamlakatda iqtisodiy holat nobarqaror bo'lganida banklar qisqa muddatli kreditlashni va kreditlar bo'yicha foizlar to'lashni shu usulda olib borganlari ular uchun qulay hisoblanadi va amaliyotda shu usuldan keng foydalanadilar.

Ta'minlanganlikning mavjudligi. Ishonchli kreditlar va ularning qaytarilishini ta'minlovchi birdan-bir garov shakli bevosita kredit shartnomasi hisoblanadi. Kredit shartnomasi shartlarining bajarilishini kredit ta'minlanganligining sharti sifatida qabul qilish, xorijiy banklar tomonidan cheklangan hajmda, ishonchga sazovor bo'lgan doimiy mijozlarni qisqa muddatli kreditlash jarayonida qo'llaniladi. Uzoq muddatli kreditlashda ham berilgan kreditlarni sug'urta qilish sharti bilan istisno tariqasida qo'llanilishi mumkin. Odatda, sug'urta qilish, qarz oluvchi hisobidan amalga oshiriladi. Bizning amaliyotimizda bu bazi hollarda tijorat banklari tomonidan o'z sho'balarini va muassasalarini kreditlashda qo'llanilishi mumkin.

Yaxshi ta'minlangan kreditlar. Bunday kreditlar zamonaviy bank kreditining asosiy turi sifatida ta'minlangan ssudalar hisoblanadi. Ta'minlanganlik sifatida qarz oluvchining har xil shakldagi mulki, ko'proq - ko'chmas mulki va uning ixtiyoridagi qimmatli qog'ozlar, boshqa mulk shakllari bo'lishi mumkin. qarz oluvchi o'z majburiyatlarini bajara olmagan hollarda ta'minlanganlik asosi bo'lgan mulk bank ixtiyoriga o'tadi va bank uni sotib etka-zilgan zararlarni qoplash huquqiga ega bo'ladi. Bank tomonidan berilayotgan kredit miqdori taklif etilayotgan ta'minlanganlik-ning o'rtacha bozor narxidan past bo'ladi va mulk bahosi tomonlarning kelishuvi natijasida aniqlanadi.

Kreditning ta'minlanganligi uchun qabul qilinadigan mulk tez sotiladigan, oldin biror majburiyat bo'yicha garovga qo'yilmagan, korxonaga tegishli bo'lgan mulk bo'lishi kerak. Uchinchi shaxsning moliyaviy kafolati yoki kafilligi bilan beriladigan ssudalar. Kredit boshqa bir tashkilotning kafolati asosida beriladi. Kafolat beruvchi korxonaga yoki muassasa, agar qarz oluvchi kredit shartnomasida ko'rsatilgan shartlarni vaqtida bajarmasa, shu tufayli bank ko'rgan zararlarni qoplashga kafillik beradi va faoliyat davomida haqiqatda shunday ahvol ro'y bersa o'z mablag'lari hisobidan zararni qoplab beradi. Moliyaviy kafillik beruvchi tomon sifatida yuridik shaxslar, shuningdek turli darajadagi davlat hokimiyati organlari ishtirok qilishlari mumkin.

Bank kreditining maqsadlilik. Jahon amaliyotida umumiy biror ehtiyojni qoplash uchun ishlatiladigan kreditlar mavjud. Bunda bank tomonidan beriladigan kreditlar qarz oluvchining moliyaviy resurslarga bo'lgan turli ehtiyojlarini qondirish uchun o'z ixtiyori bo'yicha ishlatiladi. Hozirgi sharoitda ular qisqa muddatli kreditlash sohasida cheklangan tarzda qo'llaniladi, o'rta va uzoq muddatli kreditlashda umuman qo'llanilmaydi. Bizning amaliyotimizda banklar tomonidan biror maqsadni amalga oshirish uchungina kreditlar beriladi.

Kreditning qaysi maqsad uchun berilayotganligi kredit shartno-masida ko'rsatiladi va bank tomonidan berilgan resurslar qarz oluvchi tomonidan faqatgina shartnomada ko'rsatilgan masalani hal etish uchun ishlatiladi. (masalan, olinayotgan tovarlar bo'yicha hisoblashish, ish haqi to'lash va h.k. uchun) qarz oluvchi tomonidan ko'rsatilgan majburiyatlarning buzilishida bitimda ko'rsatilgan jarimalar qo'llaniladi.

Qarz oluvchilarning kategoriyalari. O'zining faoliyat doirasiga qarab, qarz oluvchi korxonaga va tashkilotlar bir necha guruhlariga bo'linishi mumkin. Masalan, agrar sohada kredit oluvchilar. Bu sohaning bo'lishi – maxsus kredit muasasalari - agrobanklarning, keyinchalik qishloq xo'jaligi sohasiga xizmat ko'rsatuvchi boshqa banklar Paxtabank, G'allabank va boshqa shu turdagi banklarning tashkil topishini belgilab beruvchi asos hisoblanadi. Bu banklar faoliyatining o'ziga xos xususiyati qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan bog'liq bo'lgan mavsumiylikni e'tiborga olgan holda kreditlash hisoblanadi. Yuqoridagi banklar hozirgi kunda prezidentimizning bank faoliyatini takomillashtirish borasidagi 2008-yil 8-oktabrdagi pq-975-son qaroriga muvofiq G'allabank nomi Qishloq qurilish bank nomiga o'zgartirildi.

Tijorat sohasi uchun kreditlar berish. Bu soha bo'yicha kreditlar savdo va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatuvchi xo'jaluk sub'ektlariga beriladi. Bu kreditlar tez aylanib kelish xususiya-tiga ega bo'lib, tijoratchilar ehtiyojini qondirishda katta ahamiyatga egadir.

Bank tomonidan kreditlar qimmatli qog'ozlar bo'yicha oldi-sotdi operatsiyalarini amalga oshiruvchi, fond birjasi vositachilari: broker, makler, diler firmalariga beriladi. Ko'chmas mulk uchun ipoteka kreditlari berilishi mumkin. Ular ham oddiy, ham ixtisoslashgan ipoteka banklari tomonidan beriladi. Bu hozirda xorij amaliyotida keng tarqalgan bo'lib, hatto ba'zi manbalarda kreditning alohida shakli sifatida namoyon bo'ladi. Bizning amaliyotimizda esa bu faqatgina 1996 yildan boshlab keng tarqala boshladi. Xususiylashtirish jarayonining rivojlanishi, mulkka egalik asoslarining qonunlashtirilishi ipoteka kreditini yanada ravnaq topishiga olib keldi.

Xalqaro amalyotda muddatida qaytmagan ssudalar yo'q, uning o'rniga qayta ko'rib chiqilgan (restrukturizatsiya qilingan) ssudalar mavjud. 1998-yil 9-noyabrdagi 242-sonli "Tijorat banklari tomonidan aktivlar sifatini tasniflash, ular bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar o'rnini qoplash uchun tashkil etiladigan zaxiralarni shakllantirish va ulardan foydalanish" tartibiga muvofiq barcha tijorat banklari o'z aktivlarini tasniflash va shubhali va harakatsiz aktivlar bo'yicha yuzaga kelishii mumkin bo'lgan zararlarni qoplash uchun yetarli zahirani tashkil etishlari shart. Kreditlarning 5 turga tasniflanishiga ham kredit munosabatlarini rivojlantirish va sifatini oshirish uchun ma'lum bir o'zgarishlar va qo'shimchalar kiritilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining «Aktivlar sifatini tasniflash, tijorat banklari tomonidan ular bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralarni shakllantirish va undan foydalanish Tartibiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi 2011-yil 10-sentyabrdagi 26/1-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2011 yil 22 sentyabrda 632-2-son bilan davlat ro'yxatiga olingan. Shunga ko'ra, quydagi jadvalda zaxiralarni tashkil etish me'zonlari berilgan (2-jadvalga qaralsin).

O'zbekiston bank amaliyotida kreditlarni tasniflash 5 guruhga bo'lib o'rganiladi, biz yuqorida kreditning turlari va bank krediti to'g'risida to'xtalganimizda bularga ham qisman to'xtalgan edik. Ushbu 5 guruhga bo'lib o'rganishning sababiga aniqroq to'xtaladigan bo'lsak, 1996 yilda mamlakatimiz banklari xalqaro auditdan o'tayotgan paytda xususiylashtirishning zaifligi aniqlangan natijada ushbu sektorga kreditlar davlat kafolati asosida beriladigan bo'ldi, shuningdek bankrotlikni kamaytirish hamda banklarning kapitali qisqarib bormasligi uchun kreditlar shunday guruhga bo'lina boshladi.

Xalqaro bank amaliyotida kreditlar dastlab standart sifatida ajratiladi. Kreditlar qaytmaslik ehtimoli tug'ilganda esa ular tasniflangan kreditlarga olib boriladi. Kreditlar tasniflanganda uylarga zaxira shakllanadi. Ushbu zaxiralarning barchasi soliqdan ozod etiladi

2-jadval⁷⁰

Kreditlarning tasniflanishi

O'zbekistonda	Xalqaro bank amalyotida
---------------	-------------------------

⁷⁰ 2011 yil 11-sentyabrdagi 632 -sonli "Tijorat banklari tomonidan aktivlar sifatini tasniflash, ular bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar o'rnini qoplash uchun tashkil etiladigan zaxiralarni shakllantirish va ulardan foydalanish" tartibi va internet malumotlari asosida tayyorlandi.

Kreditlar tasnifi	Zaxira (qaytarilmagan asosiy qarz summasiga nisbatan %)	Kreditlar tasnifi	Zaxira (qaytarilmagan asosiy qarz summasiga nisbatan %)
Yaxshi kreditlar (davlat kafolati)	0	Standart kreditlar	3-5
Standart kreditlar (30 kungacha)	10	Substandard kreditlar	35
Substandard kreditlar (90 kungacha)	25	Shubhali kreditlar	50
Shubhali kreditlar	50	Umidsiz kreditlar	100
Umidsiz kreditlar	100		

Mamlakatimiz bank amaliyotida esa zaxiralarning faqat balansdan chiqqan qismi ozod etiladi. Balansdan tashqarida hisob yuritiladigan kreditlarga “o’stirilmalik”⁷¹ maqomi beriladi va ular 5 yilgacha saqlanadi. Ushbu davrda kreditlarning asosiy qarzi yoki foizi qaytarilsa, ular daromad sifatida kirim qilinib soliqqa tortiladi.

Kreditlar soni bo‘yicha kreditlar quyidagi guruhlariga bo‘linishi mumkin:

- yagona bank beradigan kreditlar;
- sindikatlashgan kreditlar;
- parallel kreditlar. Amaliyotda bir bank tomonidan beriladigan ssudalar keng tarqalgan. Biroq ayrim mamlakatlar va integratsion guruhlar iqtisodiyotning rivojlanish imkoniyatiga qarab yagona bank imkoniyati yetmaydigan yirik kreditlarga ehtiyoj sezilmoqda. Bu esa banklarni guruhlariga qo‘shilib sindikatlashgan kredit berishga undamoqda.

Sindikatlashgan kreditda (konsorsium) 2 yoki undan ortiq birlashgan kreditorlar bir qarzdorga kredit taqdim etadi. Bir guruh bank-kreditorlar ma’lum muddatga bo‘sh turgan moliyaviy resurslarini kreditlash maqsadida bir obyekt yoki qarzdorga birlashtiradi. Bir yoki yetakchi bank-koordinatorlarning katta bo‘lmagan bir guruhi butun sindikat nomidan qarz oluvchi bilan kredit bitimi shartlari bo‘yicha muzokaralar olib boradi, kerakli summa yig‘ishini ta’minlaydi.

Amaliyotda ikki yoki undan ortiq banklar qarz oluvchiga parallel kreditlar berish holatlari ham bo‘lishi mumkin. Sindikatlashgan kreditdan farqli o‘laroq, bu holatda mijoz

⁷¹2004-yil 24-yanvardagi 1304-sonli “Foizlarni o’stirmaslik” to’g’risidagi Nizomga muvofiq.

bilan har bir bank alohida ish olib boradi, so'ngra esa umumiy kredit shartnomasini tuzadilar. Shunday qilib tijorat banklarining kreditlari qaysi belgilarga qarab tasniflanmasin, ularni berishdan maqsad mijozning mablag'ga bo'lgan ehtiyojini qondirgan holda bankka yuqori daromad keltirishni ta'minlashdan iborat.

Kredit shakllaridan (ayrim adabiyotlarda kredit turi deb kiritilgan) biri xalqaro kredit hisoblanadi, ushbu kredit shaklining o'zi ham bir necha turlarga bo'linadi va tasnif qilinadi. Kredit munosabatlarning xalqaro miqyosda (davlatlar o'rtasida) amalga oshirilishi xalqaro kreditning yuzaga kelishiga olib keladi. Xalqaro kreditga xalqaro miqyosda xarakat qiluvchi kredit munosabatlari to'plashi sifatida qarash zarur. Kreditning bu shaklini bevosita ishtirokchilari millatlararo moliya-kredit institutlari, tegishli davlat hokimiyati, kredit tash-kilotlari va alohida yuridik shaxslar bo'lishi mumkin.

Xalqaro kredit bir davlat, shu davlat banki, yuridik shaxsi tomonidan ikkinchi bir davlatga, uning banklariga, boshqa yuridik shaxslariga muddatlilik va to'lovlilik asosida beriladigan kredit hisoblanadi. Xalqaro kredit davlat va xalqaro institutlar ishtirok etgan munosabatlarda pul (valyuta) shaklida, tashqi savdo faoliyatida esa tovar shaklida bo'lishi mumkin.

Xalqaro kredit quyidagi xususiyatlari bilan xarakterlanadi:

- qarz oluvchi va qarz beruvchi sifatida davlat tashkiloti va muassasalari, banklar, kompaniyalar, xalqaro valyuta-kredit tashkilotlari qatnashadilar;
- qarzga olingan mablag'lar qarz oluvchi mamlakat tomonidan daromad keltiruvchi kapital sifatida ishlatiladi;
- qarz beruvchi mamlakatga to'lanadigan ssuda foizining manbasi qarz oluvchi mamlakat aholisi tomonidan yaratilgan milliy daromad hisoblanadi. Xalqaro kredit mahalliy kredit bilan bir qatorda fondlar aylanishining barcha bosqichlarida qatnashadi.

Xalqaro kredit xalqaro iqtisodiy munosabatlar doirasida quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

- mamlakatlar o'rtasida kapitalning qayta taqsimlanishini ta'minlaydi;
- kapitalning kontsentratsiyalashuviga va markazlashuviga sharoit yaratadi va bu jarayonni tezlashtiradi;
- har xil valyutalarda xalqaro hisob-kitoblarni olib borishda muomala xarajatlarini qisqartiradi.

Xalqaro kreditlar xarakteri bo'yicha – davlatlararo, xususiy, firma kreditlariga;

- shakli bo'yicha – davlat, bank, tijorat;
- tashqi savdo tizimida tutgan o'rni bo'yicha – eksportni kredit-lash, importni kreditlashga;
- muddati bo'yicha – qisqa muddatli-1 yilgacha, uzoq muddatli -5 yildan ortiq muddatga;
- ob'ekti bo'yicha – tovar va valyuta;
- ta'minlanganligi bo'yicha – tovar-moddiy boyliklar bilan yoki hujjatlar bilan ta'minlangan kreditlarga bo'linadi.

Xalqaro bank kreditlarining bank eksport kreditlari (xorijiy import qiluvchilarga xususiy tijorat banklari, maxsus tashqi savdo banklari tomonidan beriladigan kredit), evrokredit (yirik tijorat banklari tomonidan evrovalyuta bozori resurslari hisobidan evrovalyutada, 2 yildan 10 yilgacha bo'lgan muddatga, o'zgaruvchan foiz stavkada kreditlar berish) kabi turlari mavjud.

Xalqaro davlat krediti ikki tomonlama kelishuv asosida rivojlangan mamlakatlar tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlarga tovar yoki valyuta shaklida, foiz to'lash yoki foiz to'lamaslik sharti bilan, uzoq yoki qisqa muddatga beriladi.

Xalqaro valyuta - kredit tashkilotlarining kreditlari qisqa muddatli – 1 yilgacha (xalqaro valyuta fondining kreditlari), o'rta muddatli – 5 yilgacha (Jahon tiklanish va taraqqiyot banki) va uzoq muddatli – 20 yilgacha (Evropa tiklanish va taraqqiyot banki va boshqalar) kreditlar berishi mumkin. Xalqaro valyuta-kredit tashkilotlaridan olingan kreditlar xususiy tijorat banklaridan olingan kreditlardan (bu kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi yiliga 7-9% ni tashkil qiladi) arzonga tushadi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki kreditning har bir turning o'ziga xos xususiyati, afzalliklari va qulayliklari bor. Endi quyida mamlakatni modernizatsiya qilishda kredit munosabatlarini rivojlantirish, uning natijasi va undan kutilayotgan natijalarga to'xtalib o'tamiz

3. Banklarda kreditlash jaryonini tashkil qilishning huquqiy asoslari

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, banklar faoliyatining mustaqillashuvi va erkinlashuvi yuzaga keladi. Mustaqillik yillarida turli xil mulkchilik shakliga asoslangan korxonalar tashkil qilinmoqda. Xar bir iqtisodiy mustaqil korxonada aylanma mablag'larning vaqtinchalik etishmasligi yuzaga keladi. Xozirgi sharoitda mamlakatimizda mablag' jalb qilishning eng keng tarqalgan yo'li bu bankdan kredit olishdir. SHu sababli bozor iqtisodiyoti sharoitida kredit mexanizmining o'rni katta.

Bilamizki, tijorat banklarida kreditlash jarayonini tashkil etishning asosiy mezonlaridan biri uning huquqiy asosining qay darajada yaratilganidir. Respublikamiz tijorat banklari kredit faoliyatining huququy asosi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan bank faoliyatiga tegishli qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, Vazirlar Maxkamasining qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qabul qilingan me'yoriy hujjatlar to'plami hisoblanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida", "Banklar va bank faoliyati to'g'risida", "Aksiyadorlar jamiyati va ular huquqini himoya qilish to'g'risida", "Bank siri", "Aholi omonatlarini kafolatlash fondi to'g'risida"gi va boshqa qonunlarni keltirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 40 - moddasiga ko'ra, tijorat banklari yuridik shaxs bo'lib, ularning asosiy maqsadi foyda olishdir⁷². Faqat etarli miqdorda foyda oladigan bankgina o'z aksiyadorlariga dividend to'lashga, sarmoyani ko'paytirishga, faoliyat ko'lamini kengaytirishga, mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmat turlarini ko'paytirishga, filiallar tarmog'ini kengaytirish bilan birga bozorda o'z mavqeini ko'tarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

⁷²O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi Toshkent: -2003. –B. 300-308.

Banklar aholidan omonatlarni jalb qilib, o'zi tavakkal qilib riskni o'z bo'yniga olgan holda jalb qilingan mablag'larni kredit va investitsiya amaliyotlariga yo'naltiradi. Fuqarolik kodeksining 765 va 785- moddalariga hamda "Banklar va bank faoliyati to'g'risida" gi qonunning 39 - moddasiga asosan banklar jalb qilingan omonat va boshqa mablag'larning to'laligicha saqlanishini va o'z vaqtida to'lanishini ta'minlashlari shart.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni erkinlashtirish va isloh qilish siyosati iqtisodiyotning barcha tarmoqlari qatori bank tizimida ham keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Kreditlash jarayonini tashkil etish, korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy ahvolini tahlil qilish kabi masalalarni to'g'ri amalga oshirish kredit riski darajasini pasaytirishga, hamda bank kredit portfelini sifatini yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tijorat banklari bank tizimining muhim bo'g'ini bo'lib, kredit resurslarning asosiy qismi shu banklarda yig'iladi, hamda bu banklar huquqiy va jismoniy shaxslarga o'zlarining jozibador xizmatlarini ko'rsatadilar.

Tijorat banklarini kreditlash jarayonini tashkil etishdagi keyingi o'zgarishlarga "Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident Farmoni asos bo'ldi⁷³. Bu Farmonga asosan kreditlash borasida tijorat banklarining mustaqilligini oshirish, kreditlash jarayonini kengaytirish va takomillatirish masalalarini amalga oshirish ko'zda tutildi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir bankni siyosiy, iqtisodiy va ichki xususiyatlaridan kelib chiqqan holda faoliyat yuritishi amalda mustaqil bo'lishini talab etadi. Tijorat banklari shunga muvofiq o'zining mustaqil kredit siyosatini va kreditlash nizomini ishlab chiqishdi. Hozirgi kunda har bir tijorat banki kreditlash amaliyotini "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunga, kredit siyosatiga va boshqa me'yoriy hujjatlarga muvofiq amalga oshirmoqda. Bu esa barcha banklarning yagona umumiy me'yoriy hujjat asosida emas, balki mustaqil ravishda, o'z faoliyatining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, kreditlash jarayonini tashkil etishga imkoniyat yaratadi. Shundan kelib chiqqan holda, hozirgi kunda tijorat banklari kreditlash jarayonini tashkil etib, uni yildan-yilga takomillashtirib bormoqdalar. Tijorat banklari kredit operatsiyalarini amalga oshirish va tartibga solish uchun kredit siyosati juda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Tijorat banklari o'zlarining faoliyatlaridan kelib chiqib kredit siyosatini bir qatoromillar hamda turli me'yoriy va uslubiy qo'llanmalarga asoslangan holda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2000 yil 22 fevralda tasdiqlangan "Tijorat banklari kredit siyosatiga qo'yiladigan talablar to'g'risida" gi 429 – Nizomga asosan ishlab chiqadilar.

Tijorat banklarining kredit siyosatini maqsadi quyidagilardan iborat bo'ladi:

– yuqori sifatli aktivlarni tashkil etish va daromadlikning doimiy maqsadli darajasini taxminlash imkonini beradigan tavakkalchilikning faqat shunday xarakteriga yo'l qo'yish;

⁷³ "Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident Farmoni Toshkent, 2000. O'zbekiston bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami. - oshkent: O'zbekiston, 2003.

– yuqori sifatli kredit portfelini ta’minlovchi kredit xodimlarining yuqori malakali jamoasini tashkil qilish;

– bankning strategik maqsadlariga muvofiq keladigan iqtisodiy jihatdan istiqbolga ega, rentabelli loyihalarni moliyalashtirish uchun ssudalar berish;

– kredit resurslarini jalb etish muddatlaridan kelib chiqqan holda kreditlashni amalga oshirish;

– bank mijozlari bilan uzoq muddatli, daromad keltiruvchi munosabatlarni rivojlantirishga ko‘maklashish;

– yuqori darajada raqobatbardosh, biroq, kreditlashning asossiz, shuningdek, bank amaliyotida vaqtinchalik istiqboli bo‘lmagan usullaridan foydalanishdan chekinish.

Me’yoriy hujjatlarning ichida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarining kredit siyosati bo‘yicha belgilagan talablari muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2000 yil 22 fevralda tasdiqlangan “Tijorat banklari kredit siyosatiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida” gi 429 – Nizomga asosan banklarning kredit siyosatiga quyidagi talablar qo‘yilgan:

1. Kredit siyosatining maqsadi va strategiyasi
2. Vakolatlar darajasi va mas’uliyatni taqsimlash
3. Kredit turlari
4. Kreditlarning to‘planishi
5. Kreditlarni to‘lash
6. Qarzdorlarga doir moliyaviy axborot
7. Garov ta’minotiga nisbatan qo‘yiladigan talablar
8. Kredit monitoringiga nisbatan qo‘yiladigan talablar
9. Foiz stavkalari
10. Bog‘liq shaxslar bilan bajariladigan operatsiyalar
11. Ko‘zda tutilmagan holatlar moddolari(balansdan tashqari moddalar)
12. Kredit portfelini audit qilish
13. Bank Boshqaruvi va Kengashiga taqdim etiladigan hisobotlar

Bugungi kunda har bir tijorat banki o‘zining kredit siyosatiga ega bo‘lib, uni doimiy ravishda takomillashtirib borishga e’tiborni qaratishlari lozim.

Tijorat banklari faoliyatida kredit risklarini kamaytirish hozirgi kunda kredit siyosatining bosh maqsadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Kreditlash jarayonida kredit riski darajasini pasaytirish maqsadida Markaziy bankining 1998 yil 2 dekabrda 557-sonli “Bir qarzdor yoki o‘zaro daxldor bo‘lgan qarzdorlar guruhiga to‘g‘ri keluvchi riskning eng yuqori darajasi to‘g‘risida”gi nizomida keltirilgan quyidagi talablarga rioya etiladi:

-tijorat banklarining bir qarz oluvchiga to‘g‘ri keladigan ta’minlangan kreditining eng yuqori miqdori bankning birinchi darajali kapitaliga nisbatan 0,25 qilib belgilangan;

-tijorat banklarining bir qarz oluvchiga to‘g‘ri keladigan ta’minlanmagan kreditining eng yuqori miqdori bankning birinchi darajali kapitaliga nisbatan 0,05 dan oshmasligi lozim.

Shuni alohida aytish lozimki, xalqaro amaliyotda bir qarzdorga beriladigan kredit riskini kamaytirish maqsadida sinditsiyalashgan kreditlar turidan foydalaniladi.

Bank kapitalining 10 foizidan oshadigan bitta mijozga beriladigan kreditga yirik kredit deb aytiladi. SHuni ta'kidlash lozimki, bank uchun "Yirik" toifaga kiradigan va bir qarz oluvchiga beriladigan kreditlar miqdorini shu qarz oluvchining o'z mablag'lari miqdoridan oshmaslik tavsiya etiladi.

Tijorat banklari tomonidan beriladigan yirik kreditlarning umumiy miqdori ko'rsatkichining eng yuqori darajasi regulyativ kapitalga nisbatan 8 barobar qilib belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida qator me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqqan.

Imtiyozli kreditlash Jamg'armasi hisobidan beriladigan kreditlar "Tijorat banklari tomonidan kichik va o'rta biznes sub'ektlari, dexqon va fermer xo'jaliklariga imtiyozli kreditlash maxsus jamg'armaning mablag'lari hisobidan kredit berish tartibi to'g'risida" gi 2000 yil 19 maydagi nizomiga muvofiq beriladi.

Tijorat banklarida imtiyozli kreditlash jamg'armasi bank foydasidan (soliq to'langandan so'ng), 25 foiz mikdorida ajratmalar o'tkazish hisobiga shakllanadi. Bunda ajratmalarning 85 foizi filial ixtiyorida qoladi. Jamg'armaga chorakda bir marta, birinchi oyining 10 sanasidan kechikmasdan, bank Biznes-rejasida ko'zda tutilgan choraklik sof foydaning rejalangan summasidan ajratmalar o'tkaziladi.

Mikromoliyaviy xizmatlar bozorini rivojlantirish, fuqarolarning va tadbirkorlik sub'ektlarining ishchanlik faolligini oshirish uchun ularning moliyaviy mablag'lar hamda xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Mikromoliyalash to'g'risida"gi qonuni 2006 yil 15 sentyabrda qabul qilindi. Ushbu qonunga asosan, mikrokredit, mikroqarz hamda mikrolizing tushunchalari ifoda etilgan. Mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar qonunga muvofiq mikromoliyaviy xizmatlarni amalga oshiradilar.

Kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab quvvatlash mexanizmini takomillashtirish hamda kredit berish jarayonini imkon qadar soddalashtirish va qulay bo'lishini ta'minlash maqsadida qator me'yoriy hujjatlar muvofiqlashtirildi va yangi tahrirda yagona, "Tijorat banklari tomonidan davlat maqsadli jamg'armalari kredit liniyalari hisobidan mikrokreditlar tartibi to'g'risida"gi Nizom, "Kichik tadbirkorlik sub'ektlarini milliy valyutada kreditlash tartibi to'g'risida" gi Nizomlar ishlab chiqildi. Bundan asosiy maqsad, banklarda hujjatlar sonini qisqartirish va tadbirkorlar uchun kreditlash amaliyotidan foydalanishda qulaylik yaratishdir. CHunki hujjatlar sonining ko'p bo'lishi, ularni o'rganish va amaliyotda qo'llash jarayonida ma'lum chalkashliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 maydagi "Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2344-sonli Qarori qabul qilindi.

Mazkur Qaror bank tizimi moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini yanada oshirish, tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash va oshirish uchun qulay muhitni yaratish, banklar investitsion faolligini rag'batlantirish hamda bank faoliyatini umumqabul qilingan xalqaro normalar va standartlarga muvofiq yanada yuqori darajalarga ko'tarishni ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Mazkur Qaror bilan banklar moliyaviy barqarorligi va likvidligi hamda ular resurs bazasini yanada oshirish bo'yicha Kompleks chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi.

Unga ko'ra:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 28 iyuldagi PQ-1166-sonli Qarori bilan tijorat banklariga berilgan, ularning kredit portfelida investitsion kreditlar ulushidan kelib chiqqan holda differensiyalashtirilgan stavkalar bo'yicha foyda solig'idan imtiyozlarni 2020 yil 1 yanvarga qadar uzaytirish;

- tijorat banklarining Imtiyozli kreditlash maxsus jamg'armasi mablag'lari hisobidan kreditlar berishdan oladigan daromadlari ana shu mablag'lar mazkur Jamg'armaning resurslarini ko'paytirishga maqsadli yo'lantirilgan taqdirda 5 yil muddatga daromad solig'idan ozod qilinishi belgilab berilgan.

Bugungi kunda mamlakatimiz tijorat banklarida kreditlarni tasniflash O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 14.07.2015 y. №2696-son bilan ro'yxatga olingan va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi tomonidan 13.06.2015 y. № 14/5son bilan tasdiqlangan "tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi"gi nizomga muvofiq olib boriladi. Tijorat banklarining aktivlari sifatiga ko'ra «standart», «substandart», «qoniqarsiz», «shubhali» va «umidsiz» toifalarga tasniflanadi. Mazkur Tartibga muvofiq barcha tijorat banklari o'z aktivlarini tasniflash hamda shubhali va harakatsiz aktivlar bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash uchun etarli bo'lgan zaxirani tashkil etishi shart.

Ayni vaqtda respublikamiz tijorat banklarining kreditlash jarayonini samaradorligini oshirish borasida sezilarli muammolar mavjud. Xususan mamlakatimiz bank tizimida kreditlash shakllaridan to'laqonli tarzda foydalanilmayotganligi, mijozlarning kreditga layoqatliligi baholash tizimida sezilarli kamchiliklarning mavjudligi tijorat banklari kredit siyosatini tadqiq qilishni, kredit siyosati asosida kreditlash jarayonini olib borish asoslarini o'rganishni amaliy materiallarni tahlil qilishni va shu asosda mavjud kamchiliklarni aniqlashni, ularni bartaraf qilish yo'llarini izlab topishni hamda ularni amalda qo'llagan holda banklar tomonidan beriladigan kreditlarning samaradorligini oshirishni ko'zda tutadi.